

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TARIX VA UNI O‘QITISH METODIKASI”  
Kafedrasi**

**F.O. Ismatullayev**

# **JAHON TARIXI**

**FANI BO‘YICHA  
MA‘RUZA MATNI**

## **Ma'ruza mavzulari**

### **Ma'ruza №1**

#### **Mavzu: Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi. Antropogenez jarayoni.**

##### **Reja:**

1. O'tmish yodgorliklari tarixiy manba, ma'naviy qadriyatdir
2. Odamning kelib chiqish jarayoni va avstralopitekklar, pitekanthrop, sinantrop, geydelberg kabilarning shakllanishi.
3. Mehnat va mehnat qurollarining roli, fikr, nutqning vujudga kelishi.
4. Zamonaviy odamning paydo bo'lishi, irqning vujudga kelishi. Antropogenez jarayonining yakunlanishi.
5. Ibtidoy jamoa tuzumining parchalanish davri.

#### **1.O'tmish yodgorliklari tarixiy manba, ma'naviy qadriyatdir.**

Ibtidoiy jamoa davri insonning dastlab tabiat bilan kurashi, sivilizatsiya va madaniy manbalar tarixi bo'lib, bu davrni o'rganmasdan jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini anglash, to'g'ri tasavvurga ega bo'lish, hozirgi zamon xalqlarini tushunish qiyin.

Insoniyat tarixidagi voqea-hodisalarni tahlili va tiklashda tarixchi olimlarning xizmatlari katta. Shu bilan birgalikda yordamchi tarix fanlari: arxeologiya, etnografiya, antropologiya, tarixiy tilshunoslik kabi fanlar yutuqlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or fan yutuqlari insoniyat olamining taraqqiyotidagi o'ziga xos jihatlarni asoslab berish bilan bir qatorda tarixiy manba sifatida xizmat qiladi.

Tarixiy manbalar — o'tmishda odamzod qo'li bilan bunyod etilgan tarixiy jarayon izlarini o'zida aks ettiruvchi va kishilik jamiyati tarixini o'rganish imkonini beruvchi hozirgi kungacha saqlangan har qanday osori atiq, yozma manba, ma'naviy (til, e'tiqod, urf-odat) qadriyatlar. Manbalar tarixiy tadqiqotlarning asosiy poydevori hisoblanadi. Ularni keng ko'lamda sinchiklab o'rganmasdan turib kishilik jamiyatining tadrijiy taraqqiyoti tarixini tahlil qilib bo'lmaydi. Manbalarning xili nihoyatda ko'p, ammo ma'lum darajada aniq va to'la ma'lumotlarga ega. Manbalar majmuasi cheklangan. Yozuv hali yuzaga kelmagan ibtidoiy jamoa davridan faqat moddiy madaniyat qoldiqlari (turar joy, makon, manzil, mehnat qurollari) saqlangan xolos. Ulardan, asosan, ibtidoiy jamiyat davri hayotini, qisman qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixini tadqiq etishda foydalaniladi.

Ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik), savdo-sotiq munosabatlari yuzaga kelib rivoj topgan tsivilizatsiya davri tarixini o'rganishda esa yozma manbalar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bu davr manbalarning soni va sifati kishilik jamiyatining

ma'naviy kamoloti, xususan, yozuv va xat-savodning yuksakligi-yu, qanchalik tarqalgani va yozma manbalarining saqlanish holatiga bog'liq bo'lgan. Shu boisdan bizning davrimizgacha, ayniqsa, qadimgi yozma manbalar oz saqlangan bo'lsa, keyingi tarixiy davrlar uchun xos hisoblangan tosh, sopol, qayin po'stlog'i, pergament va qog'ozga bitilgan, shuningdek, bosma asarlar keng tarqalgan.

**Ibtidoiy jamoa tuzumi haqidagi fanning rivojlanish tarixi.** Yozma tarixiy manbalar kishilik jamiyatining ijtimoiy va shaxsiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Ular 8 turkumga bo'linadi: yozma, ashyoviy, etnografik, lingvistik, toponomik, og'zaki (folklor), kino, fono, fotomateriallar. Manbalarni turkumlarga bo'lish, ularning yuzaga kelishi, tadqiq qilish, mualliflarini aniqlash, haqqoniyligi va to'liqligini belgilash kabi masalalar bilan manbashunoslik fani shug'ullanadi.

Insoniyat taraqqiyotida eng uzoq davom etgan davr qadimgi tosh davri – paleolit hisoblanadi. “Paleolit” so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, “paleos”–

“qadimgi”, “litos”–“tosh”, ya'ni qadimgi tosh davri degan ma'noni beradi. Paleolit davri xronologik jihatidan milloddan avvalgi 2 million yillikdan to 12 ming yillikkacha davom qiladi va uch davrga– ilk, o'rta va so'nggi davrlarga bo'linadi.

Paleolitning uch davri ham o'zining rivojlanish darajasiga qarab, mehnat qurollaridagi o'zgarishlar asosida turli davrlarga bo'linadi. Ilgari ilk paleolit davri shellgacha, shell, ashel davrlariga bo'lingan edi. Lekin keyingi davrlarda qilingan tadqiqotlar natijasida, uni olduvay va ashel davrlariga bo'lish muvofiq deb topildi. Chunki ilgarilari olduvay davri yodgorliklari kam bo'lib, uni davr tariqasida ajratish imkoni bo'lmagan. Shuning uchun shell va ashel davrlari qo'lcho'qmorlaridagi vazn jihatidan farqini e'tiborga olib ularni davrlarga ajratishgan. Keyingi yillarda esa, olduvay davri mehnat qurollarining ko'plab topilishi uning davr sifatida ajratib ko'rsatishga imkon tug'dirdi.

Tarix fanining bir yo'nalishi tarixshunoslik (istoriografiya) bo'lib, uning vazifasi har bir davr tarixining o'rganilganlik darajasini tadqiq va tahlil qilishdan iborat. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixini o'rganishda Gerodot, Ksenofont, Strabon, Tsezar va Tatsit, Demokrit, Lukretsiy Kar, Foma Akvinskiy, Smit va Rikardo, Baxofen, Morgan, Spenser, Teylor, Lebbok, Bastian, Mak – Lennan, Lippert juda katta hissa qo'shishgan.

Sovet etnograflari dialektik va tarixiy materializm mavqeida turib, inqilobgacha bo'lgan etnografiyaning boy merosiga tanqidiy nazar bilan qarab, uni qaytadan baholadilar va shu merosni yangi tadqiqotlar bilan boyitdilar. Sovet etnograflar maktabining asosiy tadqiqot ob'ekti – konkret xalq – o'zi yaratgan madaniyatning ijodkori va uning yoyuvchisidir. Ibtidoiy jamoa tuzumi tarixi ham boshqa davrlarga nisbatan keng o'rganilgan. Bu davrga oid makonlarning tadqiq qilinishi o'rta paleolit davri xo'jalik madaniy

hayotining barcha tomonlarini yoritdi. Bu davr O'.Islomov, K.Kraxmal, A.Okladnikov, V.Ranov, M.Qosimov, R.Sulaymonov, T.Mirsoatov, N.Toshkenboev, M.Jungorov, Z.Abramova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

## **2.Odamning kelib chiqish jarayoni va avstralopitekalar, pitekanthrop, sinanthrop, geydelberg kabilarining shakllanishi.**

Ibtidoiy odamlarning paydo bo'lishidan to davlat yuzaga kelguniga qadar bo'lgan davr ibtidoiy davr hisoblanadi. Borliq 15 milliard yil oldin shakllana boshlagan. Yerning paydo bo'lishi 4,5 milliard yil oldin, rdan hayotning ilk namunalari 3,8 milliard yil oldin paydo bo'la boshlagan.

Jamoa bo'lib mehnat qilish va jamoa bo'lib istemol qilish ibtidoiy jamiyatning o'ziga xos xususiyatidir. Eng oddiy mehnat qurollariga ega bo'lgan ibtidoiy odam yakka-yakka holda tabiat kuchlariga va hayvonlarga qarshi kurasha olmas edi. Shuning uchun ibtidoiy odamlar jamoa ravishda mehnat qilib, o'z mehnatlarining mahsulini teng taqsimlar edilar. Ibtidoiy jamoa iborasi juda buyuk kashfiyot hisoblanib, u birinchi navbatda etnograf olim L. G.

Morgan nomi bilan bog'liq. L. G. Morgan o'zining «Qadimgi jamiyat» (1877) asarida juda boy etnografik materiallarga asoslangan holda ilmiy olamga birinchi bo'lib, kishilik tarixining dastlabki davlatchilikka qadar bo'lgan davrini ikki bosqichga bo'lgan: 1-bosqich «ibtidoiy to'da», 2-bosqichi esa «ibtidoiy urug'chilik jamoasi» deb atadi. Ibtidoiy to'da bosqichi o'z mazmun va mohiyati bilan ilk ajdodlarimizning «hayvonot» olamidan ajralib, insoniyat olamiga o'tish davri bilan harakterlanadi. L.G.Morgan bu bosqichni Ibtidoiy jamoaga kiritmagan.

Arxeologik jihatdan ilk va o'rta paleolit davriga muvofiq keluvchi ibtidoiy to'da davrida yashagan ajdodlarimizning odamsimon maymun podalariga xos xatti-harakatlari, ularni fan olamida eng oliy tipdagi odamsimon maymunlardan tarqalgan, degan tasavvurni keltirib chiqardi. Aslida, hech bir odamsimon maymunlardan (shimpanze, gibbon, orangutan, gorillalardan) odam tarqalmagan. Odamzotning ilk ajdodlari o'zlarining oziq tishlaridagi naqshlari va bosh miyasining maymun bosh miyasidan kattaligi bilan farq qiluvchi maymunsimon odam ajdodi (Goranna driopiteki)dan tarqalgan. Bu tipdagi odamzot ajdodlarining qoldiqlari Janubiy Afrikada *zinjanthrop*, Indoneziyaning Yava orolida *pitekanthrop*, Xitoyda *sinanthrop*, O'zbekistonda *fergantrop*, Germaniyada *neandertallar* nomlari ostida topib o'rganildi. Fan olamining xulosasiga ko'ra, ular to «aqli odam» («Homo sapiens») holatiga kelguniga qadar (mil.av. 40—35 ming yillikka qadar) o'zining tadrijiy shakllanish taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ular eng oddiy tosh qurollardan va olovdan foydalanishni o'rgandilar.

Madaniyatning dastlabki kurtaklari vujudga keldi, ma'noli nutq paydo bo'ldi. Inson asta-sekin biologik jihatdan takomillasha bordi, eng ibtidoiy (pitekanthrop, sinanthrop va neandertal) tiplari yuksak taraqqiy etgan va ijtimoiy mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan odam darajasiga yetdi. Avvalo mehnat, go'shtni pishirib iste'mol qilish, so'ngra so'zlash kabilar muhim sabab bo'ldiki, bu sabablar ta'siri ostida eng ilk ajdodlarimizning miyasi sekin-asta aqli odam miyasiga aylandi. Ilk va o'rta paleolitdan uning so'nggi bosqichiga o'tish davrida tosh qurollarni yasashda, ovchilikda ancha yutuqlarga erishildi.

## **3. Mehnat va mehnat qurollarining roli, fikr, nutqning vujudga kelishi.**

Olduvay darasi 30 mil uzunlikdagi chuqur dara bo'lib, shamol oqinmi odam qoldiqlari mo'l bo'lgan vulqon qoyalarining ko'p qatlamlariga ta'sir o'tkazgan. S.Luis va B.Lekey o'tmish odam qoldiqlarini o'rgangan paleontology olim bo'lib, S.Luis Kembrij universitetida dars beradi.1931-yilda LekeyOlduvaybo'ylab, arxeologxisoblanganxotini Merry Nicol Leakey bilan izlanishishlarini boshlagan. Kembrijo'qituvchilari odamzodning Afrikadan kelib chiqishini rad etgan bo'lsa ham Leakeylarning ishlari ular adashganini isbotlabberdi. Ko'plab barbod bo'lgan ishlar va moliyaviy muammolardan keyin, Mary Leakey o'zining izlanishlariga ishonmay qo'ydi. Qachonki, deyarli umuman butun bosh suyagiga duch kelguncha. Leakeylar unga Aziz bola deb nom berdilar<sup>1</sup>.

Ibtidoiy to'dadan so'nggi paleolitga o'tish davrida ijtimoiy munosabatlar va odam qiyofasi ancha o'zgardi va taraqqiy etdi. So'ngi palolit davrining eng muhim kashfiyotlaridan biri bu - odam tomonidan tasviriy san'atning paydo bo'lishidir. 1879 yil Ispaniyaning Altamir g'oridan bundan o'n ming yillar avval g'oyaga uyib ishlangan suratlar topildi. Eng ahamiyatli tomoni hayvonlarning chizilgan ranglari qizil, sariq, qora, jiggarangni yaxshi saqlangligidir. Keng jamoatchilik ushbu noyob yodgolikning 1906 yildagina e'tirof etdi. Hozirgi(2010yil holatiga) Yevropa xududlarining o'zida aynan shunga o'xshash ellik mingdan ortiq sur'at namunalari topilgan.

Yuqori paleolit davri odamlari xo'jaligining asosini ovchilik tashkil etgan. Asosan bug'u, yovvoyi ot, sirtlon, arxar, qulon, tuya kabi yirik hayvonlar ovlangan. Daraxt mevalari, don va ildiz mevali o'simliklarni ham terib-terib ovqat sifatida ishlatganlar. Baliqchilikning ham dastlabki kurtaklari paydo bo'lgan. Bu davrda ov va mehnat qurollarining turi ko'paygan. Toshqurollari ishlash uslubi o'zgargan. Bunga esa tosh qurollarini yasash texnikasidagi yangilik sabab bo'lgan. Yorma texnika usuli ilk bosqichda keng qo'llanilgan bo'lsa, keyingi bocqichlarda retushlash usuli ixtiro qilingan. Bu qurollar turini ko'paytiribgina qolmay, ularni ixchamlashtirishga ham olib kelgan. Retushlash deganda chaqmoqtosh qurolni suyakdan yasalgan ingichka va uzun tayoq bilan bir necha ming marta urib yupqa tosh paraqalar uchirib, kerakli shaklga keltirish tushuniladi. Bu usul juda murakkab bo'lib, salgina ehtiyotsizlik qilinsa, qurol sinib ketgan. O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ibtidoiy jamoaning har bir davriga mansub mehnat qurollari Farg'ona vodiysidagi Selungur g'orida va boshqa joylarda topildi. Arxeolog A. P. Okladnikov tomonidan 1938-39- yillarda tekshirilgan *Teshiktosh g'ori* yodgorliklari ham mazkur davrning must'e bosqichiga mansubdir.

Retushlangan nukleuslar to'g'ri pichoqsimon shaklga kirgan va yupqalashgan. Pichoqlar paydo bo'lgan. Bu davrda eng muhim mehnat qurollari tosh kesgich va tosh qirg'ich bo'lgan. Tosh kesgichdan qattiq materiallarni ishlashda foydalanilgan. Tosh qirg'ich uzunchoq parrakcha bo'lib, bir uchi yoysimon tig' bo'lgan, u muste davridagi qirg'ichdan ancha

---

<sup>1</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.13.

farq qilgan, undan yumshoq materiallarni ishlashda foydalanganlar. Asosiy ov quroli chaqmoqtoshdan yasalgan nayza bo'lgan.

Teshiktosh g'or makoni butun O'rta Osiyoda muste davrining eng nodir namunasi hisoblanadi. U Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi Boysun tog'ining janubiy yon bag'ridagi Turgandaryoning Zovtalashgan darasida, dengiz sathidan 1500 m balandlikda joylashgan. G'or shimoliy-sharqqa qaragan bo'lib, kengligi old qismida 20 m, chuqurligi 21 m, balandligi 9 m. bo'lgan. G'or 1938–1939 yillarda Parfyonov va

A.P.Okladnikov tomonidan tekshirilgan va tadqiqotlar natijasi 1939–1949 yillarda nashr qildirilgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida g'orda 5ta madaniy qatlam aniqlangan. Ulardan toshdan yasalgan mehnat qurollaridan 339 tasi, 2520 ta singan, uchrindi tosh qurollar, 101 ta turli shakldagi nukleuslar topilgan. Shu jumladan, o'tkir uchli sanchiqlar, tosh pichoqlar, paraqalar, sixcha, qirg'ich, kurakcha, chopper, chopqi va hako'zolar. Teshiktoshdan topilgan mehnat qurollarning aksariyati qirquvchi va tarashlovchi vazifalarni bajargan. Bu yerdan yana faqat neandertal odamiga xos rapidasimon nukleuslardan (o'zaklar) bir necha nusxa topilgan. Ularning diametri 10–15 smni tashkil etgan. Bu kabi o'zaklardan neandertallar tosh bolg'alar yordamida uchburchaksimon uchrindilar uchirib olganlar. Uchrindilar o'tkir uchli bo'lganligi sababli ulardan terilarga ishlov berish, yog'ochlarni kesish, randalash kabi ishlarda foydalanganlar. Bunday mehnat qurollar eng ko'p Teshiktoshdan topilgan. Teshiktosh g'orining eng qimmatli topilmasi yuqorida qayd qilib o'tilgandek, neandertal odamning suyak qoldiqlarining topilishidir. U eng pastki madaniy qatlamdan topilgan. Bular kalla suyagi, yelka va yo'g'on o'ng son suyagining parchalari, ikkala kichik boldir suyagi hamda umurtqa pog'onasining ba'zi qismlaridir. Bu voqea o'z vaqtida antropologlarda juda katta qiziqish uyg'otdi. Antropologlar xulosasiga ko'ra, neandertalning bosh suyagining hajmi 1490 sm.kub bo'lgan. Neandertal bola suyagining o'rganilishi 1970 yilgacha davom etdi. Taniqli antropolog olim akademik V.A.Alekseev antropologiyaning keyingi davr yutuqlariga tayanib, Teshiktosh odamini qayta o'rgandi va uning 10 yashar bola emas, balki ayol kishi ekanligini, Yevropa va Old Osiyo guruhiga kirishini ko'rsatdi.

**4.Zamonaviy odamning paydo bo'lishi, irqnlarning vujudga kelishi. Antropogenez jarayonining yakunlanishi.** So'nggi paleolit davrida suyak va shoxdan yasalgan buyumlar — igna, bigiz, qarmoq, kamon o'qi, turli xil bezaklar va boshqalar keng qo'llanilgan. Bu davrda parma ham paydo bo'ldi. Ibtidoiy to'da o'rnini ijtimoiy jamoaning ancha mukammallashtgan shakli — ona urug'i jamoasi (matriarxat) oldi. Bir urug' ichida nikoh qilish man etildi, natijada ibtidoiy odamlarning jamoa bo'lib uyushishi kuchaydi.

Irqlar paleolitning so'ngi davrlarida bundan 40-30 ming yil avval odam Yer yuzini egallashi bilan shakllana boshladi. Ularning izlarini Ispaniya, Frantsiya hududlarida ko'rish mumkin (4-5-rasmlar). Har bir irq o'ziga xos irsiy belgilari

bilan farqlanadi. Hozirgi odamlar 3 ta ekvatorial (negroid, avstraloid), yevroosiyo (yevropoid), osiyo-amerika (mongoloid) yoki 5 ta (negroid, avstraloid, yevropoid, mongoloid, amerkanoid) yirik irq larga bo'linadi. Har bir irq ichida kenja irq bo'ladi. Masalan: ekvatorial irq negr, negrill, bushmen, avstraliya va boshqa irq larga; yevropoid irq esa Atlantika-Boltiq, Hind-O'rta dengizi, O'rta Yevropa va boshqalarga; mongoloid irq Shimoliy Osiyo, Arktika, Janubiy Osiyo va boshqalarga ajraladi.

Barcha irq Homo sapiensga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarga ega: ularning barchasi biologik va psixik jihatdan teng bo'lib, evolyutsion rivojlanishning bir xil pog'onasida turadi. Barcha irq larning madaniyat va tsivilizatsiya eng yuqori darajada rivojlanishida bir xil imkoniyatga ega ekanliklari irq larning bir xil qobiliyatga ega emasligi, ular evolyutsiyaning turli bosqichlarida turganligi to'g'risidagi irqchilik g'oyalarini inkor etadi. Odam irqni "millat", "til guruhi" tushunchalari bilan aralashtirib yubormaslik lozim. Bitta millat tarkibida har xil irq va aksincha, bitta irqning o'zi turli millatlar tarkibiga kirishi mumkin.

Topib o'rganilga odam qoldiqlari, dastlabki o'rganishlar shuni ko'rsatadiki Homo Sapiens ya'ni zamonaviy odamlar bundan 200 ming ilgari Afrikaning kichkina hududida paydo bo'lgan va taxminan 100 ming yil ilgari Afrikaning tashqarisiga ko'chishgan<sup>2</sup>.

**5.Ibtidoiy jamoa tuzumining parchalanish davri.** Arxeologik jihatdan so'nggi paleolit, mezolit va neolit davriga muvofiq keluvchi matriarxat davrida urug'chilik jamoasi ancha uyushqoq ijtimoiy-iqtisodiy kurtak bo'lib, kishilar birgalikda mahsulot tayyorlar va iste'mol qilar edilar. Ular ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanganlar, keyinchalik esa motiga bilan er haydab, dehqonchilik qilib va uy hayvonlarini boqib tirikchilik o'tkazishgan. Matriarxatning rivojlangan davrida mehnat taqsimoti tufayli xo'jalikda va jamiyatda ayollar muhim rol o'ynay boshladi. Ibtidoiy guruh-guruh oiladan aloxida xo'jalikka ega bo'lmagan beqaror juft-juft oilaga o'tildi. Matriarxat davrida qishki turar joy, kiyim va bezaklar, qurolning murakkab turlari (o'q yoy, sanchiq va b.), terini qayta ishlash, mato to'qish, kulolchilik vujudga kela boshladi.

Ilk paleolitning so'ngida boshlangan muzlik davri, g'arb olimlarining fikricha Mezolit ya'ni o'rta tosh davri taxminan er.avv. 10 minginchi yilgachadavom etgan. Muzlik davrida issiq va sovuq fazalar davrlari almashib turgan. Harbir faza 40000 va 100000 yildan davom etgan.

Mezolitdavrineganyanabirmuhimkashfiyotibu – itningqo'lgao'rgatilishidir. Buningtarixiyasosinitadqiqotchilar 12 ming yil oldin hozirgi Iroq xududida qo'lga o'rgatilgan it qoldiqlari topilganibilanko'rsatishadi. Yovvoyi qo'y va echkilarni insonlar asta sekinlik bilan qo'lga o'rgatila boshlangan. Ular ov jarayonida hayvonlarning bolalarini olib kelib parvarish qilganlar va ular voyaga yetib, ko'paya boshlagan. Bu keyinchalik chorvachilikni shakllanishiga sabab bo'lgan.

---

<sup>2</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.3 (55).

**Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish davri va metallurgiya (mis, jez, temir) ning vujudga kelishi.** Neolit davri iqlimi hozirgi iqlim sharoitiga yaqin bo'lgan. O'rta Osiyoning janubiy—g'arbiy hududining iqlimi issiq, dehqonchilik uchun qulay bo'lgan. Markaziy va shimoliy viloyatlarda ham iqlimning isishi yaylov va cho'l zonalarini vujudga keltirgan. Bu esa neolit davri jamoalarining hudud bo'ylab keng tarqalishiga olib kelgan.

Shuningdek, ular mezolit davridagidek daydi hayot kechirmay, o'troq turmush tarziga o'tadilar. Doimiy yerto'la, kulba va loy, guvaladan qurilgan uylarda yashay boshlaydilar. O'troq turmush tarzi janubiy hududlarda dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'l mintaqalarda esa o'troq ovchilik xo'jaligining qaror topishiga olib keldi. Keyinchalik uning zamirida chorvachilik paydo bo'ldi.

Neolit davrida toshni ishlash texnikasida yangi usullar - silliqlash, pardoqlash, arralash va parmalash usullari ixtiro etiladi. Bu esa ibtidoiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada tezroq rivojlanishiga olib keldi. Lekin bu usullar hamma qurollarga nisbatan qo'llanilavermas edi. O'tkir tig' beruvchi qurollar yasashda hali kertma va yorma uslubidan foydalanilar edi. Mezolit davrida o'q-yoy kashf etiladi, it, bug'u qo'lga o'rgatiladi.

Ilk neolit davrida makrolit qulollar keng tarqalgan. Ular og'ir katta hajmdagi chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar bo'lgan. Qurollarni silliqlash keyingi neolit davriga to'g'ri keladi. Qurollar maxsus tosh ustidagi qumtosh taxtada silliqlangan. Tosh taxta tayanch vazifasini o'tagan. Qurollar ko'l kvarts qumi bilan uzoq vaqt ishqalash jarayonida silliqlangan. Silliqlangan tosh qurollar neolit oxiriga kelib parmalangan.

Unda suyak parma vazifasini bajargan. Suyak parmani qalqon ipiga o'rab aylantirganlar, unda suyakning uchiga nam qum sepib turilgan. Parmalangan qurolga dasta o'rnatish mumkin bo'lgan.

Oldingi davrlarda ro'zg'or buyumlar yog'ochdan yoki novdadan yasalgan bo'lsa, ilk neolit davrida dag'al, chala kuydirilgan sopol buyumlar tarqaldi. Ularning tuxumsimon tagi dumaloq bo'lib, maxsus chuqurchalarga o'rnatilgan. So'nggi neolit davriga kelib sopol buyum shakli o'zgaradi. Tuvaksimon, osti tekis idishlar paydo bo'lib, ular maydalashadi. Idishlar loy lentalar asosida qo'lda ishlangan. Idishlar naqshi ham oddiydan murakkabga o'zgarib boradi. Shuningdek, idishlarda tarnovsimon yoki trubasimon jo'mraklar paydo bo'ladi. Idishlar bir yarusli xumdonlarda pishirilgan. Lekin idishlar qo'pol, mo'rt bo'lgan.

To'qimachilik, hunarmanchilikning vujudga kelishi ham neolit davrining buyuk kashfiyoti hisoblanadi. Neolit davri odamlari hayvon yungi va o'simlik tolasidan mato to'qishni o'rganganlar. Shuningdek, yigirilgan ipdan baliq to'ri ham to'qilgan. Bu esa baliq ovlash ahamiyatini keskin ravishda oshirib yuborgan. Bunga suvda suzuvchi qayiqlar yaratilishi ham imkon berdi.

Bronza davri yutuqlaridan biri bu juft oilaning vujudga kelishi bo'lib, u urug' ichida oilaviy munosabatlarni izga tushishiga olib keldi va jamiyat

taraqqiyotini yanada olg'a siljitdi. Bronza davriga kelib ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi, ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi xususiyl xujalikning paydo bo'lishiga, urug'ning yemirilishiga, o'ziga to'q yuqori tabaqaning ajralib chiqishiga olib keldi, bu tabaqa dastlab harbiy asirlar, so'ng qashshoqlashgan qabiladoshlarini qullarga aylantirdi.

Mehnat qurollari yasash, chaqmoqtosh xom ashyosini qidirish yo'lida neolit davrida shaxtalar paydo bo'ldi. Ular Angliya, Frantsiya, Daniya, Shimoliy Germaniya va Belorussiya kabi davlatlarda o'rganilgan, O'zbekistonning tog'li hududlarida, masalan, Navoiy viloyatining Uchtut degan joyida topilgan. Mehnat qurollari yasashda temirning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishiga olib keldi. Mazkur jarayonlar natijasida ibtidoiy jamoa tuzumi inqirozi kuzatilgan.

**Neolit inqilobi.** Qishloq xo'jaligining rivojlanishi insoniyat tarixida jiddiy o'zgarish bo'ldi. Bu davrda juda ko'p o'zgarishlar bo'lgan edi, lekin hech biri qishloq xo'jalik inqilobichalik mashhur bo'la olmadi. Qishloq xo'jaligi dunyodagi eng qadimgi odamlar turmush tarzini sezilarli darajada o'zgartirdi. Bugungi kunda dunyoda hali ham qishloq xo'jalik namunalari shahar va sanoat turmush tarziga o'tish uchun kurash olib bormoqda.

**I.** Qishloq xo'jaligi milloddan avvalgi 9000 - yilda boshlandi va insoniyat hayotiga jiddiy o'zgarish olib keldi. Bu davr qishloq xo'jaligini targ'ibi bo'yicha uch muhim masalani ko'taradi.

**A.** 2,5 mln.dan taxminan 100 minginchi yilgacha bo'lgan davrda inson turlari dunyoning turli burchaklariga tarqaldilar.

**1.** Ilk odam turlari Sharqiy afrikada vujudga kelib, dunyoning boshqa qismlariga tarqalgan.

**2.** Homo Sapiens odam bundan 120 ming yil oldin paydo bo'ldi. Bu davrda inson hayotida hali uchramagan o'zgarishlar sodir bo'ldi.

**V.** Odamzodning Homo Sapiensdan oldigi turi boshqa turlarga nisbatan shu qurollarni izlab topish, to'plash yoki ulardan qurol sifatida qo'llashda birmuncha xabardor bo'lgan jonzot edi.

**S.** Ommaviy migratsiya jarayoni jahon tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

**1.** Migratsiya natijasida Homo Sapiens Sharqiy Afrika hududigacha keng tarqaldi.

**2.** 25 ming yil avval Homo Sapiens Yangi Zelandiya, Bermud va Tinch okeani havzasidagi hududlarga tarqaldi.

**II.** Odamlarning keng miqyosda tarqalishi insoniyat tarixida tub burilish yasadi.

**A.** Odamlar dastlab kichik miqdorda taqsimlandilar. Ekologik omillar va boshqa sharoitlarda ularning talabi ham oshib bordi.

**B.** Taxminan 12 ming yil oldin dunyoda 5-10 mln. aholi yashagan.

C. Homo Sapiens bu vaqt oralig'ida neandertal odam bilan qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatdi.

**III.** Qishloq xo'jaligini amaliyotga tadbiri qachon boshlangan va uni yuzaga kelgan qiyinchiliklar haqida hamda kelajakka uchun ahamiyatini taxlil etamiz.

A. Qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar neolit inqilobi davridagi jiddiy o'zgarishlar bilan bog'liq.

B. Qishloq xo'jaligida uchta asosiy ixtiro sodir bo'ldi.

1. Yaqin Sharq va Qora dengiz mintaqalarida bug'doy va arpa xonakilashtirilgan.

2. Mil. av. 7000 yil avval Janubiy va Janubiy sharqiy Osiyoda guruch yetishtirila boshlandi.

3. Mil.av. 5000 yilda Markaziy Amerikada makkajo'xori yetishtirila boshlandi.

4. Bundan xulosa shunday bo'ladiki, qishloq xo'jaligi Afrika va Shimoliy Xitoyda ham taraqqiy qilgan ekan.

C. Mil.av. 5000 yil avval qishloq xo'jaligi asta-sekin tarqala boshladi va odamlar hayotida asosiy iqtisodiy tizim bo'lib qoldi.

1. Uzoq-uzoqdagi aholi bilan aloqalar minimal chegarada rivojlandi.

2. Hamma viloyatlar qishloq xo'jaligiga birlashtirildi.

3. Yaqin Sharq, Afrika, Amerika va Markaziy Osiyoda chorvachilikning muqobil tizimi rivojlandi.

4. Qishloq xo'jaligini rivojlanishi, dehqonchilikni kashf etilishi. oldingi o'zlashtiruvchi ho'jalik shakllariga nisbatan ancha qulay edi.

**IV.** Qishloq xo'jaligining joriy etilishi insoniyat tarixida katta o'zgarishlarga olib keldi.

A. Qishloq xo'jaligi, ya'ni ovchilik va dehqonchilikning rivojlanishi erkaklar uchun ko'proq mehnat talab qiladi.

B. Qishloq xo'jaligida gender munosabatlar shakllandi. Bu har ikki tomon ham oziq-ovqat ta'minotiga birday hissa qo'shganligini anglatadi.

1. Boshqaruvda patriarxat tuzumga o'tiladi. Buning asosiy sababi ekin maydonlarining kengaytirilishi bo'lgan.

2. Ekin maydonlari kengayishi bilan dehqon vazifasini erkaklar o'z zimmlariga oldilar.

3. Jamoa uchun yosh bolalar ham mehnatga safarbar etilgan. Ularning bolaligi mehnat bilan chambarchas bog'langan edi.

**V.** Qishloq xo'jaligida bo'lgan o'zgarishlarga qaramay, uning bir qator kamchiliklari bor edi.

A. Qishloq xo'jaligi borasida boshlang'ich bilim qanchalik puxta berilmasin, biroq kamchiliklar juda ko'p edi.

1. Erkaklar va ayollar o'rtasida tengsizlikning yangi turlari paydo bo'ldi.

2. Turli epidemik kasalliklar aholining o'sishiga ta'sir qildi.

3. Qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar bilan mahalliy atrof – muhit ham o'zgardi.

B. Qishloq xo'jaligidagi qulayliklar juda tez yoyildi.

1. Yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, oziq-ovqat mahsulotlarining ko'payishi bilan alkohol mahsulotlarining asosi bo'lgan moddalarning paydo bo'lishiga olib keldi.

2. Oziq-ovqat ta'minoti yaxshilandi va aholi soni oshdi.

3. Bu ishlar mil.avv. 9000 - yillikdan to mil. av. 4000-3000 -yilliklarda sodir bo'lgan.

C. Qishloq xo'jalik sohalarida ayrim cheklanishlar bo'lgan ta'siri ortib bordi va o'sha paytdagi iqtisodiyot 20 % dan 80 % ga oshdi.

D. Qishloq xo'jaligida mavsumiy o'zgarishlar bilan madaniy o'zgarishlar ham sodir bo'ldi.

E. Qishloq xo'jaligida yangi sohalar taraqqiy etdi, bu kulolchilik sohasi rivojlanishi bilan insoniyat tajribasida yangi o'zgarishlar sodir bo'ldi<sup>3</sup>.

**Ibtidoiy jamoa va sivilizatsiya.** Dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik sohalarining ixtisoslashuvi. Neolitning so'nggi bosqichi va jez davrining boshlarida ona urug'chilik jamoasining ishlab chiqaruvchi kuchlari taraqqiyotida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Chorvachilik, omoich bilan yer haydash, baliq tutish, metallni oddiy usulda qayta ishlash yuzaga keldi. Natijada ayollarning xo'jalik yuritishdagi roli pasayib, erkaklarning roli oshdi. Kishilar tabiat kuchlariga qarshi kurashish uchun turli qurollardan foydalandilar. Erkaklar o'zlari topgan boyliklarini umumiy jamoaga emas, o'z bolalariga berishga intildilar. Shu tariqa matriarxatdan patriarxat davriga o'tildi, urug'chilik oilalariga ota boshchilik qiladigan bo'ldi. Ota urug'i asosida katta patriarxat oilalar tashkil topdi. Patriarxat oilada urug'chilik tuzumining kurtagi saqlangan bo'lsa-da, uning yemirilayotgani sezilib turardi. Barqaror nikoh vujudga kelishi bilan ayol kishi erkak turgan joyga borib yashaydigan bo'ldi. Bolalar ota ismining va mulkining merosxo'ri bo'ldilar, uyda ota hukmronligi yuzaga keldi.

**Qabila ittifoqlarining paydo bo'lishi.** Qabilalararo xo'jalik va madaniy aloqalarning rivoji tufayli etnik birlikning yangi shakli — elat vujudga keldi. Natijada tabaqalar va davlatlar paydo bo'ldi. Urug'-qabila boshliqlaridan davlat hokimiyati tashkil topa boshladi.

Dastlabki davrlarda ibtidoiy odamlar qoyalarda ko'rinib yotgan chaqmoqtoshlarni sindirib olganlar. Keyinroq chaqmoqtoshni qidirib, tog' yonbag'irlarida chuqurchalar qaziganlar. Ular neolit davrida esa xom ashyo olish uchun 4,5 va 5 metrli o'ralar kovlaganlar. Kerakli xom ashyoni olish uchun o'ra (shaxta)ning pastki qismidan har tomonga qo'shimcha yo'laklar ochib borilgan. O'ralar maxsus tosh, suyak va yog'ochdan yasalgan kurakchasimon qurollar yordamida qazilgan. O'ralarning devorlaridagi kurakchalarning izlari xaligacha o'chmagan. O'ra kovlangan vaqtda ishga yaroqli xom ashyoga duch

---

<sup>3</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p. 8.

kelinsa, konchilar ularni tosh boltalar yordamida kovlab olganlar. Shuningdek, u yerda o't yoqib toshni qizdirishgan va sovuq suv quyib, portlatganlar. Ular keragicha xom – ashyodan olib, keyinchalik o'ralar og'zini xarsang toshlar bilan yopib qo'yganlar. Arxeologlar bu yerda 100 dan ortiq bunday o'ziga xos o'ralar-shaxtalarni topganlar, ularning 35 tasi Uchtut shaxtasida o'rganilgan. Uchtut yodgorligi singari shaxtalar faqat neolit davri yodgorliklarida uchraydi.

O'rta Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda rangli bo'yoqlar–oxra bilan ishlangan rasmlar juda kam topilgan. Asosan urib–o'yib, chizish usuli bilan ishlangan rasmlar, ya'ni petrogliflar juda keng tarqalgan.

**Tabaqaviy jamiyatning vujudga kela boshlashi va bu jarayonning notekis rivojlanishi.** Aslida ibtidoiy jamoa urug'chilik jamoasini vujudga kelishi bilan boshlanadi. L. G. Morgan fikriga ba'zi jamiyatshunos olimlar F.Engels va V.I.Lenin kabilar qo'shilsada, ammo ular urug'chilik jamoasi davrini «ibtidoiy kommuna», «Qadimgi kommunizm» tushunchalari bilann almashtirib, katta nazariy xatoga yo'l qo'yadilar. I. V. Stalinning «Dialektika va tarixiy materializm haqida» asari paydo bo'lgach, masala yanada chalkashib ketdi. U ibtidoiy jamoa tushunchasiga kishilik tarixini ibtidoiy to'da bosqichini ham qo'shib yubordi. Stalincha kontseptsiya keyinchalik sobiq sovet tarixshunosligida asosiy yo'l-yo'riq bo'lib qoldi. Aslida tarixan birinchi ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya ibtidoiy urug'chilik jamoasi edi. U urug' jamoalarining paydo bo'lishidan to birinchi tabaqaviyjamiyatning shakllanishiga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ibtidoiy to'da davrida esa ishlab chiqarishning o'zi bo'lmagan. Bu davr odamzodning uzoq davom etgan tadrijiy shakllanish bosqichi bo'lib, u haqiqatan ibtidoiy jamoaga o'tish davri hisoblanadi. L. G. Morgan o'z vaqtida Ibtidoiy jamoani 2 bosqichga bo'lgan:

birinchisini «ibtidoiy urug'chilik jamoasi», ikkinchisini esa «harbiy demokratiya bosqichi» deb ataydi. XX asr davomida etnologiya va arxeologiya sohalarida fan olamida qo'lga kiritilgan yutuqlar harbiy demokratiya davrini tabaqalarsiz jamiyatdan birinchi tabaqaviy jamiyatga o'tish bosqichi sifatida qarashni, shuningdek, «ibtidoiy urug'chilik jamoasi» davrini ikki fazaga bo'lishlikni taqozo etadi. Ibtidoiy urug' jamoasining har ikkala fazasi davomida inson hayotida juda katta sifat o'zgarishlari yuz berdi. Bu davrda dastlabki jamoa bo'lib yashash kurtagi paydo bo'ldi. Bu kurtak urug' jamoasining tarkib topishiga asos solgan onalar atrofida yuz berdi. Shuning uchun ham urug'chilik jamoasining bu fazasi — ona urug'i — *matriarxat* deb ataldi.

Urug'chilikning birinchi tadrijiy rivojlanish fazasida ishlab chiqarish munosabatlari to'laligicha urug' manfaatiga mos tushadi, jamoada ijtimoiy ishlab chiqarish hukmron. Endi ibtidoiy urug'chilik jamoasining ikkinchi fazasida ishlab chiqarish munosabatlari asta-sekin urug' manfaati doirasidan chiqa boshlaydi. Bunday ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar ibtidoiy jamoa xo'jaligida dehqonchilik va chorvachilikning kelib chiqishi, rivojlanishi bilan jamoada ortiqcha mahsulotning paydo bo'lishi va bozor munosabatlarining tarkib topishi bilan bog'liq edi. Bu jarayonlar, albatta, ishlab chiqarishda erkaklar mehnatiga

talabning ortishi va urug'lararo guruhliy nikohning buzilishi va urug' jamoasidan tashqarida patriarxat juft oilaning qaror topishi bilan bog'liq edi. Ibtidoiy urug'chilik jamoasi zamonida ro'y bergan bu o'zgarishlar matriarxat urug' jamoasining patriarxat urug' jamoasiga o'z o'rnini bo'shatib berishiga olib keldi. Ota urug'i (patriarxat) shakllandi.

Jamoadi erkaklar rolining kuchayishi tabiiy ravishda patriarxat juft oilani keltirib chiqardi. Patriarxat urug' jamoasidagi juft oila nikohiy va uning tarkibida monogam nikoh tizimining qaror topishiga olib keldi. Ilk urug'chilik jamoasi davrida odamzod birinchi bor amaliy san'atni kashf etdi, ya'ni san'at dastlab ayol haykallarini yasashdan, birinchi homilador ayol tasvirini ishlashdan boshlandi. Bu davrning boshqa bir buyuk o'zgarishi odamzodning biologik jismoniy tuzilishida ro'y berdi, ya'ni yevropeoid, negroid va mongoloid irqalar shakllandi va nihoyat, eng qadimgi ajdodlarimiz tabiiy g'ordan chiqib, ma'lum mintaqalarda o'zlari uchun kulba yasash yo'lini kashf etdilar. Ibtidoiy ajdodlarimiz hayotidagi bu inqilobiy o'zgarishlar ona urug'i — matriarxatning dastlabki ming yilliklari davomida, ya'ni er. av. 40-30ming yilliklarda sodir bo'ldi. Ibtidoiy to'lda davrida ilk ajdodlarimiz o'rtasida biologik aloqalar cheklanmagan, tartibsiz holda yuz bergan bo'lsa, ibtidoiy urug'chilik jamoasi tarkib topishi bilan odamlar o'rtasidagi biologik aloqalar ma'lum tartibga tushdi, ya'ni biologik aloqalar endi ikki urug' jamoasi a'zolari orasida sodir bo'ladigan bo'ldi. Bu nikoh tartibi guruhliy nikoh deb yuritildi.

Keyinroq, ona urug'i davrining so'ngi fazasida ana shu guruhliy nikoh doirasida ayollar farzandlarining otalaridan o'z urug'i uchun ishlab berishni, o'z urug'i yumushlariga yordam berishni talab qila boshlaydilar. Bu talablar, albatta, iqtisodiy muammolar bilan bog'liq bo'lib, ona urug'i jamoasi zaminida matriarxat juft oilani rasmiylashtirishiga olib keldi. Onalar, endi, o'z farzandlariga o'z otasini tanishtira boradi. Uzoq davom etgan bu nikoh tartibi va axloq normalari ona urug'i doirasida erkaklar rolining kuchayishiga olib keldi. Iqtisodiy hayot tashvishlari endi erlar qo'liga jamlandi. Erkaklar iqtisodiy xo'jalik jilovni o'z qo'llariga oladilar va ularning farzandlari oldidagi nufuzi ortib boradi. Ibtidoiy urug'chilik jamoasining ikkinchi fazasida urug' jamoalari xo'jaligida qo'shimcha daromad paydo bo'ladi, u esa navbatdagi, mol ayirboshlashni keltirib chiqaradi. O'sha davrdan boshlab urug'larning qabilalarga birlashishi boshlanadi. Qabilalararo iqtisodiy aloqalar vujudga keladi va ularning oqibat natijasi sifatida kishilik tarixida harbiy demokratiya davri boshlandi. Bu inqilobiy o'zgarishlar otalar urug'i (patriarxat)ga xos bo'lib, ular ibtidoiy urug'chilik jamoasi zaminida dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

Bu davrning so'nggi bosqichida etnik birlik — qabila tarkib topdi.

Temir qurollar keng tarqalishi tufayli dehqonchilikda, kosibchilikda, chorvachilikda mehnat unumdorligi osha borib, ana shu negizni tubdan o'zgartirdi va o'sha vaziyatda ancha progressiv bo'lgan individual ishlab chiqarishga — xususiy o'zlashtirish manbaiga o'tish uchun shart-sharoitlar yaratdi. Ilgari faqat

katta jamoaning qo‘lidan keladigan ishni endilikda ayrim oilaning bajara olishi mumkin bo‘lib qoldi. Jamoa mehnatiga xojat qolmadi.

Xususiy xo‘jalik va xususiy mulkning vujudga kelishi taraqqiyparvar tarixiy rivojlanish jarayonidan iborat bo‘lib, u shaxsiy tashabbusni kuchaytirishga, mehnatning tobora taqsimlanishiga va unumdorligining osha borishiga imkon bergan. Mehnatning kuchaya borgan individuallasuvi sharoitida iqtisodiy jihatdan mustahkam oilalar alohida holda yashab, urug‘doshlaridan ajralib chiqar edilar. O‘sha zamonga kelib patriarxat uy jamoalari kuchli ravishda o‘tib kengayib ketgan.

Sharqda sug‘oriladigan yerlardagi dehqonchlik bilan bog‘liq bo‘lgan qishloq jamoalari juda barqaror bo‘lib, uzoq yashaganlar, chunki irrigatsiya tarmog‘i qurilishi va uni tartibli saqlash ishlari doimo birgalikda zo‘r berishni talab qilgan. Qo‘shni jamoa universal bosqich bo‘lib, dunyoda tabaqaviy jamiyatlar yaratgan barcha xalqlar shu bosqichni bosib o‘tishgan. Qo‘shni jamoa birinchi ibtidoiy jamoa oxirgi davrining boshlanishini ko‘rsatadi.

Odamning tabiat bilan juda og‘ir kurashida mehnat qurollari murakkablasha va takomillasha borgan; bunda so‘yiltayoqlar va qo‘pol tarashlangan tosh parchalaridan kamon va o‘qlar, silliqlangan tosh boltalar va suyak buyumlar, metallardan foydalanish, juda oddiy dastgohlar ixtiro qilish sari rivojlanish yo‘li bosib o‘tilgan.

**Ibtidoiy diniy tasavvurlar.** Inson faoliyatining barcha sohalaridagi tajribalar saqlanmay turib progressiv tarixiy taraqqiyot mumkin bo‘lmagan bo‘lur edi. Urug‘ning, qabilaning zo‘r berishlari tufayli orttirilgan bilimlarni keksa avlod ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan ta‘lim vositasi bilan yosh avlodga berib kelgan. Ilk yoshidagi bolalar kattalarning ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etilgan. Lekin jamoaga moslashuv (initsiatsiya) vaqtida yigit va qizlarga chinakam ta‘lim berilgan.

Din – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, u odamlarning g‘ayri tabiiy kuchlar mavjudligiga ishonishlari bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarini, ularning ish harakatlari va qarashlar tizimini aks ettiradi. Demak, inson ongi o‘tib, endi unda o‘z kundalik hayotida uchraydigan tabiat hodisalarining sabablarini izohlashga urinishlar paydo bo‘lgan vaqtdagina dinning vujudga kelishi mumkin bo‘lgan. Abstrakt tafakkur paydo bo‘lishi natijasidagina ana shu darajaga erishish imkoniyati tug‘ilgan.

**Eneolit davrining o‘ziga xos xususiyatlari.** Eneolitning ilk bosqichida aholi bir-biriga zich qilib qurilgan bir xonali uylardan iborat qishloqlarda istiqomat qilganlar. Uylar tor, kvadrat shaklida xom g‘ishtdan qurilgan bo‘lib, xona devorlari somonli loy bilan suvalgan. O‘rta bosqichida esa qishloqlarning markaziy qismi mudofaa devori bilan o‘ralib, ko‘p xonali uylar ham uchraydi. Ularning orasida doira shaklidagi xonalar ham bo‘lib, tadqiqotchilar fikricha bu ibodatxona bo‘lib, ular bu yerda olovga sig‘inishgan. Eneolitning so‘nggi bosqichida qishloqlar hududi kengayadi va ko‘p xonali uylarning soni oshadi. Ularda dahlizlar va hovlilar vujudga keladi. Hovlilarni

birlashtiruvchi tor ko'chalar rasmiylashgan va ularning hammasi qishloqning markazidagi maydonga chiqqan. Har bir uyda xo'jalik kompleksi—omborxonalari bo'lgan.

Bronza davriga kelib qishloqlar yiriklashib, shaharlar qiyofasiga o'ta boshlagan. Shu jihatini inobatga olib, arxeologlar uni shaharlargacha (protogorod) bo'lgan davr madaniyati belgilari deb hisoblaydilar.

Eneolit davrida mehnat qurollari asosan toshdan, hayvon suyaklaridan va qisman misdan yasalgan. Mis mehnat qurollari mavjud bo'lganligi eng qadimgi mehnat qurollarini ximiyaviy analiz qilish asosida isbotlandi. Dastlabki mis qurollar sof misdan yasalgan. Odamlar dastlab misni toshning bir turi deb, sovuq holda ishlov berganlar. Miloddan avvalgi IV ming yilliklardagina uning olovda erish xususiyati kashf etilgan. Mis qurollari yumshoq va egiluvchan bo'lganligi sababli tosh qurollarni siqib chiqara olmagan.

**Tayanch tushunchalar:** Qadimgi dunyo, tarixiy davrlanish, ibtidoiy jamoa, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlar, o'tmish yodgorliklari, tarixiy manba, tarixshunoslik, paleolit, olduvay, ashel, mehnat qurollari, tarixshunoslik, arxeologiya, antropologiya, etnografiya, etnologiya, insonning kelib chiqish jarayoni, avstralopiteklar, zinjanthrop, pitekanthrop, sinanthrop, geydelberglar, tosh qurollari, mehnat qurollari, madaniy qatlam, qishloq ho'jaligi sohasining rivojlanishi, qabilalar ittifoqi, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, tabaqaviy jamiyat, antropogenez, qadimgi dunyo, tarixiy davrlanish, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy jarayonlar, etnik va xo'jalik aloqalari, ibtidoiy diniy tasavvurlar, arxeologik davrlashtirish, eneolit davri, arxeologik yodgorliklar, mis qurollar, kashfiyotlar.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Nima uchun ibtidoiy jamoa tuzumi davri tarixini o'rganish uchun zarurat tug'ildi?
2. Tarixshunoslik qanday fan va u nimani o'rganadi?
3. Tarixshunos olimlarning ibtidoiy jamoa tuzumiga oid bo'lgan qanaqa asarlarini bilasiz?
4. Odamning paydo bo'lishi va uning shaklanishi to'g'risida qanday qarashlar mavjud?
5. Insoniyatning nutqi va fikrining rivojlanishida qanday omillar bosh rolni o'ynagan?
6. Antropologiya fani va uning o'rganish sohasi nimaga qaratilgan?
7. Paleolit davri mehnat qurollari nimalardan iborat?
8. Eneolit va bronza davri odamlari mehnat qurollari nimalardan iborat va ularning insoniyat tafakkurining rivojlanishiga qo'shgan roli qanday?
9. Mehnat taqsimoti deganda nimani tushunasiz?
10. Birinchi mehnat taqsimoti qanday holatda sodir bo'ldi?
11. Ikkinchi mehnat taqsimoti bu....?
12. Sizning fikringizcha, qabila ittifoqi va uyushmasi o'rtasidagi farqlar nimalarda namoyon bo'ladi?

13. Etnik jarayon tushunchasi nimani anglatadi va nimani o'rganadi?
14. Tabaqaviy jamiyatning paydo bo'lishi nimalarga olib keldi?
15. Xo'jalik munosabatlari – bu...?
16. Ibtidoiy dinning qanday shakllarini bilasiz?
17. Eneolit davri yodgorliklarining tarixiy ahamiyati nimalarda ko'rinadi?
18. Qanday qilib bir qancha kamchiliklarga qaramay, qishloq xo'jaligi bu darajada taraqqiy qildi? Bu borada qanday umuminsoniy muammolari vujudga keldi?
19. Nima uchun ovchilik xo'jaligi ayollarga ancha qulay bo'lgan? Qishloq xo'jaligi ayollar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlikka sabab bo'lganmi?

### **Ma`ruza №2,3**

#### **Mavzu: Qadimgi sharq tarixi. Qadimgi Misr podshohligi**

#### **Режа:**

1. Qadimgi sharq tsivilizatsiyasi.
2. Misrshunoslik fanining rivojlanishi.
3. Qadimgi podsholik davridagi Misr (er.av. XXIII - XVIII asrlar).
4. Yangi va so'ngi podsholik davrida Misr davlati (er.av. XVI-XII asrlar).
5. Qadimgi Misr madaniyati.

**Qadimgi sharq tsivilizatsiyasi.** Insoniyat tarixida ibtidoiy jamoadan tsivilizatsiyaga o'tish shaharlarning paydo bo'lishi, ularning hokimiyat va diniy markaz sifatida shakllanishi ibodatxona, saroylar qurilishi, yozuvni paydo bo'lishi bilan va shuningdek jamiyatda turli sinflar va davlatchilikni paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Tabiiyki, tsivilizatsiyalar tarixi Qadimgi Sharqda er.av. IV ming yilliklardan jamiyatning taraqqiyoti natijasida turli ijtimoiy qatlamlarni paydo bo'lishi bilan boshlanadi. Qadimgi Sharq tsivilizatsiyasi turli geografik hududlarda, turli davrlarda tugallandi. Jumladan Old Osiyoda Qadimgi Sharq tarixi Makedoniyalik Iskandarning yurishlari (er. av. IV asr.) bilan tugallandi, Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari uchun eramizning II ming yilligining ikkinchi yarmigacha davom etdi. “Qadimgi Sharq” geografik tushunchasi shimoliy-g'arbiy Afrikadan Tinch okeanigacha va buyuk cho'ldan Hind okeani va Saxaragacha bo'lgan ulkan hududni qamrab oladi. Asosan bu hudud subtropik iqlimli, yozi juda issiq va quruq, yumshoqligi bilan ko'zga tashlanadi.

**Birinchidan,** insonlarda tashkiliy ahamiyatga, ikkinchidan xalqlararo xarakteristikasining tsivilizatsiyasidan kelib chiqishning ahamiyati.

**A.** Misol uchun, Mesopotamiya va Misr sivilizatsiyalar shaharlari o'zining harbiy va geografik o'rni va oldi-sotti savdo aloqalari rivojiga ega bo'lgan, lekin ular bir- biridan farq qilgan.

1. Misrda ko'proq haykaltaroshlikda o'lim va o'limdan keyingi hayotga ko'proq e'tibor berganlar. Jumladan, Misr madaniyatiga ham.

2. Mesopotamiyada esa, badiiy va adabiy asarlar bo'lishiga bo'lgan istak bir oz ko'proq bo'lgan.

3. Misrliklar ayollarga erkinlik berish tarafdori bo'lganlar.

4. Misrliklar, bolalarni o'ldirishga qarshilik qilganlar.

5. Madaniyat va siyosiy tomondan ham sivilizatsiyada ma'lum bir yo'nalish yo'lga qo'yilgan.

**B.** Mesopotamiya va Misrdagi rivojlanishda asosiy urg'u bir - biri bilan solishtirish bo'lgan.

1. Harappa sivilizatsiyasi nozik shaharlarini yanada yuksalishi va rivojlanishida asosiy urg'u shunga qaratilgan.

2. Xitoy madaniyatida boshqaruvga judda katta e'tibor berganlar.

**C.** Har bir shahar rivojlanishda o'z yo'liga ega bo'lgan. O'zining boshqaruvi, savdo aloqalari, qonun qoidasi va ilm fani o'z tarixiga ega bo'lgan.

**VII.** Bu barcha ilk sivilizatsiyalar avlodlarga meros bo'lib ta'sir ko'rsatgan.

**A.** Suvdagi sivilizatsiyada pul muomalaga kiritilgan.

**B.** Suv yo'li orqali bo'lgan jarayonlarda sivilizatsiya ta'siri juda katta ahamiyat kasb etgan.

1. Dengiz orqali Misr va Mesopotamiya aloqasi Gretsiya va Krit shaharlariga va qoloq shaharlarga o'z ta'sirini o'tkazgan. **C.** Sivilizatsiya uchinchi merosining ta'siri.

1. Shanxay sulolasi o'zlarining yarim afsonaviy tarixi, Shanxay siyosiy tartibda konsepsiyasini joriy etgan va bundan Xitoy madaniyati xabardor edi.

2. O'rta Osiyo va Yevropa madaniyatidagi Mesopotamiyaning ta'siri o'tgan<sup>4</sup>.

Ko'p mingyilliklar o'tib, insonlar o'z ijtimoiy infratuzilmalarini yaxshilash bo'yicha o'z strategiyalarini mudom rivojlantirib bordilar. Yuksak madaniy o'zgarishlar, demokratik portlashlar, va texnologik innovatsiyalar miloddan avvalgi 3500 yillarda murakkab iyerarxik jamiyatlar tashkil topishiga yo'l ochib berdi, ular shaharlarda to'plandilar va yangi jamoaviy institutlar tomonidan kuchaytirildi. Shahar hayoti inson tajribasini shakllantirdi. Insonlar uchun ishonchli suv manbalarni topish muhim edi, chunki sug'orish manbasining aniqligi yirik aholini ozuqa bilan ta'minlash uchun zarur darajada ekin ekishga imkon yaratardi.

Aynanshujoylarda keyinchalik sivilizatsiyalar paydobo'ldi. Qadimgi Sharq xalqlarining tsivilizatsiyalari asosan buyuk daryolar Nil, Dajla va Frot, Hind, Gang, Xuanxe, Yantszi, Amudaryo kabi daryo havzalarining unumdor

---

<sup>4</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p. 15-16.

vodiylarida sun'iy sug'orishga asoslangan xo'jalik hayotini samarali rivojlanishi bilan ajralib turadi. Qadimgi Sharq tsivilizatsiyasi jahon xalqlari taraqqiyotining keyingi rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi va uning poydevori hisoblanadi.

**Qadimgi qabilalarning kelib joylashishlari, yuksalish va dastlabki davlatlarning paydo bo'lishi.** Qadimgi Sharqning ko'p sonli etnik guruhlarining muntazam ravishda harbiy-siyosiy, savdo va madaniy aloqalari turli etnik guruhlarini aralashib ketishiga va yana murakkab etnik birliklarni paydo bo'lishiga olib keldi. Qadimgi Sharq tsivilizatsiyasini yaratishda turli xalqlar, etnik guruhlar turli davrlarda faol ishtirok etdilar.

Eng qadimgi zamonlarda Kichik Osiyo yassi tog'ligida yashagan qabilalarni protexetlar deb atash rasm bo'lgan. Protexetlar va ularga til jihatidan yaqin turgan palaylar Old Osiyoning boshqa eng qadimgi qabilalariga qarindosh bo'lgan bo'lishi ham mumkin; bu qabilalarni hozirgi zamon tadqiqotchilari «azianik» qabilalari deb ataydilar. Kichik Osiyodan topilgan qadimgi yozuvlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, yagona xett xalqi maydonga kelishidan oldin ular kichik-kichik dialekt (sheva)lar hamda qabilaviy tillarda so'zlashgan qabilalardan iborat bo'lgan. Eramizdan avvalgi II ming yillikda, Xett davlatining paydo bo'lish arafasida Kichik Osiyoda yashagan eng qadimgi aholi orasida keng tarqalgan til protexett tili bo'lgan.

Qadimgi Sharqdagi turli xil tillarni qadim zamonlarda Shimoli-Sharqiy Afrikada va Osiyoning ko'p yerlarida yashagan ko'pdan-ko'p qabila va xalqlar tillarini va yozuvlarini o'rganish asosida Qadimgi Sharq tarixi o'rganiladi.

Qadimgi Sharq xalqlarining ijtimoiy tuzumi ibtidoiy jamoa tuzumiga qaraganda ancha taraqqiy qilgan tuzum bo'lgan. Qadimgi Sharq jamiyatida birinchi marta despotik (mustabid) davlat vujudga kelgan, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida esa bunday davlat bo'lmagan.

Qadimgi Sharqdagi katta-katta quldorlik xo'jaliklarida qullar mehnatidan foydalanishning dastlabki uyushgan shakllari paydo bo'lishi bilan bir qatorda, bu xo'jaliklarda uy qulchiligi shakllari uzoq vaqt saqlanib qolgan. Murakkab va keng quloch otgan amaldorlik apparatidan iborat markaziy hokimiyat organlari mavjud bo'lishiga qaramasdan, Sharqda jamoa turmushining qadimgi shakllari ham ko'p vaqtgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yerning anchagina qismi amalda jamoalarga qaragan, bu yerlarga ko'pincha erkin jamoachilar ishlov berganlar.

Qadimgi Sharq xalqlarining xo'jaligi, ijtimoiy tizimi va madaniyati sekin rivojlanib borishi va nisbatan turg'un holatda qolib ketishi, qabila yoki jamoat mulkchiligining mavjudligi bilan bog'liq. Shu bilan birgalikda dinning Qadimgi Sharq dunyosidagi kishilar ongi dunyosi ustidan hukmronligi, barqarorligida o'z ifodasini topgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarining iqtisodiyoti bilan Yunoniston va Rimning antik xalqlari xo'jaligining rivojlanishi o'rtasida muhim farqlar bo'lgan. Tanga shaklidagi pullar va savdoning jadal taraqqiyoti bilan bog'liq shahar tuzumshning, Qadimgi Sharq davlatlarshning antik davr oxirlarida paydo bo'lgan madaniyati ham ancha sodda bo'lgan.

Qadimgi Sharq mutloq hokimligi faqat tashqi jamoadagina qudratli va mustahkam davlatlar bo'lib ko'ringan. Aslida esa ular ichki tomondan ancha zaif davlatlar bo'lgan. Misr, Ossuriya va Eron podsholari biror istilochi vafotidan keyin o'z tarkibiy qismlariga bo'linib, tarqalib ketgan davlatlarini birlashtirib, yana tiklash uchun doimo qurol ishlatishga majbur bo'lganlar.

Qadimgi Sharq davlatlari ichki tomondan zaif bo'lib, ko'pincha tashqaridan qilingan zarbaga bardosh bermay qulab tushardi. Kayxusrav yoki Aleksandr tuzgan buyuk davlatlarni ham inqiroziga asosiy sabab, tasodifan bir-biri bilan yaqin bog'langan qurama guruhlardan tashkil topganligi, o'z iqtisodiy bazasiga ega bo'lmagan muvaqqat va tagi bo'sh harbiy ma'muriy birlashmalardan iborat bo'lganligidan edi.

Kichik Osiyo va Shimoliy Suriya hududlaridagi qadimgi qabilalar bilan bir qatorda er.av. II ming yillikda nesiylar deb atalgan qabilalar ham tarix sahnasida paydo bo'la boshlagan (Nesiy degan nom, Galis daryosining janubida joylashgan Nesiy yoki Nesha degan mamlakat va shaharning nomidan olingan). Nesiylar protoxett qabilalaridan til jihatdan farq qilganlar. Keyingi tekshirishlarning, jumladan B.Grozniy tadqiqotlarida ko'rsatishicha, nesiylar tili hind-yevropa guruhidagi xalqlar tillariga juda yaqin bo'lgan. So'nggi xett (nesiy) tilidagi bir qator so'zlarni yunon, lotin, qadimgi hind va qadimgi slavyan tillaridagi ayni ma'noli so'zlar bilan solishtirsa bo'ladi.

Qadimgi misrliklar dunyo tarixidagi eng qadimiy, paydo bo'lishi er.av. IV asr o'rtasiga borib taqaladigan tsivilizatsiyani yaratdilar. Qadimiy Misr Nil daryosi vodiysida, uning birinchi ostonasidan to O'rta er dengizi sohillarigacha yoyilgan hududda joylashgan edi. Dastlabki shaharlardagi sezilarli darajadagi moddiy va ijtimoiy siljishlar qisqa vaqt ichida – miloddan avvalgi 4000 - 2000 yillarda Nil daryosining O'rta yer dengiziga quyiluvchi shimoliy qismlarida yuz berdi.

Gerodot Misrni “Nil tuhfası” deb atagan edi. Qadimgi Misrning uch ming yillik tarixi bir nechta yirik tarixiy davrlarga bo'linib, ularning har biri qadimiy Misr tsivilizatsiyasining o'ziga xos oyoqqa turish, ko'tarilish va rivojlanish pog'nasi bo'lgan.

**Misrshunoslik fanining rivojlanishi.** XIX asr boshigacha qadimgi Misr madaniyati va tarixi bilan hech kim shug'ullanmagan. Qadimgi Misr yozuvi unitilgan edi. Faqat XIX asr boshlarida fransuz olimlari 1809-1828-yillarda 48 tomli «Misr tasviri» nomli kitobni nashr etdilar. Misr iyerogliflarini fransuz olimi Silvestr de Sasi va shved olimi Okerblad, ingliz olimi Tomas Yung o'qishga harakat qildilar. Ammo qadimgi Misr yozuvi tizimini va iyerogriflarini o'qish metodini fanning o'tkir bilimdoni, misrshunoslik fanining asoschisi fransuz olimi Jak Fransua Shampol'on (1790-1832 yillar) ochdi. J. Shampol'on Grenobl shahridagi litseyda ta'lim oldi. Parijda taniqli lingvist Silvestr de Sasi rahbarligida Sharq tillarini o'rgandi. Napoleon yurishlari vaqtida Misrda bo'lgan mashhur fransuz fizigi va matematigi Fur'ening hikoyalari tasiri ostida qadimgi Misr tiliga qiziqib qoldi. Shampol'on qariyb yigirma yil davomida qadimgi Misr yozuvini o'rganib, bu yozuvni o'qishning kalitini topdi. U 1822 yil 27 sentabrda Fransiya

akademiyasida iyeroglif alfavitini ochganligi to'g'risida ilmiy xabar qildi. Olim og'ir ilmiy mehnat va moddiy nochorlik tufayli, 1832 yil

42 yoshida vafot etdi. Shampol'ondankeyin ham Misryozuvini o'rganish davom etdi. Nemis olimlari Lepsius va Brugsh «Misr xronologiyasi», «Misr fir'avnlari to'g'risida» nomli asarlarini yaratdilar.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab misrshunoslikda yangi bosqich boshlandi:

1) Katta hajmdagi maydonlarda olib boriladigan arxeologik qazilmalarni o'tkazishning ilmiy asoslangan qat'iy metodikasi ishlab chiqildi. Arxeologik qazishmalar natijasida topilgan topilmalar tizimli o'rganildi va doimiy saqlana boshlandi.

2) Topilgan yozma yodgorliklar filologik va tarixiy tahrir bilan chop etila boshlandi.

3) Qadimgi Misr tarixi va madaniyatning turli muammolari ishlanib, yirik asarlar to'plami chop etila boshlandi. Misr topilmalari muzeyini tashkil qilgan va yirik arxeologik qazishmalar olib borgan olim O. Mariyettning misrshunoslik fani taraqqiyotidagi xizmati katta bo'ldi. Ingliz tarixchisi Flinders Pitriuning davomchisi bo'ldi. U III tomli «Qadimgi davrda Misr tarixi», Brested II tomli «Misr tarixi», Maspero «Misr tarixi» va Ed. Meyer «Qadimshunoslik tarixi» asarlarini yaratdilar. XIX asrning o'rtalarida fransuz olimi O. Mariyett qadimgi Memfisdan muqaddas ho'kizlar sog'onalarini topdi. G. Maspero XIX asr oxirida Sakkaradagi piramidalarni tadqiq qilib, V-VI sulola piramidalarining xonalari ichki devoridagi matnlarni chop qildi. Fiva shahrida u Yangi podsholik fir'avnlarning mo'miyolari yashirilgan ulkan maxfiy joyni topdi.

Misrshunoslikning yangi davri XX asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. Angliyada «Kembridj Qadimgi tarixi» seriyasi chop etilib (I-XI tomlari 1928-1938-yillarda chop etildi), nemis olimlari A. Erman va X. Troppe (1926-1931 y) V tomli Misr lug'atini tuzdilar.

A. Gardner III tomli «Vilbur papirusi», «Ramseslar davri ma'lumotihujjatlari» va «Misronomastikasi» asarlarini chop qiladi. Misrda asosiy arxeologik qazishmalarni Yevropa va AQSH olimlari olib bordilar. Faqat XX asrning 20-yillaridan boshlab o'zi misrlik bo'lgan olimlar arxeologik qazishmalarni boshladilar.

Rus olimlari Misr tarixini o'rganishda o'z hissalarini qo'shdilar. V.G. Barskiy 1727-1730-yillarda bir necha Sharq mamlakatlarini aylanib chiqib, shunda u Misrda ham bo'lgan. U Qohira, Rozett va Iskandariyada bo'lib, o'zining «Sayohat» degan asarida Iskandariyaning mashhur yodgorliklaridan birini mufassal tasvirlangan. Barskiy bu tasvirlarga rasmlarni ilova qilgan. Muallif bu rasmlarni shu qadar sinchiklab ishlaganki, unda yodgorlikdagi iyeroglifni yozuvchi o'z zamonasiga ko'ra juda aniq aks ettirgan. Mashhur rus olimlari V. Turayev, I. Nikolskiy, V. I. Avdiyev va boshqalar misrshunoslik fanini rivojlantirishda muhim o'rin egalladilar.

**Qadimgi podsholik davridagi Misr (er.av. XXIII - XVIII asrlar).**

Mahsuldor dehqonchilik Qadimgi podsholik davridagi Misr davlati iqtisodi va boyligining asosi bo'lgan. Hunarmandchilik va texnikaning asosiy uch sohasida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Bular: mis quyish, toshga ishlov berish va kulolchilik. Ishlab chiqarishda misni qo'llash katta ahamiyatga ega bo'lib, u insonning texnik imkoniyatlarini kengaytirdi. Qadimgi podsholik davri toshdan ulug'vor inshootlar (piramidalar, ehromlar, qal'a devorlari) qurishning boshlanishi bo'lib, u toshga ishlov berishning yuksak san'atiga ehtiyoj tug'dirdi. Hukmdor tabaqaning imtiyozlarini himoya qilishga, sug'oriladigan dehqonchilikni tashkil etishga, jamoat tartibini saqlab turishga zarurat ko'p sonli va yaxshi tashkil etilgan davlat boshqaruvini yaratishga olib keldi. U uchta asosiy bo'g'indan iborat edi: markaziy, viloyat va mahalliy (jamoat-yashash joylari darajasida) boshqaruvi. Markaziy boshqaruv tepasida shoh turib, u Yuqori va Quyi Misr shohi, Gor xudosining timsoli unvonlarini olgan. Fir'avn Misr davlatining alohida qudratining timsoli hisoblanib, to'liq hokimiyatga ega, ya'ni o'z qo'l ostida qonun chiqarish, ijroiya va sud hokimiyatlarini ushlab turar edi. Fir'avnning Yuqori va Quyi Misr shohi unvonidan kelib chiqqan holda davlat boshqaruvi ham ikki xil tuzilmaga ega edi: har bir idora amaliy jihatdan ikki bo'limga bo'lingan bo'lib, Yuqori yoki Quyi Misrga xizmat qilar edi.

Butun Misr ulkan manbalarining markaziy hukumat qo'l ostida to'planganligi tashqi siyosatda ham muvaffaqiyatlarga olib keldi. To'rtinchi sulolaning asoschisi Snofru (er.av. XXVIII asr) o'ta faol bosqinchilik faoliyati yuritdi. Uning boshchiligida Misr tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari ishlab chiqildi: 1. Janubga, Nubiyaga. 2 Shimoli-sharqqa, Sinay va Falastinga. 3. G'arbga, Liviya qabilalari tomonga. Bu yo'nalishlarda u katta g'alabaga erishdi.

Ammo 4-sulolaning boshqaruvi oxirida Misrda ichki vaziyat murakkablashdi. Ulkan piramidalarni qurish va faol bosqinchilik siyosatini o'tkazish davlatning barcha kuchlarini agressiv harakatini talab qildi, bu esa ulkan insoniy va moddiy vositalarining sovurilishiga va nihoyat mamlakatning kuchsizlanishiga olib keldi. Aholini ekspluatatsiya qilish norozilik keltirib chiqarar, ijtimoiy ziddiyatlarga olib kelar edi. 5 sulola fir'avnlari (er.av. XXVIXXV asrlar) mamlakatdagi ichki vaziyatni mustahkamlashga intilib ulkan piramidalar qurishdan voz kechadilar. Ular markaziy boshqaruvga mahalliy va mansabdor a'yonlar vakillarini jalb etadilar. Bu bilan kiborlarning keng doiralarga yuqoriga yo'l ochib berib, Misr zodagonlarining umumiy ahvolini mustahkamlaydilar. 4 sulola vaqtida (er.av. XXV-XXIII asrlar) kichik shaharlar boylari (nomalar) va mansabdor shaxslarning yiriklashuvi jarayoni davom etadi. Moddiy va insoniy boyliklarning mahalliy hokimiyat foydasiga qayta taqsimlanishi yuz beradi. Markaziy hukumatning Misrning tashqi siyosiy ta'siri kabi iqtisodiy va siyosiy qudrati ham qulaydi. 6-sulolaning tugashidan so'ng (er.av. XXIII asr) Memfis podsholarining hokimiyati nomigagina bo'lib qoladi.

Miloddan avvalgi 2200 yillar atrofida Qadimgi Misr qirolligi qulagan. Qulashiga sabab, Memfisda ko'pgina samarasiz qirollarning notug'ri olib borgan siyosati sabab bo'lgan.<sup>5</sup>

Mamlakat bir yoki bir necha nomalardan iborat talay mustaqil knyazliklarga bo'linib ketadi. Bundan tashqari aynan so'ngi podsholik davriga kelib, iqlimning keskin isib ketishi oqibatida ekologik inqiroz ham kelib chiqqan. Bu hol axoli turmush darajasini battar qiyinlashtirgan. Xulassiyosiyvaekologikinqirozsabali qadimgi podsholik davri tugaydi. Misrning Qadimgi Misr tarixining birinchi o'tish davri deb nom olgan tushkunlik va tarqoqlik davri boshlanadi.

Qadimgi Misr qirolligining qulashining sababi, ya'ni radikal o'zgarishlar sabab bo'ldi, radikal o'zgarishlar miloddan avvalgi 2200-2150 yillar oralig'ida Afro-YevroOsiyoni ham qamrab oldi. Mesopatamiya va Harappaliklarga Misrliklarga singari bu o'zgarishlar qattiq ta'sir ko'rsatdi<sup>6</sup>.

O'rta podsholik davrida (er.av. XXI-XVIII asrlar) umummisr davlati. Markazlashgan davlatning yarim mustaqil, bir-biriga muxolif nomalarga bo'linib ketishi umummisr sug'orish tizimining buzilib ketishiga, iqtisodning va eng avvalo butun qishloq xo'jaligining inqiroziga olib keldi. Xo'jalikning parchalanishi va ocharchilik Misr aholisning eng qashshoq qatlamlari e'tirozi va xatto ochiq qo'zg'olonida namoyon bo'lgan xalq ommasining noroziligiga olib kelar edi.

Ko'pchilik misrshunoslar yirik xalq qo'zg'olonini (deyarli mamlakatning turli qismlaridagi bir necha qo'zg'olonni) aynan 1- O'tish davrinining oxiriga tegishli deb hisoblaydilar. Bular haqida "Ipuser matali", "Neferti matali"da hikoya qilinadi.

Ammo og'ir vayronagarchilikni bartaraf etish zarurati Misr hukmdorlarining oldiga kuchli Misr davlatini qayta tiklash muammosini qo'yadi. Misrning yangi birlashishi uchun kurash ham shimolda, ham janubda boshlanadi. Shimolda birlashtiruvchi markaz bo'lib Gerkleopol, janubda Fiva bo'lgan.

Fiva hokimi Mentuxotepning g'alabasi Gerakleopol bilan Fiva o'rtasidagi ayovsiz jangning yakuni bo'lib, u 6- umummisr sulolasining asoschisi bo'ldi (er.av. XXI asr). Misr jamiyati, davlati va madaniyatining yangi taraqqiyoti boshlanib, u uch yuz yilcha davom etadi va O'rta podsholik nomini oladi (er.av. 2005-1715 yy., 11-13 sulolalar).

11- va ayniqsa 12- sulola fir'avnlari markaziy hukumat qo'l ostida mamlakatning insoniy va moddiy boyliklarini to'plab, Qadimgi podsholik davridagi umummisr sug'orish tizimini tiklaydilar. Bu vaqtga kelib, misrliklar nisbatan yumshoqroq hisoblangan misdan o'z sifatiga ko'ra yuqori turgan bronzani o'zlashtiradilar.

---

<sup>5</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.85.

<sup>6</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.85.

Rivojlanayotgan iqtisod nafaqat butun aholining ehtiyojini qondirishga, balki mahsulotning ancha ortiqcha qismi: bug'doy, hunarmandchilik mahsulotlarini ham berar edi.

O'rta podsholik davri Misr iqtisodining o'ziga xos xususiyati xususiy xo'jalik munosabatlari, bozor bilan aloqalar, qullar mehnatidan foydalanish keng taraqqiy topgan o'rta xo'jaliklarni mustahkamlash edi. O'rtacha yer-joylar bilan birga mayda yer egalarining mavqei oshib boradi. Kichkinagina yer uchastkasiga ishlov berish bilan an'anaga ko'ra qishloq aholisi shug'ullanar edi. Bevosita ishlab chiqaruvchilarning asosiy qismini tashkil qiluvchi mayda yer egalari O'rta podsholik hujjatlarida "xemuuni-sut" – "shoh odamlari" iborasi bilan belgilangan. O'rta podsholik davrida qullar soni Qadimgi podsholik davridagiga nisbatan ko'payadi. Qullarni keltirib chiqaruvchi asosiy manba muvaffaqiyatli urushlar bo'lib, ulardan Misrga o'n minglab asrlar haydab kelinar edi. Ular esa shohning ehromlar qurilishiga, zodagonlar xizmatiga, ba'zan o'rta xo'jaliklarga ham kelib tushar edilar.

O'rta podsholik davridagi xususiy quldorchilikning rivojlanishi Misr ijtimoiy munosabatlarining xarakterli belgisidir.

Misrning markazlashgan davlatga birlashtirilishidan keyin Qadimgi podsholik davridayoq yuzaga kelgan ko'psonli byurokratik boshqaruv apparati qayta tiklandi. Butun boshqaruvning eng yuqorisida fir'avn, "Raning jismidan bo'lgan o'g'li", xudo odam turib, u mutlaq hokimiyatga ega edi. Lekin O'rta podsholik fir'avnlari mahalliy zodagonlardan kelib chiqqan nomarxlar qo'lida bo'lgan nomalarni boshqarishni uddalay olmadilar.

13-sulolaning hukmdorlari (er.av. 1789-1645yy.) mamlakatdagi ichki vaziyatni barqarorlashtirish muammosini echishga qurlari etmadi.

Murakkab ichki va tashqi vaziyat, markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi sharoitida xalq ommasining noroziligi mavjud tuzum va uning hukmdorlariga qarshi ochiq xalq qo'zg'oloniga aylanib ketadi. Mamlakatda kelib chiqqan og'ir ichki vaziyatdan giksoslar birlashmasi foydalanib qolib, ular er.av. XVII asrda avval butun Nil deltasini egallaydilar, keyin esa o'z hokimiyatlarini Yuqori Misrga tarqatishga muvaffaq bo'ladilar. Shu bilan Misrda O'rta podsholik davri tugaydi va o'zga erliklar-giksoslar hukmronligi davri boshlanib, uning hukmdorlari 15-16-Misr sulolalarini (er.av.1675-1554 yy.) tashkil etdilar.

Misr nafaqat uni, balki Sinay yarim orolini, Falastinni va Suriya cho'lini birlashtirgan bepoyon Giksos davlatining bir qismiga aylandi. 13- sulolaning qulashidan so'nggi nomalarning mustaqilligi davri va er.av. XVIII asr oxiri - XVI asr o'rtasini qamragan giksoslar hukmdorligi vaqti ikkinchi O'tish davri nomini oldi.

**Yangi podsholik davrida Misr davlati (er.av.XVI-XII asrlar).** Giksoslar bilan kurashga Misrning avvalgi poytaxti – Amon xudosi sanamining umummisr markazi joylashgan Fiva shahri hukmdorlari bosh bo'ldilar.

Janubiy sulolaning fir'avnlaridan biri Kamesu bosqinchilarni Misrdan haydab chiqarish uchun bo'lgan kurashga bosh bo'ldi. Ajnabiylar bilan bo'lgan

kurashni Kamesuning ukasi fir'avn Yaxmos tomonidan davom ettirilib, tugallanadi. Qadimgi Misrning ajoyib davri – qariyb besh yuz yil davom etgan Yangi podsholik davri 18-20-sulolalarni (taxm.er.av.1554 – 1075 yy.) qamrab olgan. Aynan shu davrda hududi bo'yicha katta Misr davlati bunyod etildi, qadimgi Misr tsivilizatsiyasi (tamadduni) esa o'z taraqqiyotining eng baland cho'qqilariga ko'tarildi. Fir'avnlr, ulkan kuch va moddiy boyliklarga ega bo'lgan holda, xo'jalik hayotini jonlantirishga va eng avvalo qishloq xo'jaligini gullab-yashnatishga yordam beruvchi siyosatni o'tkazar edilar.

Mehnat qurollarini yasash uchun (ayniqsa 19-sulola davridan) eng ko'p qo'llana boshlagan narsa bronza bo'ldi.

Yangi podsholik davrida Misr iqtisodi qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini ilgarigi vaqtlardan ko'ra ko'proq ishlab chiqara boshlagan edi.

Misrning ijtimoiy hayotidagi muhim o'zgarish bu quldorchilik munosabatlarining tarqalishi va mustahkamlanishi bo'ldi. Qullar qatori zafarli bosib olishlardan so'ng haydab kelinadigan yuz minglab asrlar hisobiga o'sib borar edi. Qullarning katta qismini o'zga yurtliklar: Falastin, Suriya, Finikiya, livanliklar, nubiyaliklar va boshqalar tashkil qilar edi. Zodagonlar, saroy a'yonlari va oliy kohinlar, armiyaning qo'mondonlik tarkibida, markaziy va noma boshqaruv apparatining amaldorlari qo'l ostida to'planar edi. Qullarni boy er egalari va hunarmandlar sotib olishlari mumkin edi. Quldorchilik munosabatlari Qadimgi Misr ijtimoiy munosabatlarining umumiy tizimida muhim rol o'ynay boshlaydi. Dastlabki vaqtlarda 13-sulola Misr fir'avnlarini qo'llab turgan noma zodagonlari va oliy kohinlar yuqori qatlami bosqinchiliklardan katta foyda ko'rdilar. Ulkan insoniy va moddiy boyliklarga ega bo'lgan noma zodagonlari va oliy Fiva kohinlari, o'z ta'sir kuchlaridan foydalanib, fir'avnlr siyosatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishga harakat qilar edilar.

Noma zodagonlari va Fiva kohinlari bilan shox xizmatidagilar orasida ziddiyatlar kuchli bo'lib, bu oxir oqibatda Exnatonni diniy islohotiga olib keldi.

Fir'avn Amenxotep IV tub diniy-siyosiy islohot o'tkazishga harakat qilib ko'radi. Bundan maqsad, bir tomondan, Misr dinini o'zgartirish, ikkinchi tomondan esa, oliy kohinlar, ayniqsa Fivaliklar siyosiy ta'sirini yo'q qilish edi. Exnatonning diniy-siyosiy islohoti va uning barbod bo'lishi Misr jamiyatida ijtimoiy tanglikning kuchayishiga olib keldi. 9-sulolaning hukmdorlari oldida Misr jamiyatining ichki birlashuvining va uning tashqi qudratining tiklashdek murakkab vazifalar turar edi.

Harbiy-siyosiy jihatdan o'nnglanishning boshi Xoremxeb (er.av.1334-1306 yy.) faoliyati bilan bog'liq edi. Xoremxeb dastlab hukmron qatlam va armiya saflarida ichki jipslashuvni maqsad qilib qo'ygan bir qator islohotlarga kirishadi.

Xoremxeb davrida Misr davlatining ichki va tashqi qudratini qayta tiklash uchun sharoitlar yaratiladi. Uning vorislari Ramzes I va Seti I, mustahkamlanib olgan harbiy-iqtisodiy kuchga suyangen holda ham shimoliy, ham janubiy yo'nalishlarda kuchli tashqi siyosat o'tkazishga kirishadilar.

Misr imperiyasini qayta tiklash va uning Yaqin Sharq hayotidagi ulkan rolini tasdiqlash er.av. XIII asrda Ramzes II (er.av.1290-1224 yy.) hukmdorligi paytida yuz berdi.

Ramzes II ning uzoq yillik boshqaruvi ulkan Misr davlati va madaniyatining taraqqiy etgan davri bo'ldi, ammo uning vorisi davridayoq ahvol o'zgara boshladi. Ramzesning merosxo'ri, uning 13 yoshli o'g'li Merneptax (er.av.1224-1214yy.) mamlakatning ham ichki, ham tashqi murakkab muammolarini hal etishi kerak edi.

Taniqli amaldor Setnaxt ichki va tashqi vaziyatni barqarorlashtirishni uddalaydi. U taxtga o'tirib, yangi 20-sulolaning (taxm. er.av. 1200 y.) asoschisiga aylanadi.

Er.av.XI asr boshida Ramzes 11 (taxm. er.av. 1075 y.) o'limidan so'ng 20sulola tugaydi. Janubda Fivadagi hokimiyat Amon xudosi oliy kohini Xerixor qo'l ostiga o'tadi. Shimolda Tanisda esa 21-sulolaning asoschisi, faqat Quyi Misrda hokimlik qilgan qandaydir Smendes (Nesubanebdjed) qo'lga o'tadi. Buvoqealar bilan Misr tarixining eng yorqin davri – Yangi podsholik davri tugadi.

Taxminan er.av. 1075 yilda Yangi podsholikning yagona markaziy davlati yiqilishi bilan Misr o'z tarixining Keyingi (Kech) davriga kiradi (er.av. 1075-332 yy.).

Bu davrda Misrni birlashtirishlar yo Misr oq suyaklarining biror bir guruhi (24, 26 va 28 sais, 29 mendes va 30 sevennit sulolalari) ta'sirining kuchayishi hisobiga yohud mamlakat ustida o'zga erliklar (22-23 liviyaliklar, 25 nubiyaliklar va 27 fors sulolalari) hukmdorligi o'rnatilishi hisobiga bo'ladi.

Mamlakatdagi butun Keyingi davr davomidagi haqiqiy siyosiy ta'sir Misr oq suyaklarining noma guruhlariga qo'lida bo'ladi.

Taxminan er.av. 945 yilda Livianing taniqli qavmlaridan birining vakili Sheshonk I 22-liviya sulolalsini ta'sis etadi (taxm. er.av. 945-722 yy.). Sheshonk I taxm. er.av. 930 yilda Iudeya (Yahudiya)ga bostirib kiradi, Quddus, Iudeyaning ko'plab shaharlari va aholi punktlarini egallaydi, boyliklarni qo'lga kiritadi.

Mamlakat ichida parokandalik o'sib borib, sulolaning o'zi turli shaharlar: Bubastis, Memfis, Garkleopolda joylashgan tarmoqlarga bo'linib ketadi.

Taxm. er.av. 808 yilda Tanis hukmdori o'zini butun Misrning shohi deb e'lon qiladi va yangi 23-sulolani boshlaydi. Bu sulola ham kelib chiqishi jihatidan Liviyadan bo'lib, mamlakatni 22 sulola bilan parallel ravishda er.av. 730 yilga qadar, ya'ni maydalanib ketgan Misr Nubiyadan kelgan yangi istilochilarning engil o'ljasiga aylangan vaqtgacha, boshqaradi.

Misr o'zini er.av. 664 yilga qadar boshqargan kushit fir'avnlari (25 Efiopiya sulolasi, qadimgi yunonlar kushitlarni efioplar deb ataganlar) tomonidan butunlay bo'ysundiriladi. Misr va Kush bir davlatga birlashtirilgan.

Ossuriya shohi Asarxadon er.av. 674 va 671 yillarda ikki yurishdan so'ng Misrni bo'ysundiradi. Ossuriylarning Misr ustidan hukmronligi 15 yil davom etadi (er.av.671-655 yy.). Kushitlar ustidan g'alaba qilgan ossuriylar 25-efiop sulolasining Misrdagi boshqaruviga barham beradilar. Shimoliy Misrning

iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan Sais shahri ossuriylar bilan kurash va mamlakatni qayta birlashtirish tashkilotchisi bo'lib chiqadi. Er.av. 655 yilda mamlakatni birlashtirish tugaydi. Birlashgan Misr, shuningdek Lidiya, ehtimol, Bobil bilan bo'lgan ittifoqqa suyangan Psammetix I mamlakatdan ossuriylarni siqib chiqaradi. Fir'avnlr taxtiga 26-Sais sulolasi (er.av. 664-525 yy.) keladi.

Psammetix I o'g'li fir'avn Nexo II (er.av. 610-595 yy.) Misrning Afrikadagi mavqeini mustahkamlaydi, shuningdek O'rta Yer dengizi savdosini kuchaytiradi.

Er.av. 525 yilda Eron shohi Kambiz Misrga qarshi urush boshlaydi. Misr tarixida birinchi fors hukmronligi deb nomlangan davr (er.av.525-404 yy.) boshlanadi.

Eron hukmronligi faqat er.av. 332 yil oxirida Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) qo'shinlari Misrga kirib kelishi bilan tugaydi. Mahalliy aholi uni xursandchilik bilan qarshi oladi va u fir'avn unvonini oladi. Shundan boshlab Misr antik dunyoning madaniy-tarixiy hududiga kiradi va o'z tarixining yangi, ellinistik bosqichiga qadam qo'yadi

**Qadimgi Misr madaniyati.** Misr madaniyati qariyb to'rt ming yil davomida yaratilib, taraqqiyotining uzoq va murakkab yo'lini bosib o'tdi.

Qadimgi misrliklar dini Nil vodiysi tabiiy sharoitlarining xususiyatlarini, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining o'ziga xosliklarini aks ettirgan.

Misrliklar quyosh, oy, Nil daryosi, halokatli sahro, odamga xavf soluvchi yirtqich hayvonlar, tabiatning turli kuchlariga sig'inar edilar. Dehqonchilikdagi sug'orish tizimi tashkilotchisi, odamlar va tabiiy kuchlar hukmdori hisoblangan, podsholik qilayotgan fir'avn ham izzat-ikrom ob'ektiga aylanadi. Misr dini uzoq yo'lni bosib o'tib, Yangi podsholik davriga kelib tugallangan diniy tizimga aylanadi. Eng ko'p hurmat qilingan oliy xudolar: sig'inish markazi Geliopolda joylashgan kunduzgi osmonda samoviy otda aylanib yuruvchi quyosh xudosi Ra, sig'inish markazi Memfis bo'lgan bir so'zi bilan xudolar va butun dunyoni yaratgan xudo-xoliq Ptah hisoblangan.

Fivaliklar Ra xudosining bir qator vazifalarini qo'shgan holda Amon xudosini ilgari suradilar va u Misrning eng asosiy xudolaridan biriga aylanadi. Amon-Ra dunyoning yaratuvchisi, podsho hokimiyati, Misr qudrati homiysi hisoblanar edi.

Qadimgi Misr xudolari ichida Osiris ham mashhur bo'lib, u o'luvchiva tiriluvchi tabiatning timsoli, narigi dunyo egasi, shohhokimiyati homiysi hisoblanardi.

Uning singlisi va ayoli Isida xudo-ona, er-xotinlik va onalik homiysi sifatida tushunilardi. Osiris va Isidaning o'g'li Xor osmon va nurning timsoli edi va fir'avnning himoyachisi, uning yerdagi tajassumi hisoblanardi. Tot donolik va hisob xudosi bo'lib, ayol xudo Soxmet qudratli kuchning timsoli, ayol xudo Xatxor osmon, muhabbat va xursandchilik xudosi hisoblanardi. Nil Xapi nomi bilan hurmat qilingan.

Podsholik qilayotgan fir'avnga sig'inish kuchli edi. Kohinlarning o'rgatishiga ko'ra, fir'avn inson qiyofasiga kirgan xudo deb hisoblangan.

Misr yozuvi er.av. IV asr oxirida paydo bo'lgan, u shakllanishning uzoq yo'lini o'tgan va rivojlangan tizim sifatida O'rta podsholik davrida asos topdi.

Er.av. II asr o'rtasiga kelib eng ko'p ishlatiladigan ierogliflar qariyb 700 tani tashkil qilar edi. Ular asosan tosh, loy lavhalar (ostrakon), yog'och va charmga yozilgan. Keyinchalik mashhur papiruslar kashf etildi.

Ierogliflar asosan hokim sinf vakillariga o'rgatilar edi. Joser fir'avni uchun birinchi piramida qurilib, keyincha bu keng rivoj topdi. Misr madaniyati tizimida ilm yuqori darajaga ko'tarilib, matematika, astronomiya va meditsina juda ham rivojlandi.

**Tayanch tushunchalar:** Qadimgi Sharq, uning tabiiy sharoitlari, geografiyasi, tarixiy-etnografik ma'lumotlar, qadimgi qabilalarning kelib joylashishlari, dastlabki davlatlarni paydo bo'lishi. Qadimiy Misr, Nil, O'rta Yer dengizi, Gerodot, Nil tuhfasi tsivilizatsiya, piramidalar, Misr shohi, Gor, Fir'avn, Snofru, Nubiya, Sinay, Falastin, Liviya, Ramzes, Setnaxt, Ramses 11, Fiva, Amon, Xerixor, Tanisda, Smendes, Liviya, Sheshonk, Quddus, Iudeya, Isida, Osiris, Soxmet, Xatxor, Nil Xap, ostrakon, papiruslar, Ieroglif, Joser, matematika, astronomiya, meditsina.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimgi Sharqning tabiiy sharoitida o'ziga xos muhim narsalar nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Qadimgi Sharq hududlariga qanday va qaysi qadimgi qabilalar ko'chishi sodir bo'ldi?
3. Qadimgi Sharq – bu...?
4. Qadimgi Sharqning geografik joylashuvi xususida nimalarni bilasiz?
5. Etnik jarayon deganda nimani tushunasiz va bu holat Qadimga Sharq hududida yashab kelgan xalq turmush tarziga qay darajada ta'sir ko'rsatdi?
6. Qadimgi Misrning geografik joylashuvi va aholisi haqida nimalarni bilasiz?
7. Qadimgi Misr hududida ilk davlat uyushmalari qachon vujudga keldi?
8. Qadimgi Misr podsholigi va uning siyosiy boshqaruvi haqida ma'lumot bering?
9. Misrda markashlashgan davlatni shakllanish jarayonlarini yoritib bering.
10. Misrga qo'shni xalqlar bosqini va uning natijasini tahlil qiling.
11. Giksoslar hukmronligi davrida Misrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqida ma'lumot bering.
12. Misrning Old Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarini qo'shimcha manbalardan foydalanib kengroq yoritib bering.

## **Mavzu: Qadimgi Misr madaniyati Reja:**

1. Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Misr dini.
3. Til, yozuv, ta'lim tizimi.
4. Adabiyot.
5. Tasviriysan'atvame'morchilik.
6. Ilmiy bilimlar.

**1. Misr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.** Qadimgi misrliklar tuzilishi bo'yicha murakkab, mazmunan boy madaniyat yaratdilar. Bu madaniyat ko'pgina Yaqin Sharq xalqlarining madaniy taraqqiyotiga hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi.

Nil vodiysining g'aroyibotlari Mesopatamiyava Hind vodiylaridan farqlanib turadi. Bundan 2500 yil oldin yunon tarixchisi va geogrifi Gerodot Misr Nilning tuxfasiligini va uning uzunligi dunyoning ko'pgina alohida geografik asosi ekanligini eslatib o'tgan<sup>7</sup>.

Misr madaniyati to'rt ming yil davomida shakllandi. Qadimgi Misr madaniyatining taraqqiyotini nima belgiladi? Birinchi navbatda, Qadimgi Misr ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari, Nil vodiysining o'zlashtirilishi, dehqonchilikning oqilona tashkil qilinishi, umummisr iqtisodining yuksak taraqqiyoti madaniy o'sishning moddiy asosini yaratdi. Shu bilan birga, madaniyat sohasidagi yutuqlar ta'lim, fan, qadimgi misrliklarning umumiy ma'naviy taraqqiyotining yuksalishi bu ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va davlatni takomillashtirishning asosiy sabablaridan biri bo'ldi.

Qadimgi Misr madaniyatida qator o'ziga xos xususiyatlar borki, bu madaniyatni chuqur takrorlanmas tizimini hosil qiladi. Uning o'ziga xosligi va takrorlanmasligi sinfiy jamiyat va davlatning kelib chiqishi hamda Nil vodiysining yopiq geografik joylashuvi natijasida boshqa xalqlarning madaniy yutuqlarini o'zlashtirishning qiyinligi bo'ldi. Nil vodiysining tabiiy sharoiti butun Misr madaniyatida chuqur iz qoldirdi. Xo'jalik hayotida Nil daryosining yetakchi o'rni, dengizdan uzoqlik, Nilni o'rab turgan jonsiz sahro, o'zining qumli bo'ronlari, jazirama issig'i, yirtqich hayvonlari bilan qadimgi Misr dunyoqarashi va diniy e'tiqodi, qadriyatlarining butun tizimi xususiyatini belgiladi.

Fir'avnning kuchli hokimiyati orqali tashkil qilingan umumjamoa mehnati bilan misrliklar qulay hayot uchun shart-sharoit yaratdilar. Shu bois, tabiatning dahshatli kuchlari oldidagi qo'rqinch, fir'avnning qudratli hokimiyati, dahshatli xudolar, ularning ulug'vorligi va qudrati qadimgi misrliklarning dunyoqarashiga singib ketgan edi. Oddiy odamlar qudratli xudolar va yanada qudratli fir'avnlarni, ularning amaldorlari oldida o'zlarining juda zaifligi va kuchsizligini his qilganlar.

---

<sup>7</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.63.

Misr madaniyatiga chuqur konservatizm va an'anaviylik xos. Misrliklar o'zlarining madaniy qadriyatlar tizimiga biror-bir yangilik kiritishdan qochdilar. Aksincha, ularda o'zlariga ma'lum g'oya, qonun, badiiy uslublarni asrash va amaliyotga tadbiiq qilish uzoq asrlar asosiy tamoyil bo'lib qoldi. Albatta, bu hol yangi unsur, g'oya va uslublarni inkor qilmadi, ammo ular asta-sekin paydo bo'ldi. Shu sababli, Misr ustalari doimo rioya qilgan an'anaviylik va konservatizm Misr san'ati uchun xos bo'lgan konseptuallik va yuqori malakalilik, mohirlik, uyg'unlikni o'zida aks ettirib, nihoyasiga yetkazib ishlangan. Bu sof Misr qonun va obrazlarining yaratilishiga olib keldi.

**2. Misr dini.** Misrda din ilk urug'chilik jamoalarida vujudga kelib, juda uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Diniy an'analar mustahkam va turg'un bo'lgan fetishizm, totemizm, ayniqsa, hayvonlarga topinish Misrda uzoq davom etgan.

Misr xudolarining panteoni juda katta bo'lib, u ilk davrda vujudga kelgan madaniyatga borib taqaladi. Unga odamlar totem-hayvonga, qabila boshlig'iga sig'inishgan. Misrliklarning xudolari hayvon qiyofasida: Anubis-o'liklar saltanatining podshosi, bo'ri boshli qilib tasvirlangan. Tot aql va yozuv xudosi. Soxmet sher boshli urush ilohasi va boshqalar.

Hayvonlar ilohiy hisoblanib, ular ibodatxonalarda saqlangan. Ibodatxonada ular yaxshi parvarish qilingan. Masalan, ilohiy hayvonlardan biri buqa xuddi shunday parvarish qilingan. U kuch-qudrat ramzi hisoblangan. Misrliklar bu buqaga sigir tanlashda ham alohida ahamiyat berishgan. Agar buqa o'lib qolgudek bo'lsa, uni mo'miyolab, marosimlar o'tkazib, alohida bir qabrga ko'mishgan. Va uning o'rniga yangi tug'ilgan ho'kizcha izlashgan. Bu juda mushkul ish hisoblangan. Chunki ho'kiz qora rangli bo'lib, peshonasida uchburchak shakldagi oq belgisi bo'lishi kerak edi. Bunday hayvonni topish juda mushkul bo'lgan. Misrliklar daraxtlar, o'simliklar va gullarga ham e'tiqod qilishgan.

Quyoshga sig'inish Misr dinida eng yuqori o'rinda turgan. Misrning o'zi «Quyosh mamlakati», uning fir'avnlari esa «Quyoshning o'g'li» deb atalgan. Qadimgi podsholikda Ra-Quyosh xudosi hisoblangan. Keyinchalik, u Amon-Ra bo'lgan. Yangi podsholik davrida esa, fir'avn Amenxotep IV (Exnaton) diniy islohot o'tkazib, yakkaxudolikni joriy qiladi. Ya'ni u hammani Atonga («Quyosh shu'lasi») sig'inishga da'vat etadi. Quyoshning belgisi (ramzi) turlicha bo'lib, u qanotli sher qiyofasida, sher ko'pgina qo'llar bilan, bu qo'llar esa, nur qiyofasida, lochin qiyofasida tasvirlangan. Unga atab ko'p madhiyalar aytilgan.

Gor (Xor) zulmatni yenguvchi xudo hisoblanib, u lochin qiyofasida tasvirlangan. Gor Osirisning o'g'li bo'lgan. «Osiris va Gor» to'g'risidagi afsona, ayniqsa, Misr dinini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Afsonada aytilishicha, hosildorlik xudosi Osiris qachonlardir Misrning podshosi bo'lgan. U odamlarga yerga ishlov berishni, bog'lar yaratishni o'rgatadi. U o'z akasi Set tomonidan o'ldiriladi. Set zulmat va yovuzlik xudosi hisoblangan. Osirisning o'g'li Gor Setni ochiq maydonga kurashga chaqirib, uni yengadi. Shundan so'ng, Gor g'olib chiqishi uchun o'z ko'zini Osirisga berib, uni qayta tiriltiradi. Qayta tirilgan Osiris

esa, yerga qaytmaydi va u yerosti o`liklar saltanatining podshosi bo`lib qoladi. Shunday qilib, uning yerdagi merosxo`ri sifatida Gor tiriklar saltanatida qoladi.

**Dafn marosimlari.** Misr hukmron tabaqalari ya`ni qirollarning asosiy vazifalari qonun va mustahkamlikni ta`minlashdan iborat. Qirollar adolat va adliya ilohasi Maat sifatida bilishgan<sup>8</sup>.

Misr madaniyatida o`lim bilan hayot doimo bir-biriga qarama-qarshi turgan. Ajalsiz ruh Misr dinida alohida o`rin egallagan. Mana shu ajalsizlikka intilish ko`mish marosimlarining shakllanishiga olib kelgan. Diniy marosimlarda har bir odam alohida xususiyatga ega bo`lgan. Masalan, sax-insonjismi, shuntuningsoyasi, rek-uningismi, ax-uningarvohihisoblangan. Bu yerda eng muhim rolni Ra-insonning joni, ya`ni ajalsizlikning negizi o`ynagan. Misr diniga ko`ra, Ra o`z jismiga birikishi va qayta dunyoga kelishi kerak bo`lgan. Chunki odam o`lganda faqat uning jismi o`ladi, ammo ruhi abadiy yashash uchun narigi dunyo-o`liklar saltanatiga mangu yashash uchun ketadi. Qadimgi misrliklarning ana shunday diniy tasavvurlari asosida odamning jasadini abadiy saqlash fikri tug`iladi va mo`miyolash jarayoni vujudga keladi. Shuningdek, ularning tanasiga hech qanday shikastlar yetmasligi uchun yoki boshqa shovqinlardan xalos bo`lish uchun piramidalar qurish fikri tug`iladi. O`lik 70 kun ichida mo`miyolanib, keyin esa ko`milgan. Uning yuragi, jigari, talog`i maxsus idish (kanopa)ga saqlangan. Qadimgi misrliklar tasavvuriga ko`ra, marhumning ruhi 70 kundan so`ng, narigi dunyoga mangu yashash uchun jo`natilgan. O`liklar saltanatiga borgan odamlarni ikkinchi o`lim kutgan. U dunyoda marhum Osiris va Anubis xudolari o`tkazadigan sudda odam o`ldirmagani, o`g`rilik qilmagani, yolg`on gapirmagani to`g`risida qasam ichisi lozim edi. Bu esa, asosan «O`liklar kitobi», «Darvozalar kitobi», «Yerosti g`orlari kitobi» kabi diniy kitoblarda aytilgan. Yangi podsholik davridan sog`onalarga «O`liklar kitobi»ning mazmunini o`zida aks ettirgan papirus yozuvlari qo`yilgan.

Qadimgi misrliklarning dini Nil vodiysining tabiiy shart-sharoitlarini o`ziga xos xususiyatlarini, qadimgi Misr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining alohida tomonlarini fantastik aks etishi edi. Misrliklar oy, quyosh, Nil vodiysi va uning atrofidagi sahro, yirtqich hayvonlar va tabiatning har xil kuchlarini ilohiylashtirdilar. Ular sun'iy sug`orish tizimini tashkil qiladigan, insonlar ustidan amr qiluvchi fir'avnga e`tiqod qildilar.

Misrliklar mingga yaqin turli xil xudolarga sig`inganlar. Xudolar mahalliy va umummisr miqyosida e`tiqod qilingan ilohlarga bo`lingan. Qaysi bir nom hukmdori-umummisr hukmdori fir'avnlilik taxtiga o`tirsa, shu nomning xudosi umummisr xudosi aylangan. Misol uchun, nom markazi bo`lgan Fiva Misr poytaxti bo`lganda, hech kinga ma`lum bo`lmagan Fiva xudosi Amon xudolar ichida bosh xudo deb tan olindi.

Misrda oliy xudo quyosh xudosi Ra yaratuvchi xudo Ptah va xudo Amonning ko`pgina vazifalarini olish bilan Misrning bosh xudolaridan biriga

---

<sup>8</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.64.

aylangan. Amon-Ra dunyoning yaratuvchisi, podsho hokimiyati, Misr harbiy qudratining homiysi bo'lgan.

Osiris o'layotgan va uyg'onayotgan tabiatning aksi, u dunyoning hukmdori, podsho hokimiyati homiysi bo'lgan. Uning rafiqasi Isida ona xudo, onalik va erxotinlik muhabbatining homiysi bo'lgan. Ularning o'g'li ham osmon va yorug'lik ifodasi, fir'avn homiysi bo'lgan. Donolik va hisob xudosi Tot; qudrat ramzi m'buda Soxmet, osmon xudosi Xatxor quvonch va sevgi xudosi bo'lgan. Sia-bilim xudosi, Maat-adolat xudosi bo'lib, adolat, aql kabi mavhum tushunchalarni ifodalagan.

Misr Nubiya, Falastin va Suriya bilan yaqin aloqada bo'lgani sababli, chet el xudolari Anat, Astarta, ma'bud Reshefa (Semit), Dedun (Kush xudosi) Misr xudolari panteoniga qabul qilingan. Misr diniy tasavvurlarida fetishizm va totemizm qoldiqlari saqlanib qolgan. Misrliklar o'z xudolarini hayvon, ilon, qurbaqa tarzida tasavvur qilishlari shu sababli edi. Xudo Apis kuchli ho'kiz qiyofasida, ma'buda Soxmet-she, Tot-pavian, suv girdobi xudosi Sebek-timsoh, Yuqori-Quyi Misr birligi timsoli bo'lgan ma'buda Uadjet-ilon-kobra ko'rinishida ifodalangan.

Xudolarning ko'pligi, ularning vazifalarini bir-biriga bog'lanib ketishi kohinlarning xudolar panteonini tartibga solish, ular o'rtasida aniq munosabatlarni o'rnatish vazifasini qo'yadi. Geliopol kohinlari ma'lum darajada xudolar o'rtasidagi munosabatlar va ularning dunyoni yaratishdagi rolini ko'rsatadigan tizimni ishlab chiqdilar. Shunga ko'ra, dastlab ibtidoiy suv xudosi Nun yashadi. Undan xudo Atul (Ra) paydo bo'ldi. Atul (Ra) o'zidan suv xudosi Shu va uning xotini Tefnut-namlikni paydo qildi. Ulardan yer xudosi Geb, osmon ma'budasi Nut tug'ilib, ulardan o'z navbatida, Osiris, Isida, Sia va Neftida tug'ilgan. Bu qadimgi ilohlar ilk ilohiy to'qqizlik-Enneada oilasiga birlashdi. Ana shu ilohlardan boshqa Misr xudolari tarqalgan.

Podsholik qilayotgan va vafot etgan fir'avn o'z ibodatxonasiga ega bo'lgan. Kohinlar bu ibodatxonalarda qurbonlik keltirganlar va fir'avnga sig'inganlar. Ulug'vor piramidalar, hashamatli sog'onalar bunyod qilish fir'avnni ilohiylashtirishning yana bir belgisi edi. Fir'avn ilohiyligining ramziy aks etishi sfinks ko'rinishida bo'lgan. Misrda yagona xudoga sig'inish konsepsiyasi o'z o'rnini topmagan (Exnaton islohoti).

Misr dinida u dunyodagi hayotga katta o'rin berilgan. Inson go'yoki, uch asosiy substansiya: jismoniy tana, uning ma'naviy ko'rinishi («Ka») va uning ruhi («Ba») dan iborat. Faqat shu uch unsur birgalikda yashashga imkon beradi. Demak, shunday ekan, odamlarning jasadini saqlash (mo'miyolash) kerak. Ana shundagina mo'miyo oldida «Ka» va «Ba» turadi. O'limdan keyingi hayot bu hayotning davomi deb tushuniladi.

Ibodatxonalar ko'p sonli kohinlarni ta'minlash, bayram va ziyofatlarni tashkil qilish uchun o'z xo'jaliklariga ega bo'lgan. Fir'avnlr, zodagonlar ibodatxonaga hadya qilgan yerlarda ko'plab odamlar ishlagan. Ibodatxonalar nafaqat mamlakatni diniy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol

o`ynab qolmay, ibodatxona kohinlari davlat siyosatiga faol aralashganlar. Sulolaviy tushkunlik paytida yangi fir`avnni tanlanishi bevosita Amon-Ra oliy kohinlariga bog`liq bo`lgan.

3. Til, yozuv, ta`lim tizimi. Qadimgi misrliklarning tili va yozuvi ming yillik tarix davomida o`z taraqqiyotining 5 bosqichini bosib o`tdi:

1. Qadimgi podsholik davridagi til;
2. O`rta Misr klassik tili (bu tilda noyob adabiy asarlar yaratilgan);
3. Yangi Misr tili (er. avv. XIV-VIII asrlar); 4. Demotik til (er. avv. VIII-eramizning V asri); 5. Kopt tili (III-VII asrlari).

Misrdan bizgacha maktab matnlari yozilgan papiruslar yetib kelgan. Jumladan, o`quvchilarning yozuvlari, o`quv qo`llanmalar, namuna uchun adabiy matnlar. Misrliklar yozuvni "Ilohiy so`z" deb aytganlar. O`qituvchilar o`quvchilar uchun mashqlar, ko`rsatmalar tuzganlar. Misrda o`qish va yozishni bilgan kishilar qadrlangan. Zodagonlar o`zlari va bolalarining savodli bo`lishiga jiddiy e`tibor berganlar. Ta`lim tizimi shakllanib, maktablar paydo bo`lgan. Ular ikki bosqichdan iborat bo`lgan. Maxsus tibbiyot maktablari bo`lib, ularda tabiblar tayyorlangan.

4. Adabiyot. Misrliklar dunyoda eng qadimgi qiziqarli g`oyalar, badiiy obrazlar bilan sug`orilgan boy adabiyotlarni yaratdilar. Adabiyotning rivojlanishi uchun qulay omil bo`lib xalq og`zaki ijodi xizmat qildi. Ilk abadiy asarlar er. avv. IV ming yillikda shakllandi. Ertaklar, didaktik nasihatnomalar, zodagonlar tarjimai hollari, diniy matnlar va poetik asarlar Qadimgi podsholik davridayoq paydo bo`ldi.

Misr adabiyotida nasihatnoma va bashoratlar didaktik janri to`laroq aks etgan. Nasihatnomalardan eng qadimgisi «Ptaxotep nasihatnomasi»dir. Keyingilari «Gerakleopol podshosi Axtoyning o`g`li Merikaraga nasihati», «Fir`avn Amenemxet I ning nasihatnomasi» kabi asarlarda davlatni boshqarish yo`l-yo`riqlari bayon qilingan. «Axtoyning o`gli Duaufaga nasihati»da mirzalikni boshqa kasblardan afzalligi ko`rsatiladi.

Yangi podsholik davrida nasihatnomalardan «Ani nasihati», «Amenemope nasihati»da turmush axloqi va an`anaviy axloq qoidalari batafsil bayon qilinadi. Ertaklar Misr adabiyotida alohida bir janr sifatida shakllandi. Ulardan eng mashhurlari «Fir`avn Xufu va sehrarlar», «Kema halokatiga uchraganlar», «Egri va to`g`ri», «Ikki aka-uka» va «Fir`avn Petubastis to`g`risida» gi bir necha ertaklardir.

**4. Tasviriy san`at va me`morchilik.** Insoniyat tomonidan eng ko`p qo`llanilgan metallardan biri mis edi, osonlik bilan eritilgan va shakl berilgan (yatirashi-yu o`ziga tortishini aytmasa ham bo`lardi), taqinchoqlar, haykallar va boshqa qimmatbaho mahsulotlar uchun foydalanilgan Misr axolisi ham o`zining hunarmandchiligida mis metalidan unumli foydalanilganligini arxelogik manbalar tasdiqlaydi.

Piramida va sog'onalar qurish uchun I-II sulola fir'avnlari dafn qilingan mastabalar namuna bo'lib xizmat qildi. III sulola fir'avni Joser uchun balandligi 60 m bo'lgan zinapoyasimon ilk piramida mastaba o'rnida qurildi. Bu kichrayib borayotgan olti ustma-ust qo'yilgan mastaba edi. IV sulola fir'avni Xufu piramidasi (146,6 m balandligi, uzunligi 233 m, maydon hajmi 54 ming. kv. m, 2 tonna 2,3 mln. tosh), Xafra piramidasi (balandligi 140 m, uzunligi asosi 220 m) bunyod qilindi. Xafra piramidasidan so'ng, piramidalar kichik hajmda qurila boshlandi. Ibodatxonalar qurilishi o'zgacha me'morchilik shaklida bo'ldi. Karnak va Luksorda xudo Amon-Raga bag'ishlab ibodatxonalar qurildi. Bu ibodatxonalar xarobalari bizgacha yetib kelgan. Ular juda ulkan, atrof manzaraga uyg'un qo'shib ketgan, hashamatli bezalgan edi. Ularda yuzlab keng xonalar, katta hovlilar, xudolarning ulug'vor haykallari, sfinks, pilonlar va xiyobon (alleya)lar mavjud. Karnak ibodatxonasida kolonna zali 5,5 ming kv. metr bo'lib, 134 kolonna bor. 12 markaziy kolonnaning balandligi 21 m, eni 10 m, aylanasi 15 m. Ibodatxonada 500 ta toshdan, 17 ming jezdan yasalgan haykal va haykalchalar mavjud bo'lgan. Ular qadimda yashirib qo'yilgan joydan topilgan.

**5. Ilmiy bilimlar.** Misr madaniyatida fan yetakchi o'rin tutadi. U asosan matematika, astronomiya, tibbiyot yo'nalishlarida rivojlandi. Misr kalendari osmon jismlari va Nil daryosining mavsumiy o'zgarishi asosida tuzilib, yil uch mavsum, har mavsum to'rt oyga bo'lingan. Har oy uch o'n kunlik dekadani tashkil etgan. Yilda 36 dekada bo'lgan. Oxirgi oyga 5 kun qo'shib, kalendar va astronomik yil (365 kun) tenglashtirilgan. Sutka 24 soatga bo'linib, yozda kunduz soatlari uzoq, qishda qisqa bo'lgan. Misrliklar yulduzlarning aniq kattaligini o'lchaganlar. Suv va quyosh soatlarini kashf qilganlar. Ular 10 lik tizimga yaqin hisobni yaratdilar. Ular qo'shish, ayirish, bo'lish va ko'paytirishni bilganlar. Misrliklarning bu yutuqlarini yunon-rim madaniyati o'zlashtirdi.

Misr jarrohlari butun Old Osiyoga mashhur bo'lganlar. Bizgacha 10 tibbiyot papirusi yetib kelgan. Tabiblar 100 ga yaqin kasalliklarni davolash usullarini bilganlar. Qon aylanishi va yurak faoliyati to'g'risida bilimga ega bo'lganlar. Misrliklar ilk bor tish protezini qo'yganlar. Qadimgi Misrning tibbiyot retseptlari, magiya mantlaridan o'rta asrlarda arablar va Yevropa tibbiyoti foydalangan. Misrliklar qadimgi so'z ensiklopediyalarini tuzganlar.

**Tayanch tushunchalar:** Ra, Ptax, Amon, Osiris, Isida, Xatxor, Sia, Maat, kanopa, Sebek, Tot-pavian, Mut, Xonsu, Ka, Ba, ostrakon, ilohiy so'z, demotik til, kopt tili, piktografiya, piramida, Petubastis, Sinuxet hikoyasi, Xafra, Soxmetsher, astronomik yil, kalendar, suv va quyosh soatlari.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimgi Misrdagi diniy e'tiqodlar haqida ma'lumot bering.
2. Misrda ta'lim tizimi va uning rivojlanish holatini qo'shimcha manbalar asosida tahlil eting.

3. Misr madaniyatini jahon madaniyatida tutgan oʻrniga qiyosiy baho bering.
4. Qadimgi Misr adabiyoti yodgorliklari.
5. Qadimgi Misr dini.
6. Qadimgi Misr madaniyati.
7. Qadimgi Misr meʼmorchilik sanʼati.

## **Maʼruza №5**

### **Mavzu: Qadimgi Mesopotamiya. Reja:**

1. Geografik oʻrni va tabiiy sharoiti
2. Qadimgi Mesopotamiya aholisi.
3. Davrlashtirish.
4. Mesopotamiyaning qadimiy tarixiy manbalari.
5. Tarixnavislik.
6. Arxeologik maʼlumotlar.

**1. Geografik oʻrni va tabiiy sharoiti.** Shimolda Armaniston togʻlaridan janubda Fors qoʻltigʻigacha, sharqda Eronning togʻli viloyatlaridan gʻarbda Suriya-Mesopotamiya choʻllarigacha choʻzilib ketgan hudud qadimda yunon geograflari tomonidan Mesopotamiya (Ikki daryo oraligʻi-Frot va Dajla daryolari oraligʻi) deb atalgan. Hozir bu asosan Iroq Respublikasi hududidir.

Dajla va Frot daryolari Arman togʻlaridan boshlanib, Fors qoʻltigʻiga quyiladi. Daryo suvlari minerallarga boy loyqa olib borib, toshqin vaqtida dalalarga toshib, hosildor qatlam hosil qiladi.

Ikki daryo oraligʻida hosil olish uchun yil davomida sunʼiy sugʻorish ishlarini (melioratsiya) ishlarini amalga oshirish kerak edi. Bu yerda qadimdan odamlar kanal va dambalar qurganlar. Mesopotamiya iqlimi shimol va janubda bir xil emas. Shimolda quruq subtropik zonada qishda baʼzida qor yogʻadi, bahor va kuzda yomgʻir boʻladi. Janub juda issiq va quruq iqlimli.

Mesopotamiya qadimda loy va tabiiy asfalt moʻl-koʻl boʻlgan. Shimolda qoʻrgʻoshin, qalay, temir va tosh ham uchraydi.

Mesopotamiya florasi juda kambagʻal. Faqat shimolda togʻli hududda har xil daraxtlar uchraydi. Qadimda daryo vodiysida tol daraxti, janubda qamishning turli xillari boʻlgan. Xurmo palmasi muhim rol oʻynagan. Strabonning aytishicha, qadimda uning 360 xil foydali xossasini bilganlar. Uzun va mevali daraxtlar, tariq, polba, kanop, bodring, sarimsoq, baqlajon, oshqovoq, loviya va noʻxat oʻstirilgan.

Qadimda Mesopotamiya faunasi xilma-xil koʻrinishda edi. Daryolarda baliq koʻp boʻlgan. Qushlar, eshak, choʻchqa, kiyik, quyon, tuyaqush, sherlar toʻqay va sahrolarda moʻl-koʻl boʻlgan. Mesopotamiya Yaqin Sharqning keng boʻshligʻida

joylashganligi uchun xalqaro savdoda yetakchi rol o`ynagan. Ko`pgina yo`llar g`arbdan sharqqa, shimoldan janubga shu yerdan o`tgan.

Qishloq xo`jaligining vujudga kelishi bilan insoniyat tarixida yana bir qadam oldinga siljish bo`lib, buning natijasida jahon tarixida sivilizatsiyalar paydo bo`ldi.

G'arb madaniyati va urf-odati tarix tadqiqotlari sifatida ko`rilmoqda. Ilk inson sivilizatsiyasi bundan 3500 yil avval Mesopotamiyada yuzaga kelgan. Keyingi 2000 yil davomida uch yoki to`rtta yangi sivilizatsiyalar ham aniqlanishi mumkin. Bu xalqlar, qishloq xo`jaliklari barcha, ishlarini ishlab chiqarishgan. asosiy yangiliklar soni yildan-yilga oshib, qaytadan kashf qilinishi, demakdir.

Ammo madaniyatlar tekis tarqalmagan edi. Bundan tashqari, bir qancha jahon tarixchilari sivilizatsiyalar haqida ko`plab prinsplarni ishlab chiqishgan, ularning ba`zilari juda ham qisqa bo`lishiga qaramay diqqatga sazovordir.

Taxminan jahon tarixida ilk sivilizatsiya davri miloddan avvalgi 3500- 1000-yillardan boshlanadi.

**A.** Ilk sivilizatsiya mil.avv. 5000 ming yillikda Yaqin Sharqda qishloq xo`jaligining vujudga kelishi bilan paydo bo`ldi. Bu vaqtga qadar qishloq xo`jaligi madaniyati faqatgina ayrim minglab odamlar yashagan hududlarda mavjud bo`lgan<sup>9</sup>.

**B.** Shuni aytish kerakki, qishloq xo`jaligi sivilizatsiyalarga olib borishda asosiy omillardan biridir. Xuddi G`arbiy Afrika sivilizatsiyasi singari.

**II.** Qishloq xo`jaligida texnologiyani yanada rivojlanishi dastlab Yaqin Sharqda paydo bo`lgan.

**A.** Mil. avv. 4000 yillarda Dajla va Frot vodiysida asbob-uskunalaridan foydalanishgan. Markaziy Osiyoda xattoki g`ildiraklarni ishlatishgan.

**B.** Dastlab rivojlangan paytida bronza mahsuloti harbiy sohada xalqaro oldi- sotdi, sayohat davrida bronzani muomalaga kiritilishi rivojlanishga katta hissa qo`shgan.

**C.** Mesopotamiyada rivojlanishga asos solingan. Bobil va Xett davlatlari, ossuriyaliklar, Xaldeydagi va boshqa davlatlar ham hamrohlik qilgan. Tarixiy joylarning qurilishi ko`pgina Markaziy Osiyodagilarni ham o`ziga jalb qilgan.

**III.**Qishloq xo`jaligida rivojlanishga bir qator o`z xissalarini qo`shganlar.

**A.** Bu sivilizatsiyada qishloq xo`jalik ishlab chiqarish profitsiti yo`lga qo`yilgan, tarixchilar ham shuni tasdiqlaganlar.

**B.** Shumer sivilizatsiyasi rivojlanishda hokimiyat bilan bog`liq bo`lgani holda bevosita jamoatga ham bog`liq bo`lgan.

**C.** Sivilizatsiyaning yana bir xususiyati shaharlarning mavjudligi madaniy almashinuv va texnologik rivojlanishga ko`maklashishdir. Shuningdek qishloq xo`jalik jamiyatining nozik savdo-sotiq bilan bog`liq savdogar sinfi rivojlanganligidir.

---

<sup>9</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p.11.

**D.** Bu rivojlanish davomida hujjatlar yuritish va buyrokratiya, xalqaro aloqa va savdoni kengaytirish, ilm fandagi rivojlanishlar boshlangan<sup>10</sup>.

## **2. Qadimgi Mesopotamiya aholisi.**

Mesopotamiya shaharlarida ko'chmanchilarning oqsoqollari chet ellik bo'lgan degan ehtimol bor, ammo ular bir-biriga begona bo'lmagan. Ular Mesopotamiya shahar hayotiga va madaniyatini anglashda muhim ro'l o'ynagan. Bu qishloq odamlari hayvonlarni sug'orish uchun daryo yaqinida qishlaganlar. Jazirama yozda o'zlarining salqin vodiylariga qaytishgan.<sup>11</sup>

Transhumant herders may have been "foreigners" in the cities of Mesopotamia, but they were not strangers to them. They had always played an important role in Mesopotamian urban life and knew the culture of its citystates. These rural folk wintered in villages close to the river to water their animals, which grazed on fallow fields. In the scorching summer, they retreated to the cooler highlands.

Mesopotamiyada odamlar qadimdan o'nasha boshlagan. Neolit davrida bu jarayon tezlashgan. Dastlab iqlimi qulay shimol o'zlashtirilgan. Qadimgi Xassun, Xalaf madaniyatining etnik kelib chiqishi noma'lum. Janubiy Mesopotamiyaning ilk manzilgohlari keyinroq, er. avv. IV ming yillikda va er.

avv. IV ming yillikning II yarmida El-Ubayd madaniyati bilan belgilanadi. Ba'zi tadqiqotchilar bu madaniyatni shumerlarga tegishli deb, boshqalari protoshumerlarga bog'laydilar. Shumerlarning Janubiy Mesopotamiyada paydo bo'lishi taxminan, er. avv. IV ming yilliklar bilan belgilanadi. Shumer tilining qaysi til oilasiga mansubligi ham noma'lum. Shumerlar mahalliy aholi bilan aloqa o'rnatib, ulardan bir qancha xo'jalik yutuqlari, diniy e'tiqodlar va toponomik nomlarni o'zlashtirib olganlar.

Mesopotamiyaning shimolida er. avv. III ming yillikdan boshlab sharqiy semit chorvador qabilalari yashagan. Ular akkad tilida so'zlashgan. Er. avv. III ming yillik oxirida g'arb-Suriya cho'llaridan Mesopotamiyaga g'arbiy semit chorvador qabilalari kirib kelgan. Akkadlar ularni amoriylar deb atashgan (akkadcha «Amurri», «Suriya» yoki «G'arb» ma'nosini anglatadi). Er. avv. IIII ming yilliklarning birinchi yarmida amoriylar Mesopotamiyada bir necha hukmdor sulolalarga asos solganlar. Qadimgi Shimoliy Mesopotamiya, Shimoliy Suriya va Arman tog'larida xurrit qabilalari yashagan. Shumer va akkadlar ular va ularning mamlakatini Subarti deb atashgan.

Er. avv. III ming yillikdan Shimoliy-Sharqiy Mesopotamiyada Diyali daryosidan Urmiya ko'ligacha bo'lgan hududda yarim ko'chmanchi kutiy (gutiy) qabilalari yashagan. Kassit qabilalari Shimoliy-G'arbiy Eronda, elamlardan shimolda hayot kechirgan. Ular er. avv. XVI asrda Bobilni bosib olib, o'z sulolalariga asos soldilar. Kassitlar mahalliy madaniyat, tilni qabul qilib, mahalliy aholini assimilyasiya qildilar. Er. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmida

---

<sup>10</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p.12. <sup>11</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. 2011, p.96.

Shimoliy Armaniston va Suriya choʻlidan Shimoliy Mesopotamiya hududlariga gʻarbiy semit guruhiga mansub kassit qabilalari kirib keldi. Ular er. avv. XII asr oxirida Shimoliy Suriya va Janubiy-Gʻarbiy Mesopotamiyada kichik davlatlar barpo qildilar. Ular er. avv. I ming yillik boshlarida xurrit va amoriy aholisi bilan qoʻshilib ketdilar. Oromiy tili bu yerda keng tarqaldi. Er. avv. X asrda Janubiy Mesopotamiyaga oromiylarga qarindosh xaldey qabilalari kelib oʻrnashdi. Bu etnik guruhlarining qadimgi Mesopotamiyaga migratsiyasi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar yuz berdi.

**3. Davrlashtirish.** Mesopotamiya hududida er. avv. IV ming yillikdan III ming yillikgacha ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish jarayoni bordi. Shumerlarning er. avv. IV ming yillikni boshlarida Janubiy Mesopotamiyaga kelishi bilan Uruk madaniyati boshlandi.

Er. avv. III ming yillikdan boshlab mamlakatning janubiy qismida shumerlarning kichik shahar-davlatlari paydo boʻldi. Er. avv. III ming yillik ilk sulola davri deb ataladi. Bu davrda ilk shahar-davlatlar paydo boʻldi. Ayniqsa, janubda shumerlarning Eredu, Ur, Lagash, Larsa, Uruk, Umma, Shuruppak, Isin, Nippur va Kish kabi shahar-davlatlar paydo boʻldi. Er. avv. III ming yillikning oxiri kuchli mutloq monarxiyalar tashkil topish davri hisoblanadi. Er. avv. XXIII-XXI asrlar siyosiy markaz Mesopotamiyaning markaziga koʻchib, bu yerda Akkad davlati tashkil topadi va uning tarkibiga Shumer janubi va Shimoliy Mesopotamiya kiradi. Kutiyalar hujumi sababli, Akkad podsholigi yemirilib, yetakchilik Shumer-Akkad podsholigi qoʻliga oʻtadi.

Er. avv. II ming yillikning boshlarida Ikki daryo oraligʻida Bobil podsholigi yuksalib, Bobil boshchiligida butun mamlakat birlashtiriladi. Uning tarixi quyidagi davrlarga boʻlinadi:

1. Qadimgi Bobil yoki amoriy davri (er. avv. XIX-XVI asrlar);
2. Oʻrta Bobil yoki kassit davri (er. avv. XV-XII asrlar);
3. Bobilning siyosiy tushkunlik davri (er. avv. XII-VII asrlar);
4. Yangi Bobilning qisqa qayta uygʻonish davri (er. avv. VII-VI asrlar )

va Eron tomonidan malakatning bosib olinishi.

Bosqinchilar koʻpayishi bois koʻchmanchi odamlar oʻtror birlashmalarni bosib olgan. Nihoyat miloddan avvalgi 2004 yilda gʻarbiy choʻllik Ammoreylar Eronning yassi togʻliklardan kelgan odamlar bilan ittifoqda bir asrdan koʻproq janubiy-gʻarbiy Eron va butun Mesopotamiyaninazorat qilgan Urning 3sulolasini yiqitdilar<sup>11</sup>.

**4. Mesopotamiyaning qadimiy tarixiy manbalari.** Qadimgi Mesopotamiya tarixi boʻyicha asosiy manbalarga moddiy madaniyat yodgorliklari, yozma hujjatlar va adabiy asarlar, antik mualliflar asarlari kiradi.

**Moddiy madaniyat yodgorliklari.** Er. avv. III-I ming yilliklarga oid moddiy madaniyat yodgorliklari Mesopotamiyaning qadimgi Eredu, Uruk, Lagash, Larsa, Nippur, Eshnunna, Mari, Ashshur, Nineviya va Bobil kabi shaharlarining

---

<sup>11</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.96-97.

xarobalarini arxeologik o'rganish natijasida ma'lum. Shaharlardan zinapoyasimon minora, saroylar, ulkan ibodatxonalar, turar joylar, xo'jalik inshootlari, san'at asarlari va uy anjomlari topilgan. Mesopotamiyaning er. avv. III-II ming yilliklarga oid silindrsimon stealit, lazurit, serdolikdan yasalgan muhrlari Misr, Baxrayn va Hindistondan ko'plab topilgan.

**Xo'jalik hujjatlari.** Mesopotamiya tarixiga oid eng qadimgi hujjatlar (er. avv. III ming yillik boshlari) Uruk va Jamdat-Nasrdan topilgan mingga yaqin loy taxtachalardir. Ular piktografik belgilar bilan yozilib, hali oxirigacha o'qilmagan. Lagashdan er. avv. III ming yillikka oid xo'jalik hujjatlari topilgan. Ayniqsa, er. avv. II ming yillikka oid ko'pgina xo'jalik hujjatlari mavjud. Ular davlat arxivlari, ibodatxona va xususiy arxivlarda saqlanib qolgan. Hozirgi Turkiya hududidagi Kultepadan er. avv. II ming yillikka oid osur va amoriy savdogarlariga tegishli qarz, tilxat va sud qarorlari aks etgan 10.000 loy taxtachalardan iborat arxiv; er. avv. II ming yillikka oid qadimgi Arrapxadan topilgan 4000 loy taxtacha; er. avv. XII-XI asrlarga oid Ashshur shahri arxivi, er. avv. I ming yillikka oid Nippur, Bobil, Borsippa, Ur va Uruk shaharlari kesishgan joylardan topilgan arxivlar qadimgi Mesopotamiya xo'jalik hayoti to'g'risida muhim ma'lumot beradi. Ayniqsa, Nippurdagi savdo-tadbirkorlik bilan shug'ullangan «Murashu uyi»dan topilgan er. avv. V asrga oid 700 hujjat diqqatga sazovordir.

G'arb olimlarining ta'kidlashlarichaDunyodagi ilk shaharlashgan markazlardan biri qadimiy Uruk shahri bo'lgan. Janubiy Mesopotamiyada Yefreyt daryosi irmogida joylashgan edi, milodda avvalgi so'nggi to'rt mingyillikkacha 10 000 dan ortiq insonlarga boshpana bo'lgan va ko'plab ijtimoiy infratuzilmalar va ibodatxonalar bilan maqtana olar edi. Bir ibodatxona miloddan avvalgi 3000-yilgacha saqlanib qolgan edi; ustidan ohak suvalgan paxsa devorlardan iborat bo'lib, tekislik ustida qad rostlagandi. Boshqa bir muqaddas qadamjoda, ma'muriy binolar va ibodatxonalar puxta ishlab chiqqigan ustunlar bilan bezatilgandi. Rangdor toshli konuslar puxta geometrik o'lchovlar asosida yaratilib, binolar ustini o'rab turardi, bu esa Uruk shahrini qirol

Gilgameshga bagishlangan dostonidagi "Nur taratuvchi shahar"ga qiyoslardi.

**Huquqiy hujjatlar.** Bizgacha Mesopotamiya tarixiga tegishli ko'plab huquqiy hujjatlar yetib kelgan. Ulardan eng qadimgisi podsho SHulgi qonunlari (er. avv. III ming yillikning oxiri); er. avv. XX asrga oid Eshnunna qonunlari, undan kirish va 59 modda saqlanib qolgan; er. avv. II ming yillik boshlariga tegishli Larsa va Issin qonunlari parchalari; Lipit-Ishtar nomli hukmdor qonunlarining kirish, xulosaning bir qismi va 40 ga yaqin qonun moddalari bizgacha yetib kelgan.

Eng katta qonunlar to'plami 247 modda, asosiy qism, xulosadan iborat Xammurapi qonunlaridir. Er. avv. II ming yillik o'rtalariga oid O'rta Osuriya qonunlari, Yangi Bobil podsholigiga oid 20 ga yaqin qonun moddalari bizgacha yetib kelgan.

**Diplomatik hujjatlar.** Eng qadimgi diplomatik hujjatlardan ikki loy silindrda bitilgan er. avv. XXIV asrga oid Lagash va Umma o'rtasidagi chegara

janjali to'grisidagi yozuv bizgacha yetib kelgan. Er. avv. XXIII asrga oid Akkad va Elam davlatlari o'rtasidagi shartnoma; er.avv. II ming yillik boshlariga tegishli Mari podshosining Bobil, Suriya va Finikiya bilan diplomatik yozishmalari matnlari topilgan. Er. avv. II ming yillikda Old Osiyo, Misr tarixi va xalqaro munosabatlar to'grisidaboy ma'lumot beradigan bosh manba Misrda topilgan Tell-Amarnaarxividir.

**Tarixiy mazmundagi yozuvlar.** SHumer shaharlari, Akkad, Bobil va Osuriya davlatlari podsholarining bizgacha yetib kelgan yozuvlari juda katta ilmiy qimmatga egadir. SHunday yozuvlardan biri er. avv. XXIV asrga oid Lagash davlatining yuksalishi, uning qo'shni Umma bilan urushi to'grisida hikoya qiladigan Lagash hokimi Eannatumning chegarada tosh taxtaga bitilgan «Kalxatlar stelasi» deb ataladigan yozuvidir. Er. avv. XXIV asrga oid Lagash hokimi Urukagina, er. avv. XXII asrga oid Lagash hokimi Gudeaning qurilish va bag'ishlov yozuvlari, Akkad podshosi Rimushning (er. avv. XXIII asr) Elamga yurishlari to'grisidagi yozuvlari va «Manishtusu yodgorligi (obelisk)»da podsho yer zahirasi, uning jamoa yeri hisobidan ko'payishi to'grisida ma'lumot berilgan.

Bizgacha Osuriya podsholarining judako'p yozuvlari yetib kelgan. «Sargon II ning Ashshurga xati», er. avv. 714-yilda Urartuga qarshi yurishi bayon qilingan xatlari yetib kelgan. Podsho Ashshurbanipalning batafsil tarixiy ma'lumot beruvchi yilnomasi shular jumlasidandir. Yangi Bobil podsholarining 140 ga yaqin yozuvlari bizga ma'lum. Tarixiy asarlar keyinroq, er. avv. IV-III asarlarda paydo bo'ldi. Kohin Beroesning (Bobildagi Marduk ibodatxoansi kohini) 3 qismdan ibotrat «Bobil va Xaldey tarixi»da to'fon davridan makedoniyalik Iskandar davrigacha bo'lgan voqealar bayon qilingan. Bizgachabuasarning parchalari o'rtaasr tarixchilari asarlarida keltirilgan ma'lumotlar orqali yetib kelgan.

**SHumer-Akkad adabiy yodgorliklari.** Bizgacha Mesopotamiya tarixiga oid qator adabiy yodgorliklar yetib kelgan. Jumladan,Uruk podshosi Jmerkar to'grisidagi epik poemalardaSHumerning ilk suloladavrida (er. avv. III ming yillik boshlari) uzoq mamlakat Aratta (Eron hududi) bilan aloqasi to'grisida qiziqarli ma'lumotlar beriladi.

SHumerning «Gilgamesh va Aga» poemasida Uruk shahrining Kish shahri qaramligidan mustaqil bo'lishi uchun kurashi to'grisida aniq ma'lumotlar mavjud. Akkad podsholigining asoschisi Buyuk Sargon to'grisidagi Akkadafsonalari saqlanib qolgan.

SHumer, Bobil va Osuriyaadabiy yodgorliklaridan qimmatli tarixiy ma'lumotlar olish mumkin. «Gilgamesh» dostoni haqiqiy tarixiy xazina hisoblanib, uning matni Nineviya shahridagi mashhur Osuriya podshosi Ashshurbanipal (er. avv. VII asr) kutubxonasidan topilgan. Bu doston er. avv. II ming yillik boshlaridayaratilgan deb taxmin qilinadi.

**Antik mualliflar asarlari.** Antik mualliflar Mesopotamiya tabiati, iqlimi va aholisining urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari, yutuqlari va tarixiy afsonalari to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar.

Mesopotamiya to'g'risida eng batafsil ma'lumotlarni Mesopotamiyaga sayohat qilgan yunon tarixchisi Gerodot beradi (er. avv V asr). Ko'p yillar Eronda yashagan Gerodotning kichik zamondoshi knidlik Ktesiy 23 kitobdan iborat «Eron tarixi» asarida Mesopotamiyaga ancha katta o'rin ajratgan. Ammo Ktesiy tarixini bayon qilish afsonaviy an'analarga asoslangan bo'lib, voqealarni soxtalashtirish, xatolarni ko'pligi uchraydi. Er. avv. V asrda fors shahzodasi Kirning yollanma qo'shinida askar bo'lib Mesopotamiyaga kelgan yunon tarixchisi Ksenofontning «Kiropediya» va «Anabasis» asarlarida Dajla va Frot daryo vodiylari tasviri, mamlakat xalqlari va urf-odatlarini to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Strabonning «Geografiya» asarining (er. avv. I asr-eramizning I asri) 16 kitobi Mesopotamiyaga maxsus bag'ishlanib, boy ma'lumotlar beradi. Mesopotamiya tarixi bo'yicha bir qancha ma'lumotlar Iosif Flaviy va Rim tarixchisi Pompey Trog asarlarida uchraydi.

**5. Tarixnavislik. Mixxatning o'qilishi (deshifrovkasi).** Mesopotamiya va Erongabirinchii ilmiy safar qilgan yevropalik odam XVIII asrdaniyalik olim Konstantin Nibur edi. U Yevropaga qadimgi Eron poytaxti Persepol saroyidan mixxat yozuvlarini olib keldi.

1802-yilda qadimgi yunon va lotin grammatikasi o'qituvchisi, nemis olimi Grotofend mixxat yozuvining 39 tabelgisidan 10 tasini o'qidi. XIX asrning 3040-yillaridaYaqin SHarqda uzoq yillar ishlagan ingliz harbiysi vadiplomati G.Roulingson mixxatlarning o'qilishida katta hissa qo'shdi. U Eronning Hamadon (Midiyaning qadimgi poytaxti Ekbatana) shahri yaqinidan Behistun qoyasidaDoro I ning uch tildagi ulkan tekshirdi. 1947-yilda Roulingson Behustun yozuvining Bobil qismidagi 600 belgidan 250 tasini o'qidi. 1855yildaBehistun yozuvining uchinchi qismi bo'lgan elam tilidagi mixxatlar ham olimlar tomonidan o'qildi. XIX asrning 90-yillarida nemis olimi F. Delichakkad tilining grammatikasi va lug'atini yaratdi. Olimlar J. Oppenxeym, E. Xinks vaboshqalar Mesopotamiyaning Akkad mixxatlarini o'qishga o'z hissalarini qo'shdilar. SHumer mixxat yozuvini o'qish XIX asrning I yarmida F. Tyurgo-Danjan, O. Pepel, A. Daymel vaA. Falkenshteynlar tomonidan amalga oshirildi.

**6. Arxeologik ma'lumotlar.** Qadimgi Mesopotamiyadagi birinchi arxeologik qazishmalar XIX asr o'rtalarida uning shimoliy qismi Osuriya joylashgan joyda amalga oshirildi. 1842-yil fransuz diplomati P.Botta Kunjik tepaligini qazishni boshladi. Bu joy mahalliy afsonalarga ko'ra, Osuriya davlatining poytaxti Nineviya bo'lgan. Ammo tepalikni qazish aytarli natija bermagach, P.Botta bu yerda ishni tugatib, Xorsabod qishlogida qazish ishlarini boshladi. Xorsabodda olib borilgan arxeologik qazishmalar o'z natijasini berdi. Bu yerdan 1843-yil Osuriya podshosi Sargon I ning Dur-SHarrukin saroyi qoldiqlari topildi. P.Botta topgan yodgorliklar Luvr muzeyining Osuriya kolleksiyasi asosi bo'ldi.

1845-1847-yillarda sharq tillarini yaxshi bilgan ingliz diplomati G. Leyyard Nimrud tepaligi (Kichik Osiyo)da arxeologik qazishma ishlarini boshladi. Osuriya poytaxti Nineviya hisoblangan Kunjik tepaligidan osur podsholari saroyi, bu saroydan ulkan odam-ho`kiz, odam-sher haykallari topildi. Osuriya podshosi Sinaxxerib (er. avv. VII asr) saroyi uning nevarasi podsho Ashshurbanipalning loy kitoblar bilan to`la kutubxonasi bilan birga topildi. Leyyard topilmalari Londondagi Britaniya muzeyi qadimgi SHarq kolleksiyasining asosi bo`ldi. Leyyardning xodimi U. Rassam Kunjik tepaligida qazish ishlarini davom ettirdi va harbiy manzaralar tasvirlangan ajoyib rel`efli boy podsho kutubxonasi bilan Ashshurbanipalning saroyi qoldiqlarini topdi. Rassam tomonidan Nimrud yaqinidagi Balavat degan joydan er. avv. IX asrga oid Osuriya yodgorliklari, jumladan, harbiy yurish va xiroj keltirish tasvirlangan 4 jez taxta-Balavat darvozasi qoplamasi topildi.

Ingliz olimlari tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida qadimgi SHumer shaharlari Uruk, Larsa va Eredu qazib ochildi. XIX asrning oxirida fransuz arxeologlari SHumer shahri Lagash va uning hukmdorlarini ko`p sonli haykallari, Gudeaning kumush va alebastr vazalari, «Kalxatlar stelasi», ibodatxona xo`jaligi va 3000 yillik tarixga ega Nippur shahrini ochdilar. Nippur xarobalaridan umumshumer xudosi Enlil ibodatxonasi, 6000 loy taxtachadan iborat ibodatxona-kutubxona, saroy, maktab, bozor, do`konlar, uy-joylar va xo`jalik binolari topildi. XIX asrda Mesopotamiyadagi arxeologik kashfiyotlar hammani lol qoldirdi. Ammo arxeologik izlanishlar ishqiboz qiziquvchan kishilar tomonidan hech qanday ilmiy rejasiz, ilmiy usullarsiz olib borildi. Bu vaqtda arxeologik qazishmalarning ilmiy usulining ishlab chiqilmaganligi, arxeologiya fanining shakllanmaganligi, havaskor qiziquvchilarning tartibsiz, ilmiy asoslanmagan qazishma ishlari butun-butun madaniy qatlamlarni yo`qotishga olib keldi. Faqat XX asrning boshlaridan arxeologik izlanishlar qat`iy ilmiy usullarga suyanagan holda olibborilaboshlandi. Nemis arxeologi Koldevey Bag`dodyaqinida qadimgi Bobil shahri xarobalarini ochdi. 1899-1917-yillarda Bobil shahri xarobalaridan shahar devorlari, Navoxudonosor II (er. avv. VII asr) saroyi, diniy marosimlar ko`chasi, bosh xudo Marduk ibodatxonasi, ulkan zikkurat qoldiqlari topildi. Nemis arxeologi V. Andre 1903-1914-yillarda Osuriyaning eng qadimgi poytaxti Ashshur shahrini qazib ochdi. 1933-1939-yillarda fransuz arxeologi Parro Mari shahri qoldiqlarini qazib, bu yerdan podsho Zimrilim saroyi (er.avv.II ming yillik boshlari), 20 ming loy taxtachadan iborat xo`jalik-diplomatik hujjatlar arxivini topdi. 1922-1924 yillarda ingliz olimi D.Vulli qadimgi Ur shahri xarobalaridan oy xudosi Nannar, ma`buda Ningal ibodatxonalari, podsho Ur-Nammu er. avv. III ming yillik oxirida qurgan zikkurat, ilk sulola davrida qurilgan maktab, ustaxona, bozor, uyjoylar, ibodatxona, davlat va xususiy arxivlarini qazib ochdi.

II jahon urushidan so`ng, Yevropa va Amerika tadqiqotchilari bilan birgalikda Iroq olimlari arxeologik izlanishlarda ishtirok eta boshladilar. Iroq olimlari Eredu shahri, Nineviya xarobalaridan podsho Asarxaddon saroyini ochdilar. XIX asrning 50-80-yillaridan XX asr boshlarigacha topilgan

yodgorliklar yangi ilmiy usullar asosida qayta o`rganilaboshlandi. SHu bilan birga, Mesopotamiyaning sinfiy jamiyat tarixigachabo`lgan paleolit davri (SHanidar manzilgohi er. avv. XI-VIII ming yillik), neolit (Jarmo manzilgohi er. avv. VII-VI ming yillik; Xassun manzilgohi er. avv. VI ming yillikning o`rtalari va II yarmi) yodgorliklari o`rganilaboshlandi.

XIX asr oxiridan boshlab Mesopotamiya tarixiga oid qator tadqiqotlarni nemis olimlari K. Bekold, B. Maysner, amerikalik olimlar A. Almeted, A. L. Oppenxeym e`lon qildilar. Mesopotamiya tarixining quyidagi yo`nalishlari bo`yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda: siyosiy tarix va davlat qurilishi; SHarq davlatchiligining o`ziga xos xususiyatlari; qadimgi Mesopotamiya huquqi; madaniyat va diniy e`tiqod etnogenezi, shumerlarning kelib chiqishi va ularning semit tilli xalqlar bilan aloqasi kabilar.

Qadimmggi Mesopotamiya tarixining iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlari muammolari yetarlicha o`rganilmagan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida E.Meerning sikl konsepsiyasi bo`yicha, har qanday sivilizasiya feodalizmdan boshlanadi, kapitalizm davriga o`tib, ichki qarama-qarshiliklar tufayli halok bo`ladi. SHundan so`ng, bu sikl yana takrorlanadi, ya`ni jamiyat yana feodalizmga qaytadi. SHunga asoslanga holda tadqiqotchilarning ayrimlari bu nazariya bo`yicha SHarqda jamiyat abadiy feodalizm holatida turadi degan xulosaga keldilar. SHu sababli, XX asr boshlarida nemis olimlari B.Maysner, P.Koshaker asarlarida qadimgi Mesopotamiya jamiyati feodal jamiyat deb baholandi.

G`arbdagi nazariyalardan yana biri tarixiy voqealarni bilish mumkin emasligi va uning tartibsizligi konsepsiyasining ilgari surilishi tadqiqotchilarning Mesopotamiya jamiyati taraqqiyotining tub muammolarini yechishlariga yordam berdi.

Tadqiqotlardagi yana bir kamchilik dalillarni tahlil qilmay, borligicha qabul qilish bo`ldi. Ammo keyingi paytlarda ijtimoiy tuzilish, xo`jalikni tashkil etish, shaharlarning shakllanishi va ularning o`rni va roli, hunarmandchilik, savdo, ibodatxona xo`jaligi kabi qator muammolarga bag`ishlangan kapital tadqiqotlar paydo bo`ldi. (A. Falkenshteyn, Oppenxeym, I. Gelba, V. Lemans vaboshqalarning asarlari).

Mesopotamiya tarixini o`rganish markazlari dastlabAngliya va Fransiya o`rnashdi. Keyin esa, XIX asrda u Germaniyaga ko`chdi. Yevropada fashizmning paydo bo`lishi ko`pgina olimlarni AQSHga ko`chishiga sabab bo`ldi. Bu yerda hozir jahonga mashhur osurshunoslik markazlari faoliyat ko`rsatmoqda. SHu bilan birga, hozir Fransiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Turkiya va Iroqdagi osurshunoslik markazlari samarali tadqiqotlar olib bormoqda.

**Tayanch tushunchalar:** Frot, Dajla, fauna, El-Ubayd, melioratsiya ishlari, ubtropik zona, SHumer, Akkad, semit, amoriy, gutiy, kassit, xurrit, oromiy, Eredu, Uruk, Eshnunna, Ashshur, Nineviya, Murashu uyi, SHulyoga, LipitIshtar, deshifrovka, Tell-Amarna, Umma, Rimush, «Kalxatlar stelasi», Urukagina, Sargon II, «Bobil va Xaldey tarixi», «Gilgamesh va Aga», Ktesiy, Ksenofont,

«Anabasis», Hamadon, Kunjik tepaligi, Xorsabod, Dur-SHarrukin, A.Oppenxeym.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimgi Mesopotamiyaning geografik joylashuvi va aholisi haqida nimalarni bilasiz?
2. Mesopotamiya xudularida ilk davlat uyushmalari qachon vujudga keldi?
3. Mesopotamiyada vujudga kelgan shaxar davlatlar va ularning siyosiy boshqaruvi xaqida ma'lumot bering?
4. Ossuriya davlati va uning boshqaruv shakli xaqida ma'lumot bering.
5. Ossuriyaning Old Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarini qo'shimcha manbalardan foydalanib kengroq yoritib bering.
6. Qadimgi Mesopotamiyadagi diniy e'tiqodlar va ularni xalqning turmush tarziga tasirini ochib bering.
7. Mesopotamiya madaniyatini jahon madaniyatiga ta'sirini misollar yoradamida tahlil eting.

## **Ma`ruza№6**

### **Mavzu:Qadimgi va Yangi Bobil podshohligi**

1. Bobilning yuksalishi.
2. Xammurapi qonunlari.
3. Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti.
4. Bobil kassit sulolasi davrida.
5. Bobil er. avv. II ming yillik oxiri-er. avv. I ming yillikning I yarmida. Yangi Bobil podshohligi.

**1. Bobilning yuksalishi.** Iqtisodiy tushkunlik, ko'chmanchi amoriy qabilalarining hujumi, Ur sulolasining yemirilishi Mesopotamiyada siyosiy tarqoqlikka olib keldi. Amoriy va Akkad davlatlari bir-birlari bilan shafqatsiz urushlar olib bordilar. Er. avv. 1800-yillar atrofida Mesopotamiya janubini Larsa podshohligi, markazni Bobil shahri va Eshnunna shahar-davlatlari, Yuqori Mesopotamiya va Mari podshohligini er. avv. XIX asr oxirida amoriy hukmdor Shamshi-Adad (1824-1870-yillar atrofida) davlati egallab olgan edi. Bu vaqtda Janubiy Mesopotamiyada akkadlar shumerlarni to'la assimilyatsiya qildilar. Amoriylar sulolasi asoschisi yo'lboshchi Sumuabum edi.

O'zaro urushlar shahar-davlatlarni zaiflashtirdi. Larsa shahrini Elam bosib oldi. Elam hokimi Rimsin (er. avv. 1822-1763-yillar) kanallar va ibodatxonalar barpo qildi. Uruk, Nippur, Issin va Larsa shaharlari Elamga qaram bo'ldi.

Bu davlatlar o'rtasida Mesopotamiyada o'z hukmronligini o'rnatish uchun o'zaro urushlar uzoq davom etdi. Bu urushlar davomida asta-sekin

Mesopotamiyaning markazida strategik jihatdan mudofaa va himoya uchun qulay joyda joylashgan Bobil (Bab-ili «xudo darvozasi») shahri yuksala boshladi. Bu shaharda I Bobil yoki amoriylar sulolasi hukmronlik qilib, uning boshqaruvi tarixda qadimgi Bobil (er. avv. 1894-1595 yillar) davri deb nom oldi. Mesopotamiyaning markazida joylashgan Bobil shahrining yangi siyosiy markaz sifatida roli kuchayadi. Ikki daryo oralig'ining qoq o'rtasida joylashuv, barcha sun'iy sug'orish inshootlarining va Old Osiyoning quruqlik va daryo yo'llarining tutashgan joyda o'rnatilgan Bobilning siyosiy, iqtisodiy markaz bo'lishiga qulay omillar bo'ladi. Bobil ham aynan shu daryolardan oziqlanib ulg'aygan tamaddun uchoqlaridandir.

Bobilning gullab-yashnashi I Bobil sulolasining oltinchi podshosi Xammurapi (er. avv. 1792-1750 yillar) davriga to'g'ri keladi. Xammurapi dono, uzoqni ko'ra oladigan davlat arbobi, ayyor diplomat, yirik strateg, adolatli qonunshunos va mohir tashkilotchi edi. Xammurapi Bobil uchun foydali bo'lgan ittifoqlar tuzishda mohir diplomat bo'lib, bu ittifoq o'z vazifasini o'tab bo'lgach, tezda undan voz kechgan. Xammurapi dastlab Larsa bilan ittifoq tuzadi va janubda Ur va Issin shaharlarini bosib oladi. Mari bilan ittifoq tuzib, Eshnunna shahrini bosib oladi. Unga xavfli raqib bo'lgan Elamni 10 yillik urushdan so'ng, Mari podshosi Zimrilim qo'shinlari bilan birlashib, er. avv. 1764-yilda yanchib tashlaydi. Mari bilan birgalikda sobiq ittifoqchisi Larsani o'ziga bo'ysundirgach, Xammurapi er. avv. 1759-yil Mari shahrini bosib oladi. Shimolda faqat zaiflashib qolgan Osuriya davlati qoladi. Uning yirik shaharlari Ashshur va Nineviya Bobil hokimiyatini tan oladi.

Xammurapining 42 yillik hukmronligi davrida Bobil kichik shahardan butun Mesopotamiyani birlashtirgan yangi qudratli davlatning poytaxti, Old Osiyoning yirik siyosiy-iqtisodiy va madaniy markaziga aylanadi.

Mesopotamiyada yagona markazlashgan davlat tashkil topadi. Xammurapi uni ikki qismga: akkad tillarida so'zlashadigan, Shumer-Akkad xudolariga sig'inadigan asosiy hududga va Elam Suzasi, Yuqori Mesopotamiyaning xurritamoriy hududlarini o'z ichiga olgan viloyatga bo'ldi.

Xammurapining vorisi Samsuilin (er. avv. 1749-1712-yillar) davrida Bobilda ichki ziddiyatlar kuchayib, qishloq jamoalari, jangchilar va boshqa soliq to'lovchilarning ahvoli yomonlashadi. Er. avv. 1742-yilda Mesopotamiyaga shimoliy-sharqdan bu yerda avval noma'lum bo'lgan "kass" etnonimidagi hind-yevropa qabilalari (akkadcha Kassu, zamonaviy fanda kassitlar, o'zlarini kaspekaspiy deb atagan) Gandash nomli yo'l boshchilari bilan bostirib kiradilar. Elam janubda Shumer shaharlariga bostirib kiradi. Sippar va Issin shaharlarida qo'zg'olon ko'tariladi.

Shimoliy-g'arbda yangi Mitanni davlati vujudga keladi. Mitanni davlati Bobilni Kichik Osiyo va Sharqiy O'rta dengizi qirg'oig'iga boradigan yo'llardan to'sib qo'yadi. Buning ustiga er. avv. 1595-yilda xetlar Bobilga bostirib kirib, I Bobil sulolasini tugatadilar.

**2.Xammurapi qonunlari.** Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti. Amoriylar davrida Bobilning iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy tuzumi Xammurapining qonunlar to'plami, uning noib va amaldorlar bilan yozishmalari, xususiy hujjatlar orqali ma'lum.

Qonunlar to'plamining tuzilishi Xammurapining jiddiy siyosiy tadbiri edi. Chunki bu to'plam Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Qonunlar to'plami kirish, qonunlar va xulosani tashkil qilgan uch qismdan iborat.

Xammurapi davrida Bobil iqtisodiyoti sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdodan iborat bo'lgan. Qadimgi Bobilda bu davrda ekin yerlari ko'paydi. Bog'dorchilikda xurmo yetishtirish ustivor ahamiyat kasb etdi. Podsho «Xammurapi kanali» deb atalmish katta kanal qurdirgan. G'alla ekinlari, moyli o'simliklardan yuqori hosil olindi. Bunday yutuqlar faqat sun'iy sug'orish tizimini butun mamlakat miqyosida kengaytirish asosida amalga oshirildi.

Maxsus amaldorlar katta-kichik kanallarni qurish va ta'mirlashni nazorat qilib turganlar. Mari arxiv hujjatlariga ko'ra, aholining barcha mehnatga qobiliyatli qismi erkin kishilardan tortib qullargacha sug'orish inshootlarini qurish va ta'mirlash majburiyatini o'tagan. Bu majburiyatdan bosh tortganlarga o'lim jazosi berilishi mumkin bo'lgan. Xammurapi qonunlarida maxsus to'rt modda dehqon jamoasining o'z yerida, sug'orish inshootlariga befarq qarashiga qarshi qaratilgan. Agar dehqonning yeridan qo'shnilar yeriga suv toshib ketsa, u keltirilgan zararni to'lashga majbur bo'lgan. Agar puli bo'lmasa, o'zi va molmulki qo'shniga keltirgan zararni qoplash uchun sotilgan.

Hamurappi bu qattiy harakatni san'at darajasiga olib chiqqan va qonuniy tartibga slogan. Bu adolat ritorikasi bilan boshlangan va yakunlangan. Masalan, uning o'zi qarorni tushuntirishda “tinchlik olib kelgan cho'pon uning odillik hassasiligini bo'lgani, mening muruvvat soyam, mening shaxrim bo'lib tarqalgan, men Akkad va Bobil yerlaridagi odamlarni tizzamda asrayman” degan. Hamurappi qonunlarida 300 dan ortiq jinoya va ularning jazolari to'plangan. Xudolar dunyoni boshqarishiga qaramay qirol odamlar orasida to'g'ridan-to'g'ri qonunlarni buyuruvchi bo'lgan<sup>12</sup>.

Chorvachilik yirik hajmda rivojlangan. Qonunlarda bir necha bor yirik va mayda chorva to'grisida eslatiladi. Ko'pincha qoramol dala ishlari, xirmon yanchish va yuk tashishga ijraga berilgan. Hunarmandchilikning xilma-xil sohalari rivojlangan. Qonunda bajarilgan ish uchun qat'iy baho berilgan va ishning past sifati uchun hunarmand qattiq jazo olgan. Xammurapi qonunlar to'plamining 229-moddasida shunday deyiladi: «Agar quruvchi kishiga uy qurdi va o'z ishini mustahkam qilmadi. U qurgan uy yiqilib, uy egasini o'ldirib qo'ydi. Bu quruvchi o'linga hukm qilinishi lozim». Erkin kishini muvaffaqiyatsiz muolaja qilgan jarrohning barmoqlari chopilgan (218-modda).

---

<sup>12</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton.& COMPANY. New York. London. 2011, p.99.

Butun Mesopotamiyaning yagona Bobil davlatiga birlashuvi savdoning rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratdi. Bobildan g`alla, xurmo, kunjut yog`i, jun va hunarmandchilik buyumlari eksport qilingan. Metall, qurilish toshi va yog`och, qullar va zeb-ziynat buyumlari import qilingan.

Bobilda savdo bilan maxsus savdo agentlari-tamkarlar shug`ullangan. O`z xizmatlari uchun ular yer, bog`, uy olganlar va sudxo`rlik bilan ham shug`ullanganlar. Bobil, Nippur, Ur, Larsa kabi yirik shaharlar katta savdo markazlari bo`lgan. Erkin kishi «avelium»-(«odam») deb atalgan. Qonunlarning barcha moddalarida xususiy mulk himoya qilingan.

Bobil aholisining asosiy qismini xazinaga tushadigan soliqlarni to`lovchisi mayda ishlab chiqaruvchi va mayda mulkdorlar tashkil qilgan. Shu sababli, ularning huquqlari qonun moddalari bilan himoyalangan. Misol uchun, ba`zi moddalar ularni sudxo`rlar zo`ravonligidan himoya qilgan. Sudxo`rga qarz uchun hosilni olish ta`qiqlangan. Qarz uchun qaramlik 3 yil muddat bilan cheklangan. Kumush uchun qarz foizi 20, g`alla qarzi uchun 33 % bilan cheklangan. Garovga olingan kishiga nisbatan shafqatsiz muomala qilingani uchun qat`iy chora-o`lim jazosi qo`llangan. Bobil jamiyatida erkin kishilardan tashqari mushkenumlar-jamoa bilan aloqasi uzilgan, yeri bo`lmagan kishilar bo`lib («mushkenum» atamasi «pastga egilgan» ma`nosini bildirgan), ular cheklangan fuqarolik huquqiga ega bo`lganlar. Ular podsho xo`jaligida ishlaganlar, podshodan yerni shartli olganlar. Mushkenumlarga tan jarohati yetkazilsa, qoidaga ko`ra, pul jarimasi to`langan. Mushkenumni davolash erkin kishiga nisbatan ikki marta arzon bo`lgan. Qonunlarga qaraganda, mushkenumlar pul mablag`i va mulkka egalik qilganlar. Erkin kishiga nisbatan talion huquqi (ko`z uchun ko`z, tish uchun tish) qo`llanilgan.

Bobil jamiyatining eng quyi tabaqasi qullar («vardum») bo`lgan. Qullikning manbasi urushlar, mulkiy tabaqalanish natijasida qarzi uchun qul qilish, otaning patriarxal hokimiyati ostida oila a`zolarining huquqsizligi, otaning farzandlarini garovga berish, qullikka sotish huquqi, ba`zi jinoyatlari uchun qul qilish (misol uchun, asrandi o`g`ilning o`z ota-onasidan voz kechishi, xotinning isrofgarchiligi, jamoachining sun'iy sug`orish inshootiga loqayd qaragani) va qullarning tabiiy ko`payishi bo`lgan. Bobilda qulchilik o`ziga xos xususiyatga ega bo`lgan. Qul uncha katta bo`lmagan mulkka ega bo`lishi mumkin bo`lgan.

Quldan bo`lgan bolalarga mulk vasiyat qilish mumkin bo`lgan.

Bobil oilasi ota va er hukmron bo`lgan patriarxal oila bo`lgan. Oila nikoh shartnomasi asosida qurilgan va er nikoh sovg`asi, xotin sep keltirgan. Xotin o`z sepiga va erining sovg`asiga o`z huquqini saqlagan. Erining o`limidan so`ng, bolalar balog`at yoshiga yetguncha beva oila mulkiga egalik qilgan. Qonunlar ayolning sog`lig`ini himoya qilgan. Agar ayol eriga yomon muomala qilsa va uni mol-mulkini sovursa, ayol qulga aylantirilgan. U eriga xiyonat qilsa, o`lim jazosiga hukm qilingan. Ajralish va qayta erga chiqish qiyinlashtirilgan. Otaona mulkiga«somondan oltingacha egalik qilish» huquqiga o`g`il-qiz ega bo`lgan. Ammo o`g`ilga ko`proq moyillik bildirilgan.

Qadimgi Bobil davlatida podsho hokimiyati mutloq bo'lgan. Davlat boshida podsho turgan. U diniy qonunchilik, sud va ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan. Podsho yer zahirasi bepoyon bo'lgan. Bu yerlar ijaraga va xizmati uchun berilgan. Sud hokimiyati mukammal shakllangan. Podsho sudi yetakchi o'rinda turgan. Shuningdek, ibodatxona sudi, jamoa sudi va kvartal sudlari mavjud bo'lgan. Sudyalar kollegiyalarga birlashganlar. Ularga jarchilar, choparlar, kotiblar kabi sud xodimlari bo'ysungan.

Moliya-soliq mahkamasi kumush va mahsulot, chorva, hunurmandchilik buyumlari bilan olinadigan soliq yig'ish bilan shug'ullangan. Podsho hokimiyati og'ir va yengil qurollangan janchi (redum)lardan iborat qo'shinga tayangan. Askarlarning huquq-majburiyatlari Xammurapi qonunlar to'plamining 16moddasida belgilangan. Harbiylar xizmatlari uchun yer-mulk olganlar. Qonun askarlarni harbiy boshliqlar zo'ravonligidan himoya qilgan. Ularni asirlikdan qutqarish uchun to'lov belgilangan. Askar oilasi davlat tomonidan moddiy ta'minlangan. Askarlar harbiy xizmatni sidqidildan o'tashlari zarur bo'lgan. Aks holda, ular o'lim jazosiga hukm qilinganlar.

**3. Bobil kassit sulolasi davrida.** Kassitlar Zagros tog'i va Erondan Janubiy Mesopatamiyaga kirib kelishgan. Mil.avv 2 ming yil oldin dehqonlarning daryo bo'ylariga o'rناshib, Bobil jamiyatiga qo'shilishgan. Bobilnin 1-sulolasi Xettlar tomonidan vayron etilganda Kassitlar hokimyatni egallab, o'rناshib olishadi. Milloddan avvalgi 1475-yilgacha bu hududni qayta tiklaganlar. Keyingi 350 yil mobaynida ular butun janubiy Mesopatamiyani o'z nazoratiga olgan va Shimoliy Afrikadan Janubiy Osiyogacha bo'lgan hududlarni yagona ulkan davlatga birlashtirishdi.<sup>13</sup> Er. avv. 1595-yildan Bobilda kassit sulolasining hukmronligi boshlanib 1055-yilgacha davom etdi. Bu davr «O'rta Bobil davri» deb ataladi. Kassitlar Bobilning yuksak madaniyatini qabul qildilar.

Kassit sulolasi faol tashqi siyosat yuritishga urindi. Ular Frot daryosining o'rta oqimini, Suriyaning bepoyon cho'l hududlari va Janubiy Suriyadan Iordan daryosigacha bo'lgan yerlarni egallab oldilar. Kassitlar Markaziy va Janubiy Eronga istilochilik yurishlarini olib bordilar. Ular er. avv. XV asr oxirlarida Misrga qarshi Mitanni bilan hamkorlik qilib, Misrni Mitanni bilan tinchlik o'rnatishga majbur qildi. Old Osiyoda qudratli davlatlar Misr, Xett va Mitanni Old Osiyoda ta'sir doirasi uchun shafqatsiz kurash olib bordi. Kassitlar sulolasi bu davlatlar bilan murosachilik siyosatini olib bordi va o'zining hukmronligini mustahkamlash uchun vaqti-vaqti bilan bu davlatlar bilan ittifoqlar tuzdi. Kassitlar Misrga qarshi xetlarni qo'llab-quvvatladilar. Kassit hukmdorlari er. avv. XIII asrda xettlar bilan ittifoqlikda osuriyaliklarga qarshi urush olib bordi. Er. avv. XII asr boshlarida kassit Bobili qulay xalqaro vaziyatdan foydalanib, Osuriyani o'ziga qaram qildi. Kassit sulolasi zaif bo'lib, davlat hokimiyatining joylarga ta'siri zaif edi. Mamlakat ichida davlat yerlarini oqsuyak-zodagonlarga muntazam tarqatilishi, ularga soliq tushumlarini berilishi xazinani bo'shab qolishiga va podsho obro'-e'tiborining tushib ketishiga sabab bo'ldi.

---

<sup>13</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton.& COMPANY. New York. London. 2011, p.99-100.

Kassitlar davri shaharlarning o'z-o'zini boshqaruvi va xususiy mulkchilikning kuchaygan davri bo'lgan. Bobil, Nippur va Sippar shaharlari ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan. Ular soliq va majburiyatlardan to'la ozod qilingan. Bu shaharlar o'zlarining alohida qo'shinlariga ega bo'ladi. Natijada iqtisodiyot gullab-yashnaydi. Savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratiladi.

Qishloq xo'jaligida natural holat kuchayib, tovar ishlab-chiqarish kamaydi. Yirik yer egaligi mustahkamlana boshladi. Zodagonlar ko'p hollarda soliq to'lovlaridan podsho farmonlari bilan ozod bo'la boshladi. Bunday farmonlar "qudurru" (Yer egalarining soliq va ma'muriy immunitetlari to'g'risidagi farmon) chegara toshlarida yozib qo'yila boshlanadi.

**4. Bobil er. avv. II ming yillik oxiri-er. avv. I ming yillikning I yarmida. Yangi Bobil podsholigi.** Er. avv. XII asrda kassitlar Bobiliga qo'shni Elam davlati halokatli zarba berdi. Elam bir necha urushlardan so'ng, er. avv. 1150-yillar atrofida kassitlar sulolasi hukmronligini tugatdi. Lekin biroz vaqt o'tib, Navuxodonosor I (er. avv. 1124-1108-yillar) II Issin sulolasi davrida elamliliklar Bobildan haydab yuborildi. Elamga shunday zarbaberildiki, Elam haqida uch asr (er. avv. 821- yilgacha) biror-bir matn xabar bermaydi.

Bobilning keyingi tarixida Dajla, Frot daryolari, Fors qo'ltig'i qirg'og'i va Janubiy Mesopotamiyaning shaharlari oralig'ida joylashgan xaldey qabilalari muhim o'rinni egalladilar. Ular yarim ko'chmanchi chorvador va dehqonlar bo'lgan. Xaldeylar er. avv. IX asrda Bobilning janubiy qismini bosib oldilar va Bobil madaniyatini qabul qildilar. Bobilning oliy xudosi Mardukka sig'ina boshladilar.

Er. avv. 729-yilda Bobilni Osuriya bosib oladi. Osuriyaliklar Bobilda er. avv. VII asrgacha hukmronlik qildilar. Yangi Bobil podsholigining paydo bo'lishi er. avv. 629-yilga to'g'ri keladi. Lashkarboshi Nabopalasar Bobilda yangixaldey sulolasiga asos soldi. Navuxodonosor II ning hukmronlik yillari Bobilning gullab-yashnagan (er. avv. 605-562-yillar) davri bo'ldi. Bobil 200 ming aholisi bo'lgan qadimgi Sharqning eng yirik shahriga aylandi. Shahar Frot daryosining ikki qirg'ogida joylashgan bo'lib, uzunligi 123 metr, kengligi 5-6 metr bo'lgan ko'pri bilan birlashtirilgan. Shahar ikki qator devor bilan o'ralib, uning aylanasi 8 km ni tashkil qilgan va 8 darvozadan shaharga kirilgan. Shaharda ulkan podsho saroyi, sun'iy tepalikda Bobilning muqaddas ibodatxonasi Esagila joylashgan edi. Ibodatxonaning har bir tomoni uzunligi 400 metrni tashkil qilgan. Undan janubda balandligi 91 metr bo'lgan yetti qavatli Etemenanki («osmon va yerning markazidagi ibodatxona») deb atalgan zikkurat-ibodatxona bunyod qilingan. Katta diniy marosim yurishlari uchun tantanali yurishlar yo'li qurilib, uning g'isht devorlari afsonaviy hayvonlar tasvirlangan rangli sirkor sopollar bilan qoplangan. Eng mashhur inshootlaridan biri bo'lgan ma'buda Ishtar darvozasi nemis arxeologlari tomonidan qazib ochilgan. Bundan tashqari, afsonaviy Semiramida osma bog'lari qurilgan. U qadimgi dunyoning yetti mo'jizasidan biri hisoblangan.

Er. avv. 562-yilda Navuxodonosor II vafot qilgandan so`ng, Bobil zodagonlari va kohinlari uning vorislarini davlat siyosatiga faol aralasha boshladilar va o`zlariga yoqmagan podsholarni almashtira boshladilar. Keyingi o`n ikki yil ichida to`rt hukmdor almashdi. Er. avv. 556-yilda kelib chiqishi oromiy bo`lgan Nabonid taxtni egalladi. Ungacha o`tgan Yangi Bobil podsholari xaldey qabilasidan edi.

Nabonid diniy islohot o`tkazdi. Oliy Bobil xudosi Marduk e`tiqodi o`rniga Oy xudosi Sinaga e`tiqod qilishni birinchi o`ringa qo`ydi. Bu bilan u ko`rinishidan xudo Sinaga e`tiqod qiladigan ko`p sonli oromiy qabilalarini o`z atrofiga birlashtirib, qudratli davlat tashkil qilishga harakat qiladi. Lekin Nabonidning diniy islohoti Bobil, Borsippa, Urukda nufuzli qadimgi ibodatxonalar kohinlari bilan ziddiyatga olib keldi.

Er. avv. 553-yilda Midiya va Fors o`rtasida urush boshlandi. Midiya podshosi Astiag Xarran shahridan o`z harbiy qismini chaqirib oldi. Bundan foydalangan Nabonid o`sha yil bu shaharni bosib oldi va er. avv. 609-yilda osuriyaliklar bilan urushda buzib tashlangan xudo Sinaning ibodatxonasini qayta tiklashga farmon berdi. Nabonid Markaziy Arabistonning shimoliy qismidagi Teyma viloyatini bo`ysundirdi va Teyma vodiysi orqali sahro bo`yicha Misrga boradigan savdo yo`llarida o`z nazoratini o`rnatdi. Bu yo`l Bobil uchun juda katta ahamiyatga ega edi. Chunki er. avv. VI asr o`rtalariga kelib Frot daryosi o`z oqimini o`zgartirdi. Natijada Fors qo`ltig`i gavanlari orqali Ur shahri bilan dengiz savdosini olib borish mumkin bo`lmay qoldi. Nabonid o`z qarorgohini Teymaga ko`chirib, Bobilni boshqarishni o`z o`g`li Belshar Utsuraga topshirdi.

Nabonid g`arbda faol tashqi siyosat bilan mashg`ul bo`lgan bir paytda Bobilning sharqiy chegaralarida qudratli raqib-Ahmoniyar davlati paydo bo`ldi. Fors podshosi Kayxusrav II bu vaqtga kelib, Midiya, Lidiya va boshqa mamlakatlarni Hindistongacha bosib oldi. U istilochilik urushlari olib borishga tayyor, yaxshi qurollangan qo`shinga ega bo`lib, boy va zaiflashib qolgan Bobilga qarshi urushga jadal tayyorlana boshladi. Nabonid Bobilga qaytdi va o`z mamlakatini kuchli dushmanga qarshi mudofasini tashkil qilishga kirishdi. Ammo Bobilda ichki vaziyat yomonlashdi. Nabonidning xudo Marduk ibodatxonasi kohinlari qudrati va ta`sirini yo`qotishga urinishi, bu e`tiqod bilan bog`langan diniy bayramlarga loqaydligi qudratli kohinlarni unga nisbatan dushmanligini kuchaytirdi. Naboniddan norozi bo`lgan kohinlar unga yordam bermadilar. Arabiston saholarida ko`p yillik urushlarda holdan toygan Bobil qo`shini o`zlariga nisbatan ko`p marta kuchli bo`lgan fors qo`shinlari hujumini qaytara olmadi. Bundan tashqari, Kayxusrav Bobildagi kohinlarning noroziligidan ustalik bilan foydalandi va ularni o`z tomoniga og`dirib oldi. Mamlakat forslarning ayg`oqchilari bilan to`lib ketgan edi. Bobil er. avv. 539yil oktabr oyida forslar tomonidan bosib olindi va o`z mustaqilligini abadiy yo`qotdi. Bobil er. avv. 331-yilgacha Ahmoniyar davlati tarkibiga kirdi. Keyin esa, makedoniyalik Iskandar davlatiga, uning yemirilishidan so`ng Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi.

Bizgacha er. avv. VII-VI asrlarga oid Bobil tarixi bo'yicha ma'muriy matnlar, yozuvlar, podsho farmonlari va farmoyishlari yetib kelgan. Bobil to'g'risida ayrim antik mualliflar ma'lumotlari ham mavjud.

Mixxat hujjatlari Bobilda tovar-pul munosabatlarining yuqori darajada rivojlangani to'g'risida ma'lumot beradi. Bu vaqtda savdo-sudxo'rlik ishlariga ixtisoslashgan katta mablag' va moddiy vositalarga ega bo'lgan "tadbirkorlik uylari" mavjud bo'lgan. Ana shunday uylardan biri Egibi uyi Bobilda ko'p sonli mol-mulk, yuzlab qullar, yer va ustaxonalarga ega bo'lgan. Bu tadbirkorlik uyining vakillari har kuni katta pul mablag'lari talab qiladigan kredit operatsiyalarini amalga oshirganlar.

So'nggi Bobil jamiyati quyidagi ko'rinishda bo'lgan:

1. Hududiy jamoa doirasida yer egasi bo'lgan, to'la fuqarolik huquqi bo'lgan odamlar. Ular jamoani o'z-o'zini boshqaruvida hamda qishloq jamoalari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilishda ishtirok etganlar. Ko'pgina yer egalari o'z yerlarini ijaraga berib, o'zlari boshqa faoliyat bilan shug'ullanganlar va qishloqda yashamaganlar. Jamoa yeri ulushidam mahrum bo'lish fuqarolik huquqidan mahrum bo'lishga olib kelgan. Shu sababli, kambag'al jamoachilar sudxo'rdan qarz olganlar. Qarzdor garovga qo'ygan mulkidan va u orqali ta'minlangan ijtimoiy mavqeidan mahrum bo'lmaslik uchun o'zi va oila a'zolarini garovga qo'yishga tayyor bo'lgan;

2. Jamoa yerida o'z yeriga ega bo'lmagan kishilar mahalliy o'z-o'zini boshqarish ishlarida ishtirok etmaganlar. Ular egalik qilgan yer davlatniki bo'lgan. Bunday odamlar "podsho xizmatkorlari" sifatida qaralgan. Uning xizmati nufuzli bo'lib, uni ta'minlashga berilgan mulk yaxshi yashash kafolatini bergan;

3. Yerga biriktirilgan va mehnat majburiyatlarini o'tashga majbur bo'lgan qaram dehqonlar. Ko'pincha ular qandaydir jamoalarga, asosan ibodatxonalarga tegishli ishchilar bo'lgan. Ularning qaramligi merosiy bo'lgan, ozod bo'lish ehtimoli noma'lum bo'lgan. Ular oila bo'lib yashaganlar, avloddan-avlodga mehnatning bir xil turi bilan shug'ullanganlar. Lekin bu odamlar ibodatxonaning mulki deb hisoblanmagan. Shu sababli, qul sifatida oldi-sotti qilinmaganlar. Ularning fuqarolik huquqlari bo'lmagan;

4. So'nggi Bobil hujjatlarida qullar tilga olinadi. Ular aholining ko'p qismini tashkil qilmagan, lekin qul mavqeidagi odamlar kam bo'lmagan. Qul bozori mavjud bo'lgan va u yerda qullarning bahosi doimiy ravishda barqaror bo'lgan. Qullarga xo'jayinning tamg'asi bosilgan. Qullar podsho va ibodatxonalarga tegishli bo'lgan, lekin ularning ko'pchiligi xususiy kishilarning mulki hisoblangan. Ko'pgina qullar o'z kasbining ustasi bo'lganlar. Xo'jayinlar ularni pul ishlashga yuborgan. Yaxshi kasb-hunarga ega bo'lgan qul o'z xo'jaligiga ega bo'lishga, uylanish huquqiga ega bo'lgan va erkin odamlar kabi huquqiy bitimlar tuza olgan. Ba'zi qullar savdo-sudxo'rlik faoliyati bilan shug'ullanib boyib ketganlar. Ba'zilar o'z qullariga ega bo'lganlar, lekin shu bilan birga, qul mavqeida qolaverganlar.

Hujjatlarda bir necha katta boy qul tadbirkorlar ismlari ma'lum bo'lib, ular o'nlab qullarni bahosiga teng bo'lgan mablag' bo'yicha bir vaqtning o'zida bir necha bitimlarni tuzishlari mumkin bo'lgan. Boy qullar yollanma ishchilardan foydalanganlar. Jumladan, erkin fuqarolarni ham ishlatganlar yoki ularni o'z qarzdorlariga aylantirganlar. Qul o'z xo'jayini bilan ish bo'yicha hamkor sifatida chiqishi va shartnomalar tuzishi mumkin bo'lgan.

So'nggi Bobil davrida katta va mayda yer egaligi mavjud bo'lgan. Yerlar ulushlarga bo'linib, qullar va erkin kishilarga ijaraga berilgan. Davlat amaldori bo'lgan katta yer egasi boshqaruvchi yollagan yoki yerini bir kishiga, misol uchun, tadbirkor va boy qulga ijaraga bergan. U esa, yerni ulushlarga bo'lib, boshqalarga ijaraga berib, ijara haqini yig'ib olgan (sub ijara).

Hujjatlarga ko'ra, bu davrda qullarning soni ko'paygan. Ibodatxona xo'jaligida yuzlab qullar ishlagan. Boylarning yerlarida 3-5 qul, tadbirkorlik uylarida o'nlab qullar mehnat qilgan. Yirik yer egalari erkin kishilarga va qullarga yerni ijaraga bir xil shartlarda berganlar.

Yollanma ishchilar, kam yerli yoki yersiz kishilar ko'pchilikni tashkil qilgan. Ibodatxonalar ham tovar-pul munosabatlariga tortilgan. Ular yer va qullarni ijaraga berganlar. Er. avv. I ming yillikda podsho xo'jaligi sezilarli rol o'ynamagan. Podsho yerlari ham ijaraga berilgan. Ibodatxona va xususiy xo'jaliklar yetakchi o'rinni egallagan.

Bobil xalqaro savdoda Sharqiy O'rta yer dengizi qirg'og'i mamlakatlari va Mesopotamiyadan janubiy-sharqda turgan viloyatlar o'rtasida savdoda vositachilik qilgan. Misr, Suriya, Elam va Kichik Osiyo bilan gavjum savdo qilingan. Bobil Ahmoniylar viloyatlariga g'alla, kiyim-kechak va jun, gazlama yetkazib beradigan asosiy markaz edi. Bobilning kanop va jundan to'qilgan matolari Old Osiyoda bozori chaqqon edi. Bobildan sopol idishlar, xushbo'y suvlar va malhamlar, silliqlangan toshlar boshda Suriyaga moy va sharobga ayirboshlandi, keyin esa Misr va Falastinga chiqarildi. Xomashyo Arabiston, Hindiston va Kavkazortidan olib kelinar edi. Bobil mustaqilligini yo'qotganidan so'ng, fors davlatining eng boy satrapliklaridan biri bo'lib qoldi. U har yili xazinaga 1000 talant (30 tonna) kumush bilan davlat solig'ini to'lagan.

**Tayanch tushunchalar:** Bobil, Elam, Rimsin, kass, Xammurapi, Ur, avelium, vardum, Mari, Samsuilin, Mari, Vardum, Redum, zikkurat, kassit, redum, qudurru, mushkenum, Elam, Navuxodonosor I, Issin, Dajla, Frot, tadbirkorlik uylari, Nabopalasar, xaldey, Esagila, Eron, sub ijara, Kayxusrav.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimgi Bobil davlati va uning markashlashgan davlatga aylanishidagi asosiy omillar nimalardan iborat bo'ldi?
2. Xamurappi davrida amalga oshirilgan islohotlar va ularning amaliy natijasi haqida ma'lumot bering.

3. Xamurappi qonunlari asosida Qadimgi Mesopotamiyadagi ijtimoiy va iqtisodiy axvolni taxlil qilishga xarakat qiling.
4. Xammurapi qonunlarida qadimgi Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
5. Xammurapi qonunlarida mulkchilik munosabatlari.
6. Yangi Bobil podsholigining ichki va tashqi siyosati.
7. Er. avv. I ming yillikda Bobilda ijtimoiy-iqtisodiy hayot.

### **Ma`ruza №7**

#### **Mavzu: Qadimgi Xett davlati**

1. Xett davlati tarixi manbalari va tarixnavisligi.
2. Davlatchilikni sakllanishi
3. Yangi Xett podsholigi davrida buyuk Xett davlati (er. avv. XIV -XII asrlar).
4. Xett davlati harbiy tashkiloti.
5. Xett diplomatiyasi.
6. Yangi Xett podsholigi davrida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar.
7. Xett madaniyati.
8. Mitanni.

**1. Xett davlati tarixi manbalari va tarixnavisligi.** Er. avv. II ming yillikda halokatga uchragan Xett davlati to`g`risida tarixiy ma`lumotlar XX asr boshlarigacha deyarli yo`q darajada edi. Bu vaqtgacha Kichik Osiyo va Shimoliy Suriyada sirli iyeroglif yozuvlar va tasvirlar topilgan edi. 1887 yil tadqiqotchilar Tell-Amarna arxividagi diplomatik yozishmalarda Xett podshosining Misr fir`avniga tengligi (uning birodari ) eslatib o`tiladi. Bu kashfiyot Old Osiyoda qadimda yana bir buyuk davlat mavjud bo`lganini ko`rsatadi. 1906 yil nemis olimi Y. G. Vinkler Bug`ozqoyada (Turkiya) xetlar poytaxti Xattusi xarobalarida arxeologik qazishmalarga kirishadi. Qazishmalar natijasida Yaqin Sharq tillarida bitilgan o`n minglab taxtachalardan iborat arxiv, jumladan, Xett-Misr tinchlik shartnomasining mixxat varianti topiladi. Chex tadqiqotchisi B. Grozniy 1915 yilda chuqur tadqiqotlar natijasida xett tili hind-yevropa tillar oilasiga mansub degan xulosaga keladi. Natijada Xett davlati tarixini o`rganish kuchayib ketadi. Olim A. Getse 1933 yil Xett davlati tarixini umumiy ocherkini yaratdi. Bundan tashqari A. Getse 1933 yilda Kichik Osiyo tarixi umumiy ocherkini chop etadi. Muallif Xett davlatining harbiy va sulola tarixiga asosiy e`tiborini qaratadi. U Xett jamiyatining bir qancha ijtimoiy-siyosiy muassasalari o`xshashligiga (yermulk, majburiyatli yer egaligi) asoslanib, xetlarning ijtimoiy tizimini feodal tuzum deb ta`rifladi. Lingvist va

arxeologlar Xett madaniyati asoslarini yaratishda protoxetlar, xurrit qabilalarini o`rni ko`rsatadigan dalillarni topdilar.

Kichik Osiyo davlatchiligida bevosita Xettdan keyin Yunon tasiri kuchayib, Troya davlati tashkil topib o`z davrning qudratli davlatiga aylanadi. Qadim Troyani tadqiq 1870 yildan etgan nemis olimi G. Shliman aynan Turkiyaning shimoliy – g`arbiy xududlarida eramizdan avvalgi 2 min yillikning oxirlarida o`ziga hos davlatchilik bosqichi bo`lganligini aniqladi<sup>14</sup>.

## **2. Davlatchilikni sakllanishi**

Qadimgi Xett podsholigi (er. avv. XVIII-er. avv. XVI asrlar). Er. avv. XXXVIII asrlarda Kichik Osiyoda ashshurlik savdogarlar bir necha savdo koloniyalarini barpo qiladilar. Bu savdo koloniyalari orqali xalqaro savdo olib boriladi. Eng avvalo, metallar va yuqori sifatli gazlamalar savdosi amalga oshiriladi. Bu davrda Sharqiy Kichik Osiyoda xett qabilalari boshqa mahalliy tub joy aholini assimilyatsiya qiladilar.

Kichik Osiyodagi Nesa (Kanes), Burusxan, Kussar va Xattusi kabi shaharlarni o`z ichiga olgan siyosiy birlashmalar vujudga kela boshlaydi. Kichik Osiyoning bu siyosiy birlashmalarining ilk birlashuvi er. avv. XVIII asrning birinchi yarmida yuz beradi. Viloyatlarning birini hokimi Anitta Nesa shahrini markaz qilib, Qora dengizdan Kichik Osiyodagi Tuz ko`ligacha bo`lgan hududlarni egallab, bepoyon davlatni barpo qiladi.

Qadimgi Xett davlatida urug`-jamo` qoldiqlari hali kuchli bo`lgan. Xett podsholari o`z hokimiyatlarini xalq kengashlariga tayanib amalga oshirganlar. Qurol ko`tarishga qobiliyatli bo`lgan barcha erkaklar podsho chiqaradigan «pankus» deb ataladigan yig`ilishga muntazam ishtirok etganlar. Zodagonlar davlat boshqaruvida faol qatnashib, o`zlarining kuchli tayanchi bo`lgan zodagonlar kengashi (Tuliya) orqali xalq yig`iniga boshchilik qilganlar. Zodagonlardan tashqari, davlat boshqaruvida podsho oilasi: aka-ukalari va boshqa qarindoshlari muhim rol o`ynaganlar.

Qadimgi Xett an`anasiga ko`ra, podshoning vorisi podsho oilasidan tanlangan. Ko`pincha voris tanlashda podshoning jiyanlari, uning opasingillarining o`g`illariga imtiyoz berilgan. Odatga ko`ra, davlatni ikki hukmdor: podsho va malika boshqargan. Agar podsho vafot etsa, malika o`z unvonini yangi podsho hukmronligi davrida ham saqlab qolgan. Yangi podshoning rafiqasi malika bo`lish uchun, sobiq podshoning bevasi-malikaning o`limini kutib turgan. Anita vafotidan keyin, er. avv. XVII asr oxirida boshqa Xett urug`i hokimiyat tepasiga keladi. Xett davlati asoschilarining birlashtiruvchi siyosatini istilochi va islohotchi podsho Labarna (yoki Tabarna, er. vv. 1675-1650 yillar atrofida boshqargan) tugallaydi. U istilochilik yurishlarini davom ettirib, Tavr tog` tizmasining shimoliy qismini egallaydi va Shimoliy Qora dengizga chiqadi. Xett davlati chegaralarini “dengizdandengizgacha” kengaytirdi. Uning ichki va tashqi siyosatidan kuchli ta`sirlangan va tan bergan keyingi vorislari

---

<sup>14</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.77.

Labarna va uning rafiqasi Tavannanna nomlarini o`zlariga unvon sifatida qabul qildilar.

Labarna mavjud Xett an`analariga zid ravishda o`g`li Xattusilini o`z vorisi deb e`lon qiladi. Xattusili I (er. avv. 1650-1625-yillar atrofida) poytaxtni xettlarning sobiq bosh markazi Xattusiga ko`chiradi (Shu voqeadan keyin, davlat rasmiy ravishda “Xatti” zamonaviy fanda “Xett” deb atala boshlanadi).

Uning vorisi Mursili I (er. avv. 1625-1590 yillar atrofida) davrida Xett podsholigida markazlashuv kuchayadi. U Mesopotamiyadan Finikiyaga boradigan yo`ldagi asosiy savdo markazi bo`lgan Shimoliy Suriyadagi Xalpa shahrini bosib oladi. Mursili I er. avv. 1595-yilda uzoq Bobilga yurish qilib, Xammurapi sulolasini tugatadi. Ammo mamlakat ichida keskin vaziyat vujudga keladi. Saroy fitnachilari podsho hokimiyatini kuchayishini istamay, taxt vorisligiga ko`pgina da`vogarlar bo`lishiga imkoniyat beradigan an`analarni saqlab qolishga urinadilar. Oqibatda Mursili I saroy fitnasi qurboni bo`ladi. Xett hukmron tabaqalari ichida o`zaro kelishmovchiliklar boshlanadi.

O`zaro kelishmovchiliklarga Telepin I (er. avv. 1530-1500 yillar atrofida) chek qo`yadi. Uning davrida faqat podshoning o`g`li taxtga chiqish huquqiga ega bo`ladi. Agar podshoning o`g`illari bo`lmasa, uning singlisining o`g`li va eng so`nggida podshoning kuyovlari taxtga davogar bo`lish qoidasi o`rnatiladi.

Taxt vorisligining bunday tartibi qat`iy bo`lib, zodagonlar kengashi «pankus»ning taxt vorisligi masalasidagi rolini tugatdi. Ammo qolgan masalalarda «pankus» o`z huquqini saqlab qoladi. Pankusning yuqori pog`onasi bo`lgan «tuliya» hal qiluvchi rol o`ynaydi. Tuliyaning ruxsatisiz podsho uning biror-bir a`zosi bo`lgan zodagonni qatl qila olmas edi. Agarda tuliyaning ruxsati bilan uning biror a`zosiga podsho tomonidan o`lim jazosi berilgan taqdirda ham podsho aybdorning oilasini ta`qib ostiga olish va mol-mulkini musodara qilish huquqidan mahrum edi. Tadqiqotchilar, bu davrni (er. avv. XVIII- er. avv. XVI asrlar) qadimgi Xett podsholigi davri deb hisoblaydilar.

Telepin va uning o`g`li hukmronligidan so`ng, Xett davlatining tushkunlik davri boshlanadi. Bu davr O`rta Xett podsholigi davri (er. avv. XV asr ) deb nom oladi. Bu davrda Xett podsholigining ahvoli yana og`irlashadi. Bir asr davomida Xett davlati va jamiyati go`yoki tushkunlikni boshdan kechiradi.

**3. Yangi Xett podsholigi davrida Buyuk Xett davlati** (er. avv. XIV - XII asrlar). Er. avv. XIV asr boshlarida Old Osiyoda Misr, kassitlar Bobili va Mitanni davlatlari zaiflashib, xalqaro munosabatlarda Xett davlatining kuchayishi uchun qulay shart-sharoit tug`iladi. Er. avv. 1450-yillar atrofida kelib chiqishi xurrit bo`lgan omadli amaldor taxtni egallab, yangi Xett sulolasiga asos soladi. Yangi sulola podsholari qadimgi Xett buyuk davlatchiligi g`oyalarini qaytarishga da`vo qilib, harbiy-byurokratik monarxiyani tashkil qiladilar. Podsho ilohiylashtirilgan mutloq hukmdorga aylanadi va o`ziga voris tayinlaydi (Bu voris alohida “Tuxkante” lavozimiga aylanib, bu vazifadagi kishini zarur bo`lganda almashtirish mumkin edi). Endilikda saroy to`ntarishlari isyonga aylanib

ketmaydi. Shu vaqtdan boshlab podsho alohida samoviy ilohiylik egasi hisoblanib, “quyoshim” deb ulugʻlandi.

Xett podsholari ichida eng taniqli diplomat, uzoqni koʻra oladigan siyosatchi, mohir sarkarda Suppilium I (er. avv. 1380-1335-yillar atrofida) davlatning harbiy qudratini oshiradi. U yengil, tez yuradigan jang aravalari bilan qoʻshinni taʼminlaydi. Xett shaharlari, ayniqsa, poytaxt Xattusining mudofaa inshootlari mustahkamlanadi. Suppilium I Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻogʻi mayda davlatchalarini va Mitanni davlatini oʻziga boʻysundiradi. Mitanniga tegishli Suriya viloyatlarini va shaharlarini bosib oladi. Suppilium I oʻz kuyovini Mitanni taxtiga oʻtqazdi. U Suriyada markazi Karxemish va Xalpa boʻlgan xetlarga qaram davlatlarga asos solib, bu davlatlarni hukmdori qilib oʻz oʻgʻillarini tayinlaydi. Bobil va Axey (Miken Yunonistoni) davlatlari Suppilium bilan doʻstlik aloqalarini oʻrnatishga majbur boʻladi.

Uning vorisi Mursili II (er. avv. 1335-1305 yillar atrofida) otasining davlatini toʻla hajmda saqlab qoladi, lekin qaram hududlardagi isyonlar, qoʻzgʻolonlar va boshqa qudratli davlatlarning mamlakat hududiga tazyiqiga qarshi toʻxtovsiz urushlar olib borishga majbur boʻladi. Mursili II Kichik Osiyodagi Janubiy Frigiya va Lidiya, Milavan (Milet) hokimlarini boʻysundiradi. U anʼanaviy raqib Arsava podsholigiga (Kichik Osiyo) qarshi gʻolibona yurish qilib, Egey dengizi qirgʻogʻigacha chiqadi. Ammo Mursili II podsholigining soʻnggi yillarida Misr XIX sulola davrida yanada kuchayadi va Sharqiy Oʻrtayer dengizi qirgʻogi uchun Xett davlati bilan yana raqobat boshlaydi. Er. avv. 1286 yilda Kades shahri yonida har ikki tomon uchun hal qiluvchi janglardan biri boʻlib oʻtadi. Jangda Misr qoʻshinlari yengiladi. Shunga qaramasdan Misr firʼavni, isteʼdodli sarkarda Ramzes II yana urushga tayyorlanib, xetlarni Falastin, Finikiya va Suriyaning katta qismidan siqib chiqaradi. Oxir-oqibatda Misr va Xett davlati er. avv. 1280 yilda tinchlik shartnomasini imzolaydilar. Shartnoma boʻyicha Suriyaning bir qismi, Shimoliy Finikiya Xett davlati taʼsiri ostida qoladi. Har ikki davlat oʻrtasida savdo aloqalari kuchayadi. Endilikda Xattusili III kuchayib borayotgan Osuriyaning harbiy tazyiqiga qarshi Bobil bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi, lekin Osuriyani Yuqori Mesopotamiyadan siqib chiqara olmaydi. Xett davlati kuchli qoʻshinga ega boʻlgan Osuriya tazyiqini qiyinchilik bilan qaytaradi.

Soʻnggi Xett podsholari Tutxaliya IV va uning ikki oʻgʻli davrida axeylar, Bolqondan kelgan frigiyaliklarni Kichik Osiyoning gʻarbida hujumini zoʻrgʻa qaytaradilar. Axeylar tor-mor qilinganidan keyin, Kichik Osiyo gʻarbidagi Ilion shahri bosib olinadi. Soʻnggi Xett podshosi Suppilium II Kipr orolini yana qayta bosib oladi. Er. avv. XII asr oxirida Egey dengizi qirgʻoqlari va orollarining etnik jihatdan ola quroq «dengiz xalqlari» Xett davlatini tor-mor qildilar (er. avv. 1190-yillar). Shunday qilib, yangi Xett davlati tarix sahnasidan abadiy tushib ketdi. Markazlari Karxemish va Melida boʻlgan soʻnggi Xett podsholiklari qoldiqlari er. avv. VIII asr oxirlarida Osuriya tomonidan tugatildi.

**4. Xett davlati harbiy tashkiloti.** Xett davlati istilochilik siyosatini muntazam va ko'ngillilardan tashkil topgan, yaxshi qurollangan qo'shinga tayanib amalga oshiradi. Harbiy yurishlar asosan bahorda boshlanib, kech kuzda tugagan. Yurishlar o'rtasida muntazam qo'shinlarning bir qismi maxsus harbiy qarorgohlarda joylashtirilgan. Xettlarning chegara shaharlarida maxsus harbiy garnizollar joylashtirilgan. Qaram davlatlar Xett garnizollarini ozuqa bilan ta'minlashga majbur bo'lganlar.

Qo'shin asosan og'ir qurollangan piyodalar va jang aravalaridan tuzilgan. Harbiy san'at tarixida xettlar qo'shinda yengil jang aravalarini birinchi bo'lib qo'llaganlar. Xett jang aravasida ikki ot qo'shilgan bo'lib, arava haydovchi, nayzali jangchi va uni himoyaqilib turadigan qalqonbardordan iborat bo'lgan. Xettlarning jang aravalarini harbiy jangda qo'llashi podsho Anitaning qadimgi Xett matnida uchraydi. Matnda Anitaning 1400 piyoda askari va 40 jang aravasi bo'lganligi aytiladi. Kades yonidagi jang to'g'risidagi manbalarda Xett podshosi Muvatalli qo'shinlari taxminan 20 ming piyoda askarlar va 2500 jang aravalaridan tashkil topgani to'g'risida ma'lumot beriladi.

Jang aravalari yuqori darajada texnik mohirlik bilan yasalgan bo'lib, juda qimmat turgan. Ularni yasash uchun yog'ochning alohida navlari, teri va metallar talab qilingan. Ko'rinishidan jang aravalarini ishlab chiqarish markazlashgan holda davlatning maxsus ustaxonalarida tashkil qilingan. Ustalar uchun jang aravalarini yasash bo'yicha Xett podsholarining yo'riqnomalari saqlanib qolgan. Jang aravalariga qo'shiladigan otlarni tayyorlashni maxsus usullar bo'lgan. Xettlar shaharlarni bosib olish uchun maxsus qamal qurollaridan foydalanganlar.

**5. Xett diplomatiyasi.** Xettlarning tashqi siyosatida diplomatiya muhim o'rin tutgan. Ular Kichik Osiyo va Old Osiyoning ko'p davlatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatganlar. Bu aloqalar ko'p hollarda maxsus shartnomalar bilan mustahkamlangan. Xett arxivlarida Old Osiyoning boshqa mamlakatlari arxivlariga qaraganda, bir necha marta ko'p miqdorda diplomatik hujjatlar saqlanib qolgan. Xettlar boshqa mamlakatlar bilan davriy ravishda elchilar orqali maktublar, sovg'a-salomlar almashib turganlar. Davlatlar o'rtasidagi aloqalar sulolaviy nikoh shartnomalari bilan mustahkamlangan.

Podsho devonxonasida xalqaro aloqalarga maxsus muassasa rahbarlik qilgan. Bu yerda elchilar, tarjimonlar, mirzolar ishlagan va shartnomalar matnlari tuzilgan. Shartnomalar odatda ikki tilda: biri xett tili, ikkinchisi akkat tilida tuzilgan. Davlatlararo shartnomalar matnlari podsho oldidagi kengashda muhokama qilingan. Shartnomalarga podsholar muhrlari tushirilgan. Matnlar loy, metall (kumush, jez, temir) taxtachalarga bitilgan. Shartnomalar matnlari yozilgan taxtachalar mamlakatning oliy xudolari haykallari oldida saqlangan. Chunki xudolar shartnomaning bosh guvohlari sifatida kim uni buzsa, jazolash huquqiga ega bo'lganlar.

Xettlarning xalqaro shartnomalarning ko'pchiligida Xett qo'shinlarining harbiy g'alabalari mustahkamlangan. Shu sababli, ularda ko'p hollarda tomonlarning o'zaro munosabatlarning teng huquqda bo'lmagani ko'rinadi. Xett

podsholari ko`pincha qaram davlatni o`lpon to`lashga majbur qilganlar. O`lpon to`lovchilar har yili Xett podshosi oldiga kelishga, qaram davlat hududida joylashtirilgan Xett garnizonlariga g`amxo`rlik qilishga, birinchi chaqiriq bilan Xett hukmdoriga qo`shin bilan yordamga kelishga majbur qilinganlar.

Qaram davlat har yili (ba`zida yilida uch marta) shartnomani o`qishlari majbur bo`lgan. Qaram mamlakat hukmdori o`g`illari, nevaralari va evaralari shartnomaga rioya qilishlari shart qilib qo`yilgan. Xett diplomatik amaliyotining o`ziga xos xususiyatlaridan biri xettlarning sulolaviy nikohlariga jiddiy e`tibor berganlaridir. Xett podsholari o`z qizlari va opa-singillarini boshqa podsholarning nikohiga berishga harakat qilganlar. Bu nikohlar har ikki tomonning o`zaro munosabatlarini barqaror bo`lishini ta`minlagan. Xettlar Xett malikalari turmushga chiqqanda albatta bosh rafiq bo`lishi shartnomada alohida qayt qilingan. Bunday nikohlar vositasida Xett podsholari boshqa davlatlarda o`z ta`sirlarini mustahkamlaganlar. Bundan tashqari, chet davlat taxtining qonuniy vorislari hukmdorni bosh rafiqasining o`g`illari bo`lgan.

#### **6. Yangi Xett podsholigi davrida iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar.**

Yangi Xett davrining xo`jalik va ijtimoiy munosabatlarini tavsiflovchi asosiy manba Xett qonunlaridir. Xo`jalikning asosini dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik (metallurgiya va metallardan mehnat qurollari tayyorlash, kulolchilik, quruvchilik ishlari va h.k) tashkil qilgan. Dehqonchilikda sun`iy sug`orish sezilarli bo`lmagan. Sun`iy sug`orish inshootlari cheklangan holatda barpo qilingan. Xo`jalikda savdo ham muhim o`rin tutgan. Yer egaligi podsho yerlari, ibodatxona yerlari, jamoa yerlaridan iborat bo`lgan. Davlat yerlariga egalik qilish va foydalanish natural (saxan)va mehnat (lussi) majburiyatlarini o`tash bilan bog`langan. Saxan va lussidan ibodatxona yerlari ozod qilingan. Podsho xizmatida bo`lgan xususiy kishilarning yerlari, podshodan hadyaga olingan yerlar ham saxan va lussi bilan bog`langan majburiyatlardan ozod qilinishi mumkin bo`lgan. Davlatning diniy markazlari bo`lgan Arinna, Nerika va Siplanda shaharlarining kohinlari, to`quvchilari, xizmatchilari majburiyatlarni o`tashdan ozod qilinganlar.

Hunarmandchilikning rivojlangani to`g`risida ma`lumot beradigan qonunlar va boshqa hujjatlarda temirchi, kulol, duradgor va tikuvchi kasblari tilga olinadi. Mehnat qurollari va harbiy qurol-aslahalar ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo dastlab mis, keyinchalik qalay bo`lgan. Temirdan faqat diniy marosimlar uchun haykalcha va boshqa buyumlar yasashda oz miqdorda foydalanilgan.

Xett davlatida podsho oilasi va podsho bosh kohin sifatida juda katta miqdorda yerga egalik qilgan. Podsho va ibodatxona yerlarida ishlovchilar o`z yerlariga biriktiribqo`yilib, turli soliq va majburiyatlarni o`taganlar. Xett davlati ma`muriyati qarori bilan ekin yerlari ishlovchilar bilan birga o`z foydasiga soliq yig`ish huquqi bilan podsho amaldorlari va ibodatxonalar ixtiyoriga berilganlar. Ayrim ibodatxonalar umumdavlat soliqlaridan ozod qiluvchi immunitet yorliqlarini olgan. Davlat va ibodatxona yerlaridan tashqari, boshqa yerlar xususiy mulk bo`lib, oldi-sotdi qilingan.

Xett jamiyatida barcha aholi ikki guruhga bo'lingan: soliq to'lovlari va boshqa majburiyatlarni o'tovchi (podsho, ibodatxona yoki xususiy shaxs foydasiga) kishilar erkin bo'lmagan mavqega ega bo'lib, kamsitilganlar. To'la ma'noda erkin kishilar deb zodagonlar, amaldorlar, kohinlar va katta yer egalari hisoblanganlar. Xett davlati ma'muriyati tomonidan bosib olgan hududlarni boshqarmagan, balki ulardan faqat xiroj olish bilan cheklagan. Qaram hududlar, davlatlarni o'z mahalliy hokimlari boshqargan. Lekin ular turli to'lov va majburiyatlarni o'tashga majbur bo'lgan.

Shaharlarning aholi yashash markazlari sifatida vujudga kelishi dunyo tarixidagi eng uzoqqa cho'zilgan bo'linishni yuzaga keltirdi: shahar va qishloqning bo'linishi. Daryo bo'yida joylashgan shaharlarda odamlar ixtisoslashgan mehnatga va mahsulot ishlab chiqarishga asoslangan hayot tarziga o'tishdi. Bunga farqli ravishda, qishloq aholisi o'z yerlari bilan qolishdi, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishdi, lekin ular donli va chorva mahsulotlarini shahar markazlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ayirboshladilar. Shu sabab ushbu bo'linish ajralishni yuzaga keltirmadi, chunki ikkala hayot tarsi o'zaro bog'liq edi. Shahar va qishloqning bo'linishiga qaramasdan, ikkala dunyo o'rtasidagi aloqa saqlanib qoldi oilaviy rishtalar, savdo, siyosat, va din orqali. Shaharlashuvning rivojlanishi intellektual siljishlarga zamin yaratdi. Ulkan siljishlardan biri yozuv tizimining kashf etilishi, u odamlarga tovushlar va so'zlarni tasviriy belgilar orqali ifodalash va yozib qoldirish imkonini berdi. So'zlar va fikrlarning ramziy belgilar bilan ifodalanishi misli ko'rilmagan madaniy inqilob bo'lib, odamlarning muloqot darajasi va xotirasini kengaytirdi: ulamolar og'zaki gaplarni, oxir –oqibat esa hattoki daryo havzalaridagi yashash hududlari haqidagi dostonlarni ham yozuvga aylantirish yo'llarini topishdi.

**7. Xett madaniyati.** Xett jamiyatining o'z madaniy tarqqiyotida Misr va Mesopotamiyaning yuksak madaniyatlari ta'siri yaqqol seziladi. Xett madaniyatida, ayniqsa, xurritlarning ta'siri kuchli bo'lgan.

Xett dini o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan. Xettlarning ming ma'bud va ma'budalari to'g'risida manbalarda eslatishlar mavjud. Amalda esa, cheklangan miqdorda ilohlarga sig'inilgan. Poytaxt Xattusining oliy homiysi chaqmoq xudosi bo'lgan. U bilan birga, xurritlarning chaqmoq xudosi Tesubga ham sig'inilgan. Xattusida quyosh, hosildorlik xudosi Telepinga va mahalliy Kilikiya hosil xudosi Sandanga e'tiqod qilingan. Podsho quyoshga o'xshatilib ilohiylashtirilgan. Shu sababli, xettlar o'z podsholarini «quyoshim» deb sig'inganlar.

Xett yozma asarlaridan bizgacha yetib kelgan podsholarning «tarjimai hollari» juda qiziqarli va batafsil bayon qilingan. Ularda yorqin obrazlar, chuqur kechinmalar va o'ziga xos axloqiy qarashlar seziladi. Xett yilnomalarida mamlakat tarixini uch davrga bo'lishga urinish yaqqol ko'zga tashlanadi. Xett arxivlarida boshqa mamlakatlar, masalan, Akkad tarixi to'g'risida ma'lumotlar ham mavjud.

O`rta va Yangi Xett podsholliklari davrida Xett adabiyotida duolar alohida o`rin tutadi. Jahon adabiyotidagi eng birinchi yozilgan tarjimai hol Xattusili III ning tarjimai holi matni hisoblanadi. Qadimgi xett dafn qo`shig`i xett poeziyasining yagona namunasidir.

Xett podsholigining boshqa xalqlar bilan yaqin aloqasining mavjudligidan dalolat beradigan yana bir madaniy yodgorlik-uch tilli shumer-bobil-xett lug`atlarining tuzilishidir. Bizgacha Xett podshosining bosh otboqari Kikkuli ismli kishi tuzgan yilqichilik to`g`risidagi ajoyib qo`llanma yetib kelgan. Qo`llanma qadimgi Xett davlati iqtisodiy hayotida yilqichilik muhim o`rin tutganligidan dalolat beradi. Ushbu qo`llanma dunyo tarixida yilqichilik sohasi bo`yicha ilk yaratilgan asardir.

Xett haykal va rel`eflari vazmin va ulug`vorligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda ayniqsa, mudofaa inshootlari, qal`a devorlari qurish yuqori darajada bo`lgan. Xett madaniyati ko`p asrlik Shimoliy Mesopotamiyada va unga yaqin boshqa hududlarda yashagan qabila va xalqlarning madaniyatini o`zida aks ettirgan va boshqa madaniyatlarga ham o`z ta`sirini o`tkazgan. Xett davlati halokatidan keyingi asrlarda ham xettlarning madaniy merosi boshqa qo`shni mamlakatlar madaniyatiga ijobiy ta`sir o`tkazdi.

**8. Mitanni.** Mitanni (akkad tilida-Xanigalabat) davlatiga (er. avv. 1560-1260-yillarda mavjud bo`lgan) Yuqori Mesopotamiyada xurrit qabilasi mitannilar er. avv. XVI asrda asos soladilar. Mitanni poytaxti Yuqori Xaburdagi Vassokanda joylashgan. Mitanni podsholari hind-oriy sulola ismlarini saqlab qolib, “Mand jangchilari podshosi” va “Xurri jangchilari podshosi” unvonlariga ega bo`lganlar. Hind-oriy ma`budlari Indra, Mitra-Varuna va Nasati hukmron sulolalarning homiy xudolari edi. Bu davlatni ehtimol oriylar asos solganlar.

Er. avv. XVI asr oxirida podsho Suttarni I davrida Mitanni Zagros va Nineviyadan Shimoliy Suriyagacha bo`lgan hududni egallab, ulkan davlatga aylandi. Shu vaqtdan boshlab bir yuz ellik yil davomida Old Osiyoda Mitannidan kuchli bo`lgan qudratli davlat yo`q edi. Bu davrda Mitanni Misr bilan Mesopotamiya va Sharqiy O`rtayer dengizi havzasi uchun uzoq kurash olib bordi. Er. avv. XV asrda xalqaro vaziyat o`zgarib, Misr bilan Mitanni o`rtasida ittifoqchilik munosabatlari o`rnatildi va sulolaviy nikohlar tuzildi. Tutmos IV va Amenemxotep III Mitanni malikalariga uylandilar.

Er. avv. XIV asr boshlarida Mitannidagi sulolaviy nizo, saroy fitnalari davlatni zaiflashtirdi. Xett podshosi Suppilium Mitanniga qarshi urush ochib, Suriyani tortib oladi va Mitanniga bostirib kirdi. Yordamga chaqirilgan Osuriya hukmdori Ashshurballit I mamlakatning sharqiy viloyatlarini anneksiya qildi. Shu vaqtdan Mitanni Shimoliy Mesopotamiyadagi kichik bir davlatchaga aylanib qoldi. Uni ustidan nazorat qilish uchun osur va xettlar o`zaro kurash olib bordilar. Qachonlardir qudratli davlat bo`lgan Mitanni qoldig`lari er. avv. 1260yilda Osuriya podshosi Salmanasar I tomonidan tugatildi.

**Tayanch tushunchalar:** Tell-Amarna, protoxett, pankus, tuliya, A.Getse, “dengizdan-dengizgacha”, Y. G.Vinkler, tuxkante, Xattusi, Quyoshim, saxan, lussi, Nesa, dengiz xalqlari, Burusxan, Kussar, Xattusili, podsholarning “tarjimai hollari”, Kades, Labarna, arxivlar, iyeroglif yozuvlar, Tavr, Telepin, otboqar Kikulli, Tesub, Grozniy, “Mand jangchilari podshosi”.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Kichik Osiyoning tabiati va aholisi haqida ma'lumot bering.
2. Ilk davlat uyushmalari shakllanish holatini yoritib bering.
3. Mitanni davlati va uning boshqaruv shakli haqida nimalarni bilasiz?
4. Qadimgi Xett davlati va jamiyatining shakllanishi haqida ma'lumot bering.
5. Old Osiyoda eramizdan avvalgi XIV-XIII asrlarda siyosiy yetakchilik uchun kurash haqida ma'lumot bering.
6. Xett jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumot bering.
7. Xett madaniyati haqida ma'lumot bering.

**Ma`ruza№8**

**Mavzu: Qadimgi Ossuriya**

**Reja:**

1. Qadimgi Ossuriya axolisi
2. Ossuriya davlati taraqqiyoti
3. Xorij istilolari
4. Ossuriya madaniyati

1. Er.av. 2 ming yillik boshida xalqaro vaziyat Ossuriya uchun nobop holat kasb etgan edi. Amorey qabilalarining Shimoliy Mesopotamiyada joylashishi, O'rta Yevfratda Mari davlatining ko'tarilishi osuriylar uchun g'arbda savdo qilishga jiddiy to'g'anoq bo'ldi.

O'ta faol tashqi siyosat amorey sardori, Xammurapining katta zamondoshi Shamshi-Adad I (er.av. 1824-taxm. 1780 yy.) vaqtida olib boriladi. Er.av. XIXVIII asrlar bo'sag'asida Ashshur Old Osiyoning yirik davlati markaziga aylandi va Shamshi-Adad I “ko'pchilik shohi” unvonini o'zlashtirib oldi.

Er.av. XV asrning o'rtasida 1- Bobil sulolasining ag'darilishidan so'ng Ossuriya yosh davlat Mitanniga o'lja bo'ladi. Er.av. XV asrda ossuriylar o'z davlatlarining avvalgi holatini tiklashga harakat qiladilar. Er.av. XIII asr Ossuriya davlati rivojining cho'qqisi bo'lib, bu davrda u tashqi siyosatda ham eng ko'p muvaffaqiyatlarga erishadi.

Ossuriya davlati taraqqiyoti Er.av. XII asrda Ossuriya to'xtovsiz janglar bilan holdan toyib, kuchsizlanib qoladi. Ammo Tiglatpalasar 1 hukmronligi paytida

(er.av. 1114-1076 yy.) unga yana avvalgi qudrati qaytib keladi va bu xalqaro vaziyatga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi: Xett podsholigi qulaydi, Misr siyosiy tarqoqlik yo'liga kiradi, Bobilning janubini xaldehy qabilalari to'ldirib yuboradi.

Ossuriylar jamiyatining yuqori tabaqasini quldorlar sinfi tashkil etib, ular katta xususiy meros yerlarga, xizmatlari uchun olgan noxususiy yer bo'laklariga ega, shohdan tortiqlar va sovg'alar, majburiyatlardan ozodlik olgan, qullarga ega yirik yer egalari, savdogarlar, kohinlar, mansabdor a'yonlardan iborat edi. O'rta assuriy qonunlari aynan "kiborlar" huquqlarini himoya qilar edi. Aholining asosiy qismi – mayda ishlab chiqaruvchilar sinfi ozod yer egalari-jamoachilardan tashkil topgan edi. Aholisonio'sishibilan, hunarmandlarning yangi vakillaripaydobo'ldi, jamiyati yerarxiyaga asoslanabordi, qishloqlar shaharchalarga aylandi.

Er.av. IX asr Ossuriyaning iqtisodiy va harbiy-siyosiy ko'tarilishi davri bo'lib, uni ko'pincha "ikkinchi ko'tarilishi" deb ataydilar. G'arb tadqiqotchilari asalarida.

Qadimgi Ossuriyaning yuragi bo'lmish Ashshur va Nineviya shaharlari Dajla daryosining yuqori oqimida joylashgan. Milloddan avvalgi IX asrga kelib Ossuriya g'arbga tomon kengaytirish siyosatini boshladi va kuchli davlatga aylandi. Milloddan avvalgi 824-yilda butun O'rta Yer mamlakatlarini bosib oldi va o'lpon to'lashga majbur qildi. Savdo yo'llarni o'z nazoratiga oldi<sup>15</sup>.

Er.av. IX asrning oxiri va 8 asrning birinchi yarmida Ossuriya davlati bir qator sabablarga ko'ra yana inqiroz va tushkunlik pallasiga kiradi. Er.av. IX asrdagi ko'psonli urushlar, yurishlarda ishtirok etgan mamlakatning oddiy xalq ommasini ishlab chiqarishdan uzoq vaqtga ajratib qo'yardi va bu Ossuriyaning iqtisodini pasayib ketishiga va mayda hunarmandlarning kasodga uchrashiga olib kelardi. Xalq ommasining nochor holiga tabiiy falokatlar: hosil bo'lmasligi, epidemiyalar qo'shib, ular mamlakatning ichki siyosiy ahvolini og'irlashtirib, quyi qatlamlarning qo'zg'olonini keltirib chiqardilar.

Ossuriyada ayollar hokimyatni boshqargan, milloddan avvalgi 810-806yillada qirolicha Shammuramat o'g'li yosh bo'lganligi sababli regentya'ni vaqtinchalik hokimyatni boshqargan<sup>17</sup>.

3. Ossuriyaning tanazzuliga er.av. VIII asrda yuzaga kelgan xalqaro vaziyat ham sababchi bo'ldi. Old Osiyoning podsholiklari ichida birinchi o'ringa Urartu ko'tarildi.

Ma'lum vaqt o'tgach, istedadli harbiy rahbar Tiglatapalasar davrida Ossuriya davlati yanada ulkan davlatga aylandi. Tiglatapalasar o'z qo'lida hokimiyatni markazlashtirdi va shu tariqa imperiyaning mustahkamlashni va kengaytirishning ikkinchi bosqichini boshladi<sup>18</sup>.

---

<sup>15</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.131.

<sup>17</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.135. <sup>18</sup>

Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.132.

Er.av. 746-745-yillarda taxtga harbiy partiya yordami bilan yangi shoh Tiglatpalasar III keladi va u davlatning mustahkamlashishiga olib kelgan bir qator muhim islohotlar o'tkazadi.

Islohotlardan biri ma'muriy bo'lib, u mayda yerlarni yiriklashtirib, ularning viloyat boshliqlari deb nomlangan hokimlarini markaziy hokimiyat tomonidan nazorat qilinishiga va ularning vazifalarini cheklashga qaratildi.

Tiglatpalasar III ning boshqa islohoti harbiy soha va armiyada o'tkazildi. Yirik va ajoyib tashkil etilgan armiyaga ega bo'lgan, yangi bosib olingan yerlarni talab qilayotgan harbiy partiyaga suyangan Tiglatpalasar III (er.av. 745-727 yy.) bosqinchilik siyosatini tikladi.

Tiglatpalasar III er.av. 737-yilga kelib sharqda Midiyaning ba'zi tumanlarida o'rnatib olishga, janubda Bobilni keskin kurashda nafaqat yengdi, balki er.av. 729- yilda ushbu muqaddas shaharda taxtga o'tirishga muvassar bo'ldi.

Bu barcha muvaffaqiyatlar Ossuriyani Old Osiyoning eng yirik davlatiga aylantirdi. Uning tarkibiga Mesopotamiya, O'rta yer dengizi sharqiy sohilining katta qismi, Midiyaning bir qator viloyatlari kirdi. Tiglatpalasar 3 paytida birinchi marta xalqlarni osuriylar egallagan bir viloyatdan boshqa viloyatga yoki bevosita Ossuriyaga tizimli ravishda ko'chirishni amalga oshirdilar.

Tiglatpalasar III ning vorisi – Salmanasar V (er.av. 727-722 yy.) davrida saroydagi harbiy partiyaning kuchayishi davom etdi.

Kohinlar va savdogarlarning noroziligi, shuningdek Isroil podsholigi bilan urushning cho'zilib ketishi Salmanasar V ning ag'darilishi va sulolaning kichik vakillaridan biri – Sargon II ning (er.av.722-705 yy.) taxtga kelishiga yordam berdi.

Sargon II hukmdorligi vaqtida Ossuriya Isroil podsholigini yakson qildi. Uning qo'shinlari er.av. 722 yilda uch yillik qamaldan so'ng hujum bilan uning poytaxti Samariyani egallaydilar va yakson qiladilar, aholisini esa yangi yerlarga ko'chiradilar

Sargon II boshqaruvi yillari Ossuriyaning yangi poytaxti – shohning ajoyib saroylar, bog'lar va ibodatxonalarga ega qarorgohi joylashgan Tigrdagi DurSharrukin shahriga asos solinadi (hozirgi Xorsobodga yaqin).

Sargon II ning o'g'li – Sinaxxerib (er.av.705-681 yy.) meros sifatida katta, ammo unchalik tinch bo'lmagan davlatni oladi. Uning boshqaruvi butunlay Ossuriya zabt etgan davlatlarning qarshiligini bostirish bilan o'tadi.

Er.av. 681 yilda u suiqasd tufayli vafot etadi. Uning o'limidan so'ng Sinaxxeribning kichik o'g'li Asrxaddon (er.av.681-669 yy.) taxtni egallaydi. U harbiy partiya manfaatlarini savdo-sudxo'r va kohin doiralari manfaatlari bilan ustalik bilan birlashtirish orqali mamlakat ichidagi vaziyatni barqarorlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

Asrxaddon o'z podsholigining asosiy vazifasi - Misrni bosib olish deb bilar edi. Er.av. 671 yilda Asarxaddon Misrni bosib oladi va an'anaviy Misr fir'avnlari unvonlarini qabul qiladi.

4.Ossuriya davlati Nilning birinchi ostonalaridan Kavkaz ortigacha, Eron yassi tog'liklaridan Kichik Osiyogacha, O'rta yer dengizidan Fors qo'ltig'igacha yoyilgan edi.

Ashshurbanapal (er.av. 669-taxm. 633 yy.) o'sha davrdagi Ossuriya poytaxti Nineviyada Qadimgi Sharqdagi 30 000dan ortiq loy taxtaga yozilgan eng katta kutubxonani yaratadi.

Ossuriya jamiyatini titratib turgan ijtimoiy ziddiyatlar, siyosiy birlikning yo'qligi, ulkan davlatni boshqaruv tizimini tashkil etishdagi xatoliklar, mute davlatlar va xalqlarning kun sayin kuchayib borayotgan kurashi Ossuriyani halokatga olib kelgan asosiy sabablardandir.

Hikoya qilinishicha Janubiy-g'arbiy Osiyoda vujudga kelgan Yangi Ossuriya davlati.“Yangi Ossuriya” podsholigi davri deb atalib er avv. 911-612 yillarni qamrab olishi ta'kidalgan<sup>16</sup>.

**Tayanch tushunchalar:**Armaniston, Fors qo'ltig'i, Suriya-Mesopotamiya cho'llari, Mesopotamiya, Frot va Dajla, Iroq Respublikasi, Ur, Bobil Amorey, Xammurapi,Old Osiyo, Samsuilun, Shamshi-Adad, Ashshur, Tiglatpalasar 1, Xett, Misr, xaldeylar, Urartu, Tiglatpalasar III, Midiya, Salmanasar, Sargon II, Isroil, Samariya, Sinaxxerib, Asrxaddon, Ashshurbanipal, Nineviya.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ossuriya davlati va uning boshqaruv shakli xaqida ma'lumot bering.
2. Ossuriyaning Old Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarini qo'shimcha manbalardan foydalanib kengroq yoritib bering.
3. Qadimgi Ossuriyada diniy e'tiqodlar va ularni xalqning turmush tarziga tasirini ochib bering.
4. Ossuriya madaniyatini jahon madaniyatiga ta'sirini misollar yoradamida tahlil eting.

#### **Ma'ruza№9**

##### **Mavzu: Urartu davlati. Reja:**

1. Urartu tabiati va aholisi.
2. Urartu davlati tarixshunosligi.
3. Davlat uyushmalarining tashkil topishi va taraqqiyoti.
4. Urartuning madaniyati

**Urartu tabiati va aholisi.** Urartu janubi-g'arbiy Osiyodagi qadimgi davlatlardan biri bo'lgan. Bu davlat kuchaygan vaqtda Kavkaz orti viloyatlari Dajla va Frot daryosining boshlanishidagi yerlarni egallagan. U geografik jihatdan Ossuriya davlatining shimolida joylashgan edi, uning hududini katta qismi hozirgi Turkiya hamda Armaniston tog'lariga to'g'ri keladi. Bu davlat

---

<sup>16</sup> Worlds Together, Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York.. 2011, p.130.

hududidan Kura, Araks, Frot va Dajla irmoqlari oqib o'tadi. Frotning ikki irmog'i ham shu joydan boshlanadi. Bu mamlakatning eng muhim ko'llari Van, Urmiya va shimolda Sevan (Hozirgi Armaniston hududida). Arman yassi tog'liklari dehqonchilik qilishga qulay, ammo qo'shni Mesopotamiyadan unumdor yerlarning kamligi bilan farq qiladi. Mamlakatda yaylovlar ko'p bo'lib, azaldan Urartu aholisiga chorvachilik bilan shug'ullanishga qulaylik tug'dirgan. Arxeologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, o'lkada aholisi neolit davridan (5-4 ming yilliklardan) Kura va Araks daryolari vodiylarida dehqonchilik bilan shug'ullangan qabilalar yashagan. Dehqonchilikning rivojiga er.av. I ming yillikda temirdan mehnat qurollarining yasala boshlanishi katta ta'sir etdi. Ayniqsa, dehqonchilik Araks vodiysida juda yaxshi rivojlangan, so'nggi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xatto ular sug'orish ishlarini ham olib borishgan

Insonlar uchun ishonchli suv manbalarni toppish muhim edi, chunki sug'orish manbasining aniqligi yirik aholini ozuqa bilan ta'minlash uchun zarur darajada ekin ekishga imkon yaratardi<sup>17</sup>.

Bu tog'li mintaqada xilma-xil etnik guruhlar yashagan, ularning katta qismini urartlar tashkil etgan. Urartlar hozirgi zamonaviy xalqlar arman va gruzinlarning qadimiy ajdodlaridir.

Urartlar til jihatdan xurrit xalqlari guruhiga kirgan. Shimoli-g'arbiy viloyatda, Xayas mamlakatida, hind-Yevropa aholisi ko'pchilikni tashkil etgan. Urartlarni o'zlariga singdirib olgan arman xalqining avlod-ajdodi aynan o'shajoydan kelgan deb faraz qilinadi.

**Urartu davlati tarixshunosligi.** Urartu tarixiga oid Urartu hujjatlari, podsho yozuvlari, shuningdek oz miqdorda xo'jalik hujjatlari ma'lum. Urartlarning o'zi eroglif yozuvlari bo'lsa-da keng yoyilmagan. Urart podsholari avval Ossur tilida, so'ngra o'z tillarida, mixxat yozuvida yozganlar. Urartu tarixidan muhim ma'lumot beradigan tosh taxtalarga bitilgan mixxat matnlarini o'rganishda ko'plab olimlar xizmat qilganlar. Bunda M.V. Nikolskiy, G.A. Melikishvili, G.A. Kapantsyan, N.V. Arutyunyanlar katta rol o'ynadikar. Urartu davlatiga tegishli moddiy yodgorliklarni izlab toppish va tekshirishda I.A. Orbeli, B.B. Piotrovskiy, A.A. Martirosyan va boshqa olimlarning xizmati katta bo'lgan. Urartu tarixini tadqiq etgan xorij olimlari A.G. Seys, K.F. LemanXauptalarning o'rni alohida taxsinga loyiqdir.

**Davlat uyushmalarining tashkil topishi va taraqqiyoti.** Xurritlarga qarindosh bo'lgan Urartu (Uruatriy) qabilalari er. av. 1300-yillar atrofida qabilalar ittifoqiga birlashganlar. Er.av. IX asr o'rtalarida bu ittifoq Biayneli ("Van", ossurlar Urartu deb atagan) nomli davlatni barpo qildilar. Uning markazi Van ko'lining sharqida joylashgan Tushpa shahri bo'lgan.

Er. av. XV-XIV asrlarda Van ko'li atrofidagi qabilalar Urartu atrofiga birlashdi. Ushbu davlatning birinchi hukmdori Aramu (milloddan avvalgi 864845

---

<sup>17</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. 2011, p.125.

yillarda hukmronlik qilgan) bo'lgan. Uning davrida Ossuriya xukmdori Salamansar III ning Urartuga bosqini muvoffaqiyatsizlik bilan tugagan.

Podsho Sarduri I (milloddan avvalgi 835-825 yillarda) davrida Urartu davlati kuchayadi. Ossur qo'shinlari ustidan bir necha bor g'alabaga erishadi. Uning hukmronligi davrida Urartu sarhadlari kengaydi. Poytaxt shahar Tushpani ham Van ko'li soxilida bunyod ettiradi va poytaxt deb e'lon qiladi.

Menua (810-786y.) davrida Urartu davlati o'z taraqqiyotining gullabyashnagan davri hisoblanadi. Mamlakat poytaxti Tushpa shahrini mustahkamlab, ko'plab suv inshootlari, xususan "Menuakanali" niqurdiradi. U mamlakat sarxadlarini kengaytirish maqsadida Araks va Frot daryosi atrofidagi xududlarga zafarli yurishlarni amalga oshirib, ko'plab boyliklar va asirlarni olib keladi.

Menuaning vorisi (Argishti II er.av. 786-764 yillar) davrida Urartu JanubiG'arbiy Osiyodagi eng qudratli davlatga aylanadi. Hatto qudratli Ossuriya Urartu tazyiqi ostida Yaqin sharqdagi ikkinchi darajali davlatga aylanib qoladi.

Podsho Rusa I (er.av. 735-714 yillar) davrida mamlakat ichida ichki g'alayonlar kuchayadi. Bundan foydalangan Ossuriya podshosi Tiglapalasar III Urartuga yurishni amalga oshirib, g'alabaga erishadi.

Tinimsiz bosqinlar Urartu davlatining qudratini zaiflashtirdi.

Shimoldan kimmeriylar, skiflar, sharqdan midiyaliklar bosqin natijasida Urartu o'z mustaqilligini yo'qotdi. Er. av. 590 yilda Midiya davlati tomonidan zabt etilib, uning qaram xududiga aylanadi

**Urartu madaniyati** va iqtisodi to'g'risida arxeologik qazishmalar boy ma'lumot beradi. Teyshebaini (Karmir Bilur), Eribuni (qadimgi Erevan) va Argishtihinil (podsho Argimshi qurgan) shaharlari kuchli fortifikatsiya inshootlari bilan o'rab olingan.

Tinimsiz bosqinlar Urartu davlatining qudratini zaiflashtirdi. Shimoldan kimmeriylar, skiflar, sharqdan midiyaliklar bosqini natijasida Urartu o'z mustaqilligini yo'qotdi. Er. av. 590 yilda Midiya davlati tomonidan zabt etilib, uning qaram xududiga aylanadi

Urartuning madaniyati va iqtisodi to'g'risida arxeologik qazishmalar boy ma'lumot beradi. Teyshebaini (Karmir Bilur), Eribuni (qadimgi Erevan) va Argishtihinil (podsho Argimshi qurgan) shaharlari kuchli fortifikatsiya inshootlari bilan o'rab olingan.

Olimlarning ma'lumot berishicha, Urartu mix-ponasimon shakldagi o'z yozuviga ham ega bo'lgan.

Qadimgi Urartuda tibbiyot, veteranariya, dehqonchilik ilmi, yilnomalar yozish, astronomiya ilmi taraqqiy etgan.

Urartu qabilalari Ossuriya, Misr, Mesopotamiya, Xetlar bilan doimiy madaniy aloqoda bo'lib, bir-birlarining madaniyatlaridan bahramand bo'lish bilan birga boshqa xalqlar madaniyatiga ham sezilarli ta'sir o'tkazganlar. Buning natijasida o'ziga xos uyg'un madaniyat tarkib topgan.

**Tayanch tushunchalar:** Frigiya, Bolqon qabilasi, Qora dengiz bo'yi friglari, assimillatsiya, Ilion, Troya, Kichik Osiyo, Tavr, Gordiy, Midas, Kimmeriy, ma'buda Attisa, Sard, Gig, Mermnad qabilasi, Ashurbanipal, Skif, Ossuriya urug'i, Urartu, Van ko'li, Menua, Rusa 1, Ossuriya, Teyshebaini, Musasir, Argishti, Eribuni, fortifikasiya, Menua, Sarduri, Menua kanali, tibbiyot, veteranariya, dehqonchilik ilmi, yilnomalar yozish, asrtronomiya, uyg'un madaniyat.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimgi Urartu tabiati va aholisi qanday bo'lgan?
2. Urartlarning xo'jalik tarzi va mashg'ulotlari nimalardan iborat bo'lgan?
3. Urartu tarixiga tegishli moddiy va yozma manbalarni tahlil eting.
4. Qadimgi Urartu xududida ilk davlat birlashmalari qanday shart-sharoitda paydo bo'lgan?
5. Urart – Ossuriya munosabatlari va uning Yaqin sharqdagi xalqaro axvolga ta'sirini tahlil eting.
6. Urartu davlati taraqqiyoti va uning qo'shni davlatlarga ta'siri?
7. Urartu davlati inqirozi va uning sabablari?
8. Urartu madaniyati va uning jahon madaniyatiga ta'sirini qo'shimcha adabiyotlar yordamida keng yoritib bering.

**Ma'ruza№10,11**

**Mavzu:Qadimgi Sharqiy o'rta Yer dengizi davlatlari**

**Reja:**

1. O'rta yer dengizi davlatlari.
2. Finikiya davlati va yozuvi
3. Isroil – Yahudiy podsholigi.
4. Xorij bosqinchilariga qarshi kurash 5. Sharqiy O`rta yer dengizi madaniyati.

**O'rta yer dengizi davlatlari.** Taxminan er.av. XXII asrda, Akkad davlati qulaganidan keyin O'rta Yevfratga yaqin yerda joylashgan Jabal Bishri tog'i va Suriya chegaralarini yangi som ko'chmanchilari – sutilar (bungacha Quyi Mesopotamiyaning janubiy chegaralarida yashagan) egallaydilar.

Mesopotamiyaliklar belgilagan “amoreylar” nomi shularga taaluqli bo'lib, fanda ham shu nom bilan tanilganlar.

Er.av. XXI asrning ikkinchi yarmida suti-amoreylar butun SuriyaFalastindan o'tib, mintaqaning shimoliy qismiga zich joylashadilar. Shu vaqtdan boshlab

Sharqiy O'rta yer dengizi tarixining O'rta bronza deb nomlanuvchi davri boshlanadi.

Er.av. XIX asrning oxirida suriya amoreylaridan bir qabila guruhi Yamxad deb nom chiqargan katta davlat tuzishga harakat qiladi. Uning asoschisi xatto o'z qarorgohiga ham ega emasdi, ammo Mari shohi bilan tenglarcha yozishma qilib, butun Shimoliy va qisman Janubiy Suriyani nazorat qilgan. Bobillik Xammurapi va marilik Zimrilimaning zamondoshi va ittifoqchisi ikkinchi hukmdor Yamxada podsho unvonini olib, Xalpuni (Aleppo, hozir Xaleb) o'z poytaxti qiladi.

Yamxad Mari bilan keng savdo qilar, bu davlatni qishloq xo'jaligi mahsulotlari (non, zaytun moyi, uzum vinosi va asal) bilan ta'minlar edi. Shuningdek matolar berar va o'rniga qalay olardi.

Er.av. XVIII asr oxirida butun Sharqiy O'rta yer dengizi bo'ylab shimoldan janubgacha bu vaqtga kelib Hosildor Yarim oy mamlakatlari bo'yicha keng joylashayotgan xurrit qabilalari o'tadilar. Amorey Yamxadi xurritlarning "buyuk podsholigi", ta'sir doirasi Tavrga qadar yoyilgan Xalpa bilan almashadi.

Er.av. XVII asr boshi va XVI asr oxirida Shimoliy Suriyani xetlar nazorat qilar, XVI asr oxiriga kelib esa u Mitanniga bo'ysungan.

Falastin va Janubiy Suriya giksoslar Misrdan haydalgach va Sharuxen yiqilishi bilan Misr fir'avni Yaxmos I qo'l ostiga o'tadi. Shunday qilib, er.av. XVI asr oxirida Sharqiy O'rta yer dengizi Misr bilan Mitanni o'rtasida bo'lib olingan.

Metallurgiya va boshqa hunarmandchiliklardagi o'zgarishlar (xususan, finikiyaliklar tomonidan qirmizi rang ishlab chiqarishning ochilish) keyingi bir necha yuz yillikni (er.av. XVI-XII asrlar) Suriya-Falastin tarixining So'ngi bronza davri nomi ostida ajratib ko'rsatadi.

Uning birinchi yuz yilligi Misr va Mitanni o'rtasidagi Sharqiy O'rta yer dengizini nazorat qilish uchun bo'lgan to'xtovsiz kurash bilan o'tadi.

Er.av. XIII asrning birinchi choragidagi yangi Xett-Misr urushlaridan keyin, bir yarim asr ilgari bo'lganidek, tomonlar yana tinchlik bilan Sharqiy O'rta yer dengizini bo'lib oladilar. Suriyaning katta qismi, Kadet va Amurruni ham qo'shganda, xetlarga, Janubiy Finikiya, Damashq va Falastin esa Misrga tegadi. Bu davrning odatdagi shahar-davlati Ugarit hisoblanib, u Ikkidaryo oralig'i, Misr va Kichik Osiyo bilan, Falastin hamda dengiz orti mamlakatlari bilan keng savdo olib borardi.

Ugarit davlatining taraqqiyoti er.av. XV asr oxiri va XIV asr boshiga kelib pasayadi. Mamlakatning barcha ozod aholisi uch tabaqaga bo'linar edi: 1. "Ugarit mamlakati o'g'illari" mavqei borgan sari pasayib borayotgan dehqonjamoachilar. 2. Shohdan yer maydonlari oluvchi yaqinlari - "Shoh qullari". 3. O'z yerlariga ega bo'lmagan va amaldorlar yerlarida o'tirgan - "Shoh qullari qullari". Bular o'z yeri va jamoadan ajragan, kasod bo'lgan dehqonlar bo'lgan.

Er.av. XII asr boshida Sharqiy O'rta yer dengiziga egey-anatoliya xalqlari (Misr manbalarida "dengiz xalqlari" deyilgan) bosib kiradi. Kelgindilar astasekin mahalliy aholi "filistim"larga, ya'ni "peleset"ga qo'shilib boradilar. Shu so'zdan Falastin nomi kelib chiqqan.

**Finikiya** shaharlariga “dengiz xalqlari” bosqinidan so‘ng o‘ziga kelib olishlari uchun ko‘p vaqt talab etilmadi. Qadimgi Finikiya hududlari hozirgi zamonaviy Livan hududlariga to‘g‘ri keladi<sup>18</sup>

Er.av. XII asrdayoq Sidon qayta qurib bo‘lindi, undan chiqqan bir guruh odamlar Tirni egallab, obodonlashtiradilar (shundan keyin barcha finikiyaliklarni “sidonliklar” deb ataldilar).

Er.av. XII asrda Misrning Osiyodagi hokimiyati kuchsizlanib, yo‘qoladi va keyingi o‘n yilliklarda finikiyaliklar (avvalo “sidonliklar”ning Tir podsholigi) mustaqil ravishda G‘arbiy O‘rta yer dengizini buyuk finikiya mustamlakalashtirishi deb nomlangan jarayonni amalga oshiradilar. Keyin Tir Sidonni va boshqa shaharlarni bo‘ysundiradi va butun Janubiy–markaziy Finikiya va Tir-Sidon davlatini birlashtiradi. Bu davlat o‘z rivojining eng cho‘qqisiga shoh Axiram (Xiram, er.av.969-936yy.) vaqtida chiqadi. Finikiyaning eng asosiy shaharlari: Tir, Sidon va Bibl Misr va Bobil mollarini Gretsiyaga, yunon mollarini esa Sharqqa sotib, tranzit savdo orqali boyir edi. Finikiya zargarlarining asboblari (tilla va kumush kosalar, taqinchoqlar, fil suyagidan yasalgan bezaklar va b.) Sharqda va antik dunyoda yuqori baholangan. Finikiyaliklarning savdosi qaroqchilik bilan barobar olib borilgan.

Mintaqaviy Suriyaning tarixi bu mintaqaga bostirib kirib, unga er.av. XI asrning ikkinchi yarmida joylashgan oromiylar bilan belgilanadi. Suriya oromiylarining asosiy markazi Damashq vohasi bo‘lib, u yerda er.av. X-VIII asrlarda ularning katta davlati (Aram-Damashq) mavjud edi. Uning iqtisodi rivojlangan qora molchilik, Yaqin Sharqda mashhur qurol ishlab chiqarish va jun tranzit savdosiga asoslangan edi.

Bir muddat butun Sharqiy O‘rta yer dengizi Damashq hokimiyati ostida bo‘lib qolgan. Ammo Damashq podsholigi kuchi mustahkam bo‘lmay, og‘ir va holdan toydiruvchi urushlar tufayli Er.av. IX asr oxirida Ossuriya shohi Adadnerari 3 tomonidan bosib olinadi va talanadi (o‘lja sifatida juda ko‘p miqdorda temirni qo‘lga kiritadi).

**Isroil – Yahudiy podsholigi.** Isroil qabilaviy ittifoqi er.av.XIII asrda jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. Uning o‘zagi Misr shohi fir‘avn Merneptax tomonidan yakson qilinib, ular Falastindan siqib chiqarilgan edi va ehtimol, tarqab ketgan edi.

Isroilliklarning boshqa bir guruhi yana ham ilgariroq Misrda o‘troqlashgan bo‘lib, ammo er.av. XIII asr oxirida uni tashlab chiqib ketadi va Sinayga joylashadi. Bu Misrdan rixlat (ko‘chish) to‘g‘risidagi qadimgi yahudiy rivoyatida o‘z aksini topgan.

Sharqiy O‘rta yer dengizi uchun notinch davr – er.av. XIII-XII asrlarda isroillik guruhlar birlashib (Misrdan chiqqan yahudiylarning anchayin madaniy va tashkiliy jihatdan kuchliroq bo‘lgan), yana Falastinga Iordan ortidan bostirib kiradilar.

---

<sup>18</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.144.

Er.av. XII asrda Isroil Falastin hududida o'n ikki qabila ittifoqi sifatida butunlay shakllanib bo'ladi. Saylanuvchi sardorlar – "shofetlar"(sudyalari) oliy kohin hisoblanib, qabilaning ko'ngilli qo'shinlari ustidan qo'mondonlik qildilar, tinchlik paytida esa ular qozilik qilar edilar.

Er.av. XI asr boshida Falastinda filistimlik harbiylar taxtga keladi. Isroilning qabilaviy tizimi qarshilik ko'rsatishga noqobil ekanini ko'rsatadi. Filistimliklar bilan kurashda omadli harbiy yetakchilar yetishib chiqadi. Shulardan biri – Saulni yahudiy qabilalari Isroil shohi deb saylaydilar. Shoh hokimiyatining o'rnatilishi zodagonlar qarshiligiga qaramay asosiy ko'pchilik tomonidan jadal qo'llab-quvvatlanadi. Saul o'z yaqinlarini armiya mingboshisi va yuzboshisi qilib tayinlaydi, ularga dalalar va uzumzorlar tortiq qiladi. Bu mulozamat zodagonlarni noroziligini keltirib chiqaradi. Ammo Saul omadsiz qo'mondon bo'lib chiqadi. Filistimliklardan to'la mag'lub bo'lgach, o'z joniga qasd qiladi.

Uning kuyovi Dovud shohlikni qabul qiladi (er.av. 1000-965 yy.). U markazlashgan monarxiya tashkil etish siyosatini olib boradi

G'arb olimlari tadqiqotlarida Dovud hukmronlik yillari (er. avv.1000-960y.y) deb ko'rsatiladi<sup>19</sup>.

Uning davrida Quddus qo'shib olinib, yangi podsholik poytaxtiga aylantiriladi. Mamlakatni boshqarish uchun markaziy davlat boshqaruvi tuziladi. Uning boshida oliy mansabdor shaxs turgan. Dovudning tashqi siyosati yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. U filistimliklar bilan sulh shartnomasi tuzadi. Dovudning o'rniga uning o'g'li Solomon taxtga o'tiradi(taxm. er.av.965-928 yy.). An'anaga ko'ra u donoligi uchun ko'kka ko'tariladi, oqil va odil hakam qilib tasvirlanadi. Solomon hukmdorligida qurilish ishlariga katta e'tibor beriladi

Sulaymon Yaxva xudosi sharafiga Quddusda yorqin jilolangan ehrom qurdiradi. Bu dinda montestik qarashlar olg'a surilgani ilk dinlardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir<sup>20</sup>.

Bu barcha binolarni bunyod etish uchun Tir shohi Axiram Solomonga eng yaxshi ustalar va rassomlarni, qurilish materiallarini yuboradi. Buning uchun Solomon Axiramni bug'doy va zaytun moyi bilan ta'minlardi, unga yigirmata shaharni ham berib yuboradi. Quruvchilik faoliyatining keng yoyilishi va saroyni ushlab turish katta mablag'lar talab qilardi. Bu esa soliqni ko'paytirishga olib keladi.

Isroil -Yahudiy podsholigi hududi 12 viloyatga bo'linib, ularning har biri bir yilda bir marta bir oy davomida saroyga oziq-ovqat keltirardi. Mehnat majburiyati kiritilgan edi. Solomonning hukmdorligi so'ngida davlatning tashqi siyosiy ahvoli og'irlashadi. Shimoliy chegara ortida kuchli Damashq podsholigi paydo bo'ladi. Ko'pchilik qabilalar Yahudiyadan ajralib, yangi Isroil podsholigini yaratadilar. Keyinroq (Er.av. IX asrda) uning poytaxti etib yangitdan bunyod etilgan Samariya e'lon qilinadi.

---

<sup>19</sup> Worlds Together, Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, p.145.

<sup>20</sup> Worlds Together, Worlds Apart.W.W. Norton.& COMPANY.New York. 2011, p.146.

Dovud va Sulaymon tomonidan tashkil etilgan davlat doirasida chuqur diniy va madaniy o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Bugungi kunda Quddusdagi buyuk ibodatxonalardan biri dunyodagi boshqa barcha ibodatxonalardan ancha yuqori mavqega ega<sup>21</sup>.

Ilohiy diniy rahbarlardan eng shavqatsizlaridan Ishayo (taxminan mil. avv. 720-yil), Ezra (taxminan mil. avv.600-yil) va Eramiya (taxminan mil. avv. 590yil) lar o'ziga xos monoteistik din va madaniyatni shakllantirishda asosiy rol o'ynashgan. Ularni yangi bir ma'bud, bir xudo va bir ma'naviy tizim g'oyasiga qarshi) ilohiy qirg'in qilish tahdidi ham to'xtata olmadi<sup>22</sup>.

Er.av. 722 yilda Ossuriya shaharni egallab oladi va Isroil davlati tugatiladi. Janubiy podsholik yana 120 yil yashaydi. Er.av. 587 yilda bobilliklar Quddusni bosib olib, talaydilar. Uning hududida Yangi Bobil viloyati paydo bo'ladi.

**Tayanch tushunchalar:** Suriya, Falastin, Yamxad, Zimrilim, Xaleb, Falastin, Yaxmos, Suriyaning Kadet, Amur, Ugarit, filistim, peleset, Finikiya, Sidon, Xiram, Adad-nerari III, Merneptax, shofetlar"(sudyalari), Saul, Dovud, Solomon, Isroil, Quddus, Yangi Bobil.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Finikiya tabiati va aholisining asoasiy mashg'uloti haqida nimalarni bilasiz?
2. Finikiy yozuvi va uning boshqa xalqlar yozuvlarining genezisiga ta'siri qanday bo'lgan?
3. Finikiy -Xett munosabatlarini qo'shimchalar manbalar yordamida tahlil eting?
4. Isroil – Yaxudiy davlatining rivojlanish va inqirozga uchrash sabablarini tahlil eting.
5. Suriya, Finikiya, Falastin davlatlarining jahon tarixi va madaniyatiga qo'shgan xissasini qo'shimcha ma'lumotlar yordamida qiyosiy tahlil eting.

### **Ma'ruza №12**

#### **Мавзй:Arabiston yarim orolining qadimgi davlatlari**

Режа:

1. Geografik o'rni, iqlimi va aholisi.
2. Qadimgi Arabiston tarixi manbalari va tarixshunosligi.
3. Shimoliy Arabiston
4. Janubiy Arabistonning qadimgi davlatlari.
5. Janubiy Arabistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti.
6. Qadimgi Arabiston madaniyati.

---

<sup>21</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.145.

<sup>22</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.147..

**1. Geografik o`rni, iqlimi va aholisi.** Arabiston Osiyodagi eng katta yarim orol bo`lib, 3 mln. kv. km. hududni egalladi. Uni g`arbda Qizil dengiz, sharqda Fors va Ommon qo`ltiqlari suvi, janubda Adan qo`ltig`i va Arabiston dengizi yuvadi. Arabistonning bepoyon yerlari asosan sahrolardan iborat. Daryolar juda kam. Arabiston yarim oroli tabiiy boyliklarga boy. Qadimgi Sharqda o`zining ziravorlari va xushbo`y moylari bilan mashhur edi. Ziravor va xushbo`y moylardan qadimda kosmetika va parfyumeriya, tibbiyot, diniy marosimlarni bajarishda foydalanilar edi. Arabistonni o`rab turgan dengizlardan qadimdan marvarid, qizil va qora marjonlar olingan. Yarim orolda oltin, temir, qalay, mis va surma kabi xomashyolar va tuz konlari mavjud bo`lgan. Janubiy-g`arb va janubiy-sharqda qadimda oq marmar, oniks, alebastr; qimmatbaho toshlar: zumrad, beruliy, feruza bor edi.

Arabiston yarim orolining er. avv. IV-III ming yilliklardagi aholisi to`g`risida aniq ma`lumotlar yo`q. Shumer hujjatlarida Magan va Meluxxa (ba`zi tadqiqotchilar, Magan Arabiston yarim orolining sharqi deb taxmin qiladilar) mamlakatlari to`g`risida eslatib o`tiladi. Arabiston yarim orolining janubiy qismidan ilk paleolit olduvay qurollariga o`xshash qurollar topildi. Bu topilmalar Janubiy Arabiston Sharqiy Afrikadan boshlangan odamlarning tarqalish yo`llaridan biri bo`lganidan guvohlik beradi.

Qadimda Arabiston yarim oroli sersuv daryo vodiylari, boy flora va faunaga ega bo`lgan. Er. avv. VIII-VII ming yilliklardan boshlab yarim orolning qariyb butun hududida qurg`oqchil iqlimning mutloqo hukmronligi boshlanadi. Odamlar Arabistonni tashlab ketdilar. Faqat uning chekka janubida va sharqida bir-biri bilan zaif aloqada bo`lgan alohida suvli voqiyalar saqlanib qoldi. Er. avv. VIII ming yillikdan odamlar yashashi uchun qulay iqlim yarim orolning sharqiy qirg`oq qismi (Qatar), keyin er. avv. VII-VI ming yilliklarda Markaziy va Janubiy Arabiston (Rub-el-Xalilning janubiy-sharqiy qismi, Shimoliy Yaman, Xadramaut)da vujudga kelib, bu hududlarga odamlar kelib o`rnasha boshladilar. Arabistonning sharqiy qirg`og`i bo`ylab er. avv. V ming yillikdan El-Ubayd madaniyati, keyin Jamdat-Nasr madaniyati odamlari joylashdilar. Sharqiy Arabiston er. avv. III ming yillikda, ayniqsa, Magan (Omon) Janubiy Mesopotamiya, Baxrayn va Shimoliy-G`arbiy Hindiston bilan dengiz savdosiga kirishdi.

Arab dengizchilari Hind okeaniga yo`l olib, Sharqiy Afrika, Sharqiy O`rtayer dengizi, Hindiston va Arabiston yarimoroli, Janubiy Osiyo va Sharqiy Osiyo kabi davlatlar bilan aloqa o`rnatdi<sup>23</sup>.

Arabiston yarim oroli orqali qadimda xalqaro savdo yo`llari o`tgan. Bosh savdo yo`li «Xushbo`y moy yo`li» deb atalgan. Arabistonning janubiy-sharqi ikki yo`nalish bilan Sharqiy O`rtayer dengizi qirg`og`iga borgan: biri G`azo va Ashdod, boshqasi Tir va Damashqqa yo`nalgan. Yana bir savdo yo`li Janubiy

---

<sup>23</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.236.

Arabistondan Janubiy Mesopotamiyaga boradi. Bundan tashqari, Arabiston qadimda Qizil dengiz va Fors qo'ltig'i dengiz yo'li orqali Sharqiy Afrika va Hindiston bilan savdo aloqalarini o'rnatdi.

Er. avv. II ming yillikda Arabiston yarim orolining janubiy-g'arbida somiy tillarining janubiy arab shevasida so'zlashadigan Saba, Mina va Kataban qabila ittifoqlari vujudga keldi. Arabistonning shimoliy-g'arbiy qismida er. avv. II ming yillikda midianit qabilalari yashagan.

**1. Qadimgi Arabiston tarixi manbalari va tarixshunosligi.** Arabiston yarim orolining qadimgi tarixiga oid manbalar to'rt asosiy qismdan iborat: Epigrafik ma'lumotlar, ashyoviy yodgorliklar, yozma manbalar, antik mualliflar ma'lumotlari.

Janubiy Arabistonning tosh, jez, sopolga yozilgan va o'z mazmuniga ko'ra, ikki guruhga bo'linadigan davlat hujjatlari (podsho farmonlari, podsholarning harbiy va ichki siyosatga oid yozuvlari) va xususiy-huquqiy qabrtosh lavhalari, sun'iy sug'orish inshootlaridagi yozuvlardan 2500 tasi saqlanib qolgan.

Arxeologik qazishmalar bizga boy ma'lumotlar beradi. Qadimgi Saba podsholigining bosh shahri Marib xarobalari (Yaman Arab Respublikasi poytaxti Sanaga yaqin joy) o'rganildi. Shahardan saroy qoldiqlari, devorlar va haykallar topildi. Shaharning g'arbidagi ulkan Marib to'g'oni qoldiqlari kishini hayratga soladi. Kataban poytaxti Timna shahri ibodatxonalari, nekropol va qal'a qoldiqlari qazib ochildi. Nabatey podsholigi poytaxti Petra shahridan me'morchilik inshootlari va haykallar topildi.

Bundan tashqari, Arabiston va arablar to'g'risidagi qisqa ma'lumotlar Osuriya, Yangi Bobil, Eron manbalari va Bibliyada uchraydi. Antik tarixchilar Gerodot (er. avv. V asr)ning «Tarix» asarida, Feofrastning (er. avv. IV asr) «O'simliklar tarixi», Diodorning (er. avv. I asr) «Tarixiy kutubxona» va Strabonning (er. avv. I asr) «Geografiya» kabi asarlarida qadimgi Arabiston to'g'risida qator ma'lumotlar bor.

Arabiston tarixi XIX asrdan o'rganila boshlandi. Dastlab epigrafik yozuvlar tadqiq qilindi. XX asrda Belgiya, Fransiya, Avstriya va AQShda Arabiston xalqlarining geografiyasi, madaniyati, dini va xronologiyasiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar e'lon qilindi.

**3. Shimoliy Arabiston.** Qadimda Shimoliy Arabiston, Suriya va Mesopotamiya cho'llarining keng hududlarida odamlarning asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lib, it, eshak, yirik shoxli qoramollar boqilgan. Bu hududda yashagan urug' va qabilalar qabilalar ittifoqi va kichik davlat birlashmalarini shakllantirdilar. Ularning hokimlari Osuriya hujjatlarida «podsho» deb ataladi. Qadimgi davlat birlashmalari asta-sekin harbiy san'atni va qo'shnlarni shakllantirdi. Jangchilar tuyaga ikki kishidan minib, jang qilganlar. Arablar o'zlarining kuchli qo'shnilar Misr, Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'og'ining kichik davlatlari va Osuriya bilan xalqaro ziddiyatlarga tortildilar.

Er. avv. 853-yilda Qarkara yonidagi bo'lgan jangda osuriyaliklar arablar ham kirgan koalitsiya qo'shinlarini tor-mor keltirdilar. Arablar Osuriyaning

Misrga qarshi yurishida asosiy to'siq bo'ldi. Bir necha arab qabilalari Osuriya tomonidan bo'ysundirildi. Arablar Osuriyaning raqiblari-Misr va Bobil bilan ittifoq tuzdilar. Osuriya er. avv. VII asrning 40 yillarida arab qabilalarini to'liq bo'ysundirishga erishdi. Yangi Bobil podsholigi ham Arabiston yarim orolida o'rnatishga urindi. Bobil podshosi Nabonid Shimoliy Arabistonning bosh markazlaridan biri Teymu shahrini bo'ysundirib, uni o'z qarorgohiga aylantirdi. U bir necha qo'shni arab qabilalarining shahar va vodiylarini o'ziga bo'ysundirdi. Er. avv. VI asrda Eron davlatining kuchayishi va uning bosqinchilik yurishlari rejasi Arabiston yarim orolining shimoliy qismida forslarning arablar bilan aloqa o'rnatishiga olib keldi. Shartnoma bo'yicha, fors podshosi Kambiz er. avv. 525-yil Misrga yurish vaqtida arab nabateylari yeridan o'tish huquqini va sahrodan o'tish davrida ulardan fors qo'shinlarini suv bilan ta'minlashga roziligini oldi. Arab qabilalari Ahmoniylar Eroniga bir yilda ming talant (30 tonna) miqdorida xiroj to'lash majburiyatini oldilar. Arablar harbiy yurishlar davrida fors qo'shinlari tarkibiga kiritildilar. Ular yunon-fors urushlari davrida fors qo'shinlari tarkibiga kirdilar. Arablar G'azo shahri uchun jangda (er. avv. IV asr) yunon-makedon qo'shinlariga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Iskandarning Misrga yurishi davrida arab qabilalarining ko'pchiligi yunon-makedonlarga bo'ysunmadi. Shu sababli, Iskandar Sharqqa yurishini tugatgach, unga bo'ysunganliklarini bildirib, elchi yubormagan arablarga qarshi yurish qilishni rejalashtirdi. Lekin bu reja amalga oshmay qoldi. Arablar Rim davlati bilan ham aloqada bo'ldilar. Rimliklar er. avv. 106-yillar atrofida Yamanga suqilib kirishga urindilar va Nabatey davlatini bosib oldilar.

**4. Janubiy Arabistonning qadimgi davlatlari.** Arabiston yarim oroli janubi va janubiy-g'arbida (hozirgi Yaman Arab Respublikasi va Yaman Arab Demokratik Respublikalari hududi) er. avv. X-IX asrlarda bir necha davlatlar vujudga keldi. Janubiy Arabistonning chekka shimolida bosh shaharlari Isil va Karnava bo'lgan Main davlati tashkil topdi. Maından janubroqda markazi Marib shahri bo'lgan Saba, undan janubroqda poytaxti Timna bo'lgan Kataban, Katabandan janubroqda Ausan davlati, sharqroqda markazi Shabva bo'lgan Xadramaut davlatlari bor edi.

Qadimgi Yaman davlatlari er. avv. IX-VIII asrlarda shakllana boshladi. Er. avv. VI-V asrlarda Main, Kataban, Saba va Xadramaut davlatlari o'rtasida yetakchilik uchun kurash boshlandi. Saba, Kataban va Xadramaut dastlab Ausanga qarshi birlashib, kurash boshladilar. Natijada Ausan Katabanga qo'shib olinadi. Main davlati Kataban va Sabaning tazyiqiga zo'rg'a bardosh beradi. Er. avv. III-I asrlarda zaiflashib qolgan Kataban Arabistondagi eng kuchli davlatlar Saba va Xadramaut tomonidan bo'lib olindi. Er. avv II asrda eng qudratli davlat Saba podsholigi bo'lgan. Saba gullab-yashnagan davrida uning hududi Qizil dengizdan Xadramautgacha, Markaziy Arabistondan Hind okeanigacha cho'ziladi. Bu davlat Yaqin Sharq bilan yaqin aloqalarni o'rnatdi.

Er. avv. II asr oxirida shu vaqtgacha Kataban tarkibida bo'lgan, poytaxti Zafar bo'lgan yangi Ximyarit davlati yetakchi o'ringa chiqdi. Eramizning IV asr

boshlarida Ximyarit davlati butun Janubiy Arabistonga o'z hukmronligini o'rnatdi. Ximyarit davlati davrida Janubiy Arabiston va Efiopiya o'rtasida urush va tinchlik munosabatlari hukm surdi.

Er. avv. I ming yillik o'rtalaridan eramizning I ming yillik o'rtalarigacha Arabiston Yunoniston, Ptolomeylar Misri va Rim imperiyasi bilan juda serqatnov savdo aloqalarini olib bordi. Bu aloqalar hududda savdohunarmandchilikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir qildi. Ko'chmanchi chorvadorlar savdo yo'llarini qo'riqlashda faol ishtirok etdilar.

Janubiy Arabiston davlatlari iqtisodiyoti birinchi navbatda, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik va ko'chmanchi chorvachilik bilan belgilanadi. Saba davlati hududidagi Marib to'g'oni (uzunligi 600 metr, balandligi 15 metr) er. avv. VII asrda qurildi va XIII asr davomida hududning sug'orma dehqonchilikida suv ta'minotini amalga oshirishda yetakchi o'rin tutdi. G'alla, poliz ekinlari, xurmo o'stirildi. Yirik va mayda chorva mollari va tuya boqilgan. Hunarmandchilik sohalaridan toshga ishlov berish, qurilish ishlari, metallarni qayta ishlash, kulolchilik, to'quvchilik va teriga ishlov berish yuqori darajada rivojlanadi.

Er. avv. I ming yillikda Janubiy Arabiston iqtisodiyotini tushkunlikka uchrashiga bir necha omillar sabab bo'ldi. Ulardan biri yunonlar, misrliklar va forslarning Arabistonni chetlab o'tib, bevosita Hindiston bilan aloqa o'rnatishlari edi. Endilikda quruqlikdagi xavfli savdo yo'lidan ko'ra, xavfsizroq bo'lgan dengiz yo'li yetakchi o'rinni egalladi. Tushkunlikka sabab bo'lgan ikkinchi omil mavjud sun'iy sug'orish tizimlarining yemirilishi, iqlimning o'zgarishi bilan hosildor yerlarning sahroga aylanishi bo'ldi. Bundan tashqari, ichki va tashqi urushlar Janubiy Arabiston davlatlarining tushkunlikka yuz tutishiga sabab bo'ldi.

**5. Janubiy Arabistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti.** Er. avv. II ming yillik o'rtalarida Mina, Saba va Kataban qabilalari ittifoqi shakllana boshladi. Er. avv. I ming yillik boshida ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti natijasida sinfiy tengsizlik kuchaydi. Siyosiy hokimiyatni o'z qo'lga to'plagan kohin va savdogarlardan iborat hukmron siyosiy qatlam paydo bo'ldi. Asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yer qishloq va shahar jamoalari qo'lida edi. Asosiy xo'jalik bo'g'ini patriarxal oila (yoki katta oilali jamoa) edi.

Eng katta yer egalari ibodatxonalar va davlat edi. Qullar urushlarda asir olish va sotib olish orqali paydo bo'ldi. Qarzi uchun qul qilish zaif edi.

Jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi qabila ittifoqlarining davlatga aylanishiga olib keldi. Janubiy Arabiston davlatlari siyosiy tuzulishini Saba podsholigi misolida ko'rish mumkin. Saba podsholigini 6 qabila tashkil etdi. Uning 3 tasi qaram ahvolda edi. Har bir qabila katta shoxobchaga, u yana kichik va alohida urug'larga bo'linar edi. Qabilalar zodagon boshliqlar (kabirlar) va ular tashkil qilgan kollegial tashkilotlar orqali boshqarilgan. Qabilalarda oqsoqollar kengashi bo'lgan bo'lishi mumkin.

Imtiyozli qabilalar o'zlarining zodagon urug'laridan ma'lum muddatga (Sabada 7 yil, Katabanda 2 yilga) davlatning oliy mansabdor shaxslar ieponimlarni

saylaganlar. Ular oliy xudo Astar bilan bog'liq kohinlik vazifalarini ham bajarganlar. Astronomik va astrologik taqvim nazoratlarini va yer-suvdan foydalanishni tashkil etishdek, ba'zi xo'jalik ishlarini boshqarish ham ularning zimmasida edi.

Eponimlar bo'yicha davlat va xususiy-huquqiy hujjatlar raqamlangan yil hisobi bilan olib boriladi. Ular 30 yoshdan mansabga chiqib, vakolat muddati tugagach, oqsoqollar kengashiga a'zo bo'ladi.

Er. avv. III-II asrlargacha Saba podsholigining boshqaruv ishlari va ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan mansabdor shaxslar-mugarriblar bo'lgan. Ularning vazifasiga qurilish faoliyati, sakral vazifalar (qurbonlik keltirish, diniy ovqatlanish marosimlarini tashkil etish) va davlatni tashkil qilgan qabila ittifoqlarini davriy yangilash, davlat hujjatlarini e'lon qilish, huquqiy qoidalar, shahar hududlari, xususiy mulk chegaralarini aniqlash va boshqalar kirgan. Mugarrib mansabi merosiy edi. Urush davrida mugarriblar ko'ngillilarga boshchilik qilganlar va vaqtinchalik unvon-malik, ya'ni podsho unvoniga ega bo'lganlar. Mugarriblar asta-sekin o'z qo'llarida butun hokimiyat vakolatlarini to'plab, er. avv. I ming yillik oxirida amalda mutloq podsholarga aylandilar.

Saba podsholigining oliy organi oqsoqollar kengashi edi. Unga 6 qabilaning vakillari kirgan. Oqsoqollar kengashi sakral, qonun chiqaruvchi vazifalar, ma'muriy xo'jalik vazifalarini bajargan. Boshqa janubiy arab qabilalari ham shunday davlat tuzilmalariga ega edi.

**6. Qadimgi Arabiston madaniyati.**Qadimgi Arabiston sivilizatsiyasining eng katta yutuqlaridan biri yozuvning alfavit tizimining yaratilishidir. Bu yozuv farazlarga ko'ra, Finikiya protosinay (Sinaydan topilgan yozuvlarga ko'ra) alfavitlaridan kelib chiqqan. Shimoliy Arabiston aholisi nabateylar ham oromiy yozuvlariga o'xshash o'z alfavitlarini yaratdilar.

Yozuvlar toshga, qoyatoshlarga o'yilgan; yog'och va loy taxtachalarga yozilgan, jez buyumga quyilgan; yumshoq buyumlarga bitilgan. Tarixiy voqealar bayoni, qonunlarning moddalari yozilgan bitiklar topilgan. Bag'ishlov va qurilish matnlari, sog'ona yozuvlari, ish yozishmalari bizgacha yetib kelgan.

Arab dengizchilari Hind okeanida yangi zamonaviy texnikadan foydalanishga qo'l urdilar. Ya'ni ular kema o'rni va suzayotgan yo'nalishlarini samoviy yo'nalishga qarab yulduzlar yordamida aniqlaganlar<sup>24</sup>.

Monumental me'morchilik sohasida katta yutuqlarga erishildi. Marib, Timna, Shabva va Karnava shaharlari xarobalariga ko'ra, shaharlar to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilib, balandligi 10-12 metrli tosh devorlar bilan o'rab olinadi. Shahar devorlarida kvadrat shaklida minoralar bunyod qilinadi. Petra shahri qoyatosh bag'rida bunyod qilinib, uning inshootlari qoyalarda qurilgan. Alebastr, jez va loydan haykallar yasalgan. Hayvonlar (ho'kiz, tuya, ot) tasviri dinamik va ifodali tasvirlanadi.

---

<sup>24</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.236.

Arabiston yarim oroli dini politeistik xususiyatda bo'lgan. Janubiy Arabistonda bosh xudo Astar hisoblangan. Saba qabilalarida Almakaxon oy xudosi hisoblanib, unga ho'kiz qurbonlik keltirilgan. Osmon, quyosh va bir necha sayyoralarga ham e'tiqod qilingan. Nabateylar Ilaxu yoki Alloh («xudo»), Dusharg (chaqmoq xudosi, dunyo boshqaruvchisi)ga sig'inganlar.

**Tayanch tushunchalar:** Qizil dengiz, Fors qo'ltig'i, Omon qo'ltig'i, «Xushbo'y moy yo'li», Hindiston, Magan, Petra, Meluxxa, nabatey, Yaman, Qarqara yonidagi jang, Astar, Kataban, Karnava, Marib to'g'oni, Osuriya, kabirlar, sakral vazifalar, mugarrib, Zafar, Timna, Saba, protosinay.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimgi Arabiston tarixiga tegishli manbalar xaqida ma'lumot bering.
2. Ilk davlatchilikning shakllanish jarayonlari va qo'shni davlatlarni ta'sirini qiyosiy taxlil eting.
3. Arxeologik ma'lumotlar va ularda aks etgan tarix xaqida fikr yuriting.
4. Diniy tasavvurlar va ularning xususiyatlarini tushintiring .

**Ma'ruza №13**

**Mavzu:Karfagen davlati Reja:**

1. Karfagen tarixining ilk davri.
2. Karfagen G'arbiy O'rtayer dengizidagi Finikiya koloniyalarining markazi.
3. Qudratli Karfagen davlatining tashkil topishi.
4. Karfagendagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (er. avv. V-III asrlar).
5. Karfagenning siyosiy tuzumi.
6. Karfagen madaniyati.

1. Karfagen tarixining ilk davri. Er. avv. II-I ming yilliklar oralig'ida finikiyaliklar G'arbiy O'rtayer dengizida ilk koloniyalarini barpo qila boshladilar. Er. avv. I ming yillik boshlaridagi Finikiyaning Ispaniyadagi koloniyalari Gades, Afrikadagi Utika shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlariga aylandi. Ammo Finikiyaning barcha koloniyalari ichida Tir shahrining Shimoliy Afrikada barpo qilgan Karfagen yoki Karxemish (yangi shahar, er. avv. 825 yoki 814-yil) iqtisodiy jihatdan yuqori darajada taraqqiy qildi va siyosiy qudratga erishdi. O'rtayer dengizida savdo va dengiz yo'llari kesishgan qulay joyda joylashgan Karfagen asta-sekin kuchaya boshladi. Dastlab ko'chib kelganlar yersizlikdan qiynalib, mahalliy aholi yerlarida yashash huquqi uchun pul to'lashga majbur bo'ldilar. Shahar boyib borishi bilan uning atrofidagi yerlar mahaliy aholidan sotib olina boshlandi yoki bosib olindi.

2. Karfagen Gʻarbiy oʻrtayer dengizidagi Finikiya koloniyalarining markazi. Er. avv. VII asrdan boshlab Karfagen tarixida ikki yuz yilga yaqin davom etgan yangi davr boshlandi. Bu davrda Karfagen shahri Gʻarbiy Oʻrtayer dengizidagi Finikiyaning boshqa koloniyalarining markaziga aylandi. Finikiya koloniyalari ichida Karfagenning yetakchi boʻlishining bir qancha sabablari bor edi:

1. Finikiyaning Osuriya va Eronga qaram boʻlishi natijasida metropoliya bilan siyosiy aloqalarning zaiflashuvi.

2. Yunonlarning Janubiy Italiya va Gʻarbiy Oʻrtayer dengizini faol kolonizasiya qilishi tufayli, ularning foydali xalqaro savdo va dengiz yoʻllarida hukmron boʻlish xavfi.

3. Gʻarbiy Oʻrtayer dengizidagi Finikiya koloniyalarini ichki taraqqiyotini maʼlum darajada muvofiqlashtirish (koordinasiya) va hamkorlikni kuchaytirish ehtiyoji.

Er. avv. VII asr oʻrtalarida Karfagen Shimoliy Afrikadagi rivojlangan hunarmandchilik markazi, Markaziy Oʻrtayer dengizining koʻp havzalarini savdo munosabatlari bilan bogʻlagan eng yirik Finikiya koloniyasiga aylandi. Shahar hududi va aholisi tez oʻsib ketdi. Karfagenning qulay tabiiy gavanı kemalarga moʻljallangan sunʼiy gavan qurish hisobiga kengaydi.

Karfagen shahar-davlat doirasidan chiqib, faol tashqi siyosat olib bordi. U Gʻarbiy Oʻrtayer dengizining boshqa qismlarida oʻz koloniyalarini barpo qila boshladi. Shu bilan birga, bu yerda mavjud boʻlgan Finikiya koloniyalari ustidan oʻz homiyligini oʻrnatdi. Karfagenning Afrikadan tashqaridagi birinchi koloniyasi Ispaniya yaqinidagi Pitius orollaridagi Ebes (er. avv. VII asr oʻrtalari) boʻldi. Ebesni tayanch nuqta qilgan holda Karfagen Ispaniyaga kirishga yoʻl bermayotgan Finikiya koloniyasi Gadesni tor-mor qilib, er. avv. VII-VI asrlarda Pireney yarim oroli janubiga oʻrnashdi. Yunonlar Karfagenni

Ispaniya sharqiy qirgʻogʻida oʻrnashib qolishiga yoʻl bermadilar. Karfagen Sitsiliyada faol harakat qilib, orolning gʻarbidagi Finikiya koloniyalarini oʻz nazorati ostiga oldi. Karfagen er. avv. VI asr oʻrtalariga kelib, Ispaniyadagi mulklari bilan Janubiy Sisiliyaning gʻarbi, Pitius orollari va Shimoliy Afrikagacha choʻzilib ketgan yirik davlat birlashmasi markaziga aylandi. Karfagen er. avv. VI asr oxirida Yaqin Sharqda oʻzgargan xalqaro ahvoldan yaxshi foydalandi. Bu vaqtda Old Osiyoda oʻtmishda qudratli boʻlgan Osuriya, Misr kabi davlatlar zaiflashib qoldi. Yangi qudratli davlat

Ahmoniylar Eroni butun Old Osiyoda va Shimoliy Afrikada oʻz taʼsirini oʻtkaza boshladi. Karfagen Ahmoniylar Eroni bilan aloqa oʻrnatdi. Bu aloqa Karfagen uchun noqulay boʻlsada, lekin Karfagen Sitsiliya va uning janubiy qismini, Janubiy Italiya, Korsika va Sardiniyani yunon shaharlariga qaram boʻlishiga qarshi faol siyosat olib borish imkoniyatiga ega boʻldi. Er. avv. VI asr oʻrtalarida Karfagen Markaziy Italiyadagi etrusklar bilan doʻstona shartnoma tuzdi. Er. avv. 535 yilda Karfagen–etrusklarning birlashgan floti Korsika yonidagi Alali jangida yunon flotini yanchib tashladilar. Karfagen Sardiniya janubini egallashga muvaffaq boʻldi. Natijada yunonlarning Ispaniyaga taʼsiri kamaydi. Er. avv. V asrda Bolqon yarim orolida yunon

shahar-davlatlarining zaiflashuvi natijasida Kichik Osiyoning g'arbidagi barcha yunon shahar-davlatlari Ahmoniylar Eroni ta'siri ostiga tushib qoldi. Ahmoniylar Yevropa tomon yurish qilib, Bolqon yarim oroliga ham bostirib kirdi. Er. avv. V asrda Eronning Yunonistonga bostirib kirishidan foydalangan Karfagen qulay payt poylab, Sitsiliyadagi yunon shaharlariga hujum qildi. Hujum muvaffaqiyatsiz chiqdi. Oqibatda Karfagen Sitsiliyaning g'arbida o'zining bir necha shaharlarini zo'rga saqlab qoldi.

**3. Qudratli Karfagen davlatining tashkil topishi.** Karfagenning gullabyashnagan davri er. avv. V asr o'rtalaridan-er. avv. III asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Sitsiliyadagi yurishlarda mag'lub bo'lgan Karfagen o'z tashqi siyosatining asosiy yo'nalishini Shimoliy Afrikaga qaratdi. Karfagen hozirgi Tunis va Jazoir qirg'oqlarini va bu hududlarning ichki hosildor yerlarini kolonizasiya qila boshladi. Karfagen dengizchilari Mavritaniya, Marokkning Atlantika okeani qirg'oqlariga chiqib, bu yerlarda manzilgohlarga asos soldilar. Er. avv. VII asrda Karfagen dengizchisi Gannon 60 kema va 30 ming kishilik dengiz ekspeditsiyasi bilan Atlantika qirg'oqlarini tekshirdi. Afrikada katta-katta hududlarni bosib olinishi, Ispaniya janubidagi, Sardiniya orolidagi va Sisiliya g'arbidagi koloniyalar Karfagenni ko'p sonli aholiga ega bo'lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli va katta imkoniyatlarga ega imperiyaga aylantirdi. O'z savdogarlarini himoya qilish, muhim savdo yo'llarini o'z qo'lida saqlab turish uchun Karfagen boshqa davlatlar bilan o'nlab shartnomalar tuzdi va faol tashqi siyosat yuritdi. Bu Karfagenning G'arbiy O'rtayer dengizi havzasida uzoq vaqt yetakchi o'rinni egallashiga qulay shart-sharoit yaratdi.

**4. Karfagendagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (er. avv. V-III asrlar).** Er. avv. V-IV asrlarda Karfagen O'rtayer dengizidagi vositachi savdoning markazi edi. Karfagen Sharqiy O'rtayer dengizining turli viloyatlariga, yunon shaharlariga va Pireney yarim orolining Atlantika qirg'oqlariga turli mahsulotlar yetkazib berdi. G'arbiy O'rtayer dengizida Karfagenning savdo manfaatlarini himoya qiladigan Rim bilan uchta shartnoma tuzildi. Er. avv. V-III asrlarda Karfagen yirik hunarmandchilik markazi edi. Kulolchilik, zargarlik va qurolsozlik ustaxonalarida oliy navli mahsulotlar tayyorlandi. Karfagenliklar mohir quruvchi bo'lganlar. Karfagen shahri mustahkam devorlar bilan o'rab olingan edi. Shahar ichida ibodatxonalar, saroylar, zodagonlar, oddiy fuqarolar uylari, ombor va doklar (kema ta'mirlanadigan va quriladigan joy) qurildi. Kemasozlik yuqori darajada rivojlandi.

Karfagen bepoyon ekin yerlariga ega edi. Dehqonchilik quldorlik xo'jaliklarida asosiy soha edi. Tokzorlar, zaytun daraxtlari, bog' va polizlar mo'l-ko'l hosil berar edi. Er. avv. VI-III asrlarda Karfagenda rivojlangan qulchilik unsurlari bo'lgan quldorlik jamiyati mavjud edi. Shu bilan birga, erkin ishlab chiqaruvchilar ko'p edi. Karfagen shahrining o'zida 200 ming aholi yashar edi. Oliy tabaqa yirik yer egalari, katta savdogarlar va kohinlardan iborat edi. Sharq mamlakatlaridan farq qilgan holda Karfagenda byurokratik boshqaruv apparati

yo`q edi. Mamlakatning iqtisodiy qudrati asosini ko`p sonli qullar va qaram aholini shafqatsiz talash tashkil qildi

G`arbda Karfagenliklar o`zlarining oltin tangalarini birinchilardan bo`lib muomalaga chiqaradilar, lekin biroz vaqt o`tib, ular chiqargan oltin tanga qadrsizlanadi va boshqa metallardan tangalar zarb qila boshlaydilar. Karfagenliklar G`arbiy Osiyo va O`rta yer dengizida pulini ko`p chiqarish orqali boshqa muomaladagi pullarni qadrini tushirib yuboradilar. Milloddan avvalgi 270-260 yillar Rimning katta tazyiqi ostida tangalar chiqardilar. Milloddan avvalgi 264-241 yillar Rim bilan bo`lgan urushda, Rimga katta miqdorda o`lpon to`ladilar<sup>25</sup>.

5. Karfagenning siyosiy tuzumi. Karfagenning siyosiy tuzumi eng boy Karfagen oilalarining tor guruhi manfaatlarining aks ettiradigan oligarxiya edi. Karfagenda er. avv. V-IV asrlarda oliy fuqarolik hokimiyati vakolati bir yil muddatga saylanadigan oliy mansabdor-ikki sufet qo`lida bo`lgan. Barcha davlat ishlarini 30 lar kengashi va 300 a`zodan iborat oqsoqollar kengashi hal qilgan. Oliy nazorat organi 104 lar kengashi bo`lib, u sudyalik vazifalarini ham bajargan. Karfagenning xalq yig`ini ahyon-ahyonda chaqirilgan. U siyosiy hayotga sezilarli ahamiyatga ega emas edi. Biror-bir zodagon oilaning hokimiyatni bosib olishiga yo`l qo`ymaslik uchun kengashlarda qatnashadigan oligarxlar doimiy ravishda bir-birlari bilan raqobat qildilar. Karfagenning ichki siyosiy hayoti tarixi hokimiyatni bosib olish uchun oliy tabaqa zodagon guruhlar o`rtasidagi doimiy kurashdan iborat edi. Er. avv. VI asr o`rtalarida dastlab lashkarboshi Malx Karfagenda o`z hokimiyatini o`rnatdi. Keyin esa, zodagon Magon oilasi qariyb 50 yil davomida hokimiyat tepasida turdi.

Er. avv. V asr o`rtalaridagina Karfagen oligarxiyasi Magon oilasining hukmronligidan qutulib, yana o`z hokimiyatini qayta tiklay oldi. Er. avv. V asr ikkinchi yarmidan-III asr o`rtalarigacha Karfagen O`rtayer dengizining g`arbidagi eng qudratli davlat bo`lib, uning qudratini asosi yuqori rivojlangan iqtisodiyot, dinamik ijtimoiy tuzilish, oligarxiyaning barqaror tizimi edi. Karfagenning boy savdogar-hunarmandlari va kema egalari O`rtayer dengizi g`arbi va Shimoliy Afrikada faol tashqi savdo bilan shug`ullandilar. Ahmoniylar Eroni va Rim bilan bir necha savdo shartnomalari tuzildi. Ammo er. avv. III asrning 60-yillariga kelib, Karfagen G`arbiy O`rtayer dengizi havzasida hukmronlik uchun Rim bilan keskin kurashga kirishdi.

Er. avv. III-II asr o`rtalarida Rim-Karfagen o`rtasidagi uch urush (Puni urushlari)lar natijasida Karfagen batamom tor-mor qilinib, uning hududi Rim Respublikasining Afrika provinsiyasiga aylantirildi (er. avv. 146- yil).

6. Karfagen madaniyati. Karfagenda amaliy fanlardan agronomiya, geografiya, matematika, fortifikasiya va astronomiya sezilarli rivojlandi. Karfagen dengizchilarining Britaniyaga dengiz sayohati (Giskon ekspeditsiyasi), Atlantikaning ekvatorial qirg`og`iga Gannonning mashhur sayohati va Karfagen

---

<sup>25</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.216.

atrofini yuqori darajada mohirona qurilgan mudofaa devorlari bilan o`rab olish tabiiy fanlarning taraqqiyoti natijasi edi. Karfagenliklar qadimda Afrika, O`rtayer dengizi, Atlantika qirg`og`i, Kanar va Azor orollarining eng aniq geografik xaritasiga ega bo`ldilar. Ular qishloq xo`jaligining dehqonchilik sohasida katta yutuqlarga erishdilar. Karfagenda dehqonchilik sohasidagi qadimgi asarlardan biri Magon tomonidan maxsus yozilgan agronomiya traktati paydo bo`lib, u lotin tiliga tarjima qilingan. Karfagen Misr, Xett, Bobil va Osuriya madaniyatlarini doimiy ta`siri ostida bo`ldi va shu sababli, uning madaniyati sinkretik (madaniyatlar qo`shilmasi hosilasi) xususiyatiga ega edi. Karfagen aholisi savdo-hunarmandchilik bilan shug`ullanib, faqatgina iqtisodiyot ehtiyojlariga xizmat qiladigan aniq va tabiiy fanlarga e`tibor berdilar.

Adabiyot, tasviriy san`at va falsafa zaif rivojlandi.

Diniy e`tiqod qadimgi Finikiya an`analari asosida rivojlandi. Karfagen panteonining bosh xudolari ma`buda Tinnit va Vaal-Melkart edi. Tinnit shahar homiysi, donolik, mo`l-ko`lchilik va tirilayotgan tabiat, hayotbaxsh ne`matlar yaratuvchisi edi. Dushmanlarni qo`rqituvchi Molox urush xudosi bo`lib, u ba`zida odamlarni qurbonlikka keltirishni talab qilgan. Bu xudolar sharafiga Finikiya an`analarini, Misr motivlarini va yunon me`morchiligi usullarini o`zida to`plagan sinkretik uslubda ibodatxonalar qurilgan. Karfagen madaniyati G`arbiy O`rtayer dengizi va Shimoliy Afrika tarixida muhim iz qoldirgan.

**Tayanch tushunchalar:** Koloniya, Gades, Utika, Pitius, Ebes, Pireney, Gannon, Puni urushlari, dok, 30 lar kengashi, Misr, Xett, matematika, 104 lar kengashi, Magon oilasi, Misr motivlari, Tinnit, geografiya, Osuriya, Bobil, Vaal-Melkart, Molox, Magon, Ebes, er. avv. 146- yil, Alali jangi, Malx.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Karfagen davlati boshqaruvi qanday bo`lgan?
2. Karfagenning tashqi siyosati tushuntirib bering.
3. Karfagenning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti qanday edi?
4. Puni urushlari va uning oqibati?
5. Diniy e`tiqodi qanday bo`lgan?

### **Ma`ruza №14,15**

**Mavzu: Qadimgi Elam, Midiya va Ahamoniylar davlatlari Reja:**

1. Qadimgi Eronning tabiiy sharoiti va axolisi
2. Qadimgi Eron tarixiga tegishli manbalar.
3. Elam davlati
4. Midiya davlati
5. Ahamoniylar podsholigi

**Tabiiy sharoiti.** Mesopotamiyadan sharq tomonda atrof itog' tizmalari bilan qurshab olingan bepayon Eron qirlari yoyilib yotadi. Eronni Dajla va Frot havzasidan Zagros tog' tizmasi ajratib turadi. Shimol tomondagi Elburs tizma tog'i Kaspiy dengizining janubiy qirg'og'i bo'ylab o'tadi, shimoli-g'arbda esa Kopetdog' va Pomir tog'lari Eron bilan O'rta Osiyoning chegarasini tashkil qiladi.

Markaziy Eronning ancha qismi, sharqiy Eronning ko'p viloyatlari sekinasta cho'lga va ba'zi joylari suvsiz sahroga aylanib borgan. Bunda ko'chmanchi chorvachilik ustun bo'lgan, ammo ikki o'rkachli tuyalar (Baqtriya tuyasi) yetishtirish alohida o'rin tutgan. Bu tuyalar er.av. I ming yillikda Osuriyada ham juda oz bo'lsa-da paydo bo'lgan. Dehqonchilik o'choqlari Eronning chekka o'lkalarida, erni soy suvlari bilan sug'orish mumkin bo'lgan joylarda tashkil topgan. O'rta Osiyoda, Erondan farqli ravishda past tekislik keng joyni egallagan.

Lekin Dajla, Frot va Nil suvlarini jilovlashdan ko'ra Amudaryo suvini o'zlashtirish ancha qiyin kechgan va bunda irrigatsiya ishlari ancha keyin (er.av. I ming yillikdagina) boshlangan. Dehqonchilik madaniyatining eng qadimgi o'choqlari Orol dengizi bo'ylarida emas, balki ancha janubroqda, Eronga chegaradosh rayonlarda, (hozirgi O'zbekiston territoriyasida) bo'lganligi aniqlandi. Arheologlar bunda er.av. V ming yillikdayoq dehqonchilik bo'lganidan dalolat beruvchi arpa, bug'doy donlari va uy hayvonlarining suyaklarini topdilar, ammo ayni zamonda Amudaryo havzasida hali ovchilik va baliqchilik hukm surgan.

Eron bepoyon tog'li va ko'p cho'llardan iborat kontinental iqlimli mamlakat. Dehqonchilik uchun qulay vodiylar, tog' oldi hududlari juda ko'p. Shimolda Elburs tog' tizimi va unga Turkman, Xuroson tog'lari qo'shiladi. G'arbdan va janubdan Zagros va janubiy Eron tog'lari o'rab turadi. Janubi g'arbiy Eronda (Huziston) Korun va Kerxa daryolari vodiysida yuqori hosil beradigan yerlar mavjud.

**Aholisi.** Eron bilan O'rta Osiyoning qadim zamondagi etnik tarkibini aniqlash juda qiyin. Faqat bir narsani komil ishonch bilan aytish mumkinki, er.av. II ming yillikkacha bundagi tillarda na semit va na hind-Yevropa tillariga o'xshashlik bo'lgan. Bundagi tillardan bizga ma'lum bo'lgani elamiy tilidir, bu til Eronning janubi-g'arbida ustunlik qilgan, ammo uzoq qadimda elamiy tili ancha nari, sharq va sharqi-shimolda ham tarqalgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Faqat er.av. II ming yillikda, ayniqsa I ming yillikda etnogenez manzarasi oydinlashib borgan. Sovet davri ilmiy adabiyotlarida O'rta Osiyo va Eronda hind-eron qabilalari paydo bo'lgan. Ular shimol tomondan kelgan deb faraz qilinadi. Ammo eroniy tillar shimoldan janubga kirib kelgan degan fikrlar asossizligi haqida yangi fikrlar bor, ya'ni fors ko'rfazi hududida eroniy tillarning dariy lahjasi bo'lgani haqida farazlar bor.

Er.av. I ming yillik boshlarida g'arbiy Eronda eron tilida so'zlashuvchi qabilalar yashagan. Buni Ossur yilnomachilaridan bizga etib kelgan bir qancha rayonlarning onomastika va toponimikasi isbotlaydi. Eronda mezolit va neolit

davriga oid manzilgohlar, arxeologik topilmalar, kulolchilik buyumlari Suza shahrining ilk qatlamlari yodgorliklari, Eron poytaxt shaharlari Suza, Ekbatana, Pasargad harobalaridan topilgan ulug'vor haykallar, qoyatosh releflari, qimmatbaho metallardan qilingan buyumlar-riton-qadahlar, harbiy qurollar va taqinchoq-bezaklar topib o'rganilgan. Yevropa olimlari J. de Margo va Grishman bu qadimgi shaharlar xarobalarini o'rganib, eronshunoslik faniga muhim hissa qo'shdilar.

Er. av. VII -VI ming yilliklarda g'arbiy Eronda dehqonchilik bilan shug'ullanadigan o'troq va chorvador qabilalar er.av. VI -V ming yilliklarda Eronning boshqa hududiga tarqaladi. Er. av. III ming yillik boshlarida janubig'arbiy Eronda Elamtu (bobil va ossur tilida «mamlakat») yoki Elam ilk davlat birlashmasi shakllanadi. Elam Mesopotamiya hamda shimoliy va sharqiy Eron bilan bog'langan Korun va Kerxa daryolari vodiylarida joylashgan. Suza shahri poytaxtga aylandi.

**Manbalar.** Midiya va Eron tarixi bo'yicha ma'lumot beradigan manbalardan biri bu yunon mualliflarining asarlari hisoblanadi. Gerodot (er. av. V asr)ning tarixi, Fukidid (er. av. V asr) tarixi, Ksenofontning «Yunon tarixi» asari, uning «Anabasis» memuari, sitsiliyalik Diodorning «Tarixiy kutubxona»si kabi asarlar qadimgi fors tarixiga oid boy siyosiy, ijtimoiy, harbiy-diplomatik ma'lumotlar beradi.

Eron va O'rta Osiyoning xo'jaligi va undagi ijtimoiy munosabatlar to'g'risida biz asosan arxeologiya yodgorliklaridan bilib olamiz. Uzoq o'tmishning aks sadolari Eronda keng tarqalgan diniy asar – “Avesto”ning ilk qatlamlarida saqlangan.

Hilma-hil hujjatlardan iborat butun bir arxiv bizgacha faqat Elam davridan etib kelgan. Er.av. VI asrdan boshlab Ahmoniylarning yozuvlari paydo bo'la boshlagan. Ko'p masalalarni hal etishda Gerodot, qisman Ktesiy va boshqa antik dunyo mualliflarining asarlari yordam beradi.

**Elam.** Eron xalqlaridan yuqorida bir necha marta tilga olingan elamiylar hammadan oldin tarix sahnasiga chiqqan. Elamiylar mamlakati fors qo'ltig'iga quyadigan ikki daryo - Kerxa bilan Karuna daryolari havzasini va shimol tomonda unga tutashgan tog'li Anchan o'lkasini ishg'ol qilgan. Elamning poytaxti Suza (Kerhi bo'yidagi) tekislikda joylashgan edi. Arxeologlar bu erdan

(er.av. IV-III asrlardagi) eneolit yodgorliklarini, ayniqsa badiiy jihatdan yuksak, naqsh solingan sopol buyumlarini topganlar.

Shu narsa muhimdirki, Elam butun tarixi davomida Ikki daryo oralig'i bilan maxkam aloqada bo'lgan va bu aloqa uning iqtisodiyoti hamda madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan. Shu narsa ham ibratlidirki, Elamda paydo bo'lgan o'ziga xos yozuv tizimini mahalliy piktografiya asosidagi ieroglifikani g'arbiy qo'shnilaridan o'zlashtirib olgan mixxat er.av. III ming yillikda siqib chiqargan. Dastlab mixxat matnlari akkad tilida yozilgan, er.av. II ming yillikda esa elamiy tilida yozila boshlagan. Elamning Ikki daryo oralig'idagi davlatlar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari ko'p o'zgarib turgan. Vaqti-vaqti bilan Elam Akkadga (er.av.

XXIII asr) va Shumerga (Urning III sulolasi vaqtida - er.av. XXI asrda) qaram bo'lib qolgan. Ammo buning aksi yuz bergan hollar ham bo'lgan, Elam podsholari g'arbiy qo'shinlarning kuchsizlanib qolganliklaridan foydalanib, ularga qarshi hujumga o'tgan. Masalan, eramizdan avvalga XX-XVIII asrlarda tarqoqlik va o'zaro urushlar davrida Elam, Dajla va Frot havzasida o'z nazoratini o'rnatgan.

Er.av. II ming yillikda elamiylar yana kuchayib ketib, Bobilga yurishlar qilgan.

Elamning ijtimoiy munosabatlarida qo'shni Ikki daryo orlig'iga o'xshagan joylari ko'p bo'lgan. Ammo, shu bilan birga, mahalliy xususiyatlari ham bo'lgan, albatta. Bunda tarkib topgan tabaqaviy jamiyat sharoitida har xil matriarxat qoldiqlari Ikki daryo oralig'idagidan ko'ra uzoqroq saqlangan, bu qadimgi Misrda ro'y bergan shu singari ahvolni eslatadi. Chunonchi, er uchastkalari tamomila ayollar ihtiyorida bo'lgan. Taxt merosligining o'ziga xos tartibi ham ibratlidir, taxt otadan o'g'ilga o'tmagan, balki akadan ukaga o'tgan (fratiarxat).

Er.av. VIII-VII asrlarda Elam bilan Osuriya o'rtasida juda qattiq va keskin kurash borgan va bu kurash Ashshurbanipal qo'shinlarining Suzni tor-mor keltirishi bilan tugagan. Shundan keyin Elam mustaqil o'rin tutmagan, ammo elamiy tili fors va bobil tillari bilan birga yashayvergan. Behistun yozuvining uch tilda bo'lganligi bunga dalildir.

Elamning qulashi yangi xalqlarning, endi bu gal eron tili guruhidagi midiy va forslarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

**Midiya.** Midiya shimoli-g'arbiy Eronda joylashgan edi. Mamlakatning g'arbiy qismi Zagros tog'i hududi bo'lib, keyinchalik Midiya Atropatenasi deb atalgan. Atropatenadan sharqda Midiyaning tekislik qismi joylashgan. Er. av. III-II ming yilliklarda bu hududlarda kassit, kutiy, xurrit tillarida so'zlashadigan o'troq va chorvadorlar yashaganlar.

Yunon an'alariga ko'ra, Midiya davlatini podsho qilib saylagan Deyok degan kishi barpo qilgan va yakka hokimlik o'rnatgan. Midiya poytaxti Ekbatana (hozirgi Hamadon) ni barpo qilgan kishi ham o'sha deydilar. Ekbatana oddiy bir qishloq bo'lib, Deyok uni bir necha devor bilan qurshab olingan mustahkam qal'aga aylantirgan.

Midiya hukmdorlaridan eng atoqlisi va Midiya davlatining ayni tashkilotchisi Kiaksar bo'lgan (er.av. 625-585 yillar). U Ossuriyaning Bobil va Elamga qarshi kurashi natijasida zaiflashib qolganligidan, butun Old Osiyoga skiflarning bosqinchilik xujumidan imkon boricha foydalangan. Urushqoq shimoliy qabilalarning bu harakatidan garchi qisman bo'lsa-da, Midiyaning o'z territoriyasi ham zarar ko'rgan bo'lishiga qaramay, Kiaksar skiflarni tinchitgan va hatto o'z xizmatiga og'dirishga muvaffaq bo'lgan.

Ossuriya Elamni tor-mor keltirgani bilan uni o'zlashtirishga kuch va imkoniyati qolmagan, keyin Elam Midiyaning ta'sir doirasiga kirib ketgan.

Kiaksar o'zini tiklab olgan Bobil bilan inoqlashgan. Qadimgi mualliflar

Kiaksarning qabilalardan terilgan lashkarlardan iborat avvalgi terma qo'shini o'rniga muntazam armiya barpo qilishi uning eng katta muvaffaqiyati deb hisoblaydilar.

Ossuriya bilan kurash ajoyib yutuq bilan tamom bo'lgan. Kiaksar er.av. 612 yilda Ossuriyaning poytaxti Nineviyani egallagan va ossur merosini Bobil podshosi Nabupalasar bilan bo'lishib olgan. Urartu territoriyasining kattagina qismi va Kichik Osiyoning sharqiy qismi – Kappadokiya ham Midiya davlati tarkibiga kirgan.

Midiya er-mulklarning g'arbga qarab kengayishi shu bilan tugagan. Lidiya bilan urush Kiyaksar uchun juda og'ir bo'lgan va u (Bobilning vositachiligida) sharq bilan yunon olami o'rtasidagi savdo-sotiq ishlarini o'z qo'lida ushlab turgan qudratli va boy davlat bilan bitishishni afzal ko'rgan. Kiaksar bilan Lidiya podshosi Aliatt o'rtasidagi bitimga muvofiq Galis daryosi ikki davlatning chegarasi bo'lib qolgan.

Kiaksarning o'g'li, Midiyaning oxirgi podshosi Astiag davrida Yangi Bobil podsholigi bilan bo'lgan do'stona munosabatlar buzilgan. O'rtada nizo chiqishiga har ikki tomon da'vo qilgan chegaradagi Xarran shahri sabab bo'lgan. Midiya qo'shinlari g'arbda Bobil podshosi Nabonidga qarshi juda shiddatli janglar bilan band bo'lib turganida Eronning janub qismi-Midiya podshosining oliy hukmronligi ostidagi fors podsholigi Astiagga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Er. av. 585-550-yillarda podsholik qilgan Astiag davrida Midiya katta va qudratli davlatga aylanadi. Bu vaqtda Elam ham qo'shib olinadi..

Qo'zg'olonga Axmoniyalar xonadonidan bo'lgan va Midiya hukmronligi ostidagi boshqa hokimlar kabi podsho unvoni olgan Kayxusrav II boshchilik qilgan. Gerodotning aytishicha (u ancha ishonchli ananadan foydalangan bo'lsa kerak), Kayxusrav Astiagning (ona tomonidan) nevarasi bo'lgan. Bunda shu narsani ham nazarda tutish kerakki, midiylar bilan forslar bir- biriga yaqin qarindosh xalqlardir. Yunon mualliflari ba'zan hatto forslarni midiylar deb ataydilar, ularning bunday deyishi tasodifiy narsa emas, albatta. Eronning asosiy halqini tashkil etgan forslar bilan midiylarning tillari va madaniyatlarida umumiylik ko'p bo'lgan. Kayxusravning qo'zg'oloni er.av. 553 yilda boshlanib 3 yil davom etgan. Astiag bu kurashda katta g'ayrat ko'rsatgan, lekin armiyaning bir qismi g'arbda band bo'lganligi va o'z ichidan xoinlar chiqqanligi tufayli ish pachava bo'lgan. 550 yilda Astiag taxtidan ag'darilib, bir qancha vaqtdan keyin o'ldirilgan (manbalarga ko'ra Kayhisrav bundan behabar bo'lgan) va Midiya forslarga tobe qilingan.

**Ahmoniyalar davlatining tashkil topishi.** Kayxusravning Astiag ustidan qilgan g'alabasi natijasida qadimiy fors davlati vujudga keltirilgan va (Ahman barpo qilgan podsho xonadonining nomi bilan) Ahmoniyalar davlati deb yuritilgan. Bu davlat (er.av. 330 yilgacha) ikki asrdan ziyodroq yashagan. Eronliklarning janubiy avlodi bo'lmish forslar bu davlatda asosiy o'rin tutganlar. Midiylar ikkinchi o'rinda bo'lganlar, ularning ko'pchiligi Kayxusrav tomoniga o'tib, evaziga anchagina imtiyozlarga ega bo'lganlar

Jahon tarixida birinchi ulkan podshohlik bo'lgan Eron ahamoniylari davlati qariyb 200 yil yashadi. Bu davlat tarkibiga Fors yerlari, janubiy grek yerlari, O'rta Osiyo, shimoliy Hindiston va Misr hududlari kirgan<sup>26</sup>.

Midiylarning mag'lubiyatidan Bobil podshosi Nabonid xursand bo'lgan, negaki midiylar taxtda solib turgan oy xudosi Sinaning muqaddas shaxri Harranning xavfsizligi ularning mag'lubiyati bilan ta'min etilgan. Lekin yangi davlatning barpo qilinishi Kayxusravning bundan keyingi istilochilik rejalaridan havf olgan g'arbiy qo'shinlarini tashvishga solgan.

Forslar podshosiga qarshi katta bir ittifoq tuzilib, bunga Eronning bevosita qo'shnilari (Yangi Bobil podsholigi, Lidiya) gina emas, balki ancha olis Misr ham qo'shilgan. Shuningdek, Gretsiyadan ham yordam kelishi kutilgan.

Turli davlatlarning bunday keng ko'lamdagi (Ossuriyaga qarshi ittifoqni eslatadigan) ittifoqning tuzilishi qadimgi dunyoda xalqaro aloqalarning mustahkamlanib va rivojlanib borishidan guvohlik berar edi.

Bu davlatda hunarmandchilik g'oyat taraqqiy qilgan, undagi bo'yochilik ustaxonalari ayniqsa shuxrat qozongan, ular jun gazlama va fil suyaklarini to'q qizil rangga bo'yashda Finikiya ustaxonalari bilan raqobatlashganlar.

Lidiyaning so'nggi podsholari Aliyatt va Krez davrida mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti siyosiy qudratning kuchayishi bilan qo'shilib borgan.

Kichik Osiyoning katta qismi, shu jumladan, yunonlarning dengiz bo'yidagi (Milet dan boshqa) koloniyalari ham Lidiya hukmronligi ostiga tushib qolgan.

Kayxusrav Lidiyaga qarshi o'tlanib ularning saralangan otliq qo'shinini tormor keltirgan. Kayxusrav lidiylarga qarshi ularga ma'lum bo'lmagan tuya minib jang qiladigan askarlarni yuborgan. Shundan keyin fors podshosi jadal zarba bilan Lidiyaning poytaxti Sardni ishg'ol qilgan.

Lidiyadan keyin Bobilga navbat kelgan. Bobil podsholigining ichki nizolar tufayli kuchsizlanib qolganligini yuqorida aytib o'tgan edik. U endi o'zining qudratli mudofaa inshootlarini Kayxusrav qo'shiniga qarshi ishlata olmagan.

Kayxusravning o'zi (bizgacha etib kelgan yozuvlarda) "Bobilga osoyishtalik bilan kirib keldim" degan va muqaddas shaharning barcha imtiyozlarini tasdiqlab, uning xudolariga hurmatini izhor qilgan. Ikkinchi tomondan

Kayxusrav toqatsizlik bilan uning kelishini kutib turgan yaxudiylarni o'z tomoniga og'dirgan. Bir vaqtlar bobilliklar haydab olib kelgan bu yahudiy aholisining umidi puch bo'lmagan. Kayxusrav ularni "Bobil qulligi" dan qutqazib, Falastinga qaytib ketishlariga va qayta Quddusni tiklashlariga ruxsat bergan. Misrga mo'ljallanayotgan hujum uchun zarur platsdarm ana shunday qilib Kayxusrav qo'liga kirib qolgan. Kayxusrav xuddi shu maqsadini amalga oshirish va O'rta dengiz sohillarida o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun Finikiyaning savdo-sotiq shaharlari bilan murosa qilishga harakat qilgan, chunki u bu shaharlarning flotidan foydalanishni mo'ljallagan. Dehqonchilik madaniyatining

---

<sup>26</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York.. 2011, p.136.

ikkinchi o'chog'i (hozirgi Turkmaniston tuprog'idagi Murg'ob vodiysi) Marg'iyonada bo'lgan.

O'sha dehqonchilik zonalari atrofidagi bepayon cho'llarda podachi sakmassaget qabilalari ko'chmanchilik qilgan. Kayxusrav shimoli-sharqiy o'lkalarni qat'iy o'ziniki qilib va unumdor Amudaryo vodiysiga olib boradigan yo'llarni qo'lga kiritish niyatida mana shu urushqoq qabilalar ustiga o'zi uchun fojeali yurush qilgan. Shu bepayon cho'llarda forslar qo'shinini dushman qurshab olgan va undagi janglarning birida Kayxusrav halok bo'lgan. Gerodotning aytishicha, massagetlar malikasi istilochining tanasidan judo qilingan kallasini qon bilan to'ldirilgan meshga solgan va mana endi qonga to'y, deb xitob qilgan. Mahalliy ananalardan olib chiqqan afsonada Qora dengiz bo'ylaridagi va Tog'li Oltoy skiflariga qarindosh erkin sak qabilalarining doim istiloga intilgan bosqinchi fors podshosiga qarashlari ifoda etilgan.

Lekin Kayxusravning mag'lubiyati va halokati Ahmoniyilar davlatining kengayib borishiga to'siq bo'lmagan. Misrga bostirib kirish niyatida Kayxusrav tayyorlagan ishni uning o'g'li Kambiz (er.av. 529-523 yillar) amalga oshirgan. U ham otasiga o'xshab harbiy tadbirlar bilan birga diplomatiya usullarini ham ishlatishga harakat qilgan. Kambiz o'zining qo'shinlarini Falastinga to'plab, Sinay sahrosi orqali Misr chegaralariga boradigan yo'llarga egalik qiluvchi arablar bilan bitishishga kirishgan. Shu orqali u o'z qo'shinini tuyalarda tashiladigan suv bilan ta'min qilgan. Dengizda forslarning o'z floti bo'lmagan, ammo ular finikiyaliklarning va qisman yunonlarning kemalaridan to'la foydalanganlar. Buning ustiga XXVI sulolaning so'nggi fir'avnlari vaqtida dengiz kuchlariga qo'mondonlik qilgan mansabdor xoinlik qilgan degan gap ham bor. Bundan tashqari Misrdagi yunon yollanma askarlarining qo'mondoni Fanat ochiqdan-ochiq Kambiz tomoniga qochib o'tib, unga g'oyat katta xizmatlar ko'rsatgan. Fors qo'shinlari Misr chegaralariga yaqinlashib qolgan paytda Misrning g'ayratli fir'avni Amasis to'satdan o'lib qolgan.

Mana shu hamma noqulay vaziyatlarga qaramay, Misr qo'shinlari Pilusiya yonidagi chegara janglarida istilochilarga qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Shundan 70 yil o'tib Gerodot shu erga kelib jang maydonini tomosha qilgan va unda g'oyat ko'p o'ldirilgan kishilarning suyaklarini ko'rgan. Forslar bu jangda Misr askarlarining mardligini bukishga muvaffaq bo'lganlar, keyin ularning muvaffaqiyatiga hech nima to'sqin bo'lmagan. Memfis bosib olingan va Amasisning o'g'li fir'avn Psammetix III faqat bir necha oy podsholik qilib asir tushgan (keyinroq qatl qilingan).

Kambizning Efiopiyani bo'ysundirishga urinishi muvaffaqiyatsiz bo'lgan. U tabiiy g'ovlardan o'tolmagan va o'z mustaqilligini himoya qilayotgan aholining qattiq qarshiligini sindira olmagan.

Fors davlatining o'zida ham muammolar tug'ilgan. Kayxusrav vaqtida qilingan eski patriarxal odatlar bilan Kambizning hisoblashmay qo'yganligidan va uning mustabidlik xatti-harakatlaridan harbiy zodagonlar doirasida norozilik tug'ila boshlagan. Kambiz o'zining ukasi Bardiyani xoinlikda shubha qilib,

fitnachilar unga tayanib ish ko'radi deb o'ldirishga maxfiy buyruq bergan. Ammo bu hol voqeaning tezlashishiga sabab bo'lgan, xolos. Shahzodaning o'ldirilganini deyarli hech kim bilmagan va afti-basharasi Bardiyaga juda o'xshagan Gaumata degan bir midiy kohin bundan foydalanib, qo'zg'olonga boshchilik qilgan. Fors davlati, Midiya va boshqa mamlakatlar uning tomoniga o'tgan.

Kambiz qo'zg'olonni tinchitish niyatida shosha-pisha Misrdan vataniga jo'nagan, lekin qaytishda juda sirli va shubhali vaziyatda halok bo'lgan (ovozalarga ko'ra, u tasodifan qoqilib o'z hanjariga o'zi qadalib o'lgan emish). Lekin Bardiya nomini olgan Gaumata mamlakatni uzoq vaqt idora qila olmagan. U istilo qilingan mamlakatlar aholisiga tayanib ish ko'rgan, ularni bir necha yil oldin soliqlaridan ozod qilgan. Biroq Eronning o'zida qarshilikka duch kelgan va agar unga dushman (Behistun yozuvlarini yozgan) yilnomachilarning gapiga ishonadigan bo'lsak, u bir qancha zo'rliklar qilgan, qabila ibodatxonalarini vayron qilgan.

Fors xarbiy zodagonlari orasida yangi podshoning qallobligi to'g'risida ovozarlar tarqalib ketgan. Ettita mansabdor fitna uyushtirib, natijada Gaumata o'ldirilgan. Fitnachilar taxtni Ahmoniylar xonadoning urug'-aymog'idan bo'lgan Gistaspning o'g'li Doroga topshirishgan. Doroning taxtga ega bo'lish huquqi to'g'risida qarshiliklar va bahslar bo'lgan, ana shu bahs va qarshiliklarni bartaraf qilib, taxtga bo'lgan huquqini mustahkamlash uchun u Kayxusravning qiziga uylangan.

**Doro I (er.av. 522-486 yillar) hukmronligi davrida Axamoniylar davlati.** Doro I taxtga o'tirishi bilanoq mamlakatning turli burchaklarida (Bobilda, Elamda, Lidiya va boshqa joylarda) boshlangan qurolli qo'zg'olonlarga qarshi shiddatli kurash olib borishga majbur bo'lgan. Eramizdan avvalgi 522 yil butunlay o'sha qo'zg'olonlarni bostirish bilan o'tgan.

Doro I taxtga mustahkam o'tirib olgach, ko'p qabilali davlatning butun boshqarish tizimini qayta qurishga kirishgan, ma'muriy va moliyaviy ishlarga doir bir qancha islohotlar o'tkazgan. U mamlakatni 20 ta satraplikka bo'lgan. Har birining tepasiga noib (satrap) qo'yilgan. Bu viloyatlarda joylashtirilgan qo'shin qismlariga alohida harbiy boshliqlar qo'mondonlik qilishgan. Shu bilan birga, satraplar bilan harbiy boshliqlarning bir-biri ustidan chaqimchilik qilishlari rag'batlantirilgan. Har ikkalasining ham chaqimchiligi, ularni o'z vazifalarini vijdonan halol bajarganliklarining alomati hisoblangan.

Bundan tashqari butun mamlakatga "podshoning ko'zi va qulog'i" deb g'alati nom olgan nazoratchilar yuborilgan. Istagan bir kishi ustida shubha tug'ilishi bilanoq ushlab olinib, xatto satrap bo'lsa ham qatl qilinishi mumkin bo'lgan.

Juda keng davlatning turli qismlari o'rtasida aloqani osonlashtirish maqsadida tosh terilgan keng yo'llar qilingan<sup>27</sup>.

---

<sup>27</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York.. 2011, p.137.

Bu yo'llarning eng kattasi (Persepol, Ekbatan va Bobil bilan bir qatorda Axmoniylarning rezidentsiyasiga aylantirilgan) Suza (Elamning sobiq poytaxti)dan Egey dengizi qirg'og'odagi yunonlar koloniyasi Efesga olib borgan. Bu yo'llarda bir-biriga yaqin ot bekatlari qo'yilgan. Chopqir ot mingan chavandozlar podshoning xatlari va posilkalarini (estafeta tartibida) bir bekatdan ikkinchisiga olib borganlar.

Soliqlar tizimiga alohida e'tibor berilgan. Doro I ni "savdogar" deb ataganlari bejiz emas. Avvalgi tasodifiy va tartibsiz yigimlar ("tortiq"lar) o'rnida ham pul bilan ham mahsulot bilan to'lanadigan badallarning aniq miqdori belgilangan. Mamlakatning fors qabilalari joylashgan asosiy qismi Persidadan boshqa butun hududiga xiroj solingan. Xirojning umumiy miqdori 1400 talant (400 tonna) kumushga etgan. Uning eng og'ir qismi eng boy satrapliklarga, ya'ni Bobil bilan Misr o'lkalariga tushgan.

Soliqlarni to'plash uchun vositachilardan foydalanganlar. Bu olg'ir korchalonlar soliqlarni sotib olib tegishli pulni oldindan xazinaga topshirganlar, keyin aholidan ortig'i bilan shilib olganlar. Bobildagi savdogar-sudxo'r "Murashu xonadoni" ning yirtqichliklari to'g'risidagi hujjat saqlangan. Bu korchalonlar kompaniyasining vakillari fors amaldorlariga ochiqdan-ochiq pora berganlar uning evaziga amaldorlar talangan aholining shikoyatlarini natijasiz qoldirganlar.

O'z davlatining turli qismlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish savdo-sotiqni va pul xo'jaligini jonlantirishni ko'zlab, Doro I Lidiya va Gretsiyadagi kabi tanga pul tartibini o'rnatgan. Oltin darik (8 gramm oltin) asosiy tanga pul bo'lib, uni faqat podsho zarb qildirgan (kumush tanga pullarni esa satraplar ham zarb qildirishi mumkin bo'lgan).

Doro I g'ayrat bilan samarali tashqi siyosat olib borgan. U bir zamonlar Kayxusravni tor-mor qilgan sak-massagetlarni engishga muvaffaq bo'lgan va O'rta Osiyoga chiqadigan yo'lni ochgan.

Keyinchalik, Gerodotning aytishicha, fors podsholari Amudaryodagi shlyuzlarni o'z qo'llariga olganlar va bu ularga dehqonlarni suvdan mahrum qilish bilan qo'rqitib, ulardan "tortiq" lar olib turishga imkon bergan.

Doro I sharqda Hindistonning bir qismini (Hind havzasidagi qismini), g'arbda esa, Kirenaikani (Afrikada) Egey dengizidagi ba'zi orollarni (jumladan, Samos orolini), shuningdek, Frakiya bilan Makedoniyani o'ziga bo'ysundirgan. Ammo Qora dengiz bo'yidagi skiflarni va Yevropadagi yunonlarni ham o'z hukmronligi ostiga olish yo'lidagi intilishlari tamomila muvaffaqiyatsizlikka uchragan va bu Ahmoniylar davlatining zaiflashish tamoniga burilish payti bo'lgan.

Er. av. 559 yilda fors podshosi bo'lgan Kayxusrav II keyingi ikki yil davomida Parfiya va Girkaniyani bosib oladi. Er. av. 545 va 539 yillarda Kayxusrav hozirgi Afg'oniston, O'rta Osiyo yerlarini bosib oladi. Fors davlat hududi Hindistonning shimoliy-g'arbiy chegaralarigacha, Hindikushning janubiy yonbag'irlari va Sirdaryo havzalarigacha etdi. Kayxusrav shimolisharqiy yo'nalishlarda o'z ta'sirini mustahkamlagach, Bobilga yurish

qiladi. 539 yilda ikki oy davomida avgust-sentyabr oylari Bobil yerlari bosib olinadi. Bobil podsholigi rasman saqlab qolinadi, uning ijtimoiy tuzilmasi o'zgartirilmaydi. Bobil shahri fors podsholari turadigan qarorgohlardan biriga aylanadi. Bobil davlat apparatida bobilliklar etakchi o'rinda qolaveradi, bobilliklarning qadimgi diniy e'tiqodlariga fors podsholari homiylik qiladilar. Amalda Bobil mustaqil siyosiy birlashmadan ahmoniylar satrapiyasiga(viloyatiga) aylanadi, mamlakat mustaqil siyosat yuritishdan mahrum bo'ladi, ichki siyosatda oliy harbiy va ma'muriy hokimiyat fors podshosi noibi qo'lida edi.

Bobil bosib olinganidan so'ng, barcha g'arbiy mamlakatlar (Suriya, Falastin, Finikiya) Misr chegarasigacha forslar qo'lga o'tadi. Finikiya, Bobil va Kichik Osiyoning savdo-hunarmandlar qatlamlari tranzit savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlaydigan kuchli markazlashgan davlatdan manfaatdor bo'lganlar. Shu sababli ular fors davlatini qo'llab-quvvatlaydilar.

Kayxusrav Yaqin Sharqdagi Misr chegaralarini bosib olgach, fors davlatining shimoli-sharqiy chegaralari xavfsizligiga jiddiy xavf solib turadigan O'rta Osiyodagi ko'chmanchi qabilalar ustiga yurish boshlaydi. Kayxusrav er. av. 530 yilda Amudaryoning shimoliy qismiga o'tadi. Massaget qabilalari fors bosqinchilarini o'z yerlarida tor-mor qiladilar. Kayxusrav ham bu jangda halok bo'ladi.

Er. av. 530 yil avgust oyida fors taxtiga Kambiz (Kombiz) o'tiradi. Misr ichki nizo-g'alayonlar girdobida qolgan edi. Forslar Misrga yurish qilib, uning qo'shinini tez tor-mor qiladilar. Flot urushsiz taslim bo'ladi, fir'avn Psammetix asirga tushadi. Bu voqea er. av. 525 yilda yuz beradi.

Misrni bosib olgach, Kambiz Efiopiyaga qarshi urush boshlaydi. Etarlicha oziq-ovqatga ega bo'lmagan qo'shin suvsiz sahroga tushib qoladilar. Qo'shinda odamho'rlik boshlanib, Kambiz chekinishga majbur bo'ladi. Kambiz Memfisga qaytib, Misrda boshlangan qo'zg'olonni bostiradi. Kambizning vorisi Doro 1 ning Behistun qoya yozuvlarida bayon qilingan rasmiy farazlariga ko'ra, Kambiz Misrga kelguniga qadar o'zining ukasi Bardiyadan shubhalanib, uni maxfiy ravishda o'ldirishga buyruq beradi. Mag Gaumata ismli kimsa bundan foydalanib, o'zini Bardiya deb e'lon qiladi va u 522 yil 2 martda Bardiya nomi bilan taxtga o'tiradi. Bardiya Gaumata qaram xalqlarni o'ziga moyil qilish uchun soliq va harbiy majburiyatlarni uch yilga bekor qiladi. U fors urug'zodagonlarining imtiyozlarini bekor qilish, ularning iqtisodiy va siyosatdagi hukmronlik o'rnini tugatish siyosatini yuritadi. Shu sababli u mamlakatdagi keng xalq ommasining qo'llab-quvvatlashiga erishadi.

Hozirgi tadqiqodchilarning fikriga ko'ra, Gaumata to'g'risidagi faraz yolg'on, hokimiyatga haqiqiy Bardiya kelgan. U etti oylik boshqaruvdan so'ng, 522 yil 29 sentabrda etti fors urug'i aslzoda vakillari bo'lgan fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Fitnachilardan biri 28 yoshli Doro 1 (er. av. 522-486 yillar) podsho bo'ladi. U urug' aslzodalari oliy tabaqasiga mansubligi tufayli Bardiya bekor qilgan imtiyozlarni qayta tiklaydi. Doro 1 taxtga o'tirishi bilan unga qarshi Bobilda ko'tarilgan qo'zg'olonni bostirayotgan bir vaqtda Fors,

Midiya, Elam, Marg'iyona, Parfiya, Sattagidiya (hozirgi Afg'onistonda) O'rta Osiyoning sak qabilalari va misrliklar qo'zg'olon ko'taradilar. Forsda o'zini Bardiya deb e'lon qilgan Vaxayazdata nomli kimsa Doroga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, sharqiy Eron viloyatlari va Afg'onistongacha bo'lgan hududlarni bosib olgan. Er. av. 521 yil 16 iyulda Doro Vaxayazdata qo'shinlarini tor-mor qilgan.

Midiyada o'zini Midiya podshosi Kiaksar urug'idan deb hisoblagan Fravartish (Fraorti II) hokimiyatni qo'lga oladi. Doro bu qo'zg'olonni ham bostiradi. Er. av. 521-yil yoziga kelib Doro qo'shinlari besh jangdan so'ng, Afg'onistonni tinchlantiradi. Doroning qaynotasi Dadarish Parfiya va Girkaniyadagi g'alayonlarni bostirgan. Bu vaqtda Bobilda so'nggi qo'zg'olon boshlanib, er. av. 521 yil 27 noyabrigacha davom etadi. Doro II taxtga chiqqanidan so'ng bir yil o'tgach, o'z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Fors davlatini Bolqon Yunonistonida g'olibona boshlagan urushi Kserks (er. av. 486465-yillar) uchun mag'lubiyat bilan tugaydi. Er. av. 449yil "Kalliy" sulhiga ko'ra forslarni Yevropadagi mulklari, Kichik Osiyodagi yunon shaharlaridan voz kechildi. U Kayxusrav, Kambiz hukmronligi davridagi eski chegaralarda qayta tiklandi.

Keyingi podsholik davrida ichki ziddiyatlar, satraplarning o'zboshimchaligi, O'rta Osiyo saklarining ajralib chiqishi yuz berdi. Lekin davlat chegaralari o'zgarmay qolaverdi. Faqat er. av. IV asrda g'ayratli Artakserks III er. av. 404 yilda ajralib ketgan Mismni er. av. 343-342-yillarda yangidan bosib oldi. Kichik Osiyodagi yunon shaharlari ustidan yana nazorat tikladi. So'nggi Eron podshosi Doro III jur'atsiz, qo'rqqoq er. av. 334-330yillarda yunon-makedonlar hujumini qaytara olmadi. U Issa yonidagi jangda (er. av. 333-yil) va Gavgamela yonidagi hal qiluvchi ikki jangda Iskandardan yengildi. Doro III engilgach, Baqtriyaga qochib ketdi va u yerda o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi. Shu bilan ahmoniyalar Eroni davlati quladi.

Satrapliklar ro'yxati Bexistun qoyatoshlari va boshqa qadimgi fors yozuvlarida keltirilgan. Ularda 23 mamlakat sanalgan. Gerodot tarixida yigirma satraplik keltirilgan. Gerodot 20 satraplik tarkibida ahmoniyalar davlati tarkibiga kirgan 70 ta shaharni sanaydi. Gerodot va ahmoniyalar yozuvlaridagi farqlarning mavjudligining sababi satrapliklar soni va chegaralari yangi bosqinchilik urushlari eki ma'muriy islohotlar natijasida o'zgarib turgan. Fors podsholari muntazam ravishda satrapliklarni bo'lib turganlar, ularning soni oshib, hududlarning hajmi kichraygan. Misol uchun Doro II davrida Kichik Osiyo to'rt satraplikka, Doro III davrida etti satraplikka bo'lingan.

Satrap va harbiy boshliqlar markaziy hokimiyatni, podshoning va ayniqsa uning maxfiy xizmatini doimiy nazorati ostida bo'lganlar. Chunki viloyatlar satraplari doimo mustaqillikka intilishga harakat qilib, ajralib chiqish xavfini tug'dirganlar. Davlat boshqaruvi va barcha amaldorlar ustidan oliy nazorat xazorapat deb atalgan mansabdor qo'lida bo'lgan. U bir vaqtni o'zida «O'n ming o'lmas» podsho shaxsiy gvardiyasining boshlig'i bo'lgan.

Bu imperiya markazlashgan va juda madaniyatli edi. Forslar ishonishgan, bo'ysundirilgan xalqlar teng bo'lgan, faqat bir talab ular qirolga sadoqatli bo'lishi va o'lpon to'lashi kerak bo'lgan. Mahalliy fors ma'murlari mahalliy tillardan foydalanishiga qaramasdan, o'sha paytda oromiy yozuvi(uzoq G'arbiy Osiyoda so'zlashadigan semit tili shevasi) imperiyaning davlat tili bo'lgan. Chunki o'qimishli ulamolarning ko'pchiligi Mesopatamiyadan kelgan. Ular pergament va papirusga oromiy yozuvida yozishgan va undan foydalanish tez tarqalgan<sup>28</sup>.

Fors podsholigi qudratining asosini fors va midiyaliklar tashkil qilgan jangovar qo'shin belgilagan. Qo'shinnig jangovar qobiliyatini tashkil qilishda fors va midiyaliklardan tashqari O'rta Osiyoning sak jangovar qabilalari, baqtriyaliklar muhim o'rin tutganlar. Saklar asosan imtiyozli otliq qo'shinlarda xizmat qilganlar. Xarbiy qal'a, garnizon, tayanch punktlarda odatda oliy harbiy mansabni forslar egallaganlar. Qo'shin otliq va piyoda qismlardan tashkil topgan. Otliq qismlar, zodagonlardan, piyodalar dehqonlardan olingan. Bu ikkala qismlarning uyg'un harakati urushlarda g'alabani qo'lga kiritishga sabab bo'lar edi. Piyoda qo'shining asosiy quroli kamon, suvoriyning qurolaslahasi temir sovut, jez qalqon va ikki temir nayza bo'lgan.

Misr Yunonistonga g'alla, polotno eksport qilib, vino va zaytun moyi sotib olgan, boshqa viloyatlarni oltin, fil suyagi bilan ta'minlagan. Hindistondan oltin, fil suyagi, xushbo'y moylar, Arabistondan oltin, So'g'diyonadan lazurit, serdolik, Xorazmdan feruza chiqarilgan. Bolqondagi yunon shaharlari kulolchilik mahsulotlari, Bobil g'alla, Kichik Osiyo temir va boshqa rudalarni ishlab chiqarardi. Xalqaro dengiz savdosi finikiyaliklar qo'lida qoladi. Qadimgi jamiyatda qullar mehnatidan foydalanish yuqori darajada edi. Qullar oldi-sotdi qilingan va turli ishlarda ishlatilgan. Asir qullar soni juda ko'p edi, fors podsholarining markazlashgan yirik xo'jaliklarida ishlaydigan ishchilar (kurtashlar deb atalgan), boshqa joylardan qul qilib olib kelingan.

Kurtashlarning bir qismi davlat fuqarosi deb hisoblangan.

Ahmoniyalar davlati uchun turli xalqlarning madaniyati va diniy qarashlarni sinkretizmi xarakterli edi. Mamlakat turli hududlarining doimiy iqtisodiy - ijtimoiy va siyosiy aloqasi, madaniyatlarining o'zaro ta'siriga ijobiy turtki beradi. Turli xalqlarning yagona davlat hududida yashab turishi xalqlarning, ilmiy bilimlari, san'at va adabiyotlarning bir-birini boyitishiga olib keldi.

Forslar va boshqa xalq-elatlar Bobil, Misr va Elamning qadimiy madaniyatlarini o'zlashtirib oladilar. Forslarning eng katta madaniy yutuqlaridan biri o'ziga xos mixxatning yaratilishi bo'lgan. Fors mixxati akkad alifbosidan farq qilgan holda bor-yo'g'i 40 belgidan iborat bo'lib deyarli alifboli yozuv bo'lgan.

Qadimgi fors san'ati, Eron madaniyati an'analari Bobil, Misr, Ossuriya va boshqa xalqlarning badiiy an'analari va texnika usullarining sintezi edi. Qadimgi fors san'ati namunalari ishida nozik did bilan toshdan ishlangan vazalar, metall

---

<sup>28</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p. 137.

qadah, fil suyagidan yasalgan riton qadahlar, zeb-ziynat buyumlari, lazurit haykallar mavjud. Badiiy buyumlar ishida agat, xalqidon, yashma kabi qimmatbaho toshlardan ishlangan tsilindsimon muhrlarda podsholar, afsonaviy qahramonlar va afsonaviy mavjudotlar tasviri tushirilgan. Ular nihoyatda mohirlik bilan yasalgan bo‘lib, haqiqiy san‘at asari xisoblanadi. Fors san‘atida, ayniqsa o‘simlik va xayvonlarni hayotiy tasvirlari bo‘lgan badiiy buyumlar bizni hozirgacha hayratga soladi

Qirol atrofida kuchli merosiy fors zodagonlari bo‘lgan, ularning qo‘llabquvvatlashi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu odamlar kata yer egalari edi va ular ko‘pincha satrap yoki maslahatchi sifatida qirolga xizmat qilganlar. Bundan tashqari, savdogarlar ham imperiya bo‘ylab savdo qilishda shohning yaqin kishilari edi<sup>29</sup>.

### **Ahmoniyar davlatining madaniyati.**

Ahmoniyar davlati tarkibida xilma-xil madaniy yutuqlarga ega bo‘lgan ko‘pdan-ko‘p xalqlar bo‘lgan. Forslar hukmron xalq bo‘lib olib, bu madaniy xazinadan keng foydalanganlar<sup>30</sup>.

Shu bilan birga ular bu madaniyatlarni ijodiy ravishda qayta ishlab o‘zlashtirganlar. Forslar mixxatni o‘zlashtirganliklari va takomillashtirganliklari to‘g‘risida gapirgan edik. Ular mixxatdagi juda ko‘p ortiqcha alomatlarini yo‘qotib faqat 42 alomat qoldirganlar. Idoralaridagi (ko‘nga, papirusga, sopol taxtalarga yoziladigan) yozishmalar uchun oromiylarning alifbosini ishlatganlar.

Mil. avv. VI va V asrlarda Xitoyga buddizm, hinduizmdni Hindistonga kirib kelishi bilan Forsda zardushtiylik falsafa madaniyati Misr davlatlariga kirib kelgan. Bu madaniyat imperiyadan-imperiyaga o‘tish davrida o‘z kuchini yo‘qotmagan<sup>31</sup>.

Fors podsholari o‘sha davrda eng o‘tkir deb hisoblangan Misr tabiblarini o‘zlarining xizmatiga jalb qilganlar. Ammo Doro I podsholik qilgan davrda Misr tabiblari o‘rniga yunon tabiblari keltirila boshlangan.

Forslar Bobil va yunonlarning kalendar hisobi bilan tanish bo‘lgan, degan ma’lumot bor.

Yuqorida aytib o‘tilgan “Avesto” Eron tili guruhi halqlarining ajoyib badiiy asaridir, u O‘rta Osiyoda vujudga kelib, keyinchalik Midiya va Persiyaga tarqalgan, shu bilan birga, dastlabki nushasiga (Gatiga) ko‘p qo‘shimchalar qo‘shilib borilgan.

“Avestoda” targ‘ib qilingan diniy ta’limot qadimgi payg‘ambar Zaratushtra (yoki yunonlar ataganicha Zoroastra)ga mansub deyilgan, ammo uning to‘g‘risida bizga hech nima ma’lum emas. Bu ta’limotning mohiyati ikki ilohiy manbani, yaxshilik xudosi Ahuramazda bilan yovuzlik xudosi Ahrimanni birbiriga qarama qarshi qo‘yishdan iborat.

---

<sup>29</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p. 139.

<sup>30</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.137.

<sup>31</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p. 23.

Axuramazda uy hayvonlari va madaniy o'simliklar to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan tinch mehnat homiysidir. Uni aziz bilganlar erga ishlov berishi, chorva mollarini ko'paytirishi, yovvoyi hayvonlarni yo'q qilmog'i kerak. Ahriman inson ijodiy faoliyatining dushmani, yirtqich hayvonlarning homiysi, urushqoq ko'chmanchilarning tinch hayot kechiruvchi o'troq aholini talashiga ko'maklashuvchi qilib ta'riflanadi.

Zorastra dinining harakterli alomati shuki, bu din murdani erga ko'mishni ham, kuydirishni ham taqiqlaydi. "Murda erni va o'tni xarom qiladi" deb hisoblangan. O'liklarni yirtqich qushlarga em qilib tashlash lozim ko'rilgan. Hindistonda, Bombeyning bir rayonidagi uncha katta bo'lmagan fors mazhabi hozir ham shu odatni saqlaydi. "Avesto" matnini ham xuddi o'sha forslar saqlaganlar.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Ahmoniyilar Ahuramazdani aziz bilganlari holda "Avesto"ni tan olmagan bo'lsalar kerak. Qadimgi fors podsholarining hech bir yozuvida Zaratushtra tilga olinmaydi. Shuningdek, fors podsholarining (Kayxusravdan boshlab) maqbaralari saqlangan, bu esa „Avesto"ning taqiqiga hech ham to'g'ri kelmaydi. Zorastrizm faqat Parfian va Sosoniylar podsholigi vaqtidagina davlat dini bo'lgan.

Doro I ning o'g'li va taxt vorisi Kserks vaqtida diniy islohot qilishga urinilgan. Devlarga ibodat qilish taqiqlangan, Ahuramazda forslarning birdanbir samoviy tangrisi deb e'lon qilingan.

Lekin bu monoteistiklik (bir xudolik) g'oyasi qaror topmagan va Kserks vorislari vaqtida quyosh xudosi Mitra bilan hosildorlik ma'budasi Anaxitga sig'inish keng yoyilgan.

Ahamoniylar san'atining yodgorliklari sinkretizm xarakteridadir. Doro I ning Persepoldagi saroyini qurishda Bobil, Misr, Lidiya va boshqa qaram mamlakatlarning ustalari ishlagan .

**Tayanch tushunchalar:** Kopettog', Dajla, Pomir, Frot, xind-Yevropa, Elburs, Turkman, Xuroson, Zagros, Horun, Kerxa, Elam, Lulubbey, mixxat, Rersopol, Posagard, Kserks, Geradot, Fukidid, Ksenefont, „Avesto", Elam, kassit, kutey, hurrit Suriya, Falastin, Finikiya, Lidiya, Ossuriya, Diador, Grishman, Zorastrizm, Parfiya, Sosoniylar, Gaumata, Bardiya, Behustun, Elamtu, Midiya, Suza, Kayxusrav, Kambiz, Doro I, Kserks, Doro III, Astiag, Vaxayazdata, satrap, Iskandar, Fravortish, Ahamoniylar, Oromiy, zardushtiylik, sinkretizm, Mitra, Ahriman, Ahuramazda, Naqshi Rustam, Bobil, Persopol, monoteistik, Mitra, Got, yunon-makedon.

**Mustahkamlash uchun savollar:** 1. Qadimgi Eron tabiati va aholisi haqida ma'lumot bering.

2. Qadimgi Eronda ilk davlatlarning paydo bo'lish shart-sharoitlarini tushintirib bering.

3. Eron tarixiga oid manbalar va ularning tavsifi nimadan iborat? 4. Eron tarixi tarixshunosligini yoritib bering.

5. Elam davlati va uning shakllanish jarayoni haqida fikr yuriting.
6. Midiya davlati va uning taraqqiyoti haqida nimalarni bilasiz?
7. Kiaksar va Astiag davrida ijtimoiy, siyosiy va madaniy axvol qanday edi?.
8. Ahamoniylar davlatining boshqaruv tizimi to'g'risida fikr yuriting.
9. Doro I davrida olib borilgan istilochilik yurishlari va geografiyasi.
10. Qadimgi Eron madaniyati va uning jahondagi tutgan o'rni.

### **Ma'ruza №16,17**

#### **Mavzu: Qadimgi Hindiston Reja:**

1. Qadimgi Hindiston tabiiy sharoiti va axolisi
2. Manbalar taxlili
3. Eng qadimgi Hindiston.
4. Er. av. XV-VII asrlarda qadimgi Hindiston.
5. Buddizm va uning tarixiy roli.

**Tabiiy sharoiti.** Hindiston hududining hajmi va aholisining soni jihatidan qadimdan Osiyoning eng katta mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Hindistonning g'oyat katta qismi ulkan bir yarim orol, deyarli bir materikdan iborat bo'lib, okean va dunyoda eng katta tog' tizmasi bo'lmish Himolay tog'lari uni dunyoning boshqa qismlaridan ajratib turadi. Bir necha tog' yo'llari, dara va vodiylar, xususan, Qobul daryosining vodiysi orqaligina Hindiston qo'shni mamlakatlar bilan tutashgandir.

Yog'ingarchilikning etarli bo'lmashligi qadim zamonlardayoq aholini sug'orib ekin ekishga majbur etgan, Shimoliy Hindistonning tumanlari sersuv Hind, Gang daryolari va uning irmoqlaridan yaxshi suv ichgan bo'lib, bu yerda sug'orib ekin ekish ayniqsa keng yoyilgan.

Hindiston inson xayoti uchun zarur tabiiy boyliklar bilan juda yaxshi zamin etilganligidan, chetdan mahsulot olib kelishgan ehtiyoj bo'lmagan. Mamlakatning o'simlik va hayvonot dunyosi nihoyat darajada boy. Bunda arpa bilan bug'doydan tashqari qadim zamonlardayoq sholi yetishtirganlar. Bundan tashqari Hindiston paxta, shakarining ham vatani hisoblandi.

Qadimgi Hindistonda hayvonlarning mahalliy turlarini qo'lga o'rgatganlar (masalan, o'rkachli ho'kiz – zebura Ikki daryo oralig'iga va Misrga Hindistondan olib kelingan). Fillar ham dastlab Hindistonda qo'lga o'rgatilgan va ular asosan harbiy ishda foydalanilgan. Aleksandr Makedonskiy yurishlaridan e'tiboran Yevropa xalqlari kuchli jangovor fillarni jangda ishlatishni hindlardan o'rgana boshlaganlar.

Ikki azim daryoning vodiylari Hindistonning eng qadimgi dehqonchilik zonalaridir. Biri - 5 irmog'i (Panjob) bo'lgan Hind daryosining vodiysi bo'lsa,

(o'sha 5 ta irmoq oti bilan vodiya ham Panjob deb nom berilgan), ikkinchisi, bir qancha irmog'i bo'lgan Gang daryosining vodiysidir. Keyinchalik qishloq ho'jaligi mamlakatning janubida ham rivoj topgan<sup>32</sup>.

**Aholisi.** Eng qadimgi hind adabiy yodgorliklari, shuningdek, antik dunyo avtorlarining guvohliklari qadimgi Hindiston aholisi nihoyat darajada zich bo'lganligi haqidagi xotiralarni saqlab qoldirgan. Hindiston aholisining etnik tarkibi qadimda (hozirgidek) juda xilma - xil bo'lgan. Janubda qora balandlik qabilalar ko'pchilikni tashkil etgan. Mamlakatning eng qadimgi aholisi dravit tilida, qisman undan ham burungi, dravitdan oldin o'tgan mund tili va boshqa tillarda so'zlashgan. Janubiy Osiyoning hozirgi aholisining katta qismi asosiy evropoid irqiga mansubdir. Faqat yarim orolning janubiy qismi va ShriLankaning aholisi irqiy belgilariga qarab (badani, sochining qora rangi va boshqalar) avstroloidlarga yaqin turadi. Shimoli sharqning qator qabilalari janubiy mongoloid irqiga mansubdir.

Shimolda Hind-Yevropa tillari (hind, bengal va boshqalar), janubda dravid (masalan, tamil.) tillarida so'zlashadilar. Janubiy Osiyoga xos jihat taraqqiyotning merosiyligi va davomiyligidir. Qadimgi va o'rta asrlarda bu yerda keskin etnik o'zgarishlar yuz bermadi. Ijtimoiy munosabatlarda kasta tuzumi va madaniy an'analarning barqarorligi ko'rinib turadi. Qadimgi Hindistonning ko'pgina asarlari hozirgacha hinduizm va buddizmning muqaddas kitoblari hisoblanadi. Yozma manbalar bizgacha juda ko'plab yetib kelgan. Qadimgi Hindiston aholisi xilma-xil bo'lgan, antik davr yunon tarixchilarining asarlarida ham, qadimgi hind eposida, jumladan, «Maxabxarata» da ham ko'rsatilgandir.

Chitaldrug yonida (Janubiy Hindistondagi Maysorda) o'tkazilgan qazishlar vaqtida ustma-ust taxlangan oltita madaniy qatlam topilgan, bu qatlamlarning pastkisidan er. av. IV ming yillikka oid tosh qurollar va geometrik ornamentli keramika, yuqorigi qatlamdan esa eramizning XIII asriga oid buyumlar chiqqan. Bu hol ayrim madaniy qal'alarining eng qadimdan mavjud bo'lganligini hamda Hindistondagi qabila va xalqlarning madaniyati mustaqil ravishda rivojlanib kelganligini ko'rsatadi. Mil. avv. 2500 yilda Hindiston Pokistonda Hind daryosi bo'ylab Harappa sivilizatsiya (Shaharlar so'zidan) si kirib kelgan<sup>33</sup>.

**Manbalar.** Dunyodagi eng katta mamlakatlardan biri bo'lgan Hindistonning qadimiyati haqida ma'lumot beradigan manbalar juda ko'pdir.

Tadqiqotlar taxlili shuni ko'rsatadiki, qadimgi Hindistonda katta davlatlar mavjud bo'lganligidan dalolat beruvchi eng qadimgi yodgorliklar er. av. III ming yillikka oidir. Qazishlar vaqtida shu narsa aniqlandiki, Hindiston tarixining shu davridayoq Hindistonda katta shaharlar mavjud bo'lgan, mamlakatda o'ziga xos ieroglif yozuviga ega bo'lgan qabilalar yashagan. Qadimgi Hindiston madaniyati ravnaq topib, er.av. 1 ming yillikda eng yuksak darajaga etgan. Qadimgi hind

---

<sup>32</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.148..

<sup>33</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p. 13.

madaniyati qo'shni xalqlarning madaniy taraqqiyotiga anchagina ta'sir ko'rsatgan, bunga, xususan, Osiyodagi ko'p mamlakatlarda buddizmning yoyilganligi dalildir.

Qadimgi Hindistonning tarixini o'rganishda qadimgi hindlarning Vedalar deb ataladigan diniy to'plamlari katta ahamiyatga egadir

Qadimgi Hindistonning bu muqaddas kitoblari er. av. ikkinchi ming yillikka oid bo'lib, Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atxarvaveda deb ataladigan to'rtta katta to'plam (samxita)dan iboratdir<sup>34</sup>.

To'rtinchi to'plam, ya'ni Atxarvaveda eng keyin vujudga kelgan bo'lib, keyinchalik dastlabki uch to'plam qatoriga kirgan. Bu to'plamlarning eng qadimiysi Rigveda bo'lib, u xudolarga bag'ishlangan diniy madhiya (gimn)lardan iboratdir.

Vedalarining qayin po'stlog'iga va palma barglariga yozilgan eng qadimgi tekstlari saqlanib qolmagan. Eng qadimgi qo'l yozmalar anchagina keyingi davrga, xristian erasiga yaqin paytga oiddir. Borgan sari tushunilishi qiyinlashib borgani tufayli, er. av. VIII asrdan boshlab Vedalarga izohlar beriladigan bo'lgan, bular orasida diniy marosimlarni tushuntirib beruvchi «Braxmanlar», har xil diniy-filosofik fikrlardan iborat bo'lgan.

Hindistonning er. av. I ming yillikdagi tarixi va madaniyatini o'rganishda ikkita katta epik doston — «Ramayana» va «Maxabxarata» muhim manba hisoblanadi. Bu manbalarda xalq og'zaki badiiy ijodining ko'p elementlari bor. Bu dostonlarning birinchisi — «Maxabharata» («Bxarata avlodlarining kurashi haqida buyuk qissa»)ning asosiy syujeti podsho urug'laridan bo'lgan kavrlar va pandular degan ikkita qardosh urug'ning oliy hokimiyatni talashib o'zaro qilgan kurashi haqidagi qissadan iborat bo'lib, uning avtori afsonaviy donishmand va shoir Vyasa hisoblanadi. Bu asosiy qissa birinchi marta er. av. I ming yillikda tuzilgandir. Keyinchalik unga ko'pgina qadimgi afsonalar, ertaklar, masallar, ibratli hikoyalar kiritilgan, bular ko'p jihatdan xalq badiiy ijodi negizida vujudga kelgan.

«Artxashastra» degan siyosiy-iqtisodiy traktat qadimgi Hindiston tarixi yuzasidan eng qimmatli manba sifatida juda katta ahamiyatga egadir. Buni Maurya sulolasidan bo'lgan podsho Chandraguptaning Qautilya nomli bir vaziri yozgan. Bu traktatda davlatni idora qilishning taraqqiy etgan tizimi mufassal bayon etilgan bo'lib, podsho va amaldorlarning faoliyati, davlatchilik negizlari, ma'muriy idora ishlari, sud ishlari, davlatning tashqi siyosati va pirovardida, o'sha davrdagi harbiy san'at har taraflama tasvirlab berilgandir.

Asosan ilk buddizm davriga oid yozuvlar bir qadar kamroq ma'lumot beradi. Podsho Ashoka zamonasidan ko'pgina yozuvlar saqlanib qolgan. Ashoka ediktleri deb atalmish bu yozuvlar diniy-axloqiy nasihatlarini hamda ilk buddizmni xarakterlovchi bir qancha faktlarni, butun Hindistonda buddizmning keng

---

<sup>34</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. 2011, p.150.

yoyilishini (Afg'onistonning ayrim viloyatlari ham shuning ichiga kiradi), shuningdek, Ashokaning jo'shqin diniy faoliyatini tasvirlaydi.

Er. av. I ming yillikning ikkinchi yarmida Shimoliy Hindiston davlatlari Eron, Gretsiya va Makedoniya bilan turli aloqalar bog'lay boshlaydilar. Shu tufayli bu davrni o'rganishda chet el manbalari, ajnabiylarning Hindiston haqida aytganlari katta ahamiyatga egadir. Chunonchi, Ahmoniyalar zamonidagi eron yozuvlari, xususan, Behustun, Persepol va Naqshi Rostamdagi Doro yozuvlari shular jumlasidandir. Yunon tarixchilarining qadimgi Hindiston haqida yozgan asarlari ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Gerodot (er. av. V asr) o'zining katta tarixiy asarida Hindiston, uning aholisi, hind qabilalarining turli madaniy darajalari hamda Hindistonning Eron podsholigi bilan bo'lgan o'zaro munosabatlari haqida bir qancha ma'lumotlarni bayon qiladi. Yunon geografi va siyosiy arbobi Megasthen ancha ko'p material to'plagan; Megastheni Selevi Nikator Hindiston podshosi Chandragupta huzuriga elchi qilib yuborgan va u Hindistonda uzoq vaqt yashagan. Megasthen o'zining «Indika» degan asarida Hindistonning iqtisodini, ijtimoiy va davlat tuzumini tasvirlagan va, eng muhimi, o'zi yashagan davrdagi Hindistonning kasta tizimini ta'riflab bergan. Afsuski, Megasthen asarining o'zi yo'q bo'lib ketgan va so'nggi davrdagi yunon yozuvchilarining, asosan, Strabon va Arrianning kitoblarida bu asardan kichkina-kichkina parchalargina saqlanib qolgan.

Qadimgi Hindistonning geografiyasi, shuningdek, uning tabiiy boyliklari, aholisining urf-odatlari va shaharlari to'g'risidagi bir qancha qimmatli ma'lumotlar Strabonning katta tarixiy-geografik asarida (er. av. I acp — eramizning I asri) saqlanib qolgan. Strabonniig asari, ayniqsa, qimmatlidir, chunki bu asar undan oldin o'tgan tarixchilarning - Megasthen, Nearx, Eratosten va boshqalarning maxsus asarlariga asoslanib yozilgan.

Qadimgi Hindiston to'g'risida yozgan yunon yozuvchilarining asarlari orasida Arrianning bizning davrimizgacha saqlanib qolgan va Aleksandr Makedonskiyning harbiy yurishlariga, jumladan, uning Hindistonga qilgan harbiy yurishiga bag'ishlangan «Anabasis» degan kitobi, shuningdek, bu kitobga qo'shimcha qilingan va kichkina bo'lsa-da, lekin qadimgi Hindiston tarixi uchun muhim bo'lgan «Hindiston» degan asari ham katta ahamiyatga egadir. Arrian o'z asarlarida Hindistonni juda yaxshi tasvirlaydi, o'sha davrdagi Hindistonning iqtisodi va ijtimoiy tuzumi to'g'risida ma'lumotlar beradi, jumladan, u sun'iy sug'orish va kasta tizimini tasvirlaydi. Arrian ko'pgina muhim manbalardan, shu jumladan Lagning o'g'li Ptolemey bergan ma'lumotlardan, Aleksandr Makedonskiyning boshqa harbiy komandirlari bergan axborotlardan, makedon qo'shinining Hindistondan dengiz orqali qaytishini tasvirlagan Nearx asaridan, shuningdek, yunon elchilarining er. av. IV asrga oid hind hujjatlari asosida tuzgan yozuvlaridan, jumladan, Megasthen asarlaridan tanqidiy nazar bilan foydalangan. Arrianning asarlari eramizning II asrida yozilgan bo'lib, hozirgi zamon tekshiruvchilari uchun g'oyat qimmatlidir. Ularda qadimgi Hindistonga doir

ko'pgina qimmatli ma'lumotlar bo'lib, bu ma'lumotlar ishonchli manbalardan olingan.

Nihoyat, qadimgi Hindiston tarixini o'rganishda Xitoy tarixchilari va yozuvchilarining asarlari, jumladan Sim Szyanning xronologiyani aniqlash uchun muhim bo'lgan qimmatli asari, shuningdek, er. av. II asrda yashagan Xitoy yozuvchilarining asarlari shubhasiz muhimdir.

Eng qadimgi Hindiston. Arxeologik topilmalarga qaraganda Xindistonda odamlar qadimgi tosh davridayoq yashaganlar. Mamlakatning bir qancha tog'lik joylarida Paleolit manzillari topilgan. Undan keyingi Neolit bosqichlarida avvalari kishilar yashamagan katta daryolarning vodiylari o'zlashtira boshlangan. Hindistonning g'arbiy rayonlari tobora oldingi o'ringa chiqa boshlaganlar, bu yerlarda Eneolit davriga kelib va ayniqsa Bronza davrida o'ziga hos pro'to'xind madaniyati tarkib topkan, ularning asosiy markazlari (Panjobdan) va Mahenjodaro (sinda) xarobalari topilgan shaharlar bo'lgan. Hindistonda eng qadimgi shaharlar va davlatlar bo'lganligi haqida fikr yuritishga imkon beradigan eng qadimgi va eng muhim yodgorliklar ShimoliG'arbiy Hindistondan, Hind daryosi havzasidan topilgandir. Mohenjodarodan (Sind viloyati) va Xarappadan (Panjob) qadimgi katta shaharlarning kattakon xarobalari chiqqan. Yana shunga o'xshash bir qancha qal'alar Hind daryosining quyi oqimidagi havzadan, Belujistonning shu havzaga yaqin turgan tumanlaridan topilgan, eng shimoliy qal'a Setlaj daryosi bo'yidagi Rupara qishlog'iga yaqin joydan topilgan.

Qadimgi Mohenjodarogi shahar xarobalari ayniqsa yaxshi saqlangandir, bu shahar juda katta maydonni, 260 gektarga yaqin erni egallagan. Bu yerda o'tkazilgan arxeologik qazishlar natijasida ustma-ust joylashgan 9 ta arxeologik qatlam topilgan, bularning eng pastkisi 12 metr chuqurlikdadir. Qazish natijalariga ko'ra, Mohenjodaro shahri o'sha zamondagi eng yirik shaharlardan biri bo'lgan. Bu yerdan juda ko'p ko'chalar va pishiq g'ishtdan qurilgan binolar topilgan, bu binolarning balandligi hozir ham 7,5 metrga boradi. Ko'chalari to'g'ri, ko'pincha sharqdan g'arbga va janubdan shimolga qarab parallel ketgan bo'lib, bu narsa shahar eng qadim vaqtdayoq bilib-netib rejalashtirib qurilgan deb fikr yuritishga imkon beradi.

Mohenjodarodagi shahar yirik hunarmandchilik va savdo markazi bo'lgan. Saroyda metallurgiya ustaxonasi uchun maxsus bir bino bo'lgan. Markaziy tepalikdan janubroqda birtekis qator ketgan mustahkam rastalardan iborat kattakon bostirmali bozor topilgan. Bu yerda katta bino (51 X41 m) topilgan, bu bino xo'jalik jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lganligi shubhasizdir, unda turli tovarlar, balki don yoki paxta saqlangan.

Xo'jalikning eng muhim turlaridan biri dehqonchilik bo'lgan. Hind daryosi vodiysidagi juda ko'p dalalarda bug'doy va arpaning qadimgi navlari ekilgan, no'xat, qovun etishtirilgan, nihoyat, mato to'qish uchun paxta etishtirilgan. Xurmo mevalaridan ham foydalanilgan. Yerlar juda qo'pol omochlar bilan ishlangan, bu omochlarning tishlari kremniy slanetsidan qilingan. O'rim vaqtida

mis o'roqlar ishlatilgan. Donlar katta omborlarda saqlangan, bu omborlarning qoldiqlari Xarappadan topilgandir.

Mohenjodaro va Xarappa xarobalaridan ko'p miqdorda qattiq tosh, yumshoq, steatit, fil suyagi va sopoldan qilingan muhrlar topilgan bo'lib, bular tarixchilar uchun ayniqsa katta ahamiyatga egadir. Bu muhrlarda muqaddas hayvonlarning (ayniqsa ho'kizning) diniy suratlari va yozuvlar o'yilgandir.

Bu yozuvlarga qaraganda, o'sha davrda qadimgi Hindistonda misrliklarning eng qadimgi ieroglif yozuvi bilan shumerliklar yozuvini eslatuvchi suratli ieroglif yozuvi bo'lgan. Chex olimi B. Grozniy va boshqa tekshiruvchilar bu yozuvlarni o'qib chiqishga urinib ko'rdilar, ammo ularni o'qishning hali iloji topilgani yo'q.

**Er. av. XV-VII asrlarda qadimgi Hindiston.** Shimoliy Hindiston xududlariga bosqinchilik er. av. II ming yillikning o'rtalarida yuz bergan, shu sababdan ba'zi tadqiqotchilarlar buni Shimoliy Xindistonning oriy qabilalari tomonidan bosib olinishidir, deb hisoblaydilar, Oriylarning Shimoliy Hindistonni bosib olish voqeasi qadimgi Hindistonning tarixiy va adabiy qissalarida mustahkam saqlanib qolgan.

Shimoliy Hindistonni bosib olgan qabilalar er. av. ikkinchi ming yillikning o'rtalarida Hindikush va Pomir tog'laridan tushib, Panjob va Gang daryosining yuqori havzasidagi unumdor tekisliklarga o'rnashib olganlar. Bu qabilalar odatda oriy qabilalari deb ataladi. Qadimgi hind tilida (sanskritda) «oriy» («oriya») so'zining, shuningdek qadimgi fors tilidagi «ayriya» so'zining ma'nosi: «yaxshi oiladan», «aslzoda», «aristokrat» demakdir, xususan, bu — ijtimoiy termindir. Shimoli-G'arbiy Hindistonga bostirib kirib, mahalliy aholini bo'ysundirgan istilochilar dastlab o'zlarini shunday deb atagan bo'lsalar kerak.

Rigvedada Shimoliy Hindistonning tub qabilalari «mlechxasa» (varvarlar) va «dasa» (dushman) deb yuritiladi. Keyinchalik «dao» so'zi «qul» degan ma'noni anglatadigan bo'lib qolgan, bu istilochilarning Xindistonning bo'ysundirilgan tub qabilalarining mehnatkash aholisining anchagina qismini qulga aylantirganligini ko'rsatadi. Shu davrdan boshlab, hindlarda ilgari ma'lum bo'lmagan temir qurollar ishlatila boshlangan. Temirdan bolta, belkurak, turli qishloq xo'jalik, ro'zg'or va jangovor qurollar ishlangan. Temir tishli omochning paydo bo'lishi dehqonchilikning rivojlanishiga katta yordam bergan. Natijada, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanib aholi o'rtasida tabaqlanishning kuchayishiga olib kelgan.

Hindistonda er. av. I ming yillikning birinchi yarmida tepasida podsho turgan bir nechta davlatlar tashkil topa boshlagan. Mulkiy tengsizlikning kuchayishi jamoaning turli varnalarga – toifalarga bo'linishiga olib kelgan. Bular braxmanlar, koinlar, kshatriylar, vayshilar va shudralardir.

Klassik hind madaniyatida buddizm ham shakllangan bo'lib, Hinduizm bilan ko'p jihatdan o'xshash bo'lgan. Lekin buddizm hinduizmdan kasta tizimi tartibi, ilohiy qarashlari va marosimlarni bajarilishi jihati bilan farq qilgan.

Buddistlar o'zlarini to'g'ri yo'ldamiz deb hisoblashgan<sup>38</sup>.

**Er. av. VI – milodning V asrlarida Hindiston.** Er. av. taxminan VI asrda Shimoliy Hindistonda 20 dan ortiq mayda davlatlar bo‘lib, bular orasida ikkita katta davlat: Magadxa bilan Koshala davlati ajralib turardi. Magadxa podsholigi Gang (hozirgi Bixar) daryosi o‘rta oqimidagi havzada joylashgan. Magadxa davlatining poytaxti Rajagrx (hozirgi Rajgir) shahri bo‘lgan. Magadxadan shimoli-g‘arbda Koshala podsholigi (hozirgi Aud) bo‘lgan. Koshala davlatining poytaxti Shrivasti (hozirgi Savatxi) shahri bo‘lgan. Bu ikkita ancha katta davlat er. av. VI—V asrlarda Shimoliy Hindistonning Gang daryosi havzasidagi keng territoriyada ustunlik va hukmronlik qilish uchun o‘zaro qattiq kurash olib borganlar. Koshala podsholigi yuksalib borayotgan davrda podsho Kamsa Kashi knyazligi va uning asosiy shahri Kashini (hozirgi Banorasni) ham bosib olib, o‘z davlat chegarasini kengaytirgan. Magadxa podsholigi esa Shayshunag dinastiyasi podsholik qilgan davrda yuksala boshlagan. Bu dinastiyaning beshinchi podshosi bo‘lgan Bimbisara (er. av. 519—491 yillar) ayniqsa mashhur bo‘lib, Gang daryosining quyi oqimidagi havzada joylashgan Anga podsholigini bo‘ysundirgan. Bimbisara diplomatik ittifoqlar tuzish siyosatini keng qo‘llagan.

Er. av. V asrda Magadxa podsholigi Shimoliy Hindistonning eng kuchli davlati bo‘lib qoladi. Gang daryosi bo‘yida g‘oyat katta Pataliputra (hozirgi Patna) shahri quriladi. Er. av. V asrda Magadxa podsholari Koshala podsholigini bosib oladilar va IV asrda Himolay tog‘lari bilan Gang daryosi o‘rtasidagi

<sup>38</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p. 31.

viloyatlarni o‘z davlatlariga mustahkam qo‘shib oladilar. Bu davr Magadxa davlatining gullab-yashnagan davri bo‘lgan.

G‘arbiy Hindistonda tarqoqlik uzoqroq saqlangan. Bu tarqoqlik holati Ahmoniylarning, keyinroq, Aleksandr Makedonskiyning g‘arbiy Hindistonni bosib olishlarini osonlashtirgan, Aleksandr Makedonskiy ikki yil ichida (eramizdan avvalgi 327-325 yillarda) (Hind daryosining etaklarigacha butun G‘arbiy Xindistonni egallagan.

Hind qirg‘oqlarida yunon-makedon hukmronligi uzoqqa cho‘zilmagan. G‘arb istilochilariga qarshi keng xalq ommasining harakatiga mashhur hind arbobi Chandragupta boshchilik qilgan. Chandragupta (er. av. 321-298 yillar) butun shimoliy Hindistonni birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan. Yunon-makedon garnizonlari Hind vodiysidan haydab chiqarildi va Mauriya davlatini tuzdi. Tarixchilar janubiy Osiyodagi birinchi imperiya sifatida Chandragupta tuzgan Mauriya imperiyasi deb hisoblashadi<sup>35</sup>.

Istilochilik siyosati Chandraguptaning vorislari vaqtida ham, ayniqsa uning nevarasi Aiyuka vaqtida (eramizdap avvalgi 273-236 yillar), davom etgan

<sup>35</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.217.

Janubiy Hindistondagi Kaling davlati Ashoka podsholik qilgan vaqtda bo'ysundirilgan. Agar Ashoka yozuvlariga ishonish mumkin bo'lsa, shu davlatni istilo qilish uchun bo'lgan janglarda 100000 kishi o'ldirilgan va 150 000 kishi asir qilib haydab ketilgan<sup>36</sup>.

Pataliputrada va boshqa markazlarda hunarmandlar to'plangan, ular podsho va zodagonlar xizmatida bo'lib, ularga zeb-ziynat buyumlari ishlab berganlar.

Chandragupta yunon makedonlarini haydab chiqargani bilan u yerda faqat yunon tilida so'zlashadigan bir qancha yunon aholisi qolib ketadi. Salavkaning qizilaridan biri bir nechta yunon ayollarining hamrohi ostida Mauriya poytaxti Pataliputra shahridagisudga boradi. Salavka qizini qutqarish maqsadida elchi Megastenesni Chandragupta huzuriga yuboradi. Megastenes janubiy Osiyoda bir qancha yil yashagan, "Indika" nomli kitobida u yerdagi voqealarni yozib qoldirgan<sup>37</sup>.

Qadimgi Hindistondagi quldorlik davlatining oxirgi ravnaq topgan davri Ashoka (er. av. 272—232 yillar) podsholik qilgan davr edi. Ashoka

Bindusaraning o'g'li va Chandraguptaning nevarasi bo'lib, katta tarixiy rol o'ynagan. Ashokaga o'z otasi va bobosidan katta va qudratli davlat meros bo'lib qolgan. Bindusara hayot vaqtidayoq Ashoka Shimoli-G'arbiy va so'ngra G'arbiy Hindistonda podshoning noibi vazifasini o'tab turgan va shu tariqa butun davlatni idora qilish uchun yaxshi tayyorgarlik ko'rgan. Ashokaning Ujayni va Taksila kabi katta shaharlarda turganligi uning shaxsiga, xarakteriga va kelgusidagi butun faoliyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatgan. Shimoli-G'arbiy Hindistonning bu katta shaharlari muhim madaniy markazlar bo'lgan, ularda san'at va fan, jumladan astronomiya fani taraqqiy etgan.

Er. av. II asr boshlarida Maurilarning so'nggi vakili hukmronligi tugab, shu vaqtdan mamlakatda uzoq siyosiy tushkunlik boshlandi.

Shimoli-g'arbiy Hindistonda yunon-baqtriyaliklar paydo bo'ldi va ular Gandxarada o'rnashib qoldilar. Er. av. II asrlarda sak qabilalari kirib kelib, mamlakatning shimoli-g'arbida bir necha davlatlarni barpo qiladilar. Sak podsholari o'zlarini «buyuk podsholar podshosi» deb ataydilar. Yirik davlat birlashmalarida noiblik, satrapliklar joriy qilinib, hududlarda satrap (kshatrap) ancha mustaqil bo'lgan.

Eramizning boshlarida shimoli-g'arbiy Eronning ba'zi viloyatlari parfiyaliklarga bo'ysundi. Eramizning II asrida Markaziy Osiyoda Kushon davlati yetakchi rol o'ynaydi. Kushonlar Hindistonning shimoli-g'arbiy qismida o'rnashib oladilar.

Eramizning IV-V asrlarida Magadxa Gupta sulolasi hukmronligi ostida yana rivojlana boshladi. IV asr o'rtalarida Samudragupta (335-380-yillar) davrida Magadxa qudratli davlatga aylanadi. Samudragupta shimoliy Hindistonda unga yaqin davlatlarni, Dekanda o'n beshta davlatlarni tugatadi.

---

<sup>36</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. 2011, p.218.

<sup>37</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.217.

Magadxaga janubda Tamish shahri Kanshini, shimolda Nepal va Assam kabi chegara viloyatlar ham qaram bo'ladilar. Dekan viloyati g'olibona yurishga qaramasdan Gupta davlati tarkibiga kirmaydi. Chandragupta II (380-415 yillar) davrida Gupta davlati gullab-yashnadi. Uning davri hind tarixining "oltin davri" hisoblanadi. Uning vorislari davrida o'zaro urushlar kuchayib ketadi. O'rta Osiyodan kelgan eftalitlar V asrda Gupta davlatini qulatdi. V asrda Shimoliy Hindiston kichik davlatlarga bo'linib ketadi.

**Buddizm va uning tarixiy roli.** Mauriya sulolasi davrida hind jamiyatining diniy mafkurasida anchagina siljishlar yuz bergan. Xukmronlik qilayotgan din tizimi - Braxmanizm - mamlakatni idora qiluvchi sulolani tobora qoniqtirmay borgan. Uning aqidalari qabila tarqoqligi sharoitida tarkib topganligidan shahar hayoti taraqqiy qilib borayotgan davlat markazlashtirilgan vaziyatga mos kelmayqolgan. Braxmanizmning eski tizimi bilan davr ruhiga mos keladigan yangi diniy ta'limot o'rtasida raqobat tobora kuchayib borgan.

Yangi dinlardan buddizm ayniqsa muhim o'rin olgan. Bu din etiqodchilar jamoasiga kiradigan kishining nasl-nasabi bilan mutlaqo qiziqmagan. Kishining muayyan qabila va varnaga mansubligi yangi dinga kirishiga to'siq bo'lmagan.

An'analarda budda diniy-falsafiy ta'limotini eramizdan avvalgi VII -VI asrlarda yashagan shahzoda Sidxartx Gautama (эп абб. 563-483) yaratgan deyiladi. Bu ta'limot unga berilgan Budda («ma'rifatparvar») laqabi bilan atalgan. Bu shahzoda kishilar chekayotgan azob-uqubatlarning sabablari haqida yoshlik chog'idayoq fikrlay boshlagan, deydilar. Ojiz gadoning, badanini yara bosgan kasal odamning ayanchli ko'rinishi, janoza manzarasi, mana shularning hammasi unda chuqur g'amginlik tug'dirgan<sup>38</sup>.

Barcha klassik madaniyat tizimlari axloqiy xatti-harakatlarni yaratishga yo'naltirilgan. Masalan, Hindistondagi hinduizm yoki buddizm bo'ladimi, axloqiy xatti-harakatlarini ruhiy qarashlaridan topishi mumkin<sup>39</sup>.

U o'zining oliy martabasidan kechib elma-el kezgani jo'nagan, so'ngra va'zgo'y bo'lib ketgan. U o'zining ta'limotiga hayotning o'zi yovuz degan fikrini asos qilib olgan. Kishining har qanday istagi ham azob-uqubatga olib keladi. Buning birdan-bir chorasi har qanday ehtiros va har qanday urinish-istakni bosishdir. Kishi bunga erishar ekan, u o'lgandan keyin yangi azob-uqubatlarni boshidan kechirish uchun boshqa bir qiyofada qaytib tirilmaydi. Mana shu uzluksiz o'zgarish protsessini to'xtashi nirvana, ya'ni yuksak farog'atdir.

Mana shu o'ziga xos ta'limotdan g'oyat katta amaliy xulosalar chiqqan. Najot yo'lini kishining o'zi, istaklarini bosish irodasi bilan topganligidan diniy e'tiqod va qohinlar ortiqli bor narsa bo'lib qoladi. Kishining o'zini-o'zi kamolga etkazishi, boylik va dunyo farog'atidan voz kechishi nasl-nasabiga va jamiyatda tutgan o'rniga bog'liq emas. Bu tashqi momentlar tadqiqotchining yuksak farog'atga erishishiga monelik qilmaydi. Buddachilar toifaviy va qabilaviy to'siqlarni yoki mulkiy tengsizlikni zo'rlik yo'li bilan yo'qotishga hech qachon

---

<sup>38</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.180.

<sup>39</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p. 26.

da'vat qilmaganlar, ularning hammasini ahamiyatsiz hisoblaganlar. Zotan, bir masalada ular tenglik printsipligiga rioya qilishdan nazariy jihatdan ham bosh tortganlar. Ozod kishilargina najot topa oladi, deganlar ular. Sangxiga (ilk buddachilar jamoasiga) qullar qabul qilinmagan. O'z taqdiriga o'zi ega bo'lmagan va o'z irodasi bilan ishni tark qilolmaydigan qulga yuksak farog'at yo'li berk deb hisoblangan.

Mauriya sulolasining podsholari uchun buddizmning Braxmanizmga nisbatan bir qancha ustunligi bo'lgan. U imtiyozlarni yemirib o'zgartirishga yordam bergan. Aslidalik va etnik holatga asoslangan bu imtiyozlar keng mustabid davlatni idora qilish ishiga g'ov bo'lib turgan. Bu imtiyozlar mamlakatning ayrim qismlarini birlashtirishga va davlat tuzumini yagona shaklga keltirishga xalaqit bergan. Sustkashlikka da'vat qilish quldorlarga juda ham qo'l kelgan, ayniqsa buddachilar qullarning huquqsizligini etirof qilganlar.

Yangi din Ashoka davrida ayniqsa muvaffaqiyat qozongan. Ashokaning o'zi buddizmi qabul qilib, Pataliputrada uning aqidalarini rasmiylashtirgan kengash chaqirgan. Bir qancha budda monastirlari ta'sis etilgan.

Lekin shu bilan Braxmanizm tugatilgan ekanda deb o'ylash yaramaydi. Ashoka uni xayoliga ham keltira olmagan. Yangi din asosan qabiladan va qishloq jamoasidan ajralib ketgan aholining aralashib ketish jarayoni kuchli bo'lgan katta-katta shaharlarda tarqalgan, etnik, toifaviy va boshqa ijtimoiy g'ovlar hiyla mustahkam bo'lgan qishloqlarda Braxmanizm o'z mavqeini saqlab qolgan. Lekin har holda Braxmanizm quvg'in qilinmagan.

Hindistondagi barcha davlatlarning hukmdorlari noan'anaviy dinlarga, asosan budda diniga homiylik qilganlar. Mauriylar budda dini targ'ibotiga jiddiy e'tibor berganlar. Turli mamlakatlarga budda g'oyalarini targ'ib qilish uchun missionerlar yuborilgan. Ayniqsa, Hindiston bilan yaqin aloqa bo'lgan viloyatlarda budda ta'limoti tez qabul qilinadi. Shri-Lankada bu jarayon tez yoyiladi.

Buddaviylik e'tiqodi yirik davlatlar hukmdorlarining homiyligi ostida bo'ldi. Chunki budda matnlarida jahon hukmronligi g'oyasini ilgari surilib, qaysiki, bu hukmdor orqali adolat podsholigiga asos solinadi degan tushuncha mavjud edi. Adolatni tarqalishi bir vaqtning o'zida hukmdorning hokimiyatini kuchayishi bu diniy g'oyaga to'g'ri kelishini bildiradi. Dastlab, budda dini xudosisizlar dini edi. Keyinchalik Buddaga nisbatan munosabat o'zgardi. Uning tasviri paydo bo'ldi. Ibodatxonalar qurilib, budda ilohiy mavjudot ekanligi aytila boshlandi. Dunyoning ohirati va uning kelajagida qutqaruvchi Buddaning kelishi tushunchasi shakllana boshlaydi. Budda maktablari ikki asosiy yo'nalish: «kichik arava» («yoki qutilishning tor yo'li») va «buyuk arava» («yoki qutilishning keng yo'li») dan iborat edi. Ularning birinchisi eng qadimiylikka da'vo qilib, Ashoka davridayoq Lanka orolida va keyin janubisharqiy Osiyoga tarqaldi. «Buyuk arava» ta'limoti yanada kattaroq yutuqlarga erishdi. Buddizm an'anaviylikdan chekinib zamonga moslashtirilgan

Buddizmning Xinayana yo'nalishi paydo bo'ladi. Bu yuqorida ta'kidlangan

“buyuk arava”yoki“qutilishning keng yo‘li”deb ta’riflanadi. Kushon podsholari homiyligi ostida bu yo‘nalish O‘rta Osiyo orqali Eron, Xitoy, Tibet, Mongoliya va Yaponiyaga tarqaldi.

**Hindiston madaniyati.** Dastlabki vaqtlarda tildan- tilga o‘tib kelgan qadimgi hind lirikasi (vedalar) va dostoni (Maxabxarata bilan Ramayona) yangi era boshiga kelib, to‘lik shakllangan va yozib olinganligini biz yuqorida aytib o‘tgan edik.

Shuningdek, xalq masallari to‘plami (Panchatantra, ya'ni Besh kitob) ham paydo bo‘lgan. Eramizning V asrida qadimgi Hindistonning g‘oyat zo‘r dramaturgi Kalidasa maydonga keladi. Uning dramalari ichida «Shakuntala» eng mashhuridir. Drama asarning bosh qahramoni tarki dunyo qilgan va podsho yaxshi ko‘rib qolgan qalandar ayol nomi bilan atalgan.

Qadimgi Hindistonda har xil falsafiy oqimlar, shu jumladan. materialistik oqim tarkib topgan. Masalan, charvak talimotiga ko‘ra, bilishning birdan-bir manbai tajribadir. Ruxning tandan ajrashishi to‘g‘risida Hindistonda keng tarqalgan ta’limot inkor qilingan. Ruh tandan ajralmaydi, degan fikr ilgari surilgan.

Sug‘orib dehqonchilik qilinadigan boshqa mamlakatlardagi kabi Hindistonda ham astronomiya va matematika ancha ravnaq topgan. Bunda o‘ziga xos Quyosh kalendari tuzilgan. Yil 360 kundan iborat bo‘lib, astronomik yilga moslash uchun har 5 yilda bir marta kabisa oy qo‘shilgan.

Eramizning V-VI asrlarida Hindistonda Erning sharsimon ekanligini va yerning o‘ziga tortish qonunini, shuningdek, yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishini juda yaxshi bilganlar. Bu ilmiy kashfiyotlarni o‘rta asrlarda arablar hindlardan o‘rganib olganlar.

Hindiston davlatiga Yevropa xalqi tomonidan olib kelingan urf-odat madaniyati hamda diniy adabiyotning kirib kelishi katta ta’sir etgan. Er avv 4asrda Gupta hamda Maurya imperiyasi davrida sivilizatsiyaning ta’siri kuzatilgan<sup>40</sup>.

Keyinchalik hindlar matematikada ba’zi jihatlardan boshqa sharqiy davlatlardan o‘zib ketgankar. Masalan, nolni bildiradigan alomat faqat Hindistonda ishlatilgan. Biz rim raqamlaridan farq qilib arabcha raqamlar deganimizni aslida qadimgi hindlar ixtiro qilgan va keyin bu raqamlar arablarga o‘tgan. Arab algebrasida ham hindlar algebrasining ta’siri bor.

Qadimgi hind kimyogarlari sulfat, xlorat va azot kislota ishlashni bilganlar. Tabiblar kasalliklarni muayyan sistemaga solishga uringanlar va organizmdagi asosiy shiralar nazariyasini yaratganlar. Hindistonda juda ko‘p til va shevalar bo‘lgani filologiya sohasida tadqiqotlar olib borilishini talab qilgan.

Hind madaniyati Markaziy va Sharqiy Osiyo mamlakatlariga (asosan buddizmning yoyilishi munosabati bilan) katta ta’sir ko‘rsatgan. Hindiston g‘arb olamiga arablar orqali ta’sir ko‘rsatgan.

Qadimgi hindlar mantiq, til falsafasida katta yutuqlarga erishdilar. Matematika, astronomiya fanlari bo‘yicha V asrda mashhur olim Ar’iyabxattaxa

---

<sup>40</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p. 19.

harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi. Matematikada nolni kiritilishi, arab raqamlari deb aytiladigan raqamlar Hindistondan kelib chiqdi.

Eramizning II asrlarida turli adabiy janrlar mavjud bo'lgan. Bu davrda mashhur dramaturg Shakun Kalidasa ijod qiladi. «Panchatatra» deb atalgan kitobda masallar to'planadi, uning arabcha tarjimasi «Kalila va Dimna» deb ataladi.

Maurilar davridan so'ng, g'isht va toshdan qurilishda keng foydalaniladi. Hozirgacha saqlangan obidalar, g'arbiy Hindistondagi budda monastirlari diqqatga sazovor.

Hindiston tarixchilari kasta tizimi eskilik sarqitlari bilan xarakterlanmasligini ta'kidlaydi. Agar siz o'zingizning kasta majburiyatlaringizni bajarib, o'zingizga to'g'ri kelmaydigan ishlardan saqlansangiz kasta madaniyatingizni saqlab qolgan va guruh bilan aloqalarni yaxshilashga erishgan bo'lasiz<sup>41</sup>.

Yer ustidagi monastirlardan biri Sanshida bunyod qilingan. Sanshida tepalik ustida ulkan budda monastiri qurilgan. Yana bir noyob san'at yodgorligi Ashoka yozuvlari bitilgan tosh ustunlardir.

Maurilardan so'ng, haykaltaroshlikning mahalliy maktablari vujudga keladi. Ulardan eng mashhurlari shimoliy g'arbiy Hindistondagi Gandxara, shimoliy Hindistonning markaziy qismidagi Madxura va Dekan viloyatidagi maktablardir. Eramizning birinchi asridan Gandxara maktabi ellin va Rim madaniyati ta'siri ostida shakllangan. Gandxara uslubi kushonlar davrida markaziy va sharqiy Osiyoning budda madaniyatiga ta'sir qildi.

Madxura va Dekan maktablari Hind tasviriy san'ati an'analari bilan ko'proq bog'langan. Ana shu maktablar asosida o'rta asrlar hind va janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari madaniyati shakllandi.

Maurilar davridan keyin ming yil davomida hind tasviriy san'atining noyob yodgorligi, g'ordagi Ajanta ibodatxonasi va budda monastirlari yaratildi. Monastirlarning ba'zi zallari devorlarida budda afsonalaridan manzaralar tasvirlangan. Ajantadagidek noyob tasvirlarga o'xshash tasvirlar Shri-Lankadan ham topilgan.

Qadimgi Hind adabiyoti asarlarining katta qismi veda, epik va budda adabiyotlari an'anaviy janrlarga tegishli bo'lib, asrlar davomida og'zaki shaklda yashab keldi. Aynan muqaddas matnlarni eslab qolish, uzatish va talqin qilish, lingvistika, falsafa va mantiq kabi fanlarning rivojiga sabab bo'ldi. Janubiy Osiyoda Maurilardan so'ng, turli davlatlarni gullab-yashnashi dunyoviy adabiyotdrama, poeziya va proza, me'morchilik hamda tasviriy san'atning noyob yodgorliklarini yaratilishiga sabab bo'ldi. I ming yillikning o'rtalarida (shimoliy Hindiston Guptalar davri) qadimgi janubiy Osiyoda madaniyat taraqqiyotining asosi bo'ldi.

**Tayanch tushunchalar:** Xind, Gang, Himolay, Panjob, antik, dravid, mund,

---

<sup>41</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p. 8.

Zebu, Shri-Lanka, Mahabxarat, Veda, Ramayana, Samaveda, Yajurveda, Atxarvaveda, Buddizm, Artxashastra, Sidxartxa Gautama, ma'rifatparvar, Geradot, Megasfen, Arrian, Strabon, Sima Tszian, hinduizm, Vishna, Shiva, Braxmanizm, Gupta, Shakuntala, Kalidasa, Panchatatra, sanskrit, Ar'iyabxattaxa, Kalila va Dimna, xind raqamlari, arab raqamlari, Sangi monastiri, Chandragupta, Ashoki ustunlari, Gandxara Ashoki ibodatxonasi, oqsoqollar, mantiq, Shakun Kalidasi, Panchatatra, Kalila va Dimna, Ajanta, Maxinjo-Daro, lingvistika, falsafa.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimgi Hindistonning tabiiy joylashuvi va aholisi haqida nimalar bilasiz?
2. Qadimgi Hindistonda qaysi davrlardan odamlar yashay boshlagan?
3. Hindistonda davlatchilikning vujudga kelish shart-sharoitlarini tushuntirib bering.
4. Hindistonga chet ellik bosqinchilarni (Oriylar, Ahamoniylar, Makedonlar, Kushonlar, Eftalitlar) amalga oshirgan yurishlari va uning oqibatini yoritib bering.
5. Xindiston tarixini o'rganishda qaysi manbalardan ko'proq foydalaniladi?
6. Er. av. XV-VII asrlarda qadimgi Hindistonda qanday davlat birlashmalari tashkil topdi?
7. Braxmanizm va Hinduizm dinlarining qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda farqli xususiyatlarini ochib bering.
8. Nima deb o'ylaysiz, Buddizm nima uchun Hindistonda Hinduiylik dinini surib chiqara olmadi?
9. Qanday yo'l bilan Buddizm jahon diniga aylandi?
10. Qadimgi Hindiston madaniyatini jahon madaniyatiga ta'siri qanday bo'lgan?

#### **Ma'ruza №18,19**

#### **Mavzu: Qadimgi Xitoy Reja:**

1. Qadimgi Xitoy tabiiy sharoiti, aholisi, manbalar.
2. Xitoy tarixining davrlashtirilishi.
3. Chjou davlati, Xitoy shohlari o'rtasidagi kurash.
4. Sin davlatining tashkil topishi.
5. Xan imperiyasini yuksalishi, islohotlar.
6. Qadimgi Xitoyda dinning rivojlanishi.

**Tabiiy sharoiti, aholisi, manbalar.** Qadimgi Xitoy tsivilizatsiyasi er.av. VIII ming yilliklarda Xuanxe daryosining o'rta oqimida uzoq vaqt yopiq holda shakllanadi. Er. av. I ming yillik o'rtalaridan boshlab Yantszi daryosi havzasini ham qamrab oladi. Xuanxe daryosi havzasi qadimda qalin o'rmonlar bilan qoplangan. Er. av. IV-II ming yilliklarda Xuanxening o'rta oqimlarida karkidon,

tapir, bambuk kalamushlari yashagan, bambuk daraxti o'sgan. Vodiyning yumshoq tuprog'i dexqonchilik uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Er. av. IV-III ming yilliklarda

Xuanxe havzasida Yanshao madaniyatini bu yerda yashagan poliosiy oholisini siqib chiqargan protosinotibetliklar yaratadilar. Er. av. I ming yillikda Xuanxening o'rta oqimida inlar va chjoularning o'zaro ta'siri natijasida qadimgi Xitoy etnosi vujudga keladi. Bu etnosning shakllanishida shimolda poliosiy va avstroosiy, janubiy Osiyo tillarida so'zlashuvchi etnoslar ishtirok etadilar.

An'anaviy Xitoy tarixnavisligi fanida Xitoy tarixini sulolalar bo'yicha davrlashtirish xarakterlidir. Shunga ko'ra, afsonaviy «besh imperatorlar» davridan so'ng, «uch sulola» Sya, Shan-In va Chjou davrlari boshlandi. An'ana bo'yicha Chjou davri Chunsyu va Chjango davrlarini o'z ichiga olgan ikki qism g'arbiy Chjou (er. av. XI-VIII asrlar) va Sharqiy Chjou (er. av. VIII-III asrlar) ga bo'linadi. Sin sulolasi (er. av. III asr) o'rniga hukmronlik vaqti g'arbiy va sharqiy davrlarga bo'linadigan Xan sulolasi keladi. Sulolaviy davrlashtirish hozirgi tadqiqot talablariga javob bermaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotini ishlab chiqarish kuchlari va mehnat qurollari, tayyorlangan asosiy buyumlar bo'yicha jamiyat taraqqiyotini bosqichlarga bo'ladigan arxeologik davrlashtirishdan foydalanamiz. Demak, Xitoyda «uch sulola»dan oldingi davr neolit davriga to'g'ri keladi. Shan-In davrida qadimgi Xitoy jamiyati jez davriga kiradi. Chunsyu davri (er. av. VI-V asrlar) oxirida qadimgi Xitoyda temir davri boshlanadi. Sima Syanning tarixnavislik usulidan «Xan tarixi» muallifi Gu Garbiy Xan (er. av. 206 yil) sulolasining tarixini yozishda foydalanadi. Ban Gu Xitoy tarixnavisligining yangi «sulolalar tarixi» nomini olgan janr asoschisi bo'lgan.

Xitoy tarixini arxeologik o'rganishda amalga oshirilgan ishlar muhim ahamiyatga ega. Arxeologik qazishmalar natijasida ilk Shan davriga oid Ermitou shahri, Chansha yaqinida boy qabrlar (er. av. III asr) topilgan.

An'anaviy Xitoy tarixnavisligida ikki o'ziga xos xususiyat:

- Xitoy madaniyatining boshqa qo'shni madaniyatlardan ustunligi;
- Xitoy davlatchiligini kelib chiqishini afsonalarga bog'lab o'ta qadimiylashtirish ajralib turadi.

Qadimgi Xitoy tarixini o'rganishni o'rta asrlarda Yapon olimlari boshlab berdilar. Yaponiyada Xitoy tarixining barcha davrlari o'rganildi. Mashhur xitoyshunos olim Kaydzuka Sigeki qadimgi Xitoy davlatlarini shakllanishiga oid katta tadqiqotlar muallifi hisoblanadi.

Yevropada Xitoy tarixini o'rganishda fransuz tadqiqotchilari katta yutuqqa erishdilar. XX asr boshlarida E. Shavann Sima Syanning «Tarixiy yozishmalar»ni tarjima qila boshladi. Mashhur sharqshunos olim fransuz A. Maspero «Qadimgi Xitoy» nomli asarini yaratdi.

AQShda XX asrning 60-yillari oxirida «Qadimgi Xitoy tarixini o'rganish» xalqaro jamiyati tashkil topdi. AQShda Xitoy tarixini kelib chiqishi Xitoydan bo'lgan olimlar o'rganadilar.

**Xitoy tarixining davrlashtirilishi.** Shan(In') davlati va uning qulashi. Qadimgi Xitoy tarixini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti mezonida quyidagi davrlashtirishda ko'rish mumkin:

1. Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi va ilk davlatlarning vujudga kelishi. (er. av. II ming yillik )

2. Er. av. VIII-III asrlarda Qadimgi Xitoy

3. Xitoyda birinchi markazlashgan davlat Sin imperiyasi (er.av. 221-207 yillar)

4. Qadimgi Xitoy I-III asrlarda.

Qadimgi Xitoy tarixiga oid juda ko'p aniq davrlashtirilgan yozma yodgorliklar mavjud. Bu bizgacha kitob holida etib kelgan tarixiy asarlardir.

Yozma manbalar ichida Qadimgi Xitoy yilnomalari eng avvalo Lu podsholigi davrida tuzilgan er. av. VIII-V asrlar voqealari yoritilgan «Chunshu» yilnomasi muhim ahamiyatga ega. «Chunshu» matni bilan an'anaviy ravishda uning muallifi qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiy nomi bog'lanadi.

Yilnomalar bilan yaqin bog'langan eng avvalo, «Shan-shu» («Shizhin» qo'shiqlar kitobi) nomli kitob va boshqa qadimgi Xitoy tarixiy asarlari janridir. Bu asarlarda hukmdorlar va ularning yaqinlarining so'zlari mavjud.

Bizgacha etib kelgan «Shan-shu» matni qismlarigina haqiqiy deb hisoblash mumkin. Chunki bu manbaning ba'zi boblari keyingi davrlarga oid.

Er.av. I asrda qadimgi Xitoyda yangi tarixiy asarlar paydo bo'ldi. Bu asarlar Xitoy tarixnavisligida katta o'rin tutadi. Ana shunday asarlardan biri Sima Syanning (er. av. 105-90 yillar) «Tarixiy yozishmalar»i edi. Bu asar qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy va madaniy xayoti to'g'risida boy ma'lumotlar beradi. Sima Syan tarixiy voqealarni bayon qilishda kishilar faoliyatini bayon qilish usulini tanlaydi.

Er. av. V-III ming yilliklarda Xuanxe daryosi o'rta oqimida Yanshao madaniyati tipidagi neolit manzilgohlari vujudga keladi. Dehqonchilik, cho'chqa va it boqish asosiy mashg'ulot bo'ladi, kulolchilik rivojlanadi.

Er.av. III ming yillikning ikkinchi yarmida kulolchilik charxi yordamida kulrang va qora rangli idishlar tayyorlanadi, dehqonchilikda o'roq va pichoqning takomillashgan shakli vujudga keladi. Ijtimoiy tabaqalashuv jarayoni tezlashadi. Bu davr Lunshan madaniyati deb ataladi.

Eng qadimgi jez davri buyumlari (er.av. II ming yillik birinchi yarmi) Ermitou tipidagi manzilgohlarda topilgan. Er. av. XIV-XI asrlarda o'rta Xitoyda In davrida ilk shaharlar paydo bo'ladi. Bu davrdagi ijtimoiy tabaqalanish izlarini In qabrlarida ko'rish mumkin. In davlati tepasida Van (hokim) turgan. Hukmdorning yagona hokimiyati shakllanganidan dalolat beradigan «Men kishilar orasida yagonaman» degan so'zini keltirish mumkin. Van bir vaqtni o'zida oliy koxin vazifasini ham bajargan. In davlatining eng qudratli davri er. av. XIII asrning ikkinchi yarmida hukmdorlik qilgan Van U

Di davriga to'g'ri keladi. Uning davrida Shan shahrida saroy va ibodatxonalar quriladi, mamlakat hududi kengayadi.

Er. av. 1027 yilda chjoular boshchilik qilgan g'arbiy qabilalar In davlatini ag'darib tashlaydilar. Chjoular Inlardan jez quyish san'atini, yozuvni o'zlashtiradilar. Ular harbiy jang aravalarini ham inlardan o'rganadilar. Chjou davrida jamiyat besh ijtimoiy qatlamga ajralgan: Van - «kishilar orasida yagona» hukmdor, Chjou - merosiy hudud hokimlari, Chjou oliy aslzodalari, Dafu - urug' qabila guruhlar boshliqlari, In - katta oila boshliqlari, Oddiy kishilar.

**Chjou davlati, Xitoy shohlari o'rtasidagi kurash.** Van Osmon mamlakatida eng oliy mulkdor, boshqalar esa uning xizmatkori edi. Shu bilan birga «Van Chjouni o'z xizmatkori deb xisoblaydi, Chjou o'z xizmatkori deb dafuni hisoblaydi, dafu o'z xizmatkori deb inni hisoblaydi» tushunchasi mavjud bo'lgan. Bu davrda asirlar ko'plab qullarga aylantira boshlanadi.

Er. av. VIII asr boshlarida chjoularning Xuanxe daryosi yuqori oqimi havzasida yashagan jun qabilalari bilan to'qnashuvi kuchayadi. Junlar kelib chiqishi chjoularga qarindosh edilar, lekin turmush tarzi va xo'jalik yuritish shakli bilan farq qilganlar. Van davrida (er. av. 781-771 yillar) yarim ko'chmanchi junlar bilan hal qiluvchi to'qnashuv yuz beradi. Merosiy er mulklarni ko'payishi, ijoxou (merosiy hudud hokimlari) mustaqilligini kuchayishi Van hokimiyatini zaiflashtirdi. Chjou Pix-van isenchi Chjouxoular va junlar hujumini qaytara olmadi. U poytaxt hududini tashlab ketishiga majbur bo'ladi. Bu voqea Xitoy an'anasida g'arbiy Chjou davrini tugashi deb hisoblanadi.

Er.av. 770 yil poytaxt sharqqa hozirgi Loyan hududiga ko'chiriladi. Shu sababli er. av. VIII-III asrlar Sharqiy Chjou davri deb ataladi. Junlardan qochish vanning obro'-e'tiborini keskin tushirib yubordi. Endilikda u Chjoular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga aralasha olmadi. Chjoxoular amalda mustaqil hokimlarga aylandilar Vanning yerlari kamaytirilib, unga o'lpon to'lanmay qo'yildi. Er. av. VIII asr oxirida Xitoy mingdan ziyod bir-biri bilan urushayotgan mustaqil mulklarga bo'linib ketdi, ammo ular mamlakatning an'anaviy birligini ramzi sifatida Chjou vanini oliy hokimiyatini rasman tan oldilar. Bu davrda ijtimoiy tabaqalanish murakkablashdi, qullarning va qaram aholining soni o'sdi. Pul-tovar munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari o'sadi. Van tomonidan er-mulklar zodagonlar, harbiylarga taqsimlab beriladi. Erga xususiy mulkchilik paydo bo'ladi.

Er.av. VII asrdan boshlab separat kayfiyatlar kuchayib ketdi. Chjoularning Xuanxening yuqori oqimidagi jun qabilalari bilan to'qnashuvi kuchayadi. Ko'chmanchilar birlashib chjoularga katta xavf tug'diradilar va Chjou podsholiklari ichki kurashida ishtirok etadilar.

O'rta Xitoy tekisligida birinchilik uchun bo'lgan kurashda Xuanxe quyi qismi Sin podsholigi (Er.av. 650 yil), keyinroq Szin podsholigi (er. av. 630 yil) etakchi o'ringa chiqadi. Szin va janubiy Chu podsholiklari raqobati er. av. VI-VI asrlar siyosiy tarixida asosiy davr bo'ladi. Raqobatda Chu engib chiqdi va er. av. 575 yilgacha u etakchi o'ringa chiqib oladi. Shundan so'ng, boshqa

podsholiklar ham o'zaro urushda ishtirok etadilar. Er. av. 403 yilda Tsizin davlatini emirilishidan Xitoy an'anasi shartli hisobi bilan Chjan'go (Urushayotgan davlatlar er. av. 403-221 yillar) davri boshlandi.

Xitoyda er. av. VI-IV asrlarda temir tarqaldi. Temir mehnat qurollarini keskin ko'payishi aholini tez o'sishiga olib keldi. Hayvonlardan yerni haydashda foydalanila boshlandi. Mahsulotni, ekin yerlarini ko'payishi va umumiy beqarorlik ijtimoiy siljishlarga olib keldi. Yerga jamoa mulkchiligi tizimi tugadi. Er. av. 1000 yillik o'rtalaridan yerni sotish va olish huquqi bilan yerga xususiy mulkchilik paydo bo'ldi. Davlat yer egalaridan yer solig'ini olishni joriy qildi, boy hunarmand-savdogarlar tabaqasi shakllandi. Shaharlarni va shahar aholisini ko'payishi kuzatildi. Er. av. IV-III asrlarda metal tanga tarqaldi.

Bu davrda qadimgi Xitoyni asosiy ta'limotlari konfutsiylilik, legizm, daosizm vujudga keldi. Konfutsiy (Kun-size er. av. 551-479-yillar) ta'limoti bo'yicha inson tabiatan ezgulik hislatiga ega va o'z burchini sidqidildan o'tashga tayyor. Konfutsiy barcha ijtimoiy munosabatlar uchun oilani namuna hisoblaydi. Oilada kattalar kichiklarga g'amxo'rlik qiladilar va ularni tarbiyalaydilar, kichiklar ularni hurmat qiladilar va ularga bo'ysunadilar. Davlatga xalq farzandlar o'rnida, hukmdor ota o'rnida bo'ladi, hukmdor o'z shaxsiy manfaati emas xalq farovonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi lozim.

**Sin davlatining tashkil topishi.** Er. av. IV asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni barqaror holatga keltirish uchun ko'pgina podsholiklarda islohotlar o'tkaziladi. Ana shunday islohotlardan biri er. av. 350 yilda Sin podsholigida oliy amaldor Shan Yan tomonidan o'tkaziladi. Mamlakat uездlarga bo'linadi, er sotib olishga ruxsat beriladi, o'lehov birliklari unifikatsiya qilinadi, urug' zodagonlarning ayrim imtiyozlari bekor qilinadi.

Er. av. 246 yil Sin taxtiga o'n yoshli Chjen chiqdi. Er. av. 238 yil yosh podsho Chjen o'ziga qarshi fitnani fosh qiladi. Er. av. 230 yil asosiy raqib Xan podsholigini, er. av. 228-221 yillarida esa, boshqa beshta podsholiklarni bosib oladi. Er. av. 221 mamlakatni birlashtirish tugallanadi. 28 yoshli In Chjen «Sin sulolasining birinchi imperatori» Sin Shixuandi unvonini qabul qiladi. U «Bizning avlodimiz vorislik tartibiga ko'ra ershi («ikkinchi»), san'shi («uchinchi») va toki o'n ming avlodgacha ular nihoyasiga merosxo'r bo'ladilar deb tantanali e'lon qiladi. Ammo bu davlat bor yo'g'i 14 yil yashadi.

Mamlakat hududi 36 yirik ma'muriy okrugga bo'lingan, har bir okrug uездlarga, uездlar volostlarga, volostlar esa bir necha jamoadan iborat edi.

Okrug boshlig'i va okrug qo'shin boshlig'i imperator tomonidan tayinlangan. Okrug boshlig'i esa uезд boshlig'i va ularning muovinlarini tayinlagan. Imperatorning ikki maslahatchisi bo'lib ular markaziy davlat apparatini boshqarganlar.

Markazlashgan davlat apparati harbiy, moliya, sud, imperator oilasi bo'limi va inspeksiya nazorat bo'limlaridan tashkil topgan. Qat'iy markazlashgan davlat boshqaruvi aparatida eng quyi bo'g'inda jamoa

oqsoqollari turar edi. Davlat aholi hayotini barcha jabhalarini qat'iy bir qolipga soldi: aholidan barcha qurollar tortib olinib, qo'ng'iroqlar qo'yildi. Mamlakat bo'yicha yozuv, pul, tanga, o'lchov birliklari unifikatsiya qilindi, beqiyos, shavqatsiz ruhda bo'lgan yagona qonunchilik tizimi joriy qilindi. Jinoyati uchun butun oila jazolangan, o'lim jazosi barcha ayblar uchun qo'llanilgan. Ommaviy ravishda katorga ishlariga surgun qilingan. Odamlar Sin davridan oldingi davrlarni xotirasidan chiqarishi uchun Sin podsholigidan oldingi yozuvdagi asarlarni yo'q qilishga buyruq berilgan. qadimiyatga e'tiqod qilganlari uchun yuzlab Konfutsiy ta'limoti muxlislari, olimlar jismoniy yo'q qilingan. Butun Xitoy aholisi og'ir mehnatga duchor qilindi. Misli ko'rilmagan qurilish: 5 ming km. uzunlikdagi buyuk devorni bunyod qilishga kirishildi (6rasm). Xitoy imperator saroyi va tog' ishida o'yilgan imperator sog'onasi qurilib, sog'onaga balandligi o'rtacha odam o'lchovida bo'lgan 6 ming jangchi haykallari joylashtirildi va Xitoyni butun hududi aholisi bu qurilishlarga zo'rlik bilan haydab kelindi. Imperator qo'shinni shimolga xunlarga qarshi va Yanszi daryosi va Janubiy Xitoy dengizi oralig'i havzasidagi mamlakatlarni ishg'ol qilishga yuborildi.

Er. av. 207 yilda xalq qo'zg'oloni Sin sulolasini ag'darib tashladi. Qo'zg'olon boshliqlaridan biri mayda amaldor Lyu Ban er.av. 202 yil «Xan vani» unvonini qabul qilib, Xan imperiyasiga asos soladi. Bu sulola Xitoyda eramizning III asrigacha hukmronlik qiladi. Imperator Gao-szu (Lyu-Van) (er. av. 202-195 yillar) xalqni ahvolini yengillashtiradigan tadbirlarni amalga oshiradi<sup>42</sup>.

Qarzi uchun qul qilinganlar qullikdan ozod qilinadilar, jamoalarga vaqtinchalik imtiyozlar berilib, soliqlar Sin davridagidan 10 marta kamaytirildi. Keyingi imperator Syao Ven-di (er. av. 180-165 yillar) xalqni ahvolini yana engillashtirdi. U saroy xarajatlarini kamaytiradi, dehqonlardan olinadigan er solig'ini kamaytiradi. Qarindoshining jinoyati uchun jazo berishni, imperatorni haqorat qilgani uchun jazoni bekor qiladi. Iqtisodiy taraqqiyot er. av. II asrda Sariq dengizdan boshlanib O'rta yer dengizigacha borgan Buyuk ipak yo'li shakllandi. Aynanshuyo'lorqali Buddizm Xitoyga kirib kelgan.

### **Xan imperiyasini yuksalishi, islohotlar**

Imperator U-di (Eramizdan avvalgi 140-87 yillar) boshqaruvi yillari Xan imperiyasining eng gullab - yashanagan davri edi. U-di markazlashtirish siyosatini olib boradi<sup>43</sup>.

Vanlarga meros mulkni faqat katta o'g'li emas, balki barcha o'g'illari o'rtasida taqsimlash joriy etiladi. Natijada merosiy mulklarning hajmi keskin qisqarib ular amalda hokimiyatdan maxrum bo'ladilar. Markaziy davlat apparati mustahkamlanadi. Okrug amaldorlari faoliyatini nazorat qiladigan nazorat inspektori qayta tiklanadi. Okrug boshliqlari tomonidan amaldorlik vazifasiga qobiliyatli kishilarni muntazam tavsiya etish tizimi joriy qilinadi. Imperatorning

---

<sup>42</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.248.

<sup>43</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. 2011, p.250.

birinchi maslahatchisining vakolat doirasi cheklanadi. Imperator kantselyariyasi tashkil etilib, U-di joylarni boshqarish tizimlarini faoliyatini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Konfutsiylik davlatning yagona mafkurasi sifatida qabul qilingan. U-di faol istilochilik siyosatini olib boradi. U shimolda ko'chmanchi xunlar hududini bosib olishga harakat qiladi. Xunlar bilan urush yillarida Xitoy hozirgi Sinszyan va O'rta Osiyo bilan birinchi aloqalarni o'rnatadi. U-di er.av. 139 yilda o'z elchisi Szyan Syanni O'rta Osiyo («g'arbiy o'lka»)ga yuborgan, elchi o'n yildan keyin Xitoyga qaytib keladi.

Manbalar dayozilshichauXunlarga asirtushgan vaqt, o'sha yerlik xunqizga uylandi. Keyinchalik bira mallabqochadi. Xitoyliklar Farg'ona, Baqtriya va Parfiya to'g'risida bilimga ega bo'ladilar va bu mamlakatlar bilan aloqa o'rnatadilar. Ana shu vaqtda Xitoy O'rta Osiyodan uzum, poliz ekinlari, musiqa asboblari, idish-tovoqlarni o'zlashtirib oladi. Keyinchalik Xitoy O'rta Osiyodan budda dinini qabul qiladi.

Xitoy Hindistonga boradigan yo'lda Yuanyan va Suchuanni bosib oladi. Er.av. 109 yilda Koreya yarim orolidagi Choson davlatini bosib olgan.

Imperator U-dining hukmdorlik yillari qadimgi Xitoy tarixida «oltin davr» deb hisoblandi. Xan davrida qullarning soni oshdi. Xususiy, davlat qullari, qarz uchun qul qilingan qullar mavjud edi. Manbalar bu davrdagi yirik quldor xo'jaliklari, qul bozorlari to'g'risida ma'lumot beradi. Er. av. II-I asrlarda xalqning iqtisodiy ahvoli yana og'irlashadi, er va boshqa boyliklar oldisottisi keng tus oladi. Qarzi uchun o'zi va oila a'zolarini qul qilish yana rivojlanadi. Er katta er egalari qo'lida to'plana boshlaydi, qaram dehqonlar ko'payadi. Er ijara haqi juda yuqorilab ketadi. Yollanma mehnat keng tarqaladi.

Yirik amaldor Van Man imperator hokimiyatiga ega bo'lib er egaligi va quldorlik munosabatlarida islohot o'tkazadi. Bu vaqtda dehqonlarning ersizlanishi kuchayib, katta-katta er maydonlari alohida qo'llarda to'planib qolgan edi. Van Man barcha yerlarni imperator mulki deb e'lon qilib, erni sotishni ta'qiqlaydi. Qul savdosi ham ta'qiqlanadi, ammo bu islohotlar amalga oshmaydi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti toboro tushkunlikka yuz tuta boradi. Xalq harakatlaridan so'ng, Xitoy III asr boshlarida uch mustaqil davlat Vey, Shu va U ga bo'linib ketadi.

**Qadimgi Xitoyda dinning rivojlanishi.** Qadimgi Xitoy mifologiyasi to'g'risidagi manbalar asosan er. av. XI asrga oid. Bu afsonalar mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'linadi

Miloddan avvalgi 1000-600 yillar orasida aholi punktlari va kichik shaharchalar hududiy davlatlarga aylandi. Shuningdek, Xitoyda bu ancha vaqt davom etdi. Bundan tashqari o'ziga xos yangi qarash Buddizm va Braxmanizm rahbarlari Veda qurbonliklariga da'vat etdi<sup>44</sup>.

---

<sup>44</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.174.

Kosmogonik miflar ichida ilk, tartibsiz holatdan tabiat va insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi asosiy kontsepsiya, bo'linish va aylanish berilgan. Ulardan birinchisi jonsiz va tirik mavjudotlar tartibsizligi, ikki ilk unsur (erkak)ning boshlanishi, Yan va qorong'ulik (ayol)ning boshlanishi - In paydo bo'lgan. Ikkinchi kontsepsiya barcha mavjudotlarning paydo bo'lishi bu transformatsiya natijasidir deb tushuntiradi. Odam Nyuy ismli ma'buda tomonidan loydan yaratilgan.

Tabiat stixiyalari va ulardan odamlarni qutqargan qahramonlar to'g'risida afsonalar ko'pchilikni tashkil qiladi. Toshqin va qurg'oqchilik hodisalari afsonalarda ko'p tilga olinadi. Qadimgi qahramonlar to'g'risidagi afsonalarda qahramonlar odamlarni olovdan foydalanishga o'rgatgan; ilk bor shox-shabba chaylani ko'rgan. Baliq ovi va ovchilik usulini kashf qilgan; ilk dexqonchilik qurollarini yasagan, donni bug'da pishirishni o'rgatgan qahramonlar mavzusi etakchi o'rinni tutadi. Ko'pgina qahramonlar ilon gavdali, buqaning kallasi bilan yarim hayvon, yarim odam qiyofasida tasvirlanganlar. Bu qadimgi totemistik tasavvurlarni aks ettirishdir.

Qadimgi xitoyliklar u dunyo to'g'risidagi tuchunchalarida yerda mavjud bo'lgan tartib-qoidalar aks ettiriladi. Yerda hokimiyat Vanga tegishli, osmonda xamma jismlar Oliy xudo (Di)ga buysunadi. Di qudratli, u odamlarga marxamat qiladi yoki ularni baxtsizlik bilan jazolaydi. U odamlarga hosilni sovg'a qiladi, qurg'oqchilik yuboradi, yomg'ir va shamol Diga bog'liq. Dining yaqinlarini Vanning vafot qilgan ajdodlari tashkil qiladi. Vanning ajdodlari Dining topshiriqlarini bajaradi va ular Vanning yordam berish to'g'risidagi iltimosini Diga etkazadi. Vanning oliy koxin sifatidagi vazifasi odamlar va xudolar dunyosi o'rtasida vositachi bo'lgan o'z ajdodlari bilan muloqotni amalga oshirishdir.

Konfutsiylikni paydo bo'lishi va tarqalishi ajdodlarga e'tiqod qilishni kuchaytirdi. Konfutsiy (er. av. 551-479 yillar)ning axloqiy-syosiy ta'limotida markaziy o'rinni «oliyjanob kishi» (Szyanszi) to'g'risidagi tushuncha egallaydi. Konfutsiylik gumanizm (Jen), sadoqat (Chjun), kattalarga hurmat (Syuo), kishilar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qilish (Li)dan iborat. Konfutsiy ochko'zlik, zo'ravonlikga qarshi axloq va burchni qarama-qarshi qo'yadi<sup>45</sup>.

Xitoy faylasuflari har doim ham Konfutsiyning fikrlarini sharhlash uchun rozi bo'lishmagan. Konfutsiychilik maktabining tasvirlaridan biri Mencius (372-289)edi. . Konfutsiy ishonardi insoniy tabiatning o'ziga xos yangiliklariga. Shuningdek tabiiy yaxshilikni saqlab qolish uchun ma'naviy o'quv talab qilinardi. Ammo Xunzi (310-237) fikriga ko'ra Konfutsiy yomon odamlarni ko'rgan va ular tabiiy, axloqiy tuyg'uga ega emasligini ta'kidlagan. Shuning uchun ular ta'lim, marosim va odatlar na'zorat qilinishi kerakligini aytishadi<sup>50</sup>.

---

<sup>45</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.161-168.

<sup>50</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.181.

II-III asrlarda Xitoyga budda dini kirib keldi. Afsonalarga ko'ra, birinchi budda sutralari (matn yoki qoida) Xitoyga oq otda olib kelingan: bunga xotira sifatida Loyan shahri yonida budda «oq ot ibodatxonasi» qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan. Xitoyda sutralarni tarjima qilish va budda dinini tarqalishi IV-VI asrlarga tegishlidir.

Ilk Xitoy yozuvining eng qadimgi yodgorliklari er. av. XIV-XI asrlarga oid fol ko'rish yozuvlaridir. In yozuvlarining ko'pchilik qismi buyumlar tasviridir. In belgilari buyumlar tasviri yoki murakkab tushunchalarni ifodalaydigan ko'pgina tasvirlar qo'shilmasi ideogramma ko'rinishidadir. In belgilarining hozirgi Xitoy ierogliflaridan 3 xil farqli tomoni bor. Birinchidan, har bir elementar belgi qandaydir buyumning konturini tasvirlagan, ikkinchidan bir belgilini yozilishida ko'p xilma-xillik mavjud. Uchinchidan belgini qatorning nisbiy yo'nalishiga tomon harakati hali barqaror bo'lmagan. In yozuvining er. av. I ming yillikda Chjoular tomonidan o'zlashtirilishi, uning taraqqiyotini uzib qo'ymadi. Er. av. II-I ming yilliklarda ierogliflarning mahalliy variantlari unifikatsiya qilindi, belgilarni yozishning yangi husnixati paydo bo'ldi.

Qadimgi Xitoyda odatda yupqa yog'och yoki bambuk taxtachalariga yozilgan. Tukli mo'yqalam bilan yozuv ana shu taxtachalarga tushirilgan va yozuvlar metall pichoq bilan tozalangan. Er.av. I ming yillikning o'rtalarida ipak matoga ham yozilgan. Yangi era boshida qog'oz kashf qilinib ishlatila boshlandi va qog'oz boshqa materiallarni siqib chiqardi.

Eng qadimgi Xitoy she'riyati namunalari er.av. XI-VI asrlarda jez ko'zalardagi yozuvlarda etib kelgan. «Shiszin» ("qo'shiqlar kitobi")-qadimgi Xitoy adabiyotining haqiqiy xazinasidir. Bu yodgorlik 4 bo'limga bo'lingan («Podsholik axloqi», «Kichik odalar», «Buyuk odalar», «Madhiyalar») 305 poetik asarlar majmuasidan iborat.

«Shiszin» an'analari er.av. IV asrda poetik asarlar mualliflari tomonidan o'zlashtirib olindi. Bizgacha bu asarlar do'mbira shaklini eslatadigan tosh uyumlarda etib kelgan, shu sababli ular «Tosh do'mbiralari»dagi matnlar deb ataladi. Er.av. IV asrda mashhur Syu Yuan, Xan davrida Sima Syan-Ju kabi shoirlar ijod qilgan.

Musiqqa, poeziya va raqs kabi san'at janrlari Xitoyda yuqori darajada shakllangan. Musiqqa asboblari uch asosiy guruhga: torli, tovush va urib chalinadigan asboblarga bo'lingan. Ko'pgina musiqqa asboblari eramizning birinchi, ikkinchi asrlarida O'rta Osiyodan o'zlashtirib olingan.

Xitoy me'morchilik san'atida yog'och asosiy xom-ashyo edi. Xan davrining noyob me'morchilik yodgorligi imperiya poytaxti Shanyan shahri 12 darvozali devor bilan o'rab olingan. Baland ko'p xonali imperator saroyi, ma'muriy binolar va ibodatxonalar shaharning ko'rki edi. Ma'muriy binolar sariq rangda, imperator saroylari qizil rangda bo'yalgan. Xan davrida portret san'ati yuksak darajada bo'lgan, saroylar portret freskalari bilan bezatilgan. Qadimgi Xitoyda ilmiy bilimlar ayniqsa, matematika rivojlangan. Er.av.

ikkinchi asrda to'qqiz kitobdan iborat «matematika» traktati tuzildi. Bunda oldingi olimlarning bilimlari proportsiya, progress, bo'lishlar bayon etilgan.

Pifagor teoremasi va boshqalar to'plangan. Matematika bilan yonma-yon astronomiya fani ham rivojlandi. Er. av. 104 yilda bir yil 365,25 kun hisoblab chiqildi. Shu yil qabul qilingan kalendar eramizning 85-yiligacha foydalanildi. Bu kalendar bo'yicha yil 12 oyga bo'lindi. Qo'shimcha oy kabisa yiliga qo'shib 3 yilda bir marta belgilangan. Qo'yosh-oy kalendari qishloq xo'jalik ishlariga moslashtirilgan. Qadimgi Xitoyda tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishildi. Er. av. III asrda Xitoy vrachlari igna bilan davolashni kashf qilganlar. Tabiblar 52 kasallikni davolashni bilganlar. 280 davolash usulini qo'llaganlar.

Qadimgi dunyoning eng buyuk imperiyalari bo'lgan Xan sulolasi (mil. avv. 202 milodiy 220) va Rim imperiyasi uchun (mil. avv. 27 - milodiy 476) muvaffaqiyatli bo'lgan davrlar hisoblanadi. Asosiy maqsad esa tinglovchilarga Rim haqida va juda kam ma'lumotlar saqlangan Xan sulolasi haqida yanada ko'proq ma'lumot berish. Har ikki imperiyada turli sohalarda ustunliklar mavjud bo'lgan (ichki savdo siyosiy tuzilmalar va qonunlar yig'indisi bunga misol bo'la oladi). Ammo ikki davlatning bosh tamoyilarida qisman farq bor edi masalan: Xitoy tamoyilida rivojlanish asosiy maqsad bo'lsa, Rimda esa bosqinchilik yurishlari asosiy o'rinda edi. Bu farqlar imperiyalarning keyingi hayotiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

**I. Ushbu ma'ruzada Rim imperiyasi va Xan sulolari taxlil etiladi**

A. Ikki davlat uchun bir necha asrlar juda muvaffaqiyatli o'tgan.

B. Rim imperiyasi va Xan sulolasini taqqoslanish davrlari juda ham o'xshash

C. Bu ikki imperiya butun davr mobaynida mavjud bo'ldi, lekin o'zlari xohlaganchalik yuksaklikka erisha olmadilar<sup>46</sup>.

**II. Xan sulolasi va Rim imperiyasi 400 yildan oshiq hukmronlik qilgan.**

A) Har ikki imperiya hududini kengaytrish uchun tinimsiz kurash olib borgan. Ikki imperiyada 50 milliondan oshiq odam yashagan.

B) Har ikki imperiya o'z hududini kengaytrish yo'llarini oldindan rejalashtirib borgan.

C) Har ikki imperiya iqtisodini rivojlantirish uchun ham harakat qilgan.

1. Xan sulolasi yangi yo'llar va kanallar qurishga tashqi savdoni rivojlantirishga alohida e'tibor bergan.

2. Rim Afrikada, Sitsiliyada, va boshqa joylarda savdo bazalarini qurishdan asosiy maqsadi esa, O'rta yer dengiz savdo bazasini yaratish edi.

D. Har ikki imperiyada qisman bo'lsada, turli mexanizimlardan foydalanila boshlangan.

1. Xan sulolasi davrida konfutsiylik ta'limoti amalda bo'lish bilan birga imperatorlar oliy xudo sanalgan.

2. Xan sulolasi davlatni boshqarishda aniq rejim ishlab chiqqan edi. Unga ko'ra mamlakat viloyatlarga bo'linib ularni viloyat noiblari boshqarar edi. Rim ham o'ziga mos siyosat yo'lini tanlagan edi.

<sup>46</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY.

34.

New York. 2007. p.

3. Unga ko‘ra rimlik yozuvchilar imperator va uni boshqaruvini maqtash uchun turli asarlar bitganlar.

E. Yuqorida aytilganidek Rimda o‘ziga xos siyosiy yo‘l ishlab chiqilgan edi, lekin Xan sulolasi har tomonlama Rim imperiyasidan o‘tib ketgan edi.

1. Lekin shunga qaramasdan har ikki davlatning boshqaruv shakllari bir qator mustahkamlangan.

2. Soliq solishda turli vakolatlar va imtiyozlar ishlab chiqilgan. 3.

Bu ishlar bilan har ikki davlatda alohida shaxslar shug‘ullangan.

F. Ikki davlatning ham o‘zining rivojlanish xususiyatlari bo‘lgani holda bir – birini takrorlamas jihatlari ham bo‘lgan<sup>47</sup>.

**III.** Bu ikki imperiyani boshqaruv tizmida o‘xshash va farqli tomonlar juda ko‘p edi.

A. Xan sulolasi yuqorida aytilganidek, o‘z hududini kengaytirishga harakat qilgan, lekin Rim imperiyasichalik muvaffaqiyat qozona olmagan.

1. Antik davrda Xitoy yangi imperiyaga aylanadi ( Xan sulolasi haqida so‘z bormoqda) janubiy qismda yangi yerlar o‘zlashtiriladi.

2. Bu o‘zlashtirish siyosati Xitoyga katta shuhrat keltiradi hatto shimoliy viloyatlarda subtropik mevalardan mandarin yetishtirila boshlanadi. O‘sha davrlarda amalga oshirilgan ishlar hozirgi kunda ham amalga davom etmoqda.

B) Rim ham yangi yerlarni o‘zlashtirishga harakat qilgan. Uning bu ishdan ko‘zlagan maqsadi shu hududlarda kaloniyalar qurish va o‘z askarlarini shu hududlarga joylashtirishdan iborat edi.

1. Madaniy sohada Rim imperiyasi O‘rtayer dengizi hududida lotin tilini yoyishga, yunon tilini surib chiqarishga harakat qiladi, lekin yuqori tabaqa tomonidan bu qarshilikka uchraydi.

2. Keyinroq yangi islohotlar o‘tkazila boshlanadi unga ko‘ra Rim imperiyasi hududida yashovchi aholiga Rim fuqaroligini berish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi.

3. Rim imperiyasi davlat boshqaruvida chekka viloyatlarni asosan mahalliy vakillarga topshirgan edi

C) Rim va Xitoy o‘z hududini kengaytirishga birday tayyor edi, lekin zamon taqozosi bilan bunda ustunlik Rim imperiyasiga o‘tib keta boshladi.

1. Bunga asosiy sabab Xan imperiyasi yurgizgan siyosatlar davlat boshqaruviga to‘g‘ri kelmay qola boshladi va hududni kengaytirish siyosati to‘xtatiladi.

2. Rimliklar esa harbiy kuchga tayangan edi, bosib olingan yerlarning katta qismi harbiy boshliqlarga bo‘lib berila boshlanadi, bundan esa, harbiylar manfaatdor edilar.

3. Rimliklar davlat ta‘minotida qullar mehnatidan tinimsiz foydalanish uchun ham kengaytirish siyosatini jadallik bilan yurgizgan edilar.

<sup>47</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY.

4. Milodiy 180 yilga kelganda kengaytirish siyosati o'zini ahamiyatini yo'qota boshladi.

5. Bunga sabab, imperiya asta-sekinlik bilan qulayotgan edi.

D) Har ikki imperiyada yuqorida aytib o'tganimizdek madaniy soha ham taraqqiy eta boshladi. Rimda adabiyot, san'at, arxitektura, va Xristian dini taraqqiy etdi. Xitoyda esa mexanizatsiya va texnika taraqqiy eta boshladi eng katta yutuq bu konfutsiychilik ta'limotini qonun darajasiga chiqqanligi edi.

E) Har ikki imperiya o'zining milliy va dunyoviy tizmiga sodiq qoldi

1. Xan sulolasi o'zini milliy tizimini saqlab qola oldi. Rim imperiyasida esa dunyoviy tizim ustun edi.

2. Keyinchalik esa Xitoyda Buddizm dini taraqqiy eta boshladi. Xan sulolasi va uning inqirozidan keyin ham bu din davlat dini bo'lib qoldi.

3. Xitoyda buddizm dini yetakchilikni qo'lga olayotgan bir paytda Rimda lotin raqamlari (Rim raqamlari) oldingi o'rinda edi.

F) Har ikki imperiyada harbiy sohaga ham jiddiy etibor berilgan, tez-tez harbiy islohotlar ham o'tkazilgan, ayniqsa Szu Tsu islohotlari diqqatga sazovor. 1. Xan sulolasidan so'ng mamlakatda tarqoqlik boshlanadi bu tarqoqlik ayniqsa Chjou sulolasi davrida juda ham avj ola boshladi. Rimda bu paytda qullarning ommaviy qo'zg'olonlari avj olib ketgan edi. Xitoy Xan sulolasi davrida qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni keyinchalik qaytarib oldi. Lekin Rim imperiyasida bunday xol yuz bermadi.

**G.** Ikki imperiya kelib chiqish nuqtai nazaridan bir –biridan farqlidir.

1. Xan sulolasi qadim Xitoy davlatchiligini davomi bo'lib, CHjou sulolasini o'rniga kelgan.

2. Rim davlatida aristokratlar manfaati doimo ustunlik qilib, davolat asosan shularga xizmat qilgan.

**H.** Ikki davlatga ham qo'shni qabillar doimiy xavf solgan.

1. Rim qulagach har doim keyingi sullar tomonidan eslangan, biroq aynan shaklda qayta tiklanmagan.

2. Xan ham inqirozga uchrgan, ammo shu rejim va boshqaruv tiklangan<sup>48</sup>.

**Tayanch tushunchalar:** Van, Xitoy mifologiyasi, Konfutsiylilik, Oq ot ibodatxonasi, In yozuvi, Sima Syan, musiqa, poeziya, portret san'ati, Pifagor teoremasi, igna bilan davolash, sutralar, tosh do'mbiralari, Shanyan, ierogliflar, kabisa yili, oliy xudo.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

<sup>48</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY.

37.

New York. 2007. p.

1. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi qaysi hududda shakllangan?
2. Nechanchi yilda In davlati inqirozga yuz tutdi? 3. Xitoyda nechanchi asrda temir keng tarqaldi?
4. Qadimgi Xitoyda qaysi fan rivojlandi?
5. In belgilarining hozirgi Xitoy ierogliflaridan nechchi xil farqli tomoni bor?
6. Xitoy O'rta Osiyodan qaysi dinni qabul qilib oldi?

**Ma`ruza №20,21**

## **Mavzu: Krit – minoy sivilizatsiyasi Reja:**

1. Egey dunyosi madaniyati.
2. Krit madaniyati.
3. Iqtisodiy-ijtimoiy hayot.
4. Miken madaniyati.
5. Gomer davri Yunonistoni.
6. Kiklad madaniyati.

**1. Egey dunyosi madaniyati.** Er. avv. III-II ming yilliklarda Dunay ortidan yunonlarning keyingi avlodlari Bolqon yarim oroliga bostirib kirdilar. Bu davrda Bolqon yarim oroli va unga yaqin orollarda kariylar, leleg va pelasglar yashaganlar.

Krit-Miken madaniyati ingliz arxeologi Artur Evansning (1851-1941) Krit orolida olib borgan arxeologik qazishmalari, G. Shliman (1822-1892)ning Kichik Osiyodagi Hissorlik tepaligida Troya shahri xarobalarini qazib ochishi, Yunoniston janubida Miken va Tirinf shaharlarining arxeologik qazishmalari natijasida ma'lum bo'ldi. Artur Evans Krit orolidagi Knoss saroylarini ochib, Kritning afsonaviy podshosi Minoy nomi bilan atalgan ajoyib Minoy madaniyati manzarasini yaratdi.

Bundan tashqari, Amorgos, Paros, Sifnos, Siros, Naksos, Tera, Melos kabi Egey orollaridagi ko'pgina madaniy yodgorliklar ochildi. Natijada er. avv. II ming yillikgacha Sharq xalqlari yaratgan va bu xalqlar yutuqlarini ijodiy o'zlashtirgan, yunonlargacha bo'lgan axeylarning Miken madaniyati deb atalgan madaniyatini yaxlit ko'rinishi shakllantirildi.

Gretsiyaning materik qismida va Egey dengizining Kiklada orolida mustahkam aholi punktlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari saqlanadigan kichik hududlarda mahalliy hokimlar joylashgan. Krit va Kiklada orollarida metallurgiya ancha rivojlangan<sup>49</sup>.

Qadimda Egey havzasida uch madaniy birlik mavjud bo'lgan:

1. Eng qadimgi Krit yoki Minoy madaniyati (er. avv. 3000-1200-yillar, markazi Krit).
2. Orollardagi Kiklad madaniyati.
3. Bolqon Yunonistonidagi Miken madaniyati.

**2. Krit madaniyati.** Krit yoki Minoy madaniyati uch davrga: Ilk Minoy (er. avv. 3000-2300/2100-yillar), O'rta Minoy (2300/2100-1600-yillar) va So'nggi Minoy (1600-1200-yillar)ga bo'linadi.

Kritning ilk gullab-yashnash davri va uning Egey dunyosidagi yetakchiligi er. avv. III-II ming yilliklarga to'g'ri keladi. Dastlab orolning janubiy-sharqiy qismi rivojlangan.

O'rta Minoy davrida Kritda "birinchi saroylar" davri bo'ldi. Knoss, Fest va Malliya kabi shahar markazlari rivojlandi. Krit me'morchiligining Kiklad va

---

<sup>49</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.76.

Ellada sivilizatsiyalaridan ajratib turadigan xususiyati, bu saroylarning ulug`vor qurilgani va saroylardagi nafis freska tasvirlarining yuksak san`at darajasida bo`lganidir. Freska tasviriy san`atining gullab-yashnashi “ikkinchi saroylar davriga” (er. avv. XVII asr) va So`nggi Minoy davriga to`g`ri keladi. O`rta Minoy davri Kritda taxminlarga ko`ra, yer qimirlashi natijasida halokat bilan tugallandi. Er. avv. XVII asrda Knoss, Fest, Malliya saroylari xarobaga aylandi. Ellik yildan so`ng, Krit yana qayta tiklandi va bu yuksalish er. avv. 1400yillargacha davom etdi. Bu davrda Krit dengizda cheksiz hukmronlik qildi. Krit Bolqon yarim oroli, Misr, Iberiyaga oliy nav vino, zaytun moyini eksport qildi. Misrdan rangli shisha, fayans; Kipr orolidan mis; Suriyadan otash; Liviyadan qimmatbaho metallar va fil suyagi olib kelindi.

Kritning Egey dengizidagi yangi yetakchiligi er. avv. 1700-yildan boshlanib, Knoss va Festda yangi saroylar qurilib, uning devorlari ajoyib freskalar bilan bezatilgan. Ingliz arxeologi Artur Evans Knoss saroyini 40 yil davomida tekshirdi va ajoyib san`at namunalarini topdi. Bir necha qavatli saroy Kritdagi ulug`vor inshoot edi. U bir necha marta qayta qurilgan bo`lib, podsho oilasi istiqomatgohi, rasmiy qarorgoh va xo`jalik inshootlaridan iborat edi. Saroyda ko`plab xona va zal devorlari did bilan bezatilgan. Devoriy tasvirlarda hashamatli kiyingan ayollar va erkaklar, saroy hayoti manzarasi, o`simlik va hayvonlarning hayotiy ko`rinishlari yuqori darajadagi badiiy usulda tasvirlangan. Krit Minoy tsivilizatsisi bilan Yunoniston materik qismi o`rtasidagi aloqlar bo`lganligini u yerdan topilgan moddiy arxeologik manbalar, jang aravlarini topilishi tasdiqlaydi.

Krit kulolchiligida badiiy san`atning nihoyatda yuksak darajasida shakllangani ko`rinadi. Sopol idishlarda tabiatning boy manzaralari mohirona tasvirlanadi. Bunday tasvirlar ko`za (amforalar), zaytun yog`i va vino saqlanadigan, bo`yi 2 m gacha bo`lgan xum (pifos)larning sirtiga chizilgan.

Krit madaniyatining yuqori darajada rivojlanganligining yana bir dalili, Knoss saroyidagi bizgacha yetib kelgan raqqosa tasvirining bir qismidir. Raqqosaning go`zal qaddi-qomatini nafis noziklikda tasvirlanganligidan hayratda qolgan arxeologlar uni shartli “parijlik ayol” deb nomladilar. Bu raqqosaning sochi o`ziga xos did bilan ma`lum bir uslubda turmaklangan. Knoss saroylaridan topilgan kohinalarning fayans haykalchalarida uzun yubka, yarim yalang`och ko`krak, nozik yelkalarga tushib turgan sochlar tasviri saroyda hukm surgan nozik did, go`zallik dunyosidan dalolat beradi.

Devoriy tasvir-freskalar va Krit xudolar panteonida ayol ma`budalarining oldingi o`ringa turgani, Krit jamiyati hayotida ayollarning mavqeini yuqori darajada bo`lganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, gemma va uzuklarda qalqon tutgan ayol, kabutar bilan ma`buda, tog` cho`qqisidagi ma`buda va ikki sher o`rtasidagi ma`buda tasvirlari buning yaqqol misoli bo`ladi.

Freskalarda Krit orolining saroy va diniy hayoti tasvirlari: yosh yigitqizlarning yurishi, gullar orasidan yurib kelayotgan hokimning tasviri, qo`shiq aytib raqs tushayotgan raqqosalar, qo`lida marosim ko`zalarini ko`tarib

ketayotgan o'smirlar, Kritda diniy ramz sanalgan ikki yoqlama bolta-labris ushlagan kohina kabi tasvirlar aks ettirilgan.

Taxminlarga ko'ra, O'rta Minoy davrida orolning shimoliy qismida (poytaxti Knoss) mustaqil sulola, boshqasi janubda (poytaxti Fest) hukmronlik qilgan. Hokim oliy kohin vazifasini ham bajargan. So'nggi Minoy davrida Kritdagi butun hokimiyat Knoss hokimlari qo'lga o'tadi. Siyosiy hokimiyat tuzilishi bilan Sharq despotiyasiga o'xshash bo'lgani ehtimoldan xoli emas. Podsho yerning oliy egasi bo'lib, ishlab chiqariladigan moddiy ne'matlarning katta qismini tasarruf qilgan. U mamlakatni o'z a'yonlari, yaqinlari yordamida boshqargan. Joylarda podsho noiblari boshqaruv ishlarini amalga oshirgan. Krit podsholari oliy dunyoviy hokimiyatdan tashqari, diniy hokimiyatga ham ega bo'lganlar. Fukididning ma'lumotlariga ko'ra, podsho Minos har 9 yilda Zevs tasviri turgan muqaddas g'orga borib, uning oldida o'z podsholik boshqaruvi to'g'risida hisobot bergan va o'z hukmronligining navbatdagi muddati uchun yorliq olgan.

Knoss saroyi xarobalari qazib ochilganda, podsho taxti qoldiqlari bilan taxt turgan inshoot topilgan. Katta zalning ikki tomonida ehtimol davlat ishlarini muhokama qilishga to'planadigan podsho kengashi a'zolari o'tiradigan uzun o'rindiqlar qo'yilgan. Devoriy tasvirlarda Krit podshosi odatdagi odamlardan ko'ra, bo'yi bir necha marta baland qilib tasvirlangan.

**3. Iqtisodiy-ijtimoiy hayot.** Kritning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Qadimgi Krit jamiyatida qullar bo'lgani taxmin qilinadi. Kritda qul mehnatidan podsho xo'jaliklarida foydalanilgani, xonaki qulchilik mavjud bo'lgani faraz qilinadi. Er. avv. III ming yillikga borib taqaladigan Messara vodiysida mavjud bo'lgan guruhliy qabrlar, Vasilikadan topilgan ikki qavatli uylar jamoa munosabatlarining uzoq vaqt mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Orolda qishloq xo'jaligi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Topilgan qishloq qo'rg'onlari yirik yer egaligi va boy dehqonlar bo'lganidan dalolat beradi. Fest shahri yonidan topilgan ko'zaning sirtida odatda pishgan zaytun mevalarini urib tushiradigan panshaxasimon tayoq ko'tarib kelayotgan bir to'da dehqonlar mohirona tasvirlangan. Podsho saroylarining ko'p sonli xonalaridan hunarmandchilik ustaxonalari topilgan. Kritda asosan uch soha: kemasozlik, kulolchilik va qurilish rivojlangan. Kritliklar mohir me'mor bo'lib, ko'p qavatli saroylar, ustaxonalar va omborlar qurganlar. Kulolchilik yuqori darajada rivojlanib, kulollar turli shakldagi buyumlar yasagan. Kulollar odam bo'yidan baland qalin devorli xumlardan tortib, devori tuxum po'chog'idan ham yupqa nafis ko'zalar yasaganlar. Ko'zalarda rangli tasvirlar, ayniqsa, gullar, sakkiz oyoqlar (dengiz hayvoni) ustalik bilan tasvirlanadi. Kemasozlar er. avv. XVIII asrlarda suvda uzoq masofaga suzadigan dengiz kemalarini qurganlar.

Knoss hukmdorlarining kuchli dengiz floti O'rtayer dengizining sharqiy qismiSitsiliyadan Suriyagacha, Misrdan Atlantikagacha suzar edi. Kritliklar Misr, Suriya va Sharqiy O'rtayer dengizining boshqa shaharlari bilan keng dengiz savdosini olib bordilar. Krit hunarmandchilik mahsulotlari namunalari

Mesopotamiyadagi Mari shahridan topilgan. Misr devoriy tasvirlarida Krit (Keftiu) elchilari tasvirlanadi. Krit orolida esa, Misr va Suriya hunarmandchilik mahsulotlari topilgan. Italiyaning Sitsiliya oroli va Kampaniya qirg'oqlaridan topilgan Krit buyumlari g'arbiy yo'nalishda kritiklar jadal savdo qilganlaridan dalolat beradi.

Er. avv. 1450-yillarda jangovar axey qabilalari orolga bostirib kirib, Kritning siyosiy yetakchiligiga chek qo'ydilar. Egey havzasi ikki asr mobaynida, doriylar kelganlariga qadar axeylar hukmronligi ostida qoldi.

**4. Miken madaniyati.** Yunoniston er. avv. III ming yillikda ibtidoiy jamoa tuzumida edi. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra, Bolqon Yunonistonida tub joy aholi leleglar, pelasglar va kariylar yashar edilar. Ularning mehnat qurollari toshdan bo'lib, endigina mis qurollari tayyorlay boshlaganlar. Jez davri er. avv. III ming yillik o'rtalaridan boshlandi. Shu davrdan boshlab ibtidoiy kichik qishloqlar o'rni katta qishloqlar, mustahkamlangan qal'alar paydo bo'la boshladi. Urug'chilik munosabatlarining yemirilish jarayoni faqat er. avv. III ming yillik oxiridan asta-sekin boshlandi. Er. avv. III ming yillik oxirida hindyevropa madaniy til birligiga mansub etnik guruhlar o'z vatanlari-Markaziy Yevropadan turli yo'nalishlarda ko'cha boshladi. Ulardan bir qismi Bolqon yarim oroliga kirib kelib, yunon etnosiga asos soldi. Ularni dastlab axeylar deb nomladilar.

Er. avv. III ming yillik oxirlarida Bolqon Yunonistonida qabilalarning ko'chishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Taxminlarga ko'ra, bu vaqtda Sharqiy O'rta dengizi qirg'og'ida ham hindyevropa tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlar paydo bo'ladi. Ular Yunonistonda urug'chilik munosabatlarining yemirilishini vaqtincha sekinlashtirdilar.

Mikenani kengaytirish natijasida Kritdagi Minoy sivilizatsiyasi barbod bo'ldi. Mikenada ham xuddi Sitsiliya va janubiy Italiyadagidek koloniya va savdo punktlari yaratilgan. Shunday qilib, ilk yunon tilida so'zlashuvchi xalqlarning savdo va tili Egey dengizini turli dunyolarni bog'lovchi birlik sifatida yaratilgan<sup>50</sup>.

Er. avv. II ming yillik boshlarida kulolchilikda, kumushga ishlov berish ishlarida, urf-odat, an'analarda (jumladan, uy ichida, pol ostida yoki devor orasida bolalar qabri) yangi jihatlar paydo bo'ladi. Yangi etnik birliklar eskilari bilan aralashib, yangi moddiy va ma'naviy madaniyatni vujudga keltirdilar.

Taxminan, er. avv. XVIII asr oxirlarida Bolqon Yunonistonida mustahkamlangan kichik-kichik qishloqlar ko'plab paydo bo'ladi. Qabrlarda metall qurollar uchramaydi. Bolqon Yunonistonini Kritdan (qabrlarda Krit ko'zalari, Krit namunasiga taqlid qilib yasalgan sopol buyumlar) boshqa hududlar bilan aloqalari deyarli yo'q edi. Er. avv. 1600-yillar atrofida Kritda yuksak rivojlangan madaniyat mavjud bo'lgan paytda Bolqon Yunonistonida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi.

---

<sup>50</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.117.

Axeylar er. avv. III ming yilliklar oxiri-II ming yillikning birinchi yuz yilliklarida Yunositon janubiga asta-sekin siljib, o'z manzilgohlarini barpo qila boshladilar. Ehtimol, ular ilk bor kulolchilik charxi, ot qo'shilgan arava va jang aravasini olib keldilar. Er. avv. XVI asrda kelgindilarning mahalliy aholi bilan to'la assimilatsiyasi tugallandi. Natijada yangi samarali iqtisodiyot, zodagonlar (ko'pincha harbiylar), kohinlar, oddiy jamoachilardan iborat ijtimoiy guruhlar shakllandi. Markaziy va Janubiy Yunonistonda qudratli davlat markazi Miken shahri va boshqa ilk davlatlar (Tirinf, Pilos, Afina) shakllana boshladi.

Miken madaniyati Ilk Miken (er. avv. 1700-yillardan-1550-yillargacha), O'rta Miken (1550-1400-yillar) va So'nggi Miken (1400-1200-yillar) davrlariga bo'linadi. Egey havzasida 400 yil davomida bir xil madaniyatni mavjud bo'lishi uni shartli ravishda "Miken" madaniyati deb atalishiga sabab bo'ldi. Miken (Axey) sivilizatsiyasining gullab-yashnagan davri er. avv. XV-XIII asrlarni o'z ichiga oladi. Miken siyosiy markaz sifatida o'z hukmronligini keng qamrovda amalga oshira olmadi. Mikenada olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida faqat Miken madaniyatiga mansub inshootlar qazib ochildi. 1876-yilda arxeolog G. Shliman Mikenadan qoyaga o'yilgan shaxta tipidagi qabrlarni topdi. Qabrlardan kumush va oltin bilan bezatilgan jez qilichlar, oltin va kumush qadahlar, tilla niqoblar va boshqa buyumlar topildi. Qabr toshlarida ov va jang manzaralari tasvirlangan.

Er. avv. XV asrdan Mikenada va Yunonistonning boshqa viloyatlarida gumbazli qabrlar rasm bo'la boshladi. Bunday qabrlarda hokimlar dafn qilingan. Mikenadagi mashhur "Agamemnon qabri" hashamatli va ulug'vor qilib qurilgan. 5 metrgacha balandlikda bo'lgan og'ir eshiklar, usti har biri taxminan 120 tonna keladigan ikki xarsang tosh bilan yopilgan. Qabrlardan ko'p miqdorda qimmatli buyumlar, qurol-yarog'lar topilgan. Miken madaniyatining kulolchilik mahsulotlari Rodos, Kipr, Kichik Osiyo, Misr, Sitsiliya va Janubiy Italiyaga chiqarilgan. Bolqon Yunonistonida er. avv. 1400-yildan mustahkamlangan qo'rg'onlar (Terin, Miken, Afina, Fiva, Iolik) paydo bo'ladi. Miken san'ati ko'p jihatdan Krit madaniyati bilan o'xshash. Miken tasviriy san'atida mavhum va o'simliklar tasviri, hashamatli kiyingan kishilarning bir xildagi tantanali yurishlari mavjud. Tasvirlarda statiklik, shartlanganlik hukm suradi. Bu davrda monumental me'morchilik mavjud emas. Diniy tasavvurlar to'g'risida ma'lumotlar juda kam. Diniy rasm-rusumlar gemma va muhrlarda ifodalangan. Joylardan diniy topilmalar bo'lgan mehroblar qoldiqlari topilgan. Ayniqsa, arxeologik izlanishlar natijasida topilgan vaza o'zining noyob asar namunasi ekanligi bilan ajralib turadi.

XX asrning 60-yillarida Miken akropolidan (mustahkamlangan qal'a) diniy marosimlar bajariladigan markaz topildi. Markazdan topilgan topilmalar ichida qo'llarini yuqoriga ko'targan 16 ta loy haykalcha, loydan yasalgan ilonlar va mexrob bor. Muqaddas joy yaqinida turar joy binosi bo'lib, tadqiqotchilarning fikricha, bu binoda bosh kohin yashagan. 1953-yil ingliz olimlari Ventris va

Chedvik Miken saroylaridan topilgan buyumlarda sanoq, hisob-kitoblar to'g'risida ma'lumot beradigan loy taxtachalardagi miken yozuvlarini o'qidilar.

Miken sivilizatsiyasining asosiy markazlari er. avv. XV-XII asrlarda Miken, Tirinf va Pilos edi. Ularning ichida Miken bu davrda eng kuchli davlat birlashmalaridan biri bo'lib, axey dunyosining yetakchisi bo'lgan. Gomer Miken podshosi Agamemnonni Troyaga qarshi umumyunon yurishining yo'lboshchisi deb tilga oladi. Zaiflashgan Krit er. avv. XV asr o'rtalarida Miken istilosiga uchrab, unga qaram bo'ldi. Axey hukmdorlari Mikenada ulkan inshootlar, boyliklarga to'la "shaxta qabrlar, mustahkam qal'alarni barpo qildilar. Miken qal'asining kirish qismidagi darvozaning tepa qismida ikki sher rel'ef tasviri tushirilgan. Miken shahrida hashamatli podsho saroyi, Miken hukmdorlarining katta va ajoyib sog'onolari mavjud.

Tirinf Mikenga qo'shni bo'lgan yana bir axey davlat birlashmasi edi. Tirinf hukmdorining saroy qal'asi balang va ulug'vor qurilgan. Qal'a devorlari og'irligi 12 tonnagacha bo'lgan yaxlit ohaktoshlardan bunyod qilingan. Ularning eni 4,5 metrgacha, balandligi 7,5 metrgacha yetadi. Qal'a devorlarining ba'zi joylarida oziq-ovqat va qurol saqlanadigan ombor inshootlari qurilgan.

Qal'aning ichida ikkinchi mudofaa devori tepalikda joylashgan podsho saroyini himoya qilgan. Saroyga yaqinlashish maxsus to'siq inshootlari bilan himoyalangan. Qal'ada ichimlik suv zahirasi bilan shahar tashqarisidagi suv manbasiga boradigan yashirin yerosti yo'li qurilgan. Chunki Tirinf uchun eng xavfli raqib Miken 17 km uzoqlikda joylashgan edi. Tirinf saroyi devorlari ov manzaralari, hashamatli kiyingan xonimlarning aravadagi tasvirlari bilan bezalgan.

Axey davlatlaridan yana biri Peloponnesning janubiy-g'arbida joylashgan, markazi Pilos bo'lgan Pilos davlatidir. Gomer "Iliada" dostonida Troyaga qarshi yurishga qatnashgan yunon floti ichida eng ko'p sonli 90 kemadan iborat Pilos floti to'g'risida hikoya qiladi. Bu flotning qo'mondoni Pilos podshosi Nestor edi. Nestor yunon yo'lboshchilari ichida eng donosi, Pilosning o'zi esa, eng boy davlatlardan biri hisoblangan. Pilos podsho saroyi yaxshi saqlanib qolgan bo'lib, Miken saroy me'morchiligining eng yaxshi namunasi hisoblanadi. Bu saroy maydoni boshqalarga qaraganda, kichik bo'lsada, uyg'un rejalashtirilgan. Saroy devori freskalar bilan, toshdan yasalgan pol geometrik va dengiz mavjudotlari tasvirlari bilan bezatilgan. Xonalarning biridan Pilos davlati va jamiyati, Miken sivilizatsiyasining turli sohalari to'g'risida ma'lumot beradigan bir yarim ming loy taxtachadan iborat arxiv topilgan. Pilos doimiy raqobat va o'zaro urushlar ichida bo'lgan Miken va Tirinfdan uzoqda joylashgan. Pilos er. avv. XIV-XII asrlarda eng rivojlangan va farovon davlat bo'lgan. Miken, Tirinf, Pilos Janubiy Yunoniston va Peloponnesda shakllangan axey davlatlari edi. O'rta Yunonistonda ilk davlat birlashmalari Attika va Beotiya viloyatlarida er. avv. XIV-XII asrlarda shakllana boshladi.

Er. avv. 1000-yillarning oxirida Kipr Kichik Osiyodagi panfiliyalik axeylar tomonidan o'zlashtiriladi. Er. avv. XIV asrda Kichik Osiyoda Axaya davlati

mavjud bo'lgani to'g'risida mixxat yozuvlari ma'lumot beradi. Xett manbalarida (XIV-XIII asrlarda) Axayadeb atalgan davlatni tadqiqotchilar Bolqon yarim oroli, Kichik Osiyo va Rodos orolida deb turli farazlar qiladilar. Yunonistonning Axaya davri siyosiy tarixi yaxshi yoritilmagan. Ba'zi olimlar Miken boshchiligida yagona Axaya davlati mavjud bo'lganini yozadilar. Lekin bir necha Axaya davlatlari mustaqil mavjud bo'lib, ular vaqtinchalik birlashgan bo'lishlari mumkin. "Iliada" va "Odisseya" dostonlari asosi bo'lgan voqealar

Troyaga harbiy yurishlar davrida ko'rinishidan shunday bo'lgan. Troya urushi yunonlarning koloniyalar barpo qilishlari jarayonining bir parchasi bo'lishi mumkin. Axey koloniyalari Kichik Osiyoning g'arbiy va janubiy qirg'oqlarida paydo bo'ldi. Rodos va Kiprda axeylar o'rnatilib olganlar. Sitsiliya va Janubiy Italiyada axey faktoriyalari (tayanch nuqtalari) paydo bo'ladi. Axeylarning Old Osiyo mamlakatlari qirg'oqbo'ylariga kuchli bosqini "dengiz xalqlarining" harakati deb ataladi. Ilmiy farazlarga ko'ra, er. avv. XIII asrda yuz yil davomida doriylar va boshqa xalqlarning Bolqonga kuchli tazyiqi axey sivilizatsiyasining halokatiga olib keladi. Hatto bu holat Levant yo'nalishigaham salbiy tasir ko'rsatgan. Ularning bir qismi Attika va boshqa viloyatlar, Egey dengizi orollari, Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'I va Kipr orolidasaqlanib qoldi. Qolgan qismi qirilib ketdi.

Er. avv. XII asr boshida Sharqiy O'rtayer dengizining Osiyo qirg'og'ida filimstimlar deb atalgan xalqlar o'rnatiladi. Ularning manzilgohlaridan bu yerda ilgari bo'lmagan, shu yerning o'zida ishlab chiqarilgan Miken sopol buyumlari ko'plab topilgan. Bu vaqtda Bolqon Yunonistoniga shimoldan turli qabila guruhlari migratsiyasi boshlanadi. Yodgorliklarda moddiy-ma'naviy madaniyatning tushkunligi ko'rinadi. Bu vaqtdan boshlab temir o'zlashtirila boshlanadi. Eng avvalo, Peloponnes yarim oroli va Kritga doriylar kelib o'rnatiladilar. Troya urushi to'g'risida muammoli fikrlar juda ko'p. Qadimgi Troya Kichik Osiyoda joylashgan bo'lib, jez asrida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin Troyaning yoshi Mikenadagi shaxta qabrlaridan yosh jihatdan 600 yil katta bo'lgan va Bolqon yarim orolidan kelgan qabilalar tomonidan bosib olinishi mumkin emas edi. Troya shahri hududidan arxeologlar VI madaniy qatlamni qazib ochdilar. Bu madaniy qatlamlar Troyada hayot uzluksiz davom etganligidan dalolat beradi. Er. avv. 1800-yillar atrofida Troya VI qatlami paydo bo'ldi.

**5. Gomer davri Yunonistoni.** Yunon tarixidagi er. avv. XI-IX asrlarni tarixchilar "Qorong'i davrlar" deb ataydilar. Chunki bu davrga oid ma'lumotlar juda kam. Er. avv. XI-IX asrlardagi yunon tarixini o'rganish bo'yicha asosiy manba bo'lib, Gomerining "Iliada" va "Odisseya" dostonlari xizmat qiladi. Shu sababli bu davr Gomer davri deb ataladi. Bu davr uchun asosiy manba bo'lgan Gomerining "Iliada" va "Odisseya" dostonlari orqali yunon jamiyatining uch yuz yillik hayotini qayta tiklash mumkin. Poemalarda axeylarning Troyaga yurishi, shaharning bosib olinishi, Troya urushi qahramonlaridan biri bo'lgan Odisseyning ko'pgina sarguzashtlardan so'ng, uyga qaytishi hikoya qilinadi. Shu tarzda poema

axey sivilizatsiyasining gullab-yashnashining so`nggi davri hayotini tasvirlaydi. Lekin Gomerning o`zi er. avv. VIII asrda yashagani uchun o`tmish voqealarini o`zi yashagan davr nuqtai nazaridan zamonaviylashtirdi.

Axey sivilizatsiyasi asta-sekin tushkunlikka uchradi. Er. avv. XIII asr oxiridan axeylarning tushkunligidan foydalanib, shimoldan doriy qabilalari Yunonistonga bostirib kirdi. Doriylar er. avv. XI asrning oxiriga kelib butun Shimoliy va O`rta Yunoniston, Peloponnes yarim orolining katta qismini egallab oldilar. Bu davrda ibtidoiy jamoa tuzumi taraqqiyoti past darajada edi. Dostonlarda aholi qishloqlarda yashab, shahar to`g`risida tasavvurga ega bo`lmagani bayon qilinadi. Xo`jalik natural shaklda bo`lib, aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullanadi. Asosiy ekin tariq edi. Savdo ibtidoiy ayirboshlash holatida edi. Gomer davri yunonlari, hatto, ularning zodagonlari ham kichik, qo`pol qurilgan, poli tuproq, xona o`rtasida gulxan yoqiladigan uylarda yashaganlar. Er. avv. XI asrda xo`jalik hayotidagi bir qancha tushkunlikdan so`ng, temir o`zlashtirilib, xo`jalik hayotini jonlanishi boshlandi. Ammo Yunonistonda unumdor yerlar juda kam edi. Taqchil bo`lgan unumdor yerlarning asosiy qismini donli ekinlar egallay boshlagan. Bog`dorchilik, uzumchilik va zaytun daraxtlarini o`stirish ham yo`lga qo`yilgan. Chorvachilik rivojlangan. Gomer poemalariga ko`ra, qoramol ayirboshlash vositasi bo`lgan. "Iliada"da katta uch oyoqli jez buyum 12 buqaga, mohir usta ayol 4 ho`kizga tenglashtiriladi. Hunarmandchilikda katta o`zgarishlar yuz berdi. Temir keng qo`llanila boshlandi. Jamoada oilalarning birgalikdagi mehnatiga o`rin qolmadi. Temir mehnat quroli mehnat unumdorligini oshirdi. Oila o`z moddiy ehtiyojini o`z mehnati bilan qondirish imkoniyatiga ega bo`ldi.

Erkin dehqon xo`jaligi asosiy ishlab chiqaruvchi bo`ldi. Jamoaning alohida bir ko`rinishi sifatida polis jamiyat tashkilotining asosiy shakli edi. Patriarxal oilaning boshliqlari polis fuqarolari edilar. Har bir oila iqtisodiy mustaqil birlik bo`lib, ular siyosiy teng edilar. Polis tarkibiga shahar va uning atrofidagi qishloqlar kirgan. Jamoada shakllanayotgan urug` zodagonlari jamoani o`z nazorati ostiga olishga urinar edilar. Polis-jamoa asosan asosiy ikki vazifani bajargan: aholini va hududni qo`shnilar bosqini va tazyiqidan himoya qilish va jamoaning ichki munosabatlarini tartibga solish. Hali davlat tashkiloti yuzaga kelmagan edi.

Shu davr oxirida yunon dunyosi dehqonlarni birlashtirgan yuzlab kichik polis-jamoalardan iborat edi. Asosiy iqtisodiy birlik mustaqil xo`jalik yuritish asosida tirikchiligini o`tkazadigan, oddiy turmush kechirib, tashqi dunyo bilan aloqasi bo`lmagan patriarxal oila bo`lgan. Bu dunyoda hali katta yer egalari, yersiz, birovga qaram oilalar, odamlar va jamoa a`zolari yo`q edi.

Kulolchilikda protogeometrik usul shakllandi. Dafn marosimlari o`zgardi. Endilikda tuproqqa dafn etish o`rniga jasadni krematsiya qilish (yoqish) rasm bo`ldi. Er. avv. XI asr oxiridan Kichik Osiyoning g`arbiy qirg`og`ida yunon qo`rg`onlari paydo bo`lib, ularning aholisi eoliy, ioniy, va doriy shevalarida so`zlashgan. Yunonlar oqsoqollar saylab qo`yiladigan urug` jamoasida

yashaganlar. Ayrim paytda urug`lar o`zlariga tegishli biror-bir umumiy masalani yechish uchun kattaroq tashkilot-fratriyaga birlashganlar. Fratriyalar birlashib, qabila-filni tashkil qilgan. Fratriya va urug` bir umumiy ajdoddan kelib chiqqan. Urug` boshliqlari bilan bir qatorda, fil va fratriyaning Gomerda filobasiley deb eslatiladiganyo`lboshchilaribo`lib, urug` boshliqlari ularga o`z hokimiyatlarining bir qismini berganlar.

“Odissey” va “Iliada” dostonlarini o`qiganda, yunon jamoasidagi mulkiy tabaqalanishni, urug`chilik munosabatlarini zaiflashganini, basileylar bilan hokimiyatga intilayotgan ko`p sonli zodagonlar qatlamini shakllanayotganini kuzatish mumkin. Poemalarda temirchi, tosh teruvchi, duradgor va kema yasovchilar to`g`risida hikoya qilinadi. Erkin kishilar bilan bir qatorda, qullar ham mehnat qilganlar. Qulchilik hali xonaki shaklda ko`rinadi. Ularning soni ko`p emas edi. Xo`jayin qul bilan yonma-yon jismoniy mehnat qilishdan hali jirkanmagan. Odisseyning otasi Laert yerga ishlaydi. Uning xotini Penelopa kalava yigiradi. Navsakiya kir yuvadi. Odissey sol, Paris butun bir saroy qur`adi. Odisseyning xo`jaligida 50 qul bo`lgan. Gomer o`tmish qahramonlarini sharaflab, o`zi yashagan davrning mavjud ijtimoiy tabaqalanishining hayotiy tasvirini chizadi. Troyani qamal qiluvchilar bilan yo`lboshchi Agamemnon o`rtasida unga qarshi norozilik tug`diruvchi, o`jar Tersit obrazining kelib chiqishi voqeasida ijtimoiy hayotni ko`rish mumkin. Olimp xudolariga borib taqaluvchi yo`lboshchi podshohlar bilan oddiy xalq ommasini o`rtasidagi yetilib kelayotgan qarama-qarshiliklar bu kichkina bir epizodda o`z aksini topgan.

**6. Kiklad madaniyati.** Kiklad Krit shimolidagi Egey dengizidagi ko`pgina orollar majmuasidir. Ularni yunonlar “kikladlar” ya`ni “aylana” deb atashgan. Kiklad orollarida qadimda kariy va leleklar yashaganlar. Ularga Krit orolidan ko`chib kelganlar qo`shilgan. Aholi uzumchilik va hunarmandchilik bilan shug`ullangan. Kiklad orollari bilan Egey havzasidan chekkadagi o`lkalar bilan dengiz savdosi alohida o`rin tutadi. Kema egalari, hunarmandlar, savdogarlar orol ijtimoiy hayotida yetakchi o`rinni egalladilar. Tadbirkor, uddaburon savdogar, boy hunarmand va kemasozlar dengiz savdosining tashkilotchilari edilar. Kiklad orollari aholisi katta-kichik, pishiq qilib qurilgan bir-ikki qavatli uylardan iborat shahar ko`rinishidagi kichik manzilgohlarda yashaganlar. Kichik shaharchalar jamoa asosida xalq yig`inlari orqali boshqarilgan deb taxmin qilinadi. Shaharchalar odatda dengiz qirg`oqlarida, port yaqinida qurilgan. Port yaqinida maydon bo`lgan. Bu yerda bozor bo`lib, savdo va boshqaruv ishlari muhokama qilingan. Kiklad orollarida er. avv. XVI-XV asrlarda Knoss hukmronligi o`rnatildi. Knossga qaramlik o`lpon to`lash bilan cheklanib, Kiklad o`ziga xos madaniyatni saqlab qoladi. Ammo er. avv. XV asr o`rtalarida Fera orolida otilgan vulqon Kiklad orollari halokatiga sababchi bo`ldi. Dengizda ko`tarilgan ulkan sunami dengiz qirg`og`idagi shaharlarni vayron qildi. Vulqon kuli inshootlarni olov ichiga soldi. Ko`plab kishilar halok bo`ldi. Vulqon otilgandan so`ng, to`zib ketgan aholi va vayrona orolchalar Peloponnes va Bolqon Yunonistonining boshqa hududlaridan kelgan axeylar o`ljasiga aylandi.

Kiklad madaniyati uch yirik davrga bo`linadi:

1. Qadimgi Kiklad davri (2700-2300-yillar).
2. O`rta Kiklad davri (2300-1500-yillar).
3. So`nggi Kiklad davri (1500-1100yillar).

XIX asr oxiri XX asrdan Egey dengizi orollarida ham faol arxeologik qazilma ishlar olib borildi. Ingliz arxeologlari Antikoros orolidan jez davri yodgorliklarini topdilar. Shundan so`ng, Melos, Seros, Spornos, Loros va Naksos orollarida arxeologik qazish ishlari olib borildi. 1932-yil yosh yunon arxeologi Spiridon Marinotos Minos orolining yirik porti Amnissni topdi. U arxeologik ishlarda Strabonning “Geografiya” asaridan keng foydalandi. 1967yil arxeologlar Fera oroligidan Akrotir shahrini topishdi. U Egey Pompeyasi deb ataldi. Vulkan kullari ostidan vulqon otilishi oqibatida halok bo`lgan shahar qoldiqlari topildi. Qazishmalar natijasida tosh tashalgan ko`chalar, katta inshootlar, uylarning ikkinchi va uchinchi qavatlar va ularga boradigan zinapoyalar saqlanib qolgan. Inshootlar devorlariga ajoyib tasvirlar tushirilgan: ko`k rangli maymunlar, antilopalar tasviri, ikki kurash tushayotgan bola, ularning birini qo`lida maxsus qo`lqop. Qizil, sariq va yashil rangdagi ot va mox o`ti bosgan qoyalar, sariq poyalardagi qizil nilufarlar, ularning ustidan uchayotgan qaldirg`ochlar. Boshqa tasvirda shaharning ko`rinishi va ko`p kemalar suzayotgan dengiz tasvirlanadi.

Kiklad madaniyati jez davri madaniyati bo`lib, orollardan jezdan yasalgan mehnat qurollari, sopol buyumlar, zeb-ziynatlar topilgan. Rassomchilikda freska tasvir san`ati yuksak rivojlangan. Kiklad madaniyati yodgorliklarida Kichik Osiyoning ta`siri ko`rinadi.

Alohida tsivilizatsiyalar savdo va turli aloqalar orqali bir – biriga ta`sir etgan.

A. Klassik davr tsivilizatsiyalari bir birlarini xudulariga chegardosh bo`lib, doimo o`zaro ta`sirda bo`lib kelgan.

1. Yunoniston madaniyati Fors va Rim madaniyatlariga ta`sir etganligini ko`rishimiz mumkin.

Alohida tsivilizatsiyalar savdo va turli aloqalar orqali bir – biriga ta`sir etgan.

A. Klassik davr tsivilizatsiyalari bir birlarini xudulariga chegardosh bo`lib, doimo o`zaro ta`sirda bo`lib kelgan.

1. Yunoniston madaniyati Fors va Rim madaniyatlariga ta`sir etganligini ko`rishimiz mumkin<sup>51</sup>.

**Tayanch tushunchalar:** Krit-Miken, A. Evans, G. Shliman, Troya, Knoss, Minoy, Kiklad, Fessaliya, Beotiya, Kiferon, Ellinizm, memuar asar, polislar, shahar-davlat, olimp xudolari, Freska tasviri, suveren davlat. Fest, Malliya, saroylar davri, “parijlik ayol”, protogeometrik usul, krematsiya, Messara, Vasilika, Agamennon qabri, Axaya, Ealiy, doriy, ioniy, fratriya, Odissey, S. Maritonos, Kiklada, Gumbazli qabr, Miken yozuvi, “antilopalar” tasviri.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

---

<sup>51</sup> Peter N. Stearns. A Brief History of the World. Part I. THE TEACHING COMPANY. New York. 2007. p. 41.

1. Nima uchun yunon tarixini o'rganish uchun zarurat tug'ildi?
2. Krit-Miken madaniyati nimani anglatadi va nimani o'rganadi?
3. Yunonistonning tabiiy sharoiti xususida qanday fikrdasiz?
4. Gomer kim va uning qanday asarlari mavjud?
5. Qadimgi yunon mustamlakachiligi tarixi xususida nimalarni bilasiz?
6. Yunoniston tarixiga oid qanday memuar asarlarni bilasiz?
7. Kiklad madaniyati qaysi davrga oid?
8. Krit saroyi hayoti tasvirlangan manbalarni taxlil eting.
9. A.Evansning arxeologik tadqiqotlarini taxlil eting.
10. Genrix Shliman kashfiyoti va uning xalqaro ahamiyati.
11. Miken madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini yoritib bering.
12. Gomer davri Yunonistonga tegishli manbalarni davralashtiring.

### **Ma`ruza №22,23**

#### **Mavzu: Er.av. IX-VI asrlarda Attika. Reja:**

1. Qadimgi Attikara tegishli manbalar.
2. Yunon polisining shakllanishi va uning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Shaharlar va pul-tovar munosabatlari taraqqiyoti.
4. Davlat qurilishi.
5. Buyuk kolonizatsiya.
6. Tiraniya.

**Qadimgi Attika. Manbalar.** Boshqa savdo-hunarmandchilik polislariga nisbatan tarixiy traditsiyada eng shuhrat qozongan Afina polisi boshliq Attikaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatdan tez taraqqiyoti bir muncha keyinroq boshlangan. Lekin tez orada Afina ulardan o'zib va uzoq vaqtgacha Gretsiyaning savdo-hunarmandchilik va madaniy markazi bo'lib kelgan.

Er.av. VII asrlardan boshlab Afinaning davlat tuzumi taraqqiyoti tarixini Aristotel o'zining "Afina politiyasi" degan mashhur traktatida tasvirlagan. Geradot bilan Fukidit ham bu davr haqida o'z "Tarix"larida qisqacha yozib qoldirganlar. Plutarx er. avv VI asrning boshlarida yashagan Afina qonun chiqaruvchisi Solonning tarjimai holini yozgan. Obidalaridagi birmuncha yozuvlar, tangalar va boshqa arxeologik manbalar ham saqlanib qolgan.

Attika O'rta Gretsiyaning Egey dengizi sohilidagi toshloq yarim oroldan iborat. Attikada serhosil yerlar kam, ammo kulolchilik buyumlari yasaladigan yaxshi gilvata, kumush, qo'rg'oshin, marmar serob. Tabiiy sharoiti tokzorlar, zaytunzorlar barpo qilish uchun juda qulay. Bir necha qulay buxtasi ham bor. Oziq-ovqat mahsulotlarining yetishmasligi azaldan Attika aholisini hunarmandchilik va dengiz savdosi bilan o'z hunarmandchilik buyumlarini jumladan, sopol idishlarini arpa va bug'doyga almashtirib olish bilan shug'ullanishga majbur etgan.

Krit-mikena va gomer davrlariga borib taqaladigan rivoyatlar bizga ko'pdan-ko'p urushlar bo'lganligini va bu urushlar davomida Afina atrofida Attikada yashovchi ion qabilalarining asta-sekin birlashuvi (yunoncha-“sinoykism”) yuzaga kelganligini xabar qiladilar. Afsonalarga ko'ra er. av. II ming yillikdayoq sinoykismni (birlashuvni) Tesey amalga oshirgan. Shu bilan birga Tesey erkin aholini uch toifaga: yevpatritlarga (ya'ni, nasl-nasabi olijanob bo'lgan aristokratlarga), geomorlarga (yer uchastkalariga egalik qiluvchi dehqonlarga) va demiurug'larga (xalq uchun ishlovchi hunarmandlarga) bo'lgan. Bu toifaviy bo'linishda mehnat taqsimoti va qadimgi jamoaning parchalanishi aks ettirilgan edi. Xaqiqatda sinoykism keyinroq er. av. VII asrda, qo'shni Elevsin shahrini Afinaga qo'shib olish bilan tamomlangan edi.

Rivoyatlarga ko'ra, eng qadim zamonlarda Afinada basileylar xokimlik qilgan. Basileylarning qarorgohi dengizdan bir necha chaqirim narida joylashgan qoya tepasida istexkom bilan o'ralgan Akropolda bo'lgan (11-rasm). Basileylar hokimiyati asta-sekin zodagonlar kengashi tomonidan cheklanib borilgan. Bu zodagonlar kengashi tabaqaviy jamiyatga o'tayotganda kuchayib ketgan nasl-nasabli aristokratlarning –yevpatridlarning manfaatlarini himoya qilgan.

Biroq basiley mansabi Afinada hech qachon bekor qilinmagan bo'lsa-da, u o'z siyosiy ahamiyatini asta-sekin yo'qotib borgan. Ijtimoiy taraqqiyot ilgarilab borgan sayin tobora murakkablashgan boshqarish funktsiyalari yangi vazifalarning paydo bo'lishiga olib kelgan. Zodagonlar kengashi bu vazifalarni endi basileylar zimmasiga yuklamagan, balki ularni bajarish uchun yangi lavozimlar ta'sis etgan. Harbiy ishning murakkablashuvi munosabati bilan mahsus askarboshilik – polemarchlik lavozimi ana shu tariqa paydo bo'lgan. Basileyning vazifalari doirasidan harbiy qo'mondonlik lavozimining olib tashlanishi uning obro'sini juda to'kib qo'ygan.

Yangi mansabdor shaxs arxond (ya'ni, boshliq yoki el og'asi) er. av. IX – VIII asrlar davomida Afina aristokratiya polisining boshlig'i bo'lib qoladi, ikkinchi o'ringa tushib qolgan basiley mansabi esa vaqt o'tishi bilan faqat diniy vazifalarni bajaradigan bo'lib qoladi. Bu mansablarning hammasiga xalq yig'ini avval umrbod, so'ngra o'n yillik muddati bilan aristokratlar urug'idan bo'lgan shaxslarni saylab qo'yadi. Er. av. VII asrning birinchi choragida bu mansablar bir yillik bo'lib qolgan.

Qonunlarni yozish uchun bir yil muddatga olti fesmofetdan iborat kollegiya saylanganligi haqidagi xabarda demos bilan aristokratiya o'rtasida boshlangan kurashga sal ishora qilib o'tilgan. Biroq, qonunlar uzoq vaqtgacha hamon yozilmay qolgan. Bunga og'izdan o'tib boruvchi an'analarga binoan sud ishlarini olib borgan yevpatridlar qarshilik ko'rsatishgan. Hukmronlik qiluvchi aristokratlar, agar qonunlar yoziladigan bo'lsa, bizning cheksiz hokimiyatimizga putr yetadi, deb o'ylaganlar. Olti fesmofet bir yillik muddatga muntazam ravishda saylanadigan sudyalarga aylanganlar. Arxont basiley va polimarxdan iborat eski kollegiya ular bilan to'ldirilgan va bu kollegiya endi

to'qqiz arxont kollegiyasi deb atala boshlagan. Birinchi arxont arxont-eponim nomini olgan, ya'ni u saylangan yil uning nomi bilan belgilanadigan bo'lib qolgan.

Afinadagi xalq yig'ini ham, boshqa polislardagi singari, mustaqil emas edi. Afina aristokratlarining oliy qonun chiqaruvchi va sud organi yuqorida aytib o'tilgan zodagonlar kengashi bo'lib, bu kengash urush xudosi Aresga atalgan Akropol yaqinida joylashgan tepa ustida – Areopogda majlis qilgan. Shuning uchun kengashning o'zini ham arxontlikka navbatdagi nomzodlarni tavsiya qilgan. Arxontlar saylanganlaridan keyin o'z faoliyatlarida mazkur organ oldida javobgar bo'lganlar, hokimiyat teppasida bir yil turganlaridan keyin, ular kengashning yangi a'zolari bo'lib qolganlar.

**Buyuk kolonizatsiya.** Er. avv. I ming yillikning boshlarida ilk bor finikiyaliklar begona hududlarda o'zlarining tayanch nuqta (koloniya)larini barpo qila boshladilar. Finikiyaliklardan so'ng, yunonlar ham bu jarayonda faol ishtirok etdilar. Koloniyalar begona hududlarda ularni tashkil etgan finikiyalik vayunon savdogarlari uchun savdo-sotiq olib boriladigan tayanch nuqtalar bo'lib xizmat qilgan. Bu koloniyalar asosano'rtayerdengivaqoradengizatroflarida joylashgan. Yunonlarning koloniyalarni barpo qilish faoliyati er. avv. VIII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Bu vaqt Buyukyunon kolonizatsiyasi davri deb ataladi.

Koloniyalarni barpo qilishning bir necha sabablari bor edi. Birinchi navbatda, Yunonistonning bir necha viloyatlarida aholining haddan tashqari ko'payib ketganligi edi. Arxaik davrining boshlanishida aholi sonining keskin o'sishi natijasida demografik portlash yuz berdi. Ishlab chiqarish kuchlarining zaif rivojlanishi oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarning taqchilligiga olib keldi. Yunonistonning o'zida dehqonchilik qilish uchun yaroqli bo'lgan yerlar deyarli yo'q edi. Shu sababli, aholining ortiqcha qismi begona hududlarga ko'chib ketib, yangi yerlarni o'zlashtirishga majbur bo'ldi.

Buyuk yunon kolonizatsiyasining yana bir ijtimoiy sababi bor edi. Kambag'allashgan jamoachi dehqonlar o'zlarining boyib ketgan zodagon qarindosh (evpatrid)lariga qarzi uchun qul bo'lishni xohlamadilar. Ular o'zlarining qarzlari uchun garovga qo'yilgan bir parcha yerlarini tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Ular uchun yagona yo'l boshqa hududlarga ketish edi. Arxaik Yunonistonning shaharlari bu vaqtda yirik iqtisodiy markazlarga aylandi. Savdo iqtisodiyotning asosiy sohalaridan biriga bo'ldi. Bu shaharlarning boy savdogarlari chet mamlakatlarga boradigan yo'llarda o'mashib qolish uchun savdo koloniyalari barpo qilishga harakat qildilar.

Yunon shaharlaridagi tabaqaviy ijtimoiy-siyosiy kurash kolonizatsiya jarayonini yana bir sababi edi. Shaharlarning iqtisodiy taraqqiyoti tabaqalanishni kuchaytirdi. Shahar aholisining turli tabaqalari o'rtasida ijtimoiy-siyosiy kurash kuchayib ketdi. Yengilgan guruh shaharni tashlab ketishga majbur edi. Shuningdek, savdo-hunarmandchilikning rivojlanishi xomashyoga bo'lgan ehtiyoj va tayyor mahsulotni sotish uchun yangi hududlarni izlab topish zaruriyatini tug'dirdi.

Bundan tashqari, arxaik davrda Yunonistonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan viloyatlarida. fuqarolarni qarzi uchun qul qilish qonun bilan ta'qiqlangan edi. O'sib borayotgan iqtisodiyot uchun arzon ishchi kuchi-qullarga bo'lgan talabni qondirish uchun begona hududlardan qullarni olib kelish boshlandi. Yunon kolonistlari ko'p hollarda yangi qul bozorlarining tashkilotchilari bo'ldilar.

Buyuk kolonizatsiya deb atalgan jarayon bilan bog'langan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar qadimgi Yunonistonning keyingi taraqqiyotini belgilab berdi. G'arb va Sharqda ko'p sonli yunon kolonniyalarining barpo qilinishi, O'rtayer dengizi savdosidan finikiyaliklarning siqib chiqarilishi yunon savdosining o'sishi, hunarmandchilikning yuksak taraqqiyotiga olib keldi. Tovar sotish bozorlari, hunarmandchilik mahsulotlari hajmi kengaydi. Ishchi kuchiga yanada ehtiyoj kuchayib, qullarning soni o'sdi. Ellada iqtisodiyotining barcha sohalarida qul mehnati yetakchi o'ringa chiqa boshladi. Zodagon oligarxiya ayrim polislarda boshqaruvni xalq tomonidan hokimiyat tepasiga chiqarilgan, o'z shaxsiy hokimiyatini o'rganishga erishgan kuchli va faol shaxslar bo'lgan tiranlarga topshirishga majbur bo'ldi. Er. avv. VI asrda arxaik davrning tugashi davrida ba'zi bir polislarda demokratik qurilishning ilk asoslari qurildi.

Yunonlar begona hududlarda ba'zida mahalliy aholining qarshiligiga duch keldilar, ba'zida do'stona aloqaga kirishdilar. Kiklad, Sporada orollari va Kichik Osiyo qirg'oqlarini qadimdayoq yunonlar o'zlashtirgani sababli, er. avv. VIII asrda aholining ko'chishi g'arbda Sitsiliya va Janubiy Italiyaga, shimoliy-sharqda Qora dengiz qirg'og'iga tomon yo'naldi. Misr va Kirenaika ham o'zlashtirildi. Janubiy Italiya er. avv. VIII-VI asrlarda kolonizatsiya qilindi. Bu yerdagi kolonistlar o'zalarining kelib chiqishlarini Pelepponnes axeylaridan deb hisoblar edilar.

Er. avv. VII-VI asrlardagi kolonizatsiya jarayonida barpo qilingan yunon shaharlari bir necha yo'nalishda rivojlandi. Janubiy Italiyadagi shaharlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga, Qora dengiz bo'yidagi Milet koloniyalari savdoga ixtisoslashgan edi.

Janubiy Italiyada Metapont va Sires, Sibaris, Posidoniya kabi yunon shaharlari qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanar edi. Bu yerda spartaliklar asos solgan Tarent shahri koloniyalar orasida yetakchi o'rinni egalladi. Shahar Sparta shevasini va boshqaruv uslubini to'liq saqlab qoldi.

Sitsiliya orolida Evbey Xalkidasi yunonlari er. avv. 735-yil atrofida Naksos, Katanu va Leontiano, Zankli (keyingi Messina) hamda Regiy koloniyalarini barpo qildilar. Shimolda Gaetan qo'ltig'ida Qum shahriga asos solindi. Loklar Italiyaning Zefir burnida Zefir Lokri (hozir Kap Spartivento)ni, Korinf aholisi Sitsiliyaga vaqt o'tishi bilan yunon g'arbini bosh markazi va metropoliya rolini o'ynagan Sirakuza koloniyasini barpo qildilar. Sirakuza o'z navbatida, Akr va Kamerina koloniyasini barpo qildi. Megara Gibliya Megarasi va Seluninga, rodosliklar Agrigent shahriga asos soldilar. Shunday qilib, yunonlar Sitsiliyaning sharqiy va janubiy qismini egalladilar. Orolning g'arbida bu yerga yunonlardan

ilgari kelgan finikiyaliklar hukmronlik qilgan. Vaqt o'tishi bilan orolning g'arbida Finikiya yerlari qisqarib, faqat Finikiyaning uch nuqtasi:

Solunt, Panorm (hozirgi Palermo) va Motiya qoldi.

Er. avv. VI asrda yunonlarning Italiya va Sitsiliya koloniyalari gullabyashnadi va Bolqon Yunonistonidan ko'ra, savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik yuqori darajada rivojlanib, Buyuk Yunoniston nomini oldi. Bu koloniyalarning gullab-yashnashining asosi yaxshi yo'lga qo'yilgan qishloq xo'jaligi, savdo-hunarmandchilik edi. Sitsiliya va Italiyadagi yunon koloniyalaridan g'alla Yunoniston va Kichik Osiyoga chiqarildi. Er. avv. VII asrda Liguriya qirg'og'idagi Rodan daryosi havzasida fokiyaaliklar Massiliya (hozirgi Marsel), Janubiy Italiyada Eleya shaharlariga asos soldilar.

Sharqda Xalkidika yarim oroli Evbeydagi Xalkida aholisi tomonidan, Epir qirg'og'idagi (hozirgi Korfu) Kerkira oroli korinfliklar tomonidan bosib olindi. Korinfliklar Ambrakiy qo'ltig'ida Ambrakiya va Anaktorn; Illiriya qirg'og'ida Appoloniya va Epidamn koloniyalariga asos soldilar.

Qora dengiz qirg'oqlarida Kichik Osiyodagi yunonlarning eng kuchli savdo markazi Miletning fuqarolari o'nlab koloniyalarni barpo qildilar. Abidos, Sinop, Koteo, Kerasun va Trapezund; Qora dengiz shimoli, shimoliy-g'arbiy qirg'oqlarida Ol'viya, Appoloniya, Odessa, Toma, Tira, Feodosiya; Bosforda Kalxidon (megaralilar asos solgan); Qora dengizning Yevropa qirg'og'ida Vizantiy, Gerakleya koloniyalari qad ko'tardi. Bu koloniyalarning asosiy mashg'uloti savdo-hunarmandchilik va dehqonchilik edi. Qora dengiz shimolidagi yunon koloniyalari o'z vatanlariga eksport qildilar.

Er. avv. VII asrda Misrda ham yunonlarning tayanch nuqtalari vujudga keldi. Bu yerda Navkratis koloniyasi barpo qilindi. Shimoliy Afrikada Liviya qirg'og'ida shoir Kallimax va olim Eratosfenning vatani Kirenaga asos solindi. Ammo yunonlarning g'arbga siljishini Karfagen, janubiy-sharqda esa, Misr to'xtatdi.

**Tiraniya.** Yunonistonda er. avv. VIII-VI asrlarda xo'jalik hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar siyosiy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Savdohunarmandchilik ishlab chiqarishining ilk rivoji hukmron tabaqa katta yer egalari oqsuyak zodagonlarga qarshi turgan kuchli, ko'p sonli savdohunarmandlar qatlamining paydo bo'lishiga olib keldi. Milet, Efes, Korinf, Sikion, Megara, Afina shaharlari, Samos, Lesbos va Sitsiliya orollarida iqtisodiy o'sish kuchli edi.

Aynan shu joylarda kuchli, siyosiy faol shaxslar hokimiyatni noqonuniy zo'ravonlik bilan bosib oldilar. Hokimiyatni noqonuniy, zo'ravonlik bilan egallab boshqarish shakli "tiraniya" paydo bo'ldi<sup>52</sup>.

One kind was rule by a popularly approved political head of the city, whom the Greeks called a tyrannis ("tyrant"). Another was rule by a small number of wealthy and powerful citizens—the oligoi, meaning "the few" in Greek (hence "oligarchs" and "oligarchies").

---

<sup>52</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.193.

Tiraniya er. avv. VII asrda ayrim yunon shaharlari (Korinf, Sikion, Milet, Efes, Afina, Serakuza, Megara, Argos)da keng tarqaldi. Zodagonlar ichidan chiqqan tiranlar urug` zodagonlari va xalq hokimiyatini keskin rad qildilar. Hokimiyatni bosib olgan tiranlar o`zlarining raqiblari bo`lgan oqsuyak urug` zodagonlariga qarshi shafqatsiz kurashdilar. Chunki bu vaqtda urug` zodagonlari jamoa-polisning eng uyushgan hamda boy va ta'sirli qismi edilar. Shu sababli, tiranlar o`zlarining shaxsiy hokimiyatlari uchun eng xavfli deb, zodagonlar hokimiyatini hisoblar edilar.

Tiranlar o`z hokimiyatlarini kuch bilan ushlab turgan holda urug` aslzodalarning siyosiy-iqtisodiy hukmronligini zaiflashtirdilar. Tiranlar aslzodalarning kuch-qudratini zaiflashtirib, demosni kuychaytirdilar va o`zlari istamagan holda hokimiyatlarining halokati uchun qulay shart-sharoit yaratdilar. Omma ichida mustahkam tayanchga ega bo`lish uchun tiranlar kambag`al qatlamlarni tirikchilik o`tkazishi uchun shart-sharoitlar yaratdilar. Ular aholini ish bilan band qilish maqsadida yo`llar, kanallar, binolar qurilishi kabi jamoat ishlarini uyushtirdilar. Savdo-hunarmandchilik va qishloq xo`jalik sohalarini bevosita qo`llab-quvvatladilar. Tiranlar madaniyat-ma`rifat, qadimiy urf-odat, an`ana va diniy e`tiqodlarni rag`batlantirdilar. Ularning hukmronligi davrida yunon polislari o`zlarini buyuk kelajaklari poydevorini qo`ydi (AfinaPisistrat davrida, Sirakuza-Gelon davrida). Korinf va Samos shaharlarining gullab-yashnashiga tiranlar sababchi bo`ldilar. Tiranlar boshqaruvga o`z qarindosh-urug`larini tortdilar. Ular boshqaruvda yollanma qo`shinlardan foydalandilar.

Yunon shaharlarida demos ma`lum darajada kuchga to`lganidan so`ng, o`zlari yoqtirmagan tiranlarni hokimiyatdan yengil qutildilar. Tiraniya urug` zodagonlari bilan kurashda yetakchi rol o`ynab, er. avv. V asr boshlarida deyarli hamma joyda polis tuzumini o`rnatilishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib berdi va hokimiyatni topshirib, siyosiy sahnadan chiqib ketdi.

**Yunon polisining shakllanishi va uning o`ziga xos xususiyatlari.** Qadimgi yunon jamiyatining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy tashkilotining asosiy shakli polis edi. Polis bu jamoani alohida tipi bo`lib, dehqon va shahar aholisini o`zida birlashtirgan yerga ishlovchilar-fuqaro jamoasi edi.

Yunon polisining asosini, uni taraqqiyoti va shakllanishini belgilaydigan asosiy shartlari quyidagicha edi: Eng avvalo, davlat va xususiy mulk birlashgan antik mulkchilik shakli edi. Yunon jamoasi a`zosi bo`lgan fuqaro yerga egalik qilish huquqiga ega edi. Har bir fuqaro polis hududida yer ulushiga ega bo`lishi shart edi. Yerga egalikning oliy huquqi fuqarolar jamoasiga tegishli edi.

Polis tashkilotining ajralmas qismi fuqarolik muassasasi edi. Polis aholisi to`la huquqli fuqarolar, to`la qonli huquqga ega bo`lmagan va huquqi bo`lmagan aholi toifalaridan iborat edi. Polis jamoasi tarkibiga kirgan fuqarolar iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy huquqlarning majmuasiga ega edilar. Faqat polis fuqarolarigina aholining imtiyozli qismini tashkil etar edi.

Fuqaroning asosiy ramzi ozod kishi mavqei edi. Yunon fuqarolik mavqeini fuqaro ota-onadan tug`ilishi bilan olar edi. Fuqarolik huquqini boshqa polisdan

kelganlarga sovg'a qilishga faqat polisning xalq yig'ini haqli edi. Oligarxiya hukmron bo'lgan polislarda fuqarolik mavqeiga ega bo'lish uchun fuqaro mulkiy senz, yerga egalik, og'ir qurol-aslahasi mavjudligi shartlarini bajarishi lozim edi. Polisning iqtisodiy asosini qishloq xo'jaligi, yerga fuqaroning erkin mehnat qilishi tashkil etar edi. Yerga egalik, dehqonchilik uzoq vaqt polis fuqarosining imtiyozi bo'lib qoldi. Polis fuqarosidan boshqa hech kim uning hududida yerga egalik qilish huquqiga ega emas edi. Polis fuqarolar jamoasiga tegishli jamoa yerlariga egalik qila olmas edi.

Har bir fuqaroning eng muhim huquqi va bir vaqtning o'zida majburiyati, bu uning o'z polisining himoyasiga shaxsan ishtirok etishi edi. Uncha katta bo'lmagan yunon polislari muntazam qo'shin saqlash qobiliyatiga ega emas edilar. Shu sababli, uning himoyasi fuqaro-erkaklar zimmasida edi. Qo'shinning asosini tashkil qilgan og'ir qurollangan falangani o'rta hol fuqaro-dehqonlar tashkil etar edi. Yunon polisining ajralmas qismi-fuqarolik jamoasida o'z-o'zini boshqarish edi. Xalq yig'ini, kengash, sud va ijroiya hokimiyati lavozimlari fuqaro jamoasining qo'lida bo'lib, hech qachon undan ajralmadi.

Polis jamiyatida barcha huquqiy normalar manbasi xalq yig'inida ishlab chiqilgan qonun edi. Fuqarolarning qonunlarni ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirishdagi ishtiroki ajralmas huquq edi. Shunday qilib, polis fuqarolik jamoasi a'zolari bo'lgan shahar va qishloq aholisi uyushgan yopiq jamoani tashkil qilib, o'z imtiyozlari va huquqlarini qat'iy saqlab, himoya qilar edi. Polis hududi shahar va uni atrofidagi qishloqlarni o'z ichiga olgan. Yunon polisi o'z hududiga ko'ra, uncha katta bo'lmagan 100-200 kv. km hajmdagi maydonni egallagan. Har bir polis aholisi 5 mingdan 10 ming kishigacha bo'lgan jamoani tashkil etib, ulardan taxminan 1-2 ming kishi fuqarolik huquqiga ega bo'lgan. Faqat polislardan eng kattalari bo'lgan Sparta maydoni 8400 kv. km; Afina 2500 kv. km ni tashkil etar edi.

Har bir yunon polisi suveren davlat bo'lib, o'z fuqaroligi, qonunlari, hokimiyat organlari, ibodatxona, teatr, xalq yig'ini o'tadigan maydoni, palestr, gimnasiy va stadion kabi jamoat inshootlariga ega edi. Yunon polislarning barchasi Spartadan tashqari, shahar atrofida birlashgan bir necha qishloq majmuasi edi. Sparta 5 qishloq birlashgan polis edi. Har bir polisdagi vaqt o'tishi bilan polis tuzilmasi tugallangan shaklni oldi va barqaror fuqarolik siyosiy tashkiloti (demokratiya yoki oligarxiya) shaklida faoliyat ko'rsata boshladi.

**Shaharlar va pul-tovar munosabatlari taraqqiyoti.** Er. avv. VII asrda Yunon shaharlarida savdo-hunarmandchilik tez sur'atlarda taraqqiy qildi. Shaharlar sezilarli darajada o'sdi. Korinf va Afinada 25 ming, Miletida 70 ming, Sibaris shahrida 50 ming kishi yashar edi.

Barcha shaharlar dengiz savdosi bilan shug'ullangan. Bu kemasozlikning rivojiga sabab bo'ldi. Er. avv. VII asrda palubali ko'p yuk ko'taradigan kemalar paydo bo'ldi. 50 eshkakli Finikiya pentekopterlari bilan bir qatorda "Iliada" dostonida eslatiladigan ikki qatorli eshkaklar – diyeralar, uch qatorli – trieralar paydo bo'ldi. Mahsulot bilan to'la kemani endilikda qirg'oqqa tortib chiqarish

mumkin emas edi. Shu sababli, er. avv. VII asrdan port va gavanlar qurilib, langar (yakor)dan foydalanila boshlandi.

Er. avv. VIII asrda O`rtayer dengizi savdosi finikiyaliklar qo`lida edi. Sharq mahsulotlari mo`l-ko`l bo`lib, yunon mahsulotlari ular bilan raqobat qila olmas edi. Er. avv. VII asrda ahvol o`zgardi. Yunon savdogarlari finikiyaliklar bilan raqobatlasha boshladilar. Yunonlar keramika, gazlama, zaytun va vino eksport qila boshladilar. Pul-tovar xo`jaligi, savdo o`lchov birliklari tizimi va yozuvning shakllanishiga olib keldi. O`lchov birligi, yozuv Bobil va Misrdan o`zlashtirib olindi. Yunonlar Misrning o`nlik sanoq tizmidan foydalandilar. Er. avv. VII asrda ilk bor tanga pul paydo bo`ldi. Birinchi to`laqonli tangalar Kichik Osiyodagi Lidiyada zarb qilindi. Oltin va kumush aralashmasidan iborat elektron deb ataladigan tanga zarb qilindi. Tangalar uzunchoq shaklda, bir tomonida davlat ramzi, ikkinchi tomonida kvadrat tasviri tushirilgan edi. Yunonistonning pul birligini 436,5 gramm og`irlikdagi mina tashkil qilgan. Bir mina 8,73 g og`irlikdagi 50 staterga bo`lingan.

Savdo-hunarmandchilik taraqqiyoti bilan ustaxona egalari va savdogarlardan iborat kuchli ijtimoiy qatlam vujudga keldi. Ular siyosiy hayotdan hukmron urug` zodagonlarini chetlatishga urindilar. Pul-tovar munosabatlari, savdoning rivojlanishi, Italiya, Sitsiliya va Qora dengizbo`yidan arzon g`allaning import qilinishi yunon polislarida qishloq xo`jaligining tushkunligi va g`alla ekadigan dehqonlarning xonavayron bo`lishiga olib keldi. Bu jamiyatda ijtimoiy tabaqalar o`rtasida ziddiyatlarni keskinlashtirdi.

**Davlat qurilishi.** Qadimgi davrda sud ishlarini urug` jamoasining o`zi bajarar edi. Davlat hokimiyati urug`dan bu funksiyani tortib oldi. Zodagonlar uzoq vaqt sud hokimiyati, boshqaruvni o`z qo`llarida saqlab turdilar. Vaqt o`tishi bilan ular bir qism hokimiyatni yangi ijtimoiy kuchlarga berishga majbur bo`ldilar. Yangi ijtimoiy kuchlar bo`lgan savdo-hunarmandlar tabaqasi zodagon sudyalari hokimiyatiga chek qo`yish uchun odatdagi huquqni yozishni talab qildi. Jamiyat yana olg`a qadam tashlab, savdo munosabatlarini muvofiqlashtirishga, majburiy qoidalarini kiritish ehtiyojini tug`dirdi. Qonunlarning eng qadimgi kodifikatsiyasini Lokrada Zalevk (Italiyadagi yunon shahrida) Katanada Xarond (Sitsiliyadagi yunon shahrida) amalga oshirdi.

Yunon shaharlarida odatdagi huquqni yozish va yangilash barchaning hurmatiga sazovor bo`lgan “diallakt”-murosaga kel`tiruvchi yoki “aysyumet”adolatni biluvchi kishilarga ishonib topshirilgan. Yunon an`analariga ko`ra, “yetti donodan biri” Lesbosdagi Mitilena shahrida Pittak, Sirakuzada Diokl, Fivada Filolay, Afinada Drakont va Solon shunday kishilardan edi.

Yangi qonunchilik natijasida sudyalari mansabdor shaxs sifatida saylab qo`yiladigan bo`ldi. Chiqarilgan hukmning xalq yig`inida appelyatsiya (qayta ko`rib chiqish) qilish mumkin edi. Qadimgi qonunchilikda jazo hajmi va xususiyati aniq belgilanib, sudya o`zicha jazo belgilay olmas edi. Huquqiy hujjatlarda “qonga-qon”, “jonga-jon” olish an`anasi mavjud edi (talion huquqi). Jazo juda og`ir edi. Drakont qonunchiligida (er. avv. 622-yil) jinoyatning og`ir,

yengil shakllari yo`q edi. Faqat Solon bu tushunchani kiritdi. Drakont qonuniga ko`ra, har qanday o`g`rilik uchun o`lim jazosi belgilangan. Bundan tashqari, qonunda pul jarimasi, qullikka sotish, kaltaklash va fuqarolik huquqidan mahrum qilish ko`zda tutilgan edi. Qarzini to`lamagani uchun qarzdor turmaga qamashga hukm qilingan. Drakont qonunlari “fonos dikayos”-o`zini himoya qilish maqsadida odam o`ldirish jinoyati tushunchasini olib kirdi. Bu holda aybdor quvg`in qilinishi yoki pul jarimasi to`lashi ko`zda tutilgan. Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi natijasida ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashuvi turli yunon shaharlarida siyosiy vaziyatni murakkablashtirdi. Ularning ko`pchiligida tiranlar hokimiyatni qo`lga oldilar.

Er. avv. VIII-VI asrda Buyuk yunon kolonizatsiyasida Afina qatmashmadi. Attikada mavjud hosildor yerlardan qishloq xo`jaligida unumli foydalanildi. Kulolchilik sohasi rivojlandi. Mulkiy tabaqalanish kuchaydi. Siyosiy hokimiyat yevpatridlar-urug` zodagonlari qo`lida edi. Yevpatridlarga qarshi dehqonlar, savdo-hunarmandchilik tabaqalari-demos qat`iy kurash olib bordi.

**Tayanch tushunchalar:** Koloniya, tayanch nuqta, finikiyaliklar, Kichik Osiyo, Shimoliy Qora dengiz, Sitsiliya, Janubiy Italiya, “qonga-qon”, “jongajon” olish an`anasi, talion huquqi, Misr, Tarent, appelyatsiya, Sirakuza, Milet, diyeralar, trieralar, yakor, 622-yil Drakont qonuni, Navkratis, polis, fuqaro, “fonos dikayos”, Afina, tiraniya, yevpatrid, Pisistrat, aysyument, diallakt, Drakon qonunlari.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Gomer dostonlarida arxaik hayotning tasvirlanishi yoritib bering.
2. Axil qalqoni tasvirida ijtimoiy hayotning aks etishiyoritib bering.
3. Ilk yunon polis-davlati tushkunligiyoritib bering.
4. Yunon kolonizatsiyasining ijtimoiy-siyosiy sabablarini yoritib bering.

### **Ma`ruza№24,25**

#### **Mavzu: Yunon-Eron urushlari. Reja:**

1. Yunon - Eron urushlarining sabablari.
2. Marafon jangi
3. Salamin jangi
4. Fermopil jangi
5. Kalliy sulxi

**Yunon Eron urushlarining sabablari.** Er. av. VI asrning ikkinchi yarmida Eron sharqning eng qudratli davlatiga aylanadi. U qisqa vaqt ichida Qora dengizdan Hind okeanigacha, O`rta yer dengizining sharqiy sohillaridan Hindistongacha bo`lgan yerlarni bosib oladi. Endi eronliklar Yunonistonga ham ko`z olaytira boshlaydilar. Eron qo`shinlari Yunonistonning Qora, Marmar va Egey dengizlari sohillaridagi mustamlakalarini, ular orasidagi yo`llarni va undagi bo`g`ozlarni ham egallaganlar. Bu bilan eronliklar Yunonistonning Qora dengiz

sohillaridagi xalqlar bilan aloqasini uzib qo‘yganlar. Eron qo‘shinlari ilgariroq Misrni ham zabt etgan edi. Natijada, Qora dengiz va Misr tomondan Yunonistonga kelib turadigan g‘alla va boshqa mahsulotlar kelmay qo‘ygan. Eron qo‘shinlari Egey dengizidagi orollarning ko‘pchiligini, shuningdek, uning shimolidagi yerlarni ham istilo qilganlar. Yunoniston sharq va shimoli-sharq tomondan dushman bosqini xavfi ostida qolgan.

Bu vaqtda Yunoniston polislari o‘rtasida birlik yo‘q bo‘lib, ko‘pgina polislari Eron xukmronligini tan olishga tarafdor edi. Ammo ikki polis - Afina va Sparta Eronga itoat etishni xohlamagan. Yunonistondagi bu vaziyat Eron shohi uchun muhim ahamiyatga ega edi.

Er. avv 499 yilda ba‘zi Yunon shahar-davlatlari va Sharqiy O‘rtayer dengizi mamlakatlari Forslarga qarshi ko‘tarildi, Forslar Kichik Osiyoning o‘z hududlaridan yunon orollarigacha bo‘lgan va materik ustidan nazoratni da‘vo qildilar. Bo‘lib o‘tgan 5 yillik kurash davomida ba‘zi yunon jamoalari forslar tomonidan jangga kirdilar va ular mahalliy xalq tomonidan qilmishi uchun qattiq qoralangan.<sup>53</sup>

In 499 BCE, some Greek city-states and others in the easternMediterranean revolted against the Persians, who claimedcontrol over the Greek islands and mainland from their basein Anatolia. During the five-year struggle, some Greek communitiessided with the Persians and suffered condemnation by other Greeks for doing so. On the mainland, farther awayfrom the contact zone, most Greek cities resisted the Persian king’s authority.

Er. av. 492 yilda Eron shohi Doro I o‘z kuyovi Mardoniy qo‘mondonligi ostida ham quruqlikda, ham dengizda Yunonistonga katta qo‘shin yuborgan. SHu tariqa boshlangan urush keyinchalik 150 yilgacha cho‘zilgan raqobatga aylanib ketgan<sup>54</sup>.

So, in 492 BCE, Darius sent his fleet to subdueAthens and Sparta on the mainland, but the ships weredestroyed in a storm. Persian military defeats changed the balance of power. For the next 150 years Persia lost ground to the Greeks.

Quruqlikdagi qo‘shin Gellespont bo‘g‘ozidan o‘tib, yo‘l-yo‘lakay shahar va qishloqlarni vayron qilib, Egey dengizining Frakiya sohili bo‘ylab harakat qilgan. Eronliklarning harbiy dengiz kuchlari sohil bo‘ylab suzib, Fasos orolini bosib olganlar.

Frakiyalik jangovar qabilalar o‘zlarini mudofaa qilib, Xalkidika yarim oroliga yaqinlashib qolgan dushman qo‘shinlarini bir muncha kuchsizlantirganlar. Buning ustiga dengizda dahshatli bo‘ron ko‘tarilib, Eron harbiy kemalarining ko‘p qismi yakson bo‘lgan. Eron qo‘shinlari Yunonistonga yetolmay, dengiz falokatidan omon qolgan kuchlari bilan orqaga chekinishga majbur bo‘lgan. Eron qo‘shinlari orqaga chekingach, Doro I Yunoniston polislari elchi yuborib, ularning Eronga tobe bo‘lishlarini talab qilgan. Ko‘pchilik yunon shahar-davlatlari Eron shohining talabiga rozi ekanliklarini bildirganlar. Fessaliya va

---

<sup>53</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.142.

<sup>54</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.142-145..

Beotiyadagi ayrim polislardagi xoin aslzodalar o'z hukmronliklarini saqlab qolish uchun Eron yordamiga umid bog'laganlar. Ammo Afina va Sparta Doro I ning taklifini rad etgan. Afinada Eron elchilari qoyadan uloqtirilgan. Spartada esa elchilarni yerni ham, suvni ham shu yerdan olsinlar, deb quduqqa tashlaganlar. Shu tariqa Doro I ning butun Yunonistonni o'ziga tobe etish yo'lidagi birinchi urinishi natijasiz tugagan.

Eron shohi Doro I katta tayyorgarlikdan so'ng er. av. 490 yilda Yunonistonga qarshi ikkinchi yurishini boshlagan. Eronning harbiy dengiz floti Kilikiya qirg'oqlaridan suzib, Egey dengizini kesib o'tgan. Eron harbiy dengiz flotiga tajribali qo'mondon Datis va shohning jiyanlari Artaxerxes boshchilik qilganlar. Eronliklar Evbiya oroliga qo'shin tushirib, tezda Eretriya bosib olganlar. Datis o'z qo'shinlarini Attika shahri shimoli-sharqidagi Marafon qishlog'i yaqiniga tushirgan. Marafon Afinadan 42 km masofada joylashgan manzil edi. Eron qo'shinlarining Marafonga tushganliklari haqidagi xabar Yunoniston bo'ylab tez tarqaladi. Yunonistonning ko'pgina polislardagi aslzodalar dushmanga qarshi hech qanday chora ko'rmaydilar. Ammo Afina demosining ko'pchilik qismi vatan uchun hayot-mamot kurashiga o'tlanganlar. Attikada safarbarlik e'lon qilingan. Og'ir qurollangan jangchi-goplitlar lashkari va yengil qurollangan barcha yordamchi qo'shinlar jangovar holatga keltirilgan.

Xalq yig'ini eronliklarning Afinaga hujum qilishini kutib turmasdan jang boshlashga qaror qilgan. Qo'shni Betsiyadagi kichkina Plateya shahrining mingta jangchidan iborat askarlari ham Afina qo'shinlariga kelib qo'shiladilar. Afina qo'shiniga 10 sarkarda va bir arxontpolemark navbat bilan qo'mondonlik qilgan. Afina yordam so'rab, Sparta chopar yuborgan. Ammo spartaliklar to'lin oy chiqmasdan turib, yordamga kela olmasliklarini bildirganlar. Afinaning jangovar qo'shiniga Miltiades qo'mondonlik qilgan kun u butun lashkarni jangovar tartibda saqlagan va eronliklarga qarshi hujumga o'tgan. Marafon yonida hayot-mamot jangi bo'lgan. Yunon qo'shinlari Eron qo'shinlariga qaraganda kam bo'lishlariga qaramay, bu jangda g'olib chiqqanlar. Yunonlar Eron qo'shinlarini Egey dengizining sayozligida batamom yakson etganlar. Yunon qo'shinlari eronliklarning yetti kemasini qo'lga tushirganlar, boshqa kemalar qochib qolgan.

Marafon yonida g'alabani Afinaga yetkazish uchun bir chopar 42 km masofani chopib o'tgan. Chopar Afina ostonalari yugurib kelib, "Quvoning, biz yengdik!", deb shu zahoti yuragi yorilib, jon bergan. Rivoyatlarga ko'ra, marafoncha yugurish ana shundan qolgan ekan.

Marafon mag'lubiyatidan keyin eronliklar Afinaga yana hujum qilishga harakat qilgan bo'lsa-da, afinaliklarning kuchli mudofaasini ko'rib bunga jur'at qilmaganlar.

Er. av. 486 yili Eron shohi Doro I vafot etadi. Shundan keyin Eron taxtiga uning o'g'li Kserks o'tiradi. Kserks mamlakatdagi qo'zg'olonlarni bostirib, Yunonistonni bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bu davrda Yunonistondagi polislari va siyosiy guruhlar orasida parokandalik davom etardi. Lekin Afina urushga tayyorgarlik ko'rib, quruqlikdagi qo'shinni va dengiz flotini

jangovar holatga keltirib qo'ygan edi. Eron bilan urush xavfi yaqinlashgach, yunon polislari o'zaro janjallarni yig'ishtirib, birlashishga ahd qilganlar. Er. av. 481 yilda Afina bilan Sparta o'rtasida ittifoq tuzilib, unga boshqa polislar ham qo'shiladilar.

Er. av. 480 yilning ko'klamida eronliklarning Yunonistonga qarshi uchinchi yurishi boshlanadi. Qo'shinga Kserksning o'zi boshchilik qiladi. Uning qo'shini eronliklardan tashqari, turonliklar, ossuriyaliklar, bobilliklar, misrliklar, Kichik Osiyo yunonlari va boshqa xalqlardan olingan jangchilardan iborat edi. Finikiyaliklar esa eronliklarga harbiy kemalar yasab berganlar.

Er. av. 480 yilda Eron qo'shini va floti ham quruqlikdan, ham dengizdan Yunoniston ustiga bostirib kiradi. Kserks qo'shini jang qilmay Shimoliy Yunonistonni ishg'ol qiladi. Chunki Fessaliya bilan Makedoniya Kserksga jangsiz itoat etadi. Yunonlar bilan Eron qo'shinlari Fermopol yonida birbirlariga to'qnash keladilar, Fermopol mudofaasiga Sparta podshosi Leonid boshchilik qiladi va eronliklarning O'rta Yunonistonga o'tadigan yo'lini to'sib turadi.

Eron qo'shinlari Shimoliy Yunonistondan o'tib, Shimoliy va O'rta Yunonistonni bog'lab turuvchi Farmopol yo'lagiga yetib keladi. Leonid o'z qo'shinlari bilan ikki kun davomida eronliklarning son jihatdan ortiq bo'lgan qo'shinining hujumlarini qahramonona qaytarib turgan. Lekin katta boylikka sotilgan fessaliyalik bir xoin eronliklarni aylanma tog' so'qmoqlari orqali yunon qo'shinlarining orqa tomoniga boshlab borgan. Leonid dushmanlarning orqa tomondan o'rab olayotganini sezib, 300 spartalikdan boshqa hamma yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. U 300 spartalik va serg'ayrat yunon jangchilari bilan birga eronliklarga qarshi beomon jangga otlangan. Jang ikki kechayu ikki kunduz to'xtovsiz davom etgan. Ayovsiz jangda Leonid va u bilan qolgan askarlar qahramonlarcha halok bo'lganlar. Shundan keyin eronliklar O'rta Yunonistonga bostirib kirganlar va Afinani ishg'ol qilganlar. Shaharga o't qo'yilib, vayron qilingan. Afinaliklar shaharni tashlab ketishga majbur bo'lganlar. Afinaliklardan jang qilishga qurbi yetadigan erkaklar qo'shin va harbiy kemalarga boradilar. Ayollar, qariyalar, bolalar va qullarni afinaliklar flot himoyasida Peloponnesga va Salamin oroliga o'tkazib qo'yadilar. Afinaliklar Kserks buyrug'i bilan o't qo'yilgan jonajon shaharlari alanga ichida qanday yonayotganligini kemalardan va oroldan kuzatib turadilar.

Yunonlar oldida eronliklarga zarba berishdek ulug' vazifa turardi. Ular Attika bilan Salamin oroli oralig'idagi bo'g'ozga 200 dan ortiq harbiy kemalarini joylashtirganlar. Yunonlar xuddi shu Salamin bo'g'ozida dushmanga zarba berish rejasini tuzganlar. Bu jang er. av. 480 yilning ko'klamida boshlanib, jangga har ikki tomondan juda ko'p qo'shin qatnashgan. Bo'g'ozda turgan yunon harbiy kemalarining har bir tomonida uch qatordan eshkaklar bo'lgan, shuning uchun ular trieralar deb atalgan. Ularning har birida 180 tadan eshkakchi va 20-30 tadan jangchi bo'lgan. Eronliklarning ochiq dengizda yurishga moslashgan kattakon, og'ir kemalariga qaraganda, trieralar bo'g'ozda ancha tez harakat qila olardi.

Yunon dengizchilari tor Salamin bo'g'ozining qayeri sayoz, qayerida qoya toshlar borligini yaxshi bilishardi. O'zining ko'p sonli flotining g'alaba qilishiga ishongan Kserks unga bo'g'ozga kirib, yunonlar bilan jang qilishni buyuradi. Kserks o'z a'yonlari bilan Attikaning baland qirg'og'idan o'z kemalari yunonlar kemalariga yaqinlashib borayotganini kuzatib turadi. Oroldan esa afinalik qariyalar va ayollar jangning borishini kuzatib turardilar.

Afinaliklar va boshqa polislardan kelgan yunonlar yo g'alaba, yoki qahramonlarcha halok bo'lish shiori ostida jangga kirganlar. Chunki ular uchun chekinadigan joyning o'zi yo'q edi, chekinsalar oilalari qullikka tushardi. Eron floti bo'g'ozga kirishi bilan yunon eshkakchilari eshkaklarini ishga solib, kemalarini shitob bilan dushman ustiga haydab boradilar. Yunonlarning trieralari dushman kemalarining eshkaklarini sindirib, burni bilan urib kemalarning yonlarini tesha boshlaydilar. Natijada Eron kemalarining saflari buziladi. Ayni paytda Eron kemalari qo'ltiqning sayoz joylarida o'tirib qumlab qoladi. Ba'zilar suv osti toshlariga, ba'zilar bir-birlariga urilib, tilka-pora bo'ladi. Jangda yunon floti g'olib chiqib, eronliklarning 200 dan ortiq kemasi suvga g'arq bo'ladi. Mag'lubiyatdan omon qolgan eronliklar flotining qolgan qismi chekinishga majbur bo'lgan. Eron flotining Salamindagi mag'lubiyati Kserksni o'z qo'shinining bir qismi bilan Yunonistonni shosha-pisha tashlab qochishga majbur qilgan.

Er. av. 479 yilda Mardoniy qo'mondonligidagi Eron qo'shinlari Attikaga bostirib kirib, Afinani vaqtincha ishg'ol qilganlar. Sparta, Afina, Megara, Plateya va boshqa polislarning birlashgan kuchlari eronliklarga qarshi kurashga otlangan. Mardoniy qo'shinlari Beotiyaga chekingan. Shu yili Plateya yonida yunonlar g'alaba qozongan. Eron qo'shini qo'mondoni Mardoniy ham jangda halok bo'lgan. Forslar Yunonistonni tashlab chiqishga majbur bo'lganlar. Shu tariqa yunonlar qahramonona kurashib o'z vatanlarini dushmandan tozalaganlar. Er. av. 478 yilda Afina eronliklar ustidan uzil-kesil g'alaba qilish uchun eronliklarga qarshi kurashda ishtirok etgan barcha polislar, Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Egey dengizi orollari bilan harbiy ittifoq tuzgan. Bu Delos yoki 1-Afina dengiz ittifoqi deb nom olgan. Bu ittifoqda Afina rahbarlik qilgan. Uning Delos ittifoqi deb atalishining sababi shunda ediki, ittifoq xazinasini yunonlar muqaddas deb bilgan Delos orolida saqlangan. Ittifoqchilar qo'shinni harbiy kemalar, askarlar va pul mablag'i bilan ta'minlab turishlari kerak edi.

1-Afina ittifoqi yunon qo'shinlarini harbiy jihatdan kuchaytirgan. Shundan keyin Eron shohi qo'l ostida qolgan yunonlarni ozod qilish uchun olib borilgan urush yana 43 yil davom etgan. Kichik Osiyoning g'arbiy sohilida joylashgan yunon shahar-davlatlari ham o'zaro ittifoq tuzganlar. Ittifoqchilardan eng kuchlisi Afina edi. Afinaliklar boshchiligidagi yunonlar eronliklarning flotini bir necha bor mag'lubiyatga uchratib, Kichik Osiyo sohillariga bir qancha hujumlar qilganlar. Kichik Osiyodagi va Egey dengizi sohilidagi aholi eronliklar zulmidan ozod qilingan. Forslar bilan urush er. av. 449 yilga qadar davom etgan.

O'sha yili yunonlar bilan sulh tuzganlar. Bu sulh yunonlar tomonining vakili afinalik Kalliy nomi bilan "Kalliy sulhi" deb ataladi. Sulh ahdlariga ko'ra, eronliklar Kichik Osiyodagi yunon shaharlari va Egey dengizidagi barcha orollar mustaqilligini tan olgan. Eron harbiy flotiga Egey dengizida suzish taqiqlangan.

1-Afina dengiz ittifoqidan foydalanib, Afina yunon dunyosida eng qudratli davlat bo'lib qoladi (13-rasm). Yunoniston-Eron urushlari o'z vatanining mustaqilligini va ozodligini Eron asoratidan saqlab qolgan yunonlarning g'alabasi bilan yakunlangan. Bu urush ular uchun adolatli, ozodlik urushi edi.

Forslar bir necha mag'lubiyatlardan keyin, o'zlarining harbiy kuch muvozanati ancha o'zgaradi. Keyingi 150 yil davomida Forslar Greklargacha bo'lgan yerini yo'qotadi, natijada ular siyosiy va harbiy jihatdan ancha zaiflashadi<sup>55</sup>.

Persian military defeats changed the balance of power. For the next 150 years Persia lost ground to the Greeks, who gradually regained territory in southeastern Europe and western Anatolia.

**Er. av. V-IV asrlarda Yunonistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi.** Yunon Eron urushlarida etakchilik qilib, butun mamlakat shahar-davlatlarini bosqinchilarga qarshi kurashga otlantirgan, hamda g'alabalarga salmoqli hissa qo'shgan Afina davlati katta obro'-e'tiborga sazovor bo'ldi. Urushdan so'ng u butun O'rta er dengizi havzasidagi eng kuchli davlatga aylandi.

Yunon shahar davlatlarining Afina boshchiligidagi ittifoqi Kalliy sulhidan keyin ham saqlanib qoladi. Bu ittifoqning a'zolari 200 dan oshgan edi. Ittifoqning umumiy harbiy floti va qo'shini yanada kuchaytiriladi. Uning pul xazinasini ham boyib boradi.

Afina harbiylari ittifoq floti va qo'shiniga qo'mondonlik qiladilar. Afinaliklar ittifoq xazinasini Delosdan o'z shaharlariga ko'chirib, unga xo'jayinlik qila boshlaydilar. Xazinaga to'lanadigan a'zolik badali miqdorini ham afinaliklarning o'zlari belgilaydigan bo'ladilar. Afina butun Egey dengizida hukmronlikni o'z qo'liga oladi. Shuning uchun afinaliklarni "dengiz egalari" deb atashadigan bo'ladilar. Shu davrda Afina o'z qudratining eng yuqori cho'qqisiga ko'tarilgan.

Er. av. V-IV asrlarda Yunoniston polislarida dehqonlar uzumchilik bilan shug'ullanib, zaytun, piyoz, sarimsoq, meva, sabzavot ham ekanlar. Yunonistonda bug'doy, arpa va boshqa don ekinlari kam ekilgan. Yunonlar Lakoniya, Messeniya, Beotiya va Fessasliya kabi sug'oriladigan yerlarda bug'doy, arpa va suli ekanlar. Bu joylar Yunonistonni g'alla bilan ta'minlay olmas edi. Shuning uchun g'alla Sitsiliya va Shimoliy Qora dengiz bo'ylaridan keltirilgan. Dehqonlar g'allakorlikda omoch, toklarga ishlov berishda motiga, tok qaychi va daraxtlarning tagini yumshatishda belkurakdan foydalanganlar. Yunonistonda er. av. V asrdan boshlab uzumdan musallas, zaytundan moy olish ancha rivoj topgan edi. Chunki uzum va zaytun qishloq xo'jaligidagi asosiy

---

<sup>55</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.142.

maxsulotlar edi. Uzum musallasi va zaytun moyi Yunonistondan tashqarida ham yuqori baholangan.

Yunonistonda katta er egalari ham bo'lgan, ammo oz erli dehqonlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Chorvachilik qishloq xo'jaligida katta o'rin tutmagan, chunki keng yaylovlarning kamligi chorvachilikning rivojlanishiga imkon bermagan. Go'sht va sut qadimgi yunonlarning asosiy ozuqasi emas edi. Yunonlar jun olish maqsadida qo'y boqqanlar. Jundan har xil kiyim-bosh tayyorlaganlar. Ular yirik shoxli qoramol, eshak va xachir boqqanlar. Ulardan qishloq xo'jaligida va aravalarga qo'shishda foydalanaganlar. Yunonistonda ot kam boqilgan. Undan xo'jalikda ham, harbiy maqsadlarda ham kam foydalanilgan.

Er. av. V-IV asrlarda butun Yunonistonda hunarmandchilik rivojlanadi. Afina va boshqa shaharlarda to'qimachilik, zargarlik, kulolchilik, tikuvchilik, qurolsozlik va me'morchilik avj oldi (14 rasm). Har xil hunarmandchilik ustaxonalari va ishxonalar ergatseriyalar deb atalgan. Ularda 20-30 kishi ishlagan ularning asosiy qismini yollanma ishchilar hamda qullar tashkil etgan edi.

Er. av. IV asrda yashagan mashhur notiq Demosfenning yozishicha, otasining qurolsozlik ustaxonasida 33 ta qul ishlagan. Hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida Yunoniston shaharlari, xususan Afina juda boyib ketgan.

Yunonistonda hunarmandchilikning rivojlanishi ichki va tashqi savdoning ravnaq topishiga olib kelgan. Qo'ltiqlarga yaqin shaharlar, xususan Afina savdosotiqning muhim markaziga aylangan. Afinadan 5-6 km masofada joylashgan Pirey Attikaning asosiy savdo-sotiq porti hisoblangan. Bu portda mol saqlanadigan omborxonalar, kema quradigan va ta'mirlaydigan ustaxonalar bor edi. Portga o'zga mamlakatlarning savdo kemalari tez-tez kelib turgan.

Afinaliklarning dengizda hukmronlik qilishlari tufayli ularning savdo-sotiq ishlari ham tez rivojlanib ketgan. Afinaning savdo kemalari harbiy flot himoyasida O'rta yer va Qora dengizlarda suzib yurar edi.

Yunoniston savdogarlari O'rta yer dengizi havzasidagi Sitsiliya, Italiya, Misr, Kichik Osiyo, Finikiya, Frakiya, Sparta mamlakatlari Qora va Marmar dengizlari sohilidagi shaharlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Yunonistonga asosan g'alla, asal, mum, mo'yna va boshqa mahsulotlar, shuningdek, qullar ham keltirib turilgan. Bu yerdan chetga esa kulolchilik buyumlari, zaytun moyi, xar xil matolar, qurollar, tayyor kiyimlar chiqarilgan. Yunonistonning ichki va tashqi bozorlar bilan bo'lgan savdosi quruqlik va dengiz yo'llari orqali amalga oshirilgan.

Yunoniston-Eron urushi qulchilik munosabatlarining kuchayishini tezlashtiradi. Yunonlar urushda asir tushgan jangchilarnigina emas, balki boshqa mamlakatlarda qo'lga olingan ayollar va bolalarni ham cho'ri va qullarga aylantirganlar. Kichik Osiyo sohillariga qilingan hujumlardan birida afinaliklar 20 mingdan ortiq kishini asir olganlar va ularni qul qilib bozorlarda sotganlar. Frakiya, Kichik Osiyo va Qora dengiz sohillarida yashagan mahalliy qabilalar o'z qo'shnilariga hujum qilib, asirga tushganlarni yunonlarga qul qilib sotar edilar.

Yunonistondagi qullarning ko'pchiligi o'zga yurtlardan bo'lib, ular orasida kam miqdorda yunon qullari bo'lgan. Barcha orollar va shaharlarda qul bozorlari bor edi. Ularning eng kattasi Xios orolida edi. Qul bozorlarida ayollar, erkaklar va yosh bolalar qul qilib sotilgan va sotib olingan. Ularning ko'kraklariga taxtachalar osib qo'yilib, unga qulning qaeerlik ekanligi, yoshi va kasb-kori yozib qo'yilgan. Xaridorlar qullarni har tomonlama ko'rib, sinab olganlar.

Yunonistonning tosh va ma'danlarini qazib chiqaradigan shuningdek, hunarmandchilik rivoj topgan viloyatlarida qullar juda ko'p edi. Chunki ma'dan va marmartosh konlarida faqat qullar ishlaganlar. Hatto eng kambag'al erkin yunonlar bunday joylarda ishlamas edilar.

Savdo va harbiy kemalarning eshkakchilari qullar bo'lganlar. Qullar kulolchilik ustaxonalarida suv va o'tin tashir, loy qorar, kulolchilik charxlarini aylantirar edilar. Kulolchilik buyumlarini yasash va ularga naqsh solish, bezash ishlarini erkin kishilar bajarganlar. Garchi kichik erli dehqonlar yerlarida o'zlari ishlasalarda, katta-katta yerlari bo'lgan dehqonlar qul mehnatidan foydalanganlar. Qullar yorg'uchoqlarda ishlab, arpa-bug'doyni yanchib un qilar, uzum va zaytun mevalarini oyoqlari bilan bosib, suvini chiqarganlar. Ular qishloq xo'jalik mahsulotlari to'ldirilgan katta-kichik savatlarni bozorlarga olib borganlar. Yunonlar qullardan uy xizmatkorlari sifatida ham foydalanganlar. O'zlariga to'q kishilar va boylarning uylarida 3-4 dan 50 tagacha qullar va cho'rilar xizmat qilgan.

Qadimgi Yunonistonda qullarga barcha insoniy huquqlardan mahrum bo'lgan mavjudot deb qaralgan. Qullar o'z mehnatining samaralaridan ko'p manfaatdor emasdilar. Shuning uchun qulni qo'rqitish va jazolash yo'li bilan mehnat qilishga majbur qilish mumkin edi. "Odissey" dostonida qullar haqida shunday deyilgan: "Qul ishyoqmas bo'ladi: xo'jayin qattiq turib uni ishlashga majbur etmasa, uning o'z hohishi bilan ishga qo'l urgisi kelmaydi..."

Qullarga o'tkazilgan jabr-zulm ularni o'z xo'jayinlariga qarshi kurashga undagan. Quldorlarning jabr-zulmidan norozi bo'lgan qullar ularga zarar keltirishga harakat qilganlar. Chunonchi, ular asbob-uskunalarni sindirganlar, mollarni mayib qilganlar, quldorlarga suiqasd kilib, hatto ularning uy-joylariga o't qo'yganlar. Ba'zan qullarning quldorlarga qarshi qo'zg'olonlari ham bo'lib turgan.

Er. av. V asr o'rtalarida yuz bergan qattiq zilzila natijasida Sparta shahri vayron bo'lgan. Qullik girdobiga tashlangan mahalliy aholi-ilotlar quldorlarga qarshi kurashga otlanganlar. Ular Spartaga yopirilib, hujum boshlaganlar. Spartaliklar ilotlar hujumlarini qaytara olgan bo'lsalar-da, ammo qo'zg'olonni o'z kuchlari bilan bostira olmaganlar. Ular boshqa shahar davlatlarning quldorlaridan yordam so'rashga majbur bo'lganlar. Ba'zi shahar-davlatlar spartaliklarga yordam berganlar. Ammo shunga qaramay ilotlarning hujumini sindirish mumkin bo'lmagan. Bu kurash natijasida ilotlarning bir qismi spartaliklar zulmidan xalos bo'lib, ozodlikka erishganlar va Spartadan chiqib ketganlar.

Shunday qilib, Yunon-Eron urushlaridan keyin Yunoniston qulchilik davlati o'z taraqqiyotining eng yuqori darajasi - klassik qulchilikka etdi. Arzon va mo'l-ko'l qul mehnati natijasida iqtisodiy hayotda katta yutuqlarga erishildi, ko'plab moddiy ne'matlar yaratilib, erkin fuqarolarning turmushi yaxshilandi. Biroq qullar huquqsiz va eng ayanchli ahvolda qolaverganlar.

**Afina quldorlik demokratiyasi.** Afina quldorlik demokratiyasi quldorlarning qullar ustidan hukmronligini ta'minlaydigan idora usuli edi. Yunonistondagi boshqa shahar-davlatlarning aksariyatida Afina demokratiyasi singari demokratiya o'rnatilgan.

Er. av. V asrda quldorlik demokratiyasi o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Hamma yerda bu demokratiya erkin kishilarning qullar ustidan bo'lgan hokimiyatini ta'minlaydi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, bu xokimiyatdan Attikadagi aholining ozgina qismi foydalangan, xolos. Otasi ham onasi ham tub afinalik bo'lgan erkak kishilargina Afina quldorlik davlatining to'la huquqli fuqarosi hisoblangan. Ular xalq yig'inida faol qatnashib, saylash va saylanish huquqiga ega edilar.

Ammo boshqa viloyatlardan Attikaga ko'chib kelgan kishilar va ularning avlod-ajdodlari Afina fuqarolari ega bo'lgan huquqlardan mahrum bo'lgan. Ular Attikada yashayotganliklari uchun alohida soliq to'lashlari kerak edi. Odamlarni va ma'muriyatni aldab o'zini Attika fuqarosi qilib ko'rsatgan yoki ko'rsatishga harakat qilgan kishilar qul qilingan. Afinalik ayollar xalq yig'inlarida qatnashtirilmagan, ularning asosiy vazifasi - "uy-ro'zg'orni yaxshi tutish va eriga itoatda bo'lish" dan iborat edi.

Afina fuqarolari qatoriga kirish juda qattiq cheklab qo'yilgan. Ammo qadimgi dunyoning hech bir joyida davlatni idora etish ishlarida va ijtimoiy hayotda kishilar Afinadagidek, faol qatnashmaganlar. Erkin afinaliklar eng og'ir ishlarini qullar zimmasiga yuklab, ko'p vaqtlarini shaharning jamoat joylarida madaniy, ma'rifiy va maishiy ishlar bilan o'tkazganlar.

Afinada odamlar eng ko'p to'planadigan va eng gavjum joy - bu agora edi. Ertalab bu erga savdo-sotiq qilinadigan peshtaxtalar qo'yilgan va kechgacha savdo-sotiq ishlari olib borilgan. Kechgacha borib savdo-sotiq tugagach, peshtaxtalar yig'ib olingan.

Agoraning bir tomonida Afina davlatining qonunlari o'yib yozilgan tosh taxtalar turgan. Unda xalq eg'ini bo'ladigan kun va sudda qanday ishlar ko'rinishi to'g'risidagi bildirishlar osib qo'yilgan. Xalq yig'ini bo'ladigan kuni boylar ham, hunarmandlar ham, bozorda buyumlarni sotib bo'lgan savdogaru, dehqonlar ham, xullas hamma agorada to'planishgan.

Afinaliklar agorada turli yangiliklardan xabardor bo'lishgan. Qadimgi yunonlar uchun agoraga borish, bizning zamondagi odamlar uchun gazeta, radio va televideniya qanday ahamiyatga ega bo'lsa, xuddi shunday ahamiyatga ega edi. O'spirinlar, yigitlar va katta yoshdagi erkaklar gimnaziylarda to'planishar edi. Bu yerda mashhur olimlar Ma'ruzalar o'qigan, suhbatlar o'tkazib turilgan. Shu erning

o'zida yunonlar tajribali muallim rahbarligida kurash, har xil o'yin va mashqlar bilan shug'ullanganlar.

Kontsertlar quyiladigan katta binoda Yunonistondagi eng yaxshi sozanda va xonandalar musobaqalari o'tkazilgan. Musobaqalarda ko'plab musiqa ishqibozlari ham to'plangan, kim yutib chiqqanligini ham shular belgilagan. Yiliga bir necha marta teatr tomoshalari qo'yilib turilgan va bu tomoshalarda o'ng minglab tomoshabinlar hozir bo'lishgan.

Shunday qilib, Afinadagi ijtimoiy hayot erkin kishilarning aqliy va jismoniy jihatdan kamol topishi uchun keng imkoniyatlar yaratib bergan edi. Ayni paytda Afina iqtisodiy va siyosiy jihatdan ham ravnaq topadi. Afinaning savdo-sotig'i Egey, Marmar, Qora va Ioniya dengizlarida juda avj olib ketgan. Er. av. V asrning birinchi yarmida Afina O'rta er dengizi havzasidagi eng kuchli davlatga aylangan edi.

**Tayanch tushunchalar:** Mardoniy, Doro I, Sparta, Marafon, Miltiad, Kserks, Leonid, Salamin, Triyerlar, Afina dengiz ittifoqi, Kaliy sulhi, Qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ergatseriya, Pirey, savdo, qullarni jazolash, Xalq yig'ini, demos, Perikl, strateg, shahar-davlatlar ittifoqi, Quldorlik demokratiyasi, gelieya, eklessiya, fetlar, areopag, agora.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Yunon-Eron urushlaridan keyin xo'jalik taraqqiyoti qanday kechdi?
2. Qishloq xo'jaligi haqida o'zlab bering.
3. Hunarmandchilik va savdo qanday axvolda edi?
4. Yunonistonda qulchilikning kuchayishi sabablarini ayting.
5. Afinada quldorlik demokratiyasining rivojlanishi haqida so'zlang.
6. Perikl faoliyati qanday ahamiyatga ega bo'lgan edi?
7. Quldorlik demokratiyasining cheklanganligini nimalarda ko'ramiz?

#### **Ma'ruza №26-27**

#### **Mavzu: Afina quldorlik demokratiyasining ravnaqi**

1. Arxaik davr boshlarida Attika.
2. Solon islohotlari.
3. Afinada Pisistrat tiraniyasi.
4. Klisfenning islohotchilik faoliyati.

**1. Arxaik davr boshlarida Attika.** O'rta Yunonistonning janubiy-sharqiy viloyatlaridan biri, markazi Afina bo'lgan Attika misolida yunon polisining shakllanishini atroflicha ko'rish mumkin. Yunonistonning markaziy viloyatlaridan biri bo'lgan Attikaning maydoni 2250 km kv bo'lib, Spartadan keyingi o'rinda turgan. Barcha tomonlari dengiz va tog'lar bilan o'ralgan Attika dehqonchilik uchun noqulay bo'lgan. Kumush konlari, marmarning mo'lko'lligi

savdo-hunarmandchilikning ilk taraqqiyotiga yordam berdi. Qulay dengiz gavanlari dengizchilikning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Dastlab Attika aholisi kichik qishloqlarda yashagan. Keyinbchalik esa, ular qoyatosh bag'rida joylashgan Afina akropoli markazi bo'lgan shahar atrofida birlashdilar.

Jahon tarixida Xalq boshqaruvini ya'ni demokratiyani joriy etishga ilk urinish aynan Afinada boshlangan. Demokratiya so'zi yunonchadan tarjimasi "xalq xokimiyati" ma'nosini anglatadi<sup>56</sup>.

Attikaning qadimgi aholisi ioniyalar va pelasglarga doriylarning ko'chishi ta'sir qilmadi. Attik doriylar hujumini qaytardi. Doriylar Peloponnesdan haydab yuborgan axeylarning bir qismini qabul qildi. Bu yerda yunon tilining ioniy shevasida so'zlashadigan qabilalar guruhi to'rt urug' yoki qabila (fil)ga bo'lingan edi. Har bir fil bir necha o'nlab urug'lardan iborat bo'lgan uch fratriyaga bo'lingan.

Gomer davrida Attika aholisini urug' zodagonlaridan chiqqan yo'l boshchi basileylar boshqargan. Basileylar oliy hukmdor, sudya, kohin va harbiy boshliq vazifasini bajarganlar. Boshqa yunon polislariga bo'lganidek, basileylar huzurida Afinada oqsoqollar kengashi-areopag bor edi. Afsonalarga ko'ra, Afina aholisini birlashtirgan afsonaviy Tersiy aholini uch guruhga bo'ladi: yer egalari-yevpatridlar, dehqonlar-geomorlar va hunarmandlar-demiurglar.

Attika viloyati 12 alohida hudud-qabila okruglariga bo'lingan. Ularning markazlari Afina, Torika, Marafon, Afidna bo'lgan. Er. avv. VIII asr davomida xo'jalik va xususiy mulkchilikning rivojlanishi natijasida yevpatridlar basileylarning huquqini asta-sekin cheklay boshladilar. Ular o'zlarining ichidan arxontlar (oqsoqollar)ni saylay boshlaydilar. Basileylarning boshqaruv vakolatlari harbiy arxont(boshliq, sudya)ga o'ta boshladi. Natijada basileylarga faqat kohinlik vazifasi qoldi va u saylana boshlandi. Shunday qilib, Afinada hokimiyatni yevpatridlar orasidan har yili saylanadigan 9 arxont boshqara boshladi. Ularning o'rtasida ijroiya, harbiy va sud hokimiyati taqsimlangan edi. Yil davomida arxont vazifasini bajargan yevpatridlar o'z o'rinlarini yangi saylanganlarga bo'shatib berib, o'zlari areopagning umrbod a'zolari bo'lib qolar edilar. Areopag er. avv. VIII-VII asrlarda eng obro'li hokimiyat organi bo'lgan.

Yevpatridlar kolonizatsiya va dengiz savdosiga faol qatnashdilar. Tovar ishlab chiqarish, savdo-hunarmandchilik tez rivojlandi. Attikada dehqonlarni qarzga botish jarayoni kuchayib ketdi va natijada qarzi uchun qul qilish odatdagi holga aylanib qoldi. Er. avv. VII asrning ikkinchi yarmida Attikada ijtimoiysiyosiy vaziyat keskinlashib ketdi. Er. avv. VII asrning 30-yillarida zodagon Kilon hokimiyatni bosib olishga urunib ko'rdi. Arxont Drakont tomonidan 622yilda og'zaki qonunchilikning yozma to'plamga keltirilishi urug' zodagonlarining hokimiyatini zaiflashtirdi. Drakont qonunlari bilan urug'chilikning qoldig'i bo'lgan xun olish ta'qiqlandi. Jazolash funksiyasi areopagga berildi. Drakont qonunlari shafqatsiz bo'lib, o'g'rilikjinoyati uchun o'lim jazosi belgilangan. Mehnat qilmagan fuqarolar jazolanar edi.

---

<sup>56</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.193.

**2. Solon islohotlari.** Afinada yevpatridlar bilan aholining kambag'al qismi bo'lgan oddiy demos o'rtasida ijtimoiy ziddiyatlar kuchaydi. Drakont qonunlari Attika aholisining eng katta muammolaridan biri qarz masalasini hal qila olmadi. Solon Attikaning eng qadimgi oilalaridan birining vakili bo'lib, uning ajdodi podsho Kodriy sulolasiga borib taqalar edi. Yevpatrid Solon ancha yerga ega bo'lib, savdo-hunarmandchilik faoliyati bilan shug'ullanib, boylik to'plagan edi. U harbiy qobiliyatga ega, ma'lumotli bo'lgan va she'rlar yozgan. Solon er. avv. 594-yilda arxont vazifasiga saylanib, tub islohotlar o'tkazdi. Solon, eng avvalo, "seysaxteya" (qarzlarni olib tashlash) Afina aholisini qarzlaridan voz kechishni amalga oshirdi. Qarzi uchun qul qilish abadiy ta'qiqlandi. Katta yer egaligi cheklandi. Yer ulushini belgilangan miqdordan ortiqcha olish man qilindi. Solon islohotlari Afinadagi vaziyatni tubdan o'zgartirdi. Qarzi uchun dehqonlarni qul qilish bekor qilindi. Ilgari qarzi uchun qul qilinganlar ozod qilindi hamda chetga qul qilib sotib yuborilganlar jamoa hisobidan pul to'lanib, Afinaga qaytarildi.

Xo'jalik faoliyatini rag'batlantiradigan qator islohotlar o'tkazildi. Pul islohoti, uzunlik va og'irlik o'lchov birliklari takomillashtirilib, savdohunarmandchilik rag'batlantirildi. Attikadan chetga mahsulotlar sotish kuchaydi. Solon Attikadan g'alla chiqarishni ta'qiqladi. Bu chora-tadbirlar Afina bozorida chayqovchilikni tugatib, dehqonchilikni rag'batlantirdi va zaytun moyi, vino eksport qilish uchun qulay shart-sharoit yaratdi.

Vasiyatlar erkinligi to'g'risidagi qonun urug'chilik aloqalarini zaiflashtirdi. Alohida oilalarni iqtisodiy kuchayishiga shart-sharoit yaratdi. Yerga egalik qilish me'yori belgilandi.

Ijtimoiy-siyosiy sohada qator islohotlar amalga oshirildi. Solon Attikaning barcha erkin aholisini daromad hajmiga qarab, to'rt toifaga bo'ldi. Fuqarolarning huquq va majburiyatlari shunday taqsimlandiki, boy fuqarolar avvalgidek, to'la hokimiyatga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, fuqarolik jamoasida ularga katta majburiyatlar yuklandi. Yangi yuqori tabaqaga mansub bo'lish yer ulushidan yillik olinadigan daromadga bog'liq bo'ldi. Bu yer egasini yerga yaxshi ishlov berib, ko'p hosil olish imkoniyatini qidirishga majbur qilar edi.

Endilikda u yoki bu oqsuyak urug'ga mansublik emas, balki aynan daromad miqdori, yerga mehnat qilish fuqaroning jamiyatdagi obro'ining o'lchov mezon bo'ldi.

Sud tizimi isloh qilindi. 30 yoshga yetgan erkin Afina fuqarolaridan sud maslahatchilari-gemey joriy qilindi. Gemey fuqarolar ishi bo'yicha oliy appelyatsiya huquqiga ega bo'ldi. Faqat u jinoiy ishlar bo'yicha hukm chiqara olar edi. Odam o'ldirish bo'yicha sud ishi sobiq arxontlar kengashi areopag qo'lida qoldi.

Siyosiy huquq mulkiy senz asosida taqsimlandi. Afina jamiyati to'rt toifaga ajratildi:

1. Pentakosiomedimnlar-bir yilda 500 medimn g'alla yoki 500 metret (bir metret-39 litr) zaytun yog'i oladigan fuqarolar.
2. Suvoriylar (gippeylar).

3. Zevgitlar-ikkita eshak aravaga ega bo'lgan og'ir qurolli piyodalar.

4. Fetlar-hunarmandlar.

Faqat birinchi uch toifa amalda davlat lavozimlarini egallashi mumkin edi. Oliy arxont mansabiga faqat pentakosiomedimnlar da'vo qilishlari mumkin edi. Fetlar polisning bevosita boshqaruvidan chetlashtirildilar. Xalq yig'inieklessiyada oddiy fuqarolar davlatning umumiy siyosatini belgilashda mansabdor shaxslarni saylashga ta'sir ko'rsatish, maslahatchilar sudi (gelieya)ga ishtirok etib, mansabdor shaxslarning suiste'mollarini yo'q qilishlari mumkin edi.

Solon davrida davlat tuzilmasining yana bir yangi organi-maslahatchilar sudi (gelieya) joriy qilindi. Sudyalar barcha fuqarolardan saylangan. Solon islohotlari polis boshqaruvini demokratik shakllari asosini yaratdi, lekin izchil bo'lmaganligi sababli, zodagonlar hokimiyatini to'la tugata olmadi.

Solon islohotlari bo'lg'usi Afina demokratiyasining kurtagi edi. Arxont va areopagning roli o'zgarmadi. Polisning urug', fillarga bo'linishi saqlanib qoldi. Islohotlar fillarda urug' huquqining yemirilishiga olib keldi. Endilikda Afina fuqarosi o'z mulkini erkin vasiyat qilish huquqini oldi. Otasi hunar o'rgatmagan o'g'il keksaygan otasiga g'amxo'rlik qilish majburiyatidan ozod qilindi. Er. avv. VI asr boshlaridagi islohotlar barcha ijtimoiy muammolarni yecha olmadi. Solon o'z islohotlarini o'tkazib bo'lgach, arxont vazifasini topshirib, Sharq mamlakatlari bo'ylab uzoq sayohatga chiqdi. Afinada keskin ichki siyosiy kurash boshlandi. Tez orada kuchli ijtimoiy ziddiyatlar Afinada Pisistrat tiraniyasining o'rnatilishiga olib keldi. Pisistrat va uning o'g'illari tiraniyasidan so'ng, Afinada turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida kurash kuchayib ketdi.

Klisfen boshchiligida savdo-hunarmand tabaqalari urug' zodagonlari hokimiyatini yo'qotishga urindilar. Klisfen ma'muriy-hududiy islohot o'tkazdi. Er. avv. VI asrda Afinada demosning zodagonlarga qarshi uzoq kurashi natijasida demokratik tartib-qoidalar g'alaba qildi. Natijada Afina ko'ngilli qo'shinlari tarkibi ham o'zgardi. Uning asosiy qismini og'ir qurollangan jangchi-goplitlar tashkil etdi. Ular ko'p sonli uchinchi toifa zevgitlardan to'ldirilgan. Fetlar yengil qurollangan jangchilar va harbiy flot matrosalarini tashkil etdilar.

Afina siyosiy ustqurmasida zodagonlar tayanchi bo'lgan areopagga qarshi turgan To'rt yuzlar kengashi (Bule) tashkil etildi. Kengash a'zolari to'rt fildan yuztadan fuqaro saylanadigan, muntazam faoliyat ko'rsatadigan organ bo'ldi. To'rt yuzlar kengashi xalq yig'inida ko'riladigan va tasdiqlanadigan masalalarni tayyorlar edi. Xalq yig'ini (ekkesiya) to'la qonli barcha vakolatlarga ega bo'lgan boshqaruv organi bo'lib, fuqarolarning barcha qatlamlari ovoz berish va uning ishida qatnashish huquqiga ega bo'ldilar. Xalq yig'ini muntazam yig'iladigan bo'ldi (er. avv. V asrda yiliga 40 marta yoki 9 kunda 1 marta).

**3. Afinada Pisistrat tiraniyasi.** Er. avv. 560-yil zodagonlardan biri Pisistrat qattiq kurash natijasida hokimiyatni bosib oldi va o'zining tiraniya shaklidagi shaxsiy hokimiyatini o'rnatdi. U dastlab eng muhtoj kichik yer egalari davlat xazinasidan yordam ko'rsatdi. Qishloq kambag'allari uchun

solliqlar majburiyatini yengillashtirdi. Qishloq jamoalari huquqini kamaytirdi. Yer egalarini Afinaga sudga kelishdan qutqarib, qishloq joylarida sudyalarni tayinladi. U fuqarolardan qurollarini tortib olib, o'z hokimiyatini mustahkamladi. Fuqarolar daromadiga soliq joriy qildi. Bu o'rta hol dehqonlarni og'ir ahvolga solib qo'ydi.

Pisistrat dengiz savdosining rivojlanishiga shart-sharoit yaratdi. U Kichik Osiyoda Dardanel bo'g'oziga chiqadigan muhim nuqtani bosib olib, Afinaning Qora dengizga boradigan dengiz yo'llari ustidan nazoratini o'rnatdi. Afinada savdo-hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida bir qancha jamoat inshootlarni qurilishini amalga oshirdi. Akropolni bezadi. Shoirlar va rassomlarga homiylik qildi. Uning farmoyishi bilan Afinada xalq qo'shiqchilari to'planib, ularning so'zlaridan Gomerning mashhur "Iliada" va Odisseya" poemalari yozib olindi.

Pisistratning tadbirlari eski urug' zodagonlarining mavqeiga putur yetkazdi. Ularning ko'p vakillari Afinadan quvg'in qilindi. Er. avv. 527-yilda Pisistratning vafotidan so'ng, o'g'illari Gippey va Gipparx Afina hokimlari bo'ldilar. Bu vaqtda kuchli Fors davlati Kichik Osiyoni bosib olib, Egey dengizidan Qora dengizga boradigan yo'llarni egallab oldi. Afina dengiz savdosiga katta putur yetdi. Natijada Afinaga chetdan g'alla olib kelish vaqtinchalik uzilib qolib, oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashdi. Tabiiyki, bu aholining noroziligini keltirib chiqardi. Aholi Pisistratning o'g'illari hokimiyatini ag'darib tashladi.

**4. Klisfenning islohotchilik faoliyati.** Pisistrat va uni o'g'illarining 50 yillik (er. avv. 560-510-yillar) tiraniyasi ag'darilganidan so'ng, yevpatridlarning o'z hukmronliklarini tiklashga urinishlari Afina demosining keskin qarshiligiga uchradi. Shunday bir sharoitda demos qo'llab-quvvatlagan Klisfen yangi islohotlarni o'tkardi (er. avv. 509-507-yillar). Afinadagi obro'li Alkmeonid urug'idan bo'lgan Klisfen er. avv. 509-yilda qo'shimcha vakolatlar bilan Birinchi arxont lavozimiga saylandi. Uning islohotchilik dasturining asosiy maqsadi Solon asos solgan demokratik muassasalarni rivojlantirish va mustahkamlash, demokratiyani oligarxik to'ntarish yoki tiraniyaning o'rnatilishidan himoya qilish mexanizmini yaratish edi. U, eng avvalo, demokratiyaning ijtimoiy tayanchi sifatida Afina fuqarolik jamoasini mustahkamladi va kengaytirdi. U ma'muriy-hududiy islohotni amalga oshirdi.

Attika hududi urug'chilik tashkilotining o'rniga 10 ta yangi hudud-filga ajratildi. Har bir fil o'z ichiga o'n demni olgan bo'lib, har bir dem oliy ma'muriy organ Besh yuzlar kengashiga birdan 25 kishigacha a'zo saylagan. Yana bir siyosiy yangilik tiraniyaning o'rnatilishiga qarshi qo'yilgan ostrakizm tamoyili bo'ldi. Ostrakizmga ko'ra, Afina davlat tuzumiga qarshi jiddiy xavf tug'dirgan shaxs, siyosiy arbob ovoz berish yo'li bilan Afinadan quvg'in qilingan. Bu tamoyil siyosiy hayotda er. avv. 487-yildan 417-yilgacha qo'llanib, shu davrda tiraniyaning uch tarafdori Afinadan haydab yuborilgan. Bu urug'chilik aloqalarining uzilishi va aholining aralashib ketishiga olib keldi. Endilikda Attika aholisi yashash joyiga qarab hududiy aloqalar bo'yicha birlashdi. Urug' fillari to'la tugatildi.

To'rt yuzlar kengashi endilikda 500 fuqaroni o'z tarkibiga kiritdi. Har yangi 10 hududiy fildan 50 kishi bu kengashga saylandi. Shu bilan birga, yangi Besh yuzlar kengashi tarkibi (Bule) har yili to'la yangilandi. Kengash a'zolari qur'a tashlash yo'li bilan saylandi. Ikki martadan ortiq saylanish mumkin emas edi. Klisfen tub joy aholi huquqiga kelgindi aholi huquqini tenglashtirdi. Endi fuqarolik qadimgi urug' filiga mansublik bilan emas, balki eng kichik hududiy birlik-demga mansublik bilan belgilandi. Endilikda har bir fuqaro o'z ismiga otasining avlodi ismi emas, o'z demining nomini qo'shdi. Bu fuqarolik jamoasining barqarorligiga olib keldi.

Klisfen Afina demokratiyasiga tahdid solishi mumkin bo'lgan obro'li boy fuqaroni aniqlaydigan ostraktizm tamoyilini joriy qildi. Afinada o'z shaxsiy hokimiyatini o'rnatishga gumon qilingan fuqaro sud qarori bo'yicha ovoz berish yo'li bilan Afinadan quvg'in qilinadigan bo'ldi. Klisfen islohotining ahamiyati shundaki, bu islohotlar urug'chilik munosabatlari va urug' zodagonlarining hokimiyati qoldiqlarini to'la tugatdi. Afina davlat qurilishiga demokratiyaning to'la hukmronligini o'rnatdi. Barcha Afina fuqarolari (Afinada yashayotgan chet elliklar, qullar bundan mustasno) polisning siyosiy hayotida faol qatnashdilar. Ular har qanday davlat lavozimlariga saylanishlari, o'z fuqarolik jamoalari siyosiy hayotini eng muhim muammolarini yechishda ishtirok etishlari mumkin edi. Barcha yunon polislari orasida Afina davlati eng ilg'or va rivojlangan demokratik davlat qurilishiga ega edi.

**Tayanch tushunchalar:** Attika, akropol, ioniy, fil, fratriya, areopag, yevpatridlar, geomor, demurg, arxont, Kilon, gippeylar, Drakont, "seysaxteyya", Solon, pentakosimedimn, medimn, suvoriylar, zevgit, fet, goplit, Bule, gelieya Pisistrat, tiraniya, Gomer, demos, Klisfen, Gippey, Gipparx.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Yunon- Eron urushlari tugagandan so'ng Afinadagi siyosiy vaziyatni yoritib bering.
2. Salon islohotlari va uning amaliy natijasi qanday bo'ldi?
3. Gerodot asarlarida Afinadagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy axvolni yoritilish holatini izohlang.
4. Perikl davrida Afinaning qudratli davlatga aylanishi va uning qo'shni davlatlarga ta'siri qanday bo'ldi?
5. Fukidid asarlarida yunon dunyosiga berilgan baxo va uning tahlili qanday?
6. Solon va Klisfen islohotlarini yoritib bering.
7. Afina davlat qurilishini (er. avv. V asr). yoritib bering.
8. Polis-davlatda fuqaro ta'siri qanday bo'ldi?

### **Ma'ruza №28**

#### **Mavzu: Sparta davlati Reja:**

1. Sparta jamiyati.

2. **Spartada davlat tarbiyasi.**
3. **Davlat tuzumi.**
4. **Arxaik davr hayotining umumiy manzarasi.**

#### **1. Sparta jamiyati.**

Qadimgi Spartaarxaik va klassik davrlarda

Yunonistonning eng katta polislaridan biri edi. Spartapolisi va davlatchiligining boshlanishi doriylar bosqinining tugallanish vaqtiga to'g'ri keladi. Doriy qabilalari er. avv. XII-XI asrlarda Peloponnes hududiga o'rnamshdilar va er. avv. XI-VIII asrlarning birinchi yarmi davomida mahalliy qabilalar bilan hukmronlik uchun uzoq kurash olib bordilar. Er. avv. X asrda Peloponnes janubidagi Lakonikada Yevrot daryo vodiysining o'rta qismidagi unumdor yerlarga Sparta manzilgohi paydo bo'ldi. Qadimgi yunonlar Sparta davlatini Lakedemon deb atadilar. Ko'pchilik doriylar bo'lg'usi Sparta polisining fuqarolari 5 qishloqni birlashtirgan Sparta manzilgohiga o'rnamshdilar.

Mahalliy axey aholisining bir qismi bo'ysundirilib, qolgan qismi qirib tashlandi. Sparta davlatining paydo bo'lishi qisqa vaqt ichida boshqa keng hududlarni bosib olish bilan belgilanadi. Doriylar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning quyi bosqichida, urug' munosabatlarining yemirilish davrida turar edilar. Bu hol Spartra davlatida urug'chilik tuzumi qoldiqlarining uzoq vaqt saqlanishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Peloponnes yarim orolida arxaik davrdan Sparta davlati yetakchi o'ringa chiqib oldi va bu hududda tashkil topgan shaharlar ittifoqiga boshchilik qildi. Er. avv. VIII asrda Sparta Janubiy Lakonikaning bir qancha viloyatlari, Kifera oroli, keyin esa, Pamis daryosi vodiysidagi hosildor Messeniyani bosib oldi. Bu boy o'lka Spartaning kam sonli to'la huquqli fuqarolari tomonidan bo'lib olindi. Mahalliy aholi huquqsiz qaram ilotlarga aylantirildi.

Spartaliklar o'zlariga tegishli bo'lgan ekin yerlarini 9000 ta ulushga bo'ldilar. Har bir to'la huquqli spartalik shunday yer ulushini bu yerdagi bosib olingan mahalliy aholi-ilotlar oilasi bilan umrbod mulk qilib oldi. Ilotlar xo'jayinlariga hosilning yarmini berishga majbur edilar. Yuz yildan so'ng, Sparta G'arbiy Messeniyani ham egalladi. Keyin esa, sharq va shimoldagi Agros, Arkadiya viloyatlarini ham o'ziga qo'shib oldi. Arkadiyaning janubiy qismidagi bir qancha viloyatlar ham Sparta tarkibiga kirdi. Tergiya, Korinf, Sikion, Megara, Egina va Elida kabi shahar va davlatlar Sparta bilan simmaxiyaittifoqga kirishga majbur bo'ldi. Ittifoq majlisida har bir polis bir ovozga ega bo'lib, qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinar edi va har bir shahar-davlat Sparta podsholari ixtiyoriga o'z qo'shinining 1/3 qismini berishga majbur edi. Ittifoqchilar o'rtasida aloqa zaif bo'lib, alohida polislar bir-biri bilan urush olib borar, boshqa ittifoqchilar bunga aralashmas edilar. Sparta Peloponnes yarim orolining 1/3 qismini (8000 km) bevosita o'z hukmronligi ostida olgan edi. Spartaning ittifoqdagi yetakchilik mavqei kuchli edi.

Spartaning ittifoqdagi yetakchilik o`rniga hech kimga shubha yo`q edi. Bu ittifoq o`sha davrda Yunonistonda eng kuchli edi. Yunon dunyosida eng harbiylashgan davlat ham aynan Sparta edi<sup>57</sup>.

Davlat masalalari haqida erkaklar bilan aqlli suhbatlar qilgan ayollar qattiq tanqid qilingan. Spartalik ayollar bundan mustasno edi va ular jamiyat ishlarini erkaklar kabi amalga oshirgan yoki hazil va adovat bilan boshqa yunon shahar davlatlarining erkaklaridan o`zlarining huquqlarini talab qilib mulklarini saqlab qolgan.<sup>58</sup>

**2. Spartada davlat tarbiyasi.** Sparta Yunonistonda yagona professional qo`shinni tashkil qildi. Spartaliklarda fuqaroning davlatga sadoqat, qonunlarga so`zsiz bo`ysunish, katta yoshdagilarga hurmat, mutloq jasorat ruhida tarbiyalash yo`lga qo`yildi. Likurg ta`kidlagan edi: “Spartalikni tarbiyalashning maqsadi goplitni shakllantirishdir”. Spartaga a`lo jangchilar zarur edi. Birinchi o`rinda, o`smir yoshlar tarbiyasida jismoniy tarbiya qo`yilib, faqat xor qo`shiqlari, harbiy musiqa, shoir Terpandrning harbiy marsllari o`rgatilar edi. Spartalik imkoniyat darajasida qisqa va aniq so`zlashga o`rgatilar edi (lakonizm). Sport tayyorgarligida ot sporti va atletika yetakchi o`rinni egallar edi.

Spartalikni tarbiyalash tizimi uch bosqichdan iborat edi:

1. 7 yoshgacha bolalar ota homiyligi ostida. 7 yoshdan so`ng, davlat nazorati ostiga o`tgan.

2. O`smirlar 12 yoshdan 15 yoshgacha katta yoshli o`smir (iryen) boshchiligida maxsus guruhlar (il)ga kirgan.

3. 16-20 yoshlarda o`qitishning uchinchi bosqichi (iryeniya).

Bolaligidan kasal va jismoniy zaif bolalar ortiqcha yuk hisoblangani uchun ularni jarlikka uloqtirar edilar. Davlat tarbiyasining birinchi bosqichida 7-12 yoshgacha bolalarni agella (“poda”)ga to`plab, mashqlar va sinovlar muntazam o`tkazilgan. Bu bosqichda bolalarda kuch va chidamlilikni tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo`yilgan. Bolalar badani momataloq bo`lgunicha kaltaklash, tan jarohati yetkazish marosimidan o`tar edi. Kaltaklanayotgan og`riqqa un chiqarmay chidashi, og`riqni sezdirmasligi lozim edi. O`smirlar 12 yoshdan 15 yoshgacha katta yoshli o`smir (iryen) boshchiligida maxsus guruhlar (il)ga kirganlar. Ular g`arib chaylada yarim och, juldur kiyimlarda o`zlari yig`ib kelgan qamish ustida uxlar edilar.

Harbiy mashqlar (qurollarni o`zlashtirish, zich safda harakat qilish, tez harakatlanish va taktika) harbiy o`qish kursi, sport va ov bilan to`ldirilar edi.

Bu davrda o`qituvchilar spartalik yosh o`smirlarga ilotlarga nisbatan mensimaslik, nafrat tuyg`usini shakllantirganlar. Bu o`qitish davri dala mashqlari (kriptiya) bilan tugallanar edi. Keyinchalik, bu mashqlar ilotlarni yo`q qilish marosimi shaklini oldi. 16-20 yoshlarda o`qitishning uchinchi bosqichi (iryeniya) boshlangan. Yosh spartalik yigit yer ulushi egasiga aylanar edi. Bu yer ulushi uni va oilasini boqishi kerak edi.

---

<sup>57</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.194.

<sup>58</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.193.

Ayollar tarbiyasi ham qat'iy va sodda bo'lgan. Ayollarni kuchli, sog'lom, chiroyli bo'lishi uchun gimnastika mashg'ulotiga asosiy e'tibor qaratilgan. Qizlar diniy marosimlarda qatnashgan. Ularga ozgina qo'shiq va raqs o'rgatilgan. Lekin asosiy maqsad sog'lom bolani dunyoga keltirish edi. Sog'lom ona kuchli va to'laqonli bolani dunyoga keltirishi shart edi. Sparta davlati bola tug'ilishiga mukofot belgilab, bolasizlik uchun jarimani kiritdi.

Tarbiyaning qattiqligi o'smirlarni Artemida ibodatxonasida har yili o'tkaziladigan qiynoq sinovlarda o'z aksini topgan edi. Sinalayotgan o'smir qiynoqlarga dosh berishi va og'riqni sezdirmasligi shart edi.

Fiditiya uchun har bir spartalik har oy ma'lum miqdorda pishloq, arpa, vino, anjir va pul berar edi. Spartaliklar birgalikda o'tirib, uksus, tuz qo'shilib, qonda tayyorlangan cho'chqa go'shti bo'tqasini iste'mol qilar edilar. Spartaliklar o'z vaqtlarini doimiy muntazam harbiy mashqlar va ovda o'tkazib, chodirlarda yashar edilar. Qattiq, shafqatsiz tarbiya natijasida spartaliklarning ongida boshqa yunon polislari aholisiga nisbatan jismoniy va ma'naviy ustunlik his-tuyg'usi shakllantirilar edi. Yunon dunyosida spartaliklarni qat'iy intizomi uchun hurmat qilar edilar, ammo yoqtirmas edilar.

Bosib olingan qaram viloyatlarning ilotlarga aylantirilgan aholisining qo'zg'olonlaridan xavfsiragan spartaliklar har yili ilotlarga dahshat solish va ularning ongida bo'ysunish hissini tug'dirish uchun ularni tunda o'ldirishni (kriptiya) e'lon qilganlar. Er. avv. XI asrdayoq spartaliklar o'zlarini har xil "yangiliklar"dan himoya qilish, an'anaviy turmush tarzini saqlash maqsadida tashqi dunyodan ajralib yashashga urindilar. Qadimgi an'anaviy holatning o'zgarmasligi uchun Sparta faqat mayda temir tangani muomalaga kiritdi. Sparta uylarining eshik va tomlari faqat yog'ochdan bo'lib, ularni faqat bolta va arra bilan tayyorlashga ruxsat etildi. Hashamatli kiyimlar qonundan tashqari edi. Jamiyatdagi mavqeiga qarab, spartaliklar bir xildagi kalta yoping'ich (plash) kiyar edilar va bu bilan o'zlarini teng deb hisoblardilar.

**3. Davlat tuzumi.** Sparta davlati aristokratik xarakterga ega edi. Butun hokimiyat periek va ilotlar ustidan hukmronligini o'rnatgan tor doiradagi spartaliklar qo'lida edi. Davlat tepasida ashdod va yevrionit urug'lariga mansub bo'lgan ikki podsho turar edi. Ular asosan harbiy boshliqlar bo'lib, tinchlik vaqtida ba'zi kohinlik vazifalarini, qisman sud majburiyatlarini amalga oshirganlar. Ikki podsho ham oqsoqollar kengashi (gerusiya) tarkibiga umrbod kirgan. Podsholar hokimiyati xalq yig'inining keng vakolatlari bilan cheklab qo'yilgan edi. Podsholardan biri urush vaqtida qo'shinga boshchilik qilgan, ammo ular rahbarlikda eforlarning fikrlarini hisobga olishga majbur bo'lganlar. Xalq yig'ini eng muhim masalalar yuzasidan qaror chiqarish huquqiga ega bo'lgan. Faqatgina xalq yig'inigina urush e'lon qilish huquqiga ega edi.

Fuqarolik ishi bo'yicha sud ishlarini mansabdor shaxslar-eforlar amalga oshirganlar. Ular spartaliklarning butun hayoti davomida qonunlarni bajarishini ham nazorat qilganlar.

Spartaliklar ko'proq shaharlarning savdo manfaatlarini o'ylab, "korrupsiya"dan qochib pul va qul mehnatini rad etdi. Shu bilan birga, Sparta qudratli harbiy davlat bo'lgan va boshqa yunon shahar-davlatlaridan g'ayritabiiy siyosati bilan jralib turgan<sup>59</sup>.

Eforlar davlatda ijroiya hokimiyatni ham amalga oshiganlar. Taxminlarga ko'ra, eforlar ilk davrda podsholar tomonidan tayinlanganlar. Er. avv. XI asrdan boshlab esa, xalq yig'ini tomonidan tayinlanganlar. Besh efor kollegiyasi podsholar va gerusiya faoliyatini nazorat qiladigan oliy organ sifatida paydo bo'ldi va tezda Sparta oligarxiyasi hokimiyatining qo'shimcha oliy organiga aylandi. Besh Sparta qishlog'ining har biridan bittadan efor bir yil muddatga saylangan. Ular oliy nazorat hokimiyatiga ega edilar. Hamda har qanday spartaliklarni, hatto, geront va podsholarni ham javobgarlikka tortish huquqiga ega edilar. Bundan tashqari, ular Sparta turmush tarzi qoidalari va Sparta qonunlarini bajarilishini kuzatganlar. Eforlar Spartaning ichki va tashqi siyosatini boshqardilar hamda ilotlarga qarshi jazo-qo'rqitish tadbirlarini amalga oshirishga rahbarlik qildilar.

Podsholar yoshi 60 yoshdan yuqori bo'lgan, yigirma sakkiz aslzoda keksadan tuzilgan kengash (gerusiya) majlisiga boshchilik qilganlar. Gerusiyada xalq yig'iniga ko'riladigan qaror loyihalarini tayyorlaganlar hamda jinoiy ishlar bo'yicha sud ishlarini amalga oshirganlar. Eforlar xalq yig'ini-appelaga boshchilik qilganlar. Ular har qanday mansabdor shaxsni ishdan chetlatish, zaruriyat bo'lganda chet elliklarni mamlakatdan chiqarib yuborish huquqiga ega edilar. Davlat moliyasi, tashqi ishlar ularning qo'lida edi. Podsholar ba'zi umrbod imtiyozlarga (harbiy o'ljalarning 1/3 qismiga egalik qilish, tantanali dafn qilish va h.k.) ega bo'lsalarda, eforlarning kuchli hokimiyati ularni podsholar bilan bir qatorda qo'yar edi. Bu tashqi tomondan quyidagi odatda ifodalangan edi. Boshqa spartaliklardan farq qilgan holda eforlar podsholar ko'ringanda o'z o'rinlaridan turmaslik huquqiga ega edilar.

Xalq yig'ini-appelada 30 yoshga yetgan barcha spartaliklar ishtirok etar edilar. Sparta appelasida masalalar qizg'in muhokama qilinadigan, oddiy fuqaro faol so'zga chiqadigan Afina eklessiyasidan keskin farq qilar edi. Appelada oddiy spartaliklarning ovozi faqat favqulodda holatlarda eshitilar, barcha qarorlar eforlar va gerusiya a'zolari tomonidan taklif etilar edi. Appela masalani muhokama qilmas, bahslashmas, faqat ovoz berar edi. Spartaliklarning davlat qurilishi ana shunday edi. Bu davlat qurilishi qonunshunos Likurg tomonidan amalga oshirilgan islohotlar natijasi edi. Likurg Sparta podsholaridan birining tog'asi bo'lib, o'z jiyanining yoshi kichik bo'lganligi uchun davlatni boshqargan edi. Likurgning islohotchilik faoliyatining asosida to'la huquqli spartaliklarning yaxlit hukmron tabaqasi hamda qaram ilotlar va perieklar ommasi noroziligining ko'rinishini har qanday lahzada bostirishga qobil bo'lgan va tashqi hujumni qaytaradigan kuchli harbiy tashkilotni yaratish yotar edi. Sparta davlatining

---

<sup>59</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.194.

konservativ holati uni zaiflashtirar edi. Sparta to er. avv. IV asrning ikkinchi yarmigacha shu holatda yashadi.

Er. avv. IV asrning II yarmidan butun yunon dunyosini qamrab olgan ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar Spartaga ham ta'sirini o'tkaza boshladi. Spartaning maqtalغان tenglar jamiyati buzildi. Spartalik erkaklarning barchasi uchun harbiy xizmat majburiy edi. Spartaliklar 7 yoshdan 18-20 yoshgacha harbiy ta'limni o'rganib, 20 yoshdan 60 yoshgacha harbiy xizmatda bo'lganlar. Jangda qo'shinning oldingi qismida ilotlar, perieklar borgan. Ulardan keyin, yosh spartaliklar, oxirida 60 yoshgacha bo'lgan keksalar jangga kirishgan. Sparta qo'shini er. avv. VI-V asrlarda Yunonistondagi eng yaxshi tashkil etilgan intizomli va kuchli qo'shin edi. Qo'shinlar 12 ta harbiy qismga (loxga) bo'lingan. Harbiy qism tepasida harbiy boshliq (loxak) turgan. Qo'shinga qo'mondonlikni podsholar amalga oshirgan. Ularga harbiy ishlarda harbiy maslahatchilar yordam bergan. Qo'shin tarkibida 300 ta suvoriy askar bor edi. Suvoriylar urush vaqtida podsholarni qo'riqlaydigan, tinchlik vaqtlarda esa, mamlakat xavfsizligini ta'minlaydigan o'ziga xos otliq gvardiyani tashkil etgan.

**4. Arxaik davr hayotining umumiy manzarasi.** Taxminlarga ko'ra, arxaik davrda yunon uy-joyi oddiy va bir qavatli edi. Epik matnlariga ko'ra, erkaklar qisqa ko'ylak (xiton) kiyib, ko'chaga chiqayotganda ustilariga keng yoping'ich (xlamida) tashlaganlar. Ayollar xiton ustidan hashamatli keng kiyim, kamar bilan tortilgan kamzul (peplum) kiyganlar. Sharqdan erkaklar uchun uzun, yubqa kanopdan to'qilgan, tumshuqqacha boradigan xiton o'zlashtirib olingan. Sochga tilla to'g'nog'ich qistirilgan. Ijtimoiy tabaqalanish kiyinishga ta'sir qilgan. Zodagon yoshlar otliq yurganda, oval plash (xlamida) bilan o'ranganlar. Hunarmandlar esa, chap yelka orqali tashlangan kamtar jun yoping'ich (eksomida) bilan cheklanib qolganlar.

Arxaik davrda oila-nikoh munosabatlari ham o'zgardi. Gomer davrida kuyov kelinni ota-onalariga qimmatbaho sovg'alar berib, sotib olar edi. Arxaik davrda esa, kelinga sep berish odatga aylandi. Nikohga asos bo'lib, yoshlarning ota-onasi o'rtasida tuzilgan kelishuv shartnomasi xizmat qilar edi. Tegishli qurbonliklar qilingach, kelinning otasini uyida to'y tantanalari va ziyofat boshlanar edi. Quyosh botishi bilan kelin kuyovning uyiga kuzatib qo'yilgan.

Dafn marosimlari o'zgardi. Arxaik davrda ko'kragiga urib yig'laydigan go'yandalar paydo bo'ldi. Yig'i-sig'idan so'ng, marhum jasadi yuvib-taralib, xushbo'y yog'lar surtilgan. Keyingi kun dafn qilish marosimi o'tkazilib, yig'i bilan mayit shahar tashqarisidagi qabristonga chiqarib ko'milgan. O'likning og'ziga yer osti Aid podsholigida o'liklarni tashuvchi Xarondga to'lov sifatida tanga qo'yanlar. Ehtimol, krematsiya ham bo'lgan. Bu haqida Gomer poemalarida eslatiladi. Marhum o'zining qimmatli buyumlari bilan katta gulxanda yoqilgan. Olovga vino, sut va asal sepish odati bilan marosim tugagan.

**Tayanch tushunchalar:** Apella, eklessiya, Sparta, axey, Artemida ibodatxonasi, Tenglar jamiyati, ilotlar, periek, simmaxiya, lakonizm, iryen, il, efor, lox, loxak, Kifera, Xarond, krematsiya, fiditiya, kriptiya, xiton, peplum,

eklessiya, gerusiya, ikki podsho, Arkadiya, simmaxiya, mayda chaqa tanga, Likurg, ashdod, evrionit, agela, geront.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sparta davlati tashkil topish shart-sharoitlarini tushuntiring.
2. Sparta boshqaruv tartibi xaqida ma'lumot bering.
3. Spartaning yunon dunyosidagi o'rnini manbalardan foydalanib izohlang.
4. Sparta – Afina munosabatlarini tushuntiring.
5. Spartancha tarbiyani izohlang.
6. Sparta g'oyalarini zamonviy tarixda ham uchratamizmi?
7. Sparta Tenglar jamiyati tushunchasi izohlang.
8. Sparta tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari ko'rsating.
9. Sparta ijtimoiy-iqtisodiy hayoti muammolari yoritib bering.
10. Sparta va yunon dunyasi rivojlanishdagi uyg'unlikni taxlil eting.

### **Ma'ruza №29,30.**

#### **Mavzu: Peloponnes urushi. Afinaning mag'lubiyati va uning sabablari**

#### **Reja:**

1. Peloponnes urushi xaqidagi manbalar
2. Urushning kelib chiqish sabablari
3. Urushning borishi
4. Urushning yakunlari va mintaqa uchun ahamiyati

Yunoniston shahar-davlatlari o'rtasida er. av. 431-404-yillarda bo'lib o'tgan urushlarni Peloponnes urushlari deyilib<sup>60</sup>, uni Fukidid "Tarix"idan, Ksenofontning "Gretsiya tarixi", Diodorning "Tarixiy kutubxona" asarlari, Plutarx va Aristofan ma'lumotlari orqali bilib olamiz.

Urushlar qadimgi Yunoniston quldorlik jamiyatida ichki ziddiyatlarning jamlanishi va keskinlashishi natijasida kelib chiqqan ediki, bu ziddiyatlarga viloyatlarning notekis rivojlanishi asos bo'lgan.

Yunonistonda 1-Afina dengiz ittifoqi bilan bir qatorda Peloponnes ittifoqi ham bor edi. U er. av. VI asrning ikkinchi yarmida tuzilgan bo'lib, unga Megara, Korinf, Agros, Tirinf kabi shahar-davlatlar a'zo edilar. Bu ittifoqqa Sparta boshchilik qilgan. O'tmishda 1-Afina ittifoqi bilan Peloponnes ittifoqi o'rtasida sulh shartnomasi ham tuzilgan edi. Sulh shartnomalarida ittifoqchilarning bir-birlariga qo'shin tortmasliklari, tinch-totuv yashashliklari ta'kidlangan.

2.Ammo keyingi voqealar 1-Afina ittifoqi bilan Peloponnes ittifoqi o'rtasida qator ziddiyatlar va kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu ziddiyatlarning

---

<sup>60</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.194.

tagida u yoki bu ittifoqning butun Yunonistonda hukmronlikni qoʻlga kiritish masalasi yotardi. Bu masala urushni keltirib chiqaradigan bosh omil edi. Urushning boshlanishini tezlashtirgan birinchi mojaro, bahona qadimgi yunon dunyosining gʻarbiy chekkasidagi Epidami koloniyasi va Kerkira orolida yuz bergan edi. Bu joylar Yunonistondan Janubiy Italiya va Sitsiliya oroliga boriladigan dengiz yoʻllaridagi ikki muhim bekat edi. Shu ikki joydagi mojarolar tufayli Peloponnes ittifoqiga aʼzo boʻlgan Korinf bilan Afina oʻrtasida ham nizo chiqqan. Urushni tezlashtirishga sabab boʻlgan ikkinchi bahona Xalkidika yarim orolidagi Korinf koloniyasi Potideyada ham yuz bergan. Bu yerda ham 1-Afina ittifoqi bilan Korinf oʻrtasida mojaro chiqqan. Megara shahar davlati Korinf tomonini olgan. Megara va Korinf Peloponnes ittifoqining boshligʻi Spartani Afinaga qarshi urushga undagan. Shundan keyin uchinchi mojaro ham yuz bergan. Afina xalq yigʻini 1-Afina ittifoqi aʼzolarining Afinaga qarashli barcha buxtalarida Megara savdo-sotiq kemalarining toʻxtashlarini taqiqlagan. Shu tariqa Afina bilan Megara oʻrtasida keskinlik kuchaygan. Endi urushning boshlanishi muqarrar edi.

Er. av. 431-yilda Korinf va Megaraning tezlashi bilan Sparta Afinaga qarshi urush harakatlarini boshlab yuborgan<sup>61</sup>. Urushga Sparta podshosi Arxidam II boshchilik qilgan. Shuning uchun bu urush Arxidam urushi ham deyiladi. Bu Peloponnes urushining birinchi bosqichi boʻlib, urush er. av. 431 yildan 421-yilgacha davom etgan.

431-yilda Sparta qoʻshinlari Attikaga bostirib kirganlar va dehqon xoʻjaliklarini vayron qilib, dehqonlarni talaganlar. Natijada ularning oʻzlari oziq-ovqat masalasida ogʻir ahvolga tushib qolganlar. Afinaliklarni qatʼiy jangga torta olmagan spartaliklar Peloponnesga qaytishga majbur boʻlganlar. Er. av. 430-yilda spartaliklar Attikaga yana hujum qilganlar. Shu yili Afinada vabo tarqalib, koʻp odam qirilib ketgan. Urushda har ikki tomon ham jiddiy gʻalabaga erisha olmagan. Xalq va aksariyat dehqonlar Afina boshiga tushgan kulfatlarning aybdori Perikl deb hisoblashgan. Xalq yigʻini er. av. 430-yili uni hokimiyatdan chetlashtirgan. Ammo bir yildan keyin uni oqlab, qaytadan birinchi strateg qilib saylaganlar. Qartayib qolgan Perikl koʻp oʻtmay yuqumli kasallikdan vafot etgan. Uning vafotidan keyin hokimiyat tepasiga Kleon saylangan. Shu davrda 1-Afina ittifoqi aʼzolari orasida Afinaga qarshi guruhlarining harakati kuchaygan. Bu guruhlariga Sparta yordam berib turgan.

Er. av. 429-yilni hisobga olmaganda, spartaliklar har yili Attikaga hujum qilib turganlar. Ular bogʻ-rogʻlarni, uzumzorlarni va boshqa ekinzorlarni kesib, qirqib, vayron qilib tashlaganlar.

Er. av. 428-yilda Lesbos orolidagi Mitilena shahrida Afinaga qarshi qoʻzgʻolon koʻtarilgan. Afinaliklar Mitilenadagi qoʻzgʻolonni shavqatsizlik bilan bostirganlar. Ayni paytda 100 triyerdan iborat Afina kemalari Peloponnes sohillariga yuborilgan. Ular Spartadan Lesbosga yordam uchun yuborilishi mumkin boʻlgan harbiy kemalarning yoʻllarini toʻsib turishlari kerak edi.

---

<sup>61</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.194.

Spartaliklarning Beotiya, Attika va boshqa joylarda olib borgan janglari yaxshi natija bermagan.

Er. av. 421-yilda Afina bilan Sparta o'rtasida 50 yilga mo'ljallangan sulh tuzilgan. Bu sulhning tashabbuskori Nikiy bo'lganligi uchun u Nikiy sulhi nomini olgan. Sulh shartlariga ko'ra, tomonlarning qo'shinlari ishg'ol qilgan yerlarini bir vaqtda bo'shatib chiqishlari lozim edi. Agar Spartalik ilotlar qo'zg'olon ko'tarsalar, afinaliklar spartaliklarga yordamga borishlari kerak edi. Ammo sulh shartlari to'la bajarilmagan. Afinaliklar Meseniya pilosida, spartaliklar esa, Frakiyadagi Amfiopolda qolganlar. Spartaning ittifoqchilari Korinf, Megara va Fiva Nikiy sulhini tan olmagan. Nikiy sulhi bilan Peloponnes urushining birinchi bosqichi tugagan.

Er. av. 415-404-yillar Peloponnes urushining ikkinchi bosqichi hisoblanadi. Urushning bu bosqichida afinaliklarning Sitsiliyada muvaffaqiyat qozonsalar, bu Spartani mag'lubiyatga olib kelishi va Afinani ulug' Yunonistonning etakchisi qilib qo'yishi mumkin edi.

Er. av. 415-yilda afinaliklar 260 ga yaqin harbiy va yuk kemasini, 32 ming kishidan iborat qo'shinlarini Sitsiliyaga jo'natishga tayyorlab qo'yg'alar. Afina floti Alkiad, Nikiy va Lamaxlar rahbarligida Sitsiliyaga jo'nab ketgan.

Afina qo'shinining qo'mondonlaridan biri Alkiad xoinlik qilib, spartaliklar tomoniga qochib o'tgan. U spartaliklarga afinaliklarning barcha sirlarini aytib, Attikaga muntazam qo'shin yuborib, uni vayron qilish kerak degan taklif kiritgan. Alkiad qochganidan keyin Afina flotiga Nikiy, Demosfen va Lamaxlar boshchilik qilganlar. Nikiy urushning to'xtashiga umid bog'lab, urush harakatlarini paysalga solgan. Bu bilan sitsiliyaliklarga mudofaaga tayyorgarlik ko'rishlari uchun katta imkoniyat yaratib bergan. Ayni paytda Sitsiliyadagi yunonlar ham afinaliklarga dushmanlik munosabatida bo'lganlar.

4.Er. av. 404 yili ochlikdan madori qurigan afinaliklar spartaliklarga taslim bo'lganlar. Afinani Sparta qo'shinlari egallaganlar, uni Pirey bilan bog'lagan devorlar qulatilgan. Afina arxesi tarqatilgan, u Spartaga qaram davlatga aylantirilgan. Oligarxlar Kritiy va Feramen boshchiligida o'ttizlar tiraniyasini tuzib, hokimiyatnio'z qo'llariga olganlar. Kritiy va boshqalar o'zlariga yoqmagan kishilarni jazolab, quvg'in ostiga olganlar, aholini talaganlar. Feramen unga norozilik bildirganida uni qatl etganlar.

Sobiq demokrat Frasibul Beotiyaga qochib bekingan. U afinalik qochoqlardan otryad tuzib, chegaradagi Filani egallagan. Frasibul Pireyga yaqinlashar ekan, uning tarafdorlari ko'payib boradi. Bir necha janglardan so'ng oligarxlar va spartaliklar mag'lubiyatga uchraganlar. Kritiy ham o'ldirilgan.

Er. av. 403-yili Afinada demokratiya qayta tiklangan. Ammo Afina Peloponnes ittifoqiga a'zo bo'lib qolgan. Shunday qilib, to'xtab-to'xtab 27 yil davom etgan Peloponnes urushi Spartaning g'alabasi bilan tugagan. Bu urush butun yunon olamiga, xususan Afinaning iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotiga va harbiy qudratiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bu hol Yunonistonning butunlay zaiflashishiga olib kelgan.

Peloponnes urushi er. av. V asrdayoq yuzaga kela boshlagan jarayonni tezlashtirib, xo‘jalik tarmoqlarida ishlatilayotgan qullar sonini ko‘payishiga olib keldi. Ularning mehnatidan foydalanish hunarmandlar, yuk tashuvchilar va batraklarning ahvoriga halokatli ta'sir ko‘rsatib, ularni qashshoqlashtirib, o‘zining doimiy ishidan mahrum qildi. Ishlab chiqarish ishiga qullarning ishi deb qarash ana shu davrdan keng rasm bo‘ldi, buning natijasida esa halol mehnat qilib pul topishga bo‘lgan rag‘bat susaydi.

**Tayanch tushunchalar:** Yunoniston, Peloponnes urushi, Fukidid, Tarix, Ksenofont, Gretsiya tarixi, Diodor, Tarixiy kutubxona asarlari, Plutarx, Aristofan, 1-Afina dengiz ittifoqi, Peloponnes ittifoqi, Megara, Korinf, Agros, Tirinf, Sparta, Epidami koloniyasi, Kerkira, Sitsiliya, Lesbos oroli, Mitilena, Beotiya, Attika, Nikiy sulhi, Alkviad, Nikiy, Lamax, Kritiy, Feramen, Frasibul.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Afina va Sparta rivojlanishidagi umumiy va xususiy belgilar nimalardan iborat?
2. Ikki davlat o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni sababi nimalardan iborat?
3. Peloponnes urushi vaqtida xalqaro vaziyat qanday edi?
4. Peloponnes urushida Eron Axamoniylari davlati qanday rol o‘ynadi?
5. Nima uchun hamma davrlarda ham bir dinli va bir tilli xalqlarni urushlari uzoq davom etadi?
6. Arxidam urushi va uning natijasi qanday tugadi?
7. Alkiad faoliyatiga qanday baho berasiz?
8. Nikiy sulxi va uning xalqaro ahamiyatini ochib bering
9. Urushning yakunlari va undan keyingi xalqaro vaziyatni yoritib bering.
10. Peloponnes urushi va uning hozirgi davr uchun ahamiyati.

### **Ma`ruza №31,32**

#### **Mavzu: Aleksandr Makedonskiy saltanati Reja:**

1. Makedoniyaning yuksalishi
2. Yunonistonda makedon hukmronligining o‘rnatilishi.
3. Iskandarning Sharqqa yurishlari.
4. Iskandar davlatining parchalanishi

**1. Makedoniyaning yuksalishi. Yunonistonda makedon hukmronligining o‘rnatilishi.** Makedoniya Bolqon yarim orolining shimolida joylashgan bo‘lib, uning shimol va sharqdagi qo‘shnilari qadimgi frakiya qabilalari, g‘arbda illir qabilalari, janubda fessaliyaliklar edi. Makedoniya uncha baland bo‘lmagan tog‘lar va bir necha hosildor vodiylarda joylashgan edi. Iqlimida dengiz va kontinental iqlimning uyg‘un qo‘shilib ketgani ko‘rinadi. Makedoniyada temir, mis oltin va kumush zahiralari mavjud edi. Tog‘

hududlarida kema qurish uchun zarur bo'lgan daraxt navi o'sgan. Makedoniyada ko'p etnik guruhlar yashagan. Aholining asosiy qismini tashkil etgan makedonlar er. avv. XII-XIII asrlardan beri bu yerda yashar edilar. Bundan tashqari, bu yerda epir, illir va frakiyaliklarga tegishli etnik guruhlar mavjud edi.

Makedoniyada er. avv. VI-V asrlar oraligida ilk davlat va jamiyat shakllandi. Makedoniya yunon shahar-davlatlaridan ko'ra, zaif rivojlangan, urug'chilik an'analari kuchli bo'lgan davlat edi. U dengizga chiqadigan yo'lga ega emas edi. Shu sababli, dengiz savdosi va koloniyalar barpo etishga ishtirok eta olmadi. Makedoniya dehqonchilik mamlakati bo'lib, aholining asosiy qismini dehqonlar tashkil etgan.

Podsho Arxelay (er.avv.413-399 yillar) ilk bor o'z mamlakatiga yunon madaniyatini olib kirishga urindi. Peloponnes urushlaridan so'ng, Makedoniya yunon sivilizatsiyasini tez o'zlashtira boshladi. Ayniqsa, yunon harbiy san'ati va harbiy texnikasi yaxshi o'zlashtirildi. Yunonlar uchun Makedoniya qoloq varvarlar mamlakati edi.

Podsho Aminta va uning o'g'li Iskandar hukmronligi davrida Makedoniya yunon-fors urushlariga tortildi. Makedon podsholari vaziyatga qarab, har ikki tomonni ham qo'llab-quvvatlaganlar. Podsho (er. avv. 498-454-yillar) Kserksning er. avv. 480-479-yillardagi mag'lubiyatidan so'ng, yunon shahardavlatlari bilan yaqinlasha boshladi. Yunonlar hatto unga unumyunon Olimpiya o'yinlarida ishtirok etishiga ruxsat berdilar. Iskandar yugurish musobaqasida g'alala qozondi. Uning vorisi podsho Arxelay (er. avv. 419-399yillar) qator islohotlar o'tkazib, podsho hokimiyatini kuchaytirdi. U Makedoniyaning chekka hududlaridagi yarim mustaqil hokimlarning o'zboshimchaligini chekladi. Podsho mamlakatning turli hududlarida bir necha qal'alarni qurib, ularni qo'shin va oziq-ovqat bilan ta'minlash qulay bo'lgan to'g'ri yo'llar bilan bog'ladi. Podsho Arxelay otliq qismlarni takomillashtirdi va uni zarbdor kuchga aylantirdi. Dengizga va dengizbo'yi shaharlariga yaqin Pella shahrini poytaxtga aylantirdi.

Arxelay Afina bilan yaqinlashib, uning yordamida Xalkida va Fessaliyadagi bir necha yunon shaharlarini bosib oldi. Makedoniya urug' zodagonlarining bir qismi podsho hokimiyatining mustahkamlanishi, boshqaruvning markazlashuvi hamda yunon shaharlari bilan yaqinlashuvidan norozi bo'lib, fitna uyushtirdilar. Natijada Arxelay o'ldirildi. Makedoniya bir necha o'n yil ichki ziddiyatlar ichida qoldi. Makedon podsholari hududiy separatizmga barham berib, podsho hokimiyatini mustahkamlash siyosatini olib bordilar. Podsho Aminta II vafotidan so'ng taxt uchun kurashga qo'shni Fiva shahri aralshdi, Fiva makedon taxtiga Aminta II ning katta o'g'li Perdikka III ni o'tqazdi. Amintaning kichik o'g'li Filippni garov sifatida Fivaga olib ketdi. Tez orada Perdikka illiriyaliklarga qarshi urushda o'ldirildi, taxtga Filipp II (er.avv 360-336yillar) chiqdi. Filipp II makedon urug'-qabilalari o'rtasidagi nizolarga qat'iy chek qo'ydi. U o'z hokimiyatini butun mamlakat miqyosida tan olinishiga erishdi. U harbiy islohot o'tkazib, makedon falangasini tuzdi. Og'ir qurollangan piyoda (goplitlar) 16-29 qator saflanadigan jangchilar bo'lib, 5 metrgacha uzunlikdagi sarissa (nayza)

bilan qurollangan. Orqa safdagilar sarissalarini oldingi qatordagilar yelkasiga qo`yar edilar. Og`ir qurollangan jangchilar katta qalqonlar bilan himoyalaniib, sarissalarni tikandek chiqarib, dahshatli kuchni tashkil qilar edilar. Makedon zodagonlaridan tuzilgan og`ir qurolli suvoriy getayrlar (“podshoning o`rtoqlari”) qo`shinda muhim o`rin tutgan. Qo`shin tarkibida turli qamal qurollari bilan ta`minlangan injener qismlarmavjud edi.

Er. avv. IV asr o`rtalarida Makedoniya Bolqon shimolidagi eng kuchli davlatga aylandi. Er. avv. IV asr o`rtalarida Makedoniya kuchli qo`shin bilan Epir va Frakiyani egalladi. Shu vaqtdan boshlab Makedoniya yunon davlatlarining ishlariga faol aralasha boshladi. U o`z maqsadini amalga oshirish uchun har qanday vositadan foydalandi. O`z va`dasidan qaytish, xiyonat, pora berib sotib olish, makkorlik Filipp IIga xos xususiyat edi. U qator yunon shaharlarining obro`li fuqarolarini pora berib, Makedoniyaga moyil qildi. “Oltin ortilgan eshak eng baland devordan ham o`tadi” degan ibora Filipp II ga tegishli edi. Filipp II er. avv. 355-yilda Makedoniya Fiva va Fokida o`rtasidagi urushga aralashib, Fokidani tor-mor qildi. Natijada Makedoniya butun Shimoliy Yunonistonga egalik qildi. Tez orada Fessaliya, Xaldika yarim orolining bir qismi, Frakiyaning janubiy qirg`og`i, Bosforgacha Makedoniyaga qaram bo`ldi. Makedoniya endi dengiz davlatiga aylandi. Yunonlarni Qora dengizga chiqish yo`li Makedoniya qo`liga o`tdi.

Yunon davlatlaridan faqat Afina Filipp II ga qarshi tura olishi mumkin edi. Lekin Afinada makedon va antimakedon partiyasi mavjud edi. Makedon partiyasi (yetakchisi Isokrat) yunonlar Filipp II boshchiligida Eronga qarshi yurish qilib, katta o`lja olishi mumkin, yunonlar ichidagi o`zaro kelishmovchiliklarga chek qo`yiladi deb hisoblar edilar. Demosfen boshchigida antimakedon partiyasi Makedoniya bilan ittifoq yunon davlatlarini erkinligini yo`qotishga, qaramlikka, demokratiyani yo`qotishga olib keladi deb hisobladilar. Demosfen Afina, Fiva, Korinf va boshqa yunon shaharlari birlashgan kuchli antimakedon guruhini tuzdi.

Er. avv. 337-yil avgust oyida yunon shaharlari va Filipp II qo`shinlari o`rtasida Beotiya (Xeroneya)da hal qiluvchi jang bo`ldi. Makedon qo`shinlari yunonlarni tor-mor qildi. Shundan so`ng, er. avv. 337-yilda Filipp II Korinf shahrida umumyunon kongressini chaqirdi. Kongressda muhim qarorlar qabul qilindi. Yunon shaharlarining ittifoqi tuzildi. O`zaro urushlar ta`qiqlandi. Yunon davlatlari makedon podshosi bilan abadiy mudofaa va hujum ittifoqi tuzdi. Eron bilan urush boshlashga qaror qilindi. Faqat Sparta bu kongressga qatnashmadi.

**2. Iskandarning Sharqqa yurishlari.** Filipp II Eron bilan urushga jiddiy tayyorgarlik ko`ra boshladi. Bu davrda imperiya ancha zaiflashgan edi. Er. avv. 360-yillarda satraplarning isyonlari, Finikiya shaharlarining qo`zg`olonlari yuz berib, Misrning mustaqillikka intilishi kuchaydi. Eronning so`nggi qudratli podshosi Artakserks III Ox 20 yil davomida yemirilayotgan davlatni bir qadar mustahkamladi. Ammo shijoatli hukmdor o`z a`yonlari tomonidan zaharlab o`ldirildi. Podsho Artakserksni zaharlab o`ldirgan qudratli haram og`asi Bagoy amalda hokimiyatni qo`lga oldi. U mamlakatni boshqarishda uning mavqeiga

putur yetkazmaydigan zaif bir shaxsni taxtga o'tqazishni niyat qildi. Bagoy qo'g'irchoq hukmdor sifatida ko'plarga tanish bo'lmagan Armaniston satrapini Doro III nomi bilan taxtga o'tqazdi. Yangi podsho Bagoyni hokimiyatdan chetlashtirib, o'z hokimiyatini mustahkamlashga kirishdi.

Makedoniya esa, bu davrda yunon dunyosida o'z mavqeini mustahkamlab, Sharqqa yurishda faol tayyorgarlik ko'ra boshladi. Filipp II er. avv. 336-yil Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'ini bosib olish uchun 10000 makedon qo'shinini jo'natdi. Ammo Sharqqa yurish g'oyasini amalga oshirish Filipp II ga nasib etmadi. Bu g'oyani uning o'g'li Iskandar amalga oshirdi. Iskandar taxt vorisi va oqsuyak oilaning farzandiga munosib bo'lgan ta'lim-tarbiyani oldi. O'sha davrda hali mashhur bo'lmagan faylasuf Aristotel (Arastu) uning o'qituvchi va tarbiyachilaridan biri bo'ldi. Filipp II o'g'lini davlat boshqaruv ishlariga asta-sekin torta boshladi. Iskandar er. avv. 340-yilda Shimoliy Yunonistonning tog'li hududlaridagi qabilalardan birining qo'zg'olonini bostirib, birinchi bor o'zini kuchli sarkarda ekanligini ko'rsatdi.

Er. avv. 336-yil yozida Filipp II qizining to'yida o'z qo'riqchisi tomonidan o'ldirildi. Uning 20 yoshli o'g'li Iskandar (356-323 йй) podsho hokimiyatini egalladi. Filipp II ning o'limidan foydalangan yunon shaharlari Fiva shahri boshchiligida Makedoniyaga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Yunonlar uchun kutilmagan holda Iskandar bu qo'zg'olonni shafqatsiz bostirdi. Fiva shahri buzib tashlandi va uning tirik qolgan qo'zg'olonchi aholisi qul qilib sotib yuborildi.

Iskandar Eron bilan bo'lg'usi urush katta tayyorgarlikni talab qilishini bilar edi. Bu forslarning hushyorligi yo'qotish uchun Kichik Osiyodagi makedon qo'shinini chaqirib oldi. Ammo Fors davlati mavjud makedon bosqiniga qarshi hech qanday tayyorgarlik ko'rmadi. Ikki yildan so'ng, er. avv. 334-yilda nihoyatda puxta tayyorgarlikdan keyin, makedon qo'shinlari Gellespont bo'g'ozidan o'tib, Osiyo hududiga kirdi. Qo'shin 30 ming piyoda, 5 ming otliq, 160 harbiy kemadan iborat edi. Urush e'lon qilish uchun bahona bo'lib, er. avv. V asr o'rtalarida yunon-fors urushlari davrida yunon ibodatxonalarining forslar tomonidan oyoq-osti qilinishi bo'ldi. Bu mafkuraviy shiordan Iskandar yunonmakedon kuchlarini birlashtirishda foydalandi.

Forslar bilan birinchi jang Kichik Osiyodagi Granik daryosi bo'yida bo'ldi (er. avv. 334-yil). Bu jangda yunon-makedonlar Eronning Kichik Osiyo satraplari va yunon yollanma askarlari qo'shinlari bilan jang qildilar. Eron podshosi Doro III va uning muntazam qo'shini Granik jangida ishtirok etmadilar. Bu jangdan so'ng, Iskandar Kichik Osiyo qirg'og'idagi yunon shaharlarini forslardan ozod qildi va Kichik Osiyoning katta qismini bo'ysundirdi. Sard va Gordiy shaharlari ishg'ol qilindi. Galikarnas shahri forslarga sodiq qolib, makedonlarga qattiq qarshilik ko'rsatdi.

Kichik Osiyoni bosib olishni tugallab, Iskandar Kilikiya orqali Shimoliy Suriyaga o'tdi. Er. avv. 333-yil kuzida Issa shahri yonida yunon-makedonlar Doro III qo'shinlari bilan to'qnashdilar. Har ikki tomon uchun bu jang og'ir bo'lib, katta qurbonliklar berildi. Fors qo'shinlari son jihatdan yunonmakedonlardan ko'ra

ko'p edi. Doro III og'ir jangda o'zini yo'qotib qo'ydi va jang natijasini kutmay, jang maydonini tashlab ketdi. Hattoki, Doro III qarorgohdagi o'z oilasini ham tashlab ketdi. Iskandar juda katta qiyinchilik bilan g'alaba qozondi. Bu jang Suriya va Falastin qirg'og'ini bosib olish uchun yo'l ochdi.

Damashq shahrida Doro III ning xazinasini bosib olindi. Bu Iskandar qo'shinlarining moddiy ta'minotini ancha yaxshiladi. Tir va G'azo shaharlari bosqinchilarga qattiq qarshilik ko'rsatdi. G'azoning bosib olinishi yunonmakedonlarga Misrga yo'l ochdi. Doro III yordamidan mahrum bo'lgan fors satrapi g'oliblarga taslim bo'ldi. Misrliklar fors zulmidan Iskandarni xaloskor sifatida kutib oldilar.

O'rtaer dengizi qirg'og'ida, Nil daryosi bo'yida er. avv. 331-yilda Iskandariya shahriga asos solindi. Bu shahar Misrda yangi hokimiyatning markazi, muhim savdo porti bo'lib xizmat qildi. Misr hududida bu shaharga asos solinishi Sharqda shaharlar qurilishi siyosatini boshlanishi edi. Iskandar Memfis shahrida toj kiydi va bu bilan Misrda o'z hokimiyati qonuniyligini ta'kidladi.

Er. avv. 331-yil bahoridan Sharqqa yurishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Dajla daryosidan uzoqda bo'lmagan Gavgamelaqishlog'i yaqinida 1-oktabr kuni Iskandar va fors qo'shini o'rtasida hal qiluvchi jang bo'ldi. Jang boshlanishida fors qo'shini makedonlarning o'ng qanotini buzib tashladi. Markazda Iskandar fors qo'shinining o'rtasiga o'z otlilari bilan kirib oldi. Forslar jang aravalari va fillarni jangga tashladilar. Ammo Doro III Issa yonidagi jangda bo'lganidek, davom etayotgan jangni yutqazilgan deb hisoblab, yana jang maydonini tashlab qochdi. Iskandar qo'shinlari hech qanday qarshiliksiz jadallik bilan butun Mesopotamiyani bosib o'tib, Suza shahri va Ahmoniylar davlatining markaziy hududlariga kirib bordilar. Bobil va boy Suza shahri, Eronnig muqaddas markazi Persepol jangsiz bosib olindi. Suza va Persopol shaharlaridagi Ahmoniylarning boy xazinalari Iskandarning qo'lga o'tdi. Er. avv. 330-yil Persepol saroyini yondirish bilan Iskandar Fors davlati ustidan g'alabasini ramziy belgiladi. Bu vaqtda Baqtriya satrapligiga chekingan Doro III o'z yaqinlari tomonidan o'ldirildi. Doro III ning armiyasi juda ham katta bo'lgan chunki u armiyani Su'g'diylar, Baqtryaliklar va Baqtrya chegarasiga yaqin bo'lgan Hind xalqlari bilan kuchaytirgan edi. Ularning hammasi Bessning hukmronligi ostida edi.

Arrianning ma'lumot berishicha Doro III ning qo'l ostida 40 ming otliq, bir million piyoda va 200 jang aravasi bor edi<sup>62</sup>.

Iskandar forslarni o'zlari egallab turgan yuqori lavozimlarda qoldirdi. Bu makedon qo'shinida norozilik tug'dirdi. Doro III ning halokati urushni tugashini bildirar edi. Girkaniyaning markazi Gekatompleshahrida ittifoqchi yunon polislarining qo'shinlari rasmiy tarqatildi. Shu bilan birga, yunonlarga Iskandarning yollanma askarlari sifatida yurishni davom ettirish taklif qilindi. Iskandar o'zini fors podsholarining qonuniy vorisi sifatida urushni davom ettirishga ahd qildi. Iskandar qiyinchilik bilan yurishni davom ettirishni istamagan

---

<sup>62</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.209.

qo`shin qarshiligini yengib, yana oldinga siljidi. Parfiya bosqinchilarga hech qanday qarshilik ko`rsatmay, uning satrapi o`z obro`sini saqlab qoldi.

Iskandar er. avv. 329-yilda Amudaryodan o`tib, O`rta Osiyoga kirdi. Bu yerda u mahalliy aholining qattiq qarshiligiga uchradi. Spitamen boshchigida sak-massagetlar uch yil davomida Iskandar qo`shinlariga qarshi turdilar. Noiloj qolgan Iskandar mahalliy zodagonlarni sovg`a-salom bilan o`z tomoniga og`dirib olishga urindi. U So`g`d hokimi Oksiartning qizi Roksanaga uylandi.

Rivoyatlarga ko`ra, Iskandar O`rta Osiyoda o`z tayanch nuqtasi sifatida 12 shahar quradi. Ammo bu shaharlarning xarobalari topilgani yo`q. Bu afsona bo`lishi mumkin. Tarixda ma`lum bo`lganlari hozirgi Xo`jand shahri yaqinida Iskandariya Esxata (Uzoqdagi Iskandariya) shahri, Afg`onistonda Hirot shahri yaqinida Iskandariya Ariya shaharlaridir.

Er. avv. 327-yilda Iskandar Hindukush tog`lari orqali Hindistonga o`tdi. Shimoliy Hindistondagi Gidas daryosi bo`yida Iskandar qo`shinlari Panjob hukmdori Por qo`shinlari bilan to`qnashib, o`zining oxirgi g`alabasiga erishdi (er. avv. 326-yil).

Iskandarning qo`shini yurishni davom ettirishni istamay, uni buyruqlarini bajarmay qo`ydi. Iskandar qo`shinni yurishni davom ettirishga ko`ndirishga urindi, ammo qo`shin ko`nmadi. Ikki kunlik muzokaralardan so`ng, Iskandar yon berishga majbur bo`ldi. Vatanga qaytish to`g`risida buyruq berildi. Iskandar qo`shinlarini qaytishi ikki yilga cho`zildi. Qo`shinning bir qism dengiz orqali, bir qismi quruqlik yo`li orqali ortga qaytdi. Qo`shinning har ikkala qismi er. avv. 324-yil Bobilda uchrashdi.

Yurishning tugallanayotgan bosqichida Suza shahrida Iskandar makedon va forslarni murosaga keltirish belgisi sifatida o`zining 10 ming askarlarini mahalliy aholining qizlari bilan nikoh to`yini katta tantana bilan o`tkazdi. O`z qo`shini tarkibiga 30 ming fors yigitlarini qabul qildi. U bosib olingan hududlarda o`nlab koloniya va harbiy qo`rg`onlarni o`z hokimiyatining tayanch nuqtasi sifatida barpo qildi.

Makedoniyaning qadimgi poytaxti Pellaga qaytishni istamagan Iskandar o`z davlatining poytaxti qilib qadimgi shahar Bobilni tanladi. U Kaspiy dengizini o`rganish uchun tekshiruvchi ekspeditsiya tashkil qildi. Arabiston yarim oroli qirg`oqlarini tekshirishga buyruq berdi.

Iskandar yurishlari natijasida g`arbda Adriatika dengizidan sharqqa Hindistongacha, shimolda Kavkaz tog`laridan janubda Nil daryosining o`rta oqimigacha cho`zilgan hududni qamrab olgan ulkan davlat vujudga keldi. Bu davlat hududiy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan avvalgi Ahmoniylar davlatini eslatar edi. Iskandar o`zining ulkan davlatini uzoq boshqara olmadi. Iskandar Bobilda Kaspiy dengizini tadqiq qilish, Arabistonga yurish rejalari ustida ishladi. Bezgak kasaliga chalingan Iskandar o`limga yuz tutib, askarlar bilan xayrlashdi. Iskandar er. avv. 323-yil iyun oyida 13 yil hukmronlikdan so`ng 32 yoshda Bobil shahrida vafot etdi. Uning jasadi ikki yildan so`ng hashamatli aravada Iskandariyaga olib borildi, Misr noibi Ptolemey maxsus qurilgan ibodatxonaga Iskandarni jasadini dafn qildi. Iskandarning o`limidan so`ng, uning

ulkan davlati parchalana boshladi. Oxir-oqibatda u bosib olgan hududlarda Ellin davlatlari tizimi shakllandi.

**3. Iskandar davlatining parchalanishi. Diadoxlar urushi.** Iskandar o'zining vorisini rasmiy jihatdan tayinlashga ulgurmadi. Og'ir kasal yotgan Iskandardan davlat boshqaruvini kimga qoldirishini so'raganlarida, "eng loyiqqa" deb javob berdi. Bu uning lashkarboshilari o'rtasida Iskandar merosi uchun uzoq kurashga olib keldi. Bu kurash bir necha o'n yillarga cho'zilib, juda ko'p qon to'kishlarga sabab bo'ldi.

Iskandarning o'limi vaqtida makedon taxtiga qonuniy da'vogarlar yo'q edi. Iskandarning xotini bo'lgan so'g'd malikasi Roksana hali homilador edi. Pergamda Iskandarga asir tushgan fors satrapi Artabazning qizi Barsinadan 4 yoshli noqonuniy o'g'li Gerakl qolgan edi. Taxtga Filipp II ning aqli zaif bo'lgan noqonuniy o'g'li Arridey ham da'vo qilishi mumkin edi. Makedoniyada Iskandarning yaqinlari Roksana agar o'g'il tuqsa, uni podsho deb e'lon qilish, uning go'dakligi davrida hokimiyatni tajribali sarkarda Perdikka boshchigidagi davlat kengashiga topshirish lozim deb hisobladilar. Harbiy boshliqlar va saroy a'yonlarining boshqa bir guruhi Arridey nomzodini yo'qlab chiqdilar. Obro'li lashkarboshi Nearx makedon taxtiga birdan-bir da'vogar Gerakl bo'lishi mumkin deb hisobladi. Iskandarning safdoshi, lashkarboshi Ptolemey boshchiligidagi yana bir guruh podshoni saylash kerak emas, chunki

Iskandarning o'g'illarini onalari Sharq ayollari, uning asiralari, oqibatda bunday da'voglarni taxtga chiqarish hamma vaqt noqonuniy bo'ladi deb hisobladilar. Manbalarda Iskandarni O'rta Osiyolik Roksanaga uylangani to'g'risidagi fikrlar ham uchraydi. Bundan tashqari bosib olingan xududlarda Filipp va Iskandar tasviri tushirilgan tanga pullar ham keng tarqalganligini arxeologik materiallar orqali ko'rish mumkin.

Taxt vorisi to'g'risidagi munozaralar Perdikka regentligi bilan Filipp II ning noqonuniy o'g'li Arrideyni podsho deb e'lon qilish bilan tugadi. Xuddi shu vaqtda Iskandarning bevasi Roksana o'g'il tug'di va unga Iskandar deb nom berildi. Makedon taxtiga birdaniga Arridey Filipp III nomi bilan, Roksananing o'g'li Iskandar IV nomi bilan podsho deb e'lon qilindi. Osiyodagi qo'shinlar qo'mondonligini o'ziga olgan Perdikka yana regent etib tayinlandi. Shunday qilib, u Iskandar davlatining amaldagi hokimiga aylandi.

Iskandarning vafotidan keyin, amalda yagona davlatning oliy hokimi bo'lgan Perdikka Bobilda makedon podshosining eng yaqinlari o'rtasida satrapliklarni taqsimlagan edi. Yunoniston va Makedoniya Antipatr, Frakiya Lisimaxga, Misr Ptolomeyga, Kappadokiya va Paflagoniya Yevmenga, Gellespont Frigiyasi Leonardga, Buyuk Frigiya Antigonga, Suriya Laomedontga, Midiya Pifonga berildi. Barcha yangi saylangan hokimlar o'z qo'shinlari bilan o'z mulklariga jo'nab ketdilar. Iskandarning aynan ana shu sobiq safdoshlari (diadoxlar) o'zlariga berilgan hududlarga qanoat qilmay va boshqalarning mulkiga egalik qilish uchun Iskandar merosi uchun qonli kurashni boshladilar.

Iskandar o`limi arafasida o`z muhri o`yilgan uzukni Perdikkaga bergan edi, u davlat hukmdori lavozimini egalladi (er.avv.323-321yillar), bu vatqda davlatning yaxlitligi saqlanib turildi. Iskandar o`limidan keyingi ikki yil davomida Yunoniston makedon zulmidan ozod bo`lishga urindi. Antipatr yunon qo`shinlarini tor-mor qilib, bu yerga makedon garnizonlarini joylashtirdi. Tez orada Antigona, Ptolomey va Antipatr Perdikkani kuchayib ketganidan cho`chib, unga qarshi ittifoq tuzdilar. Perdikkaning hukmronligini tan olmagan Ptolomeyga qarshi Misrga yurish paytida Perdikka yuborilgan qotillar tomonidan o`ldirildi(er.avv.321-yil). Davlat hukmdorligi Antipatrga o`tdi (er.avv. 321-315yillar) Antipatr o`z vorisi etib kekse lashkarboshi Poliperxontni tayinlashi davlatni to`la yemirilishiga olib keldi. Uning buyrug`i bilan podsho oilasi Makedoniyaga ko`chirildi.

Antipatr topshirig`i bilan er. avv. 321-yilda satrapliklar qisman qayta taqsimlandi. Natijada kelajakdagi eng yirik Osiyo davlatining asoschisi Salavk Bobilni o`z qo`liga oldi. Shundan ikki yil keyin, er. avv. 315-yilda Antipatr vafot etdi. U regentlikka voris qilib kekse va tajribali harbiy boshliq Poliperxontni tayinlashga ulgurgan edi.

Ammo yuzaga kelgan bu vaziyat Iskandarning yaqinlari bo`lgan yosh g`ayratli lashkarboshilarni qanoatlantirmadi. Jumladan, Antipatrning bu qaroridan o`z o`g`li Kassandr norozi bo`lib, Poliperxontdan bu lavozimni tortib olish uchun Sharqdagi satraplar Lisimax, Antigona va Ptolemey bilan ittifoq tuzdi. Er. avv. 316-yilda Poliperxont regentlikdan chetlashtirildi. Kassandr butun Yunonistonni egallab oldi. Lekin Kassandrning kuchayib ketishidan Antigona va Iskandarning sobiq kotibi Yevmen norozi bo`ldilar. Iskandar davlatining yaxlitligini saqlab qolishga uringan, separat kayfiyatlarga qarshi natijasiz kurashgan birdan-bir kishi Yevmen edi. U makedon podsholigining “qonuniy” podsholari nomidan harakat qilgan, qator sabablarga ko`ra, hech qanday hudud va qo`shinga ega bo`lmagan birdan-bir diadox edi. Lekin uning qo`lida Iskandar sobiq davlatining turli shaharlarida bosib olingan katta miqdordagi moliyaviy mablag`lar mavjud edi. Yevmen ana shu mablag`lar hisobiga katta yollanma qo`shin to`plab, Bobil va Eronni bosib olishga urindi. Bu xavfga qarshi Antigona Bobil va Midiya satraplari Pifon va Salavk bilan ittifoq tuzdi va Yevmenga qarshi yurish qildi. Er. avv. 316-yilda Gabiyan yonida (Midiya va Eron chegarasi) Yevmen bilan Antigona o`rtasida hal qiluvchi jang bo`ldi. Yevmenning yollanma qo`shinlarini xoinligi jangni Antigona foydasiga hal qildi. Yevmen qo`lga olinib, qatl qilindi. Er. avv. 317-yilda Iskandarning onasi Olimpiada hokimiyatni Roksananing o`g`liga qoldirish uchun Filipp Arridey va uning xotini Evridikani o`ldirishga buyruq berdi. Kassandr podsho oilasini astasekin qirib tashladi. Olimpiada Kassandrning taqibidan tirik qolgan oila a`zolari bilan Makedoniyadagi yaxshi mustahkamlangan Pidna shahriga yashirindi. Lekin Kassandr shaharni ochlik bilan tinkasini quritib, taslim bo`lishga majbur qildi. Kassandr Olimpiadani qatl etdi.

Qotil Kassandr Roksananing o`g`li Iskandar voyaga yetguncha makedoniyani boshqarish huquqini oldi. Iskandarning kichik qizi Fessalonikaga uylangan

Kassandr Iskandarning o'g'li tirik bo'lganidan bezovta edi. Kassandrning topshirig'i bilan Amfiopol hokimi nazorati ostida turgan Roksana va uning o'g'li yashirinchalik o'ldirilib, dafn qilindi (er. avv. 311-yil yoki 310-yil). Bir necha yildan so'ng Kassandr keksayib qolgan Poliperxont bilan yashirin shartnoma tuzdi. Bu shartnomaga ko'ra Poliperxont Iskandarning Barsinoyadan bo'lgan o'g'li Gerkulesni zaharlab o'ldirishi kerak edi. Bu yovuzlikni amalga oshirgach, keksa Poliperxont Etoliya va Epirda o'ziga berilgan yer mulkda yashab, siyosiy hayotdan chetlashdi. Iskandarning katta opasi Epirning beva malikasi Kleopatra Sard shahrida yashar edi. Ptolomey uylanish uchun Kleopatrani qo'lini so'radi. Antigon esa Kleopatrani uning o'z oqsochlari tomonidan o'ldirtirdi va keyin esa malikani oqsochlari bilan birgalikda dabdabali dafn etdi. Yuzaga kelgan bu vaziyat diadoxlarni o'z hududlarida o'z podsholik hokimiyatlarini o'rnatishga intilishlari uchun hech qanday rasmiy to'siq qolmaganini bildirar edi.

Diadoxlar o'rtasidagi urushlar uzoq davom etib, Yunoniston, Misr, Kichik Osiyo va Mesopotamiya asosiy jang maydonlariga aylandi. Er. avv. 306-yilda Antigoning o'g'li Demetriy Poliorket ("shaharlarni qamal qiluvchi") makedon garnizonlarini Yunonistondan haydab yubordi. Afina va Megarada erkinlik va demokratiya e'lon qilindi. Er. avv. 306-yilda Antigon, keyinroq Ptolemey, Lisimax, Salavk va Kassandr o'zlarini podsho deb e'lon qildilar.

Salavk, Ptolomey va Lisimax birlashib, o'z davlatlarini mustahkamlash uchun Antigonga qarshi urush olib bordilar. Er. avv. 301-yilda Frigiyadagi Issa yonidagi jangda 80 yoshli Antiox o'ldirildi. 297-yilda Kassandr, 285-yilda Demetriy Poliorket, 281-yilda Lisimax, 283-yilda Ptolemey Lag, 281-yilda Salavk vafot etdi. Iskandarning safdoshlari va bevosita merosxo'rlaridan so'nggi diadox bo'lgan Salavkning halokati bilan diadoxlar davri tugadi. Ularning o'rniga ellin podsholari (Epigonlar) avlodi keldi.

Iskandar vafotidan so'ng, uning eng yaqinlari diadoxlar o'rtasidagi 40 yillik urush natijasida Iskandar davlati xarobalarida 3 asosiy eng yirik podsholiklar: Makedoniya (unga bo'sundirilgan Yunoniston), Misr (Suriyaning janubiy qismi va Kichik Osiyoning ba'zi viloyatlari) va Salavkiylar davlati (Osiyo mulklarining asosiy qismi) tashkil topdi. Ulardan tashqari, ellin davrida bir qancha katta-kichik davlat birlashmalari: Pergam, Vifiniya, Pont. Kappadokiya, Yunon-Baqtriya va Parfiya podsholiklari mavjud edi.

Aleksandrning qisqa muddatli hukmronligidan keyin kamida besh asr davomida yunon madaniyati g'arbdagi Rimdan sharqdagi Gangagacha butun yo'l bo'ylab aks etdi<sup>63</sup>.

**Tayanch tushunchalar:** Filipp II, getayr, sarissa, Xeroniya jangi, Femistokl, Korinf kongressi, Issa jangi, Iskandariya shahri, Gavgamela qishlog'i, Spitamen, Oksiart, Roksana, Por, Bobil, Gerakl, Perdikka, Olimpiada, diadoxlar.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

---

<sup>63</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.204.

1. Makedoniya davlatining Yunon dunyosida gegemon davlatga aylanishining obektiv sabablari nimalarda ko‘rindi?
2. Filip II ning ichki va tashqi siyosatini yoritib bering.
3. Iskandarning markazlashgan davlat tuzish uchun olib borgan istilochilik yurishlari va uning natijasi qanday bo‘ldi?
4. Iss jangi qanday yakun topdi?
5. Xeroneya jangi va uning xalqaro ahamiyati nimadan iborat?
6. Por davlati haqida nimalarni bilasiz?
7. Iskandar vafotidan so‘ng diadoxlar o‘rtasidagi kurash va uning natijasi qanday bo‘ldi?

### **Ma`ruza № 33,34**

#### **Mavzu: Ellinistik davlatlar va ellin davri madaniyati.**

#### **Reja:**

1. Ellinizmning mohiyati.
2. Ellin Misri.
3. Salavkiylar davlati.
4. Makedoniya.
5. Pergam. Attalidlar davlati.
6. Materik Yunonistoni va orollar.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011. 289-291 pages
2. Левек П. Эллинистический мир. – М. 1989. стр. 157-163
3. Бенгтсон Г. Правители эпохи эллинизма. – М. 1982. стр. 266
4. Бикерман Э. Государство Селевкидов. – М. 1985. стр. 138
5. Дройзен И.Г. История эллинизма. В 3 т. – СПб. 1997-1999.
6. Жигунин В.Д. Международные отношения эллинистических государств в 280-220 гг. до н.э. – Казань 1980. стр. 229
7. Эллинизм: Восток и Запад отв. ред. Е.С. Голубцова. – М. 1992. стр. 269-276
8. Rajabov R. Qadimgidunyo tarixi. T., 2009. str. 289-294
9. Зельин К.К., Трофимова М.К. Формы зависимости в Восточном Средиземноморье в эллинистический период. М., 1969. стр. 155-163
10. Эллинизм: экономика, политика, культура/ отв. ред. Е.С. Голубцова. – М. 1990. стр. 291
12. Зеленский Ф.Ф. Эллинистическая религия. – Минск 2003. стр. 264-254
13. Источниковедение Древней Греции (эпоха эллинизма)/ Под ред. В.

И.

14. Кузицина. М., 1982. стр. 293-299

15. Косшеленко Г. А. Греchesкий полис на эллинистическом Востоке. М., 1979. стр. 189-192

16. Тарн В. Эллинистическая цивилизация. М., 1949. стр. 258

**1. Ellinizmning mohiyati.** Iskandar yurishlaridan boshlab to er. avv. II asrgacha Rim Yunoniston va Yaqin Sharqda o'z hukmronligini o'rnatganiga qadar bo'lgan davr G'arb adabiyotida ellinizm davri deb ataladi. Bu davrda savdo-hunarmandchilik, madaniyat o'choqlari-shaharlar jadal rivojlandi (Iskandariya, Antioxiya, Baqtra va boshqalar). Bu davrda O'rtayer dengizining g'arbiy qismi Sharqning boy qadimgi madaniyati bilan jadal tanishib, uning boy yutuqlarini o'zlashtirib ola boshladi. Ma'naviy-madaniy hayot, ilm-fan va san'at bu davrda yuksak darajada rivojlandi. Yangi ilm-fan o'choqlari, oliy maktablar vakutubxonalar paydo bo'ldi. Fan-texnikada kashfiyotlar, ixtirolar qilinib, nodir asarlar yaratildi. Yangi fan tarmoqlari paydo bo'ldi. Fanning taniqli arboblari o'zlarining nodir asarlarini yaratdilar. Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy ta'limotlar shakllandi.

“Ellin” tushunchasi tarix fanida birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida nemis olimi I. Droyzen tomonidan kiritildi. Droyzen bu tushunchani makedoniyalik Iskandarning bosqinchilik yurishlaridan keyingi katta tarixiy davrga nisbatan qo'lladi va uning mazmunini madaniy soha bilan chekladi.

XX asrning 50-yillari boshlaridan ko'pchilik tarixchilar ellinizm davrini siyosiy-iqtisodiy, madaniy-mafkuraviy sohalarida ellin (G'arb) va mahalliy (Sharq) madaniyatining sintezi natijasida madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi deb hisoblaydilar. Bu sintez qadimgi Sharqning ko'pgina hududlarini yunonmakedon istilolari oqibatida aniq tarixiy vaziyatda amalga oshdi degan tushuncha hukm suradi. Haqiqatga esa, er. avv. I ming yillikdan boshlab, ayniqsa, dunyoda birinchi bor uch qit'ani birlashtirgan ulkan Ahmoniylar imperiyasi davrida Sharq va G'arbning madaniy-iqtisodiy aloqalari va madaniyatlar muloqoti boshlandi.

Aleksandr vafotidan so'ng u tuzgan davlat uch qismga (Salavkiylar davlati, Makedoniya - Antogonidlar sulolasi, Misr - Ptolomeylar davlati) bo'linib aynan shu mintaqalarga ellinistik madaniyatlar tarqalganligi, ellinistik dunyo deyilganda ham aynan shu geografik ob'ektlar tushinilishi manbalarda ko'rsatib o'tiladi<sup>64</sup>.

Ellin davrinining uch yuz yillik xronologik davri uch tizimli izchil bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich Iskandarning Sharqqa yurishlari, uning davlatining tashkil topishi va diadoxlar urushlari natijasida bu davlatning yemirilishi (er. avv. 334-281-yillar)ni o'z ichiga oladi.

---

<sup>64</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.210.

Ikkinchi bosqich (er. avv. 280-er. avv. II asr o`rtalari) yunon-sharq davlatchiligi, iqtisodiyoti va madaniyatining gullab-yashnagan davri. Ellin davrining yetuklik bosqichi.

Uchinchi bosqich er. avv. II asr o`rtalaridan ellin davlatchiligining oxiroqibatda yemirishga olib kelgan tushkunlik belgilarining yaqqol ko`rinishi, so`nggi Ellin davlati-Ptolemeylar Misrining er. avv. 30-yilda halokatga uchrashi va uning Rim davlati tarkibiga qo`shib olinishi bilan belgilanadi. Bu vaqt Ellin tafakkurini yaqqol so`nish davri edi. Ilgari Ellin davlatlariga qarashli butun hudud g`arbda Rim, sharqda Parfiya davlatlari tomonidan bo`lib olindi.

**2. Ellin Misri.** Sharqdagi boshqa ellindavlatlari kabi Ptolemeylar podsholigi ham bir necha ming yillik madaniyat va qadimiy an`analar rivojlangan qadimgi Sharq mamlakatlaridan birini bosib olish natijasida paydo bo`ldi. Ptolemeylar davlati ellin davlatlari ichida eng boyi va bepoyoni edi. Ptolemeylar sulolasi 100 yil davomida faol tashqi siyosat olib borib, Misrni haqiqiy imperiyaga aylantirdilar. Uning asosini Misrning an`anaviy tarixiy geografik chegaralari tashkil qildi. Ellin Misrining sharqiy chegaralari Ptolemey hukmdorlarining tashqi siyosati yutuqlari va mag`lubiyatlari bilan o`zgarib turdi. Er. avv. III asr boshlarida Ptolemeylar Misrdan tashqari, Sharqiy O`rtayer dengizi qirg`og`ining barcha orollarini nazorat qildilar. Lekin Salavkiylar va Makedoniya bilan bir necha urushlar natijasida er. avv. II asr boshlarida bu hududlar Misrdan ajralib ketdi.

Misrda hukmronlik qilgan ellin sulolasining asoschisi makedon zodagonining o`g`li, harbiy boshliq, Iskandarning safdoshi Ptolemey Lag edi. O`zi keksayib, o`z tabiiy o`limi bilan vafot qilgan Iskandarning birdan-bir diadoxi edi(er.avv. 283-yil). Antik mualliflar Ptolemey Lagni Soter (Qutqaruvchi) deb nomlaydilar. Chunki u Misr xalqini Iskandar tayinlagan noib Kleomenzulmidan ozod qilgan hisoblanadi.

Bosqinchilar mamlakat boshqaruvida minglab yillar davomida saqlanib qolgan an`anaviy, ma`muriy tizimni saqlab qoldilar. Faqat yuqori lavozimlarda turgan fors va Misr amaldorlarini o`rniga yunon-makedonlar o`tqazildi. Ptolemeylar qadimgi fir`avn-podshoning mutloq hokimiyati, ko`p tarmoqli davlat apparati, ko`p sonli amaldorlar, qat`iy markazlashgan davlat hokimiyati va uning mamlakat xo`jalik hayotiga faol aralashuvini saqlab qoldilar.

Yangi sulola Misr fir`avnlardan mamlakatni hududiy bo`linishi, nom tiziminimeros qilib oldilar. Faqat nomlar sonlarini o`zgartirib, ularni qayta tashkil qildilar. Dastlab nomlarni podsho tayinlagan nomarxlar boshqardilar. Er. avv. III asr oxiridan nomarxlar qo`lida hududning moliyaviy sohasigina qoldirilib, ularning oliy ma`muriy hokimiyati harbiy soha bilan boshqa mansabdor-strateglarga berildi. Ptolemeylar mamlakatning iqtisodiyoti va mafkurasida muhim o`rin tutgan mahalliy kohinlar va ibodatxonalar mavqeini fir`avnlar davridagidek, o`zgarmagan holda saqlab qoldilar. Lekin ularning faoliyati davlat nazoratiga olindi. Ibodatxonalar oldida podshoning maxsus vakillari-epstatlarkohinlarning diniy va iqtisodiy faoliyati ustidan nazorat qilib turdilar.

Yunon-makedonlar kelishi arafasida Misrning iqtisodiyoti so`nggi tosh davri ibtidoiy texnikasi darajasida bo`lib, faqatgina qisman takomillashtirilgan mis va jez qurollariga asoslangan edi. Yunon-makedonlar kelishi bilan mamlakat xo`jaligida haqiqiy to`ntarish bo`ldi. Qishloq xo`jaligida temir mehnat qurollari paydo bo`ldi. Bobildan ekin ekadigan moslama (seyalka) olib kelindi. Qishloq xo`jaligida yangi texnik moslamalar-vino va zaytun yog`ini olish uchun vintli press(Arximed vinti)dan foydalana boshlanishi dehqonlarning mehnatini yengillashtirdi. Yangi ekinlar paydo bo`ldi va ishlov beriladigan yer maydonlarining hosildorligi keskin o`sdi. Fir`avn Nexo kanali qayta tiklandi. Tashlab qo`yilgan ko`plab yerlar o`zlashtirilib, sun`iy sug`orish inshootlari qayta ishga tushirildi.

Hunarmandchilik shaharlarda to`planib, qishloq xo`jaligida qaraganda, bu sohada qul mehnati keng qo`llandi. Hunarmandchilik mahsulotlari bozor uchun ommaviy ravishda ishlab chiqarildi. Kemasozlik, uy-joy va jamoat binolarining qurilishi, metall va sopol idish-tovoqlar, gazlamalar, mebellar va zargarlik buyumlari tayyorlash keng rivojlandi. Yuqori sifatli hunarmandchilik mahsulotlari eksport qilindi.

Ptolemey I savdo-hunarmandchilik, qishloq xo`jaligini rivojlantirish maqsadida o`zining tanga pullari-oltin stater, kumush tetradraxma va mis obollarni zarb qila boshladi. Oltin va kumush qazish, tanga zarb qilish, turli xil pul ayirboshlash davlat monopoliyasiga aylantirildi hamda chet el tanga pullarini ishlatish ta`qiqlandi. Misr iqtisodiyoti va tashqi savdosida o`ziga xos qog`oz vazifasini bajargan papirusni ishlab chiqarish ham davlat monopoliyasiga aylantirildi.

Ptolemey I va Misrni boshqargan uning vorislari (Ptolemey II(247-yil vafot etgan), Filadelf III, EvergetIII, Filopator IV, (240-221yil) Epifan V) deyarli yuz yil davomida faol tashqi siyosat olib borib, ellin dunyosida yetakchilik qilishga da`vo qildilar. Ular Misrni Old Osiyoda kuchli davlatga aylantirishga bor kuchlarini sarfladilar. Bu podsholar davrida Misr dengizda hukmdor bo`ldi. Finikiya, Kelesiriya, Kirena va Kipr Misr davlatining tashqi viloyatlari edi. Tarixchi Appianning ma`lumotlariga ko`ra misrning harbiy kuchlari 200 000 piyoda, 40 000 otliq, 2000 jang aravasi, 15000 harbiy kema va 300 fildan iborat bo`lgan. Ptolomey II davrida davlat xazinasida 740000 misr talanti bo`lgan. Iskandariya shahri- poytaxt, fan-san`at o`chog`i, xalqaro savdo markaziga aylandi.

Ptolemey V Epifanning er. avv. 180-yil o`limidan so`ng, tashqi siyosatda qiyinchiliklar tug`ila boshladi. Sharqda Rimning faol istilochilik urushlari Misrning tashqi siosatiga katta putur yetkazdi. Natijada tushkunlikning uzoq davri boshlanib, er. avv. 30-yilda Misrning Rim istilosi bilan tugallandi.

Er. avv. III asr o`rtalarida Misr kuchli harbiy flot va qo`shinga ega edi. Ptolemeylarning asosiy raqiblari-Makedoniya, Bobil va Kichik Osiyodagi ba`zi davlatlar bo`lgan. Ptolemey IV Filopator davri (er. avv. 222-205-yillar) Misr

tashqi siyosiy yutuqlarining eng oliy nuqtasi bo'ldi. Misrning mavqei Old Osiyoda kuchayib ketdi. Lekin bu vaqtinchalik edi.

Er. avv. I asr boshlarida Rimning mulklari Misr chegaralarigacha yetib bordi. Ptolemeylar sulolasini o'zaro nizolar va xalq harakatlari zaiflashtirdi. Ptolemey IX er. avv. 88-yil Fivada boshlangan qo'zg'olonni 3 yildan so'ng, qo'zg'olon markazi bo'lgan Fiva shahrini buzib tashlash bilan bostirdi. Er. avv. 70-yillardan Rim davlati Misrning ichki ishlariga faol aralasha boshladi. Ptolemey sulolasining bir necha vakillari Rim yordami bilan hokimiyatni boshqardilar. Keyingi 15 yilda O'rta Misr nomlarida norozilik harakati kuchaydi. Rim senatida bir necha bor Misrni bosib olish masalasi muhokama qilindi. Ammo hali kuchli bo'lgan bu davlatga qarshi senat urush boshlashga jur'at qila olmadi. Er. avv. 48-yil Yuliy Sezar 8 oylik urushdan so'ng, Misrni ittifoqchi davlat sifatida Rimga qo'shib olish bilan cheklandi. Sulolaning so'nggi vakili Kleopatra rimliklar yordamida taxtga keldi. Oktavian er. avv. 30-yil Misr davlatini tugatib, Misrni Rim provinsiasiga aylantirdi.

**3. Salavkiylar davlati.** Iskandarning safdoshlaridan biri Salavk (er.avv. 312-281yillar) er. avv. 321-yilda satraplar o'rtasidagi shartnomaga ko'ra, Bobilni egalladi. Salavk diadoxlar o'rtasidagi kurash natijasida Eron, O'rta Osiyo satrapliklari ustidan o'z nazorat o'rnatdi. Ammo Osiyoning oliy hokimi Antigon tez orada Salavkdan Bobilni tortib oldi (er. avv. 315-yil). Antigon bilan boshqa satraplar o'rtasidagi kuchayib ketgan raqobatdan foydalangan Salavk Misr hukmdori Ptolemeyning yordami bilan er. avv. 312-yilda Bobilda o'z hokimiyatini qayta tikladi. Aynan shu yildan boshlab Salavk sulolasining er. avv. 64-yilgacha davom etgan hukmronligi boshlandi.

Salavk g'arbda diadoxlar o'rtasida davom etayotgan urushdan foydalanib, Sharqqa yurish qildi. Yurish davomida u Eron va O'rta Osiyo satrapliklarini qayta qo'lga kiritdi. Yurish oxirida Salavk Hindistonda Maur'ilar davlatining asoschisi Chandragupta bilan to'qnashdi. Urush Salavkni ilgari Iskandar davlati tarkibiga kirgan barcha hind mulklaridan voz kechishi, buning evaziga Chandragupta tomonidan 300 jangovar fillarning Salavkga sovg'a qilishi bilan tugadi. Salavk er. avv. 305-304-yillar atrofida o'zini podsho deb e'lon qildi. Shundan sal o'tgach, Shimoliy Suriyani, er. avv. 281-yilda Kichik Osiyoning katta qismini bosib oldi. Salavk shu yildayoq u Makedoniyani egallash uchun bo'lgan yurish boshladi, lekin Ptolomey Keravn yuborgan qotil tomonidan o'ldirildi.

Salavkiylar davlati o'zining gullab-yashnagan davrida Iskandarning Osiyodagi sobiq mulklarining katta qismini o'z tarkibiga olgan edi. Bu bepoyon hududda turli iqtisodiy va madaniy taraqqiyot bosqichida turgan, etnik va til jihatidan ola quroq bo'lgan xalqlar joylashgan edi. Salavkiylar davlatida yunon va makedonlar podsho boshchiligida hukmron tabaqaga aylandilar. Ular barcha oliy hokimiyat lavozimlarini egallab olib, qo'shinning asosiy qismini tashkil etdilar. Mahalliy zodagonlar hokimiyat boshqaruvida deyarli ishtirok etmadi. Faqat Bobil shaharlarining fuqaro-ibodatxona jamoalari ma'lum bir imtiyozlardan foydalandi.

Salavkiylar davlati aholisining asosiy qismi jamoachi dehqonlardan iborat edi. Bu jamoalar podsho foydasiga pul va natural majburiyatlarni o'tar edi. Jamoachi dehqonlar shaxsan erkin bo'lgan. Lekin davlat hokimiyati dehqonlarni asta-sekin qaram qila boshladi. Bu ularni yerga biriktirib qo'yishda ko'rinadi. Davlat yerlari ikki qismga bo'lingan. Bir qism yerlar podshoning shaxsan o'ziga tegishli bo'lsa, ikkinchi qismi shaharlar, mahalliy zodagon-hokimlar, qabilalar va jamoalarga tegishli bo'lib, podsho hokimiyati tomonidan nazorat qilingan.

Davlatning butun hududi satrapliklarga bo'linib, undan kichik ma'muriy birliklar-yeparxiya va giparxiyalar edi. Satraplik boshida satrap(Antiox III davrida strateg) turib, u fuqarolik va harbiy hokimiyatni amalga oshirgan. Moliya muassasi esa, mustaqil bo'lgan.

Salavkiylar davlatida O'rta Osiyo va Eron hududlari muhim o'rin tutar edi. Salavk I davrida uning o'g'li va merosxo'ri Antiox I (er. avv. 281-261-yillar) bu hududlarni boshqarar edi. Antiox I Slavkning Spitamenning qizidan bo'lgan o'g'li edi. O'rta Osiyoda sulola hokimiyatini mustahkamlash uchun yangi shaharlar va harbiy manzilgohlar qurildi, eskilari qayta tiklandi (Marv vohasi devor bilan to'liq o'rab olindi).

Antiox I davridan so'ng, er. avv. III asr o'rtalarida Baqtriya, So'g'diyona va Parfiya ajralib chiqdi. Vifiniya, Paflagoniya, Kappadokiya va Galatiya kabi davlatlar paydo bo'ldi. Qora va Kaspiy dengizlari oralig'ida Armaniston davlati, Midiyaning shimoliy qismida satrap Atropat Salavkiylar davlatidan ajralib chiqib, Midiya Atropatenasini tashkil qildi. Natijada Yunon-Baqtriya va Parfiya podsholiklari vujudga keldi (Yunon-Baqtriya er. avv. 130 yillargacha, Parfiya davlati esa, eramizning 227-yiligacha mavjud bo'ldi). Antiox III bu davlatlarni bo'ysundirish uchun er. avv. 212-205-yillarda Sharqqa yurish qildi. Yurish davomida xarajatlarni qoplash uchun Antiox III Ekbatanadagi Anaxita ibodatxonasini taladi. Yurish natijasida Parfiya qayta bo'ysundirildi. YunonBaqtriya shaharlarining ikki yil natijasiz qamal qilish bilan rasman Salavkiylar hokimiyatini tan oldi. Antiox qo'shinlari Hindiqush tog'laridan o'tib, Hindiston yerlariga bostirib kirdi va mahalliy hokim bilan shartnoma tuzib, Antiox hind jangovar fillariga ega bo'ldi.

Antioxning bu yurishi Salavkiylar davlatining yemirilishini vaqtincha to'xtatdi. U markaziy hokimiyatni mustahkamladi. Kichik Osiyoning katta qismi bosib olindi va Kelesiriya Misrdan batamom tortib olindi. Kuchayib ketgan Salavkiylar davlati Pergam va Rodosni xavfsizligiga jiddiy xavf sola boshladi. Pergam va Rodos Antiox III dan shikoyat qilib, Rimdan yordam so'radi. Rim ham Antiox III saroyiga mashhur Karfagen qo'mondoni Gannibalni maslahatchi bo'lib turganidan norozi edi. Er. avv. II asr boshlarida Salavkiylar bilan Rim respublikasi o'rtasida Yunoniston uchun raqobat boshlandi. Er. avv. 189-yilda Rim bilan bo'lgan urushda Antiox III qo'shinlari yengildi. Mamlakat hududlarida norozilik, Salavkiylarning zulmiga qarshi qo'zg'olon va isyonlar boshlanib ketdi. Yunon-Baqtriya va Parfiya o'z mustaqilliklarini qayta tikladi va Parfiya g'arbga tomon yurish qilib, Salavkiylar hududlarini bosib ola boshladi. Midiyada satrap

Timarxning isyon ko'tarishi bu viloyatni parfiyaliklar tomonidan bosib olinishiga yordam berdi. Bundan tashqari, parfiyaliklar Fors va Elamni egalladilar.

Antiox III ning o'g'illaridan biri Antiox IV (er. avv. 176-164 yillar) shijoatli hukmdor bo'lib, davlat hokimiyatini bir qadar mustahkamlashga erishdi. Uning boshqaruvi davrida mamlakatda podsho san'at va madaniyatga homiylik qildi.

Shuhratparast Antiox IV Salavkiylar davlatining o'tmishdagi kuchqudratini tiklashga urindi. Mamlakat ichida bir qadar ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni vujudga keltirib, uning hududini kengaytirishga harakat qildi. Antiox IV Misrni bosib olish uchun kuchli qo'shin bilan yurish boshladi. Yo'lda uni Rimning Misrdagi elchisi Gay PopiliyLena to'xtatdi. Aytishlaricha, Salavkiylardan ko'ra, qudratli bo'lgan Rim elchisi Antiox IV o'tirgan joyning atrofini doira chizib, Rimning talabi bajarilmaguncha (Misrga yurishni to'xtatish) Antiox IV ni doira ichidan chiqib ketishini ta'qiqlagan. Natijada rimliklarning tazyiqi ostida Misr yurishi to'xtatilgan.

Antiox VII Sidet (er. avv. 238-129-yillar) davlatning yaxlitligini tiklashga urinishi uning mag'lubiyati va halokati bilan yugadi. Bu Bobil, Pardiya va mahalliy sulolalar hokimiyati ostiga o'tgan Fors va amidiyaning ajralib ketishiga olib keldi. Er. avv. I asr boshlarida Yahudiya va Kommagen o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Salavkiylar davlatining yemirilish jarayoni tezlashib ketdi. 35 yil ichida taxtda 12 da'vogar almashdi. Ko'p hollarda bir vaqtning o'zida ikki yoki uch podsho taxtga chiqdi. Natijada Salavkiylar davlati hududi Suriya, Finikiya va Klikiyaning bir qismi bilan chegaralanib qoldi. Salavkiylar sulolasining so'ngi vorisi Antiox XIII edi. Uni Rim respublikasi podsho deb tan olgan bo'lsada, Antiox XIII ikki yillik hukmronligidan so'ng Pompey tomonidan taxtdan tushirildi. Er. avv. 64-yilda Salavkiylar davlatining qoldiqlari Rim tomonidan bosib olinib, uning hududida Suriya provinsiyasi tashkil etildi. Sharqiy Pont, Paflagoniya, Galatiya, Kappadokiya, Armaniston va Kommagenrimliklarga vassal bo'lgan mahalliy hokimlar qo'lida qoldi.

**4.Makedoniya.** Makedoniya taxtiga hukmdorlar tez-tez almashib turdi. Antipatrning qisqa hukmdorligidan so'ng taxtga keksayib qolgan Poliperxont chiqdi. Keyin esa sarguzashtlar ishqibozi jasoratli, qiziqqon, zukko va aqlli, nozik ta'lim olgan Demetriy Poliorket (Iskandarning diadoxi Antigoning o'g'li) taxtni egalladi. U Epir podshosi Pirrga qarshi yurishda yengildi, uning o'rnini Pirr egalladi. Pirr frakiyalik Lisimaxga qarshi tura olmadi, Lisimax Pirrning yarim podsholigini tortib oldi. Shu sababli Pirr Epirga qaytishga majbur bo'ldi. Lisimaxning o'limidan keyin, uni mag'lub qilgan Salavk makedon podsholigiga davo qildi. Lekin Salavk er.avv. 281-yil Ptolomey Keravn yuborgan qotil tomonidan o'ldirildi. Shundan so'ng Ptolomey makedon taxtni egalladi. Er.avv. 283-yil Frakiya, Makedoniya va Yunonistonga galatlar (keltlar) hujum qildi. Ular bilan jangda Ptolomey Keravn halok bo'ldi. Er. avv. 276-yilda Kassandrning nevarasi galat (kelt)lar hujumini ikki marta qaytardi.

Pirr Italiyada bandligi vaqtida makedon taxtiga er.avv. 276-yilda Demetriy Poliorketning o'g'li Antigon Gonat o'tirdi. U Yunonistondagi vaziyatni barqaror

qildi. Lekin g`ayratli Pirr Italiyadan qaytib, yana Makedoniyaga yurish qildi, Antigon u yerdan haydaldi. Pirr o`zini makedon podshosi deb e`lon qildi. Ammo ikki yildan so`ng u Argosda o`ldirildi. Antigon Gonat Makedoniya taxtini ikkinchi marta bosib oldi va uni o`z vorislariga uzatdi. Antigon Gonat 276-yilda taxtga chiqdi. Antigon va uning avlodlari Makedoniyani Rim bosib olgunga qadar (er. avv. 168-yilgacha) boshqardilar. Antigonidlar sulolasi uchun Yunonistonni bo`ysundirib turish juda qiyin siyosiy muammo edi.

Ptolemeylar Misri, Salavkiylar davlati bilan bir qatorda Makedoniya ellin dunyosining katta davlatlaridan biri edi. Diadoxlar urushlaridan so`ng, Makedoniya tushkunlik holatida edi. Aholining katta qismi Iskandar yurishlari davrida Sharqqa ko`chdi. Antigonidlar sulolasi olib borgan doimiy urushlar, shimoldagi varvar qabilalarining xavfi makedon iqtisodi va davlatini zaiflashtirdi. Antigonidlar sulolasi xo`jalik hayotini qayta tiklash, aholining ko`paytirishiga e`tibor berishga majbur bo`ldilar. Shu sababli, yangi shaharlar qurilib, eskilari qayta tiklandi. Bo`sh yotgan yerlarga aholi ko`chirildi. Konlar qazildi. Kemasozlik rivojlandi. Qurilish yog`ochlari bilan qizg`in savdo qilindi.

Iqtisodiyotning asosini erkin dehqon mehnati yetakchi bo`lgan qishloq xo`jaligi tashkil etar edi. Podshoga faqat o`rmon va qazilma boyliklar tegishli edi. Ellin Makedoniyasiga podsho hokimiyati ba`zi bir eski belgilarini meros qilib oldi: qo`shin yig`ini avvalgidek, podshoning taxtga chiqish vaqtidagi o`z ahamiyatini saqlab qoldi. Qoshin yig`inioliy sudya rolida chiqar edi.

Makedoniyadagi beqaror vaziyat Iskandar vafotidan so`ng, qariyb ellik yil davom etdi

Bu davrda manfaatlari bir-biriga zid bo`lgan yunon polislari turli ittifoqlarga birlashib, urush olib borar edilar. Makedoniya ham bir necha yunon polislari kirgan Ellin ittifoqiga boshchilik qildi va yunon shaharlari ichki ishlariga faol aralashdi.

Rim va Ptolemeylar sulolasi yunon polislarni Makedoniyaga qarshi chiqishlarini qo`llab-quvvatladilar. Ikkinchi puni urushlari davrida Makedoniya Gannibal bilan ittifoq tuzdi. Bunga qarshi Rim Pergam va Peloponnesning bir necha polislarni Makedoniyaga qarshi chiqishga undadi. Natijada er. avv. 215206-yillarda I makedon urushi yuz berdi. Karfagenni Gannibal ustidan g`alabasi Makedoniya podshosi Filipp V ni Italiyaga yurish xavfini yo`qqa chiqardi.

G`ayratli podsho Filipp III (er.avv. 221-179yillar) Salavkiylar bilan ittifoq tuzib, zaiflashgan Ptolemeylarning Kichik Osiyo va Egey mulklarini bosib oldi. Italiya, Pergam va Rodos bunga qarshi chiqib, Rimdan yordam so`radi. Natijada II makedon urushi (er. avv. 200-197-yillar) boshlandi. Fessaliyadagi er. avv. 197-yildagi hal qiluvchi jangda Makedoniya yengildi. U Yunoniston va Kichik Osiyodagi barcha mulklaridan ajraldi.

Filipp III ning o`g`li Persey (er. avv. 179-168-yillar) Makedoniyaning avvalgi qudratini qayta tiklashga urindi. Ammo u Rim bilan urushda (III makedon urushi er. avv. 171-168-yillar) Pidnayonidagi jangda yengildi. Makedoniya

hududi g`oliblar o`rtasida to`rt okrugga bo`lindi. Er. avv. 146-yilda Andriskning Rimga qarshi qo`zg`olonidan so`ng, er.avv. 146-yilda Makedoniya Rim provinsiyasiga aylantirildi.

**5. Pergam. Attalidlar davlati.** Er. avv. 287-yil Pergam Salavkiylar davlati tarkibiga kirdi. Er. avv. 240-yil Salavkiylar noibi Attal I Pergamni mustaqil deb e`lon qilib, podsholik tojini kiydi. Uning asosiy hududi Kichik Osiyoning shimoliy-g`arbiy qismi va Misiyaviloyatidan iborat edi. Attalidlar sulolasi hukmdorlarining faol tashqi siyosati hamda mohir diplomatiyasi sababli, Pergam davlatining hududi er. avv. II asr boshlarida G`arbiy Kichik Osiyoning Troada, Lidiya, Kariyava Likiyani qo`shib olinishi bilan kengaydi. Bu hududlarda qadimdan rivojlangan yunon polislari mavjud bo`lganligi sababli, rivojlangan iqtisodiyotga ega edi.

Attalidlar tashqi siyosatda sharqda Salavkiylar podsholigiga qarshi turib, g`arbda kuchli ittifoqchi sifatida Rim davlatiga tayandilar va bu amalda Pergamni Rim respublikasiga tobe bo`lishga olib keldi. Attal I (er. avv. 241-197yillar) galatlar ustidan g`alaba qilib, Rim bilan ittifoq tuzdi. U I va II makedon urushlarida (er. avv. 215-205-yillar va 200-197-yillar) rimliklar tomonidan ishtirok etdi. Rimliklar homiyligi yordamida Pergam podsholigi Kichik Osiyodagi barcha Salavkiylar mulklarini egallab oldi va o`zining eng qudratli davriga kirdi.

Ammo Pergamning yuksalishi uzoq davom etmadi. Attal II va Attal III hukmronligi davrida Rim Pergam jamiyatining hukmron tabaqalariga kuchli ta`sir o`tkazgan holda, podsholikning ichki va tashqi siyosatiga faol aralasha boshladi. Oqibatda Attalidlar sulolasining so`nggi podshosi er. avv. 133-yilda vafot etgan Attal III ning vorisi bo`lmaganligi sababli, o`z davlatini rimliklarga vasiyat qilishga majbur bo`ldi.

Bunga javoban Pergam jamiyatining quyi tabaqalari podsho Yevmen II ning noqonuniy o`g`li Aristonik boshchiligida qo`zg`olon ko`tardilar. Qo`zg`olonni yunon shaharlari aholisi qo`llab-quvvatlamadi. Natijada qo`zg`olonchilar yengildi. Aristonik er. avv. 129-yilda rimliklar tomonidan qatl qilindi. Vasiyat qilingan podsholik o`rniga Rimning Osiyo provinsiyasi tashkil etildi.

Pergam Ellin dunyosining iqtisodiy jihatdan rivojlangan markazlaridan biri edi. Qulay iqlim va tabiiy sharoit qishloq xo`jaligini uzluksiz rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Pergam O`rtayer dengizi hududi aholisi uchun qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetkazib beradigan markazlardan biriga aylandi. Qul mehnatidan unumli foydalanildi. Pergam shaharlari dengiz savdosi yo`llarida turganligi uchun mamlakatning boy xomashyolari (metall, yog`och, smola, teri, jun), Pergam hunarmandchilik mahsulotlari, jumladan, pergament qog`ozi butun O`rtayer dengizi ehtiyojlarini qondirdi.

Attalidlar sulolasi podsholari savdo-hunarmandchilikka homiylik qildilar. Yunon tipidagi yangi shaharlarga asos soldilar. Bu shaharlar eski shaharlar bilan bir qatorda tezda iqtisodiyot va madaniyat o`choqlariga aylandi.

Attalidlar fan, adabiyot va san`atga faol homiylik ko`rsatdilar. Podsholik poytaxtida galatlar ustidan g`alaba sharafiga ulkan Zevs ibodatxonasi qurildi.

EvmenII mashhur Pergam kutubxona binosini barpo qildi. Bu kutubxona antik mualliflar asarlari to'plami hamda filologiya maktabiga ega bo'lib, mashhur Iskandariya kutubxonasi bilan raqobat qildi.

**6. Materik Yunonistoni va orollar.** Antik mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, ellin davrida Yunonistondan aholining katta qismi sharqqa ko'chdi. Faqat Afina va Korinf o'z ahamiyatini saqlab qolishga urindi. Yunoniston hududidagi talonchilik urushlari iqtisodiy hayotni butunlay izdan chiqardi. Ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashdi. Bu esa, og'ir qarama-qarshiliklarni tug'dirdi. Spartada bu ziddiyatlarni bartaraf etish uchun podsholar-Agis IV (er. avv. 245-241-yillar) va Kleomen II (er. avv. 235-221-yillar)lar islohotlar o'tkazishdi. Qarzlarni bekor qilishga harakat qilindi. Boy spartaliklarning bir qism yerlari tortib olinib, yersiz spartaliklarga taqsimlab berildi. Eforlar kollegiyasi tugatilib, davlat vakolatlarining katta qismi podsholar qo'lga to'plandi. Aholining katta qismi islohotlarni qo'llab-quvvatladi. Sparta qo'shinining qudrati kuchayib, Spartaning asosiy raqibi Axey ittifoqiga qarshi g'olibona urushlar olib borildi. Axey ittifoqi Makedoniyaning yordami bilan Spartaga qarshi urush boshladi va Sparta qo'shinlarini er. avv. 222-yil mag'lubiyatga uchratdi. Sparta tushkunlikka uchrab, oxir-oqibatda er. avv. 146-yil o'z mustaqilligini yo'qotdi va Rim provinsiyasi tarkibiga kirdi.

Er. avv. III asrda yangi ellin dunyosining yaratilishi Bolqon Yunonistonini madaniy markaz sifatidagi rolini yo'qolishiga olib keldi. Natijada bu hudud ellin dunyosining chekka hududiga aylandi. Hududda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat keskinlashdi. Ijtimoiy-iqtisodiy ziddiyatlar kuchayib, er. avv. III asrda yerlarni qayta taqsimlash harakati Yunonistonda avj oldi. Joylarda hokimiyatni tiranlar egallay boshladi. Aholi Argosda tiran Aristomaxni, Megalopolda Aristodemniqo'llab-quvvatladi. Er. avv. III asr o'rtalarida Xios va Teriorollarida norozilik harakatlari kuchayib ketdi.

Yunonistonning madaniy o'choq sifatidagi shuhratini Afina qo'llabquvvatlab turdi. Afinada yunon falsafasi o'qitildi. Bu yerda bir qancha an'anaviy haykaltaroshlik maktablari mavjud edi. Egey dengizi havzasi orollari ichida eng gullab-yashnagani Rodos edi. Rodos Ptolemeylar Misridan o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Rodos kemalari Egey dengizini qaroqchilardan tozaladi. Rodos tranzit savdo markazi edi. Har yili Rodos orqali 50 mln draxma (taxminan hozirgi 500 mln \$) qiymayida mahsulotlar o'tar edi. Uning kemalari Suriya, Kichk Osiyo, Attika orollari va Qora dengiz qirg'oqlaridan mahsulotlarni tashidi. Rodosdan xurmo va asal Misrga chiqarildi.

Rodosda san'at gullab-yashnadi. Mahalliy haykaltaroshlik maktablari shakllandi. Rodosning homiysi xudo Geliosga atab mashhur Lisippning shogirdi haykatarosh Xares 36 metrli haykal yaratdi. Bu haykal 12 yil davomida bunyod qilindi (taxminan er. avv. 304-292-yillar). Bu haykal Pergamdagi mavzoley va Galikarnosdagi Artemida ibodatxonasiniung kichik zamondoshi edi. Shuningdek, "Ilonlar bilan kurashayotgan Laokoonva uning o'g'illari" haykallari guruhi mashhur edi.

Rodosda notiq Esxin asos solgan Rodos notqlik maktabi faoliyat ko`rsatdi. Er. avv. II asr oxiri-I asr boshida Rodosdamashhur Sitseronning o`qituvchisi notiq Molon ta`lim oldi. Rodos homiyligida orollarda ipakchilik va vinochilik markazi, Kosda mashhur tabiblar maktabi faoliyat ko`rsatdi.

**Ellin madaniyati.** Ellin davrining eng muhim merosi madaniyat bo`lib, bu madaniyat ellin dunyosining barcha hududlariga keng tarqalib, qadimda boshqa xalqlar, Rim madaniyati rivojlanishiga hamda o`rta asrlar madaniyatiga ulkan ta`sir ko`satdi. Ellin madaniyati bir xil bo`lmay, har bir hududda mahalliy barqaror madaniyat an`analari va boshqa madaniyatlarning unsurlarining o`zaro qo`shilishi natijasida shakllandi. Ellin dunyosining ma`naviy shakllanishida Александр davlatining ulkan hududlari, cheklanmagan podsho hokimiyatining mavjudligi, shaharlarning amaldagi mustaqilligining yo`qolishi o`z ta`sirini o`tkazdi.

Bu davrda fan va texnika notekis rivojlandi. Davlat hokimiyati manfaatdor bo`lgan harbiy ish, kemasozlik, shaharlarni qamal qilish texnikasi va qurilish sohalarida eng katta yutuqlarga erishildi.

**1. Din va falsafa.** Ellinizm davrida yunon dunyosi Sharq diniy tasavvurlarini qabul qila boshladi. Misrda Kichik Osiyo xudosi Serapisga sig`inish avj oldi. Misr ma`budasi Isidani yunonlar Demetra sifatida qabul qildilar. Pergamda Frigiya ma`budasi (Kibela-yerning onasi) bosh ma`buda sifatida qabul qilina boshlandi. Ellinlashgan Sharq ilohlarining barchasi mistik va ekstatik edi.

Ellin davlatlarida turli xudolar, turli xalqlarning diniy e`tiqodlari keng tarqaldi. Diniy tolerantlik shakllandi. Joylarda dinning universalligini namoyish qilishga intilib, barcha xudolarga atab ibodatxona-Panteon qurila boshlandi. Ana shunday Panteon Iskandariyada qurildi. Yunonistonda yahudiy dini tarqala boshladi. Yunonlar bu monoteistik dinga ishonib, uni qabul qildilar. Yahudiy diniga yangi qabul qilinganlar “prozelitlar” deb ataldi.

Turli hududlarda turli xudolarga e`tiqod qilish saqlanib qolsada, ayrim xudolarga e`tiqod qilish keng tarqaldi. Zevs, Dionis, Osiris hamda Kichik osiyo ma`budlari Sabaziy va Adonisga, ayol ma`budalardan Misr Isidasiga sig`inish keng yoyildi. Sharqda shakllangan sinkretik e`tiqodlar Kichik Osiyo, Yunoniston va Makedoniya, keyin esa, G`arbiy O`rtayer dengiziga kirib bordi.

Ellin madaniyatining tarqalishidagi eng muhim omil an`anaviy va yangi paydo bo`lgan ko`plab bayramlar bo`ldi. Xudolar sharafiga o`tkaziladigan bayramlar bir qatorda homiy podsholar sharafiga diniy markazlar va poytaxtlarda o`tkaziladigan maxsus bayramlar paydo bo`ldi. Misol uchun, ana shunday bayramlardan biri er. avv. 165-yil poytaxt Antioxiya yaqinida Antiox IV tomonidan o`tkazilgan bayramni ko`rsatish mumkin. Bu bayramning ochilishida 50 mingga yaqin piyoda va otliq askarlar, jang aravalari va fillar, oltin gulchambar kiygan 800 o`smir va oltin va kumush billan bezalgan taxtiravonlarda o`tirgan 580 ayollar; xudolar va qahramonlarning son-sanoqsiz boy bezalgan haykallari miqdori; yuzlab qullar oltin va kumush buyumlar, fil suyagini olib borar edilar. Manbada 300 qurbonlik dasturxonlari va minglab boqilgan buqalar ko`rsatiladi. Bayram 30 kun davom etib, bayram davomida turli xil gimnastika o`yinlari,

bellashuvlar, teatr tomoshalari, ming-bir yarim ming kishiga mo'ljallangan bazmlar, ov uyushtiriladi.

Ptolemeylar Misrida qadimgi fir'avnlr davrida bo'lganidek, podsho hokimiyatining mavqei kuchayib ketdi va elin sharqidagi boshqa mamlakatlardagi kabi Misrda podsholarga sig'inish yana avj oldi. Ptolemey II Filadelf o'zi va o'z singlisi Arsinoyaga sig'inishga farmon berib, o'zi va singlisi sharafiga ibodatxonalar qurdirdi. Shuningdek, Misrda Ptolemey III va uning xotini Berenikaga sig'inish keng yoyildi.

O'sha davr falsafasida inson shaxsini o'rganish muammosi birinchi o'ringa chiqq boshladi. Er. avv. V-IV asrlarda ikki falsafiy maktab: yangi stoik va epikur maktablari vujudga keldi. Ular inson, shaxs nima, baxt nima degan savollar ustida bosh qotira boshladilar. Afinada stoiklar maktabiga er. avv. 302yil kelib chiqishi Kipr orolidan bo'lgan faylasuf Zenon (er. avv. 336-264-yillar) asos soldi. Bu maktabga ellin davrining ko'pgina taniqli faylasuflari va olimlari kirgan edi. Stoiklar Afinaning eng gavjum joyi bo'lmish agorada, naqshin peshayvon "stoya" ostida vaz aytib, o'z tinglovchilariga ta'lim berar edilar (Bu maktabning nomi ham shu so'zdan kelib chiqqan). Stoizm yunonva Sharq nazariyalarining sintezi edi. U keng tarqalgan va shu bilan birga, uzoq yashagan ellin falsafiy maktabi edi. Stoiklar hamma narsani, shu jumladan, fikr, so'z, olov va shu kabilarni ham jism deb atar edilar. Butun olamni stoiklar rivojlanib turadigan olov deb hisoblashar edi. Stoiklar barcha odamlar teng degan g'oyani ilgari surdilar. Ular insonlar tabiat bilan uyg'un holda yashab, baxt va ilohiylik topadi degan fikrni shakllantirdilar.

Er. avv. IV asrda Afinada Epikur falsafa maktabi shakllandi. Faylasuf Epikurning bog'ida uning do'stlari va shogirdlari to'planib, falsafiy suhbatlar qurdilar. Bozorlar, maydonlar, odamlar ko'p bo'lgan joylarda o'z ta'limotlarini targ'ib qilgan stoiklardan farq qilgan holda Epikur tinch va sokin joyda tafakkur qilishni yo'lga qo'ydi. Epikurchilar "Baxtning mohiyati-azobning yo'qligidir", "Kimda kam ehtiyoj bo'lsa, u kishida ko'p farog'at bo'ladi" tushunchalarni ilgari surdilar.

Er. avv. III asrda yana bir falsafiy maktab-skeptiklar maktabi shakllandi. Bu maktabga Arastuning kichik zamondoshi Pirron asos soldi. Skeptiklar atrof dunyoni bilib bo'lmaydi, uning tabiati to'g'risidagi barcha nazariyalar xayol deb hisobladilar. Shuning uchun ular fizika bilan shug'ullanmadilar. Dunyoning bilish nazariyalarini yaratmadilar. Lekin boshqa maktablar yaratgan nazariyalar tanqidiga e'tibor berdilar. Ular: "Barcha narsalarni hech qachon bilib bo'lmaydi, ular haqida na haqiqatni, na yolg'onni aytishlarimumkin emas" deb hisobladilar. Skeptiklar falsafiy oqimi tibbiyotga ta'sir qildi. Tabiblar kasalliklarning sabablarini bilishlari mumkin emas, faqat bemor kasalligini kuzatish kerak, kasallikni kasalda dorilarni sinash bilan davolash zarur degan tushunchani ilgari surdilar.

Er. avv. IV asrda falsafada yana bir maktab-kiniklar paydo bo'ldi. Bu maktab asoschisi Antisfen bo'lib, Diogen uning mashhur o'quvchisi edi. Kiniklar tabiatga qaytish qulayliklaridan voz kechishni talab qildilar. Insonning qonun-

qoidalari tabiatga qarama-qarshidir deb, davlatni tan olmadilar. Ular ko'chlar, maydonlar va portlarda olomon oldida so'zga chiqib, mavjud tartibqoidalarning noto'g'riligini asosladilar. Kambag'allikni nafaqat so'zda, balki o'z turmush tarzlari bilan targ'ib qildilar.

**2. Tabiiy va aniq fanlar.** Er. avv. III-II asrlarda Afinadagi Arastu maktabida aniq va tabiiy fanlar o'rganildi. Feosfrast avvalgi faylasuflarni, Menon tibbiy adabiyotni o'rgandi. Evdem matematika va astronomiya tarixini yozdi. Feofrast "O'simliklar tarixi", "O'simliklar fiziologiyasi" asarlarini yozib, ilmiy botanikaga, uning ustози Arastu esa, zoologiyaga asos soldi. Arastu Likmiyada o'z o'quvchilari bilan sayr qilib yurar va ular bilan falsafiy suhbat qilar edi. Shu sababli, ular "peripatetiklar" ("sayr qilayotganlar") deb atalgan.

Poytaxtlarda ilmiy markazlar va kutubxonalar vujudga keldi. Ptolemey I Soter Iskandariyada ilmiy markaz-Museyonni tashkil qildi. Ilmiy markazda matematika, fizika, astronomiya, jug'rofiya va filologiya fanlari bo'yicha ko'p olimlar to'plangan edi. Jumladan, Museyonda mashhur matematik Yevklid (uning "Boshlang'ich geometriya"si ko'p asrlar davomida 1700 marta chop etilgan) ishladi. Arximed yoshligidan bu yerda o'z faoliyatini boshladi. Iskandariyada geograf Eratosfen, astronomlar Kono va Dosifeylar faoliyat ko'rsatdilar. Iskandar yurushlari qissachisi Aristobul, harbiy boshliq Nearx yunonlarga boshqa mamlakatlar to'g'risida boy ma'lumotlar berdilar. Bu yerda ming jildli ulkan kutubxona, botanika bog'i, zoopark, jarrohlik laboratoriyalari, astronomik rasadxona, olimlar uchun o'quv zali va yotoqxonalar bor edi. Museyonda tashkil etilgan kutubxona o'sha zamonga qadar to'plangan sharqyunon donishmandligining asarlarini to'laroq ravishda o'z ichiga olgan edi. O'sha vaqt uchun g'oyat katta kutubxonada ellin davrning oxiriga borib bu yerda 70000 ga yaqin papirus o'ramlari mavjud edi. Ptolomey II muzeyon qurilishini tugatdi, muzeyon ichidagi kutubxonada bu vaqtda 400 000 jild kitob yoki papirus o'rami to'plangan.

Iskandariya olimlari matematika, tibbiyot va texnika fanlari sohasida erishgan yutuqlari bilan hamda mutaxassis-filologlar sifatida dong taratdi. Misrdagi Iskandariya bilan bir qatorda Orontdagi Pergam, Antioxiya ellindunyosining ilmiy va madaniy markazi sifatida o'z mavqelarini saqlab qoldi.

Er. avv. III-II asrda Pergidamashhur matematik Apollogiyishladi. Kirenalik Eratosfen fizik va matematik jug'rofiyaga asos soldi. Samoslik Aristraxer. avv. III asrda yerdan oygacha bo'lgan masofani o'lchab ko'rdi. Xuddi shu davrda iskandariyalik Ktesiy pnevmatik qo'lda otadigan snaryadni kashf qildi. U yana suv soati, turli nasoslar, gidravlik organ, olovga qarshi nasosni yaratdi.

Ellin davrida fanlar differensiyalashib va tizimlashib bordi. Aristotelning shogirdlari va muxlislari bo'lmish peripatetiklar tarixi bu differensiyalash va sistemalashish jarayonining yaqqol misolidir. Peripatetiklar falsafa maktabiga rahbarlik qilgan Arastuning vorisi Feofrastfaqat faylasufgina emas, balki olim ham edi.

Feofrastdan so`ng, maktabga Straton rahbarlik qildi. Qadim zamonda u “fizik” degan laqab olgan edi. Stratonning alohida xizmati shundan iboratki, u tabiat hodisalarini tadqiq qilishda eksperiment usulini tadbqiq etishda intilgan edi. Stratonning shogirdlari orasida Samos orolida tug`ilib o`sgan ajoib astronom Aristarx yer va boshqa sayyoralar quyosh atrofida aylanadi degan farazni ilgari surdi. Lekin ilm-fanning o`sha vaqtdagi darajasi va u o`zi kashf qilgan geliosentrik sistemaning to`g`riligini boshqa olimlarga ishonarli tarzda isbot qila olmas edi.

Iskandariya matematiklaridan birinchisi Yevklid edi. U o`z davri falsafasining erishgan yutuqlarini tizimga soldi, umumlashtirdi va tugalladi. Uning “Ibtido” degan asosiy asari ikki ming yildan oshiq vaqtdan beri boshlang`ich geometriya darsliklari uchun asos bo`lib xizmat qilib kelmoqda.

Taxt vorisi, bo`lg`usi Ptolemey IV Filopatorning tarbiyachisi, Museyonkutubxonasiining mudiri kirenalik Eratosfen atoqli geograf, astronom, matematik va faylasuf edi. U yer aylanasi uzunligini ko`p darajada aniqlab, hisoblab chiqdi va fizik-matematik geografiyaning asoslarini yaratdi. “Geografiya” atamasini ilk bor Eratosfen ishlatdi.

Iskandariya birdan-bir fan markazi emas edi. Feofrast Afinada ishlagan. Arximed janubiy Italiyadagi Sirakuzada yashagan. Atoqli injener-ixtirochi bo`lmish Arximed nazariy mexanika, gidrostatika, sferik geometriya va trigonometriyaning asoslarini yaratgan yirik nazariyotchi olim edi. Olim katta sonlarni hisoblab chiqishning arifmetik metodlarini yaratishda dastlabki qadamlarni qo`ydi. U atoqli astronom ham edi.

Er. avv. III asrda tibbiyot ancha taraqqiy qildi. Misrdan anatomiyaning yutuqlari, Misr va Bobildan dori-darmonlar tayyorlash va tadbqiq qilishning ming yillik tajribasi o`zlashtirildi. Yunon tibbiyot nazariyasi va amaliyotini qadimgi Sharq tajribasi bilan birga qo`shish Iskandariyadagi tibbiyot maktabida o`z ifodasini topdi. Gerofil bu maktabning asoschisi hisoblanadi. U odamning tasviriy ifodasini yaratgan, diagnoz metodlarini aniqlagan, dori-darmonlarga katta ahamiyat bergan tabib edi. U qisman Salavkiylar hududida, qisman Iskandariyada ishlagan edi.

Er. avv. II asrda yashagan nikeyalik Gipparx atoqli astronom va geograf edi. U bir qancha astronomik asboblarni takomillashtirdi va ixtiro qildi. Kechakunduzning tengligi kashfiyotini Gipparxga nisbat berdilar. Ammo bu kashfiyot Bobilda qilingan bo`lishi mumkin. U harakatsiz yulduzlar katalogini tuzdi. Bu katalogda 900 ga yaqin yulduzlar o`z o`rnini topgan. Gipparx taqvimni, yerdan oygacha bo`lgan masofani, yer va quyosh massasi haqidagi bilimlarni aniqladi. Lekin ikkinchi tomondan bu mashhur olim samoslik Aristarxninggeliosentrik nazariyasiga qarshi chiqdi va o`z obro`yi uchun geliosentrik tizimini mustahkamlab keldi. Lekin bu nazariyaning xatoligini tan olmadi. Gipparx ekvatorni 360 ga taqsimlab, uzunlik va kenglik tushunchasini joriy qildi. Er. avv. I asrda Geron mexanika bilan muvaffaqiyatli shug`ullangan edi.

Qal'alarni qamal qilish uchun mashhur taranlardan tashqari, g'ildiraklar ustiga o'rnatilgan maxsus harakatlanuvchi minoralar-geliorlar (shahar olarlar ham) paydo bo'ldi. Bu moslamalar dushman shahri devorlariga baravar yoki balandroq qilib yasalar edi. Harakatlanuvchi minora ichida askarlar, zahira o'qlari va tosh otuvchi to'plar joylashtirilgan.

Savdo, dengiz kemalari takomillashtirildi. Ular ko'pincha ochiq dengizda, okeanga ham chiqar edi. Er. avv. II asrda yunon Gippal Hindistonga kemada safar qilganida ilk bor musson shamollaridan foydalandi. Dengizchilikning rivijlanishi mukammalroq portlar va savdo sohillarida ombor va boshqa yordamchi binolar qurishni talab qildi.

Ellin me'morchiligida umumiy va xususiy kishilar foydalanadigan binolar ko'pchilikni tashkil qilar edi. Klassik Yunonistonning me'morchiligida asosiy bino Pripter-xususiy uy bo'lgan. Ellinizm davrida shaharlar reja asosida qurilib, bir-birini kesishib o'tadigan to'g'ri burchakli tik ko'chalari bilan chiroyli ko'rinar edi.

Er. avv. I asrda Pontpodsholigida ixtiro qilinib, ishlab chiqarishda o'z o'rnini topgan suv tegirmoni ellin jamiyatida eng yuqori texnika yutug'i edi. Kam sonli suv tegirmonlari bilan bir qatorda yuz yillar davomida hayvonlar kuchi bilan aylantiriladigan tegirmonlar, yorg'ichoqlar va hatto, oddiy o'g'irlar keng rasm bo'lib keldi. Konchilik ishi texnika jihatidan eng qoloq va mehnatning eng og'ir sohasi bo'lib, konlarda qullar, hukm qilingan jinoyatchilar, harbiy asirlar ko'plab halok bo'lar edi.

**3. Adabiyot va san'at.** Bu davrda Sharq va yunon ma'daniyatining o'zaro ta'sirida Bobil va Misrda tarixshunoslikning rivoji ko'zga tashlanadi. Er. avv. III asrning I yarmida bobillik kohin Beroesning "Xaldeya tarixi" va misrlik kohin Manefonning "Misr tarixi" nomli asarlari yaratildi. Har ikkala asar ham yunon tilida bo'lsa-da, mahalliy manbalar asosida yozilgan edi. Afsuski, ikkala asardan ham bizgacha faqat ayrim parchalar yetib kelgan. Manefon asarida fir'avnlarning eng qadimgi zamonlardan to Iskandargacha bo'lgan podsho sulolalarining xronologik ro'yxati berilgan. Tarixchi Apollodor keyinchalik parfiyaliklar tarixini yozdi.

Ellin davri tarixiy va falsafiy to'plamlarida insonning jamiyatga, o'z davrining siyosiy-ijtimoiy muammolarga munosabati ochib beriladi. Tarixiy asarlarning syujetlari bo'lib yaqin o'tmish voqealari xizmat qildi. Ko'pincha tarixchilar o'z asarlarini bariiy adabiyot chegarasida shakllantirdilar: bayon qilish mohirona fojialashtirildi, kuchli hissiy tuyg'uga qaratilgan ritorik usullar ishlatildi. Ana shunday usulda Kallisfen (ere. avv. IV asr oxiri) va iskandariyalik Klitarx (er. avv. III asr o'rtalari) makedoniyalik Iskandar tarixini, Timey (er. avv. III asr o'rtalari) Yunoniston tarixini er. avv. 280-yildan-219-yilgacha, Kleomen islohotlari tarafdori Filarx (er. avv. III asr oxiri) ana shunday usulda bayon qildilar. Bu usuldan farq qilgan holda boshqa tarixchilardan Ptolemey I (er. avv. 301-yildan keyin) tomonidan yozilgan Iskandar yurishlari tarixi, kardiylik Gieronim (er. avv.

III asr o`rtalari) diadoxlar urushlari davri tarixini faqat quruq dalillarni qat`iy bayon qilish usulini qo`lladilar.

Ellin davrida fan sifatida adabiyotshunoslik kurtaklaridan filologik tanqid Gomerdan boshlab klassik mualliflar asarlarini asl nusxalarini qayta tiklash va sharhlash shaklida yuzaga keladi. Filologlar mantiqiy asosda yunon grammatika tizimini ishlab chiqdilar.

Iskandariya Museyoniyunon adabiyotining muhim markazi bo`lib qoldi. Bu yerda va boshqa joylarda rivoj topgan adabiy oqim "Iskandariya adabiy oqimi" deb nom olgan. Bu ellinjamiyati yuqori tabaqasining kayfiyatini ifodalagan poeziya edi. Iskandariya shoirlarining boshlig`i Kallimax edi. U Museyon kutubxonasining mudiri va taxt vorisining tarbiyachisi edi. Kallimax kutubxona katalogini tuzdi. Shu bilan birga, Kallimax mifologik, tarixiy va adabiy mavzularda yozilgan, hajmi jihatidan kichik-kichik she`rlar muallifidir.

Kallimaxning kichik zamondoshi Feokrit Iskandariyadagi eng taniqli shoir edi. U kichik-kichik lirik-dramatik poema va g`oyalar muallifi bo`lib tarixga kirdi. Kallimax o`z asarlarida qishloq va shahar hayotining tinch manzaralarini ideallashtirgan, cho`ponlar hamda shaharlik erkak va ayollarning hissiy kechinmalarini madh etuvchi nozik lirikdir.

Iskandariya poeziyasidan tashqari, ellin davrida yangi Attika komediyasi katta ahamiyat kasb etdi. Bu davrdagi Attika komediyaning asosiy vakili Menandr edi. Misrdan topilgan papirus o`ramlari tufayli uning komediyalari bizga ma`lum bo`ldi. Menandr komediyalari syujeti oilaviy, maishiy dramalardan iborat. Menandr komediyalari baxtiyorlik bilan tamomlanadi.

Ellin davridatasviriy san`at ajoyib yutuqlarga erishdi. Bu davrda Sharq va yunon an`analari bilan qo`shilgan anchagina me`morchilik yodgorliklari bunyod etilgan. Hashamat va ulug`vorlikka intilish ularning ko`plari uchun xos bo`lgan xususiyatdir. Haykaltaroshlik san`ati bu davrda ancha ravnaq topgan edi. Ammo uning mazmuni klassik davr an`analaridan farq qildi. Ma`budalar va qahramonlarning ideallashtirilgan va umumlashtirilgan haykallari orqaga surilib, tabiiy tarzda gavdalandirilgan va tasvirlangan shaxsning individualligi yaqqol ko`rsatilgan portretlar oldingi qatorga chiqdi. Ellin davrning haykaltaroshlari yaratgan yakka va guruh tarzidagi haykallarda jismoniy va ruhiy azob, kurash, g`alaba, o`lim tasvirlab ko`rsatilar edi.

Peyzajni mutaquil tasvirlab, unda yoki uning o`rtasida asosiy syujetni aks ettirish haykaltaroshlikda yangilik edi. Bu usul klassikada ma`lum emas edi. Shu bilan bir qatorda haykaltaroshlikda dabdabali yo`nalish mavjud bo`lib, u ellin hukmdorlarining haykallari soyasida namoyon bo`ldi. Ellin haykaltaroshligida er. avv. IV asrning mohir ustalariga borib taqaladigan bir necha yo`nalishni ko`rish mumkin. Afina va Iskandariyada Praksitelga borib taqaladigan san`at asarlarini tomosha qilish uchun kiruvchi o`ziga to`q kishilarning didiga mo`ljallangan san`at asarlarini ko`rishi mumkin edi.

**4.Me`morchilik va haykaltaroshlik.** Er.avv. III asrdan boshlab shaharsozlik rivojlanishida yangi bosqichga chiqdi. Endi shaharlar reja asosida qurula

boshlandi. Kichik Osiyodagi Antioxiya, Misrdagi Iskandariya, Pergandagi Priyena, Afg'onistondagi Oyxonim shaharlarida to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilib, bir-birini kesishadigan to'g'ri ko'chalar, maydonlar, saroybog'lar, ibodatxonalar bunyod qilingan edi. Iskandariya shahriga er.avv. 322yilda Iskandar asos soldi. Shaharda bir-birini kesishib o'tgan to'g'ri ko'chalar, saroy-bog'lar, xiyobonlar muhtasham uylar, ibodatxonalar mavjud. Ptolemey II buyrug'i bilan er.avv. 285-yilda Knidlik me'mor Sostrat dengizda kemalarga yo'l ko'rsatadigan mayoq qurilishini boshladi. Mayoq besh yil davomida qurib bitkazildi. Inshoot uch qavatli balandligi 120 metr, asosi har bir tomoni 30 metr kvadratni tashkil qilar edi. Mayoqdagi ulkan oynalar shulasi doimiy yonib turadigan gulxan yordami bilan uzoq dengizdan ko'rinib turar edi.

Mayoq binosi uzoq vaqt saqlanib qoldi, faqat XIV asrdagi yer qimirlashi natijasida u buzildi. Iskandariya mayog'i qadimgi dunyoning yetti mo'jizasidan oltinchisi hisoblanadi (1-Misr piramidalari, 2 Bobildagi Semiramida Osmabog'lari, 3 Ebesdagi Artemida ibodatxonasi, 4 Galikarnas mavzoleyi ibodatxonasi, 5 Rodosdagi haykal, 6. Olimpiyadagi Zevs haykali).

Bu davrda haykaltaroshlikning mahalliy maktablari texnik uslublari va badiiy qarashlari bilan farq qilar edi. Taniqli haykatarosh Lisipp o'zining Iskandar byustini yaratdi. Uning shogirdlaridan biri Lindlik Xaret Rodosdagi mashhur ulkan haykalni bunyod qildi. Lisippning boshqa shogirdi Yevtixid Antioxiyada baxt ma'budasi Tyuxeni haykalini ishladi. Ellin hukmdorlarining haykal portretlari yaratildi, haykaltarosh Praksitelning o'g'li Kefisodot va Timarx Iskandariya shahrida yashab ijod qildilar. Ular ellin hukmdorlari va shoir Menandrning portretini yaratdilar. Haykaltarosh Poliyevkt (er.avv. 280-yil) Demosfenning haykalini ishladi. Taxminan er.avv. III-II asrlarda haykaltarosh Agesandr mashhur "Miloslik mabuda Venera" haykalini yaratdi. Bu davrda bir necha haykallardan iborat guruhii haykallar paydo bo'ldi ("Laokoon o'g'illari bilan", "Farneza buqasi" haykallari guruhi).

Afrodita va boshqa ma'budalarning yalang'och haykallari ishlendi. Dramatizm da to'la Pergam maktabi Skopasga borib taqaladi. Pergam mehrobining frizi mazkur maktabning ajoyib yodgorligi bo'lib, unda ma'budalarning gigantlar bilan kurashi tasvirlanadi. Bu Pergam va boshqa ellin davlatlarining jangovar galat (kel't) qabilalari bilan olib borgan og'ir kurashlarining ramzi edi. Rodos mashhur haykaltaroshlik maktabi Asippga borib taqaladi. Bu maktabda asosan haykallar baquvvat atletlarning tasvirlaridan iborat. Ellin davri me'morchiligi va haykaltaroshligi madaniyatning noyob namunalari sifatida bundan keyingi san'at taraqqiyotiga hayotbag'sh ta'sir qildi,

**Tayanch iboralar:** Ellin, Ellin (g'arb), mahalliy (sharq), diadoxlar, Ptolemeylar sulolasi, nomarx, strateg, epstat, vintli press (Arximed vinti), Filadelf III, er. avv. 30-yilda Rim istilosi, Antigon, Anaxita ibodatxonasi, Hind jangovar fillari, Gannibal bilan ittifoq, I makedon urushi, Persey, III makedon urushi (er. avv. 171-168-yillar), Pidna yonidagi jang, Attal I, Aristonik boshchiligidagi

qo'zg'olon, galatlar, Pergam kutubxona binosi, Agis IV, Kleomen II, Esxin, Rodos notqlik maktabi. Serapis, Ptolemey II Filadelf, Ptolemey III, Berenika, "stoya", Epikur falsafa maktabi, Antisfen, Diogen, Feosfrat, Menon, "O'simliklar tarixi", "O'simliklar fiziologiyasi", Museyon, rasadxona, fizika, Yevklid, "Boshlang'ich geometriya", Eratosfen, dengizchilik, Orontdagi Pergam, Aristofen, "fizik", "Geografiya", Gipparx, Kallimax kutubxonasi, Menandr, Rodos haykaltaroshlik maktabi, Asipp, Skopas, "Xaldeya tarixi", Manefon "Misr tarixi".

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Ellinizm tushunchasiga izoh bering.
2. Ellin davlatlari taraqqiyotini qiyosiy taxlil eting
3. Ellin madaniyatini keng jo'g'rofik makonga yoyilishida Iskandarni o'rni qanday?
4. Ellin davlatlarini savdo – iqtisodiy aloqlari xaqida ma'lumot bering.
5. Ellin - finikiy – Rim madaniyatlarini taqoslang.

### **Ma'ruza№ 35,36**

#### **Mavzu: Qadimgi Rim tarixiga kirish. Manbalar va tarixshunosligi Reja:**

1. Qadimgi Rimning joylashishi, tabiati va aholisi.
2. Rim tarixini davrlashtirish. Manbalar.
3. Qadimgi Rim tarixining asosiy manbalari.
4. Rimda plebeylar va patritsiylar o'rtasidagi kurash.

**Qadimgi Rimning joylashishi, tabiati va aholisi.** Yevropa janubida Apennin yarim oroli joylashgan. Yarim orolning uch tomoni Adriatik, Tirren va Ioniya dengizlari, shimoli esa qorli Alp tog'lari bilan o'ralgan. Yarim orolning katta qismi yassi tog'liklardan iborat bo'lib, yam-yashil o'rmon va o'tloqlar bilan qoplangan. Qadimgi yunonlar bu yerda oziqbop o't, o'simlik va chorva mollarining ko'pligini ko'rib hayratga tushganlar. Shuning uchun bu joyni «buzoqlar mamlakati», ya'ni Italiya deb ataganlar. Keyinchalik yarim orolning hammasi Italiya deb nomlangan

Yevropada qishloq xo'jaligi va qishloq hayotining vujudga kelishi ikkita alohida usulda sodir bo'lgan. Birinchi va eng tez yo'li O'rtayer dengizi shimoliy chekkasida sodir bo'ldi. O'simlik va hayvonlarning xonakilashtirilishi bilan O'rtayer dengizining quyi oqimidan g'arbga, ya'ni hozirgi Turkiya orqali Egey dengizi orollaridan materik Yunonistoniga, u yerdan Sitsiliya, janubiy va markaziy Italiya tomonga ko'chdi. Bu jarayon alohida shaxsning muhim harakatini yoki mavhum tarqalgan g'oyalarni o'z ichiga oladi, dengiz bilan aloqalarni jadal sur'atda tezlashtirdi. Xonakilashtirish jarayoninig asosiy

elementlari O'rtayer dengizi viloyatlaridan janubiy-g'arbiy Osiyoga yetib kelishi bilanoq, dengiz aloqalarining tez sur'atda o'zgarishiga yordam berdi. Tez orada termachilik va ovchilik o'z o'rnini dehqonchilik va uy chorvachiligiga bo'shatib berdi.<sup>65</sup>

Yarim orol hayvonot va er osti qazilmalariga ham boy. Iqlimi yumshoq, yoqimli va seryomg'ir. Yarim orolning qulay geografik muhiti qadim zamondan boshlaboq ibtidoiy odamlar e'tiborini o'ziga tortgan. Arxeolog olimlar yarim orolning ko'p joylaridan qadimgi tosh asriga mansub odamlarning makonlarini, qurollarini, suyaklarini va g'or devorlariga chizilgan rasmlarini topishgan. Bu ashyolar Apennin yarim orolida odamlar qadim zamonlardan boshlab yashay boshlaganini bildiradi. Quldorlik davlatlari orasida Italiyada tarkib topib er. av. II asr o'rtalaridan boshlab butun O'rta dengiz atroflarida hukmronlikni qo'lga kiritgan davlat Rim davlati nomi bilan ataladi. Bu davlat birorta shahar - Rim polisi asosida paydo bo'lib, keyin butun Italiyani O'rta er dengizi atrofidagi o'lkalarni, Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Afrika Yevropaning katta qismini o'ziga bo'ysundirdi. Er. av. II va er. av. I asrlar davomida uning chegaralari g'arbda Piriney yarim orolidan Sharqda Kaspiy bo'ylarigacha, Shimolda Britan orollaridan Janubda Fors qo'ltig'igacha bo'lgan joylarni o'z ichiga olar edi. Bu davlat ulkan quldorlik saltanatiga aylanib, qariyb 500 yil umr ko'rgan.

Rim davlatida qulchilik munosabatlari beqiyos darajada taraqqiy qilib, o'zining klassik darajasigacha etgan. Dunyoning biror mamlakatida qullarni qattiq ezish va ularga shafqatsizlarcha munosabat Rimdagidek bo'lmagan.

Zamon o'tishi bilan quldorlik xo'jaligi va qulchilik tizimiga asoslangan ijtimoiy munosabatlar ham o'z umrini yashab bo'lgan, natijada qudratli saltanat quladi.

Boshqa quldorlik davlatlaridan farqli tarzda Rim quldorlik davlati tarixini o'rganish natijasida bu munosabatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va halokatga uchrash jarayonlarini bir davlat qiyofasida kuzatish mumkin.

Miloddan avvalgi 5-asrda Rim shahrining fuqarosi Rimlik bo'lishini anglatgan, lotin tilida gapirish ( markaziy Italiya mahalliy tili ) va kiyinish hamda yeyishi lotin tilida gapiruvchilarga o'xshagan. Miloddan avvalgi 2-asrning oxiriga kelib, fuqarolik tushunchasi rimliklar tomonidan qurilgan katta bir hududiy davlat a'zolariga aylangan kishilarga nisbatan ishlatilgan.

3-asrga kelib, hatto, bu katta g'oya haqiqatga aylandi. Endi, Rimni anglatish Rimlik imperatorlarning oddiy narsasiga aylanib qoldi. Bu o'ziga xos tushuncha chuqur ildiz otgan imperiyaning 2 asr o'tgach g'arbiy qismlarining parchalanib ketishiga olib keldi. Sharqiy qismlarda yashovchi omon qolganlar esa, Rim bilan aloqa qilmas edi, lotincha gaplashmas edi va haqiqiy rimliklar kabi kiyinmas va ovqatlanmas edi. Ular o'zlarini haligacha haqiqiy rimlik hisoblamas edi.<sup>66</sup>

---

<sup>65</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p. 30.

<sup>66</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p. 243.

Yana Rim tarixini o'rganish natijasida qullar mehnati va erkin kishilar mehnati samaralaridan bahramand bo'lib o'ziga xos madaniyat yaratilganligi, bu madaniyatdan keyingi zamonlarda butun dunyo xalqlari ham bahramand bo'lganliklarini bilib olamiz.

Qadimgi Italiya Apennin yarim oroli, Sitsiliya, Korsika, Sardiniya va boshqa mayda orollarni o'z ichiga olgan mamlakatdir. Uni shimol tomondan Alp tog'lari o'rab turadi. Yarim orolni sharqdan Adriatika, Janubdan Ioniya, g'arbdan Tirren dengizlari yuvib turadi. Dengiz qirg'oqlarida kemalar to'xtashi uchun qulay buxtalar bor. Italiya hududida inson xo'jalik faoliyati uchun qulay bo'lgan tekislik va unumdor yerlar ko'p.

Yarim orol qadimda qalin o'rmonzorlar bilan qoplanib, u yerda dub, qayrag'och, qora qayin, kashtan va boshqa daraxtlar o'sib yotgan qadimgi Rimda azaldan boshlab olma, anor va boshqa mevali daraxtlar ham yaxshi meva bergan.

Qadimgi Rimning hayvonot dunyosi o'rta Yevropanikiga o'xshash bo'lib, u yerda bug'u, tog' eskisi, yovvoyi cho'chqa, yovvoyi mushuk, ayiq, bo'ri, tulki, mayda yirtqichlar, sudralib yuruvchilar, parrandalar ko'p bo'lgan. Yarim orol va dengizlarda baliqlar va har turli dengiz hayvonlari serob bo'lgan.

Apennin yarim orolida er osti qazilma boyliklari ham ko'p bo'lgan. U yerdan va orollardan oltin, kumush, temir va mis, turli rangdagi marmartoshlar qazib chiqarilgan. Yarim orolning janubidagi Sitsiliya orolining iqlimi issiq bo'lib, o'simliklar olamiga boydir.

Apennin yarim orolining qulay geografik muhiti juda qadim zamonlardayoq ibtidoiy odamlarning diqqat e'tiborini o'ziga tortgan. Arxeolog olimlar Apennin yarim orolidan qadimgi tosh asriga mansub odamlarning makonlari, mehnat qurollari, g'or devorlaridan esa qadimgi rasmlarni topganlar. Ayni paytda yarim oroldan 80-100 ming yillar muqaddam yashagan qadimgi odamlarning bosh suyagi va mehnat qurollari ham topilgan. Ular asosan termachilik va ovchilik bilan shug'ullanganlar. Neolit davriga kelib Italiya va orollarda aholi ko'paya boshlagan. Bu davrga kelib odamlar g'orlarni tark etib, chaylalarda yashaganlar, dastlabki chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaganlar.

Er. av. III ming yillikda Italiya aholisi misdan, II ming yillikda jezdan va II ming yillikning oxirida – I ming yillikning boshidan boshlab temir qurollardan foydalana boshlagan. Temir qurollardan foydalanish qishloq xo'jaligining rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Er. av. I ming yillikda Italiyada etrusk, ligur, lotin, venet, osk, va samniy (samnit) kabi turli qabilalar yashar edilar.

Ligurlar va etrusklar mamlakatning qadimgi qabilalaridan bo'lib, ular Italiyaning shimoli-g'arbiy tomonlarida yashaganlar. Mamlakatning shimolisharqiy chekkasida venetlar, uning janubi bilan Sitsiliya orolida italiyalik qabilalar yashaganlar. Ayni paytda yarim orolda lotin qabilalari ham yashaganlar. Ular yashagan joy Latsiya deb atalgan. Latsiyaga yondosh Kampaniya tekisligida okslar yashaganlar.

Janubiy Ispaniya va g'arbiy Italiyada, Qora dengiz bo'yidagi Qrimda shaharlar hayoti oddiy bo'lgan. Tez orada dengiz bo'yidagi aloqalar boy va qudratli elita viloyatlarining qo'llab-quvvatlashi natijasida O'rtayer dengizida keng shahar madaniyati tarqaldi. Janubiy Ispaniyadagi Tartessosdan, Fransiyaning janubidan gal rahbarlari, shuningdek, markaziy Italiyadan etrusk va Rim zodagonlarining mahalliy elitalari topilgan, yangi aristokratik madaniyatda davlatning boyligining xususiyatlari bunday tasvirlangan: boy bezatilgan jang aravalari, murakkab zirhli va qurollangan yuqori sifatli oshxona idishlari, murakkab uylar va davlat mozorlari<sup>67</sup>.

Er. av. II ming yillikdan boshlab yunon dengizchilari Apenin yarim oroli va Sitsiliya oroli sohillariga kelib o'rtnasha boshlaganlar. qadimgi rivoyatlarga ko'ra, Krit podshosi Minos Sitsiliyada halok bo'lgan ekan. Sitsiliyada sikanlar, elimlar, Korsika va Sardiniyada sardlar yashaganlar.

Rim davlati er. av. II asrdan ya'ni, o'rta er dengizi bo'ylaridagi qudratli davlatga aylangan zamondan boshlab Rimda yunonlar ta'siri kuchaygan. Yunon tili, fani va madaniyati Rimga ta'sir qila boshlagan.

**Rim tarixini davrlashtirish.** Qadimgi Rim tarixini quyidagi davrlarga bo'lib o'rganiladi.

1. Podsholik davri. Er. av. 509 yilgacha bo'lgan davr.
2. Respublika davri. Bu davr er. av. 509 yildan er. av. 30-yilgacha davom etgan.
3. Imperiya davri. Er. av. 30 yildan -- milodiy 476 yilgacha davom etgan.

Imperiya davrini o'zini 284 yildan boshlab alohida Dominat bosqichiga ham ajratiladi.

**Qadimgi Rim tarixining asosiy manbalari.** Qadimgi Rim tarixini o'rganish uchun asosiy manbalar Rim tarixchilarining tarixiy asarlari, arxeologik tadqiqotlar ma'lumotlari, epigrafika va numizmatika ma'lumotlaridir. Rimning ilk tarixchilari yilnomachilar bo'lib, voqea va hodisalar kalendar tarzida yozib borilgan. Bu ish bilan er. av. VI-V asrlardan boshlab fastlaribodatxonalarining bosh kohinlari shug'ullanib borganlar. Dastlabki yilnomalar er. av. 390 yilda Rimga gallar hujumi va istilosi vaqtida yo'q qilib yuborilgan.

Keyingi zamonlarda yaratilgan yilnomalarni er. av. 130 yilda Publiy tomonidan to'planib, nashr qilinib, «Buyuk yilnomalar» deb ataldi.

Er. av. III-II asrlardagi yilnomachilarni tarixda katta yilnomachilar deb atash rasm bo'lib, Tsitseronning aytishicha: "ular qisqa qilib yozishni bayonotning birdan-bir fazilati deb bilib, faqat kunlar, kishilar, voqea va u yuz bergan joyni ko'rsatib yozganlar, xolos".

Katta yilnomachilarning eng mashhuri Kvint Fabiy Piktordir. U er. av. III asr oxirida yashab, o'z asari "Yilnomalar"ni yunon tilida yozgan. Asarda Italiyada Eneyning paydo bo'lishidan boshlab, ikkinchi Puni urushigacha bo'lgan Rim tarixi bayon qilingan.

---

<sup>67</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p. 195.

Lotin tilidagi birinchi tarixiy asarni esa Mark Portsiy Katon (er. av. 234-149 yillar) yozgan. Katon haqida Tsitseron: “Yunoniston va Rim tarixida u bilmagan biron bir voqeani topish qiyin” deb yozgan edi.

Er. av. II asrning 30 yillaridan boshlab Rim respublikasida «yangi» yoki «kichik» yilnomachilar deb atalgan mualliflar – Lutsiy Seliy, Antipatr, Semproniy Azellionlarning asarlari paydo bo‘ldi.

Rim respublikasi davrining eng yirik tarixchilaridan biri, er. av. II asrning ikkinchi yarmida yaratilgan “Umumiy tarix” asarining muallifi Polibiydir. Asarda er. av. 264-146 yilda manbalarni sinchiklab tekshirgan, mamlakatlarning geografik holati va iqlimini o‘rgangan. Polibiy tarix chinakam voqealarni izohlashga va bu voqealarning keyinchalik taraqqiyot yo‘lini belgilashga imkon beradi, ya’ni tarix “nasihat berishi”, “o‘rgatishi” mumkin, amaliy jihatdan foydali bo‘lishi mumkin deb faraz qiladi.

Er. av. I asr Respublikaning qulashi va imperiyaning qaror topishi davridir. Davlat shaklining o‘zgarishi keskin kurashlar sharoitida yuz bergan. Bu davr manbalari shu zamonda yashagan Mark Tulliy, Tsitseron, Gay Salyustiylarning asarlaridir. Katon va Varronlarning asarlari esa Italiya qishloq xo‘jaligini o‘rganishda yordam beradi.

Shu bilan birga Rim imperiyasining atoqli sarkardalaridan biri Yuliy Sezar (100-44yy) faoliyati diqqatga sazovordir. Chunki ham xarbiy sarkarda ham tarixiy asarlar yozganligi bilan ajralib turadi<sup>68</sup>.

A man of prodigious abilities, the greatest orator of his age, and a writer of boundless persuasion, Julius Caesar (100–44BCE) allegedly could dictate seven letters simultaneously while attending to other duties.

Rim imperiyasi davriva Dominat davri tarixini o‘rganishda, Valeriy Paterkul, Korneliy Tatsit, Svetoniy Trankvill, Dion Kassiy, Ammian Martsellin, Strabon, Katta Pliniylar yaratgan asarlar asosiy manbalar bo‘lib xizmat qiladi.

Qadimgi Italiya va O‘rta dengiz bo‘ylarida o‘tkazilgan arxeologik tekshirishlar natijasida ochilgan obidalar, shaharlar (Pompey, Tingad shaharlari) ham muhim tarixiy–ashyoviy manbalardir.

Qadimgi yozuvlardan Etrusk yozuvlari er. av. VIII-VII asrlarga mansubdir. Bunday yozuvlar to‘qqiz mingdan ortiq bo‘lib, uzoq vaqtdan beri o‘qilmay kelinmoqda. 1988 yilda Rossiyadagi Chelyabinsk Unisversiteti olimi, filolog Tubert etrusk yozuvlarini o‘qib chiqishda katta muvaffaqiyatga erishdi.

Er. av. VI asrga mansub ilk lotin yozuvi namunalari Prenestin tuqasi va Romul qabri joylashgan yerdan topilgan «qora tosh» dagi yozuvlardir.

Tangalarni o‘rganish esa afsonaviy manzaralar, e’tiqodlar, san’at, arxitektura tarixini o‘rganishga yordam beradi.

Apennin yarim orolining markaziy qismidan Tibr daryosi oqib o‘tadi. Daryoning yuqori qismi tog‘liq yaylovlar, quyi qismi esa tekislikdan iborat bo‘lgan. Uning har erida katta-kichik tepaliklar qad ko‘tarib turadi. Tibr daryosi

---

<sup>68</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.265.

tekisligida qadimdan boshlab lotin qabilalari yashar edilar. Er. av. XI–X asrlarda bu tepaliklarda lotinlarning qator qishloqlari bor edi. Xo‘jalikning rivojlanishi va aholining ko‘paya borishi tufayli qishloqlar birlashib, lotinlar jamoasini – davlatini tuzganlar. Er. av. VIII asrda Rim shaharchasi bunyod etilgan. Tibrning baland qirg‘og‘idagi Kapitoliy tepaligida qurilgan qo‘rg‘on shaharning markazi bo‘lgan. Rim shahrini barpo bo‘lishi bilan Rim davlati ham tashkil topgan. Rim va uning atrofida lotin, etrusk va boshqa qabilalar yashaganlar. Ular birlashib Rim davlatiga asos solganlar. Bular Rimning qadimgi tubjoy aholisi bo‘lib, ular patritsiylar deb atalganlar. Patritsiy lotincha «pater» so‘zidan olingan bo‘lib «ota» degan ma‘noni bildirgan. Ular Rimning erkin aholisi bo‘lib, ota-bobolari Rimga asos solganliklari bilan faxrlanib yurganlar. Ular o‘zlarining ermulklariga ega bo‘lganlar. Jamoa yerlarida chorvalarini boqqanlar. Patritsiylar o‘zlari ishlash bilan birga qullar mehnatidan ham foydalanganlar. Patritsiylarning nufuzli keksalaridan «oqsoqollar kengashi» tuzilgan bo‘lib, uni lotinchada senat deyilgan. Dastlab Rimni podsho va senat boshqargan. Rim kuchaya borib asta-sekin Etruskiya, Kampaniya va Markaziy Italiyadagi bir qancha joylarni bosib olgan. Shundan so‘ng Rim shaharlarining kuchli ittifoqi vujudga kelgan. Rim bu ittifoqning etakchisiga aylangan. Rimliklar atrofda qishloq va viloyatlarni o‘zlariga itoat ettirib, u yerlardagi begona aholini Rimga ko‘chirganlar. Italiyaning boshqa joylaridan Rimga ko‘chib kelgan odamlarni va ularning avlodlarini plebeylar deb ataganlar. Plebeylar asosan qo‘shinda xizmat qilganlar. Ularga jamoa ekin maydonidan er berilmagan. Ular orasida boybadavlat kishilar va kambag‘allar bo‘lishgan. Rimda qarzdor kishilar va urushda asir tushganlar qul qilinganlar. Er. av. 510–509-yillarda Rim fuqarolari qo‘zg‘olon ko‘tarib podshohni taxtdan ag‘darib tashlaganlar. Rimda respublika davlat hokimiyati o‘rnatilgan. Respublika – ma‘lum muddatga saylab qo‘yiladigan kishilar idora qiladigan davlatdir. Rimliklarning xalq yig‘ini har yili patritsiylar orasidan ikkita hokimni – konsullarni va unga yordam beradigan boshqa mansabdor kishilarni davlatni boshqaruv ishlariga saylagan. Bu amaldorlar yil davomida Rim davlatini idora qilganlar, urush e‘lon qilib, sulh tuzganlar. Ular sud ishlarini ham bajarganlar. Konsullar yangi qonunlar qabul qilib eskisini bekor qilganlar. Urush vaqtida esa qo‘shinga qo‘mondonlik qilganlar. Rimda senat ham katta huquqqa ega bo‘lgan. Senatga a‘zo qilib patritsiylarning oqsoqollari orasidan vakillar saylangan. Konsullar davlat ishining barcha masalalarida senat bilan bamaslahat ish olib borganlar. Patritsiylar davlat ishlariga plebeylarni aralashtirishga qarshi bo‘lganlar. Plebeylar esa patritsiylar bilan teng bo‘lish, davlat ishlarida qatnashish uchun qattiq kurash olib borganlar.

**Rimda plebeylar va patritsiylar o‘rtasidagi kurash.** Rimda tabaqalarga – patritsiylar va plebeylarga ajralish va ular o‘rtasidagi kurash podsholik davrida boshlangan edi. Podsholik ag‘darilib, respublika o‘rnatilgach, patritsiylar bilan plebeylar o‘rtasidagi kurash yanada keskinlashib ketadi. Plebeylar davlatni boshqarish ishlarida qatnashish, jamoa yerlaridan foydalanish va boshqa masalalarda patritsiylar bilan teng huquqli bo‘lishga harakat qilganlar. Rim qo‘shinining asosiy qismini plebeylar tashkil etar edilar. Plebeylar qo‘shinda

xizmat qilishdan bosh tortar, o'zlarining alohida shaharlarini barpo qilmoqchi bo'lib, patritsiylarni qo'rqitardilar. Nihoyat patritsiylar qo'shinining kuchsizlanishidan cho'chib, plebeylarga yon berishga majbur bo'lardilar.

**Tayanch tushunchalar:** Antik davr, klassik qulchilik, Italiya atamasi. Etrusk, ligur, lotin, venet, osk, samnit. Yilnomachilar, Fastlar. Publiy, Piktora, Katon, Polibiy, Tsitseron, Salyustiy, Tsezar, Tit Liviy, Diodor asarlari, Tatsit, Svetoniy, Trankvill, Strabon. qadimgi yozuvlar, numizmatik ashyolar.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimgi Rim tarixini yorituvchi manbalar va ularning turlarini ko'rsatib bering.
2. Rim tarixi necha davrga bo'linadi va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Antik mualliflar asarlarida Rim tarixini yoritilishi.
4. Qadimgi Rim yozuvi va uning zamonaviy tarixchilar tomonidan o'rganilishini taxlil eting.
5. Numizmatik materiallar yordamida Rim tarixini o'rganishning amaliy ahamiyatini tushintirib bering.
6. Rim arxitekturasida nimalar bilasiz?
7. Rim tarixini o'rganishda arxeologik materiallarni o'rni va ahamiyati qanday?

#### **Ma`ruza №37,38**

##### **Mavzu: Rim respublikasi va uning siyosiy**

**boshqaruvi Reja:** 1. Rim patritsiylar Respublikasi 2. Ilk respublika davrida Rim.

3. Plebeylarning patritsiylarga qarshi kurashi.
4. Ilk Rim respublikasining davlat tuzumi.
5. Rim armiyasi va uning tuzilishi.

**Rim patritsiylar Respublikasi.** Eramizdan avvalgi V–IV asrlarda asta-sekin aristokratik patritsiylar respublikasi konstitutsiyasining tashkiloti pishib yetilgan. Faqat patritsiylardan saylangan barcha magistratlar (mansab egalari) senatga tobe bo'lgan. Senat oqsoqollar kengashidan sekin-asta (butun tarkibi patritsiylardan iborat bo'lgan) doimiy davlat organiga aylangan.

Shunday qilib respublikada ta'sis qilingan er. avv. 509 yildan barcha siyosiy hokimiyat organlari patritsiylar qo'lga o'tib qolgan. Rim plebsi esa xuddi podsho davrida bo'lgani kabi iqtisodiy va siyosiy jihatdan huquqsiz bo'lib qolavergan<sup>69</sup>.

---

<sup>69</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.265.

Patritsiylarning quldorlik respublikasi e'lon qilinganligi bilan ijtimoiy tuzumda muhim o'zgarishlar sodir bo'lmagan.

**Ilk respublika davrida Rim.** Rim ilk respublika davrida polis bo'lgan, yani erkin quldorlardan iborat grajdanlar jamoasi bo'lgan . Oila ( familiya ) Rim jamoasi hayotida ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan . Oila bir- biri bilan qon- qrindoshlik aloqasidagi shaxslar va shu oilaga xizmat qiladigan qullardan iborat bo'lgan. Oila mulkini oila boshlig'i boshqargan, xonadagi toat-ibodatning kohini vazifasini ham u bajargan, oila a'zolarining taqdirini hal qiladigan yagona sudya ham o'sha bo'lgan ( qul qilib sotishga , o'ldirishga haqli bo'lgan ). Davlat oilaning ichki ishlariga aralasha olmagan, oila boshlig'ining ishini har nechuk tekshira ham olmagan.

Rim aholisi dehqonchilik, chorvachilik , hunarmandchilik bilan shug'ullangan . Rimliklar don yetishtirgan, tok, zaytun o'stirgan, polizchilik qilgan. Dehqonlar temirdan qilingan qurollarni ishlatgan. Ular yirik qoramol, qo'y , echki va cho'chqa boqqanlar. Hunarmandchilik podsholar idora qilgan zamondayoq dehqonchilikdan ajrala boshlagan , bu jarayon eramizdan avvalgi V- IV asrlarda ham davom etgan. Sozandalar, zargarlar, binokorlar, ko'nhilar, etikdo'zlar, misgarlar va kulollarning hunarmandchilik kollegiyalari ta'sis qilinganligi kasb- hunarning rivojlanganligidan dalolat beradi. Rim jamoasi hududida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida Etruriya uchun xarakterli bo'lgan ko'pgina bronza vat emir buyumlar topildi. Temir Etruriyadan keltirilgan bo'lsa kerak, chunki Latsiyumda temir bo'lmagan. Topilgan g'oyat ko'p spool material kulolchilikning taraqqiy qilganligidan darak beradi. Rimda binokorlik sohasida katta ishlar qilingan: juda ko'p devonlar, ibodatxonalar (Yupiter Kapitolskiy ibodatxonasi , Satuern ibodatxonasi va boshqalar) solingan, shaharda kanalizatsiya ham bo'lgan.

Hunarmandchilik qishloq xo'jaligidan ajralganligi natijasida savdo- sotiq taraqqiy qilgan . Rimning asosiy maydoni bo'lmish forumda har hafta bozor bo'lgan. Shaharda chorva va qullar bilan savdo qiladigan maxsus joylar yuzaga kelgan. Diniy bayram kunlarida har yili yarmarka tashkil etilgan. Rimning Italiya daryolaridan kemalar yurishi uchun eng qulay Tibr daryosi sohilda joylashganligi rimliklarga latin shaharlari, etrusklar , finikiylar va greklar o'rtasida vositachi bo'lib savdo- sotiq ilishga imkon tug'dirgan. Pul sistemasi vujudga kelgan. Og'irligi Rim funti qismlariga barobar keladigan mis, keyinchalik bronza bo'laklari avvallari pul ekvivalenti bo'lgan chorva mollarini siqib chiqargan. Bir qancha vaqtdan keyin har xil hayvonlarning surati va metallning tozaligiga kafolat beradigan muayyan belgilar zarb qilingan lavhalar paydo bo'lgan. Kumush pullar esa eramizdan avvalgi III asr o'rtalaridagina zarb qilina boshlangan.

**Plebeylarning patritsiylarga qarshi kurashi.** Plebeylar borgan sari mashhur bo'lgan hunarmandlik va savdo- sotiqning rivojlanishi Rim plebsining tabaqalanishiga olib kelgan. Plebeylar orasidan boy savdo- hunar zodagonlari ajralib chiqqan. Ikkinchi tomondan yo'qsul plebeylar soni ko'payib borgan. Patritsiylarning urug'doshlik tashkilotlariga kirmagan plebeylar xususiy mulk

tariqasida juda katta yer uchastkalariga ega bo'lgan . Urushlar, hosilning bo'lmay qolishi hollari, istilo qilingan oblastlardan aholining bir qismi Rimga ko'chirib keltirilishi va aholining tabiiy o'sishi natijasida umuman yer kam bo'lgan Rimda yersiz plebeylar soni o'sib borgan . Ko'p plebeylar o'z yerlarini ko'pincha urug' zodagonlaridan bo'lgan sudxo'rlarga garovga qo'ygan. Qarzini to'lay olmagan qarzdorlar yerga egalik huquqidan mahrum bo'lgan. Qarz bergan sudxo'r shavqat qilib qarzdorni o'z yerida qoldirgan taqdirda ham ijarachi sifatida , u o'zining shaxsiy erkinligini garovga qo'ygan. Patritsiylar , shuningdek boy plebeylar o'z qarzdorlarini asoratga solganlar. Ular qarzdorlarni Tibr daryosining narigi tomoniga , ya'ni Rim jamoasidan tashqariga qul qilib sotib yuborishga haqli bo'lgan .

Plebeylarning ana shu tariqa tabaqalanishi natijasida sinfiy kurash keskinlashib ketgan.

Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda Rim plebsi butun Rim jamoasiga qarashli jamoat dalasidagi yerlarni bo'lib olishga uringan. Jamoat dalasi esa mag'lub bo'lgan xalqlardan rimliklar tortib olgan yerlar hisobiga o'sib borgan ( mag'lub bo'lgan xalqlar barcha yerining 1/3 dan to 2/3 gacha tortib olingan ) . Lekin jamoat yerlarini faqat patritsiylargina band qilishlari mumkin bo'lgan. Ammo plebeylar jamoat yerlarini band qilishi huquqiga ega bo'lishi uchun ular siyosiy huquqda patritsiylar bilan teng bo'lishga erishishlari lozim bo'lgan.

Shunday qilib plebeylarning patritsiylarga qarshi kurashi iqtisodiy jihatdan yer uchun kurash bo'lgan. Qashshoqlashgan plebeylar qarz asorastini bekor qilish talablarini agrar masalalar bilan qo'shib olib borganligidan ularning bu kurashi murakkablashgan.

Eramizdan avvalgi V-IV asrlarda plebeylar ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan patritsiylar bilan teng huquqqa ega bo'lish uchun uzoqqa cho'zilgan kurash olib borganlar. Patritsiylar qanday grajdanlik huquqiga ega bo'lsalar, plebeylar ham ana shunday huquqlarni talab qilganlar . Bu huquqlar : magistratura ( mansablar ) ga ega bo'lish, senatda o'rin egallashdan iborat bo'lgan . Rivoyatlarga ko'ra plebeylarning patritsiylar bilan kurashi eramizdan avvalgi 494- yilda boshlangan. Ekvlar bilan urush vaqtida qarzga botgan plebeylar Rim qo'shinida xizmat qilishdan bosh tortib , Rimdan chiqib ketishgan va Muqaddas tog'da lager qurib o'tirishgan . Plebeylar ketishi bilan armiya zaiflashib qolishidan qo'rqqan patritsiylar yon berishga majbur bo'lishgan. Plebeylarning o'z mustaqil tashkilotlarini tuzish huquqi tan olingan . Eramizdan avvalgi 493-yil boshlab ular har yili o'z o'rtalaridan ikkita zalq tribune saylaydigan bo'lishgan . Senat va magistratning plebs manfaatiga zarar keltiradigan qarorlarni tribunlar to'xtatib ( Veto ) qo'yishga haqli bo'lganlar. Shunday qilib tribunlarning vazifasi patritsiylar magistrati va senatning o'zboshimchaligidan plebsni himoya qilishdan iborat bo'lgan . Dastlab 2 tribun saylangan , so'ngra ( so'ngra shahar tribalarining soniga qarab ) 4 tribun , keyinchalik 10 tribun saylanadigan bo'lgan .

Eramizdan avvalgi V asrning birinchi yarmi o'rtalariga kelib plebeylar agrar masalani hal qilishga uringanlar . Eramizdan avvalgi 486-yil konsul Snuriy

Kassiy urush vaqtida tortib olingan yerlarni plebeylarga bo'lib bermochi bo'lgan. Patriitsylar konsulni zulmda ayblashgan . Ammo eramizdan avvalgi 456yilda xalq tribuni Itsiliy Avsitin tepaligidagi yerlarni kambag'allarga bo'lib berish to'g'risida qonun chiqargan.

Eramizdan avvalgi V asr o'rtalarida plebeylar katta g'alabaga erishganlar . Ular amaldagi huquqlarning yozib qo'yilishiga muvaffaq bo'lishgan. Eramizdan avvalgi 451-yilda 10 patriitsiydan ( detsemvirlardan ) iborat komissiya tuzilgan , bu komissiya yozma qonunlar majmuasini tuzishi lozim bo'lgan . Ammo komissiya bir yil ichida bu ishni qilib ulgurmagan va eramizdan avvalgi 450- yilda yana 10 ta detsemvir ( 5 tasi patriitsylardan , 5 tasi plebeylardan ) saylangan. Ular amaldagi huquq normalarini yig'ib tartibga solganlar . Eramizdan avvalgi 449-yilda 12 ta mis lavhaga o'yib yozilgan qonunlar forumga qo'yilgan .

XII jadval qonunlarining qabul qilinishi Rim plebsining katta g'alabasi bo'lgan. Patriitsylar va plebeylar uchun umumiy bo'lgan qonunlar plebeylarni patriitsylarning o'zboshimchaligidan qo'riqlashi lozim bo'lgan.

XII jadval matnining haqiqiy nusxasi saqlanmagan. Bu matn keyingi mualliflarning asarlaridagi sitata va naqlaridan tiklangan. Shunday bo'lsa-da, eramizdan avvalgi 451-450-yilarning qonuni qimmatli manba bo'lib, hali urug'doshlik tuzumi normalarining ta'sirini saqlab turgan Rim ilk respublika jamiyatidagi ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlarni tasavvur qilishga imkon beradi.

Qonunda yer va mol-mulk xususiy mulk hisoblanib , uni me'rosxo'rga vasiyat qilib qoldirish mumkin bo'lgan. Ammo bundagi ba'zi moddalarda urug'doshlikka xos ba'zi xislatlar aks ettirilgan. Masalan, rimlik o'lsa-yu vasiyat qoldirmagan bo'lsa, kognatlar bo'lmasa agnatlar qo'liga, ular ham bo'lmasa qarindoshlar "merosxo'r" bo'lgan. Qonunlarda kviri<sup>t1</sup> mulkining , yer va mevalarning daxlsizligini buzgan kishilarga qattiq jazolar ko'rsatilgan. Birovning ekin yerini kechasi payhon qilgani uchun jarimaga solingan.

Qonunlar jamoa yerlaridan foydalanish tartiblarini ham qattiq qo'riqlagan. Yer egasi sun'iy sug'orish yo'llari qurib suvning tabiiy oqimini o'zgartirishga haqi bo'lmagan.

Yer mulkchiligiga doir umumiy moddalarning xarakteri eramizdan avvalgi V asrda mayda yer egaligi ustun bo'lganligidan dalolat beradi.

Qonun qattiq qarz huquqining amalda bo'lganligini takidlaydi. Qaez bergan kishi o'ziga qarzdor bo'lgan kishini jamoadan tashqariga , Etruriyaga sotib yuborishga haqli bo'lgan. Demak, qarzdor butun umr qul bo'lib g'urbatda o'tishga mahkum qilingan. Bundan tashqari qarzdorni o'ldirishga ham yo'l qo'yilgan. Qonunda qullar bilan ba'zi guruh kishilar o'rtasida – qullar qatoriga kirmasa ham qaram bo'lgan, chunonchi, erkka qo'yib yuborilganlar va kliyentlar o'rtasida aniq tafovut belgilanmagan. Masalan, qulni mayib qilgani uchun to'lanadigan jarima erkin kishini mayib qilganligi uchun to'lanadigan jarimaning yarmini tashkil qilgan, ya'ni qul bilan erkin kishi nisbatan teng qilingan. Boshqa bir modda ham xuddi shunday : Biron narsaga yetkazilgan ziyonni qul egasi emas, qul to'lashi lozim bo'lgan. Ammo qonunda qulni qul egasining jabr-zulmidan

himoya qilishga doir modda yo'q. Qonun oila a'zolariga nisbatan oila boshlig'ining cheksiz hokimiyatini o'rnatgan. Oila boshlig'i urug' boshlig'i kabi oila a'zolarining hayotiga xo'jayinlik qilgan, qilingan nojo'ya ish uchun hamma oila a'zolariga, shu jumladan qullarga ham jazo bergan. Masalan, ota o'z og'lini uch marta qul qilib sotishga haqli bo'lgan, shundan keyin o'g'il otaning hukmidan holi bo'lgan. Rim oilasida ayol tamomila huquqsiz bo'lgan. Shunday qilib, eramizdan avvalgi 450-yilgi qonun patriarxal xarakterdagi qulchilik to'g'risida ma'lumot beradi.

XII jadval qonunlari Rim fuqarosining huquqlarini himoya qilgan. Qonun uni sud qilmasdan jazolashni ta'qiqlagan: o'lim jazosi to'g'risidagi hukmni faqat senturiat komissiyalarigina chiqarishi mumkin bo'lgan. Fuqarolik va jinoyat huquqlarida patritsiylar bilan plebeylarning tengligi o'rnatilgan bo'lsa-da, tabaqalar o'rtasidagi munosabatlar haqida juda kam gapirilgan.

XII jadval qonuni chiqarilgandan keyin plebeylarning patritsiylarga qarshi kurashi yana yangi kuch olgan. Eramizdan avvalgi 449-yilda Valeriy bilan Goratsiy konsulligi vaqtida qabul qilingan qonunlarga muvofiq plebeylar yangi siyosiy huquqlarga ega bo'lganlar. Ular o'lim jazosiga hukm qilingan har bir kishi xalq majlisiga shikoyat qilishga haqli bo'lgan. Xalq tribunlarining shaxsiy daxlsizligi takidlangan.

Eramizdan avvalgi 445-yili xalq tribune Kapuleyning taklifi bilan qabul qilingan qonunda ilgari patritsiylar bilan plebeylar o'rtasida nikohning ta'qiq etilganligi bekor etilgan. Plebeylarning oily magistrlik- konsullik lavozimini egallashlariga yo'l qo'yish to'g'risida Kapuley taklif qilgan qonun loyihasi esa rad etilgan. Ammo eramizdan avvalgi 444-yildan e'tiboran konsullik hokimiyatiga ega bo'lgan harbiy tribun saylanadigan bo'lgan. Yangi magistrliklar teng kollegial hokimlikka ega bo'lgan.

Eramizdan avvalgi V asr oxiri va IV asr boshlarida plebeylar va patritsiylar o'rtasidagi kurash bir qancha vaqtlar davomida o'z keskinligini yo'qotgan, chunki bu vaqt Rim etrusk, volsk va ekvlarga qarshi hujmkorlik urushi pallasiga kirgan. Eramizdan avvalgi IV asr boshlarida Rim Markaziy Italiyani qiyratib tashlagan gallar istilosini boshidan kechirgan. Gallar chiqib ketgandan keyin rimliklar Latsium bilan Janubiy Italiyada o'z ta'sirlarini harbiy yo'l bilan tiklaganlar.

Urushlar natijasida yer fondi (jamoat dalalari) o'sgan, bu fondning katta qismi bo'linmay qolgan. Rim fuqarolari bu yerlarni bemalol egallash huquqiga ega bo'lgan, natijada katta yer egeliklari ko'paygan, bu yerlarning ko'p qismi esa patritsiylar qo'lida o'tgan.

*Kvirit*- qadimgi Rimda to'la huquqli fuqarolarning rasmiy nomi

Yer katta mulkdorlar qo'lida to'planar ekan, mayda yer egalari xonavayron bo'la borgan. Qarzdorlar ko'paygan, qulchilik, asorat kuchaygan, bu hol esa, eramizdan avvalgi 376- 367-yillarda plebeylar va patritsiylar o'rtasidagi kurash yana keskinlashib ketishiga sabab bo'lgan. Rim an'analariga ko'ra xalq tribunlari Sekstiy bilan Litsiniy har yili bu kurashning borishi aks ettirilgan qonun loyihalarini taqdim qilganlar. Bu loyihalarni eramizdan avvalgi 367-yili xalq

majlisi qabul qilib, senat ularni tasdiqlagan va shu tariqa qonun bo'lib qolgan. Bu qonunlar jamoat yerlaridagi egalikni cheklagan. Hech bir kimsa 500 yuger ( 125 gektar) dan oshiq yerni band qilishga , jamoat yaylovida 100 boshdan oshiq yirik qoramol va 500 boshdan mayda chorav o'tlatishga haqi bo'lmagan . Qarzdorlarning ahvoli birmuncha vaqtgacha yengillashgan. Qarzdor to'lagan foizlar qarz hisobiga o'tgan. Qarzning qolgan qismi uch yil mobaynida to'langan. Ikki konsul saylash tartibi qayta tiklangan. Ulardan biri albatta plebeylardan saylangan. Ammo bu qonunni kambag'al plebeylar qo'llamagan.

Agrar qonun asosan jamoat yerlarning ko'p qismiga egalik qiluvchi patritsiylarga qarshi qaratilgan. Qarzlarni qayta ko'rish to'g'risida qonun birinchi navbatda kambag'al plebeylar uchun foydali bo'lgan. Ammo keyingi yillarda plebeylar bir necha marta qarzlarning foizini kamaytirishni talab qilib chiqqanlar.

Eramizdan avvalgi 326-yili plebeylar yangi qonun qabul qilinishiga muvaffaq bo'lganlar. Bu qonunga ko'ra "qarz uchun qarzdorning tan-joni emas, mol-mulki javobgar bo'lishi kerak". Qarz uchun Rim fuqarosini qul qilib sotish abadulabad taqiq qilingan. Ancha rivojlangan quldorlik munosabatlariga o'tish, chet el qullarini ekspluatatsiya qilish kuchaygan. Lekin bir qancha olimlarning fikricha eramizdan avvalgi 326-yilda faqat o'z qabiladoshlarinigina qul qilib sotish man qilingan, amalda esa qarz asorati keyingi respublika va hatto imperiya zamonida ham davom etgan.

Eramizdan avvalgi 312-yilda sensor Appiy Klavdiy ko'ring faoliyati plebeylarning savdo, hunarmandchilik faoliyati uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ( senzorlar fuqarolarni senturiya va tribalarga bo'lgan, senatorlarning ro'yxatlarini tuzgan, keyinroq axloq tozaligini nazorat qilgan). Appiy Klavdiy savdogar va hunarmandlarning manfaatini ko'zda tutib, yersiz fuqarolarning shahar va qishloq tribalariga kirishiga ruxsat bergan. Shahar plebsi bilan ozod qilingan qullarning yeri bo'lish bo'lmashligidan qat'iy nazar davlatning siyosiy hayotida ishtirok qilish huquqiga ega bo'lganlar.

Appiy Klavdiy plebsning savdogar av hunarmand tabaqalari yordamida Rimdan Kapuyagacha yo'l qurdirgan ( bu yo'l ham savdo ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan) va o'n besh kilometr uzunlikda suv quvuri o'rnatirgan, Rimga toza suv o'sha quvurlardan kelgan.

Eramizdan avvalgi IV asr oxiriga kelib plebeylar har qanday lavozimni ham egallay oladigan bo'lishgan. Ammo plebeylarning siyosiy-iqtisodiy huquqlar uchun kurashi faqat eramizdan avvalgi 287-yilda tugagan. Xuddi o'sha yili plebeylar Yangi qo'l tepaligiga (Tibrning o'ng qirg'og'i) so'nggi marta ko'chib chiqqanlar. Plebeylardan bo'lgan diktator Kvint Gortinziy xalqni tinchlantirish uchun triba komissiyalarining qarorlari umumdavlat qonunlari kuchiga ega ekanligini yana bir karra takidlab qonun chiqartirgan.

Plebey zodagonlarining asoratga solingan qaram aholini ekspluatatsiya qilishga urinishi siyosiy huquqqa ega bo'lgan plebey aristokratlarini zaiflashib qolgan patritsiy qabilalari bilan yaqinlashtirgan, bu esa patritsiy, plebeylar yuqori tabaqasining imtiyozli yagona nobillar toifasi bo'lib qo'shib ketishiga sabab

bo'lgan. Yuridik jihatdan nobillar boshqa erkin fuqarolardan farq qilmagan, ammo ular boyonlar bo'lganliklaridan oily mansablarni ishg'ol qilgan va senat tarkibiga kirgan.

Eramizdan avvalgi III asrda plebeylar orasidan yangi toifa- suvorilar toifasi tarkib topa boshlagan. Savdo va ijaradorlik bilan mashg'ul bo'lgan Rimdagi aristokratlarning namoyondalari ana shu toifaga mansub bo'lgan. Suvorilarga yuksak mulk senzi ( 1 million ass yoki 400 ming sestertsy) belgilangan. Bu yangi toifaning tashqi alomayi shunday bo'lganki , ular oltin uzuk va tor qizil chiziqli tunika kiyish huquqiga ega bo'lgan. Lekin siyosiy hokimyatning butun imtiyozlari nobillar qo'lida qolavergan. Rim plebeylari tubdan o'zgargan. Endi Rim qishloqlari va shaharlarda yashovchi aholining quyi qatlamlarini plebs deb ataydigan bo'ldilar, ular siyosiy huquqlarga ega bo'lsalarda, respublika ular ichidan chiqqan mansab egalariga maosh bermaganligidan amalda ular huquqlardan foydalana olmaganlar. Shunday qilib Rim jamiyatining avvalgi plebeylar va patritsiylarga bo'linishi o'z ahamiyatini yo'qotgan.

Yangi sharoitdagi agrar masala katta yer egalari bilan tamomila xonavayron bo'lishga mahkum mayda yer egalari o'rtasidagi kurashdan iborat bo'lgan.

Plebeylarning patritsiylarga qarshi olib borgan kurashining eng buyuk yakuni urug'-qabila munosabatlaridan quldorlik davlatiga o'tish bo'lgan.

### **Ilk Rim respublikasining davlat tuzumi.**

Eramizdan avvalgi V-III asrlarda Rim davlat tuzumining shakllanishjarayoni davom etgan. Aslida Respublika so'zi "umumxalqishi"ma'nosinianglatsada, aslidahaligachauchyuzkishidaniboratsenatningta'sirikuchliedi.

Xalq majlisi ( komitsiyalar ), magistraturalar va senat davlat hokimiyati organlari bo'lgan. Ota-onasi fuqarolik huquqiga ega bo'lgan to'la huquqli Rim fuqorolarining jamoasi bo'lmish rim xalqi (populis Romanus) oily hokimiyat egasi bo'lgan. Rasmiy jihatdan Rim fuqarolari xalq majlisi ( Komitsiyalar) da ishtirok qilishga , davlat lavozimlariga saylanishga , mulkka egalik qilishga , Rim qo'shinida xizmat qilishga haqli bo'lganlar.

Rimda uch xil komitsiya bo'lgan. Eng qadimgi komitsiya- qur'ali majlis bo'lib, u faqat rasmiy jihatdan ijro qiluvchi oily hokimiyatni- " imperiya-magistratlar"ga topshirish va oila munosabatlariga doir ba'zi masalalarni hal qilish huquqiga ega bo'lgan xolos. Ilk respublika davrida komitsiyalar o'zining siyosiy ahamiyatini yo'qotgan.

Xalq majlislarining boshqa turi bo'lmish senturiya komitsiyalari katta o'rin tutgan. Dastlab ular shahar lashkarlarining yig'inidan iborat bo'lgan, keyinchalik patritsiy va plebeylarning senturiya va mulkiy darajalariga qarab chaqiriladigan majlislarga aylangan. Senturiya majlislarini oily mansab egalari chaqirgan va u majlislar shahardan tashqari Mars maydonida o'tkazilgan. Majlis qaroriga tegishli masalani magistrat qo'ygan va u ovoz berishni idora qilgan. Ovoz berish dastlab senturiya ichida o'tkazilgan, so'ngra maxsus hisobchi "tarafdor" yoki qarshi ovoz

bergan senturiyalar sonini hisoblab chiqqan. Butun ko'pchilik ma'lum bo'lishi bilan ovoz berish to'xtatilgan.

Senturiya komitsiyalari Rim xalqining irodasini ifoda qilgan: ular oily mansab egalari bo'lmish konsullar, pritor, senzorlarni saylagan, jinoiy ishlarni tekshirgan, urush e'lon qilish va sulh tuzish masalalarini hal qilgan. Triba komitsiyalari ( tribalar bo'yicha chaqiriladigan majlislar ) eramizdan avvalgi III asrda Gortenziy maxsus qonun chiqarib ularning qonun chiqarish huquqini tasdiq qilgandan keyingina katta ahamiyat kasb etadigan bo'lgan. Bu komitsiyalar senturiya komitsiyalariga qaraganda xiyla xalqchil bo'lgan, negaki u majlislarga senzlardan qat'iy nazar Rimdagi barcha fuqarolar qatnashganlar. Senturiyada ovoz berish tartibi qanday bo'lsa, triba majlislarida ham shunday bo'lgan. Triba majlisleri odatdagi qonun chiqarishga doir masalalarni hal etgan, quyi mansabdorlarni saylagan, ba'zi bir jinoiy ishlarni ko'rgan.

Rim xalq majlisleri tizimi demokratik negizda qurilmagan. Faqat magistrlargina Rim xalq majlislerini chaqirish huquqiga ega bo'lgan. Xalq majlislerinin hech qaysisi qonun chiqarishda tashabbus ko'rsatish huquqiga , biron bir taklifni muhokama qilish yoki o'zgartirish huquqiga ega bo'lmagan. Senturiya majlisleriga qatnashuvchilarning holatini belgilab bergan senz prinsipi ham nodemokratik bo'lgan. Eramizdan avvalgi II asrning so'nggi yarmigacha ochiq ovoz berilib , bu tartib ba'zi davlatmand kishilarning ba'zi majlis qatnashchilariga tazyiq qilishlariga imkon tug'dirgan. Amalda xalq rim davlatining konstitutsiya asoslarini o'zgartirishga ta'sir qila olmagan.

Ijro qiluvchi hokimiyat bir yil muddatga xalq saylab qo'yadigan mansabdorlar – magistratlar qo'lida bo'lgan. Magistratlar bajargan vazifalari evaziga hech qanday haq olmagan ( bu vazifalar fuqaroning faxrli ishi deb hisoblangan ) , haq olmasliklari ustiga yana ( saylangunga qadar) ziyofatlarga va fuqorolarga beriladigan sovg'alarga o'z mablag'larini sarflashga majbur bo'lganlar. Magistratlikning ba'zi vazifalarini bajarish ham xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan. Demak, Rimda yashovchi har bir fuqaro rasmiy jihatdan har qanday lavozim egasi bo'lishga haqli bo'lsa-da, aslida magistratlik mansabini faqat boy kishigina egallay olgan.

Rim magistratlari faqat jamoaviy tarzda ish ko'rgan, ya'ni qarorlar faqat bir ovozdan qabul qilingan. Magistrat o'z sheriklarining qarorlaridan rozi bo'lmagan taqdirda norozlik (Veto) bayon qilgan, bundan keyin qaror qonuniy deb hisoblanmagan. Ba'zan magistratlarning jamoaviychiligi ularning vazifalarni almashishleri (masalan, magistrat bir oy harbiy ishlar bilan, ikkinchi oy fuqarolik ishlari bilan mashg'ul bo'lishi) va ish doiralari qat'iy chegaralanganligi bilan yo'q qilingan.

Magistrat daxlsiz shaxs bo'lgan. U o'zining vakolat muddati tugamaguncha javobgarlikka tortilmagan. Faqat xalq unga vakolatni tark qilishni taklif etishga haqli bo'lgan.

Magistratlik odatdan tashqari (favqulodda ) va odatiy (oddiy yoki doimiy) magistratlikka bo'lingan. Odatdan tashqari magistrlar (diktator, triumvrlar va

detsemvirlar) alohida holat, davlatda biror xavf-xatar yuz berganda ( dushman bostirib kirgan, fuqarolar urushi boshlangan taqdirda ) saylangan yoki tayinlangan. Diktator tayinlash to'g'risida faqat senat qaror qilishi mumkin bo'lgan. Ba'zi hollarda senturiya komitsiyalari bevosita diktator tayinlash huquqiga ega bo'lgan.

Diktator birdan bir nojamoaviy magistratlik bo'lgan. Harbiy va fuqarolik hokimiyati olti oy davomida diktator qo'lida bo'lgan, uni sudga tortish mumkin bo'lmagan, xalq tribunlarining noroziligi unga ta'sir qilmagan. Ammo diktator ta'sis qilinayotganida magistratlar avvalgiday o'z huquqlaridan foydalanganlar. Diktatorning o'z oily nishoni bo'lgan: uni doim 24 ta faxriy soqchi (liktor) kuzatib yurgan.

Odatda oily magistrlik 2 ta konsul, pretorlar, sensorlar va odatda tribunlardan, quyi magistratlik- edillar va kvestorlardan iborat bo'lgan. Rim respublikasining oily mansabdorlari bo'lmish konsullar har yili senturiya kompaniyalarida saylangan. Harbiy va fuqarolik hokimiyati konsullar qo'lida bo'lgan. Konsullar qo'shin to'plagan, ularga qo'mondonlik qilgan, bir qism harbiy tribunlarni tayinlagan. Fuqarolik hokimiyatiga ega bo'lgan konsullar senatni, xalq majlislarini chaqirgan, ularning qarorlarini bajargan, mansabdorlarni saylash ishiga rahbarlik qilgan. Konsullar kollegial hokimiyat bo'lgan. Konsullardan biriga yakka hokimiyat berish ( qo'shnlarga qo'mondonlik qilish) masalasi qur'a tashlash yo'li bilan yoki konsullarning o'zaro kelishishi yo bo'lmasa senat qarori bilan hal qilingan.

Pretorlar sud ishlari bilan shug'ullangan (sud komissiyalarida raislik qilgan), viloyatlarni boshqargan va konsullar yo'q paytda o'rnini bosgan va senat topshirig'i bilan legionlarga qo'mondonlik qilgan.

Ikkita sensor (odatda sobiq konsullardan) besh yilda bir marta 18 oy muddatga senturiya komissiyalari tomonidan saylangan. Ular har besh yilda bir marta senz belgilagan: baarcha fuqarolarni ro'yxatga olgan, har bir fuqaro bilan shaxsan suhbatlashib uning mulkiy ahvolini bilgan va tegishli mulkdorlik darajasi ro'yxatiga kiritgan hamda tribalarga bo'lgan. Sensorlar kim oshdi savdosi bilan besh yil muddatga davlat mulklari daromadini to'plash huquqini va boj to'plash huquqini sotganlar. Rim fuqarolarining axloq tozaligini nazorat qilish ham sensorlar zimmasiga yuklangan.

Xalq tribunlari har yili triba yig'inlarida saylangan. Boshqa magistratlar shaxsi singari tribun shaxsi ham umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan. Har bir xalq tribune senat yoki mansabdorning qaroriga norozilik bildirgan va demak, o'ziga yoqmagan ishga yo'l qo'ymagan. Tribun tribalarda xalq yig'inlarini chaqirishga haqli bo'lib, bu yig'inlarda raislik qilganlar. Tribun vakolati Rim va uning atrofi bilangina chegaralangan.

Kichik magistratlardan bo'lmish edillar shaharda tartib saqlanishini nazorat qilib, shahar soqchilariga boshchilik qilganlar, obodonlikni kuzatganlar, shaharning oziq- ovqat bilan uzluksiz ta'min bo'lishiga javobgar bo'lganlar, xalq tomoshalari va bayramlarini tashkil qilganlar.

Kvestorlar ham kichik magistratlarga mansub bo'lgan. Ular triba komissiyalarida saylangan. Kvestorlar xazinachilik vazifasini bajarishgan, davlat arxivini qo'riqlashgan, viloyat hokimlariga yordamchi bo'lganlar va harbiy xazinaga mudirlik qilganlar.

Har bir magistrat ixtiyorida ko'pdan ko'p xattotlar, liktorlar, jangchilar hamda ozod qilingan qullardan va davlat qullaridan iborat boshqa xizmatchilar bo'lgan.

Senat Rim respublikasining oily davlat organi bo'lgan. Eramizdan avvalgi I asr boshlarigacha senat 300 kishidan iborat bo'lib ularning ko'pini nobillar tashkil etgan. Senatorlarni sobiq magistratlardan ularning darajasiga qarab: avvalo sobiq diktatorlarni, ulardan keyin sobiq konsullarni keyin sobiq pretorlar va hakovzolarini senzorlar tayinlagan. Senatni faqat oily magistratlarga chaqirishga haqli bo'lgan. O'sha magistratlar senat majlislarida raislik qilgan.

Senat g'oyat katta huquqlarga ega bo'lgan. U komissiyalar turli lavozimlarga tayinlagan shaxslar to'g'risidagi qarorlarni tasdiqlagan, tashqi siyosatga, moliyaviy ishlarga rahbarlik qilgan, davlat mulkini idora qilgan, diniy ishlarni kuzatib borgan. Senat respublikaning harbiy hayotiga bosh bo'lgan: askar to'plash muddatini, qo'shinning tarkibini, lashkarboshilarning vakolatini belgilagan, urush olib borayotgan magistratning ishlarini nazorat qilish uchun o'zining elchilarini yuborgan.

Rim respublikasi o'ziga xos aristokratlar respublikasi bo'lgan. Xalq majlisining jo'nligi va bo'shangligi, magistratlarning bepul ish qilishi, senatning nihoyatda katta ta'siri Rim respublikasining muhim xislatlaridir. Buning sababi shuki, avvalo, Rim fuqarolarining ko'pchiligi doim tarqoq va durustroq uyushmagan zirotchilardan iborat bo'lganligi, ikkanchidan, eramizdan avvalgi V-IV asrlardagi tarixiy sharoitlarning o'ziga xosligi, shuningdek, Rim respublikasining yerlari faqat urushlar tufayligina kengayib borganligidir. Uzluksiz davom etgan urushlar, muttasil talonchilik davlat tashkilotiga qattiq ta'sir ko'rsatgan, davlat harbiy xarakter olgan. Eng e'tiborli xalq majlislari senturiya komissiyalari bo'lib, boshda ular odatdagi askarlar yig'inidan iborat bo'lgan. Fuqarolar butun qurol-yarog'larini osib, 17 kunlik zaxira oziq-ovqat bilan senturiya komissiyalariga kelishgan. Tribunlardan boshqa magistratlarning hammasi harbiy boshliqlar lavozimida bo'lgan, legionlarga qo'mondonlik qilgan yoki hech bo'lmasa, urush olib borishga bevosita aloqasi bo'lgan boshqa biron bir vazifani bajargan. Senat ham asosan harbiy ishlarga rahbarlik qilgan.

**Rim armiyasi va uning tuzilishi.** Rim respublikasining harbiy sistemasi eramizdan avvalgi V asrda Rim jamoasi qo'shni xalqlarga qarshi uzluksiz urush olib borgan sharoitda tarkib topgan.

Avval boshda Rimning butun lashkari legion deb atalgan. Keyinroq ikki konsulning har bittasi o'ziga legion tuzib, unga qo'mondonlik qilgan. Eramizdan avvalgi IV asrda konsul qo'shini ikki legionga ajratilib, butun armiyada to'rtta legion bo'lgan.

Rimliklar dunyoning boshqa qismidagi odamlarga qaraganda boshqa odamlarni o'ldirishda omdalroq va ta'sirliroq bo'lishgan. Ular Italiya tizimida qo'lga kiritgan, armiyasi uchun kata mehnat omborini hosil qilgan hamjamiyat tashkilotining bir mustahkam harbiy kuchini tashkil etdilar. Bu rivojlanish mil. avv. 340-335-yillar oralig'ida o'zining ittifoqchisi Lotin shahar-davlatiga qarshi muvaffaqiyatli yurishi davrida boshlangan<sup>70</sup>.

Konsullar sensor tomonidan tuzib berilgan ro'yxatga muvofiq xalq majlisi oldindan belgilangan kuni askar to'planga. Har bir legion og'ir qurol-yarog'lar bilan qurollangan 3000 askar va yengil qurolli 1200 askardan tashkil topgan. Legionga ittifoqchilarning otryadlari ( 5000 piyoda va 900 suvoriy ) ham qo'shilgan. Legion tarkibiga otliq askarlar ham kiritilgan. Ular ko'proq oti bor boy kishilardan tashkil etilgan. Legion xiyla mayda qo'shilmalardan iborat 30 ta manipulaga ajratilgan. O'z navbatida har bir manipula 60 va 30 kishidan iborat ikkita senturiyaga ajratilgan. Legionning manipulalarga bo'linishi natijasida vu ixcham qo'shilmalar chaqqon harakat qilgan, ayniqasa tog'larni , past-balandliklarni uncha qiynalmay oshib o'tgan. Legion qat'iy o'rnatilgan tartibda saf tortgan Eng oldingi jangovor qatorni yengil qurolli 1200 ta yosh jangchi ( nayzabardorlar ) band qilgan. Ikkinchi jangovor qatorni og'ir qurolli, sal kattaroq yoshdagi 1200 jangchi tashkil qilgan. Ular prinsepslar (princeps- “ birinchilar” yoki “ asosiylar”) deb atalgan. Ulardan nariroqda yana ( og'ir qurolli, ammo xiyla tajriba orttirgan, janglarda chiniqqan va sinalgan) 600 ta triariy saf tortgan.

Jangni odatda har bir senturiga qo'shib berilgan yengil qurolli kamalakbozlar, nayzabardorlar otryadi boshlab bergan. So'ngra gastatlar, prinsepslar jangga kirgan va faqat xavfli holat yuz bergan taqdirdagina tiariylar jang maydonida hozir bo'lgan (rimliklarda “ish tiariylargacha borib yetdi” degan gap bor) .

Og'ir qurolli jangchining taxta qalqoni bo'lgan, qalqonning yuzi surp, buzoq terisi bilan o'rab olingan, otilgan tosh va snaryadlardan saqlash uchun temir tasmalar kavsharlangan. Jangchilar boshlariga dubulg'a kiygan, ko'kraklariga mis sipar bog'lagan, ba'zan savat kiygan, oyoqlariga esa ko'n bo'laklaridan o'raganlar. Kiyimga ko'n ishlatish arzon tushgan va harakat uchun yengil bo'lgan. Legionerning hujum qurollari birmuncha mukammallashtirilgan bo'lgan. U sanchish va chopish uchun mustahkam shamshir, dushmanga uzoqdan otish uchun og'ir va yengil nayzalar bilan qurollangan bo'lgan. Eramizdan avvalgi II asr oxirlarida legionerlarning asosiy quroli pilum deb atalgan otadigan qurol, uchi o'tkir ingichka temir tayoq bo'lgan. U dushmanning sovuti va qalqonini teshib o'tgan.

Legionlarga konsullar, legatlar ( konsullarning urushdagi yordamchilari ) va harbiy tribunlar qo'mondonlik qilgan. Tribunlar otryad boshliqlarini urushda ish ko'rsatgan boshliqlardan tayinlagan, ular senturionlar deb atalgan. Senturionlar yordamchilarini o'zlari tanlab olganlar.

---

<sup>70</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.262.

Rimliklar eramizdan avvalgi III asrda ellinistik texnika bilan tanishib, ulardan qamal qurollarini ishlatishni o'rganib olganlar. Qo'rg'onlarni qamal qilganlarida ular manjaniqlardan, g'ildirakli qamal minoralari, o'q-yoy va 45<sup>o</sup> burchak ostidagi g'o'lalarni ham ishlatganlar.

Legionlar to'xtab turgan paytlarda rimliklarning qulay lager qura bilganliklari harbiy san'atda faxrlansa arziydigan mahoratdir. Ularning lageri bir-birini kesib o'tgan ikki chiziq bilan bo'lingan to'rtburchak hosil qilgan. Bu chiziqlar lagerning katta ko'chalari bo'lib, ko'cha boshlariga darvozalar qurilgan. Legion qo'mondonining chodiri, qurbongoh va majlisgoh lagerning qoq markazida bo'lgan. Lager suv va oziq-ovqat bilan ta'min etiladigan katta ko'chalardan biriga parallel tarzda tribunlarning chodirlari va ulardan 100 fut narida legionerlarning chodirlari joylashtirilgan. Xandaq, ko'tarma va qoziq devor bilan o'rab olingan hamda soqchilar qo'riqlab turadigan lager dushman hujumidan yaxshi himoya qilingan va xavf-xatardan holi bemalol dam oladigan joy bo'lgan. Rimliklar puxta o'ylab ishlanilgan rag'batlantirish tadbirlari va jazo choralari vositasi bilan legionerlar orasida qattiq intizom o'rnatganlar. Konsul jangda ish ko'rsatgan jangchini askarlarlar orasida maqtab, faxriy nayza, oltin yoki kumush bilakuzuk, bronza sovut bilan mukofotlangan. Rim fuqarosini o'limdan qutqargan jangchi eman bargidan yasalgan chambar bilan, qamal qilingan shahar devoriga yoki dushman kemasiga birinchi bo'lib chiqqan va dushman lageriga birinchi bo'lib qadam qo'ygan jangchi esa oltin chambar bilan mukofotlangan. Ammo yer uchastkasi legionerlar orzu qilgan eng zo'r mukofot bo'lgan.

Harbiy boshliqlar aybli ish qilib qo'ygan jangchini jazolashga haqli bo'lganlar. Jangda qurolini yo'qotib qo'ygan jangchini tribunlar kengashi hatto o'lim jazosiga ham hukm qilgan. Jang vaqtida chekingan yoki qo'zg'olon qilgani uchun qo'mondonlar eski "detsimatsiya" odatini qo'llaganlar, ya'ni chek tashlab har o'n jangchidan birini qatl qilganlar.

Mayda ziroatchilar bilan to'ldirilib turadigan Rim respublikasining armiyasi intizomli va yaxshi qurollangan bo'lgan. Bu armiya eramizdan avvalgi III-II asrlarda ellinistik davlatlarning armiyalarini ham tor-mor keltirgan. **Etrusklar bilan kurash.** Eramizdan avvalgi V- III asrlarda Rim senati Apennin yarim orolida harbiy bosqinchilik siyosatini olib borgan. Rimning boshqa Italiya xalqlari hisobiga jamoa yerlarini kengaytirish maqsadida bosqinchilik urushlari ikki yuz yildan ziyodroq davom etgan. Patritsiylar ham, mayda ziroatchilar ham, xullas butun Rim jamiyati urushlardan manfaatdor bo'lganlar.

Eramizdan avvalgi VI asr oxirlarida etrusklar va Rimga qo'shni Italik qabilalari (sabinlar, ekvlar, volsaklar) Rimda yuz bergan siyosiy to'ntarishdan foydalanib, Rim yerlariga bostirib kirgan. Bu payt Rim jamoasi etrusklar shahri Kluziga qarshi urush olib borgan.

Eramizdan avvalgi V asrda rimliklar etrusklarga qarshi hujumga o'tganlar. Bir tomondan eramizdan avvalgi V asrda Rimdagi erkin aholining birlashishi, ikkinchi tomondan, etrusklarga qarshi shimoldan keltlarning hujumi tufayli rimliklarning ochiqdan-ochiq dadil istilochilik siyosatiga o'tishiga imkon

tug'ilgan. Eramizdan avvalgi V asrning 90-yillarida rimliklarning latinlar bilan tuzgan ittifoqi ham butun e'tiborni etrusklarga qarshi kurashga qaratishga imkon bergan.

Rimliklar Tibr daryosining o'ng qirg'og'idagi Veyya shahriga qarshi otlanganlar. Rivoyatlarga ko'ra, rimliklar bu kuchli shaharga qarshi uch marta yurish qilganlar. Ammo afsonalar mazmunidagi qarama-qarshiliklarga ko'ra olimlar eramizdan avvalgi 406-396- yillardagi uchinchi urush to'g'risidagi ma'lumotlarnigina bir qadar to'g'ri deb topadilar. Bu urush shaharni o'n yil qamal qilib turgandan keyin rimliklar g'alabasi bilan yakun topgan. Rimliklar Veyya shahrini tor- mor keltirganlar, aholisinbi esa qul qilib sotganlar. Uning hududi jamoat dalasi deb e'lon qilingan. Veyya o'rnida to'rtta qishloq tribasi tashkil etilgan. Ayni vaqtda Latsiyaga bostirib kirgan Rim qo'shinlari , bir necha janglarda tog'larda yashovchi ekvlar va volsklarni tor-mor keltirganlar.

Eramizdan avvalgi V asr Rimning Tibr daryosi o'rta qirg'og'ini istilo qilishi va Rim jamoasining latin jamoasi federatsiyasiga qo'shilishi bilan tamom bo'lgan.

**Keltlar (gallar) hujumi .** G'arbiy va O'rta Yevropa yerlarining bir qismida yashagan jangovar( gall) kelt qabilalarining hujumi Rim hududining kengayib borishiga barham bergan. Eramizdan avvalgi V asrda keltlar Alp tog'larini oshib o'tib, Apennindan shimoldagi viloyatlardan surib chiqargan va Po daryosi sohillariga o'rtnashgan. Keltlarning hujumi Italiya qabilalari va hatto etrusklarni ham Rim jamoasi atrofiga birlashishga majbur etgan. Rimliklar "galla r<sup>1</sup>" deb atagan keltlar etruriyaga bir necha hujum qilganlaridan keyin eramizdan avvalgi 390-yilda Rimga otlanganlar. Rimga yaqin oqadigan Alliya daryosi bo'yidagi jangda gallar rimliklar qo'shinini tor-mor keltirganlar.

Gallar bosirib kirgach markaziy Italiyani yer bilan yakson qilganlar, istilochilar o't qo'yib butun Rimni yondirib yuborganlar, unda Kapitoliydagi tosh qo'rg'on omon qolgan , xolos. Gallar Kapitoliy tepaligini qamal qilishga kirishganlar. Tunlardan birida gallar Kapitoliyni ishg'ol qilishga uringanlarida ma'buda Yunon ibodatxonasidagi g'ozlar g'ag'illab shovqin ko'targan. Kapitoliy himoyachilari g'ozlar shovqin ko'targan joyga kelib, gallarni uloqtirib tashlaganlar. Bu holat "Rimni g'ozlar qutqazgan" degan afsonaning to'qilishiga sabab bo'lgan.

Gallarning hujumi to'g'risidagi rivoyatlarda noaniq ma'lumotlar ko'p uchraydi. Ammo Alliya qirg'oqlarida jang bo'lgani, Kapitoliyning qamal qilingani, Rim to'lov bergandan keyin gallarning Rimdan qaytib ketgani haqiqiy voqealardir.

Keyinchalik gallar yana bir marta Rimga hujum qilishga uringanlar, ammo bu urinish natijasiz bo'lgan, shundan keyin eramizdan avvalgi 334-yilda ular rimliklar bilan sulh shartnomasi tuzganlar.

**Samniy urushlari.** Gallarning hujumi Rimning Latsiydagi ta'sirini bo'shashtirgan. Latinlar ittifoqi deyarli buzilib ketgan. Ba'zi latinlar qo'llab turgan volsklar bilan bo'lgan urushlarda rimliklar Latsiyda ilgari mavqe'larini tiklab olganlar. Eramizdan avvalgi IV asr o'rtalaridagina Latsiy shaharlari Rim

bilan ittifoqchilik munosabatlarini tiklaganlar. Janubiy etruriya ham bo'ysundirilgan. So'ngra uzoqqa cho'zilgan samniy urushlari boshlangan. Bu qabilalar o'rta Italiyaning bir qismi bo'lgan, sharoiti o'gir, Samniumda yashaganlar. Samniylar chorvachilik (ayniqsa, yilqichilik) , ovchilik bilan mashg'ul bo'lgan, ular temirga ishlov berishni bilganlar. Ular sirakuza bilan Karfagenni yollanma qo'shinlar bilan ta'min etib turgan, bu qo'shinlar o'zlarining yuksak jangovarlik sifatleri bilan nom chiqargan. Samniy drujinalari talonchilik maqsadida boy Kampaniya shaharlariga hujum qilib turgan. Eramizdan avvalgi IV asr o'rtalarida ular bilan Kampaniya viloyatida yashovchi qabilalar o'rtasida doim urush bo'lib turgan. Rimliklar ana shu urushlardan Gall- xo'roz deganidir. Keltlar dubulg'alariga xo'roz patlarini qadab qo'yganliklari uchun rimliklar ularni masxaralab shunday nom berganlar.

foydalanib samniylar federatsiyasiga qarshi urush olib borganlar, ular bu kurashlari natijasida samniylarni surib chiqarib unumdor Kampaniya yerlarini shuningdek, samniylar ishg'ol qilib turgan yerlarni ham tortib olish orzusida bo'lganlar. Eramizdan avvalgi 343-341-yillarda samniylar bilan bo'lgan birinchi urush natijasida Rimliklar Kampaniyani o'zlariga bo'ysundirganlar.

Eramizdan avvalgi 340-338-yillarda latin ittifoqiga kirgan shaharlar bilan Rim o'rtasida latin urushi bo'lib o'tgan. Latin urushiga sabab latin shaharlarining Rim gegemonligini ag'darib tashlashga, uni latin ittifoqining oddiy a'zosiga aylantirishga uringanliklari , shuningdek, latinlar bilan rimliklarning Kampaniyadan manfaatdorliklari to'qnash kelganligi bo'lgan, negaki Kampaniyaning unumdor yerlari rimliklarning ham, latin plebslarining ham diqqatini jalb qilib kelgan. Latin shaharlari bilan Italiya qabilalari ittifoq bo'lib Rimga qarshi chiqishgan. Lekin rimliklar kampaniyaliklar bilan bir tomonlama sulh tuzib bu ittifoqni bo'shashtirishga muvaffaq bo'lganlar. Bu sulhga muvofiq Kapuya zodagonlariga Rim fuqarosi huquqi berilgan. So'ngra latinlar bilan volsklarning qarshiligi sindirilgan. Latsiya shaharlari Rimga qaram bo'lib qolgan. Ulardan ba'zilar Rim fuqaroligi huquqiga ega bo'lgan, boshqalari hamma huquqlarda rimliklar bilan teng qilingan bo'lsalar-da, komissiyalarda ishtirok qilishga haqlari bo'lmagan. Kurashda qattiq qarshilik ko'rsatgan shaharlar o'z hududlarining bir qismini Rimga berishga majbur bo'lgan. Volsklarning shaharlari koloniyalarga aylantirilib, volsklarning o'zlari tog'lik joylarga surib yuborilgan.

Samniy qabilalarining federatsiyasi Rimning Italiya markazida birdan-bir dushmani bo'lib qolgan. Samniylar bir qancha itlatiy qabilalaridan Rimga qarshi ittifoq tuzganlar. Ikkinchi samniylar urushi boshlangan(Eramizdan avvalgi V327-304-yillarda davom etgan) . Rimliklar Kampaniyada g'alaba qilgandan keyin Samniyumga bostirib kirganlar. Bu yerda eramizdan avvalgi 321-yilda samniylar Kavdiy shahri yaqinida tor o'rmon daraligida ikki konsulning armiyasini ham qurshab olganlar. Rimliklar og'ir shartlar bilan taslim bo'lganlar va Samniumni tashlab chiqishga va'da berganlar. "Rim shavkatiga va Rimning harbiy ruhiga qat'iy barham berish uchun" barcha Rim jangchilari ulardan tortib olingan qurol-

yarog'larda terib solingan o'ziag xos g'alati darvoza tagidan- "zulm tagi" dan o'tkazilgan.

Ammo rimliklar va'dalariga vafo qilmay urush harakatlarini yana boshlab yuborganlar va bu urush rimliklar foydasiga burilish bo'lmaguncha davom etavergan. Eramizdan avvalgi 304 yilda tuzilgan sulh shartnomasiga muvofiq Kampaniya rimliklarga o'tgan.

Uchinchi samniylar urushi (eramizdan avvalgi 298-290-yillar ) juda ham katta qiyinchiliklar bilan o'tgan . Samniylar yana ittifoq tuzganlar. Bu ittifoqqa etrusklar , gallar, umbralar kirgan. Ular Rimga qarshi "g'azot" urushini e'lon qilganlar. Oq bo'zdan tikilgan motam kiyimlarini kiygan samniylar g'oyat zo'r sabot bilan urush qilganlar. Ammo yaxshi tashkil etilgan Rim polisi qo'shinlari g'alaba qilgan. Eramizdan avvalgi 288-yilda huvillab qolgan, qonga belangan, shafqatsizlik bilan g'azot qilingan va kuydirilib vayron etilgan Samniumni Rimliklar o'zlariga bo'ysundirganlar.

O'sha yillar ichida rimliklar shimoliy Italiyani ham o'zlariga tobe qilganlar. Shuningdek, etrusk shaharlari ham Rim ittifoqchilariga qaram bo'lib qolgan.

Urushlar natijasida eramizdan avvalgi IV asr o'rtalariga kelib butun o'rta Italiya , ya'ni Po daryosidan tortib to Lukaniya chegarasigacha bo'lgan yerlar Rim hukmronligi ostiga o'tgan.

**Tarent bilan kurash. Janubiy Italiyaning zabt qilinishi.** Eramizdan avvalgi III asr boshlariga kelib Apennin yarim orolining janubida joylashgan , o'zaro urushlar va janubdagi qabilalarning tazyiqi bilan madori ketgan grek shaharlarigina Rimga tobe bo'lmay mustaqil yashab kelgan. Ammo bu shaharlarning ba'zi birlarida Rim bilan ittifoq tuzishga moyil zodagonlar to'dasi paydo bo'lgan.

Markaziy Italiyada va Tibr daryosi bo'yidagi Rim shahar-davlati Italiyani birlashtirish uchun muhim harbiy chora tadbirlarni amalga oshirdi. Oxir oqibatda Rim O'rtayer dengizining qolgan qismini va janubi-g'arbiy Osiyoning bir qismini o'z qo'lida to'pladi. Rimlik zodagonlar dunyoning qolgan qismi uchun "madaniyatli" deb hisoblangan yunon madaniyati va tilini ko'rdilar. Shunday bo'lsa-da, rim zodagonlari bu tushunchani qarshilik, muhokama va tashvish bilan qabul qilmadi<sup>71</sup>.

Furiy shahrida yuz bergan voqealar Rimning Italiya janubidagi Grek shaharlarining ichki ishlariga aralashuviga bahona bo'lgan. Eramizdan avvalgi III asrning 80 -yillarida lukanlar qabilasi Furiyga hujum qilgan. Furiy shahri boshqa grek shaharlari bilan raqobatda bo'lganligidan, u yordam so'rab grek shaharlariga emas, balki Rimga murojaat qilgan. Rimliklar Furiyning murojaatidan Italiya janubida o'z ta'sirlarini o'rnatish uchun foydalanganlar. Ular lukanlarni tor-mor qilib o'z garnizonlarini shaharga olib kirganlar. Rimliklarning bu ishi boshqa grek shaharlaridagi demokratlarning g'azabini qo'zg'agan. Tarent aholisi shahar gavanida turgan rimliklarning kemalariga to'satdan hujum qilib Furiyga jo'naganlar va u yerdan rimliklar garnizonini haydab yuborganlar. Eramizdan

---

<sup>71</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.214.

avvalgi 281-yilda Rimning Tarentga qarshi ochiqdan – ochiq urushi boshlangan. Tarentliklar yordam so‘rab Epir podshosi Pirrga murojaat qilganlar. Shuhratparast va qallob Pirr g‘oyat qobiliyatli sarkarda sifatida mashhur bo‘lgan. Ammo shu bilan birga u no‘noq siyosatchi bo‘lgan. Pirr Tarentning taklifini bajonidil qabul qilgan. Chunki bu taklif uning Apennin yarim orolida o‘z hukmronligini o‘rnatish haqidagi shuhratparastlik orzusiga mos tushgan.

Eramizdan avvalgi 280-yilda Pirr o‘zining zamonaviy ellinistik harbiy texnika bilan qurollangan, tanlangan fessal otliq askarlari va Apennin yarim orolida bungacha sira ko‘rilmagan jangchi fillar bilan ta‘minlangan qo‘shini bilan Italiyaga kirib kelgan. Gerakleya shahri yaqinidagi birinchi qonli jangda Pirr g‘alaba qilgan. U Kampaniya va Samnium orqali yurib, Rim ostonasigacha borib yetgan. Pirr shaharga hujum qilishga botina olmay sulh taklif qilgan, uning taklifiga ko‘ra grek shaharlari mustaqil bo‘lib qolishi lozim bo‘lgan. Ammo Rim senati greklarga qarshi kurash uchun Karfagen bilan harbiy ittifoq tuzishga tayyorgarlik ko‘rib bo‘lgan ekan. Buning ustiga tarent va boshqa grek shaharlarining aholisi Pirrdan norozi ekanligi ham ma‘lum bo‘lib qolgan. Shunga ko‘ra senat Pirrning taklifini rad qilgan.

Eramizdan avvalgi 279-yilda 2 kunlik hal qiluvchi jang Auskul shahri yonida bo‘lgan. Pirr yana Rim qo‘shinalrini tor-mor keltirga, lekin bu jangda u haddan tashqari ko‘p jangchilarini yo‘qotib, “ Agar biz rimliklar ustidan yana bir marta g‘alaba qilsak, u holda tamomila halok bo‘lamiz”- deb qichqirib yuborgan ekan. Auskul jangidan keyin Pirr rimliklar bilan yana jang qilishdan bo‘yin tovlab, xiyla tez va osonlik bilan muvaffaqiyat qozonish niyatida Sitsiliyaga yo‘l olgan. Pirr boshda , darhaqiqat, karfagenliklarni bir necha marta mag‘lubiyatga uchratgan. Ammo uning sitsiliyaliklarning ichki ishlariga qo‘pol ravishda aralashishi va Krfagenni zabt qilib, o‘z monarxiyasining bir qismiga aylantirish rejasi uning sitsiliyaliklar bilan aloqasi tamomila buzilishiga sabab bo‘lgan. Sitsiliyada karfagenliklar armiyasi muvaffaqiyatli harakat qila boshlagan, eramizdan avvalgi 275-yilning bahorida Pirr italiy greklariga yordam ko‘rsatishni bahona qilib orolni tashlab ketgan va yan Italiyaga borib tushgan. Samniumda Benevent shahri yaqinida Pirr bilan rimliklarning qo‘shinlari o‘rtasida so‘nggi marta jang bo‘lgan. Rim legionerlari fillarni o‘tli o‘qqa tutib , ularni qochishga majbur etgan. Fillar o‘tdan qutilish payida Pirr askarlarini bosib , ezib orqaga qarab qochavergan. Pirr tamomila mag‘lubiyatga uchragandan keyin, Italiyani tashlab , Gretsiyaga jo‘nagan, u yerda eramizdan avvalgi 272-yilda Makedoniya taxti uchun kurash boshlagan va Arg‘os shahrining ko‘cha janglarida halok bo‘lgan.

Aleksandrning qisqa muddatli hukmronligidan keyin kamida besh asr davomida yunon madaniyati g‘arbdagi Rimdan sharqdagi Gangagacha butun yo‘l bo‘ylab aks etdi<sup>72</sup>.

Eramizdan avvalgi 272-yili rimliklar Italiya janubidagi mustaqillikning so‘nggi tayanchi bo‘lmish Tarent shahrini avvalo qamal qilib , so‘ngra ishg‘ol qilganlar. Rimliklar Italiya janubida o‘z hukmronliklarini mustahkamlash

---

<sup>72</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.204.

maqsadida Brundiziy portini qurganlar. Unga harbiy yo'l o'tkazganlar va yo'l bo'ylab bir necha koloniya qurganlar. Eramizdan avvalgi III asrning 60-yillariga kelib, Rimning Italiyada olib borgan urushlari tugagan. Sizalpina Galliyasi chegarasidagi Rubikon daryosidan tortib Messina bo'g'ozigacha bo'lgan yerlar, xullas butun Italiya Rimga bo'ysungan. Rim Tibr daryosi bo'yidagi kichkina bir jamoadan O'rta dengizdagi qudratli bir davlatga aylangan.

Rim istilolarining muvaffaqiyatini ta'minlab bergan sabablar Rim armiyasining jang qobiliyati yuksak bo'lganligidir. Rim jamoasining asosiy qismini tashkil etgan qishloq aholisi yangi yer uchastkalariga ega bo'lish niyatida urushlarning g'alaba bilan tugashidan manfaaddor bo'lgan. Muvaffaqiyatning yana bir sababi Rim dushmanlarining zaif bo'lganligidir. Rimga qarshi chiqqan qabilalar, xalqlar va shaharlar iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan tarqoq bo'lgan. Ular bir paytning o'zida birgalashib harakat qilmagan, ayrim-ayrim harakat qilishgan.

**Rim- Italiya konfederatsiyasi.** Rim istilo qilgan yerlarni idora qilish tartibi sekin- asta, eramizdan avvalgi V-III asrlar davomida tarkib topgan. Rim polisining imtiyozli holatda bo'lganligi bo'ysundirilgan Italiya qabilalari, xalqlari va shaharining qaramlik darajalari turli – tumanligi va ularga berilgan huquqlarning ham xilma –xilligi Rim idora tartibining o'ziga xos xususiyatidir. Istilo qilingan Italiya aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot darajalari xilma – xil bo'lganligidan ularning huquqiy ahvoli ham xilma-xil bo'lgan.

Rim fuqarlari yashagan koloniyalar huquq jihatidan ko'proq imtiyozlardan foydalangan. Koloniyalar aholisi Rim xalqining bir qismi bo'lib, fuqarolik huquqlariga ega bo'lgan. Koloniyalar ayniqsa, urushda qattiq qarshilik ko'rsatgan qabilalar, xalqlar va shaharlardan qortib olingan yerlarga joylashtirilgan. Koloniyalarda yashovchi Rim magistratlarini saylashda ishtirok qilganliklari uchun ular shu magistratlar tomonidan idora qilinishi lozim deb qaralgan. Shuning uchun ham koloniyalarning o'z ichki idorasi bo'lmagan. Bunday idora tashkiloti ba'zi koloniyalar uchun amalda noqulay bo'lgan va ulardan ba'zilari avtonom huquqlarini olgan. Koloniyalar doimiy harbiy garnizonlardan iborat bo'lganligi uchun istilo qilingan Italiya viloyatlarida Rim hokimiyatini mustahkamlashga yordam berishlari lozim bo'lgan.

Ko'p zamonlardan beri Rim davlati tarkibida bo'lib mustaqil yashab kelgan Italiya jamoalari, ya'ni munitsipiallar ikkinchi guruhni tashkil qilgan. Ular o'zlarining ichki idoralariga ega bo'lgan. Munitsipiallar aholisi o'z magistratlarini shahar kengashini saylashga, xalq majlislarida qatnashishga haqli bo'lgan. Keyinchalik ular Rim fuqarolik huquqlaridan ham foydalanadigan bo'lganlar.

Ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan jamoalar qaramlikning bundan keyin turadigan pastki bosqichiga mansub bo'lgan. Ularning o'z-o'zini idora qilish tashkiloti bo'lsa-da; huquqlari cheklab qo'yilgan: ularning a'zolari komissiyalarda ishtirok qila olmagan, magistrat qilib saylana olmagan. Jamoaning hayoti Rim vakillari nazorati ostida bo'lgan. Ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan. Jamoa a'zolari va nikoh huquqlarida Rim fuqarolari bilan teng

bo'lgan. Rim ittifoqchilari eng ko'p sonli guruhni tashkil etgan. Ularning ahvoli har xil shartnomalar bilan belgilangan. Ittifoqchilarning ko'pi olib borilgan urushlarda ishtirok qilishi majburiy bo'lgan, boshqalari esa Rimga hujum qilingan taqdirdaginagina unga yordam bergan. Ittifoqchilar Rimga yordamchi qo'shin ("qon solig'i") bergan va ularni boqqan. Rasmiy jihatdan ular ba'zi bir mustaqilliklarga ega bo'lgan.

Rim va latin ittifoqi shaharlari ta'sis qilgan latinkoloniyalari ham avtonomlik huquqlaridan foydalangan. Latin koloniyalaridan Rimga ko'chib kelga kishilar Rim fuqarolik huquqiga ega bo'lgan. Rim urush qilgan vaqtda ular Rimga alohida ittifoqchi atryadlar berganlar.

Rimga qattiq qarshilik ko'rsatgan va hech qanday shartsiz g'olibga taslim bo'lgan qabilalarning huquqlari ayniqsa cheklab qo'yilgan. Taslim bo'lgan qabila a'zolari yerlarining 1/3 qismidan tortib 2/3 qismigacha Rimga berganlar, avtonom tashkilotlari bo'lmagan, o'zaro aloqa qilishdan, savdo va nikoh munosabatlaridan mahrum qilishgan, qurol-yarog' taqishga haqlari bo'lmagan.

Rim davlatidagi ittifoqchi jamoalarning ahvolini yuridik jihatdan klientellerning ahvoli bilan tenglashtirsa bo'ladi, chunki ular ham kliyentlar kabi to'la huquqli deb hisoblanmasa-da, har holda erkin fuqaro bo'lgan.

Italiyada tarkib topgan idora tartibi juda epchil bo'lgan. Hammadan ham ko'ra bu tartib Rim uchun qulay bo'lgan. Rimliklar qadimgi urug'doshlik aloqalarini yemirib, Italiyaning butun aholisini qaramlik va tobelikning turli bosqichiga qo'yib, huquqda tengsiz jamoalarning bir – birlari bilan raqobatlashish va o'zaro dushmanlik vaziyatini vujudga keltirganlar.

Bo'ysundirilgan Italiya xalqlarining yerlari davlatga qarashli jamoat dalalariga aylantirilgan. Jamoat dalalari odatda din fuqarolari o'rtasida taqsim qilingan. Taqsim qilib berilgan yerlarning ko'pi patriitsiyalar va zodagon plebey urug'i a'zolari qo'lga tekkan. Yerlarning konsentratsiya jarayoni davlat (jamoat) yer egaligining siqib chiqarilishiga, katta yer egalari bilan mayda yer egelari o'rtasida kurashning keskinlashishiga olib kelgan. Kolonistlar (ko'proq Rim plebeylari davlat yer fondidan chek yerlar olgan. Yerlarni ular va omon qolgan mahalliy aholi haydab ekan. Koloniyalar ta'sis qilinishi mayda va o'rta italiy dehqonlari tabaqasini vujudga keltirgan.

Rim respublikasi yashagan birinchi asrlarda quldorlik munosabatlarining taraqqiysi u munosabatlarning patriarxal formalaridan sekin-asta klassik formalariga o'tishi bilan harakterlanadi.

Eramizdan avvalgi V-III asrlarda Rimning Italiyada olib borgan urushlari natijasida chet qabila va chet yerlik qullar soni ko'paygan. Etrusklarning Veyyami shahri bilan bo'lgan urush vaqtida rimliklar 8 ming kishini asir olganlar va qul qilib sotib yuborganlar. Eramizdan avvalgi 306-yilda, Tit Liviyning aytishicha, asir olingan 7 ming samniy qul qilib sotilgan. Biroq Italiyaning Rim urushib o'ziga bo'ysundirgan ko'pgina qabila va elatlari erkin bo'lib qolavergan, chunki qullar mehnati ko'pincha hali katta foyda keltirmagan.

Qullikning dastlabki boshqa bir manbai avvalgicha qarz asorati bo'lib qolavergan. Qarz qulligining saqlanib qolishiga qishloq aholisini o'z yerlarida dehqonchilik qilishdan hiyla vaqtlargacha ajratib qo'ygan uzluksiz urushlar va dehqonlar ixtiyoridagi yerlar juda kam bo'lganligi ham sabab bo'lgan. Rim o'ziga bo'ysundirgan ba'zi Italiya xalqlarining qaramlik formalari Spartanlar ilotiyasini eslatgan. Shunday qilib klassik qullikning paydo bo'lishi va rivojlanishi Italiyadagi quldorlik munosabatlarining xilma xilligini yo'q qilmagan.

Quldorlikning o'sishi, g'oyat shafqatsiz muamalaga duchor qilingan boshqa qabila chet yerlik qullarning ko'payishi qullarning huquqiy ahvoliga o'zgarishlar kiritilishini taqazo qilgan. Eramizdan avvalgi III asr boshiga kelib tamomila xo'jayin ixtiyoridagi buyum deb qaralgan qullarning butunlay yuridik huquqsizligini belgilab bergan yangi huquq normalari tarkib topgan. Qul yoki uy hayvonini o'ldirgan yoki mayib qilgani uchun bozor narxi yuzasidan jarima solingan. Qul keltirgan zararni xo'jayin to'lagan, xolbuki, XII jadval qonuniga muvofiq qul javobgar bo'lgan. Shunday qilib, huquq normalarining rivojida: qullarning yuridik jihatdan huquqsizligini qonunlashtirish, ularni fuqarolar hayoti va siyosiy hayotdan o'chirib tashlash mayli bo'lganligi aniq ko'rinib turibdi.

Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda qullar mehnatidan tobora kengroq foydalanila boshlagan. Qullar qurilish ishlariga, Rim flotida eshkakchilikka jalb qilingan. Davlat ixtiyoridagi qullar kohinlar kollegiyasiga kiritilgan, xudoga qilinadigan ibodatlarda kohin yordamchisi vazifasini bajargan, jarchilik, jallodlik qilgan va hakoza. Davlat ixtiyoridagi qullar xususiy shaxslarning qullaridan ko'ra ba'zi imtiyozlarga ega bo'lgan. Davlat ixtiyoridagi qullar ma'lum moyana olganlar, ayrim hollarda Rim sudiga shikoyat qilishga haqli bo'lganlar.

Qullar ilk respublika davridayoq xo'jalik munosabatlarida bir xil bo'lmagan. Ba'zilarining moddiy vositalari bo'lmagan, demak, shu bilan ular to'lov berib ozod bo'lish imkoniga ega bo'lganlar.

Eramizdan avvalgi IV-III asrlarda Rim jamiyatining murakkab sinfiy va sotsial tuzilishi tarkib topgan. Rim jamiyati erkin kishilar va qullarga bo'lingan. Erkin kishilar o'z navbatida, nobillarga (oily magistratlik mansablarini, Rim senatida senatorlikni egallagan kishilarga), suvorilarga va juda ko'pchilik qishloq va shahar plebsiga: mayda dehqonlar va shahar hunarmandlariga bo'linganlar. Erkin kishilar ichida kam huquqli guruhlar: ozodlikka chiqarilgan qullar, kliyentlar, asoratga solingan erkin kishilar bo'lgan. Ulardan ba'zilar erkin kishilar bilan qullar o'rtasidagi muallaq holatda bo'lganlar. Ular o'zlarining sobiq xo'jayinlariga ma'lum to'lov berib, xo'jayinlarining ba'zi ishlarini bajarib turganlar, ular yana qullik holatiga qaytishlari mumkin bo'lgan. Shunday qilib Rim jamiyatining tuzilishi doim o'zgarib turuvchi holatda bo'lgan: yangi to'la huquqli, kam huquqli guruhlar, yangi toifalar bo'lgan.

Rim rivoyatlarida eramizdan avvalgi V asrda odatda o'z ta'sirini mustahkamlab olishga uringan biron zodagon boshchiligida qullarning shahar plebsi bilan birlikda qo'zg'alon qilganligi to'g'risida ma'lumotlar saqlangan.

Eramizdan avvalgi IV-III asrlar davomida qullar plebsning iqtisodiy va siyosiy huquqlar uchun olib borgan kurashlarida bir necha bor qatnashgan.

**Tayanch tushunchalar:** Koloniya, Rim, magistratlar, Italiya, Tarent, Brundiziy, Sizalpina Galliyasi, Rubikon, Messina, Tibr, O'rta dengiz, Samniy, Kampaniya, Kavdiy shahri, Samniumni

**Mustahkamlash savollari:**

1. Rim Respublikasi qanday vujudga keldi?
2. Rimni boshvaruv shakli qanday bo'lgan?
3. Konsulni funktsiyalarini sanang?
4. Diktator qanday vaziyatlarda saylangan?
5. Etrusklarga qarshi kurash qanday kechdi?
6. Rimni markazlashgan Respublikaga aylanishi qachon nihoyasiga yetdi?
7. Samniy urushlarini tushuntirib bering?

**Ma'ruza № 39**

**Mavzu: Rimning Sharqiy O'rta Yer dengizidagi ekspansiyasi.**

**Karfagenning yengilishi. Reja:**

1. Birinchi va ikkinchi Puni urushlari.
2. Rimning Sharqiy O'rta yer dengizidagi istilolari.
3. Axeya ittifoqi qo'zg'oloni.
4. Uchinchi Puni urushi.

Apennin yarim orolida tashkil topgan Rim davlati er. av. III asr o'rtalarigacha butun Italiyani istilo qilib, O'rta yerdengizi bo'ylarini ham o'ziga qaratib olish uchun yangi harakatlar boshladi.

Miloddan avvalgi 350-yillar oxirida Italiya yarimorolidagi Latsioda yashovchi lotin tilida gapiruvchi xalqlar rimlik xalqlardan biri edi. Rim eng yirik shahar bo'lsada, unga hali ham o'zini himoya qilish uchun boshqa shaharlardan yordam kerak edi. Shunday qilib, Rim o'zining navbatdan tashqari harbiy yurishini va hududiy kengaytirish bosqichini boshladi va mil. avv 265-yilda yarimorolning katta qismi uning nazoratiga o'tdi. Bunga esa ikkita omil o'z hissasini qo'shgan, ya'ni xorijiy xalqlar migratsiyasi va harbiy-siyosiy yangiliklar edi<sup>73</sup>.

Biroq bu zamonda O'rta er dengizining g'arbiy qismida boshqa bir quldorlik davlati – Karfagen hukmronlik qilar edi.

Karfagen Afrikaning shimoliy sohillari, Malta, Sardiniya, Korsika, Balear orollari, Sitsiliyaning g'arbiy qismini o'z ichiga olgan qadimiy quldorlik davlati edi. Karfagen bu quldorlik davlatining markaziy shahri bo'lgan. Bu shahar katta va o'ziga xos bo'lib, Shimoliy Afrika sohilidagi kichik yarim orolda joylashgan.

---

<sup>73</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.262.

U Finikiyaning koloniyasi bo'lib, finikiyaliklar uni Kar. Xadashiy –«Yangi shahar» der edilar. Shahar geografik jihatdan g'oyat qulay yerda joylashgan.

Er. av. IX asrda Finikiyaning Tir shahri bu yerda o'z koloniyasini tashkil etgan bo'lib, er. av. V asr o'rtalarida Karfagen katta bir davlatning markaziga aylangan. Karfagen O'rta er dengizi havzasidagi ko'p mamlakatlar bilan qizg'in savdo ishlarini olib borgan. Uning chuqur va qulay qo'ltiqlarida ko'pdan-ko'p kemalar turgan, ularga ko'plab yuk ortilgan va tushirilgan. Sohil bo'yida xilmaxil mollar saqlanadigan katta-katta omborxonalar bo'lib, ular yuklar bilan to'lib turgan. Kemalardagi yuklarni qullar tushirganlar, ular kemalarda eshkakchilik ham qilganlar. Karfagenliklar hayotida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ayniqsa, savdo-sotiq katta o'rin tutgan. Karfagenning kuchli harbiy dengiz floti va yollanma askarlardan iborat katta qo'shini ham bo'lgan.

Shahar mustahkam tosh devorlar va minoralar bilan o'rab olingan. Karfagen er. av. III asr o'rtalariga kelib, iqtisodiy va siyosiy jihatdan bir oz zaiflashib qolgan. Karfagen aslzodalari va katta er egalari bosqinchilik siyosati yurgizilishini, Sitsiliya va boshqa joylarda o'z mavqelarini mustahkamlashni talab qilganlar. Bu hol Karfagen va Rim respublikasi o'rtasida O'rta er dengizida hukmronlikni qo'lga kiritish uchun kurash boshlanishiga olib kelgan.

**Birinchi va ikkinchi Puni urushlari.** Rimliklar Karfagenni Puni deb atar edilar. Shuning uchun bu urushlar Puni urushlari deb nom olgan. Birinchi Puni urushi Rim bilan Karfagenning Sitsiliya oroli uchun olib borgan kurashidan boshlangan. Sitsiliya orolining kichik sharqiy qismi Sirakuza podsholigiga qarar, katta g'arbiy qismi esa Karfagen ixtiyorida edi.

Sirakuza shohi vafot etgach, uning xizmatida bo'lgan kampaniyalik yollanma askarlarning Sitsiliyaning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan Messanani bosib olishlari urushning boshlanishiga bahona bo'lgan. Sirakuzaning yangi hukmdori Gieron II Messanani qamal qilib, kampaniyalik yollanma qo'shinlarga qarshi chiqqan. Yollanma qo'shinlarning bir qismi Karfagenga, bir qismi Rimga yordam so'rab murojaat qilganlar.

Birinchi Puni urushi (mil. avv. 264-241-y.y) Sitsiliya oroliga qo'qqisdan hujum qilish natijasida boshlangan. Ularning hujumi bilan, Rim g'arbiy O'rtayer dengizida hukmronlik uchun kurash boshladi<sup>74</sup>.

Har ikki tomon ham dengizda, ham quruqlikda urush olib boradi. Rim qo'shinlari Sitsiliyaga tushib tez orada Messanani ishg'ol qiladilar. Ular quruqlikdagi janglarda birmuncha g'olib keladilar. Ammo Karfagen floti dengizda rimliklarni mag'lubiyatga uchratadi. Chunki bu vaqtda rimliklarning kuchli harbiy dengiz floti yo'q edi. Rimliklar tez vaqt ichida qarg'a tumshuqli 120 ta harbiy kemani jihozlab, jangga hozirlaydilar.

Er. av. 260 yilda Mila burni va shahri yaqinidagi dengiz jangida rimliklar Karfagen floti ustidan g'alaba qozonadilar. Bu g'alaba Karfagen qo'shinlarini Sitsiliyadan surib chiqarib, urush harakatlarini Karfagenga ko'chirishga majbur

---

<sup>74</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.262.

etadi. Er. av. 256 yilda rimliklarning 360 ta harbiy kemasi Karfagenga yo‘l oladi. Eknom burni yonidagi jangda Rim floti Karfagen floti ustidan yana g‘alaba qozonadi. Rimliklar qirg‘oqqa chiqib, karfagenliklarga ketma-ket zarba beradilar. Rim qo‘shinlarining bir qismi behisob o‘lja va asirlarni olib Rimga qaytadi. Ammo ular qaytishda dengiz dovuliga uchrab butunlay halok bo‘ladilar. 255 yilda Karfagenning yollanma qo‘shinlari Karfagenda qolgan rimlik qo‘shanlarni tor-mor etadilar. Rim sarkardasi asir tushib, asirlikda vafot etadi.

Urush harakatlari yana Sitsiliyaga ko‘chadi. Karfagen qo‘shiniga Gamilkar Barka lashkarboshi bo‘lgach, Karfagen qo‘shinlari Sitsiliyaning ko‘p joylarini qaytadan ishg‘ol qiladilar. Rimliklar yangidan flot tuzib, Egata oroli yonidagi jangda Karfagen flotini qattiq mag‘lubiyatga uchratadilar.

Er. av. 241 yilda Birinchi Puni urushi sulh shartnomasi bilan yakunlanadi. Sulhga ko‘ra Karfagen Rimga katta tovon to‘lab, Sitsiliyadagi o‘z mulklarini ham Rim hokimiyatiga topshiradi.

Birinchi Puni urushidan keyin Karfagenda ahvol og‘irlashgan. Iqtisodiy qiyinchiliklar yollanma qo‘shin, Liviya qishloq ahli va qullarning birlashib qo‘zg‘olon ko‘tarishlariga olib keladi. Gamilkar Barka boshliq qo‘shin qo‘zg‘olonni bostirib, qo‘zg‘olonchilarni qirib tashlaydi.

Rimliklar Karfagenning zaifligidan foydalanib, er. av. 238 yilda Sardiniya va Korsika orollarini bosib olganlar. Karfagenliklar Rimga qarshi yangidan kurashga tayyorlanish uchun Iberiyani tanlaganlar. Er. av. 237 yilda Gamilkar Barka qo‘l ostidagi Karfagen qo‘shinlari Iberiyaga kelib joylashadilar. U yerdagi ko‘p qabilalarni engib, katta yutuqlarga erishganlar. Ular Iberiyaning janubisharqiy burchagidagi Yangi Karfagen shahrini barpo qilganlar.

Er. av. 229 yilda ibyerlar bilan bo‘lgan janglarning birida Gamilkar Barka halok bo‘ladi. qo‘shin qo‘mondoni qilib, uning kuyovi Gasdrubal tayinlanadi. Er. av. 221 yilda Gasdrubal keltlar bilan bo‘lgan urushlarning birida o‘ldiriladi. Uning vafotidan keyin qo‘shinga Gamilkarning 25 yoshli o‘g‘li Gannibal qo‘mondon etib tayinlanadi. U mohir lashkarboshi va qo‘rqmas jangchi edi. Uning lashkarboshilik qobiliyati va misli ko‘rilmagan mardligiga dushmanlari ham tan berganlar. Qadimgi Rim tarixchilaridan biri: «Gannibal xavf-xatarga tashlanganda qanchalik jasur bo‘lsa, shu xavf-xatar ostida qolganda shunchalik ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rar edi. U mehnat qilganda a'zoyi badani sira charchash bilmas va aslo ruhi tushmas edi. U jazirama issiqqa ham, sovuqqa ham bardosh berardi. U yumshoq o‘rinda yotmasdi, harbiy chakmonga o‘ralib olib, qorovullikda turgan jangchilar orasida uxlardi. U birinchi bo‘lib jangga otilar va jang maydonidan eng keyin chiqar edi. Jangchilar Gannibal boshchiligida o‘z kuchlarga shunchalik qattiq ishonganlarki va shunchalik mard bo‘lganlarki, boshqa hech bir kishi boshchiligida bunday bo‘lmas edi», - deb yozgandi.

Rim bilan Karfagen o‘rtasidagi Ikkinchi Puni urushi er. av. 218–201 yillarda bo‘lib o‘tadi. Bu urush Rim armiyasining haqiqiy kuchiniko‘rsatdi. Karfagen

generali Gannibal agar ular Italiya yarimorolining o'ziga hujum qilishsa, o'z askarlarining g'alabasiga umid qilsa bo'lishini tushundi<sup>75</sup>.

Karfagen qo'shinlarining yangi sarkardasi Gannibal er. av. 219 yili Rim bilan ittifoqda bo'lgan Iberiyaning Sagnut shahrini ishg'ol qilib, uni tor-mor keltirgan, shahar aholisini qul qilib sotib yuborgan. Bundan norozi bo'lgan Rim Yangi Karfagenga elchilar yuborib, Gannibalni Rim qo'liga topshirishni talab qiladi. Er. av. 218 yilning bahorida Gannibal o'z qo'shinlari va jangovar fillari bilan Yangi Karfagendan yo'lga chiqadi. U Pireney tog'laridan o'tib, gallarning ba'zi qabilalari bilan jang qilib, Alp tog'lari etaklariga etib boradi. Gannibal juda og'ir mashaqqatlar bilan 33 kun deganda Alpning qorli tog'laridan oshib o'tib, Shimoliy Italiya tomon harakat qiladi. Qorli dovondan o'tish og'ir bo'lib, askarlar tog'ning tikka va tog' so'qmoqlaridan o'rmalab borganlar. Muzlagan sirg'anchiq yo'llardan borayotgan jangchilar, otlar va fillarning ko'pchiligi tubsiz jarga qulab halok bo'lgan. Tog' so'qmoqlaridan charchab, holdan toygan qo'shin Shimoliy Italiyaga etib kelganda Gannibalning 20 ming piyoda va 6 ming otliq askari, oz sonli fillari qolgan edi. Lekin kelt qabilalari Gannibalga kelib qo'shilib, unga bir oz madad beradilar. Gannibal Shimoliy Italiyada turgan Rim qo'shinlarini navbatma-navbat tor-mor qilib, janub tomon qo'shin tortadi Manbalarda Rim armiyasi 750 ming kishidan iborat bo'lganligi keltiriladi. Gannibal o'zining piyoda askarlari va otliq qo'shini bilan Janubiy Ispaniyadan Italiya yarimoroliga tomon yurdi. U Pireniya va Alp tog'larini chaqqonlik bilan kesib o'tgandan keyin qahramonona Italiyaga 20000 ming qo'shini bilan kirdi. Rim zaxiradagi 750000 qo'shini bilan durang natijaga erishdi. Shu raqamlar bilan, Rim qo'mondonlari kurashishga yo'l qo'ymaydi, keyinchalik Karfagenliklar urushni davom ettirib, qattiq janglardagi uchta buyuk jangda, g'alaba qilgunlaricha taxminan 60000 dan 80000 gacha qurbonlar beradi.

Ular nihoyat mil. avv. 201- yilda g'alaba qiladilar<sup>76</sup>.

Er. av. 217 yilda rimliklar Etruriyadagi Arritsiy shahri yonida Gannibalning yo'lini to'sganlar. Lekin Gannibal qo'shinlari rimliklar kutmagan botqoqlikdan kun davomida kechib o'tib, ularning orqa tomonida paydo bo'lganlar. Kechib o'tish vaqtida Gannibal ko'zidan ajralgan, u minib yurgan yagona fil ham halok bo'lgan. Gannibal qo'shinlari Rim qo'shinlariga orqa tomondan hujum qilib, Traziman ko'li yonida Rim qo'shinlarining ko'p qismini qirib tashlaganlar.

Er. av. 216 yilda Gannibal rimliklarning ayrim hujumlarini qaytarib, Rimni chetlab o'tib, Janubiy Italiyaga yo'l olgan. Chunki Gannibal u yerda janubiy Italiya aholisidan va Karfagendan madad olishi mumkin edi. U o'tish davrida rimliklarning ko'plab qishloqlarini vayron qilgan. Gannibal Rimga dushman, tobe qabilalarni o'ziga og'dirib olishni ko'zda tutib, ularni o'ldirmaslik haqida buyruq beradi.

---

<sup>75</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.262-263.

<sup>76</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.263-264. <sup>82</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.264.

Rim askarlari sarkarda Mark Sergeyga taqlid qilib, bilim olishgan. Sergey urushlarda 23 marta jarohatlangan, uning ikki qo‘li va ikki oyog‘i ham cho‘loq edi. Gannibal bilan bo‘lgan urushda bir qo‘lidan ajraladi, lekin temirdan yasalgan soxta qo‘li bilan xizmatini davom ettiradi. U ikki marta Gannibal tomonidan qamoqqa olingan va har safar zanjirda saqlanishiga qaramay qochib ketgan. Uning sun‘iy qo‘li bilan urushga to‘rt marta borgan, qo‘li tomiridan biriktirilgan. Sergey Rimning asosiy shaharlarini karfagen zulmidan ozod qilishda yordam bergan. Bunday insonlar armiyadagi askarlarning ruhini ko‘targan<sup>82</sup>.

Er. av. 216 yili Gannibal qo‘shinlari Italiya janubidagi Kanna qishlog‘iga kirib kelganida uning 40 ming piyoda jangchisi va 10 mingga yaqin otliq askarlari bor edi. Rim qo‘shinida esa 80 ming piyoda va 6 ming otliq jangchi bo‘lgan. Gannibal qo‘shinlari 70 ming Rim piyoda askarlarini qurshab olib, ularning ko‘p qismini qirib tashlaganlar, bir qismini esa asir olganlar. Jangda Rim sarkardalaridan Emiliy Pavel halok bo‘lgan, ularning ikkinchi sarkardasi Varron qolgan-qutgan qo‘shin bilan Rimga qarab qochgan.

Kanna yonidagi mag‘lubiyat Rimni og‘ir ahvolga solib qo‘ygan. Jangda butun Rim qo‘shinlarining uchdan bir qismi halok bo‘lgan. Karfagenliklarining bu g‘alabasi Italiya markazi va janubida yashab, Rimga tobe bo‘lgan samnit, lukan va apul qabilalarining Gannibal tomoniga o‘tishi uchun imkon beradi. Shu vaqtda kapuyaliklar ham karfagenliklarga kelib qo‘shiladilar. Ammo Gannibalning Rimni olish uchun qilgan harakati zoe ketadi.

Kanna mag‘lubiyatidan so‘ng Rim senati shoshilinch chora ko‘rib, 17 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan barcha erkaklarni qo‘shinga safarbar qilgan. Tez orada rimliklar 250 ming askar to‘plab, ularni qurollantirganlar. Rim sarkardalari qo‘shinni mayda bo‘laklarga bo‘lib, katta janglarga chap berib, kichik janglar bilan karfagenliklar tomonga o‘tgan shaharlarini qamal qila boshlaydilar. Bunday urush Gannibal uchun halokatli edi. Garchi Karfagendan jangchilar kelib qo‘shilgan bo‘lsa ham, Gannibal qo‘shinida ahvol og‘ir bo‘lib qolavergan, qo‘shin kundan-kun kamayib bormoqda edi. Yangi Karfagendan qo‘shin tortib kelayotgan Gannibalning ukasi Gasdrubal Metavra daryosi bo‘yidagi jangda rimliklar tomonidan tor-mor etilib, uning o‘zi o‘ldirilgan.

Er. av. 204 yilda urush harakatlari Karfagenga ko‘chiriladi. Rimliklar Stsipion qo‘mondonligidagi katta qo‘shinni Karfagenga jo‘natadilar. Gannibal Karfagenni himoya qilish uchun Italiyadan chaqirtirib olinadi. Er. av. 202 yilda Karfagendagi Zama shahri yaqinida Gannibal boshliq karfagenliklar bilan Stsipion boshliq Rim va Numidiya podshosining otliq askarlaridan iborat qo‘shin o‘rtasida ayovsiz jang bo‘ladi. Bu jangda rimliklarning otliq askarlari ko‘p edi. Rim bilan Karfagen piyoda askarlari qizg‘in jang olib borayotgan vaqtlarida rim va numidiyaliklarning otliq askarlari karfagenliklarning orqa tomonlariga o‘tib olib, zarba beradilar. Birinchi Puni urushlari vaqtida engilish nimaligini bilmagan Gannibal armiyasi o‘z vatanini mudofaa qilayotib, tor-mor etiladi. Shu bilan Ikkinchi Puni urushi ham tugaydi. Karfagen Rimga taslim bo‘ladi.

Ikkinchi Puni urushi natijasida Rim o'zining eng kuchli raqibi Karfagenni mag'lubiyatga uchratgan edi. Italiyaning bosib olinishi, Karfagen ustidan erishilgan g'alaba Rimni O'rta er dengizi xavzasidagi eng qudratli quldorlik davlatiga aylantirgan. Rimdan sharq tomonda Makedoniya, Yunoniston, Epir, Salavkiylar podsholigi va Misr kabi juda boy mamlakatlar joylashgan edi. Bu mamlakatning boyliklari Rim quldorlari va harbiylarini doimo o'ziga jalb qilib kelardi.

Rim sharqqa yurishni Makedoniyadan boshlaydi, Makedoniya ellin davlatlaridan biri bo'lib, Rimning ashaddiy dushmani edi. Rimliklar Makedoniyaga qarshi kurashmoq uchun ustalik bilan ish yuritib, yunonlarga o'zlarini xaloskor qilib ko'rsatadilar. Ular Fessaliyaga o'z qo'shinlarini keltirib joylashtiradilar. Shu yerdan ular Makedoniyani istilo qilishni mo'ljallab qo'yadilar. Ular ayrim polislari bilan ittifoq tuzib, er. av. 197 yilda Fessaliyaga qo'shin tushirib, Kinoskefali qishlog'idan Makedoniyaga hujum boshlaydilar.

Bu yerda qattiq jang bo'lib, Rim legionlari g'alabaga erishadilar. Mag'lubiyatga uchragan Makedoniya barcha mulklaridan ajralib, Rimga tobe bo'lib qoladi. Makedoniyada erishilgan g'alabadan keyin Rim senati yunon shaharlarining erkinligini tan olgan. Bu xabarni yunonlar xursandchilik bilan kutib olganlar. Lekin ularning xursandchiliklari uzoqqa bormagan. Rimliklar yunonlarning ko'p ishlariga aralashib, ularning erkinligini yo'qqa chiqara borganlar. Bu hol Yunonistonda Rimga qarshi kuchli norozilik uyg'otgan.

Er. av. 146 yilda Axeya ittifoqi rimliklarga qarshi qo'zg'olon ko'targan. qo'zg'olonchilar qarzlarning bekor qilinishini va boylarga ham soliq solishni talab qilganlar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Rim qo'shinlari yuborilgan. Ular qo'zg'olon markazi Korinf shahrini ishg'ol qilganlar, ikki o'rtada qattiq jang boshlanib ketgan. Ko'p odamlar halok bo'lgan. Shahar vayron qilinib, unga o't qo'yilgan. Aholining ko'p qismi qul qilib sotib yuborilgan. Yunon shaharlarining ittifoqi tarqatib yuborilgan, ko'pgina shaharlar Rimga itoat ettirilgan.

Er. av. 190 yilda Rim qo'shinlari Kichik Osiyoga bostirib kiradilar. Suriya qo'shinlari dushmanni Magneziya shaharchasi yonida qarshi oladilar. Har ikki tomon ayovsiz jangga kirishadi. Bu jangda suriyaliklarning qo'shini ko'p edi. Lekin shunga qaramay Rim legionlari jangda g'alaba qozonadilar.

Er. av. 188 yilda rimliklar bilan suriyaliklar o'rtasida sulh shartnomasi tuzildi. Sulh bitimiga ko'ra Antiox III Yevropa va Osiyodagi Tavr tog'larining shimolidagi mulklaridan voz kechadi. U barcha jang fillarini va flotini Rimga berishi, shuningdek tovon to'lashi lozim bo'lgan. Ayni paytda rimliklar o'zlarining eski raqibi, Suriyada yashayotgan Gannibalni rimliklarga tutib berishni talab qilganlar. Shunday qilib, rimliklarning zarbalari natijasida Suriyaning qudrati puturdan ketgan. Rim esa O'rta er dengizdagi eng qudratli davlatga aylangan.

Ikkinchi Puni urushi davrida vayron qilingan Karfagen tez orada o'zini tiklab, mustahkamlanib olgan. Karfagenliklar dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlantirishga katta ahamiyat berganlar. Rimliklar esa

Karfagenning qayta kuchayishini istamas edilar. Uni doimo asoratda tutmoqchi bo'lganlar.

Er. av. 149-146 yillarda bo'lib o'tgan urushlar natijasida Karfagen yana vayron qilinib, aholi qul qilib sotib yuborilgan. Uning o'rnida Rimning Afrika viloyati tuzilgan.

**Rimning Sharqiy O'rta yer dengizidagi istilolari.** Sharkiy O'rta yer dengizi bo'ylari itoat ettirilib, Rimga qo'shib olingandan so'ng endi navbat Ispaniyani bosib olishga etgan. Bunday harakatlar er. av. 206 yildayoq boshlangan edi, biroq Rimliklar mahalliy ibyerlarning qarshiligiga duch kelgan edi. Er. av. 154 yilda Iberiya, er. av. 150 yilda Luzitaniya aholisi Rimga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Natijasida qo'zg'olon boshlig'i Virnat Luzitaniya podshosi deb tan olindi. Er. av. 139 yilda Virnat sotqin ayol tomonidan o'ldirilgan bo'lsa ham, tog'lik Numantsiya aholisi kurashni davom ettirgan.

Er. av. 133 yilda Rim qo'shinlari Numantsiya shahrini qamal qilib, uni ishg'ol qilganlar. Natijada Ispaniya va Luzitaniya ham bo'ysundirilib, Rim hududlari Iberiyadan Kichik Osiyogacha, Makedoniyadan Misrgacha cho'zilgan. Makedoniyaning istilo qilinishi. Italiyaning bosib olinishi va Karfagen ustidan erishilgan g'alaba natijasida Rim nihoyatda boyib O'rta yer dengizining g'arbidagi eng kuchli quldorlik davlatiga aylangan. Rimdan sharq va janubi-sharq tomonda juda ko'p boy mamlakatlar bor edi. Bu mamlakatlarning boyliklari ochko'z Rim quldorlari, harbiylari va savdogarlari diqqatini o'ziga tortib kelar edi.

Yunonistondagi davlatlar, xususan Makedoniya yerlari Rim uchun quruqlikdan sharqqa o'tadigan ko'prik edi. Rimliklar ayrim yunon polislari bilan ittifoq tuzib er. av. 197 yili Fessaliyaga qo'shin tushiradilar. Rim qo'shinlari Fessaliya tuprog'idan turib Makedoniyaga hujum boshlaydilar. Qattiq janglardan so'ng rim qo'shinlari g'alaba qozonib, Makedoniya Rimga tobe bo'lib qoladi. Er. av. II asrning 70-yillarida Makedoniyada bosqinchilarga qarshi norozilik kuchayadi. Makedoniyaning yosh podshosi Persey mamlakatdagi kuchlarni birlashtirib rimliklarga qarshi kurash boshlaydi. Er. av. 168 yilda Persey qo'shinlari bilan rim legionlari o'rtasida qattiq jang bo'lib, makedoniyaliklar engiladilar. Persey rimliklar qo'liga asir tushib halok bo'ladi. Rim qo'shinlari-legionlari Makedoniyaning shahar va qishloqlarini vayron qilib, ularga o't qo'yadilar, boyliklarini talaydilar. Rimliklar Makedoniyaning hamma ittifoqchilaridan, shuningdek Epir shohligidan ham qattiq o'ch olib, uning 70 ta shahrini vayron qiladilar va boyliklarini talaydilar.

Makedoniya tor-mor etilgach, Rim senati uni to'rt qismga bo'lib, har birini alohida respublika deb e'lon qiladi. Makedoniya Rimga katta miqdorda tovon to'lab, aholisining bir qismi asir olinib, qul qilib sotib yuboriladi. Ko'p o'tmay, Makedoniyada hunarmand Andrisk boshchiligida qo'zg'olon boshlanadi. Andrisk o'zini Perseyning o'g'li Filipp deb elon qiladi. Frakiya va boshqa qo'shni davlatlarda yashovchi qabilalar Andriskni qo'llab-

quvvatlaydilar. Qo'zg'olonchilar rimliklar bilan to'qnashib, ularga qattiq zarbalar berib, hatto ular ustidan bir necha bor g'alaba qozonadilar. Rim qo'mondonligi senatdan yangi qo'shin yuborishni so'raydi. Yangi qo'shin kelgach, qo'zg'olonchilar bilan rimliklar o'rtasidagi kurash yanada kuchaydi. Qattiq janglarning birida Andrisk qo'shinlari rimliklardan engiladi. Frakiyalik xoinlar esa Andriskni rimliklarga ushlab beradilar.

Rimliklar g'alaba qozongach, Makedoniya Rim viloyati deb e'lon qilinadi. Ular Epir shohligi bilan Janubiy Illiriyani Makedoniya viloyatiga qo'shib yuboradilar. Endi Makedoniya viloyati Bolqonga va Sharqqa rimliklarning botsirib kirishlari uchun tayanch joyga aylanadi.

**Axeya ittifoqi qo'zg'oloni.** Axeya ittifoqi yunon shahar-davlatlarining uyushmasidir. U er. av. 280-yilda tashkil topgan. U Axeya davlatida tashkil topganligi uchun shunday deb atalgan. Ittifoqqa Korinf, Megara, Agros va Peloponnesdagi boshqa yunon shahar-davlatlari a'zo bo'lganlar. Bu ittifoq Makedoniyaga qarshi qaratilgan uyushma edi.

Makedoniya ustidan erishilgan g'alabadan keyin Rim senati yunon shahardavlatlarining erkinligini tan olgan edi. Yunonlar bu xabarni xursandchilik bilan kutib olganlar. Lekin ularning xursandchiligi uzoqqa bormagan. Chunki rimliklar Makedoniyani o'ziga tobe qilib bo'lgach, yunon shahar-davlatlarining ichki ishlariga aralasha boshladilar. Rimliklar yunon shahar-davlatlari ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatib boshladilar. Bu hol butun Yunonistonda Rimga qarshi kuchli norozilik uyg'otishga sabab bo'lgan.

Er. av. 146-yilda Axeya Ittifoqi davlatlari rimliklarning jabr-zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. Qo'zg'olonchilar qarzlarni bekor qilinishini, soliqlarni kamaytirilishini va rimliklarning zo'ravonligiga barham berilishini talab qilganlar. Qo'zg'olonni bostirish uchun Rim senati qo'zg'olonchilar ustiga katta qo'shin yuborgan. Rim legionlari qo'zg'olon markazi Korinfga hujum qilganlar. Ittifoqchilar bilan bosqinchilar o'rtasida shiddatli jang boshlangan. Ko'p odamlar qirilgan. Rim askarlari Korinfni ishg'ol qilib boyliklarini talab, unga o't qo'yganlar. Aholining ko'p qismi qul qilib olib ketilgan. Axeya Ittifoqi tarqatib yuborilgan. Yunonistonning ko'pgina shahar-davlatlari Rimga itoat ettirilgan. Sparta bilan Afinaning mustaqilligi nomigagina saqlanib qolgan. Rimliklar Makedoniya va Yunonistonning juda ko'p boyliklarini Italiyaga tashib ketganlar. Rim varvarlari Yunonistondagi ajoyib obidalarni vayron etganlar.

Rimliklarning sharqdagi istilolari. Rimliklar Karfagen, Makedoniya va Yunonistonda o'z hukmronliklarini o'rnatib olganlaridan so'ng, O'rtaer dengizining sharqidagi mamlakatlarga ko'z olaytira boshlaganlar. Bu davrda Salavklar podsholigi, O'rta yer dengizi sharqidagi eng kuchli davlatlardan biri bo'lib qolgan edi. Rim tomonidan urush xavfini sezgan Salavka podshosi Antiox III ham urushga jiddiy tayyorgarlik ko'radi.

Karfagendan qochib Antiox III saroyidan panohtopgan Gannibal Salavka podshosiga Rimga qarshi ittifoq tuzib, urushni Italiya tuprog'ida olib borishni taklif etadi. Ammo Antiox III yunon shahar-davlatlari va'da qilgan yordamlarga

ishonib, urush harakatlarini Yunonitsondan boshlagan. Ammo urush boshlangach, faqat Etoliya va Beotiyagina Salavka podsholigiga yordam berib, qolganlari o'z va'dalarini bajarmaganlar. Salavka podshosi Antiox III ixtiyorida piyoda, otliq qo'shin, o'tkir chalg'ilar o'rnatilgan jang aravalari va urushga jihozlangan fillardan iborat katta qo'shin bor edi. Qattiq janglardan so'ng rimliklar salavkalar qo'shinini Yunonistondan surib chiqarganlar va Kichik Osiyo sohillariga hujum boshlaganlar.

Er. av. 190 yilda rimliklar bilan Salavka podsholigi qo'shinlari Magnesiya shaharchasi yonida to'qnashganlar. Jang shiddatli bo'lib, rimliklarning g'alabasi bilan tugagan. Er. av. 188 yilda ikki o'rtada sulh tuzilgan. Sulh bitimiga muvofiq Antiox III G'arbiy Osiyo va Tavr tog'larining shimolidagi mulklaridan voz kechgan. U hamma jangovar fillarini va harbiy-dengiz flotini Rimga berishi hamda tovon to'lashi lozim bo'lgan. Ayni vaqtda rimliklar Antiox III dan Gannibalni tutib berishni ham talab qilganlar. Voqeadan xabardor bo'lgan Gannibal Vifaniyaga (Kichik Osiyo) qochib ketgan. Antiox III qo'shinlari rimliklardan mag'lub bo'lsa ham Salavka davlati o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Ammo uning kuch-qudrati puturdan ketgan edi.

**Uchinchi Puni urushi.** Ikkinchi Puni urushidan keyin ko'p o'tmay Karfagen o'zini tiklab oladi. Rim esa Karfagenning kuchayib ketishini istamas edi. Er. av. 153 yilda Karfagenga kelgan Rim senatori va yozuvchisi Mark Katon Karfagendagi iqtisodiy farovonlikni ko'rib hayratga tushgan ekan. U karfagenliklarning ashaddiy dushmani bo'lib, o'z nutqida «Karfagenni vayron qilish kerak», degan iborani ko'p ishlatar edi. Rim Karfagenga qarshi urush chiqarish uchun bahonalar izlar edi. Rim urush chiqarish uchun Numidiya podshosini Karfagen tuprog'iga bostirib kirishga undaydi. Numidiya qo'shinlari Karfagenga bostirib kirib aholini talay boshlaydilar. Karfagenliklar o'z vatanlarini himoya qilishga o'tlanadilar. Ikki o'rtada jang boshlanganligini bilgan

Rim Karfagenga urush e'lon qiladi. Karfagenliklar sulh so'raydilar. Rimliklar sulhga rozi bo'lmay, karfagenliklarni bu yerdan ko'chib ketishlarini talab qiladilar. Karfagenliklar bu taklifni rad etib, urushga tayyorgarlik ko'radilar. Er. av. 149-yili uchinchi Puni urushi boshlanib, rimliklar Karfagen shahrini qamal qilishga kirishadilar. Karfagenliklar jonajon shaharlarini qattiq mudofaa qiladilar. Mudofaada ayollar ham jasorat ko'rsatadilar. Karfagen ayollari uzun sochlarini qirqib, undan tosh otuvchi mashinalarga arqon to'qib berganlar. Qamal uch yil davom etgan. Rimliklar Karfagenning dala qo'shinlarini engib, shaharni tashqari bilan bo'lgan aloqasini uzib qo'yganlar. Shaharda ochlik va kasallik boshlangan.

Er. av. 146-yili rimliklar shaharga har tomondan hujum qilib yorib kirganlar. Shahar ichida ayovsiz jang olti kecha-kunduz davom etgan. Dushman shaharni vayron etgan, boyligini talagan va imoratlariga o't qo'ygan. Karfagenliklardan 50 ming kishi asir olinib qul qilib sotilgan. Rimga tobe bo'lgan Afrika viloyatining tuzilishi bilan uchinchi Puni urushi ham tugagan. Shu tariqa O'rta yer dengizida Rimning monopoliyasi o'rnatilgan<sup>77</sup>.

---

<sup>77</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.264.

**Ispaniyaning istilo qilinishi.** Iberiya-Periney yarimorolining janubida joylashgan mamlakat. Iberiyaning temir, kumush va qimmatli ma'danlarga boy konlari rimliklarni ko'pdan beri o'ziga jalb qilib kelar edi.

Er. av. III asrda rimliklar Iberiyani itoat ettirish uchun ko'p yillar davomida qonli urushlar olib borganlar. Rimliklar er. av. 206-yilda Iberiya sohillarini egallash uchun kelganlarida, mahalliy aholining qattiq qarshiligiga duch kelganlar.

Er. av. II asrning birinchi yarmida rimliklar Iberiyaga bir necha bor bostirib kelganlar. Er. av. 154- yilda Iberiyaliklar Rimga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. Iberiyadagi bosqinchilarga qarshi qo'zg'olon ikki yil davom etib, so'ng qiyinchilik bilan bostirilgan. Er. av. 150 yili Periney yarim orolining g'arbidagi Luzitaniya viloyatida Viriat degan kishi rahbarligida rimliklarga qarshi juda katta qo'zg'olon boshlangan. Qo'zg'olon 9 yildan ortiq davom etib, luzitanlar rimliklarni ko'p marta mag'lubiyatga uchratganlar. Qo'zg'olonni kuch bilan bostira olmagan rimliklar Viriatni Luzitaniya podshosi deb tan olishga majbur bo'lganlar. Rimliklar xoinlik yo'liga o'tib Viriatni o'ldirish payiga tushganlar. Katta boylik evaziga sotilgan xoinlar er. av. 139-yilda Viriatni chodirda uxlab yotgan vaqtida o'ldirganlar. Viriat o'ldirilgach, Numansiya shahri rimliklarga qarshi kurashning markaziga aylangan. Bu shahar Duro daryosining boshidagi tog'lik yerda joylashgan edi. Numansiyaliklar bir necha yil mobaynida rimliklarga qarshi mardonavor kurash olib borganlar.

Er. av. 133-yilda Ispaniyaga Rimning mashhur sarkardasi Publiy Korneliy Stsipion yuborilgan. Rim sarkardasi shaharni qamal qilib, tashqi aloqalardan mahrum etgan. Shaharliklarni holdan toydirib rim askarlari shaharga bostirib kirganlar va uni ishg'ol qilganlar. Rimliklar avval shaharni talaganlar, so'ng vayron qilib o't qo'yganlar. Numansiyaga qarashli yerlarni rimliklarga bo'lib berganlar. Aholining katta qismi qul qilib sotib yuborilgan. Shunday qilib, Rim qo'shinlari Ispaniyani ham bosib olib, Rim davlatining chegaralarini Atlantikaning sharqiy sohillarigacha kengaytirganlar. Shu davrda Rim Yevropadagi va jahondagi eng yirik va kuchli quldorlik davlatiga aylangan edi. Eramizdan avvalgi 133 va 123-121 yillarda ikki tribun aka uka Tiberiy va Gay Grakslar oddiy dehqonlarga yer berish uchun kurashib, reforma taklif etishdi. Biroq senatni qarshiligi sabab ikki islohotchi ham o'ldirildi. Islohot amalga oshmadi. Natijada butun Rim Respublikasi hududlarida qo'zg'olonlar avj olib ketdi<sup>78</sup>.

Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni Eramizdan avvalgi 74-yili butun Italiyada ekin bitmay ocharchilik bo'ladi. Bu esa quldor Rim hukumatining jabrzulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tarilishiga shart-sharoitlarni hozirlagan edi. Qadim zamonning eng katta qullar qo'zg'oloni boshlanib ketishiga Kapuya shahridagi gladiatorlar maktabidagi isyon (eramizdan avvalgi 74- yil) turtki bo'ladi. Eramizdan avvalgi I asr boshlaridan e'tiboran Rimda «o'yinlar» deb

---

<sup>78</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.264.

atalgan qonli tomosha - yirtqich hayvonlarni urishtirish va gladiatorlarning qilichbozligi juda keng tarqalgan edi. Bu vahshiyona ermaklar qadimgi zodagonlar jasadini ko'mganda kishilarni qurbon qilish odatlaridan kelib chiqqan. Ular Etruriyada o'limga maxkum qilingan jinoyatchilarning dafn marosimi paytidagi jangi sifatida vujudga kelgan.

Eramizdan avvalgi II asr oxiri va I asr boshlarida tsirk va amfiteatrlarda o'lim jangi jamoat tomoshalarining bir turi bo'lib qolgan. Jangchilar jinoyatchi va sotib olingan qullardan to'plangan. Ular «gladitorlar» («qilichbozlar») deb nom olgan. Bu nom latincha «gladius» («qilich») so'zidan olingan. Gladiatorlarga ehtiyoj shu qadar zo'r bo'lgangi, uddaburon korchalon lanistlar (go'sht bilan savdo qiluvchilar) maxsus maktablar ochganlar, ularda gladiatorlar maxsus tayyorgarlikdan o'tkazilib, so'ngra ular «o'yin» tashkilotchilariga sotilar edi.

Lentul Batiat degan kishiga ana shunday maktablardan biri Kapuya shahrida bo'lgan. Bu maktabda boshqalar qatori frakiyalik Spartak degan kishi ham bo'lgan. Rimning yordamchi otryadida xizmat qilgan bu kishi dushman tomoniga o'tgan, yarador bo'lib asir tushgan va qochoq sifatida gladiatorlar maktabiga sotilgan.

Spartakni ta'riflab Plutarx bunday deb yozgan edi: «...Spartak... o'zining ajoyib mardligi va jismoniy kuchi bilangina emas, balki aql-farosati, dilkashligi va xushfelligi bilan ham o'z mavzqei va taqdiridan baland turgan; u o'z qabilasining kishisi bo'lishdan ko'ra chinakam ellin bo'lgandir...»

Tarixchi Appian hikoya qilib berganidek, «Spartak o'zining yetmishga yaqin do'stlarini ozodlikka chiqish uchun tavakkal qilishga ko'ndirgan. Spartak ularga teatrdan o'z hayotlarini xavf ostiga qo'ygandan ko'ra, ana shu yo'l ma'qul ekanini uqtirgan».

Six va oshpichoklar bilan qurollangan Spartak hamda uning sheriklari qorovulga hujum qilib, shaharga chiqqanlar va Vezuviy tog'iga jo'naganlar. Ular shu joyda mustahkamlanib olib atrofdagi yaqin villalarni qiyratib, qullarni ozod qilganlar. Mahalliy hokimiyat tomonidan yuborilgan otryadlar tor-mor etilgan. Shundan keyin Rimdan 3 ming kishi bilan propretor Gay Klodiy yuborilgan. Rimliklar togdan tushadigan yo'lni to'sib qo'yganlar, ammo qo'zg'olonchilar uzum novdalaridan narvon yasab, qoyalardan pastga tushganlar va Rim lageriga orqa-dan hujum qilganlar. Klodiy otryadi yakson qilingan. Rim jangchilarining qurollari qo'zg'olonchilar qo'lga tushgan. Bu jangdan keyin qo'zg'olonchilarning qo'shini tez o'sa boshlagan va bir necha ming kishidan iborat armiyaga aylangan.

Qullar qo'zg'oloni janubiy Italiyaning yangidan-yangi rayonlariga yoyilavergach, senat qo'zg'olonni bostirish uchun ikki legiondan iborat armiya yuborgan. Spartak rimliklarning bu qo'shinini xam tor-mor etgan. Qo'zg'olon yanada kengayavergan. Rimliklar armiyasi namunasida tuzilgan Spartak qo'shinlari Lukaniya va Apuliyadagi bir qancha qishloq va shaharlarni ishg'ol qilganlar.

Qo'zg'olonchilar armiyasi 70 ming kishiga yetgan. Sullachilar jabr-zulmi ostida qolgan mayda italiy dexqonlari qo'zg'olonchilarga qo'shilgan: Ammo

harbiy muvaffaqiyatlarga va qo'zg'olonchilar armiyasiniig soni o'sib borishiga qaramay, Spartak g'oyat kuchli O'rta dengiz davlati bo'lgan Rim respublikasiga qarshi bundam keyingi kurashda u va sheriklari muqarrar mag'lubiyatga va halokatga uchrashini tushungan. Shuning uchun xam u sobiq qullar o'z vatanlariga qaytib bora olishlari uchun armiyasini Apennin yarim oroli doirasidan olib chiqishga urungan.

Qo'zg'alon ko'targanlar orasida ixtilof paydo bo'ldi. Qullarning bir qismi Rimni tark etib, o'z yurtlariga qaytishni afzal bildilar. Ko'pgina qullar esa mamlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishga va quldorlardan qasos olishga ahd qilishdi.

Spartakka qarshi tajribali sarkarda Mark Krass boshchiligida ko'p ming sonli qo'shin jo'natildi. Miloddan avvalgi 71- yilning bahorida ro'y bergan hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tor-mor etildi, uning o'zi esa ana shu jangda halok bo'ldi. 6 mingdan ziyod asirlar Rim-Kapuya oralig'idagi yo'l bo'ylaridagi xochlarga mixlab tashlandi. Qo'zg'alon ko'targanlarning alohida to'dalari esa tag'in 10 yil kurashni davom ettirdilar.

Qullarning Spartak boshchiligidagi ulug' italiy qo'zg'aloni italiy ijtimoiy munosabatlarini va Rim quldorlik respublikasi davlat hokimiyatining butun tizimini larzaga soldi. Qo'zg'alondan ko'p yillar keyin ham rimliklar Spartakni vahima bilan esga olganlar, ba'zi Rim va yunon tarixchilari esa uni qullar qo'zg'aloning yo'l boshchisi, jasur lashkarboshi sifatida halok bo'ldi, deb tilga oladilar.

**Tayanch tushunchalar:** Punilar, Karfagen, Sirakuza, Gieron, Messana, Mila burni, Egata oroli, Barka va barkidlar siyosati, Gannibal, Sagnut shahri, Kanna jangi, Zama jangi, Makedoniyani istilo qilish, Yunoniston, Suriyani olinishi, Mark Katon, uchinchi Puni urushi, Iberiya, Mark Krass, Spartak.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Rim qo'shinlaridagi harbiy tartib va majburiyatlarni izohlab bering.
2. Birinchi Puni urushi natijalarini izohlang.
3. Ispaniya yerlarining istilo qilinishidagi qiyinchiliklar nimalarda ko'rindi? 4. Uchinchi Puni urushining yakunlari haqida ma'lumot bering.

### **Ma`ruza № 40**

#### **Mavzu:Rim respublika tuzumining inqirozi**

#### **Reja:**

1. Rimda harbiylar hokimiyatining kuchayishi.
2. Sezar vafotidan so'ng Rimdagi ahvol.
3. Uchlar ittifoqining tashkil topishi.
4. Oktavian va Antoniy o'rtasidagi kurash.

Istiloqchilik urushlari natijasida Rim respublikasining yerlari kengayib, qullar soni oshib bormoqda edi. TSezar o'z qo'shinlarini Bolqonga olib o'tib, Pompey qo'shinlarini tor-mor keltiradi. Pompey qo'shinining qolgan qismi taslim bo'ladi. Pompey boshpana izlab Misrga qochib boradi va Misr malikasi Kleopatra tomonidan o'ldiriladi. TSezar Misr malikasi Kleopatraga hayrixohlik bildirib, Kichik Osiyo va Shimoliy Afrikada va Ispaniyada uch yil g'olibona urushlar olib boradi. TSezar tarafdorlari bilan Pompey tarafdorlari o'rtasida bo'lgan urushlar Rim fuqarolari o'rtasidagi urushlar edi. Bu urush tarixda Rimdagi fuqaro urushlari nomi bilan atalgan.

Yuliy Sezar mil. avv. 50-yildagi buyuk general. G'ayritabiiy qobiliyatga ega inson, o'z davrining eng buyuk oratori va qat'iy ishonch muallifi bo'lgan Sezar (mil. avv. 100-44) boshqa ishga diqqatini qaratib, taxminan yetita xatni aytib turib yozdira olgan. U ko'p odamlarni o'ldirgan va nechta odamni o'ldirganini sonini bilgan: u o'zining urushlari davomida 1192000 nafar dushmanini o'ldirganini bilgan. Bu raqamlarga o'zining fuqarolari kirmagan, u fuqarolik urushlarida o'lganlarni sonini bilishni xohlamagan yoki umumiy natijaga kiritmagan. Sakkiz yil davom etgan Galliya (zamonaviy Fransiya va Reyn vodiysi) urushlari eng qirg'inbarot yurishlaridan biri bo'lgan. Sezarning shaxsiy baholashicha, galliya urushlarida uning armiyasi 1 mlndan ko'proq odam o'ldirgan va yana mln kishini qul qilgan. G'arb dunyosida jahon miqyosida bunchalik katta urushga guvoh bo'lmagan; Xitoydan tashqari unga hech kim tenglasha olmagan<sup>79</sup>.

**Rimda harbiylar hokimiyatining kuchayishi.** Istiloqchilik urushlari natijasida Rim respublikasining yerlari kengayib, qullar soni oshib bormoqda edi. TSezar o'z qo'shinlarini Bolqonga olib o'tib, Pompey qo'shinlarini tor-mor keltiradi. Pompey qo'shinining qolgan qismi taslim bo'ladi. Pompey boshpana izlab Misrga qochib boradi va Misr malikasi Kleopatra tomonidan o'ldiriladi. TSezar Misr malikasi Kleopatraga hayrixohlik bildirib, Kichik Osiyo va Shimoliy Afrikada va Ispaniyada uch yil g'olibona urushlar olib boradi. TSezar tarafdorlari bilan Pompey tarafdorlari o'rtasida bo'lgan urushlar Rim fuqarolari o'rtasidagi urushlar edi. Bu urush tarixda Rimdagi fuqaro urushlari nomi bilan atalgan.

**Yuliy Tsezar – Rim saltanati hukmdori.** Tsezar viloyatlardagi zafarli yurishlardan qaytib kelgach, o'ziga sodiq qo'shinga tayanib cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib qoldi. Senat va konsullar uning buyruqlarini so'zsiz bajarishga majbur bo'ldilar. Tsezar Rimda birinchi bo'lib imperator – hukmdor degan nom olishga muvassar bo'ldi. U imperator nomini olgach, rasmi tushirilgan oltin pullar zarb etildi, haykallari ishlanib, uni xudolar haykali yoniga qo'yishadigan bo'ldilar. U senat majlislarida fil suyagi va oltindan yasalgan taxtda o'tirar edi. U o'z askarlariga va tarafdorlariga saxiylik bilan pul va ermulklar in'om qiladi. Ammo kambag'allarga e'tiborsiz qarab, ularga non va don ulashishni kamaytiradi. U o'z davrining mohir lashkarboshisi va tadbirkor davlat arbobi bo'lgan. U saltanatda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiqni rivojlanishiga katta e'tibor berib, saltanatni mustahkamlash uchun harakat qilgan.

---

<sup>79</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W. W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p. 265.

U har qancha mashhur bo'lmasin, uning dushmanlari ham ko'p edi. Rim aslzodalari va senatorlarning bir qismi uning yakka hokimligidan norozi bo'lib, respublika tarafdori edilar. Shuning uchun ular Tsezarni o'ldirish uchun bir necha suiqasd uyushtirdilar. Er. av. 44 yilda Tsezar Sharq yurishi oldidan Yupiter bayrami kuni senat majlisiga boradi. Kassiy va Brut boshliq fitnachilar Tsezarni o'rab olib, kiyimlari ostiga yashirgan hanjar bilan 23 joyidan chavaqlab o'ldiradilar. Fitnachilar Rim qafasi Kapitoliyga borib yashirinadilar. Shunday qilib, Tsezar va tarafdorlarining yakka hokimiyat o'rnatish uchun harakatlari qarshilikka uchraydi.

**Tsezar vafotidan so'ng Rimdagi ahvol.** Tsezar o'ldirilgach, uning dushmanlari Rimda va viloyatlarda respublikani qayta tiklash uchun kurash boshlaganlar. Ammo Rim aholisining ko'pchiligi respublika tarafdorlarini qo'llab-quvvatlamaganlar. Fitnachilar sharq tomon qochib Makedoniyada kuch to'play boshlaganlar. Ammo Rimda Tsezarning yordamchisi Antoniy, imperatorning qarindoshi va merosxo'ri Oktavian respublikachilarga qarshi chiqib, ulardan bir necha ming kishini qirib tashlaganlar. Er. av. 40–30-yillarda imperator tarafdorlari bilan respublika tarafdorlari o'rtasida qattiq kurash davom etadi. Bu mamlakatda navbatdagi fuqarolar urushining avj olishiga sabab bo'ladi.

Antoniy baland bo'yli, baquvvat, tajribali lashkarboshi va jangchi edi. Oktavian kasalmand va nimjonroq odam bo'lib, unda tajriba ham, lashkarboshilik qobiliyati ham yo'q edi. Ammo u juda aqlli, ehtiyotkor va iste'dodli yordamchilarni tanlay bilar edi.

Dastlab, Antoniy Oktavian bilan chiqisha olmay Galliyaga ketadi. Oktavian esa qo'shin to'plab Galliyaga bostirib kirib, Mutina yaqinidagi jangda Antoniy qo'shinlarini tor-mor etadi. Shu davrda Tsezarning qotillari Brut va Kassiy sharq tomondan Rimga xavf solmoqda edilar. Respublikachilarga qarshi kurash zaruriyati Oktavianni Antoniy bilan yarashishga chorlaydi.

**Uchlar ittifoqining tashkil topishi.** Er. av. 43-yilda Oktavian, Antoniy va Lepidlardan iborat uchlar ittifoqi tashkil topadi. Er. av. 42-yili Oktavian va Antoniy qo'shinlari Makedoniyaga yo'l oladilar. Makedoniyadagi Filippa shahri yaqinida Oktavian-Antoniy qo'shinlari bilan Kassiy-Brut qo'shinlari o'rtasida qattiq jang bo'ladi. Jangda respublikachilar qo'shini tor-mor etiladi. Jang vaqtida Kassiy o'z chodirida o'ldiriladi, Brut esa dushmanlariga asir tushishni xohlamay o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'ladi. Shu jangdan so'ng Rim uch sarkarda o'rtasida taqsimlanadi. O'rtayer dengizining sharqidagi o'lkalar Antoniyga, Galliya, Illiriya va Ispaniya Oktavianga, Shimoliy Afrika esa Lepid hukmronligiga topshiriladi. Italiya uchlik ittifoqi boshqaruvida bo'lsa ham, u yerda Oktavian hukmronlik qiladi.

**Oktavian va Antoniy o'rtasidagi kurash.** Uchlar ittifoqi o'rtasidagi birlik mustahkam bo'lmagan va uzoqqa cho'zilmagan. Antoniy Sharqdagi o'z mulkiga kelgach, katta davlat tuzishni ko'zda tutib Parfiya va Midiya ustiga yurish qilgan. Ammo u jiddiy g'alabaga erisha olmagan. U Misr malikasi Kleopatra bilan ittifoq tuzib, Rimga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rgan, hatto malikaga uylangan.

Uning asosiy maqsadi butun Rimni qo‘lga kiritish edi. Antoniyning bu harakatlari Oktavianga yoqmagani va unga qarshi urush e‘lon qilgan.

Er. av. 31-yilda Yunonistonning g‘arbidagi Aksiy burni yaqinidagi joyda Oktavian va Antoniy qo‘shinlari o‘rtasida hal qiluvchi dengiz jangi bo‘lgan. Jangda Oktavian floti porloq g‘alabaga erishgan. Mag‘lubiyatga uchragan Antoniy Iskandariyaga qaytgan. Oktavian qo‘shinlari Suriya va Palastinni ishg‘ol qilib, Misrga bostirib kirgan. Shu vaqtda Antoniyga Kleopatra o‘zini o‘zi o‘ldirdi degan xabar kelgan. Bu xabarni eshitgan Antoniy o‘zini qilich tig‘iga tashlab jarohatlanib o‘lgan. Aslida malika o‘lmagan edi. Rim qo‘shinlari Misrni ishg‘ol qila boshlaydilar. Malika rimliklarga asir tushib, zanjirband holda Rimga borishdan o‘limni afzal ko‘rib, o‘zini-o‘zi o‘ldirgan. Misr rimlik qo‘shinlar tomonidan bosib olinib, Rimga itoat ettirilgan. Shu bilan Rimdagi fuqarolar urushi tugab, Oktavianning tanho hukmronligi boshlangan.

**Tayanch tushunchalar:** Spartak qo‘zg‘oloni, Gney Pompey, Sezar Krass, uchlar ittifoqi, Sezar diktaturasi, fuqarolar urushi, Oktavian Avgust, ichki va tashqi siyosat.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Rim Respublikasi nima uchun inqirzga uchradi?
2. Pompey va uning bosqinchilik yurishlari?
3. Sezarning hokimiyatga chiqishi va uning kuchli tashqi siyosati?
4. Oktavian Avgust davrida Rimning ichki va tashqi siyosati?
5. Avgust davrida amalga oshirilgan ijtimoiy islohotlar va ularning natijasi?
6. Mark Antoniy va uning mag‘lubiyati sabalari

**Ma’ruza №41**

**Mavzu: Oktavian Avgust prinsipiati.**

**Реша:**

1. Printsipat tartibotini yuzaga kelishi. Oktavian Avgust boshqaruvi.
2. Avgustning ichki siyosati va tashqi siyosat.
3. Oktavian vafotidan so‘ng Rimdagi ahvol.
4. Rim taxti uchun kurash va fuqarolar urushi.

**Printsipat tartibotini yuzaga kelishi. Oktavian Avgust boshqaruvi.**

Oktavian Avgust (er.avv. 63- eramizning 14 yy) Sezarning asrandio‘g‘li bo‘lib, uning vafotidan so‘ng hokimyatni egallaydi<sup>80</sup>.

---

<sup>80</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.266.

Avgustning Antoniy va Kleopatraga qarshi olib borgan urushi er. av. 30-yili Misrni zabt etilishi bilan tugallangandan so'ng u butun Rim imperiyasining yagona hukmdori bo'lib qoladi. Keyingi yili u Rimga qaytib kelib g'oyatda dabdabali g'alaba tantanalarini o'tkazadi.

Avgust o'zining triumvir lavozimini tantanali ravishda bo'ynidan soqit qilib, senat va kamitsiyalardan umrbod imperator unvonini oladi. U tsenzor sifatida senatga tozalash o'tkazib, uning tarkibidan Mark Antoniyning do'stlari va boshqa o'ziga dushman deb bilgan kishilarni chiqarib yuboradi.

Er. av. 27- yil 13- yanvarda Oktavian senatning alohida kengashini chaqirib, unda mamlakatni qanday boshqarayotganligi to'g'risida hisobot beradi, fuqorolar urushi tugab, butun Rim xududida tinchlik-osoyishtalik o'rnatilganligi haqida axborot bergandan so'ng, sog'lig'i yomonlashganligi munosabati bilan senatdan o'z zimmasidagi lavozimlardan ozod etishni iltimos qiladi. Biroq senat Oktavianga hokimiyatdan ketmaslik buyurilsin deb qaror chiqaradi. Senat qarori bilan

Oktavian Avgust senatning printsepsi (Zomonavaiy "prints" so'zi ham shundan kelib chiqqan ), yagona prokonsul, legionlarning qo'mondoni deb e'lon qilinadi. Printsep so'zi – birinchi odam ma'nosini anglatadi<sup>81</sup>. Unga ilgarilari xudoga qilingan murojaatlarda tilga olingan Avgust taxallusi berildi.

Viloyat xokimlari-ilotlar va prokuratorlar butunlay imperatorga bo'ysunar va Avgustning farmoni bilan chaqirib olinishlari mumkin edi. U yagona prokonsul sifatida legionlarga qo'mondonlik qilish va viloyatlardan noiblarning ishiga rahbarlik qilish bilan birga, qo'shinlar saflarini to'ldirish uchun askar to'plash, chet davlatlar bilan muzokara olib borish, urush e'lon qilish va sulh tuzish xuquqiga ega edi.

Harbiy xarajatlarni ta'minlash uchun Avgust imperiya g'aznasi – fisk tuzish xuquqini oladi, bu g'azna oltin va kumush pullar zarb qilar, shaharning eski g'aznasi erariy esa faqat mis chaqalargina zarb qilishga haqli edi.

Shunday qilib, harbiy va fuqoro xokimiyatini eng muhim funktsiyalarini o'z qo'liga olgan, urush o'ljalaridan to'plagan va o'zi boshqarib turgan viloyatlardan keladigan daromadlardan yuzaga kelgan benihoya katta boyliklarni tasarruf etgan Avgust Rim davlatining to'la xokimiyatli hukmdori sifatida mamlakat ichki va tashqi siyosatini belgilab beradigan bo'ldi.

Lekin Avgust Sezarning fojiali qismatini yoddan chiqarishi mumkin emasdi. U tutingan otasidan farq qilib, davlatdagi o'zining yuqori mavqeini turli yo'llar bilan niqoblashga urinardi. U kamtarona kiyinar, xech qanday daraja belgilari taqmas, kamdan-kam nutq so'zlar, bu ishni u o'zining eng yaxshi do'stlariga topshirishni afzal ko'rardi.

Oktavian Avgust obro'-e'tiborining dastagi printseps qo'lidagi g'oyat katta moddiy boyliklar, shu bilan birga fuqoro urushidan so'ng o'zi tashkil qilgan ulkan armiya ustidan mutloq xokimiyatga ega ekanligida edi. Yaxshi uyushtirilgan texnikaviy jihatdan o'z zamonasining talablari darajasida qurollantirilgan

---

<sup>81</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.266.

legionlar guruh-guruh qilib harbiy va iqtisodiy jixatdan eng muhim viloyatlarga joylashtirilgan. Har bir legionda 10 tadan piyoda kogorta (birinchi kogorta 1000 kishidan, qolganlari esa 500 kishidan iborat bo'lgan), texnika kogortasi, har birida 300 ta alsuvoridan iborat otliq otryad va ittifoqchilar kogortasi deb atalgan yordamchi otryadlar, shuningdek jangchilari viloyatlarning aholisi orasidan olinadiganlar allar bo'lgan.

Har bir legion raqamlangan va nomlangan, masalan III-legion – Avgust nomidagi legion, IV-Makedonskiy, VI-Temir legion, XV- yashinday tez legion va xokozo. Legionlarning qo'mondonlari-ilotlar va katta qo'mondonlar-harbiy tribunlarni imperator tayinlardi. Legionlarning xizmat muddati 20 yil bo'lib, ular xizmat davomida yillik maoshlar, harbiy xizmatdan bo'shagandan so'ng ularga maxsus in'om (donativa) va chek yer bo'lib berilardi. Harbiy xizmatdan iste'foga chiqqan katta yoshdagi jangchilar veteran deb atalganlar. Mahalliy magistratlar ko'p hollarda ana shu veteranlardan saylanganlar.

Italiyada o'z hukmronligini saqlash va shaxsiy muhofaza uchun Oktavian 9 ta kogorta tashkil etadi. Pretoriylardan tarkib topgan bu kogortalarning har birida mingtadan (300 ta otliq va 700 ta piyoda) jangchi bo'lgan. Bu kogortalarning uchtasi Rim shahrini o'zida qolgan, oltitasi Shimoliy Italiya shaharlariga joylashtirilgan. Pretoriy jangchilarining maoshlari legionlarning maoshlaridan uch marta ko'p bo'lgan. Pretoriylar 16 yil xizmat qilganlar. Pretoriylar kogortasiga faqat Italiyada tug'ilib o'sgan kishilargina olinganlar.

Dengiz yo'llarini qaroqchilardan qo'riqlash uchun O'rta dengizda harbiy kemalarning ikkita doimiy eskadrasi tashkil qilingan. Bundan tashqari Galliya qirolligini qo'riqlab turgan flotiliya bilan birga Evksin Pontida ham yana bir flotiliya faoliyat ko'rsatgan.

Oktavian Avgust davrida Rim imperiyasidagi qurolli kuchlarning umumiy soni 300 ming kishiga etkaziladi. U tashkil qilgan doimiy Rim armiyasi qariyb to'rt yuz yil mavjud bo'ldi. Ta'kidlash joizki, bu tarixda birinchi muntazam armiya bo'lib, Rim hukmdorlari o'z ichki va tashqi siyosatlarida shu armiyaga tayanib ish ko'rgan edilar.

**Avgustning ichki siyosati.** Avgustning ichki siyosati qulchilik tuzumini mustahkamlashga qaratilganligi yaqqol ko'rinib turar edi. Er. av. 36 – yildayoq senat Pompeyning orol davlatini tor-mor qilgandan so'ng Avgust Sitsiliyada qo'lga tushgan qochoq qullarni jazolash uchun o'z egalariga qaytarishni buyuradi. Keyinroq u senatdan qulni sotib olgandan so'ng 20 yil o'tmay turib ozod etishni taqiqlovchi qonun chiqartiradi. Agar qulni ozod qilgudek bo'lsa, qul egasi uning bahosini 5 foizi miqdorida soliq to'lashi shart edi.

Avgust taklifiga binoan senat er. av. 10- yilda go'yo unutilib ketgan qonunni tiklash bahonasi bilan shunday qaror chiqarganki, bu qarorga muvofiq qul o'z egasini o'ldirgan taqdirda, voqea sodir bo'lgan paytda uyda bo'lgan barcha qullar va ozod qilingan sobiq qullarning hammasi qatl etilishi kerak edi.

Fuqorolar urushi tugagandan so'ng Avgust Rim senati aristokratlarining imtiyozli xolatini turli yo'llar bilan ta'kidlab, qadimgi patritsiylar xonadonlariga har jihatdan homiylik qiladi.

Suvoriylar toifasini Avgust o'z hokimiyatining tayanchi deb hisoblaydi. U suvoriylar uchun 400 ming sestretsiy miqdorida mulkiy tsenz belgilaydi. Rimda har yili suvoriylarning ko'rigi o'tkazilib turilgan. Oktavian Avgustning eng yaxshi qarindoshlari suvoriylarga bir necha marta boshliq qilib tayinlangan edi. Avgust ko'pincha harbiy qo'mondonlik va viloyat prokuratorligi lavozimlariga suvoriylardan tayinlardi. Bu vaqtda viloyatlarda soliq to'plash ishi avvalgidek suvoriylar qo'lida bo'lib, ularning saflari asta-sekin harbiy faxriylar bilan to'lib boraveradi, oqibatda ular Rim imperiyasining harbiylar tabaqasiga aylanib ketadi.

Avgust bepul g'alla tarqatish, sovg'alar ulashish, tsirklarda gladiatorlarning ko'plab o'yinlarini (hatto bir marta esa Rimga yaqin yo'llardan birida dengiz urushi mashqi - noumaxiya) o'tkazish vositasida Rim plebsining ko'nglini ovlash bilan birga, Rim fuqarolarining eng kambag'al tabaqasi kayfiyatini diqqat bilan kuzatib borgan. U Rimda tinchlik, osoyishtalik va jamoat tartibini saqlash uchun uchta soqchilar kogortasini tuzadi, bu qismlar ayni vaqtda yong'in o'chirish ishlarini ham amalga oshirar edi. Bundan tashqari alohida tungi soqchilar otryadlari ham faoliyat ko'rsatgan.

Shahar magistratlarini saylash vaqtida majlisga nomzodlarni Avgustning o'zi tavsiya qilar edi. Ba'zi Rim tarixchilari Avgust viloyatlarda tug'ilgan kishilarga Rim fuqorolik huquqlarini berishda qizg'anchilik qilishgan desalarda, yozuvchilardan ma'lumki, viloyatlardagi ko'pgina zodagonlarga, ayniqsa ellinlashgan aristokrat quldorlar nomoyondalariga bunday huquqlar berilgan.

Avgust italiya shaharlarining aholisiga ayniqsa ko'p xomiylik qiladi. Bu davrda butun Apenin yarim oroli Alp tog'larigacha Italiya deb atala boshlandi. Italiya shaharlaridagi aholining hukmron tabaqalariga Rim fuqorolik huquqlari beriladi. Ularning ba'zi nomoyondalari suvoriylar toifasiga va hatto senat toifasiga kiritiladilar.

Avgust davrida katta qurilish ishlari amalga oshiriladi. Rimda 82 ta ibodatxona tiklanadi va yangidan quriladi. Forum yonida maxsus me'morchilik majmuasi Avgust forumi, Avgustning jiyani Marsel nomiga qo'yilgan muhtasham teatr binosi, barcha hudolarga atab ibodatxona – Pantion, g'oyatda go'zal, "jahon qurbongohi" va boshqa me'morchilik obidalari bunyod qilinadi. Rimning Palatin tepaligida Avgust xashamatli bir uy qurdiradi, u shaharning siyosiy va madaniy hayot markaziga aylanadi.

Bir necha yuz ming aholi istiqomat qiladigan Rim shahrining suv va oziqovqat bilan ta'minoti Avgust davrida jiddiy yaxshilanadi. Rimning g'alla ta'minoti bilan annona prefekti, suv ta'minoti bilan esa suvlar prefekti shug'ullanar edi. Shaharning butun idora ishlarini yo'lga qo'yish uchun shahar prefekti tayinlanadi. Tarixchi Tatsitning yozishicha, uning eng muhim vazifasi

“qullar va fitnachi fuqorolar”ning adabini berish va ularni jazolashdan iborat bo‘lgan.

Biroq Avgust o‘z xokimiyatini faqat zo‘rovonlik yo‘li bilan saqlab qolishga intilmaydi. Uning atrofidagi shaxslar o‘z uylariga Rimdagi shoirlarni to‘plab, ularga moddiy yordam ko‘rsatganlar va xomiylik qilganlar, ular Avgustni, uning ishlarini maqtab asarlar yozishga shoirlarni majbur etganlar.

Avgust qadimgi diniy e’tiqodlar va axloqni tiklash yo‘li bilan taasublik kayfiyatini mustahkamlashga intiladi. Emiliy Lepidning o‘limidan so‘ng oliy kohin (ulug‘ pontifik) bo‘lib olgach, Avgust ko‘plab ibodatxonalarni va qadimgi bayramlarni tiklaydi. Bu bayramlarda uning o‘zi oilasi, yaqin kishilari va juda ko‘p Rim fuqorolari qatnashganlar. Er. av. 17- yilda yuz yillik o‘yinlar (sekulyar) ayniqsa juda dabdabali o‘tkaziladi. Tungi namoyish va tunda qurbon berish bilan tugallangan bu bayram rimliklarga yangi asr boshlanganligini bildirishi lozim edi.

Rimda ilohiy Yuliy kulti o‘rnatiladi, ko‘plab viloyatlarda Avgustning donoligi madh etiladi, unga ibodat qilish uchun maxsus kohinlar kollegiyasi tashkil qilinib, ibodatxonalar, qurbongohlar quriladi.

Avgust jamiyatda barkarorlik bo‘lishida axloq va odobni o‘rni beqiyos bo‘lishini yaxshi anglagan edi. Avvalo u shoirlar (xususan Goratsiy) yordamida nikohsizlikka qarshi kompaniya tashkil qilgan va keyinroq uch va undan ortiq farzandi bo‘lgan fuqorolarga bir qator imtiyozlar berish yuzasidan qarorlar chiqartirgan va oilani mustahkamlashga qaratilgan qat’iy, huquqiy meyorlarni senat tomonidan o‘rnatilishiga erishgan edi.

**Tashqi siyosat.** Tashqi siyosatda nixoyatda ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rish Avgust siyosatining xarakterli jihatlaridan biri bo‘lib, albatta bu siyosat Rimga tobe xududlarni kengaytirish va ko‘plab asirlarni qo‘lga kiritish yo‘li bilan qullar sonini to‘ldirib turish maqsadini ko‘zlar edi.

Er. av. 30-yillardayoq Illiriya va Pannoniyada Avgust o‘z bosqinchilik urushlarini boshlagan edi. Rimliklar illiriy va pannon qabilalarining tarqoq bo‘lsa-da, qahramonona qarshiliklarini engib, Adriatika dengizining shimoli – sharqiy qirg‘oqlaridan asta-sekin siljib borganlar. Mark Antoniyya qarshi urush tufayli bu siljish to‘xtab qolgan edi, ammo urush tugashi bilan rimliklar avvalgi yurishlarini yana davom ettiradilar. Ular er. av. 12- yilga kelib, Dunay daryosining boshlanishidan to Qora dengizga quyiladigan etagigacha bo‘lgan xududda xukmronlikni qo‘lga kiritdilar.

Rimliklarning istilochilik yurishlari Pireneya yarim orolining shimoli–g‘arbiy yo‘nalishida ham olib borildi. Rimliklarning katta qo‘shini iber qabilalari, kantabr va asturlar yashaydigan xududga bostirib kiradilar. Avgust o‘zi boshchilik qilgan armiya Pireneya tog‘liklari qattiq qarshiligini yengib er. av. 25- yil oxiriga kelib, mamlakatni ishg‘ol qiladi. Qullik asoratiga solingan minglarcha kantabr va asturlar rimliklar bunyod etgan konlarda metal ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Biroq bir necha yildan so‘ng erksevar kantabr va asturlar rimliklar zulmiga qarshi mustaqillik uchun ozodlik qo‘zg‘olonini ko‘taradilar. Rimliklar bu safar

ularga ham dengizdan, ham quruqlikdan hujum qilib, nixoyat er. av. 19-yili qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ladilar. Rimliklar ayni paytda Galliyaning fuqorolar urushi davrida Sezarning o'limidan so'ng Rim xukmronligidan ozod bo'lib olgan janubi –g'arbiy qismini qayta bo'ysundirdilar. Shundan bir necha yil keyin Rim qo'shinlari Alpning tog'lik viloyatlarini istilo qilib, axolisini qul qilib sotib yubordilar.

Er. av. 16-yilda german qabilalarining drujinalari Reyn daryosining so'l qirg'og'iga chiqib olib, Rim lashkarboshisi Loliyni mag'lubiyatga uchratgandan so'ng Rimliklar buning qasdiga german qabilalari yashagan xududning ichkarisiga bir necha marta bosqinchilik yurishlarini uyushtiradilar va bu yerda yashaydigan german qabilalarini bo'ysundiradilar. Lekin pirovardida rimliklar bu rayonlarda mustahkam o'rnanib qola olmadilar.

Imperiya sharqida – Armaniston va Parfiyada jiddiy muammolar kelib chiqadi: armanlar Rimliklar tayinlagan xukmdorni xaydab yuboradilar, Parfiyada o'zaro siyosiy nizolar boshlanib ketadi. Er. av. 4- yili Yaxudiyada ozodlik qo'zg'oaloni ko'tariladi. Suriyaning noibi Kvintiliy Var bu qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirsa-da, siyosiy muammolar murakkablashib borayotgan edi.

German yo'lboshchilaridan biri Marobod rahbarligida Dunaydan shimolda german qabilalari ittifoqining yuzaga kelishi rimliklarni katta xavotirga soladi. Er. av. 6-yilda Avgustning asrandi o'g'li Tiberiyning Marobodga qarshi urush qilishi uchun pannon va illiriy qabilalari orasidan qo'shin to'plashi butun Illiriya va Pannoniyada katta qo'zg'olonni keltirib chiqaradi. Xatto qo'zg'olonchilar rimliklarning ba'zi otryadlarini tor-mor qiladilar. Rimliklar qo'zg'olonni uch yil davomida katta kuchlar yordamidagina, keyinroq shafqatsizlik bilan bostirishga muvaffaq bo'ldilar.

Er. av. 9-yili Rimda illiriy – pannon qo'zg'olonini bostirish munosabati bilan tantanalar o'tkazishganida shaharga mudxish xabar etib keladi. Germaniyada Rim qo'shinlarini kuchsizlanib qolganidan foydalanib germanlar oqsoqol Arminiy boshchiligida qo'zg'olon ko'tarib, Rim noibi Kvintiliy Varning uch legiondan iborat qo'shinni qirib tashlagan edi.

Kvintiliy Varning o'ldirilishi, legionlarning halokati to'g'risidagi xabar rimliklarni sarosimaga soldi. Ular germanlarning Galliyaga bostirib kirishi va qullarni qo'zg'oalon ko'tarishidan vahimaga tushadilar. Lekin german drujinalari bosqinchilarni xaydab yuborib, o'z yurtlariga qaytib ketadilar. Galliya vahimasi bosilgan bo'lsa-da, endilikda ilgari Avgust xukmronligidan og'irsini, senat respublikasining tiklashni niyat qilib yurgan Rim zodagonlarining noroziligi qaytadan kuchayib ketadi.

Imperiya germanlar zarbasidan asta-sekin o'ziga kelsa-da, endi keng ko'lamda istilochilik siyosati yurgizish to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas edi.

Oktavian Avgust hayotining so'ngi yillari notinch va muvaffaqiyatsiz kechadi. Shaxsan uning o'z oilasida ham chinakam fojia hukm surardi. Avval

sevimli o'gay o'g'li Druz vafot etadi, keyinchalik keksayib qolgan printseps o'ziga voris qilmoqchi bo'lgan ikki nevarasidan ham judo bo'ladi. Avgustning imperiyaga 44 yil davom etgan hukmronligining xotimasi shunday kechgan edi. Eramizning 14 yili keksa printseps Rimga yaqin kichkina Nole shahrida vafot etadi.

Avgust vafotidan so'ng yuzaga kelgan vaziyat shu qadar hafli ediki, printsepsning xotini Liviya Druzilla erining o'limini voris bo'lib qolgan o'gay o'g'li Tiberiyni Italiya shimolidan qaytib kelgunicha atrofdagilardan birmuncha muddat yashirishga majbur bo'ladi.

**Oktavian vafotidan so'ng Rimdagi ahvol.** Imperator vafotidan so'ng mamlakatda og'ir vaziyat boshlanadi. Viloyat, itoat ettirilgan o'lkalarda qo'zg'olonlar va ozodlik harakatlari kuchayadi. Saltanatda esa imperatorlikka da'vogar kishilar ko'payib, ular o'rtasida toju-taxt uchun qonli janglar boshlanadi.

Oktavian vafotidan so'ng taxtga o'tirgan uning o'gay o'g'li Tiberiy saltanatni mustahkamlash uchun bir qator choralar ko'radi. Aholi jon boshiga solinadigan soliqlarni oshiradi. Bunga javoban Shimoliy Afrika, Galliya, Frakiya va Italiyaning ko'p joylarida qo'zg'olonlar bo'lib, ular shafqatsizlik bilan bostiriladi.

Tiberiydan so'ng taxtga o'tirgan Gay Sezar-Kaliguli 37–41-yillarda imperatorlik qilgan. U o'z inxudogatenglashtirgan. O'z inxudog'likni ma'krayib, darboz hisoblagan. Hatto yonida istiqbolda o'ldirilishi lozim bo'lgan odamlarni nomlari yozilgan daftarchasi bo'lgan. Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki nisbatan barqarorlik yillarida (er. avv. 25 yildan to eramizning 235 yiligacha bo'lgan davr) hukmronlik qilgan yigirma ikki imperatordan 15 tasi o'ldirilgan yoki o'zini o'ldirgan<sup>82</sup>.

Sezar-Kaliguli o'z boshimchalik bilan ish yuritib senat a'zolari, harbiylar va aslzodalar orasida norozilik keltirib chiqargan. U 41- yili fitnachilar tomonidan o'ldirilgan. Bu davrda senatning faoliyati kuchayib mamlakatni respublika deb e'lon qilganlar. Ammo bir guruh harbiylar Klavdiyni taxtga o'tqizganlar. U o'ziga qarshi suiqasd uyushtirgan fitnachilarni fosh etib, ularning ba'zilarini qatl ettirgan, ba'zilarini o'zga yurtlarga surgun qilgan. U aholi keng qatlamini o'ziga qaratish uchun, kambag'allarga non, don ulashgan va idoralarning ishini birmuncha yaxshilagan. Klavdiy davrida Bosfor, Britaniya, Frakiya, Dunay bo'ylari, shimoliy Afrikadagi Mavritaniya Rimga itoat ettirilgan. U Parfiya bilan muvaffaqiyatsiz urushlar olib borgan. Ammo u ikkinchi xotini tomonidan zaharlab o'ldirilgan. 54- yili Klavdiyning o'gay o'g'li Neron imperator deb e'lon qilingan. U ham yengil-yelpi hayot kechirib, boylar va aslzodalar bilan kelisha olmay ozod qilingan qulining chorbog'ida o'zini o'zi o'ldirgan,

**Rim taxti uchun kurash va fuqarolar urushi.** Neron 68-yilda o'lgach, mamlakatda toj-taxt uchun kurash avjiga chiqqan. Bu kurashda quldorlar, aslzodalar va lashkarboshilar faol ishtirok etib, ular o'z nomzodlarini imperator

---

<sup>82</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.266.

deb e'lon qilganlar. Mamlakat fuqarolar urushi girdobiga tortilgan. 69 -yilda sharqiy viloyatlarning aslzodalari Flaviy Vespasianni imperator etib saylaganlar. U senatga tayanib, saltanatni biroz mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan. Vespasian Parfiya bilan munosabatni yaxshilagan. Vespasian vafot etgach o'g'li Tit Flaviy imperator deb e'lon qilingan. U 79- yilda taxtga o'tirib uni 81- yilgacha boshqargan va otasining ishini davom ettirgan

Imperator Vespasian va Tituslar milodiy 80-yilda Rimda Flavian amfiteatrini qurib tamomladilar. Bugun biz bu ulkan inshootni Kolizey nomi bilan bilamiz. Imperator Neronning haykali joylashgandan so'ng inshoot shunday nomlana boshlangan.<sup>83</sup>

79- yili Italiyada tabiiy ofat yuz berib, Vezuviy vulqoni otilgan. Vulqondan chiqqan olov, kul, lavalalar Pompey, Gerkulanum va Staviy kabi shahar va ko'pgina qishloqlarni bosib ketgan. Vulqon otilishi natijasida juda ko'p odamlar o'lgan. Rimdagi kolizey ham aynan Vespasian va Tit Flaviylar davrida qurib bitkazilgan. U yerda ko'proq gladiatorlar janglari o'tkazilgan. Hatto flot qurilib, suv ustida ham janglar tashkil etilgan. Yunonlardan teatrni o'rgangan rimliklar o'z amfitetrlerini yaratganlar<sup>84</sup>.

1970-yilda Gerkulanumdan topilgan odam skeletlari yaxshi holatdaligi odamlarga ko'rsatilgan. Uning tishlari hozirgi odamlarning tishlariga qaraganda ancha yaxshiroq. Chunki bugungi kunda biz ular orasidagi farqni tushuntirib berishimiz mumkin<sup>85</sup>.

**Domitsian davrida Rim.** Tit Flaviy vafot etgach, Vespasianning ikkinchi o'g'li Domitsian imperator deb e'lon qilingan. U otasi va akasi izidan bormay, fitnachi ig'vogarlarini atrofiga to'plab, senat bilan hisoblashmay ish yuritgan. U hamfikrlariga sovg'a-salomlar ulashib xazinaga katta zarar keltirgan. U senatorlar mulkini musodara qilib, dehqonlarga ko'proq don ekishni buyurib, tokzorlarni kengaytirishni man etgan. Bu davrda Rim qo'shinlari Reyn, Dunay daryolarining yuqori qismini, Germaniyaning janubi-g'arbiy viloyatlarini bosib olganlar. U Quyi Dunay qabilalari bilan muvaffaqiyatsiz jang olib borgan. U Dakiya sardori Detsebal bilan sulh tuzib, ularga katta sovg'a-salomlar berishni va'da qilgan. U Britaniya va Sharqda ham muvaffaqiyatsiz urushlar olib borgan. Domitsianning bu ishlari oddiy fuqarolar, aslzodalar va quldorlar orasida norozilik keltirib chiqargan. 96 -yilda suiqasd uyushtirilib, Domitsian o'z saroyida fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

Bo'lajak Rim imperatorlari halokatli hayot kechirgan va bu davrda ular talabchan va iste'dodli bo'lishga harakat qilishgan. Rim tarixidagi eng barqaror davrda (birinchi imperator Avgustdan milodiy uchinchi asrgacha) hokimiyatda 22 imperator hukmronlik qilgan. Ular orasida o'n besh marta qotillik va o'z joniga qasd bilan nihoyasiga yetgan<sup>86</sup>.

---

<sup>83</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.269.

<sup>84</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.267.

<sup>85</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.267.

<sup>86</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.266.

**Tayanch tushunchalar:** Triumvir, printsipat, senat, komitsiya, tsenzor, prokonsul, avgust, legat, imperator, fisk, erariy, legion, kogorta, allar, donativa, veteran, magistrat, pretoriy, imperiya, muntazam armiya, fuqarolik xukuki, aristokrat, suveren, prokurator, panteon, jaxon qurbongohi, annona prefekti, ulug' pantifik, sekulyar, ilohiy yuliy kulti, respublika

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Oktavian Avgustning sog'lig'i yomonlashganligi munosabati bilan senatdan o'z zimmasidagi lavozimlardan ozod etish to'g'risidagi iltimosi nima uchun qondirilmadi?
2. Yuliy Sezarning fojiali qismati Avgust faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatgan deb o'ylaysiz?
3. Avgust obro' -e'tiborining asosiy dastaklari nimada va ular qanday yuzaga keltirilgan edi?
4. Avgust yaratgan harbiy tizimning mohiyati va ahamiyati nimada?
5. Oktavian davrida qulchilik munosabatlarini mustahkamlash uchun qanday chora tadbirlar amalga oshirilgan?
6. Avgust davrida qanday bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi?
7. Jamiyatda oilaning o'rni masalasida Avgustning qarashlari mohiyati nimada deb o'ylaysiz?
8. Oktavian Avgust tashqi siyosatining mohiyati va yo'nalishlari haqida fikr yuriting.
9. 9.Yuliy Klavdiylar sulolasi vakillari boshqaruvi haqida fikr yuriting.

**Ma`ruza №42**

**Mavzu: Eramizning I- II asrlarida Rim Reja:**

1. Rim tajovuzini so'nggi uchquni. Trayan printsipati.
2. Rim imperiyasining oltin davri (eramizning II asri).
3. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
4. Trayan boshqaruvi davrida Rim.
5. Hunarmandchilikning rivojlanishi

**Rim tajovuzini so'nggi uchquni. Trayan printsipati. (Milodning 98-117 yillari).** Domitsian o'ldirilgandan so'ng keksa senator M.Koktsey Nerva imperator deb e'lon qilinadi. Bu harbiylarning qattiq g'azabini qo'zg'atgan edi. Harbiylarning noroziligidan nafaqat yangi imperator, balki uning tarafdorlari bo'lgan senatorlar ham xavotirga tushganlari bois, Nerva o'z atrofida g'ilarning maslaxati bilan yuqori Germaniya legionlarini legati Mark Ul'niy Trayanni o'ziga o'g'il qilib oladi (eramizning 96-yili).

Trayan Pireney yarim orolida joylashgan Rim kalonniyasi bo'lgan Italikdan kelib chiqqan bo'lib, asli ispan millatiga mansubdir. U Rim taxtiga o'tirgan birinchi ajnabiy xisoblanadi.

Trayan ikki yil davomida (milodning 96-98 yillari) Nervaga xokimdosh bo'lib, u o'lgandan so'ng (milodning 98- yili) imperator taxtini egallaydi. Trayan senat bilan do'stona munosabatda bo'ladi. Endilikda senat eski Rim va italiya nobillari vakillaridan ko'ra viloyatlik zodagonlardan tashkil topgan edi. U senatorlarga erkin fikr aytish uchun imkoniyat yaratib bergan bo'lib, u Senatga viloyatlar noiblarini tayinlash, ularning faoliyatini nazorat qilish va ularni sud qilish huquqini beradi.

Imperiyaning Domitsian boshqaruvi davrida pasayib ketgan Rim armiyasining obro'sini tiklash va o'zidan oldingi xukmdorlar davrida kamayib ketgan qullar sonini ko'paytirishga intilib, Trayan o'z boshqaruvining dastlabki oylaridayoq urushlarga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi.

Uning istilochilik rejalarining dastlabki maqsadi quyi Dunayning shimoliy qirg'oqlariga joylashgan va Domitsianning rimliklarga qaram qilish yo'lidagi urushlarni qaytarishga muvaffaq bo'lgan daklar podisholigini bo'ysundirishga qaratilgan edi.

Milodning 101 yili Trayan Dakiyaga urush e'lon qiladi. Rimliklarning katta qo'shini Dunayni kechib o'tib, Dakiya davlati poytaxti Sarmizegetuza tomon yo'naladi. Daklar aholi yashagan har bir joyni, har bir tog' tepaligini, poytaxtga olib boradigan yo'l ustidan har bir darani qattiq himoya qilib mardlarcha qarshilik ko'rsatishadi. Shiddatli janglardan keyin Rim qo'shinlari Dakiya shohi Datsebalni taslim bo'lishga majbur qiladilar.

Imperator qabul qildirgan sulx shartlariga ko'ra Dakiya podishosi qochib kelgan qullarni va jangchilarni qaytarib berish, bundan keyin Rim imperiyasidan kelgan biron bir qochoqqa boshpana bermaslik, qo'rg'onni ko'mib tashlash, harbiy otliq lashkarlari va muayyan miqdordagi qulga qulga ushlaydigan qurol-yarog'larni rimliklarga berish majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. Dakiyaning ba'zi joylarida Rim qo'shinlari joylashtiriladi.

Biroq Detsebal og'ir sulh shartlarini qabul qilib, shaxsan bo'ysunishini bildiradi, fursat poylab yana kurash boshlashga harakat qiladi. Rimliklar mamlakatdan qo'shinlarini olib ketgan zaxoti Dakiya podishosi yana Rim imperiyasidan kelgan qochoqlarni qabul qila boshlaydi, qo'shni qabilalarni Rimga qarshi kurash uchun birlashishga chaqiradi va xatto olisdagi Parfiya bilan ittifoq tuzishga harakat qiladi. Lekin rimliklar daklarni yangidan urush boshlash niyatlaridan xabardor bo'lib, Dunayga katta ko'priklarni solib, ko'priklarni kuchli istehkomlar bilan mudofa tuzishni yo'lga qo'yadilar.

Milodning 105- yili daklar katta kuch to'plab to'satdan ko'priklarni oldidagi istehkomlarga hujum qiladilar. Lekin ularning bu hujumi qaytariladi. Shundan keyin 106-yilning boshida Trayan Dunay bo'yida yana ham ko'p kuch to'plab Dakiyaga bostirib kiradi. Uning armiyasi daklar qarshiligini sindirib ular poytaxti Sarmizegetuzaga yaqinlashib keladi. Kuchlar teng emasdi. Shahar aholisining

ko'pchiligi qul bo'lishdan ko'ra o'limni afzal ko'radi. Minglab odamlar o'z jonlariga qasd qiladilar. Detsebal tog'larga yashirinmoqchi bo'ladi, lekin ba'zi dak oqsoqollari o'z xukumdorlariga xiyonat qilib uning yashiringan joyini dushmanga ko'rsatib bergach Detsebal dushmanga taslim bo'lishdan ko'ra o'z joniga qasd qilishni afzal ko'radi. Shundan keyin Dakiya Rim viloyatiga aylantiriladi. (Milodning 107-yili) Trayan Dakiyani bosib olib, u yerda yangi koloniyalar ochadi va u yerga Italiyadan ko'plab odamlarni ko'chirtirib joylashtiradi.

Trayan Dakiyani istelo qilgandan so'ng Parfiya urushiga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Ayni vaqtda Rim qo'shinlari Senay yarim orolini va (Arabistonning toshloq Arabiston deb ataladigan) shimoli-g'arbiy qismini bosib oladilar. Ular bu bilan janubi-sharqdan Misr va Suriyani havfsizligini, shuningdek qizil dengizdan Arabistonni o'rab turadigan janubi Osiyo mamlakatlariga o'tadigan dengiz yo'llarini xavfsizligini taminlaydilar.

Milodiy 114-yili Trayan Arabistonga bostirib kiradi. Va uni ishg'ol etib, Rim viloyati deb e'lon qiladi va o'z qo'shiniga dam berish uchun Suriyaga olib ketadi. Ular armiyasi bilan Antioxiyada ekanida qattiq zilzila bo'lib necha ming kishini shu jumladan juda ko'p kishi halok bo'ladi. Keyingi yili u Parfiyaga hujum qilib, uning poytaxti Ktesefon shahrini egallaydi. Rimliklar Fors qo'ltig'igacha bo'lgan yerlarni egallab, ikki daryo oralig'idagi Ossuriya, Mesapatamiya va Bobilni Rim viloyatlari deb e'lon qiladilar. Rimliklar mahalliy hukumatlarni tugatib, aholini o'zlarini viloyat mamuriyatlariga bo'ysundirdilar.

Rim senati sharqda olib borilgan urush tugagan deb hisoblab, Trayanga yangi faxrli unvonlar beradi. Trayan flot qurib, kemalarda fors qo'ltig'iga chiqadi. Juda katta hududlarni egallagan Rim saltanati shon-shavkat va qudratini cho'qqisiga chiqqanday tuyilgan paytda, Trayan va Rimliklar uchun mutlaqo kutilmaganda ular bosib olgan ikki daryo oralig'idagina emas, balki imperiyaning o'zining sharqiy viloyatlarida ham boshlanadi. (milodning 116-yil oxiri 117-yil boshlari) Shimoliy Mesopatamiyaning yahudiy knyazligidagi boshlangan qo'zg'olon shimoliy Misrga, Kirenaikaga va Kipr oroliga yoyiladi.

Saltanatning sharqiy viloyatlardagi qo'zg'olonlarni bartaraf etish uchun Trayan o'zining sharqdagi qo'shinidan salmoqli qismini ajratib berishga majbur bo'ladi. Bu esa Parfiyaliklarning yangi qo'shinlari paydo bo'lgan ikki daryo oralig'idagi urush harakatlarini borishiga ta'sir ko'rsatmay qolmas edi. Parfiyaliklar va qo'zg'olonchilar bilan bo'lgan janglar Rimliklar qo'shinini tinkasini quritgan edi. Soni juda kamayib, ruhiy tushkunlikka tushib qolgan Rim qo'shinlari Frot daryosining narigi tomoniga o'tib ketishga majbur bo'ladi.

Ammo Trayan mag'lubiyatni tan olgisi kelmaydi. U yana sharqqa yurish qilish niyatidan voz kecholmaydi. Lekin buning uchun imkoniyat qolmagan edi. U qaytadan kuch to'plash uchun 117- yili Rimga qaytayotib Kichik Osiyodagi Kilikiyada kasalga chalinib vafot etadi.

Sharqdagi urush muvaffaqiyatsiz bo'lsa-da, Trayan Rimning xukmron doiralari nazarida mukammal xokim namunasi bo'lib qoladi. Unga eng yaxshi printseps laqabi beriladi.

**Imperiya xukumatining mudofaa siyosatiga o'tishi. Imperator Adrian boshqaruvi.** Trayan hayotining so'ngi oylarida xotinining qarindoshi bo'lgan Publiy Eliy Adrianni o'ziga yaqin tutib yurgan edi. Trayanning vafotidan so'ng Adrian unga o'g'il qilingan va voris etib tayinlangan, deb e'lon qilinadi.

Yangi imperator Misrda, Kirenaikada qo'zg'olonlar davom etgan, Yaxudiya, Britaniya va Mavritaniyada g'alayonlar boshlangan, Dunay chegaralarida sarmetlar va roksolonlar xavf solib turgan sharoitda parfiyaliklar bilan yarashishni avzal biladi. Adrian bosqinchilik yurishlarini to'xtatib, har qanday janjalli masalalarni muzokoralar yoli bilan xal etishga harakat qiladi. U imperiya chegaralarini mustahkamlab, qo'shni davlatlar bilan teng munosabatlarni o'rnatadi. Umuman butun boshqaruvi davomida o'zidan oldin o'tgan imperator olib borgan tajavvuzkor siyosat natijasida saltanat duch kelgan g'oyat tang ahvolni tugatishga uringan edi.

Viloyatlardagi g'alayonlarni bostirgandan so'ng, Adrian davlat aparatini mustahkamlash ishiga e'tibor beradi. U Rim davlat muassasasi sifatida printseps kengashini rasmiy yo'lga qo'yadi.

Adrian davlatni boshqarish va sud ishlarini izga solish uchun idoralar sonini ko'paytiradi. Ularga boshliq qilib ozod etilgan qullar o'rniga zodagon suvoriylar qo'yiladi. Adrian viloyatlardagi aholidan o'lpon va soliqlar to'plash huquqini sotish tartibini bekor qiladi. Uning davrida ko'p o'lponlardan qarzдорlikni kechib yuborilgan. Adrian xo'jayinlarning o'z qullarini o'zlari jazolashni ham bekor qilib, qulni faqat sud xukmi bilan jazolash tartibini o'rnatadi. Meriaz bilan Imifiya viloyatlari o'rtasidagi aloqa ishlarini mustahkamlash uchun davlat pochasi tashkil qilinadi. Soliq to'lovchilar, yig'uvchilar, sudyalari va boshqa ma'muriyat vakillarining xatti-harakatlarini nazorat qilib turish uchun Adrian viloyatlarga "Murabbiylar" ("kuratorlar") tayinlaydi.

Viloyatlardagi aholi ahvolining yengillashuvi Falastindagi yahudiy aholisidan Ierusalim – Quddusi sharif diniy jamoasini tiklash uchun umid tug'dirgan edi. Lekin bu umidlar puchga chiqqandan so'ng Yahudiya qo'zg'olon boshlanib ketib, salkam uch yil (milodning 132-135 yillar) davom etadi. Qo'zg'olonga Ber-Koxba ("Yulduz farzandi") laqabini olgan Simon degan kishi boshchilik qiladi.

Rimliklar juda katta qo'shin to'plab shiddatli janglardan keyingina, qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ladilar. Juda ko'plab qo'zg'olonchilar va Yaxudiya aholisi qul qilib sotib yuboriladi. Ierusalim o'rnida rimliklarning Eliya Kapitolina deb nomlangan kalonniyasi tuziladi.

Adrian imperiyasining ko'pgina viloyatlariga, xususan Afinaga, Misrga sayohat qiladi. Uning imperatorligi davrida Afinada yangi katta Zevs ibodatxonasi quriladi, Akropolning qadimgi binolari Fivada, Memnon kolosslari tiklanadi. Firakiyada esa Adrianopol' shahri barpo qilinadi.

Adrian milodning 138-yil vafot etadi. Uning jasadi katta maqbaraga dafn etiladi. Bu maqbara o'rta asrlarda Rim papasining qo'rg'oni va Rim papasiga aylantirilgan edi.

### **Rim saltanatining “Oltin davri” (Antonin Piy printsipati).**

Adrianning o‘z farzandi bo‘lmaganligi bois o‘lim to‘shagida yotgan chog’ida eng zodagon va g‘oyat boy senatorlardan birini, galliyalik Tit Avreliy Antoninni o‘ziga voris qilib qoldirishga qaror qiladi. Adrian vafot etgach, Tit

Avreliy Antonin imperator etib saylanadi va unga Antonin Piy deb nom beriladi.

Rim tarixchilari keyinroq ularga ergashib Yevropa tarixchilari ham Antonin Piy davrini (milodning 138-161 yillari) “Oltin davr” deb ataganlar. Biroq hozirgi vaqtda obidalaridan materiallarni o‘rganish natijasida Rim imperiyasining II asri o‘rtalaridagi ahvoliga berilgan bu tavsifni shartli ravishdagina qabul qilishga to‘g‘ri keladi.

Imperator Antonin Piyning xatto ko‘klarga ko‘tarib yozilgan tarjimai holida ham “u o‘zining legatlar vositasi bilan juda ko‘p urushlar qilgan” deb yozilgan. Uning davrida Rim qo‘shinlari Britaniyada, Mavritaniyada istilochilik urushlari olib boradilar. Rimliklar daklar qo‘zg‘olonini bostirib, chegaradagi alan va german qabilalarining hujumlarini qaytarib turadilar. Bu ishlarning barchasi katta harbiy kuch, moddiy resurslarni talab qilardi.

O‘rta dengiz sharqiy qismi sohillaridagi viloyatlarni xonavayron qilgan tabiiy ofat ham katta qiyinchiliklar tug‘dirib, kuchli zilzila Egey arxipelagi orollarini va kichik Osiyoni ham tebratib o‘tgan. Rodos shahri va Kichik Osiyodagi shaharlar qattiq vayron bo‘lgan. Bundan tashqari Rim, Narbon, Antioxiya, Karfagen shaharlari katta yong‘inlardan qattiq zarar ko‘rganlar.

Milodning 152-yili Misr, Falastin, Rimning boshqa viloyatlarida qo‘zg‘olonlar, Rimda esa oziq-ovqat yetishmovchiligi oqibatida g‘alayonlar boshlanadi. Antoniy ijtimoiy himoya choralari belgilab poytaxt aholisining eng kambag‘al qismiga ko‘plab bepul vino, un va yog‘ tarqattiradi. Xayr ehson fondi kengaytiriladi. Ijtimoiy keskinlik muhitini yumshatish maqsadida xo‘jayinlarning o‘z qullariga nisbatan mavjud huquqini cheklaydi, u qulni o‘ldirishni erkin fuqaroni o‘ldirish bilan baravar qo‘yadi va xo‘jayinning jabrzulmidan qochib, ibodatxonalardan boshpana qidirib kelgan qullarni egalariga qaytarmaslik to‘g‘risida qaror chiqaradi.

161- yili Antonin Piy vafot etgach, taxtga uning o‘gay o‘g‘illari Mark Avreliy va Lutsiy Vyerlar o‘tirganlar. Lutsiy Ver vafotiga qadar (milodiy 169yili) imperiyani ular rasman birgalashib idora qilishgan bo‘lsa-da, aslida ularning kattasi Mark Avreliy saltanatga xukmdorlik qilgan edi. (169-180 yillar).

U Trayanga loyiq juda yaxshi ma‘lumot olgan, ajoyib boshqaruvchi, tajribali sarkarda, aqlli va uzoqni ko‘ra oladigan siyosatchi sifatida o‘z oldiga turgan muammolarni juda yaxshi tushunar edi. Adrian davlat resurslarini to‘la tugagani va Sharqda bosqinchilik siyosatining samarasizligini anglab yetib, Parfiya bilan Frot daryosi bo‘yicha chegaralarni tiklash sharti bilan tinchlik shartnomasini tuzdi. Adrian imperiyaning sharqiy chegaralarida kuchli mudofaa inshootlarini bunyod qildi. Ana shunday tadbirlar natijasida Parfiya bilan tinchlik 44 yil saqlandi.

Sharqda ishlarni tugallab Adrian Yevropa va Afrikada imperiya chegaralarini mustahkamlash maqsadida chegara istehkomlarini qurish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirdi. Ana shunday istehkomlardan biri Adrian vali (istehkomi) Britaniyada hozirgacha saqlanib qolgan.

Adrian qo'shinni yuqori jangovar holatda saqlab turishga katta e'tibor berdi. U legionlarni Rim yoki latin fuqaroligi bo'lmagan provinsiya aholisidan to'ldirishga ruxsat berdi. Cchunki qo'shinga xizmat qilishga xohish bildirgan fuqarolar soni keskin qisqardi. Rim harbiy mashinasini varvarlashtirish uchun asos ana shunday yaratildi.

Adrian davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. U prinseps kengashini qayta tashkil qildi. Kengash tarkibiga oliy amaldorlar, muassasa rahbarlari va yirik yuristlar jalb qilindi. Adrian boshqaruvga suvoriylar toifasini ko'plab vakillarini taklif qildi. U davlat pochtasini joriy qildi. Provinsiyalar boshqaruvini qayta tuzib, noiblar faoliyati ustidan doimiy nazorat o'rnatdi. Adrian uzoq sayohat qildi va ko'plab inshootlarni bunyod qildi: Venera va Roma ibodatxonalari, mashhur Rim panteonini bunyod qildi.

Antoniylar sulolasining taniqli vakillaridan biri, tarixda taxtdagi faylasuf sifatida kirgan Mark Avreliy (161-180-yillar) edi. Mark Avreliy uchun davlat manfaatlari hamma narsadan yuqori bo'lib, imperiya taqdiri uchun o'z ma'suliyatini to'la anglab yetgan edi. U senator va suvoriy toifalari bilan yaqin hamkorlikda ish olib bordi. Senat tarkibiga ko'pgina provinsiya zodagonlarini, ayniqsa, kelib chiqishi Sharqdan va Afrikadan bo'lgan nufuzli kishilarni kiritdi. Mark Avreliy 19 yil hukmronlik qildi. Unga qarshi shu yillar davomida birorta ham fitna uyushtirilmadi. U 180-yil 59 yoshda Vindobana (Vena) shahrida vafot etdi. Rimda uning sharafiga kolonna bunyod etildi. Uning merosxo'ri 18 yoshli o'g'li Kommod (180-193-yillar) imperator bo'ldi. Antoniylar sulolasining so'nggi vakili Kommod qo'pol, shafqatsiz va maishatparast hukmdor edi. Otasining o'limidan keyin Kommod kvad va markomann qabilalari bilan urushni tugatib, 180-yilda Rimga qaytdi. Davlat boshqaruvni o'zining ochko'z yaqinlariga topshirib, kayf-safoga berildi. Xotinini qatl etib, buzuqchilik yo'liga kirdi. Katta jismoniy kuchga ega bo'lgan imperator o'zini rimlik Gerkules deb e'lon qildi. Omma oldiga arslon terisini yopinib, yelkasida kaltak bilan paydo bo'lar edi. Amfiteatr sahnasida gladiator sifatida chiqdi. Oxir-oqibatda eshushini yo'qotib, kalendarning barcha oylarini o'z nomiga o'zgartirdi. Hatto,

Rimning nomini o'zgartirib, uni "Kommod" shahri deb atashga buyruq berdi.

Kommodga qarshi 183-yilda fitna uyushtirildi, lekin u amalga oshmadi. Shundan so'ng, senatorlar toifasiga qarshi taqib-qatllar avj oldi. Pannoniya va Britaniyada norozilik harakatlari, daklar va markomannlar qo'zg'olonlari qo'shin tomonidan zo'rg'a bostirildi. 192-yilning oxirgi kunida aqlsiz imperatorning mashuqasi Marsiya va qo'riqchilar boshlig'i fitnasi natijasida Kommod o'ldirildi.

Boshqaruv tizimi va apparati imperator qo'lida to'plana boshladi. Senat o'z siyosiy mavqeini yo'qotishi bilan uning tarkibi ham o'zgardi. Respublika davrida

yuqori mavqega ega bo'lgan zodagon oilalari fuqarolar urushi va proskripsiyalarning qurboni bo'ldilar. Qolganlari esa, kambag'allashib qoldi. Prinsipatning birinchi yillarida ularning o'rnini suvoriylar, munisipiylardan chiqqan boy zodagonlar egalladilar. Klavdiy davrida senat tarkibiga gall qabilasi ekvlarning romanlashgan zodagonlari uchun yo'l ochildi. Vespasian davrida senatga munisipiylar, koloniyalar va provinsiyalardan yangi kishilar kiritildi. Eramizning I asri so'nggida kelib chiqishi gallardan bo'lgan kishilar senatga kiritildi. Keyingi 100 yillik boshida senat tarkibida Kichik Osiyo va Afrikadan kelgan senatorlar, ko'pgina yunonlar uchraydi. Qadimgi Rim nobilitetining vakillari senatda deyarli qolmadi va ular bilan birga senatdagi muxolifat kayfiyati ham yo'qoldi.

Rim jamoa huquqlarini bir shahar-davlat sifatida o'zining yangi dunyosida hukmronlikni amaliy ta'qib ostida boshladi. Faqat uzoq va ba'zan zo'ravonlik jarayoni sinov va xatolik bilan yakka hukmronlikka asoslangan imperiyaning siyosiy tizimini yaratishga erishdi. Rim bosqinchiligi va imperiya binolari uzluksiz tajriba, yangilik va moslashishdek bir jarayon kabi ifodalanadi<sup>87</sup>.

Prinsepslar hokimiyatining yana bir tayanchi suvoriylar toifasi edi. I-II asrlarda suvoriylar savdo-moliya zodagonlari mavqeini saqlab qoldi. Lekin bu davrda suvoriylar xizmatdagi odamlarga aylana boshladi. Ularning ijtimoiy tarkibi ham o'zgardi. Yangi suvoriylarning kelib chiqishi Italiya munisipiylari va provinsiyalardan edi. Suvoriylarning yuqori qatlamini, eng avvalo, boyib ketgan moliya zodagonlari, o'rta qatlamni esa, davlat xizmatiga ko'tarilgan amaldorlar tashkil qildi. Suvoriylarga prokuratorlar lavozimi, provinsiyalardagi prinseps mulklarining boshqaruvi, pretorian gvardiyasi prefekti, politsiya xizmati qo'riqchilarining prefekti kabi lavozimlar ajratildi. Adrian davrida suvoriylar prinsepsning shaxsiy devonxonasida xizmat qila boshladilar. Shu vaqtgacha prinsepsning shaxsiy devonxonasida barcha ishlarni imperatorlarning ozod qo'yilgan qullari bajarar edi. Avgurt davridan suvoriylar toifasining vakili uchun eng oliy daraja pretor prefekti lavozimi bo'lib, undan keyingi o'rinda Misr prefekti turar edi. Suvoriylar toifasi imperator hokimiyatining mustahkamlanishiga va imperator boshqaruvining oqilona bo'lishiga yordam berdi.

Imperatorlar shahar plebeylariga nisbatan respublika davri Rim zodagonlarining siyosatini davom ettirdilar. Rimda avvalgidek 200 000 kishiga tekin non tarqatilar edi. Rimning oddiy aholisi hech qanday siyosiy huquqqa ega emas edi. Ularning bir qismi ishlab chiqarish bilan, ko'pchiligi davlatdan tekin non olib, zodagonlarning uylarida klient majburiyatini bajarar edi.

**2. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot.** II asr Rim imperiyasining "oltin davri" hisoblanadi. Bu vaqtda imperiya eng katta hududga ega edi. Uning chegaralari shimolda Shotlandiyadan janubga Nil ostonalarigacha, g'arbdan Atlantika qirg'oqlaridan sharqda Fors qo'ltig'igacha cho'zilgan edi. Quldorlik tizimi o'z taraqqiyotining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Ko'p quldorlik xo'jaliklari bozor

---

<sup>87</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.243.

uchun mahsulot ishlab chiqarishga o'tdi. Qullarga nisbatan shafqatsiz zulm kuchayib ketdi.

Bu davrda provinsiyalarning iqtisodiyoti va bu yerdagi shahar hayoti o'z taraqqiyotida yuqori bosqichga ko'tarildi. Eramizning I-II asrlarida O'rtayer dengizi hududidagi barcha xalqlar tarixda birinchi bor yagona ulkan davlat Rim imperiyasi tarkibiga kirdilar. Rim provinsiyasiga aylantirilgan alohida davlatlar o'rtasidagi chegaralar tugatildi. Pul tizimlari ma'lum darajada unifikatsiya qilindi. Urushlar va dengiz qaroqchiligi tugatildi. Rim imperiyasidagi xalqlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining turli darajalarida yashar edilar. Misr, Suriya, Kichik Osiyo, Bolqon va Makedoniya iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuqori darajasiga erishdi. Pireney yarim orolidagi va Galliyadagi iberlar, kel'tlar, Shimoliy Afrikadagi numidiyaliklar, liviyaliklar, Dunay bo'yidagi pannonlar, illiriyaliklar, mezlar hali arxaik davrning so'nggi bosqichida edilar.

Rim istilolariga qadar g'arbiy provinsiyalarda qishloq xo'jaligi qoloq bo'lib, asosan g'alla ekilgan. Yerga ishlov berish ibtidoiy holatda edi. Apennin yarim oroli aholisi qishloq xo'jaligining rivojlangan shaklini g'arbiy provinsiyalarga olib kirdilar.

Gall vinolari, ispan zaytun moyi Italiya va yunon navlari bilan raqobat qila boshladi. Imperiya hududida quldorlik xo'jaligi tez rivojlandi. O'rta va yirik quldor xo'jaliklari (villa) yetakchi o'ringa chiqdi. Quldorlik xo'jaliklarida qul mehnatidan keng foydalanildi. Barcha provinsiyalarda imperator yer egaligi keng tarqaldi. Eramizning II asrida imperator yerlari va xususiy katta latifundiyalar yetakchi yer egaligi shakli edi. G'arbiy provinsiyalarda o'rta quldor pomestelari, mayda yer egaligi keng tarqaldi. Ayniqsa, kichik yer egaligi Pannoniya, Dalmatsiya, Meziya, Frakiya va Fokeyada keng tarqaldi.

Afrika provinsiyalarida quldorlik xo'jaliklarida asosiy ishchi kuchi sifatida qullar mehnati keng tarqaldi. Misr imperiyaning g'alla ombori edi. Quldorlik latifundiyalari Galliya va Ispaniyada keng tarqalgan bir paytda Ispaniya va Afrikaning sharqiy provinsiyalarida kolonlar mehnatiga asoslangan latifundiyalar keng tarqaldi. Qullarga ish qurollari va chek yerlar ajratib berila boshlandi. Lekin qul xo'jayinning mulki bo'lib qolaverdi. Qulni mulk (pekuli) bilan ta'minlash er. avv. III asrdayoq ma'lum edi. Endilikda bu odatdagi hol bo'lib qoldi. Qul pekuliyan foydalangan holda o'ziga o'rinbosar sotib olishi mumkin edi. O'rinbosar qul uning xo'jayiniga ishlab berishi kerak edi. Ozod qo'yilgan qullar ko'p hollarda tadbirkorlik bilan shug'ullanib, boyib ketar edilar. Ular o'z xo'jayinlariga zarurat tug'ilganda turli xil xizmatlarni ko'rsatganlar. Misol uchun, diktator Sullaning ozod qo'yilgan quli Xirosogon Rim davlatidagi eng qudratli kishilardan biri bo'lib, hatto, uning oldida senatorlar ham titrabqaltirar edilar. Ammo ko'pchilik ozod qo'yilgan qullar o'rta darajadagi mulkka ega bo'lib, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanar hamda oshxonalarning egalari edilar. Quldor latifundistlar o'z yerlarini chek yerlarga bo'lib, kolonlarga ijaraga berganlar.

Eramizning II asrida kolonlar o'zlari yetishtirgan bug'doy, tariq, zaytun moyining 1/3 qismini quldorga berishi kerak edi. Bundan tashqari, kolon quldorning yerida bir necha kun ishlab berishi kerak edi.

Yerga ishlov berish takomillashdi. G'alla va boshqa ekinlarning yangi navlari, o'g'itning yangi navlari joriy qilina boshlandi. Qishloq xo'jaligi takomillashdi. G'alla latifuniyalarida g'allani yig'adigan mexanizm, g'ildirakli plug, suv tegirmoni kashf etildi. Provinsiyalarda shaharlar va shahar aholisining o'sishi, qishloq xo'jalik mahsulotlarining Italiya va imperiyaning boshqa viloyatlariga chiqarish imkoniyatining paydo bo'lishi provinsiya qishloq xo'jaligida yerdan unumli foydalanish va tovar xo'jaligining kirib kelishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Quldor xo'jaligi endilikda bozor bilan yanada yaqin bog'landi. Qishloq xo'jaligida tovar munosabatlarining rivojlanishi latifundiyalarda hunarmandchilikni vujudga keltirdi. Latifundiyalar egalari kulolchilik, to'quvchilik, duradgorlik, oshpazlik kabi hunarmandchilik ustaxonalarini ochdilar. Ba'zi gall latifundiyalarida konlardan temir rudasi qazib olinib, metall ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Eramizning I asrlarida qishloq xo'jaligi bilan birga, hunarmandchilik va savdo keng rivojlandi. Rim hunarmandchiligi uchun Ispaniyadagi qo'rg'oshin va mis konlari, Galliyaning temir va qalay konlari, Norika, Dalmatsiya, Kilikiya va Kappadokiyaning boy temir konlari xomashyoni yetkazib berib turar edi. Ayniqsa, temir rudasini qazib chiqarish keng yo'lga qo'yildi.

Temir rudasi Norika va Dalmatsiya, Galliya va Ispaniya, Kappadokiya va sharqda qazib chiqarildi. Barcha konlar imperatorning mulklari bo'lib, ko'pincha ijaraga berilar edi. Hunarmandchilikning rivojlanishi qul mehnatidan keng foydalanish imkoniyatini berdi. Agar o'tgan asrlarda hunarmandchilik ustaxonalarida ishlagan qullar soni 10 tagacha bo'lsa, eramizning II asrida ularning soni 50 taga yetdi.

Hunarmandchilik ustaxonasining kengayishi, mehnat taqsimotining o'sishi uning iqtisodlashuvini o'sishiga olib keldi. Ammo hunarmandchilikda erkin mehnat yetakchi rol o'ynar edi. Tog'-kon ishlarida, qurilish, tosh konlari, marmar konlarida qul mehnatidan keng foydalanilar edi. Ustaxonalarda eng og'ir mehnat qullar zimmasida edi. Hunarmandchilik taraqqiyoti oshpazlik, g'isht kuydirish kabi yangi sohalarining paydo bo'lishiga olib keldi. Qurilishda betondan foydalanish keng tarqaldi. Eramizning II asrida provinsiyalarda hunarmandchilik ayniqasa yuksaldi.

Bir qancha provinsiyalar o'z mahsulotlarini boshqa provinsiyalarga, shuningdek, Italiyaga eksport qila boshladilar. Ayniqsa, gall shaharlari nihoyatda rivojlandi. Gall hunarmandlarining kanop gazlamalari, jun yopingichlar va kulolchilik mahsulotlari g'arbiy provinsiyalar va Italiyada keng tarqaldi. Suriya shaharlari esa, zarbof gazlamalar, zargarlik buyumlari, rangli shisha va gazlamalarni ishlab chiqaradigan asosiy markazlarga aylandi.

Eramizning II asrida hunarmandchilik markazlari yarim oroldan Shimoliy Italiyaga ko'chdi. Puteola, Kapuya, Arretsiya kabi an'anaviy hunarmandchilik markazlari tushkunlikka uchradi. Ularning o'niga gall provinsiyalari, Norika va Dalmatsiyaning temir konlariga yaqin Milan, Akvileya va boshqa hunarmandchilik markazlari vujudga keldi. Ayniqsa, Akvileya shahri metall buyumlar va qurol-yarog', shisha, zargarlik buyumlari, cherepitsa ishlab chiqaradigan yirik hunarmandchilik markaziga aylandi.

Eramizning I-II asrlarida barcha provinsiyalarda savdo aloqalari keng rivojlandi. Italiya savdogarlari Ispaniya, Suriya, Dakiya, Misr, Mavritaniya va Britaniyaga kirib bordilar. Gall kema egalari, savdogarlari Italiya, Reyn viloyatlari va ispan provinsiyalari bilan faol savdo qildilar. Palmira savdogarlari Dakiya va Misrga kirib bordilar. Shaharlarda ko'plab savdo do'konlari va omborxonalar qurila boshlandi.

Eramizning II asrida Rimda ulkan besh qavatli Trayan bozori qurildi. Savdo-sotiqning rivojlanishi provinsiyaning mahsulot ishlab chiqarishining ixtisoslashuviga olib keldi. Ispaniya zaytun moyi va vino, Galliya vino, shisha idishlari, jun mahsulotlari, Misr g'alla, papirus, granit, shisha buyumlari, Suriya vino, zarbof gazlamalar va zeb-ziynat buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi.

Savdogar va hunarmandlar kollegiyalarga birlashdi. Savdo taraqqiyoti sarroflik va sudxo'rlikning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Tashqi savdo rimliklar uchu foydali edi. Rim imperiyasi Qora dengiz hududlari, Sharqiy Yevropa, Eron, O'rta Osiyo va Hindiston bilan muntazam savdo aloqalarini o'rnatdi.

Rim 60-70 mln obyektlariga hukmronlik qilgan buyuk davlat bo'lgan. Rim imperiyasi o'zining cho'qqisiga yetgan davrda tog'li hududlarni ham bosib olgan, bu hozirgi Shotlandiyadan zamonaviy Misr va Sudanning bir qismidagi Nil daryosining quyi oqimigacha, shuningdek, Atlantika sohillaridagi Shimoliy Afrikadan Yevroosiyaning ichki cho'llari chegaralaridagi Ukraina va Kavkazgacha yetib borgan<sup>88</sup>.

Eramizning II asrida Sharqdan 3 savdo yo'li O'rtayer dengizi qirg'oqlariga borar edi:

1. Petra-Transiordaniya-Damashq-O'rtayer dengizi; 2. Frot-Palmira-Damashq-O'rtayer dengizi;
3. Hindiston-Arabiston-Iskandariya.

Afrika provinsiyalaridan Rim savdogarlari Efiopiya, Mavritaniya va hatto, Markaziy Afrikagacha kirib bordilar. Imperiya davrida yangi tanga "aureus" zarb qilina boshlandi. O'ng tomonida hukmdor-imperator tasviri tushirilgan edi. Rim tilla tangasi yuqori baholanar edi. Ko'p tarqalgan Rim tangalaridan biri kumush denariy edi. Eramizning I asrida denariy sof kumushdan, eramizning II asrining oxiridan esa, mis qo'shib, tarkibida 50% kumush bilan zarb qilina boshlandi. Mis tanga asosan mahalliy muomilada foydalanilar edi. Mayda savdoda asosan mis tanga sestersiy (4 ass) va dupandiy (2 ass) ishlatilar edi.

---

<sup>88</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.261.

Eramizning I-II asrlarida Rim jamiyati quldorlik jamiyati edi. Uning asosiy qatlamlari qullar va quldorlar bo'lib, ulardan tashqari mayda ishlab chiqaruvchilar, kichik chek yerlarning egalari yoki ijarachilar, kichik hunarmandchilik ustaxonalari egalari, mayda savdogarlardan iborat edi.

Tabaqalar o'rtasida kuchli ijtimoiy ziddiyatlar mavjud edi. Jamiyatda asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlar qullar edi. Eramizning I-II asrlarigacha quldorlik xo'jaliklarida qullarga bo'lgan ehtiyoj urushlar natijasida qondirilgan edi. Eramizning II asrida istilochilik urushlarining nihoyasiga yetishi qullar oqimining Rimga kelishini keskin kamaytirdi. Lekin quldorlik xo'jaliklarida qul mehnatiga ehtiyoj juda kuchli edi. Bu hol qullar narxining keskin o'sishiga olib keldi.

Qul mehnatininng unumdorligidan manfaatdor quldorlar qullarning maishiy turmush sharoitini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Qishloq pomestelari va shaharlarda qul cho'rilar soni o'sib bordi. Qullarga oila qurishga ruxsat berildi va ular rag'batlantirildi.

Qullikda tug'ilgan bolalar (ular vernlar deb atalgan) biror-bir hunarga o'rgatilgan. Bunday qulning narxi qul bozorlarida yuqori edi. Qullarning oila qurishini rag'batlantirgan quldorlar qul oilasi uchun chek yer, mehnat qurollari, kulba, kichikroq do'kon va bir necha qoramol ajratar edilar. Quldor tomonidan ajratilgan bunday mulk "pekuliy" deb atalgan. Eramizning I-II asrlarida pekuliy keng tarqaldi. Quldor sovg'a qilgan yerini istalgan paytida tortib olishi mumkin edi. Qullarning huquqiy holati ham o'zgardi. Imperator Adrian qullarni sababsiz o'ldirishni ta'qiqladi. Eramizning II asrida yerni ijaraga berish va kolonat keng tarqaldi.

Kolon huquqiy jihatdan erkin kishi bo'lib, yer egasidan shartnoma muddati tugagandan so'ng, ketishi mumkin edi. Shartnoma odatda 5 yil muddatga tuzilgan. Kolon 5 yil davomida qarz va boshqa turli majburiyatlar ostida qolib, huquqiy jihatdan o'z yeridan ketishi mumkin emas edi. U noiloj bu yerda uzoq muddat ishlagan. Erkin, o'z yerini yo'qotgan dehqon, batrak va ozod qo'yilgan qul, yerga ishlashga qaytgan shahar plebeyi kolonga aylanishi mumkin edi. Yerga birlashtirilgan qullar ham kolonga aylanar edilar. Kolonatning yana bir manbasi chegara provinsiyalarda asir olingan, yerga joylashtirilgan varvarlar edi.

**Tayanish tushunchalari:** Trayan, Antoniylar sulolasi, Mesopotamiya, tinchlik shartnomasi, Adrian vali (istehkomi), prinseps, Mark Avreliy, Vindobana, Kommod, gladiator, Pannoniya, Britaniya, Klavdiy, Osiyo, Afrika, nobilitet, prokurator, iberlar, kel'tlar, Frakiya, Fokiya, Dalmatsiya, Meziya, mulk (pekuliy), temir rudasi, Kilikiya, kolonat, hunarmandchilik ustaxonalari.

### **Mavzuni mustahkamlash savollari**

1. Eramizning II asrida Rim imperiyasining iqtisodiy taraqqiyotini tushuntirib bering.
2. Eramizning II asrida Rim provinsiyalari aytib bering.
3. Eramizning II asrida savdo-hunarmandchilik, shaharlar ravnaqini taxlil qiling.
4. Eramizning II asrida Rimning tashqi siyosatidagi yutuqlarni taxlil eting.

## **Ma'ruza №43**

### **Mavzu: Eramizning III-IV asrlarida so'nggi Rim imperiyasi. Dominat davri**

#### **Reja:**

1. Imperiyada ichki va tashqi ziddiyatlarning kuchayib borishi.
2. Quldorlik iqtisodiyotining inqirozi.
3. Kolonlar va kulbali qullar.
4. Rim saltanatida siyosiy inqirozning keskinlashuvi.

**Imperiyada ichki va tashqi ziddiyatlarning kuchayib borishi.** Mark Avreliy, Kommod boshqaruvi. Mark Avreliy imperiyani idora qila boshlashi bilan jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi va bu qiyinchiliklar uning printsipatini oxiriga qadar davom etib, shiddatli urushlar va iqtisodiy jihatdan zaiflashib borish davriga aylantiradi.

Antonin Piy o'limidan so'ng ko'p o'tmay imperiyaning chegarasida Parfiya bilan ikki o'rtada shiddatli urush chiqqan. Parfiya podshosi Vologaz Armanistonni ishg'ol qiladi. Bu yerlardagi janglarda rimlik legionlar mag'lubiyatga uchraydilar. Parfiya podshosi ko'p o'tmay Suriyani ham bosib oladi.

Biroq ko'p o'tmay rimliklar kuch to'plab, parfiyaliklarni Armanistondan surib chiqarishga muvoffaq bo'ladilar. Ular o'z hujumlarini davom ettirgani holda, Shimoliy Mesopotamiyani ishg'ol qilib, Ktesifon bilan Salavkiyagacha etib boradilar. Ikki daryo oralig'idagi xududda yuqumli kasallik tarqalib Rim qo'shinini bir qismi kasallikdan qirilib ketadi. Shundan keyin rimliklar sulh tuzib Italiyaga qaytib ketishga majbur bo'ladilar. Mesopotamiyada tarqalgan kasallik Italiyaga ham yoyilib ko'p odamlarning hayotiga zomin bo'lgan edi.

Buning ustiga 167-yildan boshlab Dunay ortidagi qabilalar Rim istehkomlariga tez-tez hujumlar qilib turishlari katta muammolar tug'dirgan.

Milodning 172-yili shimoliy Misrda mahalliy aholining qo'zg'oloni boshlanadi. Suriya noibi Avidiy Kassiy kuchli armiyasi bilan urush maydoniga etib kelgandan so'nggina qo'zg'olon bostiriladi. Lekin shundan keyinoq Avidiy Kassiyning o'zi oliy hokimiyatni qo'lga olmoqchi bo'lib o'zini imperator deb e'lon qiladi. Mark Avreliy fitnachi lashkarboshiga qarshi qo'shin tortib borishga majbur bo'ladi. Biroq uning qo'shinlari fitnachilar qo'shini bilan to'qnashishidan oldin Avidiy Kassiy o'ldiriladi va shu tariqa imperiya birligi yana tiklanadi.

Milodning 180-yili Rim qo'shinlari ichida yana yuqumli kasallik avj oladi. Kasallik juda ko'p odamlarning shu jumladan imperatorni ham o'lim girdobiga tortgan edi. U chegaradagi Vindobon (hozirgi Vena) qo'rg'onida vafot etadi.

Milodning II-asrida o'tgan imperatorlar senatdagi quldor zodogonlar bilan mustahkam aloqada bo'lib, ular bilan kelishib ish yuritishga harakat qilganlar.

Ularning ko'pi o'z zamonasining ilmi kishilari edi. Adrian yunon ilm-fani va san'atining muxlisi bo'lib, o'zi ham xaykaltaroshlik bilan shug'ullangan. Mark Avreliyning "Yolg'izlikdagi o'ylar" nomli kitobi tamomila stoitsizmga xos falsafiy asar hisoblanadi.

Lekin antik ziyolilarning bu bilimdon namoyondasi qullar va qashshoq bo'lib qolgan erkin kishilarning huquqsiz ahvolini jiddiy o'zgartirish uchun deyarli hech bir ish qilolmagan edi.

Mark Avreliy vafotidan so'ng imperiya taxtiga uning o'g'li Kommod chiqadi. U milodning 180-192 yillari Rim saltanatini idora qiladi. Kommod otasining tamomila aksi bo'lib, qo'pol, shavqatsiz odam edi. U sirk tomoshalarining muhlisi bo'lgani holda, yengilmas jangchi-gladiatorlikni orzu qilgan. U Gerkulesni ideal bilib, unga ergashib xaloyiq oldiga faqat arslon terisiga burkanib chiqar ekan.

Kommod otasi o'lgan vaqtda 19 yoshda bo'lib, kvadlar va markomanlar bilan urush olib borayotgan edi. U nima bo'lsa ham urushni to'xtatib Rimga qaytishni orzu qilardi. Urush yana bir necha oy davom etadi va nihoyat Kommod shoshilib markoman va kvadlar bilan sulh bitimini tuzadi, tinchlikni saqlash evaziga ularning oqsoqollariga katta pul to'lab turishni o'z zimmasiga oladi. Poytaxtga qaytib kelgach, Kommod butunlay o'yin-tomoshaga berilib ketadi. Zamondoshlar uning qiyofasida Yuliy-Klevdiylar xonadonining yomon xotira qoldirgan vakillari: Kaligula va Neronni ko'ra boshlagan edilar.

183 yildayoq imperatorga qarshi uning xotini Kristina va onasi ishtirok etgan fitna fosh qilinadi. Fitnaga javoban zodogonlarni ommaviy qatl qilishlar boshlanib ketadi. Oliy tabaqa qo'llab quvatlashidan maxrum bo'lgan Kommod umumiy norozilikni yumshatish uchun jangchi pretoriylarning maoshini oshiradi, dabdabali o'yinlar qilib beradi. Rimdagi xaloyiqqa juda ko'p sovg'alarva bepul oziq-ovqatlar tarqatadi. Bu ishlarga sarf bo'ladigan mablag'larni imperator zodagonlarning mol mulkini musodara qilib topishga harakat qiladi. Biroq xokimiyatning inqirozi borgan sari ko'zga yaqqolroq ko'rina boshlagan edi. Rimda oziq-ovqat yetishmovchiligi boshlanadi. Saltanatning turli qismlarida aholining quyi tabaqalari g'alayonlari vujudga kela boshlaydi.

Umumiy norozilik navbatdagi yangi fitna uyushtirishiga sabab bo'ladi. Fitnaga pretoriya prefekti Emiliy Leta bosh bo'lib unda imperatorning yaqin kishilari ham qatnashadi. Kommod 193-yil 1-yanvarda konsullik lavozimiga gladiator libosida kirishishni niyat qiladi. Biroq bu tan-tanali voqea arafasida 192 yil 31 dekabr kuni kechasi u gladiatorlar kazarmasida o'ldiriladi.

Kommodning halokati bilan Antoninlar sulolasi tugaydi. Rim O'rta dengiz imperiyasining nisbatan tinch tarixiy taraqqiyoti davri o'tib ketgan, endilikda u iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlarning keskinlashish davri eramizning III asriy inqiroz davriga kirgan edi.

**Quldorlik iqtisodiyotining inqirozi.** Milodning II asri oxirlaridan boshlab, Rim iqtisodiyoti katta qiyinchiliklarga duch keladi. Barcha qaram aholi qatlamlarini ekspluatatsiya qilishning kuchayishi, zodogon va amaldorlarning

suiste'mollari bevosita ishlab chiqaruvchilarning o'z mehnatlari natijasidan manfaatdorlikni yo'qqa chiqarar edi. Juda keng tarqalgan yuqumli kasalliklar qullar va aholining oddiy tabaqalariga juda katta qirg'inlar keltirardi.

20-yoshgacha yaxshi ta'minlangan onasi qo'lida o'sgan Vibia Perptua Milodiy 203-yilda Rim xudolariga qurbonliklar qilishdan bosh tortgani uchun shiddatli azoblarga duchor bo'lgan. U va uning hamrohlari jallod hukmidan ozod qilingan va Karfagen amfiteatrida yovvoyi hayvonlar oldiga tashlangan<sup>89</sup>. Erkin dehqonlarning xonavayron bo'lishi, qullar va kolonlarning soni kamayishi natijasida ish kuchining tanqisligi kuchaygan. Ekilmay tashlab qo'yilgan yerlar juda ko'paygan. Mayda yakka xo'jaliklarning qimmatbaho qurollarni, chunonchi og'ir pluglarni, preslar va o'rish mashinalarini ishlatishga qurbi yetmasdi. Jamoa o'rmonzorlari va o'tloqlarning qo'ldan ketganligi ham mayda xo'jaliklarni yurg'izish negiziga putur etkazdi.

O'z ustaxonalarini shahar hunarmandlari tashlab katta amloklarga ish qidirib keta boshlaydilar. Marmar va ruda qazib chiqarish kamayadi. O'rta dengiz mamlakatlarning Sharq, Markaziy va Sharqiy Yevropa bilan odatdagi savdo aloqalari saqlansada, savdo umuman pastlashib ketadi. Rim iqtisodiyotida natural unsurlar kuchaya boshlaydi. Melodiy butun III asr mobaynida pul muomalosida asl metall kamchiligi hukm suradi. Pulning qiymati tushgan sari narh-navo ortib boradi.

Rim iqtisodiyotida ro'y bergan o'zgarishlar chuqur ijtimoiy inqiroz bilan bog'liq bo'lib, kuldorlik tartibining buzilishi esa o'sha inqirozning ifodasidir. Unumdor mehnatda band bo'lgan qullar soni kamayib ketgan ularning ba'zilari qo'yib yuborilgan, boshqalari yerga birkitilib, kolonlarga aylantirilgan edi. Shu narsa xarakterliki, milodning II asri oxirlaridan boshlab urushda mag'lub bo'lgan aholi qullarga aylantirilmay, balki davlat yerlarida ishlaydigan kolonlarga aylantirilgan.

**Kolonlar va kulbali qullar.** Qullar mehnatining samarasizligini ko'rgan ko'pgina yer egalari o'z xo'jaliklaridagi yerlarni kichik-kichik qismlarga bo'lib, yersiz erkin qambag'allarga beradilar. Kichik-kichik yerlarni ijaraga olgan kishilar Rimda kolonlar deb atalganlar.

Qoloq yerdan chiqqan hosilning muayyan bir qismini yer egasiga berib, qolganini o'zi tasarruf etishi mumkin edi. O'z mehnatidan manfaatdor bo'lgan kolon qulga qaraganda bir necha bor yaxshiroq va umumliroq ishlardi. Binobarin u erkin mehnat qilganidan uni nazorat qilib turish shart emasdi. Ayni paytda kolonlar chorva mollar yer va mehnat qurollariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lardilar.

Ko'p hollarda yer egasi kolonlarni urug'lik, ish hayvoni va mehnat qurollari bilan ta'minlar edi. Agar kolon yer egasidan qarzdor bo'lib qolsa, u xo'jayin yeridan boshqa yoqqa ketib qola olmasdi. Yer egalari bundan foydalanib, ijara haqini oshirar edilar.

---

<sup>89</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.287.

Italiyada Yunonistonga nisbatan unumdor yerlar va sersuv daryolar ko'p bo'lib, astoydil mehnat qilgan dehqonlar yerdan mo'l-ko'l hosil olishlari mumkin edi. Italiyada sero't yaylovlar keng maydonlarni egallab yotgan. Shu bois Italiyada chorvachilik ham ancha rivojlangan. Yirik yer egalari va badavlat chorvadorlarning ko'plari qullar mehnatining unumsizligini ko'rib, qullariga mustaqil xo'jalik yuritishga ruxsat berganlar. Ular o'z qullariga yer, chorva, mehnat qurollari va boshqa anjomlar berib, mustaqil ish yuritishga imkoniyat yaratganlar. Bunday sharoitda qullar oilali bo'lib ancha erkin yashaganlar. Bunday qullar kulbali yoki uy joyli qullar deb atalgan. Ular bola chaqalari bilan astoydil mehnat qilib, yerdan mo'l hosil ko'tarar edilar. Yer egasi xo'jayinga hosilning bir qismi berilsa, qolgan qismi qulning o'z ixtiyorida qolardi.

Ayni vaqtda bu qullar boshqa yoqlarga qochib ketmas, mehnat qurollari va ish hayvonlariga zarar etkazish u yoqda tursin, ularni asrab avalar yaxshi parvarish qilardilar.

Kulbali qullarning ahvoli oddiy qullarning ahvoliga nisbatan ancha yaxshi bo'lsa-da, biroq qullarning taqdiri avvalgidek, o'z xo'jayinlari qo'lida edi.

Shaharlarda yashovchi quldorlarning bir qismi o'z qullariga ustaxonalar ochib, xunarmandchilik bilan shug'ullanishiga ruxsat berganlar. Ba'zi qullar kichik do'konchalar ochib tijorat ishlari bilan shug'ullanganlar. O'z mehnatlari evaziga anchagina mablag' to'plab olgan qullar pul, va mol-mulk evaziga o'z ozodliklarini sotib olib, erkin kishilarga aylanardilar. Milodning III asri birinchi yarmida Rim imperatorlarining ichki siyosati. Rim jamiyatidagi xukmron tabaqalarining ijtimoiy qarama-qarshiliklari askar va senator imperatorlari deb atalganlarning kurashida o'z aksini topadi. Askar imperatorlari armiyadagi keng munitsipiya doiralarining manfaatini ifodalagan bo'lsa, senat imperatorlari yirik yer egalari bo'lmish zodogonlar manfaatlarini aks ettirar edi.

Milodiy 180-yillar atrofida uch erkak va uch ayolldan iborat bir kamtarin guruh Karfagen viloyati hokimi oldida sud qilish uchun olib kelindi. Ular xristian diniga e'tiqod qilishga da'vo qilishgan va Rim imperiyasi xudolariga sajda qilishni rad etishgan. Gubernator bundan ta'sirlandi, chunki uning xudosi "muhtaram imperatorimizning ruhini himoya qiladi" deb bilgan<sup>90</sup>.

Milodning II asri oxirlarida Rim imperiyasi taxtini Severlar sulolasi egallaydi (milodning 193-235 yillari). Sulolaning asoschisi Septimiy Sever 193-211 yillarda xokimiyat tepasida turadi. U o'z qo'shinini Fransiya, Reyn va Dunay bo'yi qabilalaridan olingan jangchilar hisobidan qo'paytiradi. Bu viloyatlardagi aslzodalar Rim armiyasi va xokimiyat idoralarida yuqori lavozimlarni egallaydilar. Ular Rim fuqorosi huqqini ham oladilar, qo'shinga tayanib imperator xokimiyatini mustahkamlaydilar. Septimiy va uning o'g'illari davrida senat va senatorlarning obro'-e'tibori tushib ketadi. Mamlakatda ichki ziddiyat nixoyat darajada kuchayadi. Shu qadar bir-biriga zid ijtimoiy kuchlarning barchasiga yoqishga urinish milodning III asrida imperatorlarni ko'pincha halokatli oqibatlarga olib kelgan, ular legioner jangchilar tomonidan o'ldirilgan.

---

<sup>90</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.281.

Sulolaning so‘nggi vakili Aleksandr (222-235 yillar) saltanatning ichki ahvolini yaxshilash uchun bir qator tadbirlar ko‘rgan. U shaharlarga alohida xomiylik qiladi. Soliqlardan tushgan daromadning bir qismini shahar qurulishi va shahar kambag‘allariga nafaqa uchun ajratadi. Moliyaviy ishlarni tuzatish uchun xatto o‘zining shaxsiy xarajatlarini ham kamaytiradi.

Aleksandr Sever toifalar tafavutini tiklaydi va katta yer egalari bo‘limish zodagonlarga nisbatan dushmanlik siyosatidan voz kechish bilangina cheklanmay, balki imperator ixtiyoridagi yerlarning ko‘p qismini ular ixtiyoriga bergan. U armiyani yordamchi qismlar va mahaliy militsiya otryadlari bilan to‘ldirib va jangchilarga chegara viloyatlardan yer bo‘lib bera boshlaydi. Biroq Aleksandrning bu yangi tadbirlari muntazam qo‘shinlardagi legionyerlarning kuchli noroziligiga sabab bo‘ladi, chunki ular iste‘foga ketganlarida yer ololmay qolishlaridan xavotirga tushadilar. Aleksandr Sever bir rivoyatga ko‘ra veteranlar tomonidan o‘ldirilgan deyilsa, boshqa rivoyatga ko‘ra lashkarboshi Maksiminning yangi olingan askari tomonidan o‘ldirilgan.

**Rim saltanatida siyosiy inqirozning keskinlashuvi.** Aleksandr Sever o‘ldirilgandan so‘ng harbiylar frakiyalik Maksiminni imperator deb e‘lon qiladilar. Bu askar imperatorlari deb atalgan imperatorlardan birinchisi edi.

Senat hamda viloyatlardagi yerdor va minitsipiya zodagonlari Maksiminning siyosatiga tashkiliy qarshilik ko‘rsatishadi. Fuqarolar urushi boshlanib, imperator halok bo‘lib, uning boshini Rimga keltirilganida senat minnatdorchilik ibodatini o‘tkazadi. Biroq senat tayinlagan imperator siyosati ham munitsipiyalar doiralarida kuchli norozilik uyg‘otadi.

Xukmron doiralarning bir-biri bilan kurashayotgan guruhlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning kuchayib borishiga milodning III asri 30-yillari o‘rtalaridan boshlangan siyosiy inqiroz sabab bo‘lgan edi. Senat, viloyatlar, va legionlar birining qo‘lidan biri hokimiyatni tortib olib, imperatorlarni almashtiraverishgan. 235 -yildan 284- yilgacha Rim taxtiga 19 imperator va 30 dan ortiq uzurpator kelib ketadi.

Rimdan siyosiy tushkunlik Rim qo‘shinlarining ham kuchsizlanishiga olib keladi.

Imperiya chekkasidagi qo‘shni davlatlar ham Rimni mensimay qo‘yadilar. Sharqda fors qo‘shinlari Mesopotamiya, Suriya va Kichik Osiyodagi shahar va qishloqlarni talon-taroj qiladilar. Milodning III asr o‘rtalarida Armaniston Rim ta’siridan chiqib ketadi. Tez orada Antioxiya ham qo‘ldan ketgan. Sormatlar, alanlar, ilk slavyan qabilalari Qora dengiz sohillariga, Bolqon va Kichik Osiyo viloyatlariga hujum qilib bu yerlarni xarob qiladilar. Shimoliy Afrikada varvar qabilalari Mavritaniya va Numidiyaning bir qismini bosib olishadi. Bu voqealar o‘sha davr kishilariga falokat bo‘lib tuyulgan.

G‘oyat qobiliyatli va bilimdon kishi bo‘lmish imperator Galliennning (milodning 253-268 yillari). Rim davlatini inqirozdan qutqarish yo‘lidagi urinishlari natija bermaydi. III asr o‘rtalarida Rim imperiyasida ajralishi yuz bera boshlaydi. G‘arbda Ispaniya, Galliya va Britaniyani o‘z ichiga olgan Galliya

saltanati tashkil topadi. III asrning ikkinchi yarmiga kelib Sharqda Misr va Pammira davlatlari ajralib chiqadilar. Shu tariqa bir vaqtlar qudratli bo'lgan Rim imperiyasi parchalanib keta boshlaydi.

Imperiya markazidagi tushkunlik, qullar va xalq ommasining ezilishi joylarda katta-katta ommaviy harakatlarning boshlanishiga sabab bo'ladi. III asr o'rtalarida imperiyaning ko'p joylarida qo'zg'olonlar kuchayib ketadi. Mavritaniya va Numidiyadagi qo'zg'olonlar ayniqsa daxshatli tus oladi. Galliyadagi bagauzlar o'z sardorlari Amand va Elian rahbarligida rimliklarga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Ular otliq va piyoda qo'shinlar tuzib, mustahkamlangan shaharlarni ishg'ol qilganlar, zodogonlarning uylariga o't qo'yib, ularni o'ldirganlar va mol-mulklarini talon-taroj qilganlar.

Rimning o'zida ham dehqonlar, hunarmandlar, kolonlar va qullarning qo'zg'olonlari bo'lib o'tgan. Shiddatli janglar natijasida bu qo'zg'olonlar Rim legionlari tomonidan bostirilgan.

**Imperiyani qayta tiklash uchun kurash.** Saltanatdagi og'ir vaziyat, markaziy xokimiyat zaiflashib, siyosiy inqiroz davom etayotgan bir sharoitda bosib kelayotgan kuchli xalq harakati to'liqini oldida ojizlik qilayotgan Rim jamiyati xukmron tabaqalari noiloj imperator xokimiyati bilan murosas qilishga majbur bo'ladilar. O'z navbatida milodning III asr oxirlarida imperiyaning idora qilgan "askarlar" imperatorlaridan Avrelian (milodning 270-275 yillari) va Prob (milodning 276-282 yillari) yer aristokratiyasining moddiy manfaatlari bilan xisoblasha boshlaydilar va mahaliy qabilalardan askar to'plab ularni chegaradagi yerlarga joylashtiradilar. Murosaga kelish natijasida ko'p qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, viloyatlardagi separatizmni sindirishga, xalq harakatini bostirishga va imperiya birligini tiklashga muvaffaq bo'linadi. Avrelian gotlarni Dunay bo'yi viloyatlaridan xaydab yuboradi va Italiyaga bostirib kirishga urinayotgan allemanlarning hujumlari ham muvaffaqiyatli qaytariladi.

Avrelian Rimni dushmanlardan ximoya qilish maqsadida shaharni g'oyat katta qal'a devorlari bilan o'rattiradi. Bu devor hozirgacha qisman saqlangan.

273-yili Avrelian qo'shinlari sharqiy separatistik davlatining markazi Palmirani ishg'ol etib, bu boy shaharni vayron qiladilar. Separatistik Galliya davlatining xukmdori Tetrik bagaudlarning kengayib ketgan harakatidan cho'chib, "osoyishtalikni tiklovchi" (restitutio orbis) degan iftixorli unvon olgan. Avrelianga o'z xohishi bilan itoat etadi.

Avrelian imperiya birligini saqlash maqsadida "Engilmas quyosh" degan yangi umumdavlat dinini joriy qilib, hammaning shu xudoga sig'inishini talab qiladi. Mazkur din marosimlarida qatnashishdan bosh tortgan kishilar fitnachi hisoblanib, o'zgacha fikrlovchilar, shu jumladan xristianlar ham ta'qib va jazoga duchor etiladilar. Shu tufayli Avrelian o'ziga ko'p dushman orttiradi va 275-yili fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Avrelian siyosatini Prob (276-282) davom ettiradi. U Rim imperiyasi chegara sarhadlarini muvaffaqiyatli ravishda himoya qilishni tashkil qiladi. Biroq u qo'shin orasidagi tartibsizlikni yenga olmaydi,

nihoyat armiya saflarida intizom o'rnatishga urinayotganida harbiylar tomonidan o'ldiriladi.

**Diokletian va uning islohotlari.** Rim imperiyasi ichida va tashqarisida Prob halokatidan so'ng o'zaro kurashlar va isyonlar yana avj olib ketadi. Germanlar va boshqa varvarlarning to'dalari mamlakat xududiga yopirilib kelib hujum boshlaydilar (xaritaga qarang). Italiya va viloyatlardagi qo'shinlar, quldorlarning asosiy qismi imperiyani saqlab qolishdan juda ham manfaatdor edilar.

284-yilda jangchilar imperator gvardiyasining qo'mondoni Diokletianni imperatorlik taxtiga o'tqizdilar. U asli aslzodalardan bo'lmay ozod qilingan qulning o'g'li edi. Dastlab oddiy askar sifatida xizmat qilgan. Xizmati yuzasidan o'zini ko'rsatib, imperator soqchilarining boshlig'i qilib tayinlangan. U g'oyat katta Rim imperiyasini yakka o'zi idora qila olmasligini tushunib, o'ziga xokimdoshlar tayinlaydi. Ulardan biri Maksimian Galliyadagi bagaudlar harakatini va Afrikadagi mavritan qabilalarining qo'zg'olonini bostiradi. Diokletian va uning xokimdoshlarini har biri muayyan xududda imperatorlik xokimiyatiga ega bo'lganlar, u yerda ularning har qaysisining o'z qarorgohlari bo'lgan.

Diokletian dabdabali marosimlar rasm qilib, imperator xokimiyatining obro'sini mustahkamlashga harakat qilgan. Imperator bilan salomlashishning alohida tartibi uning alvon libosi etagini o'pib, dominus (uy egasi, xo'jayini) deb murojaat qilish tartibi joriy etilgan. Diokletian o'rnatgan boshqaruvning butun tizimi tarixda "dominat" deb nom olgan. U juda aqlli va ajoyib iste'dod egasi edi. Diokletian davlatni o'zi tayinlagan amaldorlar orqali boshqarib, saltanatda saqlanib kelayotgan respublikaga xos amaldorlik lavozimlarini tugatadi.

Dominatning siyosiy negizini mustabid xokimiyat (monarxiya) va rivojlangan byurokratik idora apparati tashkil qilardi. Imperatorning aytgani hamma uchun qonun hisoblanar, "Sinchkovlar" deb atalgan ko'plab josuslar Italiyada va imperiya viloyatlarida norozi odamlarga ko'z-quloq bo'lib yurardilar. Diokletian o'zini Yupiterning o'g'li deb e'lon qilgan. Ibodatxonalarda uning xaykallari o'rnatilgan. U qo'shinni ko'paytirish va isyonchilarga qarshi kurashish maqsadida varvar qabillaridan yollanma qo'shin tuzgan. Katta armiyani boqish uchun aholidan olinadigan soliqlar oshirilgan. Imperator isyonchi jangchilarni, shafqatsizlik bilan jazolab, qo'shin ichida intizomni birmuncha mustahkamlagan.

Diokletian davrida senat o'z ahamiyatini yo'qotadi, ammo senatorlar aholining eng nufuzli toifasi bo'lib qolaveradilar. U shahar hayotini tiklash va jonlantirish ishiga ham alohida e'tibor beradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining narxi oshib ketishi tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan g'alayonlarni oldini olish maqsadida ijtimoiy ximoya choralari ishlab chiqiladi. 301-yili iste'mol buyumlarining eng yuqori baholari va har xil mehnatga to'lanadigan haqlar to'g'risida edikt chiqarilgan edi.

Imperiyani ichki birligini mustahkamlash maqsadida Diokletian bir necha islohatlar o'tkazadi. U saltanatni 12 diotsezga (o'lka) bo'ladi va diotsezlar esa 114 ta viloyatga bo'linib boshqariladi.

Soliq siyosati ham tartibga keltiriladi. Jon boshi solig'i bilan birga yangi yer solig'i joriy qilinadi, bu soliqning xajmini belgilashda yer, ishchi kuchi va uy xayvonlarining soni xisobga olinar edi.

Diokletianning moliya sohasidagi isloxati narh-navoning oshishini to'xtata olmaydi. Chunki muomalaga chiqarilgan, to'la qimmatga ega bo'lgan pullar muomaladan chiqib ketgan edi.

Aholining ma'naviy birligini mustahkamlash maqsadida Diokletian monixeychilik va xristianlikni ta'qiqlab qo'yadi (303-yil), lekin uning xristianlikni ta'qiqlash yo'lidagi barcha harakatlari bexuda ketadi.

Diokletianning siyosati garchi Rim saltanatining siyosiy tashkilotini mustahkamlashga yordam bersa-da, ijtimoiy-siyosiy inqiroz bilan bog'liq ziddiyatlarni xal qila olmaydi. Xukumatga nisbatan muxolifatning (ayniqsa sharqiy viloyatlarda) kuchayib borganligidan Diokletning 305-yili hokimiyatdan voz kechishga majbur bo'ladi.

**Rim imperiyasining ikkiga bo'linishi.** Diokletian va Maksimian 305-yil 1-mayda hokimiyatdan voz kechdilar. Taxtdan voz kechgan Diokletian Salonaga ko'chib borib, u yerda gul va sabzavot yetishtirish bilan shug'ullandi. U 313-yil 68 yoshida vafot etdi. Konstansiy I Xlor va Galeriy imperator deb e'lon qilindi. Vorislar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib, bu kurashda

Diokletianning yordamchilaridan birining o'g'li Konstantin (280-337yillar) g'olib chiqdi. U raqiblari bilan bir necha yil kurash olib borib, Rim imperiyasining yagona hukmdoriga (306 yildan imperator) aylandi. Konstantin imperiyaning to'rtga bo'linishini saqlab qoldi, lekin boshqaruvni birov bilan baham ko'rish tizimini yo'q qildi. Endilikda imperiya qismlarini unga bo'ysunadigan prefektlar boshqardi.

Konstantin uzoqni ko'ra oladigan aqlli siyosatchi edi. U 200 yildan beri ta'qib etilayotgan nasroniy dinining kuch-qudratini davlat hokimiyatini mustahkamlashdagi muhim o'rnini anglab yetdi. Shu sababli, u 313-yil o'zining Milan edikti bilan nasroniylik dinini boshqa dinlarga tenglashtirdi. Shu lahzadan boshlab xristian cherkovi imperator hokimiyatining ittifoqchisi va himoyachisiga aylandi<sup>91</sup>.

**Tayanch tushunchalar:** Domitsian, senator, M.Koktsey Nerva, imperator, legion, legat, Mark Ul'niy Trayan, Dunay, daklar, Dakiya, Detsebal, Parfiya, Senay yarim oroli, Misr, Suriya, Adriyan, Trayan, Publiy Eliy, Misr, Kirenaika, Yaxudiya, Britaniya, Mavritaniya, Simon, Zevs, Fiva, Tit Avreliy

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Trayanning tashqi siyosati qanday maqsadlarni ko'zlar edi?
2. Adrian davrida mudofaa siyosatiga o'tilishining omillari nimalardan iborat?

---

<sup>91</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton. & COMPANY. New York. London. 2011, p.68.

3. Antonin Piy davri “Oltin davr” deb atalishini nima uchun shartli ravishda qabul qilish mumkin?
4. Qanday siyosat imperator Kommodni halokatga yetaklagan edi?
5. Rim imperiyasida milodning II asri oxiridan boshlangan iqtisodiy tushkunlikning siyosiy, ijtimoiy sabablari nimada?
6. Aleksandr Sever toifalar sohasida qanday siyosat olib boradi?
7. Rim xukmdori Diokletianning dominat tartibining majburiyatini tushuntirib bering.

### **Ma`ruza №44**

#### **Mavzu: Qadimgi Rim hududida german qabilalari bosqini Reja:**

1. Konstantinning imperatorlik taxtiga chiqishi.
2. Xristian dinini xukmron dinga aylanishi.
3. Xristianlarning san'at yodgorliklarining vayron qilishi va fanni ta'qib etishlari.
4. Rim imperiyasining inqirozi

**Konstantinning imperatorlik taxtiga chiqishi.** Diokletian xokimyatdan voz kechgandan so'ng imperator taxtini egallash uchun yana qonli kurashlar boshlanib ketadi. Bu kurashlardan sezorlardan birining o'g'li Konstantin (306-337 y) g'olib chiqadi. U o'zining faoliyatida sharqiy viloyatlardagi asilzodalar va harbiylarga tayanib ish ko'radi. Konstantin xokimyatni bosib olish va qo'lda saqlab qolish uchun xech narsadan qaytmagan, ichgan qasamini ham buzgan, o'ziga ittifoqchi bo'lganlarni kerak bo'lsa xiyonatkorona o'ldirgan. Hatto u “o'g'lim mening taxtimni egallab olmoqchi” deb uni ham o'ldirishni buyurgan.

Bu bir necha nomzodlar hokimiyat uchun o'zaro kuch sinashgan, siyosiy parokandalik bo'lgan bir davrda sodir bo'ldi. Ya'ni milodiy 312-yilda Konstantin armiyasi O'rta yerdengizining yuragida hukmronlik qilish uchun birinchi harbiy harkatlarini Rimda yopiq holda boshladi<sup>92</sup>.

Konstantin qullarga va kolonlarga nisbitan o'ta shafqatsiz bo'lib, u katta yer egalari ishchi kuchi bilan ta'minlash uchun u qullar va kolonlarning ular yeridan qochib ketishlarini taqiqlab qo'yadi, qochib ketgan kolon ushlab olinsa, kishanga solinib xo'jayin ixtiyoriga topshirish tartibini o'rnatadi. Bunda o'z xo'jayinidan qochib ketgan qul tutib olinsa, u qamchi, darra bilan o'lasini qilib kaltaklanar va kishanga solinar edi. Imperator ustaxona, korxona va konlarda ishlovchi ishchi – xizmatchilar tanasiga qullar kabi tamg'a bosishni buyuradi.

Konstantin davrida xalqqa solinadigan soliqlar miqdori oshiriladi. Soliq to'lashdan bosh tortgan yoki uni to'lashga qurbi yotmagan kishilar kaltaklanar, fuqarolarning u shahardan bu shaharga ko'chishi taqiqlangan edi.

**Xristian dinini xukmron dinga aylanishi.** Imperator Konstantin faqat qattiq qo'llik, zulm bilan xalqni itoatda ushlab turish mumkin ekanligini

---

<sup>92</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.289.

tushunardi. U din sohasida isloxat o'tkazib imperiya xududida xristian dinning tarqalishi uchun imkoniyat yaratadi hamda ommani itoatda tutib turish uchun bu dinning yordam berishini yaxshi anglagan edi.

Xristian dini va cherkovi kambag'allar va qullarga katta ruhiy ta'sir ko'rsatgan va ularga "Iso xochga tortilib mixlab tashlanganda azob – uqubatlarga sabr-toqat qilgan va sizga ham sabr-toqat qilishni buyurgan. Buning evaziga siz nargi dunyoda jannatda roxat ko'rasiz. Imperator xokimyatini xudoning o'zi o'rnatgan. Qullar, o'z xo'jayinlaringizga har jihatdan itoat qilingiz", - deb ta'lim berar edi.

Konstantin 313-yili xristianlarning oshkora tarzda to'planishlariga va ibodatxona qurishlariga ijozat beradi. Shu vaqtdan boshlab imperator va boshqa quldorlar xristian cherkoviga sahiylik bilan yer, pul va qimmatbaxo narsalar in'om eta boradilar. Saltanat shahar va qishloqlarida ko'plab ibodatxonalar qurilib, xristian dinining muxlislari tobora orta boradi. Ibodatxonalar tasarrufida juda ko'p boyliklar to'planadi. Imperator Kanstantin xristian dinining xomiysiga aylanadi, cherkov esa uni avliyo deb e'lon qiladi.

**Saltanat poytaxtining ko'chirilishi.** Imperator Kanstantin Bosfor bo'g'ozi sohilida Vizantiyadagi yunonlar koloniyasi o'rnida yangi poytaxt tasis qiladi. Imperator bu shaharni o'z nomi bilan Konstantin shahri – Konstantinapol deb atagan. Bu poytaxt sharqdagi savdo-sotiq bilan bog'liq zamindor zodagonlarning siyosiy va iqtisodiy markazi bo'lib qolgan. Shahar o'n yil davomida quriladi, 330 yili imperiya poytaxti Rimdan Konstantinapolga ko'chiriladi. Bu yerda g'oyat katta inshootlar: imperator saroyi, ko'shklar, kutubxona va katta otchopar (ippodrom) maydoni barpo qilinadi. Konstantinopolni bino qilishdan siyosiy maqsadlar ham ko'zda tutilgan: birinchidan, yangi poytaxt Bosforda strategik jixatdan tayanch punkti bo'lgan, ikkinchidan, uning bino bo'lishi bilan imperiyaning ma'muriy sohadagi islohoti tugallangan, natijada Italiya bilan Rim boshqarish tuzumidagi imtiyozli mavqeni yo'qotgan. Sharq bo'lsa, o'zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy xususiyatlariga ko'ra saltanatning G'arbi bilan teng mavqega ega bo'lgan.

325-yilda Konstantin (280-337-yillar) sharqiy viloyatlar ustidan so'nggi zafarli yurishdan so'ng, Nikeya (hozirgi Turkiya hududidagi Iznik)ga barcha yepiskoplarni chaqirdi. Ularning dini ko'p mazhab chiqargan bo'lsa-da, barcha masihiylar Nikeya Kengashida hali ham o'zaro munosabatda bo'lganlar. Imoni bir aqida bilan ifodalangan (lotinchadan "men ishonaman")<sup>93</sup>.

**Xristianlarning san'at yodgorliklarining vayron qilishi va fanni ta'qib etishlari.** Saltanat xukumdorlarining qo'llab-quvatlashi natijasida xristianlik keng yoyilib kuchga kirib boradi. Shundan boshlab mutaassib xristianlar ibodatxonalarni vayron qilib, undagi qadimgi xudolarning xaykallarini sindirib tashlaydilar. Buzilmay qolgan ibodatxonalarga esa xristian cherkovlari joylashtiriladi. Ana shunday vayronkorlik muhitida juda ko'plab san'at obidolari, ilm fan, madaniyat durdonalari yo'q qilib tashlanadi. Milodning IV asr

---

<sup>93</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.291.

oxirlariga kelib esa Zevsga bag'ishlangan Olimpiya o'yinlarini o'tkazish ta'qiqlab qo'yiladi.

**IV asrda ommaviy harakatlarning avj olishi.** Rim imperiyasining milodiy IV asr tarixi ommaviy harakatlarning o'tgan asrlardagiga nisbatan ko'lamining kengligi va daxshatliligi bilan tavsiflanadi. Rim aslzodalar va harbiy qo'mondonlardan jabru-jafo chekkan kambag'al dehqonlar, kolonlar va qullar junbushga kelib bosh ko'targanlar. Bunday harakatlar faqatgina Rimda yoki Italiyada emas, balki chekka o'lkalarda ham yuz bergan. Milodiy IV asrning 30-40 yillarida Numidiyada, 70-yillarda esa Shimoliy Afrikadagi

Mavritaniyada, g'oyat katta qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olonlar Rim legionlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostiriladi. Ayni vaqtda Galliyada bogouzlar harakati dahshatli ko'lam kasb etib, surunkali tus oladi. Bu harakat III asrda boshlanib, V asrgacha qariyb 200 yil davom etadi. Bu harakat Ispaniyaga ham yoyilgan. Bu harakat Rimning yollanma qo'shinlari yordamida tobora katta qiyinchiliklar bilan bostiriladi.

Nubiya va Efiopiyada o'xshash namuna vujudga kelgan, chunki har bir kishi o'zining shaxsiy senariysini va tilini xristian dini ta'siri ostida ishlab chiqqan. Mesopatamiya, Suriyaning Antiox tomonidan qo'shib olinganligi somiylarning oromiy yozuvi xristian dinining asosiy tiliga aylandi. Xristianlik dini sharqqa Gruziya, Armaniston va Kavkaz tomonga yana kengaydi. Xristian ruhoniylari bu hududlarda hozir ham ishlatiladigan yozuv tilini yaratganlar<sup>94</sup>.

Milodning IV asr ikkinchi yarmidagi Rim saltanatidagi ijtimoiy-ivtisodiy, siyosiy inqirozli jarayonlar Rim, Konstantinopol, Antioxiya, Iskandariya va saltanatning boshqa shaharlarida tez-tez bo'lib turgan g'alayon va qo'zg'olonlarda ifodalandi. IV asrning 60-70 yillarida Rim saltanatining sharqiy viloyatlari – Kichik Osiyo, Bolqon yarim oroli va Konstantinopol shahrida ham ommaviy harakatlar keng avj olib ketadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, harakatlarning bir qismi Rim imperiyasiga qarshi milliy ozodlik urushlari bo'lib, bunday harakatlarda mahalliy yuqori tabaqa vakillari ham faol qatnashganlar. Bu ommaviy harakatlar Rim imperiyasining inqirozidan darak berar edi.

**Imperiyada ahvolning og'irlashuvi.** Rim saltanatida IV asr o'rtalaridan boshlab ahvol tobora yomonlashish asnosida oliy xokimyat uchun kurash kuchayib, poraxo'rlik, davlat mulkini talon-taroj qilish avjiga chiqadi. Rim armiyasida intizomning bo'shashib ketishi tashqaridan bo'ladigan hujumlardan saltanatni himoya qilish ishiga katta zarar etkazadi. Bu davrga kelib eronliklar imperiyasining sharqiy xududlariga bostirib kirib shahar va qishloqlarni talab, xonavayron qilib keta boshlaydilar. Shimoliy Afrikadagi mavrlar, G'arbiy Yevropaning Reyn ortidagi frank va boshqa qabilalar ham imperiyaga hujumlar boshlaganlar. Italiyaning o'zida ham shu vaqtda aholining quyi qatlamlarining noroziligi tobora kuchayib borib, imperiya har tomondan tobora siqib kelayotgan dushmanlar halqasi girdobiga tushib qolayotgan edi.

---

<sup>94</sup> Worlds Together, Worlds Apart. W.W. Norton & COMPANY. New York. London. 2011, p.291.

Saltanatning shimol va shimoli-sharqidagi varvar qabilalari ittifoq bo'lib chegara istehkomlariga tez-tez hujumlar uyushtira bordilar. Imperatorlar esa varvarlarning tajovuzlaridan xalos bo'lish maqsadida ularga ko'p miqdorda oltin va qimmatbaxo buyumlar berishar yoki katta pul evaziga boshqa jangovor qabilalar jangchilarini yollab o'z chegara xududlarini mudofaa qilishga majbur bo'lar edilar. Tobora ortib borayotgan bu mablag'larni imperiya mehnat ahli zimmasiga yuklashlari, imperiyadagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni og'irlashtirib borayotgan edi.

**Gotlarning Rim saltanatiga bostirib kirishlari.** Milodiy IV asr ikkinchi yarmida Kaspiy bo'yi dashtlarida ko'chib yurgan xunn qabilalari Volga daryosini kechib o'tib, Evropaga bostirib kiradilar. Xunnlarning bu xududga bostirib kirmaslaridan 100 yilcha muqaddam gotlar nomi bilan mashxur bo'lgan german qabilalari Skandinaviyadan Qora dengizning shimolidagi yerlarga kelib joylashgan edilar. Xunlar g'arbga shiddat bilan siljib borar ekanlar, gotlarning ostgotlar deb atalgan sharqiy qismini o'zlariga bo'ysundiradilar. Gotlarning vestgotlar deb atalgan g'arbiy qismi xunlarning shiddatli zarbalariga bardosh bera olmay, Dunay daryosi bo'ylariga chekinishga majbur bo'lib, Rim imperatori Valitdan xavfsizroq Meziya va Frakiyaga o'tib joylashishga ruxsat so'raydilar. O'ng minglab gotlar bola-chaqalari bilan qayiqlar va sollarda Dunay daryosining o'ng sohiliga kechib o'ta boshlaydilar. Ulkan daryodan kechuv vaqtida juda ko'p kishilar daryoga g'arq bo'lib ketadilar. Gotlar daryodan o'tib Meziya va Frakiya bo'ylab joylashadilar. Imperator odamlari gotlarni oziq-ovqat bilan ta'minlashni o'z zimmasiga oladilar. Lekin ular o'z va'dalarini bajarmaganlari bois, gotlar orasida ocharchiliklar boshlanib ketadi. Rim amaldorlari bundan foydalanib, gotlarga oziq-ovqat mahsulotlarini yuqori bahoda sotadilar, yoki ularni qimmatbaxo buyumlar, qullarga va xatto bolalarga ayirbosh qilganlar. Gotlar tarixchisi Iordanning aytishicha istalgan bir qulni bitta nonga yoki o'n paysa miqdordagi mol go'shtiga sotishgan, so'ngra gotlar o'zlarini bir qultum bemaza vinoga, bir burda nonga qul qilib sotishga majbur bo'lganlar. Gotlarning qahr g'azabi qo'zg'olonga aylanib ketdi: Fritegern bilan Alaviva qo'zg'olonga boshchilik qildilar. Qo'zg'olonchilarga gotlarning qul qilib sotilgan qabiladoshlari, mahalliy kolonlar, kon ishchilari darhol qo'shiladilar. Ular notanish joylarda qo'zg'olonchilarga yo'l boshlab, bekitilgan g'alla o'ralarini, boylarning maxfiy joylarini ko'rsatib, o'zlarini tutib beradilar.

Goh u tomon, goh bu tomon g'alabasi bilan nihoyalangan bir necha jangdan so'ng imperator Valit Rim armiyasining eng yaxshi qismlariga bosh bo'lib, qo'zg'olonchilarga qarshi o'tlanadi. 378-yili Adrianopol yonida jang bo'lib, bu yerda Rim qo'shinlari tor-mor qilinadi, 35 nafar tribun-siyosatchi xamda Valitning o'zi ham halok bo'ladi. Fritegern var-var qabilalaridan katta birlashma tuzib, ittifoqqa xun va alan qabilalarini ham jalb qilgan edi. Uning armiyasi butun Bolqon yarim orolini ishg'ol qilib Konstantinopolga yaqinlashib qoladi. Shu vaqtda german qabilalari bo'lgan allemanlar Galliyaga bostirib kiradilar. Imperator deb e'lon qilingan lashkarboshi Feodosiy gotlar bilan sulh tuzishga

majbur bo'лади. Gotlar rimliklar qo'shinida hizmat qilish majburiyatini oladilar. Gotlarning Imperiyada joylashishi saltanat uchun ham xavfli edi. IV asr oxirida boshqa varvar qabilalari ham Rim chegaralariga yaqinlashib, ularga taxdid sola boshlaganlar. Katta boylik berish evaziga rimliklar ular bilan shartnoma tuzib, ulardan yollanma qo'shin sifatda foydalanganlar. Ko'p o'tmay imperator saroyi va qo'shinidagi nufuzli o'rinlarni varvar zodagonlari va harbiylari egallab ola boshlaydilar.

**Imperiyaning bo'linib ketishi. Gotlarning Italiyaga bostirib kirishlari.** Rim saltanatining varvarlashuvi viloyatlardagi separatçilik harakatlarini yanada kuchaytirdi, xukmron doiralar ichida ziddiyatlarni chuqurlashtirdi va imperiyani bo'linib ketishiga zamin tayyorlaydi.

Imperator Feodosiy I (379-335) ko'p kuch sarf etib, saltanatning g'arbiy qismida o'z xokimyatini arang tiklab oladi. Uning o'limidan so'ng imperiya poytaxti Konstantinopol shahri bo'lgan sharqiy qismga va avval poytaxti Mediolan, so'ng esa Ravenna bo'lgan g'arbiy qismga uzil-kesil ajralib ketadi. Feodosiy I ning o'g'illari – Ganoriy g'arbda, Arkadiy sharqda imperator edilar. Saltanatni bo'linib ketishi uni yanada zaiflashtirib yuboradi. Shu munosabat bilan G'arbiy saltanatning ko'p joylarida qo'zg'olonlar boshlanib ketadi. Imperiyaning har ikkala qismida ham varvar aslzodalari va harbiylarining ta'siri kuchayib boradi.

Saltanatning zaifligidan foydalangan gotlar Italiyaga uch marrrta hujum qiladilar. Ularning Italiyaga birinchi hujumi 402 yilda bo'lgan edi. Ammo vandal sarkardasi Stilixon boshchiligidagi Rim qo'shinlari gotlarning hujumini qaytarganlar. Tez orada Stilixon armiyasining ancha qismi unga qarshi bosh ko'tarishi natijasida o'g'li bilan birga (408-yili) qatl qilinadi.

Stilixon o'ldirilgandan keyin varvarlarga qarshi partiya kuchayib ketib Alarix bilan tuzilgan sulh bitimini bekor qildiradi. Shundan keyin vestgotlar yana Italiyaga bostirib kirib, 408 yili Rimni qamal qiladilar. Rim qamali vaqtida Alarixning talabi bilan vestgotlarga 40 ming qul ozod qilib beriladi, shu bilan birga katta tovon to'laydi.

Ammo 410 yili Alarix o'z qo'shinlari bilan yana Rimga yaqinlashib keladi. Afsonaga ko'ra qullar Rim darvozasini ochib qo'yib, vestgotlarni shaharga kirgizganlar. Varvarlar va ularga qo'shilgan qullar uch kun davomida shaharni talaganlar, so'ng Italiya janubiga yo'l olganlar. Ular o'rta va janubiy Italiya shaharlarini talab xonavayron etganlar. Alarix Bruttiyada to'satdan o'lib qoladi. Vestgotlar Alarixning jasadini juda ko'p xazina bilan daryo o'zaniga ko'madilar, o'zlari voris Ataul'f boshchiligidagi Rimga qaytib kelib, uni yana shipshiydon qilib talab ketadilar. Ular Rimdan janubiy Galliya va Ispaniyaga yo'l oladilar. Rim hukumati Ataul'fning yurishiga to'sqinlik qilmaydi va uning Galliya bilan Ispaniyani bosib olishiga tan beradi. Vestgotlar 418 yili Ispaniyada Vestgot qirolligini tashkil qildilar.

Italiyaga vestgotlar bostirib kirib Rimni tor-mor qilgandan so'ng amalda g'arbiy imperiyaning umri tugagan edi. G'arbiy Rim imperiyasi tasarrufidagi o'lkalar birin-ketin uning ta'siridan chiqib keta boshlaydilar.

**Xunlar va vandallar istilosi. G'arbiy Rim imperiyasining barham topishi.** Bu vaqtda Sharq tomondan yana bir yangi xavf vujudga kelgan edi. Attila birlashtirgan xunlar va boshqa qabilalarning bosqinchi qo'shinlari "Qor bo'roni" kabi Yevropaga yog'ilib kiradilar, bu qo'shinlar o'zlarining qaxri qattiqligi va vaxshiyliklari bilan qit'a aholisini daxshatga soldilar. Sharqiy imperiya xukmdori Attilaga ko'p miqdorda oltin berib, xunlar hujumidan saqlanib qoladi. Shundan so'ng xunlar Galliya tuprog'igacha bostirib kiradilar. G'arbiy imperiyaning iste'dodli sarkardasi, varvarlarning urush olib borish usullaridan yaxshi xabardor bo'lgan patriksiy Aetsiy Attilaga qarshi o'zining siyosatchilik mahoratini ishga solib imperiyaning azaliy dushmanlari bo'lgan vestgotlar, franklar, sarmatlar, burgundlar, saklar, alanlar va boshqa qabilalarni ham xunlarga qarshi ittifoqqa jalb qiladi. 451-yili hozirgi Frantsiyaning Luara daryosi shimolidagi markaziy rayonda joylashgan

Katalaun maydonida ittifoqchilar bilan xunlar o'rtasida katta jang bo'ladi.

Xunlar maydonni tashlab, o'z lagerlariga chekinishadi. Lekin xunlarga qarshi ittifoq shundan keyin ko'pga bormay tarqalib ketadi.

Attila qo'shinlari 452-yili Italiyaga bostirib kirib, uning shimoliy shaharlarini talab, Dunay daryosining orqasidagi viloyatlarga qaytib ketadilar. 458-yili Attila o'lgandan so'ng unga tobe qabilalar qo'zg'olon ko'taradilar va shu tariqa xunlar ittifoqining umri bitadi.

429-yilda Ispaniyani egallagan vandallar va alanlar Gibraltar bo'g'ozini orqali shimoliy Afrikaga ko'chib o'tgan edilar. Ular 439 yili poytaxt Karfagen bo'lgan Alan-Vandal podsholigini tuzadilar.

Rim imperator saroyida partiyalar kurashi davom etayotgan bir paytda 455-yili Rimni vandallar juda qattiq taladilar. Varvarlarning Rimga qilgan bu bosqinchiligi ko'p vaqtlargacha xalq xotirasida saqlangan.

Rim o'z tarixida bu qadar vayronaga aylanmagan edi. Vandallarning Rimni vayron qilishi oqibatida vujudga kelgan "vandalizm" so'zi insoniyat yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni buzib yo'q qilish ma'nosini bildiradi.

476-yili german qabilalarining Rimdagi yollangan qo'shini sarkardasi

Odoakr G'arbiy Rim saltanatining so'ngi imperatori 15 yoshli Romul

Avgustulni taxtdan ag'darib tashlaydi. Germanlar o'z lashkarboshilari Odoakrni imperator deb e'lon qiladilar. Ular imperator unvoni nishonini sharqiy saltanat poytaxti Konstantinopolga jo'natib yuboradilar. Shu bilan

G'arbiy Rim imperiyasining loaqal soyasini saqlab qolish yo'lidagi urinishlarga ham barham beriladi. Ilgari unga tobe bo'lgan o'lkalar, viloyatlarda mustaqil podsholiklar va davlatlar qaror topadi. G'arbiy Rim imperiyasi ichidagi o'tkir qarama – qarshiliklar, varvar qabilalarining to'xtovsiz vayronalik keltiruvchi hujumlari imperiyani halokatga olib kelgan edi. G'arbiy Rim saltanatining halokati bilan insoniyat tarixidagi qadimgi davr o'z poyoniga etadi.

**Tayanch tushunchalar:** Diokletian, Konstantin, Xristian dini, Iso, Germanlar, Gotlar, Feodosiy, Kostantinopol, Varvarlar, Vandalizm, Xunlar, Ganoriy, Arkadiy, Romul Avgustul, Odoakr, Attila, Stilixon, Pontiy Pilat, Ioniylar, Italiya, Ispaniya, Vizantiya.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Rim imperatorlik taxtiga Konstantinning kelishi bilan qanday o'zgarishlar yuz berdi?
2. Xristian dinini xukmron dinga aylantirilishining sabablari nimada edi?
3. Imperiya poytaxti nima uchun Rimdan Konstantinopolga ko'chiriladi?
4. IV asrda imperiyaning turli xududlarida ommaviy harakatlarni bo'lishi sabablari haqida fikr yuriting.
5. Gotlarning sharqiy Rim saltanati xududiga bostirib kirishlarining sabablari nimalardan iborat edi?
6. Nima sababdan Rim imperiyasi ikkiga bo'lindi?
7. Rim imperiyasiga gotlar, xunlar va vandallarning istilosi qanday oqibatlariga olib kelgan edi?

## GLOSSARIY

| GLOSSARIY        |                           |                       |                                                                                                                                                                                                                    |
|------------------|---------------------------|-----------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Инглиз           | Рус                       | Ўзбек                 | Изони                                                                                                                                                                                                              |
| Paleolit         | Палеолит                  | Paleolit              | “qadimgi tosh” ma'nosini anglatadi. Fanga Paleolit, Mezolit, Bronza tushunchalarini fanga daniyalik olim K.Yu. Tomson kiritgan.                                                                                    |
| Antrops          | Процесс антропоза         | Antropogenez jarayoni | bu odamning shakllanish jarayoni hisoblanib, ilk paleolit davridan boshlanib, so'ngi paleolit davrigacha bo'lgan jarayon tushuniladi. Patriarxat davri – qarindoshlik ota tomonidan belgilanadigan davr (er. av. 3 |
| Despoticstate    | Деспотическое государство | Despotikdavlat        | Qadimgi Sharq jamiyatidavujud gake lgandavlatlardespotikya'ni mustabid xarakterga egabo'lgan.                                                                                                                      |
| Ancient Oriental | Древний восток            | Qadimgi Sharq         | eng qadimgi davlatlar aynan shu mintaqada shakllanib rivojlangan.                                                                                                                                                  |
| Nesiy            | Несий                     | Nesiy                 | Kichik Osiyo xudularida er. av. 2 ming yillikda yashagan qadimiy xalqlardan birining nomi.                                                                                                                         |
| King             | Фараон                    | Fir'avn               | ulug' xonadaon egasi ma'nosini anglatadi. Unga xudoni o'g'li deb qarashgan.                                                                                                                                        |
| Pyramide         | Пирамида                  | Piramida              | Qadimgi Misrda bunyod etilgan ehromlar shunday atalgan. Eng mashhurlari Xufu, Xafra, Menkaura hisoblanadi.                                                                                                         |
| Scribe school    | Школа                     | Mirzolar maktabi      | qadimgi Misrda ilk tashkil topgan maktablar shunday atalgan                                                                                                                                                        |
| Mesopotamia      | Месопотамия               | Mesopotamiya          | bu ibora ilk bor qadimgi yunon manbalarida Mesopatmiya ya'ni ikki daryo oralig'i (Frot va Dajla) ma'nosida ishlatilgan.                                                                                            |

|                   |                  |               |                                                  |
|-------------------|------------------|---------------|--------------------------------------------------|
| the first library | Первая библиотек | Ilk kutubxona | Ossuriya xukmdori Ashurbanipal (er.av.669-630 y) |
|-------------------|------------------|---------------|--------------------------------------------------|

|                       |             |                 |                                                                                                                                                   |
|-----------------------|-------------|-----------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                       | а           |                 | davrida ilk kutubxonaga asos solingan. Ushbu kutubxona XIX asrda topilgan va u yerdan 30 mingta sopol kitoblar topilgan.                          |
| Hammurapi             | Хаммурапи   | Xamurappi       | er.av. 1792-1750 yillarda Bobilni boshqargan hukumdor. Uning davrida 247 moddadan iborat ilk yozma qonunlar Mesopotamiya hudularida paydo bo'ldi. |
| Babylon               | Вавилон     | Bobil           | xudolar darvozasi ma'nosini anglatgan. Chunki shaxarga kiradigan darvozalar aynan xudolar nomi bilan nomlangan edi                                |
| The people of the sea | Народы моря | Dengiz xalqlari | Old va Kichik Osiyo hududlariga er. av. 13-12 asrlarda bostirib kirgan xalqlarni misr manbalarida shunday atalgan.                                |
| Xanigalabat           | Хангилабат  | Xanigalabat     | akkad tilida Mitanni ma'nosini anglatadi.                                                                                                         |
| Tushpa                | Тушпа       | Tushpa          | Urartu davlatining poytaxti. Menua (810-786y.) davrida Mamlakat poytaxti                                                                          |
| Menu channel          | Канал       | Menua kanali    | suv inshooti xisoblanib, mamlakatda dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida bunyod etilgan.                                                       |
| Teyshebai             | Тейшебаи    | Teyshebaini     | Qadimgi Urartu tarixidan ma'lumot beruvchi, hozirgacha saqlanib qolgan noyob qal'a yodgorligidir.                                                 |
| Palestine             | Палестина   | Falastin        | so'zi mahalliy aholi "filistim"lar nomidan kelib chiqqan.                                                                                         |

|                           |                            |                          |                                                                        |
|---------------------------|----------------------------|--------------------------|------------------------------------------------------------------------|
| Shafi's                   | Шафии                      | Shofetlar                | qadimgi falastinda sudyalalar shunday atalgan.                         |
| Souza, Ekbatana, Pasargad | Сузаы, Экбатаны, Пасаргады | Suza, Ekbatana, Pasargad | Qadimgi Eron xududida mavjud bo'lgan davlatlarning poytaxt shaharlari. |
| Medo                      | Мидиуа                     | Midiya                   | Eronning shimoli-g'arbida                                              |

|                |                  |              |                                                                                                                                                                                                       |
|----------------|------------------|--------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                |                  |              | joylashgan qadimgi davlat.                                                                                                                                                                            |
| Gold Darien    | Золотой Дарий    | Oltin darik  | Doro I davrida joriy etilgan 8 grammlik oltin tanga shunday atalib, asosiy pul vazifasini o'tagan.                                                                                                    |
| Kalliy peace   | Контакт Каллий   | Kalliy sulhi | Eron va Yunoniston o'rtasidagi er. av. 492-449 yillarda bo'lib o'tgan urushning tugallanishi bilan er. av. 449 yil imzolangan sulh shartnomasi.                                                       |
| Punjab         | Пенджаб          | Panjob       | Xindistonning eng qadimgi dehqonchilik vodiylaridan biri bo'lib, forschadan tarjimasi besh irmog' degan ma'noni bildiradi.                                                                            |
| Drava language | Дравитски й язык | Dravit tili  | Hindiston aholisi gaplashgan eng qadimiy tillardan biri                                                                                                                                               |
| Veda           | Веды             | Veda         | Qadimgi Hindistonni er. av. ikkinchi ming yillikka oid muqaddas diniy kitobi. Bu muqaddas kitob Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atxarvaveda deb ataladigan to'rtta katta to'plam (samxita)dan iborat. |
| Maxabharata    | Махабхарата      | Maxabharata  | Bu qadimgi Hindiston tarixiga tegishli doston hisoblanib, bunda Bxarata avlodlarining kurashi haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan, uning avtori afsonaviy donishmand va shoir Vyasa hisoblanadi      |

|                    |                  |                |                                                                                                                                                                                               |
|--------------------|------------------|----------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ar'iyabxattax<br>a | Арьябхатт<br>аха | Ar'iyabxattaxa | V asrda yashagan mashhur olim. Matematika, astronomiya fanlari bo'yicha harakatning nisbiyligi asosida yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va uning quyosh atrofida aylanishini faraz qiladi. |
| Western countries  | Западный край    | G'arbiy o'lka  | U-Di (er.av. 139 yil ) davrida O'rta Osiyo "G'arbiy o'lka" deb yuritilgan.                                                                                                                    |
| Chjun              | Чжун             | Chjun          | konfutsiylik ta'limotida "sadoqat" deb nomlangan.                                                                                                                                             |

|                |                  |                   |                                                                                                   |
|----------------|------------------|-------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Syuo           | Суё              | Syuo              | kattalarga xurmat                                                                                 |
| Li             | Ли               | Li                | kishilar o'rtasidagi munosabatlarga rioya qilish.                                                 |
| Di             | Ди               | Di                | oliy xudo.                                                                                        |
| Rock drum      | Каменный барабан | Tosh do'mbiralari | do'mbira shaklidagi toshga yozilgan asarlar.                                                      |
| Buddhist Sutra | Сутры будды      | Budda sutralari   | matn yoki qoidalar.                                                                               |
| Palestra       | Палестра         | Palestlar         | sport inshooti, yosh bolalar muntazam sport bilan shug'ullanadigan joy.                           |
| gymnast        | Гимнасий         | Gimnasiya         | sport inshooti, bu yerda asosan kattalar sport va fan bilan shug'ullanganlar.                     |
| Minor culture  | Культура Минай   | Minoy madaniyati  | Kritning afsonaviy podshosi Minoy nomi bilan atalgan.                                             |
| Fratriya       | Фратрия          | Fratriya          | katta tashkilot, bu yerda muhim umummasalalar echilgan.                                           |
| Kikla          | Киклад           | Kiklada           | ya'ni, aylana. Yunonlar ularni orollar majmuasi deyishgan                                         |
| Agora          | Агора            | Agora             | odamlar eng ko'p to'planadigan va eng gavjum joy, bu yerda savdo-sotiq ishlari amalga oshirilgan. |
| Demos          | Демос            | Demos             | xalq xokimiyati demakdir.                                                                         |

|                             |                                       |                               |                                                                        |
|-----------------------------|---------------------------------------|-------------------------------|------------------------------------------------------------------------|
| Athenian democracy, slavery | Афинская рабовладельческая демократия | Afina quldorlik demokratiyasi | quldorlarning qullar ustidan xukmronligini ta'minlaydigan idora usuli. |
| Fet's                       | Феты                                  | Fetlar                        | Afinaning kambag'al fuqarolari.                                        |
| Strategist                  | Стратег                               | Strateg                       | davlatni boshqaradigan yuqori mansabdor.                               |
| Ergasteriyalar              | Эргастры                              | Ergasteriyalar                | hunarmandchilik ustaxonalari va ishxonalari.                           |
| Evpatriklar                 | Евпатриды                             | Evpatriklar                   | ya'ni, nasl-nasabi olijanob bo'lgan aristokratlar.                     |
| Geomorlar                   | Геомары                               | Geomorlar                     | yer uchastkalariga egalik qiluvchi dehqonlar.                          |
| Demi seeds                  | Стадо                                 | Demi urug'lar                 | xalq uchun ishlovchi                                                   |

|                      |          |                      |                                                                                                                                                      |
|----------------------|----------|----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                      | демы     |                      | xunarmandlar.                                                                                                                                        |
| Sinoykism            | Синой    | Sinoykism            | birlashuv.                                                                                                                                           |
| Polemarxlik position | Полемарх | Polemarxlik lavozimi | askarboshilik.                                                                                                                                       |
| Arxond               | Архонд   | Arxond               | ya'ni boshliq yoki el og'asi.                                                                                                                        |
| Athens               | Афины    | Afina                | qadimgi davrdagi eng go'zal shahar, bu shahar oliy xudo Zevsning qizi Afina sharafiga qurilgan. U hozir ham zamonaviy Gretsiya poytaxti hisoblanadi. |
| Areopag              | Ареопаг  | Areopag              | sudlar kengashi shunday atalgan                                                                                                                      |
| Gerus                | Герусийа | Gerusiya             | podsholar yoshi 60 yoshdan yuqori bo'lgan, yigirma sakkiz aslzoda keksadan tuzilgan kengash.                                                         |
| Hita                 | Хитон    | Xiton                | yepik matnlariga ko'ra, erkaklar qisqa ko'ylak.                                                                                                      |

|                   |                        |                       |                                                                                                                                                                                                                                                      |
|-------------------|------------------------|-----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Crypto            | Криптийа               | Kriptiya              | bosib olingan qaram viloyatlarning ilotlarga aylantirilgan aholisining qo`zg`olonlaridan xavfsiragan spartaliklar har yili ilotlarga dahshat solish va ularning ongida bo`ysunish hissini tug`dirish uchun ularni tunda o`ldirishni e`lon qilganlar. |
| Athens Sea Union  | Афинский морской союз  | Afina dengiz ittifoqi | Tarixda ikki shunday nomdagi ittifoqlar mavjud bo`lgan, birinchisi er. av. 478-yili, ikkinchisi esa er. av. 378-yili tashkil topgan                                                                                                                  |
| Peloponnesus war  | Битва при Пелопоннесе  | Peloponnes urushi     | qadimgi dunyo tarixida eng uzoq davom etgan Afina ittifoqi va Sparta ittifoqi o`rtasidagi (er. av. 431-404-yillarda) urush hisoblanadi. Urush 27 yil davom etib, Spartaning g`alabasi bilan tugagan                                                  |
| Spartak education | Спартакское воспитание | Spartacha tarbiya     | Qadimgi Spartada yigitlar yoshligidan harbiy tayyorgalikka majbur etilgan.                                                                                                                                                                           |

|                     |                  |                 |                                                                                                                                     |
|---------------------|------------------|-----------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                     | e                |                 | Ularni tayyorgarligini sinovdan o`tkazish ayovsiz kaltaklash bilan amalga oshirilgan, shundan spartacha tarbiya kelib chiqqan.      |
| Aristobul           | Аристобул        | Aristobul       | Aristotelning jiyani, u doimo Iskandarning harbiy yurishlarida ishtirok etib, voqealarni yozib borgan tarixchi                      |
| Congress in Corinth | Конгресс Коринфа | Korinf kongresi | er. av. 337 yil Filip II tashabbusi bilan chaqirilgan, bu bevosita Yunon dunyosida Makedoniyani hukmronligini e'tirof etilishi edi. |

|                  |                                   |                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|------------------|-----------------------------------|------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Elin             | Эллин                             | Ellin                  | tushunchasi tarix fanida birinchi marta XIX asrning birinchi yarmida nemis olimi I. Droyzen tomonidan kiritildi.<br>Droyzen bu tushunchani makedoniyalik Iskandarning bosqinchilik yurishlaridan keyingi katta tarixiy davrga nisbatan qo'lladi va uning mazmunini madaniy soha bilan chekladi |
| Seleucid state   | Государст<br>ва<br>Селевкидо<br>в | Salavkiylar<br>davlati | er.avv. 312- 64 yillarda hukmronlik qilgan ellinistik davlat.                                                                                                                                                                                                                                  |
| Republic of Rome | Римская<br>Республик<br>а         | Rim<br>Respublikasi    | er avv. 509 yilda Jaxon tarixida birinchi Respublika (tarjimasi omma ishi) boshqaruv shakli Rimda paydo bo'ldi. Hozir dunyoda 150 yaqin davlat aynan Respublika boshqaruvi shaklida boshqariladi.                                                                                              |
| Numismatics      | Нумизима<br>тика                  | Numizmati<br>ka        | tangalar to'g'risidagi fan bo'lib, qadimgi Rim tarixini o'rganishda ahamiyati juda kattadir.                                                                                                                                                                                                   |
| Pompey           | Помпеи                            | Pompey                 | milodiy I asrda zilzila                                                                                                                                                                                                                                                                        |

|              |          |              |                                                                                                                                              |
|--------------|----------|--------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|              |          |              | oqibatida ko'milib ketgan shahar, keyinchalik u erni arxeologik tadqiq etish, rim tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar olish imkoniyatini berdi. |
| Consul       | Консул   | Konsul       | Respublika davrida Rimdagi oliy siyosiy lavozim. Har yili saylangan ikki nafar konsul Senat va armiyaga rahbarlik qilgan.                    |
| Legion       | Легион   | Legion       | Rim armiyasida eng yirik jangovar birlik.                                                                                                    |
| Patritsiylar | Патриции | Patritsiylar | senatorlarning avlodlari.                                                                                                                    |

|                        |                   |                      |                                                                                                                           |
|------------------------|-------------------|----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| plebeians              | Плебеи            | Plebeylar            | oddiy xalq, shaharliklar, kambag'allar.                                                                                   |
| Republic               | Республика        | Respublika           | «umumiy ish» ma'nosini, Senat<br>– «Oqsoqollar kengashi» ma'nosini anglatadi.                                             |
| Kvirit                 | Квирит            | Kvirit               | qadimgi Rimda to'la huquqli fuqarolarning rasmiy nomi                                                                     |
| The regime of republic | Режим республик и | Respublika tuzumi    | er avv. 509- 30 yillarda Rimda amal qilgan siyosiy boshqaruv shakli                                                       |
| dictator               | Диктатор          | Diktator             | mudofaa zaruriyati paytlari tayinlagan rahbar.uni 24 ta soqchi qo'riqlab yurgan.                                          |
| consul                 | Консул            | Konsul               | Rim Respublikasini 2 ta konsul boshqargan. Uni 12 ta soqchi qo'riqlagan.                                                  |
| Carthagen              | Карфаген          | Karfagen             | er. av. 814- yil Finikiyaliklar asos solgan kaloniya. Rimliklar uni Puni deb atashgan.                                    |
| Ganibal                | Ганибал           | Ganibal              | Rimga qarshi kurashgan Karfagaen sarkardasi,bir nechta g'alabaga erishgan, er. av. 183 yili Vifiniyada zaxar ichib o'lgan |
| Gasdrubal              | Гасдрубал         | Gasdrubal            | Gannibal sarkarkardalaridan biri                                                                                          |
| Polis                  | Полис             | Shahardavlat (polis) | tevaragidagi hududlarni tasarrufiga olgan o'zini-o'zi                                                                     |

|  |  |  |                                                                                                                                      |
|--|--|--|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|  |  |  | boshqaruvchi shahar; qadimgi Yunoniston va Rimdagi kichik mustaqil davlat; polisda hokimiyat teng huquqli fuqarolar qo'lida bo'lgan. |
|--|--|--|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

|                      |                    |                       |                                                                                                                                                                                                                                  |
|----------------------|--------------------|-----------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Dinasty              | Династия           | Dinastiya<br>(sulola) | birin-ketin hukmronlik qiluvchi<br>podsholar urug'i; sulola<br>vakillari ko'pincha bitta nom<br>bilan aytilgan                                                                                                                   |
| The ziggurat         | Зиккураты          | Zikkurat              | tepasida ibodatxonasi bo'lgan<br>zinapoyali minora                                                                                                                                                                               |
| Empire               | Империя            | Imperiya              | hukmdorning cheklanmagan<br>hokimiyati joriy etilgan davlat                                                                                                                                                                      |
| in Italy             | Италийцы           | Italiylar             | Apennin yarimorolida<br>itsiqomat qilgan qadimiy<br>qabilalar                                                                                                                                                                    |
| Capitol hill         | капитолий          | Kapitoliy<br>tepaligi | Rimdagi eng baland tepalik                                                                                                                                                                                                       |
| Octavian<br>Augustus | Октавиан<br>август | Oktavian Avgust       | Rim imperiyasi asoschisi er. av.<br>14 – eramizning 30 yilida<br>hukmronlik qilgan. Unga<br>berilgan Avgust laqabi<br>muqaddas avgurlar nomidan<br>olingan. Hozirgi avgust oyi<br>nomi ham shundan olingan.                      |
| The principle<br>of  | Принципи<br>ат     | Printsipat            | Printseps so'zi «birinchi kishi»<br>demakdir. U mamlakatni<br>viloyatlarga bo'lib, u erlarga<br>o'ziga sodiq bo'lgan<br>kishilardan noiblar tayinlagan.<br>U senatni saqlagan holda davlat<br>ishlarini o'z qo'lida tutib turgan |
| Julius Caesar        | Юлий<br>Цезарь     | Yuliy Sezar           | er avv. I asr oxirida Brut<br>boshchiligidagi fitnachilar<br>tomonidan o'ldirilgan                                                                                                                                               |
| The prison           | Колония            | Koloniya              | o'z yurtini tark etgan odamlar<br>o'z mamlakatidan tashqarida,<br>yangi yerlarda asos solgan<br>manzilgoh.                                                                                                                       |
| Terms                | Термы              | Termlar               | qadimi Rim shahridagi jamoat<br>hammomlari                                                                                                                                                                                       |
| Legion               | Легион             | Legion                | -(lot) qadimgi Rim<br>armiyasidagi asosiy tashkiliy                                                                                                                                                                              |

|  |  |  |                           |
|--|--|--|---------------------------|
|  |  |  | birlik (4,5-10ming kishi) |
|--|--|--|---------------------------|

|                     |                     |                |                                                                                                                                                        |
|---------------------|---------------------|----------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| aristocracy         | Аристокра<br>ты     | Aristokratiya  | (yun) 1.Davlat idora usuli.<br>2.Quldorlik va feodal jamiyatda<br>imtiyozli tabaqa.                                                                    |
| Naumaxiya           | Намуахийа           | Naumaxiya      | dengiz urushi mashqi.                                                                                                                                  |
| plebe               | Плебеи              | Plebs          | (lot.) qadimgi Rimda dastlab<br>urug' jamoasiga kirmagan,<br>jamo'a yeridan foydalanish<br>huquqiga ega bo'lmagan ozod<br>aholi tarkibi                |
| kogoro              | Когорта             | Kogorta        | kamida 450 nafardan kam<br>odam bo'lmagan qo'shin                                                                                                      |
| Komitsiya           | Комитсиуа           | Komitsiya      | xalq majlisi                                                                                                                                           |
| Sukulyar            | Секулуарл<br>ар     | Sukulyar       | yuz yillik o'yinlar.                                                                                                                                   |
| Fisk                | Фиск                | Fisk           | imperiya g'aznasi                                                                                                                                      |
| Eraren              | Эрарий              | Erariy         | shaharning eski g'aznasi.                                                                                                                              |
| Villa               | Вилла               | Villa          | o'rta va yirik quldor xo'jaliklari                                                                                                                     |
| Pekuliy             | Пекулий             | Pekuliy        | Quldor tomonidan ajratilgan<br>bunday mulk deb atalgan                                                                                                 |
| Diotsez             | Диотез              | Diotsez        | o'lka, xudud shunday atalgan                                                                                                                           |
| The Bahamas         | Багауды             | Bagaud         | Galliyada qo'zg'olon ko'targan<br>dehqonlar, kalonlar va qullar<br>harakati                                                                            |
| Edict               | Эдикт               | Edikt          | imperator farmonlari                                                                                                                                   |
| Kuriyallar          | Куриуа              | Kuriyallar     | shahar aholisi.                                                                                                                                        |
| Great pontiff       | Великий<br>Понтифик | Ulug' pontifik | oliy kohin                                                                                                                                             |
| military<br>tribune | Военный<br>трибун   | Harbiy tribun  | katta qo'mondon                                                                                                                                        |
| Donativa            | Донатив             | Donativa       | xizmatdan bo'shagan<br>jangchilarga beriladigan<br>maxsus tortiq, in'om.                                                                               |
| Veteran             | Ветеран             | Veteran        | (lot) Qadimgi Rimda armiya<br>xizmatini o'tab bo'lgan soldat.<br>Ularga yer berilgan yoki pul<br>mukofoti, shuningdek Rim<br>fuqarosi huquqi berilgan. |

|                         |                    |                      |                                                                                                 |
|-------------------------|--------------------|----------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Curator                 | Куратор            | Kurator              | Rimda viloyat boshqaruvi ustidan umumiy nazorat uchun imperator tomonidan tayinlangan mansabdor |
| Dominat                 | Доминат            | Dominat              | Deokletian boshqaruvi tartiblari                                                                |
|                         |                    |                      | dominat deb atalgan.                                                                            |
| Amlok                   | Амлак              | Amlok                | o'rta sharq mamlakatlarida biror shaxs yoki davlatga qarashli mulk.                             |
| A municipality          | Муниципалитет      | Munitsipalitet       | (tssm) o'z-o'zini boshqaradigan va saylab qo'yiladigan maxalliy separatistik harakat.           |
| The separatist movement | Движения сепаратов | Separatistik harakat | (lot) davlat tartibidan ajralib chiqish.                                                        |
| Prokonsul               | проконсул          | Prokonsul            | rimda viloyat noiblari                                                                          |